

JON RONALD RUEL TOLKIN



UZUKLAR  
HUKMDORI

**JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI**

***JON RONALD RUEL TOLKIN***

**UZUKLAR HUKMDORI**

*(sarguzasht-fantastik roman-epopeya)*

*Birinchi solnoma*

**UZUKLAR BIRODARLIGI**

*(ruschadan Dolimov Shokir tarjimasini)*



***“Ilm-ziyo-zakovat”***

**Toshkent – 2019**

UDK: 821.350.137

KBK: 84(4Bbr)

T-64

**Djon Ronald Ruel Tolkin.** «Uzuklar birodarligi» /«Uzuklar hukmdori» roman-epopeyasining birinchi solnomasi/ /«Jahon adabiyotining javohirlari turkumi» –

T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. – 592 b.

Nashrga tayyorlovchi, izoh va iqtiboslarni kirituvchi:

**Ergashbay MATYOQUBOV.**

### **HURMATLI KITOBXONLAR!**

*Britaniyalik adib Jon Ronald Ruel Tolkin (1892-1973) qalamiga mansub «Hobbit yoxud borib qaytish» romanini uzviy davomi bo‘lgan «Uzuklar hukmdori» roman-epopeyasini ona tilimizga tarjima qilishdan maqsad, sehr-jodu yoki afsungarlikni targ‘ib qilish emas, aksincha yoshlarning yaxshilikka, adolatga, haqiqatga, mehr-muhabbatga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlash, kindik qoni to‘kilgan yurt – VATANga bo‘lgan muhabbatini yanada yuksaltirishdir.*

Agar ushbu asarni boshidan oxirigacha o‘qisangiz, unda ona yurt mustaqilligi uchun kurash, uni bosqinchilardan ozod qilsih qancha mushkul va murakkab vazifa ekanligini anglaysiz.

Asar ustida ishlar ekanman, jonajon o‘zbek tilimizning cheksiz boyligidan samarali foydalanish, kitobxonning go‘zal tilimizga bo‘lgan hurmati va muhabbatini qo‘llab-quvvatlashga urindim.

Asarni o‘qigan yosh kitobxon murakkab hayotning ko‘plab jihatlari, yaxshi-yomonliklari, oq-u qorasi, yovuzlik bilan ezgulik o‘rtasidagi mangu kurashdan oz bo‘lsa-da voqif bo‘lishi, qiziqarli ma‘lumotlar bilan tanishib, bilimini oshishiga shubha yo‘q.

Marhamat, o‘qing va zavqlaning!

Tarjimon – *podpolkovnik Dolimov Shokir Zokirovich*

UDK: 821.350.137

KBK: 84(4Bbr)

ISBN: 978-9943-6033-0-1

© J.R.R.Tolkin.

© “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019-yil.

## SO‘ZBOSHI

Hech kimga sir emaski, kitob mutolaasi barchaning, shu jumladan, yoshlarning qalbiga ezgulikka, yaxshilikka xizmat qilish tuyg‘usini singdiradi. Shuningdek, kitob mutolaasi orqali yoshlarimizning ongi rivojlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, kitoblar, ayniqsa badiiy kitoblar yoshlarimizni «XXI asrning dahshatli quroli – ma’naviy manqurtlik»dan himoyalash vazifasini ham to‘laqonli bajaradi. Shuning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodni kitoblar bilan ta’minlash har qanday davlat va jamiyatning asosiy burch va vazifasidir.

Kitoblarning davlatimizning asosiy kuchi hisoblangan yoshlar hayotida qanchalik muhim o‘rin tutganini yurtimiz prezidenti **Shavkat Mirziyoyevning** 2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorida ham bevosita ko‘rishimiz mumkin. Ushbu farmoyishda yurtimiz adiblarining kitoblarini chop etish bilan birga jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish vazifalari alohida ko‘rsatilgan va bunday kitoblarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlangan.

Shularga tayangan holda ingliz adibi **Jon Ronald Ruel Tolkin** tomonidan yozilgan «**The Hobbit, or There and Back Again**» («**Hobbit yoxud borib qaytish**») romanining uzviy davomi bo‘lgan «**The Fellowship of the Ring**» roman-epopeyasining rus tilidagi tarjimasi asosida (rus tiliga **Vladimir Sergeyeovich Muravyov, Andrey Andreyevich Kistyakovskiy** «**Властелин колец**» nomi ostida tarjima qilishgan) podpolkovnik **Dolimov Shokir Zokirovich** tomonidan ona tilimizga «**Uzuklar hukmdori**» nomi ostida tarjima qilingan.

Shuni bilingki, badiiy asarni tarjima qilish (ayniqsa, turkiy tillarga mansub bo‘lmagan tildan tarjima qilish) shu asarni qaytadan yozish bilan teng qiyinchilikka ega. Shu tildagi iboralarlarni so‘zlarni, jummalarni yoki maqol-matallarni maromiga yetkazib tarjima qilish juda mushkul ish hisoblanadi. Chunki



**bunda tarjimondan bevosita eng kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilish, shuningdek, o'sha til egalari – xalqning turmush-tarzi, etnografiyasini, madaniyatini va tarixini mukammal bilish talab etiladi.** Shuning uchun **Shokir Dolimov** ham doimo xalqimizning, ayniqsa, o'quvchi yoshlarimizning tahsin-u tashakkuriga sazovor bo'lgan.

Siz ushbu asarni o'qish orqali adolatning, haqiqatning, VATAN ozodligi uchun kurashning, vatanparvarlikning, insoniylikning, jaholat ustidan qilgan g'alabasiga guvoh bo'lasiz.

Shuningdek, asarda shunday aforizmlar borki, ular nafaqat adib yashagan davrga, balki hozirgi davr uchun ham muhim ahamiyatga ega. Quyida shundan ayrimlarini keltiramiz:

...Nihoyat u vijdon ta'qibidan himoya o'ylab topgan va ushbu yolg'onini «o'z malohati» bilan gaplashayotganda ham, zulmatda o'ljasining suyagini g'ajiyotganda ham takror va takror talaffuz etib, oxiri o'zi ham ishonib yuborgan... (97-bet)

\*\*\*

Uning yolg'oniga bardoshim yetguncha chidadim, lekin menga haqiqat kerak bo'lgani bois qattiqqo'llik ko'rsatishga majbur bo'ldim. (97-bet)

\*\*\*

Minglab yillar ushbu daraxtlar vujudini takabburlik, oqillik va g'azabga to'ldirgan. Ammo ularning birortasi kekxa qayrag'och singari xavfli emas. Uning yuragi allaqachon chirib tushgan bo'lsa-da, yoshlik davridagi kuch-qudrati batamom saqlanib qolgan. (201-bet)

\*\*\*

«Unday qilinsa, buyum o'zining oqligini yo'qotadi. Nima bo'lishini bilmog maqsadida butun buyumni buzgan kishi esa oqillik so'qmog'ini tark etgan bo'ladi» (371-bet)

\*\*\*

Ezgu yoki yovuz maqsadda bo'lmasin, dushman san'atini o'rganish borasida haddan ortiq chuqurlashish xavfli ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. (380-bet)

\*\*\*

...Yolg'on zamirida haqiqat yashiringan holatlar ham tez-tez uchrab turadi. (383-bet)

\*\*\*

Oqillik – qolgan barcha yo'llar fikr tarozisidan o'tkazilgan bo'lib, tanlangan yo'lning, haqiqatan ham, zarur yo'l ekanligini e'tirof etishdan iboratdir, garchi soxta umidni pax-paxlayotganlarga ushbu oqillik aqldan ozishday ko'rinsa-da. Aqldan ozish egnimizga kiyilgan himoya plashi, dushman ko'zi oldida tortilgan parda bo'lsin, mayliga. Zero, yov ham oqil bo'lib, o'z yovuzligi ila mavjud yo'llarni fikr tarozisidan o'tkazadi. (387-bet)

\*\*\*

Kuch ham, oqillik ham bizni bu yo'ldan uzoqqa olib ketmaydi. Bu yo'lni bir xil umid-la kuchli ham, kuchsiz ham bosib o'tishi mumkin. Dunyo tuzilishini o'zgartirayotganlarning harakat yo'li ko'p hollarda aynan mana shunday kechadi: buyuklar nigohi mutlaqo boshqa tomon qaratilgan bir vaqtda, jajji qo'l o'zi uddalay biladigan ishlarni amalda bajaradi. (388-bet)

\*\*\*

– Ezgulik xavfi kutadi bizni. Bunday xavfdan faqat yovuzlikkina yoki yovuzlikni niyat qilganlarga qo'rqishi mumkin... (485-bet)

\*\*\*

– Dunyoning chindan ham xavf-xatarga to'lib-toshgan, yovuzlik makon topgan joylari ko'p, ammo unda go'zal joylar ham bor. Garchi endi muhabbat ko'p joylarda musibat-la uyg'unlashib ketgan bo'lsa-da, dunyo batamom yovuzlashib ketmagan. Oramizda ko'lanka barham topib, yana tinchlik qaror topishi haqida kuylaydiganlar ham ko'p. (499-bet)

\*\*\*

... Ushbu zaminda yovuzlikdan asar yo'q, agar uning saltanatiga qadam bosgan kishi o'z qalbida yovuzlikni ko'tarib kelmagan bo'lsa, albatta. Unday kishiga esa nihoyatda ehtiyot bo'lishni maslahat beraman! (514-bet)

\*\*\*

- Men ham Frodoga hamroh bo‘laman. – dedi Legolas.  
– Bunday murakkab vaziyatda uni tashlab ketish vijdondan emas.  
– To‘g‘ri aytasan, xoinlikdan o‘zga narsa bo‘lmaydi bu,  
agar uni yolg‘iz qo‘ysak, – ma‘qul topdi Aragorn. (579-bet)

*Yuqoridagi jumalardan ko‘rinib turibdiki, asarda ta‘riflangan voqealar (garchi ko‘proq xayolot mahsuloti bo‘lsa-da) tom ma‘noda ezgulik va yovuzlik orasidagi ramziy kurashlardan iborat ekanligini va bu kurashlarda mehr-muhabbatning, adolatning, ezgulikning, haqiqatning doimo g‘olib chiqishini tasvirlagan.*

*Yana shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, bu asar rus tilidan, shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilinmadi. Balki asarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash jarayonida imkoni boricha asarga sharqona, ya‘ni milliy mentalitetimizga xos xususiyat berishga harakat qilindi. Shuningdek, asarda uchraydigan har xil afsonaviy va tarixiy obrazlar, ilmiy va badiiy atamalar, marosim nomlari bildiruvchi so‘zlar va shu kabi izohtalab so‘z va jumalarga alohida iqtibos va izohlar keltirildi (**ushbu iqtibos va izohlarning aksariyati asarning ingliz tilidagi nashrida ham va rus tilidagi tarjimasida ham yo‘q**). Bu esa o‘z navbatda kitobxonning so‘z boyligining oshishiga va dunyoqarashining o‘shishiga xizmat qiladi. Qolaversa, kitobxon badiiy asarni o‘qish barobarida ona tilimizning imlo qoidalarini o‘rganishi va o‘zida ko‘nikma hosil qilib borishini ko‘zda tutgan holda asarning mazkur nashri hozirgi o‘zbek adabiy tilining imlo qoidalariga moslangan holda berildi.*

*Badiiy kitoblarning mutolaasi sizlarning orangizdan ham butun dunyoga tanilgan **Jon Ronald Ruel Tolkin** kabi mashhur adib bo‘lishingizga yordam beradi degan niyatdamiz!*

**Zero, yaxshi niyat – yarim davlat!**

**Nashrga tayyorlovchi – «GOLD STAR EDUCATION»**

**NTM direktori**

**MATYOQUBOV E. R.**


## MUALLIF MUQADDIMASI

Xalq ogʻzaki hikoyalari asosida vujudga kelgan mazkur ertak qadimgi oʻtmishga oid hikoyalarni ham oʻz ichiga mujassam etgan holda Ulugʻ Uruk Urushi tarixiga aylandi. Uning tahririni tayyorlash ishiga «Hobbit»ni yozib, 1937-yili ilk bor chop etishga muvaffaq boʻlganimdan soʻng kirishdim. Biroq men bu ishni davom etishga shoshilmadim, chunki birinchi navbatda mazkur ertak mavzusiga doir qadimgi mifologiya va bizgacha yetib kelgan afsonalarni yigʻib, muayyan tartibga tizib olishim kerak edi. Bunga esa bir necha yil ketdi. Oʻylangan ishni oʻzim uchun qilib, unga boshqa birov qiziqish bildirishiga umid qilmadim. Zero men bajarayotgan ish asosan tilshunoslik sohasiga taalluqli boʻlib, elf<sup>1</sup> tiliga doir chala-ehulpa maʼlumotlarni tartibga solish zarurati bor edi.

Meni qoʻllab-quvvatlab, oʻz maslahatlarini ayamagan odamlar «zigʻirday umid» iborasini «hech qanday umid» iborasiga almashtirib berishgach, ishni pakana hobbitlar va ularning sarguzashtlariga doir koʻproq maʼlumot berishni talab qilgan:

---

<sup>1</sup>Elf — qadimgi Skandinaviya afsonalarida: arvoʻh, pari kabi afsonaviy maxluq. Elflar (*niemisch: elf alb* soʻzidan oq maʼnosini anglatadi) german-skandinaviya va kelt folklorida (xalq ogʻzaki ijodida) tilga olingan sehrgar xalq. Alvlar nomi bilan ham maʼlum. Elfilar tavsifi turli afsonalarda har xil keltirilgan boʻlishiga qaramay, insonga doʻstona munosabat bildiradigan, nihoyatda goʻzal maxluqlar, oʻrmon ruhlari sifatida gavdalantirilgan.





kitobxonlarning daldasi bilangina davom etishga kirishdim. Ammo borgan sari o'tmishga chuqurlashib borayotgan hikoyamning oxiri ko'rinmadi. Bunday jarayon «Hobbit»da bayon etilgan hodisalardan ancha oldin, unda tilga olingan Elrond, Gondolin, ilk elflar, orklar<sup>1</sup>, Dyurin, Moriya, Gendalf, Nekromant, Uzuk kabilar vujudga kelgan zamonlardan buyon boshlangan edi. Bularning mazmun-mohiyati, qadimiy tarixda tutgan o'rni asta ochib borilar ekan, Uchinchi davr va uning Ulug' Uzuk Urushidagi qizg'in pallasi ham ochib berildi.

Hobbitlar haqida ko'proq ma'lumot so'ragan kitobxonlar bora-bora tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishdi-yu, ancha uzoq kutishlariga to'g'ri keldi. «Uzuklar hukmdori»ni yozishga 1939-yili kirishgan bo'lsam, 1949-yilga kelibgina yakuniga yetkazishga muvaffaq bo'ldim. Chunki zimmamda inkor etib bo'lmaydigan ko'plab boshqa majburiyatlar ham bo'lgan, tirikchilik uchun olib borgan o'qituvchilik va lektorlik<sup>2</sup> faoliyatim ham ko'p vaqt talab qilgan. Boz ustiga, 1939-yili boshlangan urush asar yozish muddatini yanada cho'zib yubordi. Urush oxiriga kelib birinchi kitobni yakuniga yetkazgan edim. Urush davrining qiyin kechgan besh yiliga qaramay, ushbu ishdan batamom voz kecha olmasligimni angladim va Balinning Moriyadagi qabriga yetguncha asosan kechalari ijod qildim. Shu yerga kelganda to'xtalib qolib, ishni qariyb bir yil o'tgach davom etdim va 1941-yil oxiriga kelib Loriyen bilan Azim daryogacha borib yetdim. Keyingi yilga kelib bugun asarning uchinchi kitobi sanaladigan qismning dastlabki boblari hamda beshinchi kitobning birinchi va beshinchi boblarini xomaki yozib chiqdim. Shu yerga kelganda men yana to'xtab qoldim. Iloj qancha, taqdirni oldindan ko'ra bilishning iloji bo'lmaganday, asar ustida o'ylanib o'tirgani ham vaqt yo'q edi.

1944-yili hal qilish yoki hal qilishga urinib ko'rishni o'z majburiyatim deb bilgan urush bilan bog'liq murakkab

<sup>1</sup> Ork – G'arbiy Yevropa afsona va ertaklarida tasirlangan yovuz, qonsiz maxluqlar.

<sup>2</sup> Lektor (*lotincha*: lector – o'quvchi) – ma'ruza (leksiya) o'quvchi shaxs.

muammolarni boshdan kechirib bo'lgach, Frodoning Mordorga safarini bayon etishga kirishdim. Asta-sekin to'rtinchi kitobni tashkil eta boshlagan ushbu boblarni men ingliz harbiy-havo kuchlari orqali Janubiy Amerikada yashayotgan o'g'lim Kristoferga oz-ozdan jo'natib bordim. Shunga qaramay ertakni oxiriga yetkazish uchun yana besh yil kerak bo'ldi. Bu vaqt ichida o'z uyim va ishimni almashtirishga ulgurdim. U kunlar g'amginlik bobida boshqa kunlardan hech qolishmasa-da, zo'r g'ayrat talab qildi. Shundan so'ng, butun ertakni boshidan o'qib, matnini qayta ishlash, mashinkada yozish va qayta terib chiqish kerak edi. Professional mashinistka yollashga mablag'im bo'lmagani bois bu ishlarni o'zim bajardim.

«Uzuklar hukmdori» o'n yil muqaddam ilk bor chop etilganidan so'ng, uni ko'pchilik o'qib chiqdi. Shu yerga kelganda kitobxonlarning ushbu ertak va uning qahramonlari yuzasidan bildirgan mulohaza va takliflariga bo'lgan munosabatimni bildirib, asar yozishga muallifni undagan sabablarda biroz to'xtalib o'tmoqchiman. Mazkur asarni yozishga undagan asosiy sabab ertakchining kitobxon e'tiborini uzoq saqlab, unga quvonch va zavq bag'ishlash, ayrim joylari kuchli ta'sir qila biladigan uzundan uzoq asar yozib, o'z kuchini sinab ko'rish bo'ldi. Shaxsan menga o'z his-tuyg'ularim yo'l boshlovchilik qildi, garchi ko'pchilikka bunday yo'l boshlovchi pand bergan bo'lsa-da. Ayrim kitobxonlar asarni zerikarli, bema'ni, e'tiborga arzimmas deb topdi. Ular bilan bahslashmayman, chunki ularni qiziqtiradigan kitob yoki kitoblarga nisbatan men ham shunday fikrdaman. Biroq asarimni yoqtirgan kitobxonlarning nuqtai nazaridan qaraganda ham ertakda kamchilik va nuqsonlar oz emas. Aftidan, uzundan uzoq ertakda hammani baravar qanoatlantirib bo'lmaydigan ko'rinadi. Kuzatishimcha, ayrim boblar yoki lavhalarni kitobxonlarning bir guruhi bo'sh deb topgan bo'lsa, boshqa bir guruhiga juda yoqibdi. Asosiy tanqidchi asar muallifining o'zi bo'lib, ertak tahriridagi katta-kichik nuqsonlarni aniq ko'ra biladi, lekin u kitobni qayta ko'rib chiqish yoki boshqatdan yozishga majbur emasligi bois, ushbu nuqsonlar borasida indamay, ayrim kitob-

xonlarning mazkur ertak juda qisqa chiqqani borasida bildirgan fikrini ta'kidlab o'taveradi.

Kitob zamiridagi ichki, qandaydir yashirin tag ma'noga kelsak, asar muallifi unday ma'noni umuman ko'rmaydi. Ertak majoziy ham, muayyan davrga taalluqli ham emas. Ertak mazmunan yiriklashib borgan sari o'tmishga ildiz otib, kutilmagan darajada shoxlab bordi, lekin uning asosiy mazmuni Uzuk bilan «Hobbit» o'rtasida aloqa bo'lganday, Uzukning muqarrar tanloviga asoslandi. Asarning eng muhim bobi – «O'tmish ko'lan-kasi» – ertakning birinchi bo'lib yozilgan boblari jumlasiga kiradi. Ushbu bob 1939-yil ommaviy qirg'in haqida xabar berishidan ancha ilgari yozilgan bo'lib, asardagi kelgusi jarayonlarning asosiy yo'nalishi, go'yo ushbu qirg'inning oldi olinganday rivoj topadi. Mazkur ertak manbasi ongimda chuqur joylashgan bo'lib, 1939-yili boshlangan urush va uning oqibatlariga hech qanday daxli yo'q.


O'tgan Ikkinchi jahon urushi ertakdagi urushga na jarayoni va na oqibatlari ila mos keladi. Agar urush mazkur ertakning yozilishiga turtki bergan bo'lsa, undagi jarayonlarni yo'naltirgan bo'lsa, hech shubha yo'q-ki, Uzuk Sauronga qarshi qo'llanilgan, yo'q qilinmay, bo'ysundirilgan, Barad-Dur esa vayron qilinmay, bosib olingan bo'lar edi. Boz ustiga, Uzukni qo'lga kiritma-gan Saruman Mordorda Uzukka taalluqli yetishmayotgan ma'lumotlarni topgan, Ulug' Uzukni o'ziniki qilib olgan va O'rta yerning qallob hukmdorini taxtdan ag'dargan bo'lar edi. Unday kurashda ikkala tomon ham hobbitlardan nafratlanib, ushbu pakana xalq hatto qul sifatida ham uzoq yashamagan bo'lar edi.

Ertakning majoziy, muayyan davrga taalluqli bo'lishini yoqitradiganlar nuqtai nazaridan ham ko'plab o'zgarishlar kiritilgan bo'lishi mumkin edi. Lekin men esimni tanibmanki, har qanday shaklda namoyon bo'ladigan majozni juda yomon ko'raman. Men kitobxonning tafakkuri va tajribasiga monand jihati bilan birgalikdagi chin yoki yolg'ondakam tarixni afzal ko'raman. Nazarimda, ko'pchilik «monandlik» va «majoziy» degan tushunchalarni aralashtirib yuboradi. Ta'kidlab o'tmoq joizki,

birinchi tushuncha kitobxonning erkiga daxl qilmaydi, ikkinchi tushuncha esa asar muallifini kitobxon ustidan hukmdor qiladi.

Muallif, tabiiyki, o'z tajribasi bilan batamom daxlsiz qola olmaydi, lekin ushbu tajriba asosidan asarning eng boshida foydalanadigan yo'llar juda murakkab bo'lib, ushbu jarayonni tushunishga urinishlar nari borsa jumboq sifatida shakllanadi. Asar muallifi va tanqidchilar chindan ham urushning kuchli ta'sirini boshdan o'tkazishlari mumkin. Biroq yillar o'tib, 1914-yili boshlangan urushda boshdan kechgan ruhiy larzalar 1939-yili boshlangan urushdagi larzalardan kam bo'lmagani ko'p hollarda unutib qo'yiladi. Urush yakunlangan 1918-yilga kelib bir nafargina do'stim omon qoldi, qolgan barchasi halok bo'ldi. Yoki boshqa, yanada achinarli holatni olaylik. Ayrimlar asar oxiridagi «Shirni tozalash» bobini Angliyada qaror topgan vaziyatga o'xshatishdi. Bu mutlaqo noto'g'ri taxmin. Ushbu vaziyat asar yozishda ko'zda tutilgan umumiy rejaning muhim ahamiyatga ega qismi sanaladi, garchi hodisalar, kitobni yozish jarayonida, Sarumanning tabiatiga mos tarzda biroz o'zgargan bo'lsa-da. Lekin bunda hech qanday majoziy ma'no yoki mazmunan siyosiy hodisalarga yaqinlik yo'q. Vaziyatning bu tarzda tavsifi tajribaga asoslanadi, albatta, lekin negizi ancha bo'sh (iqtisodiy vaziyat mutlaqo boshqa). Bolaligim o'tgan joy yoshim o'nga yetganda juda qashshoqlashib ketdi. Avtomobillar yakkam-dukkam uchraydigan bo'lganda men birorta avtomobil ko'rmanman, odamlar esa shahar atrofiga temir yo'l yotqizishgan. Yaqinda hovuz bo'yidagi rosa puturdan ketgan tegirmonni ko'rdim. Bir zamonlar o'sha tegirmon mening ko'zimga nihoyata bahaybat inshootday ko'ringan edi. Tegirmonchi yigitning tashqi qiyofasi menga yoqmagani, uning eski tegirmonchi otasi esa qora soqol qo'ygan bo'lib, uni malla kishi deb bo'lmas edi.

«Uzuklar hukmdori» yangi tahrirda chiqadigan bo'lgach, kitobni qayta ko'rib chiqish uchun imkon paydo bo'ldi. Kitob tahriridagi birmuncha xatolar va nomuvofiq joylarni tuzatdim, ayrim chuqur fikrli kitobxonlar e'tibor qilgan ma'lumotlarni bir necha bandlarga bo'lib havola etdim. Kitobxonlarning barcha



tanbeh va takliflarini oldindan yig'ib yurganman. Agar ayrim taklif va mulohazalari e'tiborsiz qolgan bo'lsa, ularni haligacha tartibga sola olmayotganim sabablidir. Qolaversa, ularning ayrim talablarini asarning birinchi nashriga kirmagan materiallardan iborat yangi boblar kiritish bilangina qondirish mumkin, xolos. Hozircha mazkur nashr tahriri kitobxonning e'tiboriga muallif muqaddimasi, asar xotimasi hamda ism va joy ko'rsatkichlarini havola etmoqda.

## MUQADDIMA

### HOBBITLAR HAQIDA

Mazkur asarda gap asosan hobbitlar to'g'risida borib, uning sahifalarida kitobxon hobbitlarning tabiati haqida ko'p narsalarni bilib olishi mumkin, lekin pakana xalq tarixi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'la olmaydi. Tarixiy ma'lumotlar «Hobbit» nomi ila chop etilgan «G'arbiy sarhadlarning Alvon kitobi» asaridan olingan ko'chirmalarda topiladi. Qo'lingizdagi mazkur asar Katta dunyoda nom chiqargan birinchi hobbit bo'lmish Bilboning qalamiga mansub, muallifning o'zi «Borib qaytish» deya nomlagan «Alvon kitob»ning dastlabki boblariga asoslangan. Chunki ko'pchilikka ma'lumki, «Hobbit yoxud Borib qaytish» asarida Bilboning sharq o'lkalariga safari va u yerlardan yurtiga qaytishi hikoya qilingan. O'sha sarguzasht keyinchalik hobbitlarni mazkur asarda bayon etilgan zamon hodisalariga jalb etgan.

Aksariyat kitobxonlar asar boshidan pakana xalq haqida ko'proq bilishni istaydi, ayrimlar esa «Hobbit yoxud Borib qaytish» asarini o'qimagan bo'lishi ham mumkin. Bunday kitobxonlar uchun ushbu muqaddimada «Hobbitlar haqida qissa»dan

olingan asosiy ma'lumotlar keltirilib, birinchi sarguzasht qisqacha hikoya qilib beriladi.

Hobbitlar – son jihatdan hozirgidan ko'ra ilgari ko'p bo'lgan juda qadimiy, kamtarin xalq. Ular tinch, xotirjam hayot kechirishni va vijdonan parvarish qilingan ekin dalalarini yoqtirishadi. Qishloqning obdan ishlov berilgan batartib ekin maydoni – ular xush ko'radigan joydir. Hobbitlar temirchilik bosqoni, suv tegirmoni yoki dastaki to'quv dastgohidan murakkab mashina turlarini tushunishmaydi, umuman aytganda, unday narsalarni yoqtirishmaydi, garchi asbob-uskuna qo'llash borasida ularga bas kelish qiyin bo'lsa-da. Uzoq o'tmishda hobbitlar bizday oddiy odamlarni, ya'ni ularning ta'biri ila aytilganda «novcha xalq»ni shunchaki chetlab o'tishgan bo'lsa, bugungi zamonda bizni ko'rsa, seskanib bekinishadi va shu bois ular kamnamo bo'lib qolishgan. Hobbitlarning ko'zi o'tkir bo'lib, eshitish qobiliyati yaxshi rivojlangan. Garchi semirishga moyil bo'lib, zarurat bo'lmaganda shoshmay yurishsa-da, aslida juda chaqqon, chapdast bo'lishadi. Ittifoqo biror-bir bema'ni, valdirvasar kishi duch kelib qolguday bo'lsa, ortiqcha shovqin solmay, tez bekina olishadi. Bekinish qobiliyatini ular shu qadar rivojlantirishganki, siz-u, bizday oddiy odamlarga bu sehrgarlik amaliday tuyulishi mumkin. Aslida esa hobbitlar sehr-jodu bilan hech qachon shug'ullanishmagan. Ularning tutqich bermaslik qobiliyati esa ajdodlardan meros olinib, amalda rivojlantirilgan bekinish san'ati va tabiatga bo'lgan cheksiz muhabbat hosilasi hamda tabiat tomonidan javoban berilgan, novcha va beso'naqay elatlar o'ziga tasavvur ham qila olmaydigan in'omdir.

Hobbitlarning bo'yi gnomlarning bo'yidan past bo'ladi. Biroq ularni mitti xalq deb ham bo'lmaydi, ammo baquvvatlikda gnomlarga teng kela olishmaydi. Bizning o'lchovimizga ko'ra hobbitlarning bo'yi ikki futdan<sup>1</sup> to'rt futgacha yetadi. Bugungi kunda kamdan kam hobbitning bo'yi uch futdan oshadi. Ushbu xalq ma'lumotlariga qaraganda, hobbitlar borgan sari pakanala-

---

<sup>1</sup> Fut – 12 dyuymga yoki 30, 479 santimetrغا teng ingliz uzunlik o'lchovi.

shib bormoqda, lekin o'tmishda o'rta bo'yi hobbit sal novcharoq bo'lgan ekan. «Alvon kitob»da keltirilgan ma'lumotlarga muvofiq, Izengrim Ikkinchining Buqana'ra laqabli o'g'li Bandobras Tukning bo'yi to'rt fut-u, besh dyumga<sup>1</sup> yetgan bo'lib, poni<sup>2</sup> emas, novcha xalq minadigan katta ot minib yurgan. Qadimda yashab o'tgan ikki mashhur hobbit ushbu xalq rivoyatlariga ko'ra undan oshib o'tgan ekan va bu haqda mazkur asarda gap boradi.

Shir o'lkasida yashab, mazkur asarda hikoya qilinadigan hobbitlarga kelsak, tinchlik va farovonlik hukm suradigan bo'lsa, ular juda quvnoq xalq sanaladi. Yarqiroq kiyinib, sariq va yashil ranglarni afzal ko'rishadi. Hobbitlar poyafzal kiymaydi desa ham bo'lavcradi, chunki oyoq kaftlarining terisi qalin, juda qattiq bo'lib, issiq saqlaydigan qo'ng'ir rangli quyuq yung bilan qoplangan. Binobarin, kosiblik kasbi ushbu xalq orasida keng tarqalmagan. Ularning sochi ham shunday, faqat qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib o'sadi. Hobbitlarning uzun qoramtir barmoqlari juda abjir bo'lib, ko'plab foydali va chiroyli buyumlar yasay bilishadi. Chehrasi hamisha ochiq, yuzlari keng, lunjlari qizil, ko'zlari yorqin, kulgisi so'niq, ayniqsa, tushlikdan so'ng yo'g'on yangraydi, jo'n mazmunli hazil-mutoyibani yoqtirishadi. Yegulik mo'l bo'lsa, kuniga olti marta ovqatlanishga moyil bo'lishadi. Juda mehmondo'st xalq bo'lib, ziyofat uyushtirishni, sovg'a-salomni oldi-berdi qilishni xush ko'rishadi.

Begonalashib ketganimizga qaramay, hobbitlar bizga qarindosh bo'ladi: ular bizga elflar yoki gnomlarga nisbatan ancha yaqin. Tilimiz qadimdan bir xil bo'lgan, biz nimani yoqtirsak, hobbitlar ham shuni yoqtirishadi. Lekin o'zaro munosabatlarimiz aniq belgilanmagan. Hobbitlarning kelib chiqishi bugungi kunda unut bo'lib ketgan uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'tmish rivoyatlarini faqat elflargina saqlashadi, biroq ularning

---

<sup>1</sup> **Dyum** – 25,4 millimetr yoki 2,54 santimetrga teng bo'lgan uzunlik o'lchovi birligi.

<sup>2</sup> **Poni** (*inglizcha*: pony) – Britaniya (shu jumladan, Sheddend, Gebriid, Irlandiya va boshqa orollarda), Islandiya, Korsika, Sitsiliya, Xokkaydo (Yaponiya)da yetishtirilgan pakana otlar. 20 dan ortiq turi mavjud. Bo'yi 40-125 santimetr. Ko'pchilik mamlakatlarda, asosan, hayvonot bog'larida saqlanadi.



rivoyatlari asosan elflarga bag'ishlangan bo'lib, oddiy odamlar kamdan kam hollarda tilga olinadi, hobbitlar haqida esa umuman gap bormaydi. Shu narsa ma'lumki, hobbitlar O'rtayerda, ularning bu dunyoda mavjudligidan xabar topgunimizcha uzoq vaqt yashashgan. Dunyo g'alati mavjudotlarga to'lib-toshgan bir paytda mayda elat sanalgan hobbitlar ko'zga tashlanmagan. Biroq Bilbo va uning merosxo'ri Frodoning davriga kelib hobbitlar kutilmaganda, o'z xohish-istaklariga qarshi nufuzli va mashhur xalqqa aylanib, Oqillar va buyuklar kengashini bezovta qila boshlashgan.

O'rtayerning Uchinchi davri sanaladigan zamon o'tib ketganiga ko'p bo'lib, hududlar shaklan o'zgargan. Biroq keyinchalik hobbitlar egallagan hudud – eski dunyoning dengiz sharqidagi shimoliy-g'arbiy tomoni ilgari qolgan. Bilbo davrida yashagan hobbitlar o'zlarining birlamchi vataniga doir ma'lumotlarni saqlab qolishmagan. Hobbitlar orasida ilm-fanga bo'lgan qiziqish (nasl-nasabga oid qissalardan tashqari) ko'p kuzatilmagan, ammo qadimiy sulolarda o'z xalqining kitoblarini o'rganib, o'tmish haqida, elflar, gnomlar va odamlar yashagan olis yerlarga doir ma'lumotlarni yig'ib borgan hobbitlar uchrab turgan. O'zlarining tarixiy qaydlari Shirga ko'chib o'tishgandan so'nggina yo'lga qo'yilgan. Eng qadimiy afsonalari esa o'z ichiga olam kezish davridan oldingi zamonn qamrab olmagan. Ammo ushbu afsonalar va ayrim boshqa udumlaridan ma'lumki, hobbitlar, ko'plab boshqa xalqlar singari g'arb tomon olis yurish qilishgan. Ularning qadimiy qissalarida ilgari hobbitlar Katta yashil o'rmon cheti bilan G'uborli tog'lar orasida oqib o'tgan Anduin daryosining yuqori qismidagi hududda yashashganiga doir dalillar topiladi. Nima sababdan ular keyinchalik Eriador tog'ini oshib o'tib, uzoq davom etgan mashaqqatli yurish qilishgani endi noma'lum. Hobbitlarning rivoyatlarida ularning ibtidoiy hududiga ko'chib o'tgan novcha xalq vakillarining soni oshib ketgani, boz ustiga, o'rmonga ko'lanka tushib, Katta yashil o'rmon endi Yovuz o'rmonga (yoki Qora o'rmonga) aylangani aytilgan.

Eriador tog'ini oshib o'tib, o'zaro chatishib ketguncha hobbitlar uchta alohida ajdodga, xususan: junbarmoqlilar (lapituplar), quyonyuzlar (struslar), rangparlar (oqlar)ga bo'linishgan.

Junbarmoqlilarning terisi qoramtir, qolganlarga nisbatan past, tabiatan zaif, ko'sa, oyoq-qo'li kalta, tashqi qiyofasi batartib bo'lib, baland tog'lar va tog' yonbag'rida yashashni afzal ko'rishgan. Quyonyuzlarning jusasi keng, baquvvat, oyoq-qo'li yirik bo'lgan. Ular tekislik va daryo sohillarida yashashni afzal bilishgan. Rangparlarning terisi-yu, sochi oq, bo'yi nisbatan baland, qaddi-qomati kelishgan bo'lib, asosan o'rmonda yashashgan.

Junbarmoqlilar o'tmishda gnomlar bilan hamkorlik qilishgan bo'lib, tog'li hududda yashashgan. Qolgan hobbitlar Yovvoyi o'lka hududida yashagan vaqtda g'arb tomon uzoq yurgan junbarmoqlilar Eriador tog'i va Zavert tepaligining tevarakatofini o'zlariga makon qilishgan. Junbarmoqlilar nisbatan «to'g'ri» hobbit bo'lishgan. Bir joyga o'rnashib, yer ostida yo'llar va uyalar qazib yashashgan, ya'ni ota-bobolar zamonidan qolgan an'analarga hammadan uzoq amal qilishgan.

Quyonyuzilar azim Anduin daryosi sohilida uzoq yashashgan, «novcha xalq»qa qolganlarga nisbatan yaqinroq bo'lgan. Keyinchalik junbarmoqlilarga ergashib ular ham g'arb tomon yurish boshlashgan. Bunda ular Tentakdaryo oqimi bo'ylab safar qilishgan va shimoliy o'lkalarga ko'chib o'tishdan oldin ko'pchiligi Tarbad bilan Dunland orasida uzoq yashashgan.

Rangparlarning soni ko'p bo'lmagan. Ular hobbitlarning shimolda yashagan ajdodi bo'lib, elflar bilan yaqinroq munosabat o'rnatishgan. Til bilish, qo'shiq aytish ustasi sanalgan rangparlar dehqonchilikdan ko'ra ovchilikni afzal ko'rishgan. Ular Dorilamonning shimolidagi tog' tizmasini oshib o'tib, pastga Xoarvel daryosi bo'ylab tushishgan. Eriadorga yetgach, hobbitlarning oldin yetib kelgan boshqa ajdodlari bilan chatisha boshlashgan. Junbarmoqlilar va quyonyuzilarga nisbatan dovyurakroq, qaltis sarguzashtlarga moyil bo'lishgan bo'lsa, rangparlar hobbitlarning boshqa urug'-aymoqlariga rahnamolik qilish-



gan. Hatto Bilboning zamoniga kelib ham rangparlarning kuchli ta'siri mashhur Tuklar sulolasida va Baklendda yashaydigan oilalarda kuzatilgan.

Hobbitlar Eriadoming g'arbida, G'uborli tog'lar bilan Lun tog'lari orasida elflar bilan odamlarga duch kelib qolishgan. Dunadanlar, ya'ni uzoq g'arbdan dengiz orqali o'tgan odamlar qirollik zamonidan buyon yashab, omon qolganlarining soni qisqarib ketgan. Shimoliy qirollik zamini borgan sari kimsasiz o'lkaga aylanib boravergan. Bo'shagan istiqomatbop makon bu yerda ko'p bo'lib, hobbitlar shu o'lkada uzoq ushlanib qolishga ahd qilishgan. Dastlabki manzilgohlarining aksariyati allaqachon yo'q bo'lib ketib, Bilboning zamoniga kelganda batamom unutilgan. Lekin o'sha manzilgohlarning ayrimlari, garchi hududi qisqarib ketgan bo'lsa-da, saqlanib qolgan. Bunday manzilgohlar jumlasiga Tog'bag'ri qishlog'i va Shirning sharqida, qirq milya<sup>1</sup> narida joylashgan Chetbore qishlog'i kiradi.

Shu davrga kelganda hobbitlar yozish-chizishni o'zlash-tirib, dunadanlar yozuvi asosida o'z imlolarini tuzishdi. Dunadanlar esa o'z navbatida, yozish san'atini elflardan o'zlash-tirishgan edi. Aynan shu davrda hobbitlar o'z ona tillarini muomaladan chiqarib, umumiy vestron tilida so'zlasha boshlashdi. Chunki vestron tili Arnordan Gondorgacha cho'zilgan barcha zamin-u, qirolliklarda, dengiz bo'yidagi Belfalasdun Lun sohili-gacha cho'zilgan hududda qo'llanilgan. Lekin shu bilan birga hobbitlar o'z ona tillaridagi ayrim so'zlarni, xususan, oy va kun nomlari hamda hobbitcha ismlarini saqlab qolishgan.

Mana shu vaqtdan boshlab hobbitlarning afsonalari yillar ko'rsatib borilgan tarixiy qaydlarga aylangan. Uchinchi davrning 1601-yilida rangpar yuzli aka-uka Marko va Branko o'z oilalari bilan Tog'bag'ri qishlog'idan ko'chib chiqishga ahd qilishdi. Ikkalasi Fornost oliy qirolining ijozati ila ko'plab hob-

---

<sup>1</sup> **Milya** (lotincha: milia, mille passuum – mingta qo'sh qadam) -- qadimdan qo'llab kelingan, turli davlatlarda har xil qiymatlarga ega bo'lgan uzunlik o'lchovi birligi (masalan, dengiz milyasi 1852 m, geografiya milyasi 7420 metrga teng, ayrim davlatlar esa suvda 1 milya 1,8 kilometrga, quruqlikda esa 1 mil 1,6 kilometrga teng).

bitlar bilan birga jigarrang Baranduin daryosining narigi sohiliga shimoliy qirollik qudratga ega bo'lgan davrda qurilgan Tosh kamon ko'prigi orqali o'tishdi va ushbu daryo bilan olisdagi tepaliklarga cha'zilgan jamiki hududni egallashdi. Yangi hududni o'ziga makon qilgan hobbitlardan faqat buyuk Tosh kamon ko'prigini, shuningdek, mavjud boshqa yo'l va ko'priklarni talab darajasida saqlash, qirollik nomalarini hudud orqali o'tkazish va qirol hokimiyatiga itoat qilish talab qilindi.

Shu tariqa hobbitlar dunyosining solnomasi boshlandi, chunki Brendivayn daryosi (Baranduinni hobbitlar endi shunday deb nomlab olishdi) kesib o'tilgan yil hobbitlar dunyosining birinchi yili deya e'tirof etilib, keyingi sana hisobi shu yildan yuritila boshlandi. Ya'ni Shirning yil sanog'iga 1600 soni qo'shilsa, elflar va dunadanlarning joriy yili hosil qilinadi. G'arbiga ko'chib o'tgan hobbitlar ushbu yangi o'lkani juda yoqtirib qolishdi va vaqt o'tib, odamlar va elflarning tarixidan chiqib ketishdi. Qirol hukumati davrida hobbitlar qirollik bo'lgan qolishdi, aslida esa pakana xalq o'lkasini tashqi dunyo hodisalarini inobatga olgan holda o'z rahnamolari boshqardi. Angmarning sehrigar qiroliga qarshi kechgan Fornost yaqinidagi so'nggi jangga hobbitlar o'z qiroliga madad tariqasida kamonchilar bo'linmasini safarbar etgan. Odamlarning o'sha hodisalarga oid rivoyatlarida bu haqda hech nima deyilmagan bo'lsa-da, pakana xalq qissalarida bu holat o'z aksini topgan. O'sha urushda qirollik mag'lubiyatga uchrab, davlat sifatida barham topgan. Binobarin, o'z hududini qo'lda saqlab qolgan hobbitlar qirol o'rnida boshqarishi uchun o'z xalqi orasidan o'ziga rahnamo – teyn saylagan. Minglab yillar davomida pakana xalq orasida fuqarolar urushi bo'lmagan va Qora o'lat o'tgach (Shir solnomasiga ko'ra 37-yili) o'lka taraqqiy qilib, aholisining soni Cho'zilgan qish musibatlari va undan keyin kelgan ocharchilikkacha oshib boravergan. Bunday musibat davrida ming-minglab hobbitlar qirilib ketgan va mazkur asar boshlangan davrga kelib Ajal tantanasi (1158-1160-yillar) ancha ortda qolgan. Hobbitlar Shir deya nom bergan ushbu o'lka zamini, garchi ular ko'chib o'tgan davrda o'zlashtirilmagan

dasht holatida bo'lsa-da, boy va unumdor bo'lib, qisqa vaqt ichida unga yaxshigina ishlov berildi. Yillar o'tib bu yer ko'plab chorva fermalari, g'alla maydonlari, uzumzor va mevazorlarga ega hududga aylandi. O'lka maydoni olis tepaliklar tizmasidan Brendivayn ko'prigigacha qirq lig<sup>1</sup>, shimoldagi torf<sup>2</sup> botqog'idan janubdagi botqoqlikkacha yana ellik ligka cho'zildi. Shirni hobbitlar rahnamosi bo'lmish teyn hukumati idora qilib, farovonlik bu yerda odatiy hol hisoblanadi. Ulkan dunyoning qadrli bo'lib qolgan ushbu burchagida hobbitlar o'zlari xush ko'rgan ishlar bilan shug'ullanishdi, tinch va xotirjam hayot kechirishdi, tinchlik va farovonlik – O'rtayer xalqlari uchun qonunga aylangucha qora ko'lankalar izg'ib yurgan tashqi dunyo ishlariga deyarli e'tibor bermay qo'yishdi. Hobbitlar Shir o'lkasida tinchlik hukm surishini ta'minlayotgan tashqi qo'riqchilarni unutib yoki ularga e'tibor bermay qo'yishdi. O'lkasi muhofaza qilina-yotganini bilishsa-da, buni esga olmaslikni afzal ko'radigan bo'lib qolishdi.

Hech bir zamonda hobbitlar tabiatan urishqoq bo'lishmagan va hech qachon o'zaro urush olib borishmagan, ammo qadim o'tmishning shafqatsiz yillarida o'zlarini himoya qilishga majbur bo'lishgan, lekin unday kunlar Bilboning zamoniga kelib ibtidoiy tarixga aylangan. Mazkur qissada bayon etilgan hodisalar boshlanguncha bo'lib o'tgan so'nggi va Shir sarhadida kechgan yagona jang tiriklar xotirasidan chiqib ketgan. Tarix sahifalarida Yashil Dala jangi nomi ila joy olgan o'sha jang Shir solnomasiga ko'ra 1147-yili bo'lib o'tgan. Unda Maunt Grem tog'idan tushib Shir hududiga bostirib kirgan orklarni Bandobras Tuk ismli hobbitlar sarkardasi yer bilan yakson qilgan, qo'lidagi yirik so'yili bilan ularning qiroli Golfimbulning boshini urib uchirgan. Sho'rlik orkning boshi havoda yuz metrecha uchib, boshqa joy qurib ketganday, quyoning iniga kirib ketgan va shu

---

<sup>1</sup> Lig – 3 milga teng uzunluk o'lehoivi.

<sup>2</sup> Torf (*nemischa*) – to'qayzor, botqoqlik yerlardagi o'simlik qoldiqlarining tabiiy chirishidan hosil bo'lgan zich massa, foydali qazilma.

tariqa, jangda gʻolib chiqishdan tashqari, golf<sup>1</sup> oʻyini ixtiro qilingan. Endi esa hatto iqlim ham muloyimlashib, bir zamonlar qahraton qishda Brendivayn daryosi muzlab shimolning oq boʻrilari hamla qilgan kunlar jajji hobbitchalarga uyqudan oldin enagalar aytib beradigan ertakka aylandi. Binobarin, garchi Shirda qurol-aslahaning yirikkina zaxirasi saqlanib qolgan boʻlsa-da, mavjud qurol turlaridan xonadon devorining bezagi yoki Yerqazir qishlogʻidagi muzey eksponatlari sifatida foydalaniladi. Oʻsha muzey Musomlar Uyi deb ataladi, chunki foydalanib boʻlmaydigan, lekin tashlab yuborishga koʻz qiymaydigan buyumlarni hobbitlar, odatda, «musom» deyishadi. Ularning uylari musom omboriga aylanib ketgan boʻlib, qoʻldan qoʻlga oʻtib boradigan sovgʻalar shular jumlasiga kiradi.

Hobbitlar tinchlik va farovonlik davrida ham hayron qolarli darajada sabotli boʻlganicha qolishadi. Ularni qoʻrqitish yoki urib lat yedirish juda qiyin. Qulaylik va yaxshi narsalarni xush koʻrishsa-da, hobbitlar, zarurat tugʻilganda hayotiy qiyinchiliklar, boshga tushgan ofat oqibatlariga bemalol bardosh berib, dushmani uddalay olishadi va doʻmpayib chiqqan qorinchalari-yu, baqaloq yuzlariga qarab baho beradiganlarni hayratga solishadi. Janjalni yoqtirmaydigan, jonivorlarni vaqtichogʻlik uchungina oʻldirmaydigan hobbitlar ovda oʻz mahoratlarini namoyon etib, zarurat tugʻilganda qurolsiz, mardlarcha jang qilishlari mumkin.

Koʻzi oʻtkir, qoʻli baquvvat hobbitlar merganlik-la kamon qoʻllash havosini olgan. Biroq ularning jangovar mahorati kamon oʻqini moʻljalga aniq otish bilangina cheklanmaydi. Hobbit engashib, qoʻliga tosh olar ekan, oʻsha zahoti tuyoqni shiqilatib qolgan maʼqul. Shir chegarasini buzib kirgan har qanday qabohat buni yaxshi biladi.

Ibtidoiy davrda hobbitlarning bari yerosti uyalarida yashashgan, har qalay, ularning oʻzlari shunday deb bilishadi.

---

<sup>1</sup> **Golf** (inglizcha; golf) – toʻp va chavgonlar bilan ochiq maydonda oʻynaladigan sport turi.

Yerosti maskanida ular hanuzgacha o'zlarini yaxshi his etishadi. Ammo vaqt o'tib, hobbitlar o'z maskanlarining shaklini o'zgartirishga majbur bo'lishdi. Bilboning zamonida Shirda faqat davlatmand va kambag'al hobbitlarga ota-bobolar zamonidan qolgan an'analarga amal qilishgan. Kambag'allar bitta derazali oddiy uyada yashagan bo'lsa, davlatmand hobbitlar yer ostida dang'illama makon qurishgan. Biroq bunday yirik, keng tarmoqli tunnel<sup>1</sup> (yoki ularning ta'biriga ko'ra, smial) qazish uchun to'g'ri keladigan tepaliklar hamma joyda ham topilavermaydi. Bino-barin, tekislikda yashab, aholisining soni ko'payib borayotgan hobbitlar yer ustida uy qura boshlashdi. Hatto tepalik hududida va Hobbiton yoki Quyonyuzlilar qishlog'idek eski qishloqlarda, hatto Shirning asosiy qishlog'i Yerqazirda ham oq tepaliklarda yog'och, g'isht va toshdan ko'tarilgan uylar paydo bo'ldi. Bunday uylarni ko'proq tegirmonchilar, temirchilar, aravaso'zlar va shu kabi boshqa hunarmand hobbitlar afzal ko'rishadi. Garchi o'tmishda yerosti uyalarida yashashgan bo'lishsa-da, hobbitlar azaldan yer ustida shiypon-u, omborxonalar qurib kelishgan.

Ferma va omborxonalar qurish odati hobbitlarning aytishicha, Brendivayn daryosining quyi qismidagi Marish qishlog'i aholisi orasida vujudga kelgan. U yerning, ya'ni sharqiy Shir hobbitlarining bo'yi o'lkani qolgan hobbitlariga nisbatan novcharoq, jussasi baquvvat bo'lib, namgarchilikda gnomlarning boshmoqlarini kiyib yurishga odatlanishgan. Ularning qoniga begona irq qoni aralashgan alomatlar kuzatiladi. Bu ularning oyog'i va iyagidagi tukidan bilinadi. Chunki junbarmoqlilar va rangparlar yuzida soqol alomati umuman bo'lmaydi. Aslida Marish va daryoning sharqidagi Buklend qishloqlarining aholisi Shir o'lkasiga qolganlarga nisbatan ancha kech, asosan janubiy o'lkalardan ko'chib kelishgan. Ularning nutqida Shirning boshqa qishloqlarida uchramaydigan g'alati ibora-yu, nomlar juda ko'p.

---

<sup>1</sup> Tunnel (*inglizcha*: tunnel – quvur) – transport yurishi, suv o'tishi, kommunikatsiyalar joylashishi va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan, yotiq yoki qiya joylashgan yer osti yoki suv osti sun'iy inshooti.

Aftidan, imorat solish san'ati va ko'plab boshqa bilarmonlik qobiliyatini hobbitlar dunadanlar bilan qo'shnichilik qilgan zamonlarda o'zlashtirgan ko'rinadi. Ammo hobbitlar bularning bariga o'z tarixining ibtidosida elflar va ustoz odamlardan o'rgangan bo'lishi ham mumkin. Zero, dastlabki elflar O'rtayerni hali tark etmay, hanuzgacha Kumushrang bandargohlar<sup>1</sup> va Shir o'lkasining g'arbidagi boshqa hududlarda yashashmoqda. Elflarning qachon qurilganini hech kim eslay olmaydigan uchta minorasi G'arbiy botqoqlik ortidagi Minora tepaliklaridan hanuzgacha ko'rinib, oy nurida ko'zga yaqqol tashlanadi. Uzoqda ko'rinayotgan minora eng baland minora sanalib, yashil ko'tarmada yakka o'zi qad ko'targan. G'arbiy Shirda yashaydigan hobbitlarning aytishicha, o'sha minoraga chiqilsa dengizni ko'rish mumkin emish. Biroq birorta bo'lsin hobbit o'sha minoraga chiqib tushgani hanuzgacha noma'lum. Umuman aytganda, dengizni o'z ko'zi bilan ko'rgan yoki unda suzib qaytgan hobbitlar tarixda kamdan kam uchragan. Hobbitlarning aksariyati hatto daryo-yu, qayiq'larga ham shubha ila qaraydi, ular orasida suzishni biladiganlar kamdan kam topiladi. Shirda hayot asrlar osha davom etgan sari o'lka aholisi elflarni deyarli uchratmay jo'ydi va shu bois ulardan hayiqa boshladi. Ish shu darajaga borib yetdiki, elf bilan munosabat o'rnatgan har qanday hobbit o'z qabiladoshlarining ishonchini yo'qotadigan bo'lib qoldi. Dengiz ular uchun mudhish so'zga, ajal ramziga aylanib, g'arbdagi minora tepaliklariga teskari o'girilish odat tusiga kirdi.

Imorat qurish san'atini hobbitlar yuqorida aytilgandek elflar yoki novcha xalqdan o'zlashtirib olishgan va ushbu ishga o'ziga xos tus berib taraqqiy etishgan. Hobbitlar minora qurishmagan. Ular o'zlariga qulay pasttakkina, uzun uylar qurishgan. O'tmishda hobbitlar qurgan notekis devorli qadimiy uylar tashqi tomondan pichan, poxol, chim bilan qoplangan bo'lib, imkon qadar yerosti smialiga o'xshatilgan. Ammo imorat solishning bunday tarixiy bosqichi chindan ham o'tmishda qolgan bo'lib,

<sup>1</sup> Bandargoh cho'l, dasht va tog'li yerlarda qo'nib o'tiladigan joy.



keyinchalik bunyod etilgan inshootlar gnomlardan o'zlashtirilgan yoki hobbitlarning o'zlari o'ylab topgan ixtirolar ila takomillashib boravergan.

Shir hobbitlarining uya va uylari, odatda, keng maydonni egallab, ularda ko'p a'zoli oilalar yashaydi (bo'ydoq o'tgan Bilbo bilan Frodo Begginslar hobbitlar orasida kam uchraydigan istisno bo'lgan. Umuman aytganda, ikkalasi ko'p masalalarda, masalan, elflar bilan qalin do'st tutinishda ham istisno bo'lishgan). Ba'zan, Katta smiallik Tuklar sulolasi yoki Bag-xollik Brendizayklar sulolasi kabi qarindosh-urugiarning ko'plab avlodi qadimiy ajdodlaridan meros qolgan ko'p tunnelli maskanlarda nisbatan tinch-totuv yashashadi. Uru ħjamoalari hobbitlar hayotida katta rol o'ynab, qarindosh-urug'chilikning murakkab munosabatlarini yaxshi fahmlashadi. Hobbitlar juda murakkab, uzundan uzoq, ko'p tarmoqli shajara daraxtlarini chizishadi. Ushbu pakana xalq bilan munosabatda muhimi kim kimning qay darajadagi qarindoshi ekanini yodda tutmoq muhimdir. Mazkur kitobda hikoyamiz boshlanadigan vaqtdagi nisbatan taniqli sulo-laning biror-bir nisbatan dongdor a'zosiga taalluqli shajarani tasvirlab berish juda qiyin.

«Alvon kitob»ning oxirgi sahifalarida keltirilgan shajaralarning o'zini alohida asar sifatida ko'rish mumkin bo'lib, hobbitlarning o'zidan tashqari har qanday kitobxon ularni zerikarli kitob sifatida e'tirof etadi. Hobbitlar esa, aksincha, bunday narsalardan zavq olishadi, agar shajara kitoblari batartib bitilgan bo'lsa, albatta. Hamma narsa oldindan ma'lum bo'lib, mazmunida biror-bir ziddiyat boimagan kitoblar ularga juda yoqadi.

## TRUBKA TAMAKISI HAQIDA

Qadimiy hobbitlarning yana bir udumi diqqatga sazovor-dir. Aytish joizki, sopol yoki yog'och trubka sarxonasida buruq-sayotgan o'lan bargining tutunini ichga tortish - bir zamonlar juda hayratomuz udum bo'lgan. Ushbu giyohni ular trubka tamakisi yoki tamaki bargi deb atashadi. Bunday g'alati udum-ning yoki hobbitlar ta'biri ila aytganda, tamaki chekish san'atining kelib chiqishini ajoyib mo'jizalar og'ushi qurshab olgan. Ushbu san'atga taalluqli ma'lumotlarning barini keyin-chalik Baklendning sohibi darajasiga ko'tarilgan Meriadok Brendizayk yig'ishga muvaffaq bo'lgan. Modomiki, trubka chekish udumi va janubiy Shirda yetishtirilgan trubka tamakisi qo'lingiz-dagi asarda bayon etilgan hodisalarda muayyan rol o'ynar ekan, Meriadok Brendizaykning o'z qalamiga mansub «Shir giyohlari haqida qissa»ga yozgan muqaddimasidan olingan sharhini iqtibos qilib o'tmoq darkor.


«Tamaki chekish - o'zimiz ochgan kashfiyot sanala-digan yagona san'atdir deya baralla ayta olamiz, - bayonot qiladi Meriadok Brendizayk. - Hobbitlar trubka tamakisini ilk bor qa-chon cheka boshlagani noma'lum, ammo barcha afsonalar va asosiy rivoyatlarda tamaki chekilishi allaqachon shakllangan udum singari tilga olib boriladi. Shir xalqi asrlar osha har xil giyohlarni, ba'zan xushbo'y, ba'zan hidi yoqimsiz o'lanlami chekib kelgan. Ammo har qanday rivoyatda bayon etilgan te-gishli ma'lumotlar mazmunan bir xil bo'lib chiqadiki, janubiy Shirdagi Longbottom qishlog'ida yashagan Tobolt Tamakichi ilk bor Izengrim Ikkinchi davrida, Shir solnomasiga ko'ra taxminan 1070-yili o'z ekinzorida trubka tamakisini yetishtira boshlagan. Tamakining eng sara navlari, ayniqsa, «Longbottom yaprog'i», «Qariya Tobi» va «Janub Yulduzi» deb nomlangan navlari ha-nuzgacha o'sha hududda yetishtiriladi.

Tarixiy qaydlarda qariya Tobi o'sha giyohni o'stirganiga doir aniq ma'lumotlar yo'q, chunki bu haqda u hech kimga aytmagan. O'zi jahongashtalik qilmagan, lekin giyohlarga oid

bilimi kuchli bo'lgan. Aytishlaricha, Tobi o'spirinlik yillari Bri zaminining Tog'bag'ri qishlog'iga tez-tez tashrif buyurgan bo'lib. Shirdan uzoqlashgan masofasi o'sha qishloqdan nari o'tmagan. Shubha yo'qki, yigitcha Bri tepaligining janubiy qiyaligida mo'l-ko'l unib chiqadigan ushbu o'simlik haqida Tog'bag'ri qishlog'ida bilib olgan. Tog'bag'rilik hobbitlar o'zlarini birinchi kashandalar deya e'tirof etib, trubka tamakisini chekishni o'zlari boshlab berganini da'vo qilishadi. Aytishlaricha, Shir aholisi shug'ullanadigan har qanday ishni birinchi bo'lib aynan tog'bag'rilik hobbitlar boshlab berishgan, Shir xalqini esa ular o'sha hududni o'zlashtirgan «mustamlakachilar» deb atashadi. To'g'risini aytganda, ularning trubka tamakisiga doir da'vosini men adolatdan deb topaman. Hech shubha yo'qki, tamaki chekish odati qadimiy yo'lda hamuzgacha kezib yuradigan gnomlar, otliq odamlar va e'hrgarlarga aynan Tog'bag'rida o'tgan. Boshqacha qilib aytganda, hobbitlarning Tog'bag'ri qishlog'ida yashaydigan Narkisslar sulolasiga qarashli «Javlon urar poni» mehmonxonasini, trubka chekishdek qadimiy san'atni dunyo bo'ylab keng ommalashtirgan markaz deya e'tirof etish mumkin.

Ko'pdan ko'p safarlarim davomida olib borgan kuzatuvlarim natijasida shunday bir xulosaga keldimki, dunyoning biz yashaydigan burchagi ushbu o'simlikning asl vatani hisoblanmaydi. Chunki bu giyoh yurtimizga janubdan, Anduin daryosining quyi qismidagi o'lkalardan kelgan. U yerga esa dengiz ortidagi Olis g'arbda yashaydigan odamlar olib kelishgan. Trubka tamakisi Gondorda ham uchraydi, lekin bizda u shimol o'lkalari-ga nisbatan to'kis, mo'l-ko'l o'sadi. Ushbu giyoh yurtimizda boshqa o'lkalarda bo'lgani kabi yovvoyilashgan holatda uchramaydi, aksincha, Longbottomdek pana joylarda parvarish qilinib, juda chiroyli gullaydi. Gondorliklar uni xushbo'y geylenas deb atab, gulining hidi uchungina qadrlashadi. Trubka tamakisi yurtimizga aynan Gondordan, Elendil davridan bizning zamona-mizgacha o'tgan yuzlab yillar ichida keltirilgan bo'lishi mumkin.

Ta'kidlab o'tmoq joizki, ushbu giyohni trubka sarxonasiga birinchi bo'lib aynan hobbitlar joylashganini gondorlik du-



nadanlar ham tan olishadi. Hatto sehrgarlar ham bu ishni qilishmagan ekan. Garchi, men taniydigan sehrgarlardan biri ushbu sanʼatni koʻp asrlardan buyon qoʻlib kelgan boʻlib, u shugʻullanadigan boshqa ishlar kabi rosa havosini olgan boʻlsa-da».

## SHIR OʻLKASI HAQIDA

Hobbitlarning bugungi kundagi vatani boʻlmish Shir oʻlkasi maʼmuriy-hududiy jihatdan shimol, janub, gʻarb va sharqda joylashgan toʻrtta chorakka – viloyatlarga (Shimoliy Shir, Janubiy Shir, Gʻarbiy Shir va Sharqiy Shirga) boʻlinadi. Har bir viloyat, oʻz navbatida, mahalliy aholi orasidagi eng qadimiy sulola nomi bilan ataladigan jamoaga taqsimlanadi, garchi ayrim familiyalar vaqt oʻtib faqat ushbu jamoa nomidagina saqlanib qolgan boʻlsa-da. Viloyatlardan tashqari, sharqiy va gʻarbiy botqoqliklar ham mavjud.

Mazkur hikoyamiz boshlangan vaqtda Shir biror-bir «hukumat» tomonidan idora qilinmagan. Mahalliy sulolalar oʻz muammolarini oʻzlari hal qilib borgan. Aholi asosiy vaqtini qishloq xoʻjalik ishlariga sarflab, boshqa masalalarda, odatda, ziqnalik qilmay, saxiylik namoyon etadi, hamisha xursand yurib, kamsuqum yashaydi. Shu bois kichik fermalar, ustaxonalar, doʻkonchalar va mehmonxonalar avloddan avlodga oʻtgancha, oʻzgar-mas qoladi.

Tabiiyki, Shir shimolidagi Fornost yoki hobbitlar atagandek, Norberi oliy qiroliga boʻysunishdek qadimiy anʼanalar saqlanib qolgan. Biroq, mana ming yillardirki, qirol ham, qirollik hukumati ham yoʻq. Bir zamonlar Norberi qirolligiga qarashli boʻlgan bogʻlarni oʻt bosib yotibdi. Hobbitlar orasida hanuzgacha trollar<sup>1</sup> va shu kabi boshqa turdagi yovvoyi, yovuz

---

<sup>1</sup> **Troll** (*shvedcha*: Troll – joziba, sehr-jodu) skandinaviya afsonalarida tilga olingan, koʻp ertaklarda uchraydigan maxluq. Trollar ushbu afsona va ertaklarda, odatda, inson dushmani sifatida, toshga oʻxshash togʻ ruhlari koʻrinishida tasvirlanadi. Trollar afsona-

tabiat maxluqlar haqida: «Unday maxluqlar qirol haqida hech qachon eshitishmagan», – mazmundagi gap-so'zlar yuradi. O'z qonunlari va rasm-rusumlarini qirollar bilan bog'lashadi, chunki qirollar, hobbitlarning fikricha, oliy hukmdor bo'lishgan.

Tuklar sulolasi ko'p jihatdan boshqa sulolalardan ustun keladi, teyn hokimiyati ham ushbu sulolaga Pobegayklar sulolasidan o'tgan. Tuklar jamoasining rahnamosi hozirgacha teyn unvonida yuribdi. Teyn Shir kengashining raisi, Shir harbiy yig'inining qo'mondoni va oliy qozi hisoblanadi. Shir harbiy yig'ini ham, Shir kengashi ham zarurat tug'ilganidagina o'tkaziladi. Bunday tadbirlar esa ko'pdan buyon o'tkazilmagan. Shu sababli teyn unvoni nomigagina unvon bo'lib qolgan. Tuklar sulolasi hozir ham katta obro'ga ega. Chunki sulola a'zolarining soni ko'p bo'lishi bilan bir vaqtda juda davlatmand sanaladi. Boz ustiga, uning har bir avlodi o'ziga xos odatlari, hatto qaltis sarguzashtlarga moyilligi ila o'zining kuchli tabiatini namoyon etib keladi. Sulolaning bunday sifatlari, ayniqsa, sarguzashtga moyilligi boshqa hobbitlar tomonidan ma'qul ko'rilmay, arang bardosh beriladi, xolos. Shunga qaramay, azaldan shakllanib kelgan an'ana Tuklar sulolasi rahnamosining ismiga raqam qo'shib aytishni, chunonchi, Izengrim Ikkinchi deyishni taqozo etadi.

Asar hodisalari bayon etilgan davrda amalda idora qilgan yagona hukmdor yozning qoq o'rtasida, jazirama kunida, oq tepalikda o'tadigan erkin yarmarkada yetti yilga saylanadigan Shir hokimi sanaladi. Ushbu hokimning asosiy majburiyati tez-tez o'tkazib boriladigan Shir bayramlarida raislik qilishdir. Pochta boshqarmasi, chegara xizmati va politsiya xizmati ham ushbu hokim tasarrufida. Shunday ekan, u bir vaqtning o'zida aloqa xizmati boshlig'i va Shir o'lkasining bosh sherifi hisoblanadi. Bu xizmatlar Shirda saqlanib qolgan yagona, ish bilan ta'minlangan xizmatlar bo'lib, ayniqsa, pochtachilar ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki xat-savodi bor hobbit borki, tushlikdan keyingi sayr

---

lari Skandinaviyada paydo bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, ular mahalliy aholini jodugarligi va bahaybatligi bilan qo'rqitgan. Ular, odatda, qal'a va yer osti saroylarida yashagan.



masofasidan sal uzoqda yashaydigan do'stlari-yu, qavm-qarindoshiga tinmay xat yo'llab boradi.

Hobbitlar o'z politsiyachilarini sheriflar deb ataydi. Sheriflar shlyapasiga pat taqib olishini hisobga olmaganida, hech qanday maxsus kiyim kiymaydi (bunday kiyim bo'lishi kerakligidan hobbitlar mutlaqo bexabar desa ham bo'laveradi). Ular asosan qishloq hududiga kirib olgan yovvoyi hayvonlarni quvib solishadi, chunki odamlar ularni deyarli bezovta qilishmaydi. Butun boshli Shir o'lkasida ichki ishlar xizmatini har bir viloyatda uch nafardan jami o'n ikki nafar sherifgina olib boradi. O'lka chegarasini qo'riqlash xizmati shaxsiy tarkibi ko'pchilikni tashkil qilib, soni vaziyatga ko'ra o'zgarib boradi. Ushbu xizmatning asosiy vazifasi katta-kichik ajnabiylar Shir aholisiga ziyon yetkazishiga yo'l qo'ymaslik sanaladi.

Mazkur asar boshida yuzaga kelgan vaziyatda chegarachilar soni ko'pchilikni tashkil etib, kuch-qudrati sezilarli darajada oshirilgan. Chunki o'lka chegarasi yaqinida izg'ib yurgan yoki chegarani buzib o'tgan shubhali shaxslar va g'alati mavjudotlarga doir xabarlar tez-tez yetkazib borildi. Bu esa vaziyat talab darajasida bo'lmay, notinch ekanining dastlabki alomatlaridir. Bunday zamon kelishi pakana xalq rivoyatlari va qissalarida azaldan bashorat qilib kelingan. Bunga ko'pchilik ahamiyat bermadi, hatto Bilbo ham ushbu o'zgarishlar nimani anglatishini idrok etmadi. Bilbo o'zining mashhur safaridan qaytib kelganiga oltmish yil bo'ldi. Yuz yildan ziyod yashaydigan hobbitlar orasida ham endi u ancha keksa hisoblanadi. O'zi bilan olib kelgan boyliklar haqidagi afsonalar haligacha og'izdan og'izga o'tib kelmoqda. Lekin hech kim, hatto uning suyukli «jijani» Frodo ham Bilbo o'sha safardan aslida nima olib kelganini bilmaydi. Bilbo Uzuk topib olganini shu kungacha hech kimga aytmagan.

## UZUKNING TOPILISHI HAQIDA

«Hobbit yoxud Borib qaytish» asarida aytilgandek, kunlardan bir kun Bilboning uyiga Kulrang Gendalf bilan gnomlar qirolining merosxoʻri Emanqalqon Torin va uning oʻn ikki nafar qabiladoshi kirib keldi. Shir oʻlkasida qabul qilingan yil hisobiga koʻra 1341-yil aprel oyining oʻsha tongida oʻzidan oʻzi hayron boʻlgan Bilbo oʻz mehmonlari bilan birga xazina qidirish safariga yoʻl oldi. Shirdan olisda joylashgan Deyl oʻlkasi hududida Erebor deb nomlanadigan Soʻqqa togʻ boʻlib, gnomlarning Togʻ osti qirollariga tegishli ulkan xazina mana shu togʻ qaʼrida saqlanar edi. Xazina qidirish sarguzashti muvaffaqiyat-la yakun topib, uni qoʻriqlab yotgan ajdar oʻldirildi. Biroq Beshta lashkar yangi yuz berib, unda Emanqalqon Torin halok boʻldi. Ereborga yetib kelguncha sayyohlar guruhi koʻp yovuzliklarni boshdan kechirdi, Yovvoyi oʻlka tomon yoʻl olar ekan, Gʻuborli togʻlar soʻqmogʻida orklar hamlasiga duchor boʻldi. Oʻshanda shunday bir holat yuz berdiki, goblinlarning<sup>1</sup> togʻ ichidagi qorongʻi soʻqmogʻiga tushib qolgan Bilbo adashib qoldi. Zulmatda atrofni paypaslab borar ekan, uning qoʻliga yerda yotgan Uzuk ilinib qoldi. Buni tasodifiy bir hol deb bilgan hobbit Uzukni kissasiga solib, yoʻlini davom etdi.

Chiqish yoʻlini qidirib topishga uringan Bilbo boshi berk joyga kelib qolguncha togʻ tagiga kirib bordi. Zulmatdagi soʻqmoq ichki koʻlga borib taqaldi. Koʻl oʻrtasida serqoya orol boʻlib, unda Gollum laqabli nihoyatda keksa, ozgʻin tanasi silliq, koʻrinishi jirkanch maxluq yashaydi. Ensiz basharasida bir juft yirik koʻzi yarqiraydigan ushbu maxluqning qayiqchasi boʻlib, yirik oyogʻining yassi panjalarini ikki tomonga tashlab havzasi keng koʻlda eshkak sifatida tortgancha, suv shapillatmay, ortiqcha shovqin solmay suzib yuradi. Yalpoq idishni eslatadigan rangsiz koʻzi bilan qidirib topgan soʻqir baliqni yashin tezligida

---

<sup>1</sup> **Goblinlar** (*fransuzcha*) – Gʻarbiy Yevropa afsonalarida tasvirlangan, yer osti gʻorlarda yashovchi va quyosh nuridan qoʻrqadigan, qisman inson tanasiga oʻxshash tanaga ega boʻlgan afsonaviy maxluqlar.



harakatlanadigan uzun barmoqlari ila tutib kun ko'radi. Baliqdan tashqari, u, goblin go'shtini ham juda xush ko'radi. Birorta ork tutib olgan kuni tog'osti dunyosida Gollumdan baxtiyor maxluq topilmaydi. Lekin o'zi ogoh bo'lib, goblinlarning ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qiladi. Gollum, odatda, to'dasidan ajrab ko'l yaqinida ivirsib yurgan orkning orqa tomonidan hamla qilib, ovoz chiqartirmay, mahkam bo'g'ib o'ldiradi. Uning birov bilmaydigan, bir zamonlar yorug' dunyoda yashab qo'lga kiritgan qimmatbaho buyumi – barmog'iga taqqan kishini ko'rinmas qilib qo'yadigan tilla uzugi bo'lgan. Bu buyum Gollum yaxshi ko'rgan yagona narsa bo'lib, uni «mening malohatim» deb atagan. Maxluq ushbu xazinasini oroldagi chuqurda saqlagan bo'lib, faqat ork oviga chiqqanda taqqan.

Agar Uzuk yonida bo'lganida Gollum Bilboni uchratishi bilan ustiga tashlangan bo'lar edi. Hobbitning qo'lida esa unga qilich vazifasini o'tagan elf xanjari bo'lgan. Binobarin, vaqtdan yutish uchun Gollum shu zahoti Bilboga qadimiy o'yin – topishmoq topish o'yinini taklif qildi. Sharti shuki, agar Bilbo topishmoqlar javobini topa olmay, yutqazsa, Gollum uni o'ldirib, go'shtini yeydi. Agar Gollum yutqazsa, Bilboning talabini bajarib, tog' qaridan tashqariga chiqarib yuboradi.

Modomiki, Bilbo zulmatda umidni uzsa ham bo'laveraldigan darajada adashib, na oldinga, na orqaga yurishni bilmas ekan, maxluqning taklifiga rozi bo'ldi: ikkalasi bir biriga ko'p topishmoq aytdi. Oxir-oqibat Bilbo o'z aqli bilan emas, tasodifla g'olib chiqdi: aytishi kerak bo'lgan so'nggi topishmoqni o'y-lab topa olmay, qiynalayotgan hobbit kissasiga solgan qo'li Uzukka tegib ketar ekan: «Kissamdagi nima?» – so'raydi u ovoz chiqarib. Bilbo buni o'zidan o'zi so'ragan bo'lsa-da, Gollum uning savolini topishmoq sifatida e'tirof etib, vujudini kuchli hayajon qamradi. Uchta imkon talab qilib olishiga qaramay, Gollum savolga javob bera olmay, o'yinni yutqazib qo'ydi.

E'tiborli odamlarning fikr-mulohazalari ushbu masalada har xil bo'lib chiqmoqda: Bilboning so'nggi savoli, haqiqatan ham, shunchaki savol edimi, yo o'yinning qadimiy qoidalariga

javob beradigan topishmoq bo'ldimi, lekin ularning hammasi bir narsani tan oladi: savolni topishmoq sifatida qabul qilib, javob berishga uringan Gollum bergan va'dasiga bog'lanib qoldi. Bilbo savolga javob topa olmagan Gollumni o'z va'dasiga vafod qilishga majbur qildi. Hobbitning xayoliga ushbu silliq qabohat aldashi mumkin degan fikr keildi, garchi bunday qadimiy o'yinda berilgan so'z muqaddas bo'lib, hatto eng yovuz maxluqlar ham qadimdan o'z so'zining ustidan chiqmay, mug'ombirlik qilishga jur'at eta olmagan bo'lsa-da. Biroq umrining bir necha asrini zulmatda o'tkazgan Gollumning yuragi shu qadar qorayib ketgan ediki, unda xiyonat joy topgan. U qorong'ilikka kirib ketib, Bilbo bilmagan oroliga qaytdi. Bu yerda u chuqurga bekitib qo'yilgan Uzukni qidirdi. Qorni ochligidan, boz ustiga, o'yinda yutqazib qo'yanidan g'azabi qaynadi. Malohatini taqib olsa bas, qo'rq-masa ham bo'laveradi.

Biroq Uzuk orolda yo'q. Malohatini topa olmagan maxluq chunonam chinqirdiki, nima bo'lganini tushunmagan Bilboning eti jimirlashib ketdi. Zimiston qa'ridan Gollumning yig'lab so'kinayotgani eshitildi. Maxluq o'z orolchasini titkilab, aftidan, kutilgan natijaga erishmadi. Ammo Gollum kech bo'lsa ham, bir nimani fahmlaganday bo'ldi. «Cho'ntagida nima bor, anavining?» – xitob qildi u.

Gollumning fikr-xayolini uzoq yillardan buyon mana shu yagona buyum egallagan, biron uni o'g'irlab ketishi mumkinligi maxluqni dahshatga solgan! Gollum orolni tark etib, ko'zi qorong'ida yashil rangda yongancha qayig'ida Bilbo tomon shasht-la suzdi. Uning qora qalbida paydo bo'lgan shubha kuchayib, g'azab oloviga aylandi. Qirg'oq tomon quturib ketganday suzayotgan Gollum hobbitning jonini sug'urib olish, tanasini burda-burda qilib tashlashga tayyor. Nima sababdan jirkanch maxluq bunday holatga kelganini Bilbo tushunmadi-yu, lekin hammasi tamom bo'lgani, hozir Gollum kelib, uni o'ldirishini aniq angladi. Teskari o'g'irilgan hobbit kelgan iziga yugurdi. Uning omadi yana kulib boqdi. Halloslab qolgan hobbit yugurishdan to'xtab, chap qo'lini kissasiga soldi. Sovuq uzuk o'zidan

o'zi sirpanib uning barmog'iga taqildi. Anavi murdor qabohatning pishillashi yaqindan eshilib, ortga o'girilgan Bilbo maxluqning yashil fonusni eslatgan bir juft ko'zini ko'rdi. Dahshatdan aql-xushini yo'qotgan sho'rlik hobbit qochishga urindi-yu, qoqilib toshloq yerga yiqildi. Yaltirayotgan qilichi esa tagida qoldi. Bu vaqtga kelib deyarli quvib yetgan Gollum Bilboga e'tibor qilmay, so'kinib, yig'lagancha to'g'riga yugurib o'tdi. Bazo'r oyoqqa turgan hobbit Gollumning izidan asta kalovlandi. Bilbo o'zi bilan o'zi gaplashib ketayotgan maxluqning so'zlariga diqqat bilan quloq solar ekan, uning malohatiga doir gap ma'nosini fahmlaganday bo'ldi. Mo'jizakor uzuk topib olganini anglab, ushbu buyum vositasida orklar va Gollumdan qochib qutulishiga umid paydo bo'ldi.

Bilbo Gollumning izidan uzoq yugurdi. Nihoyat maxluq kichik tuynuk bo'sag'asida to'xtab, bukchaygancha joylashib oldi. Hobbit qo'lidagi qurol bilan zarb berib, mana bu yaramas maxluqning ko'z nurini so'ndirishi, o'ldirishi mumkin edi-yu, kutilmaganda uning qalbini qo'rquv aralash rahm-shafqat, achinish hissi qamradi. Uzuk Bilboning yagona umidi bo'lib, undan qotillik uchun foydalanishni istamadi. Shu payt hobbitning miyasiga yalt etib bir fikr keldi. Vujudini qat'iyat va g'ayrat-shijoat to'lqini ko'tarib yuborgan Bilbo shartta sakradi. U uch tirsak yuqoriga va yetti tirsak oldinga irg'ib, Gollumning ustidan sakrab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Kuchi boricha qochayotgan Bilboning qulog'iga Gollumning uzoqda yangrayotgan qarq'ishi aks-sadoday eshildi: «O'g'ri, o'g'ri! Beggins o'g'ri! Nafratlanamiz undan, umrbod nafratlanamiz!»

Shunisi qiziqki, Bilbo bu haqda o'z hamrohlariga indamadi. Bellashuvda yutsa Gollum unga sovg'a va'da qilganini, o'z oroliga qaytib, sovg'asini topa olmaganini aytdi. Ko'p yillar muqaddam Gollumga tug'ilgan kuniga tuhfa qilingan Uzuk yo'qoldi. Qorong'i so'qmoqda topilgan Uzuk Gollum yo'qotib qo'ygan o'sha qimmatbaho buyum ekanligini Bilbo fahmladi, albatta. Lekin modomiki u topishmoq topish bellashuvida g'olib chiqqan ekan, Uzuk haqli ravishda o'ziniki bo'lib qoldi. Biroq

qiyin ahvolga tushib qolgani bois, Bilbo Uzuk topib olganini Gollunga aytmay, sovg'a o'rniga tashqariga chiqish yo'lini ko'rsatib yuborishini iltimos qildi. Hodisalarning aynan mana shu talqinini Bilbo o'z xotiranomasiga ham kiritib, Elrondning maslahatiga qaramay, o'zgarishsiz qoldirdi.

Aftidan, hodisalarning bunday bayoni «Alvon kitob» va uning ko'plab nusxa va ko'chirmalariga ham kiritilgan ko'rinadi. Ammo kitobning, shubhasiz, Frodo bilan Semga tegishli aksariyat nusxalarida hodisalar haqqoniy aks ettirilgan. Ular ikkalasi haqiqatni bilgach, kekxa hobbit yozib qoldirgan nusxalarni yo'q qilishni istashmadi.

Ammo Gendalf Bilboning dastlabki hikoyasiga bovar qilmay, Uzuk masalasida vaqti-vaqti bilan qiziqish bildirib bora-verdi. Ko'pdan ko'p so'roqlar joniga tekkan Bilbo oxiri bor gapni ro'yi-rost aytib berdi va bu Gendalf ikkalasining munosabatlarida biroz keskinlik yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Haqiqat kekxa sehrgar uchun juda muhim. Binobarin, garchi bu haqda Bilboga indamagan bo'lsa-da, ko'ngli toza hobbit tog'dan Uzuk topib chiqqanini o'z tabiatiga xos bo'lmagan holda sir saqlab, gapning rostini darhol aytib bermaganini tashvishli holat deb topdi. «Sovg'a» g'oyasi Bilboning to'qib chiqqan gapi emas edi. Buni Bilbo Gendalfning taxminiga ko'ra, Gollunning o'zidan eshitib qolgan. O'zi bilan o'zi gaplashib yuradigan Gollum Uzukni bir necha bor «tug'ilgan kunimga berilgan sovg'a» deb atagan. Buni ham Gendalf juda g'alati, shubhali holat deb topgan. Chin haqiqatdan esa Gendalf oradan ko'p yillar o'tgach voqif bo'ladi. Buni biz ushbu asarda ko'ramiz.

Bilboning kelgusi sarguzashtlari haqida gap aytarli ko'p emas. Uzuk yordami bilan u orklarning qorovul xizmatiga ko'rinmay qochib qutulib, hamrohlariga borib qo'shildi. Safar davomida u Uzukdan ko'p marta, asosan do'stlariga yordam qo'lini uzatish uchun foydalandi, lekin sehrli uzugi borligini ulardan imkon qadar uzoq vaqt sir tutdi. Uyga qaytgach, Uzuk haqida Gendalf bilan Frododan tashqari, hech kimga churq etmadi. Dunyoda boshqa birov bunday Uzuk borligini xayoliga ham keltir-

magan. Bilbo o'z sarguzashtini bayon etgan xotiranomasini faqat jiyani Frodoga ko'rsatgan.

Qilichni Bilbo o'choq devoriga osib qo'ydi, ajdar qo'riqlagan xazinadan chiqqan bo'lib, gnomlar hadya etgan ajoyib sovutini esa muzeyga – Yerqazir qishlog'idagi Musomlar Uyiga topshirdi. O'z Beg-Endidagi qutida sarguzasht davomida kiyib yurgan qaytarma qalpoqli eski plashini saqladi. Tog'da topilgan Uzuk mana shu plash cho'ntagida, har ehtimolga qarshi zanjir o'tkazilib qadalgan holatda yotdi.

Bilbo uyga ellik ikki yoshga to'lib, 22-iyun kuni (Shir o'lkasida qabul qilingan yil hisobiga ko'ra 1342-yili) qaytib keldi. Janob Beggins o'zining bir yuz o'n bir yoshga to'lganini nishonlashga (1401-yili) hozirlik ko'ra boshlaguncha, Shirida aytarli hech narsa ro'y bermadi. Mazkur hikoyamiz aynan mana shu fursatdan boshlanadi.

## SHIRDAGI TARIXIY QAYDLARGA DOIR SHARHLAR

Tinchlik shartnomasining imzolanishi va qayta tiklangan qirollikning vujudga kelishi bilan yakun topgan Uchinchi davr xotimasidagi buyuk hodisalar va hobbitlarning ushbu hodisalarda o'ynagan roli pakana xalq orasida o'z tarixiga nisbatan katta qiziqish uyg'otdi. Natijada, hobbitlarning ko'pdan ko'p og'zaki qissa-yu, rivoyatlari qog'ozga tushirildi. Yirik sulolalar qirollikda yuz bergan hodisalardan manfaatdor bo'lib, ularning ko'plab a'zolari qadimiy tarix va og'zaki rivoyatlarni o'rgana boshlashdi. To'rtinchi davrning birinchi yuz yili nihoyasida Shirida ko'pdan ko'p tarixiy kitob va qaydlardan iborat bir nechta kutubxona vujudga keldi.

Bunday to'plamlarning eng yiriklari Andertauer, Katta smial va Brendi-Xollda shakllangan. Uchinchi davr xotimasida yuz bergan hodisalar asosan «G'arbiy sarhadlarning Alvon kitobi» asariga asosan bayon etilgan. Ushbu asar Uzuk uchun olib borilgan urush tarixiga doir eng muhim manba bo'lib, uzoq vaqt

Andertauerda, g'arbiy sarhadlarning qo'riqchilari bo'lmish Feyrbeyrnlar xonadonida saqlangan. Dastlab u Bilboning o'zi bilan Rivendellga olib ketgan shaxsiy kundaligi bo'lgan. Frodo uni Shirga qaytarib kelib, bo'sh qolgan sahifalariga urush hodisalarini Shir solnomasi bo'yicha 1420 – 1421-yillari davomida bayon etgan. Bularning bari alvon charm-la muqovalangan to'rt jilddan tashkil topdi. Ushbu jildlarga g'arbiy sarhadlarda beshinchi jild qo'shimcha qilindi. Unda hobbitlarning Uzuk birodarligidagi ishtirokiga taalluqli sharhlar, hobbitlar sulolalarining shajaralari va shu kabi boshqa materiallar mujassam etildi.

«Alvon kitob»ning asl nusxasi saqlanib qolmadi, ammo undan, ayniqsa, beshinchi jildidan Sem Skrombi farzandlarining merosxo'rlari foydalanishi uchun ko'p nusxa ko'chirilgan. Ammo eng muhim nusxa o'ziga xos tarixga ega. O'sha nusxa Katta smialda saqlanadi. Aslida u Peregrinning nabirasi tomonidan Shir solnomasi bo'yicha 1592-yili (To'rtinchi davrning 172-yili) yuborilgan buyurtmaga binoan Gondorda ko'chirilgan. Asarni ko'chirib yozgan janublik kotib quyidagicha qo'shimcha qilgan: «Qirol mirzasi Findegil nusxa ko'chirish ishini To'rtinchi davrning 172-yili yakuniga yetkazdi. Mazkur ko'chirma Minas Tiritdagi Teyn kitobining mayda tafsilotlarigacha ko'chirilgan nusxasidir. Ammo Teyn kitobi ham, o'z navbatida, qirol Elessarning buyurtmasiga binoan «Periannatning Alvon kitobi»dan ko'chirilgan nusxa sanalib, unga To'rtinchi davrning 64-yili Gondorga qaytgan teyn Peregrin tomonidan yetkazilgan».

Teynning kitobi «Alvon kitob»dan olingan birinchi nusxa bo'lib, keyinchalik o'tkazib yuborilgan yoki yo'qotilgan ko'plab materiallarni o'z ichiga mujassam qilgan. Minas Tiritda ushbu kitob tahririga, ayniqsa, elflarning ismlari yoki elf tilida keltirilgan iqtiboslarga ko'plab tuzatishlar kiritilgan. Shuningdek, unga urush hodisalariga daxli bo'lmagan «Aragorn va Arven haqidagi qissa»ning qisqartirilgan talqini qo'shimcha qilingan. O'sha qissaning to'liq matni qirol o'rinbosari Faramirning nabirasi Baragir tomonidan qirol ketganidan so'ng yozilgan. Biroq Findegil tomonidan olingan ko'chirmaning asosiy ahami-

yati shundaki, ushbu kitobda Bilboning o'zi amalga oshirgan «Elf tilidan tarjimalar» mavjud. U tarjimalar uchta jilddan tashkil topib, ijrosi tarjimondan kuchli mahorat-u, ulkan sabr-toqat talab etgan. Bilbo o'zining ushbu tarjimalarini Rivendellda mavjud jamiki og'zaki va yozma manbalardan foydalangan holda 1403-yildan 1418-yilgacha bajargan. Tarjima matnining mazmuni ibtidoiy tarix hodisalarining bayonidan iborat bo'lgani bois, bu yerda ular haqda ortiqcha to'xtalib o'tishga hojat bo'lmadi.

Roxan bilan Gondordan aloqani uzmagani Meriadok va Peregrin o'z sulolarining rahnamolariga aylangan kundan buyon Baklberi va Quyonyuzlilar qishlog'idagi kutubxonalariga «Alvon kitob»ga kiritilmagan ko'plab tarixiy qaydlar kela boshladi. Brendi-Xolda Eriador va Roxan tarixiga doir ko'plab ilmiy ishlar yig'ildi. Ularning ayrimlarini Meriadokning o'zi boshlab bergan. Shirda u shundoq ham o'zining «Shir giyohlari haqida qissa»si, Shir va Tog'bag'ri kalendarlari bilan Rivendell, Gondor va Roxan kalendarlari o'rtasidagi tafovut o'rganib chiqilgan «Yillar farqi» asari bilan mashhur. Shuningdek u «musom» singari so'zlar va joy nomlaridagi qadimiy elementlarning kelib chiqishini oydintashtirish, ularning Roxirrim tilidagi ildizlarini qidirib topishga katta qiziqish namoyon etganicha «Shirda qo'llaniladigan ismlar va qadimiy so'zlar» haqida kichik ilmiy asar tuzdi.

Katta Smiallardagi kitoblar Shir tarixi nuqtai nazaridan ko'p qiziq emas, lekin umumiy tarix uchun juda muhim o'rin tutadi. Ularning birortasi ham Peregrin tomonidan yozilmagan, garchi uning va merosxo'rlarining sa'y-harakatlari ila Gondorda bitilgan ko'plab qo'lyozmalar bir yerga yig'ilgan bo'lsa-da. Bular asosan Elendil va uning o'g'illariga taalluqli afsonalar nusxasidan tashkil topgan. Butun Shir bo'yicha faqat shu yerdagina Numeron tarixi va Sauronning paydo bo'lishiga doir qimmatli materiallar mavjud. Aftidan, «Yillar haqida qissa» Meriadok tomonidan yig'ilgan materiallar yordamida aynan shu yerda bir butun qilib yig'ilgan ko'rinadi.

Biroq, unda keltirilgan sanalar, ayniqsa, Ikkinchi davr sanalari ancha taxminiy bo'lib, diqqat bilan o'rganib chiqishni

taqozo etadi. Taxminlarga ko'ra, Meriadok ko'p marta tashrif buyurgan Rivendelldan bu borada yordam olib, tegishli ma'lumotlarni qo'lga kiritgan ko'rinadi. Elrond ketganidan keyin Meriadokning o'g'illari Rivendellda elflar bilan uzoq yashashgan.

Galadriel ketganidan so'ng, aytishlaricha, uning makoniga Kelebron ko'chib o'tgan. Biroq, Kelebronning Kumushrang bandargohlarni ko'rgan kunlariga doir tarixiy qaydlar saqlanib qolmagan va u bilan birga O'rtayerning qadimiy davri haqidagi so'nggi tirik xotiralar ham jo'nab ketgan.

Olam gulladi uning davrida,  
Mushak otildi chaman bog' kabi.  
Gullab porladi uchqun samoda,  
Yashin gumburladi ajdar singari.



## SHINDIRILGAN KITOB BIRINCHI KITOB

Uchta uzuk oqil elflarga – ezgu ishlari uchun,  
Yettita uzuk tog' gnomlariga<sup>1</sup> – konchilik nafi uchun,  
O'ntasi O'rtay yer odamlariga – yovuzlikka xizmati  
Va qirg'in-barot janglarda dovyurak bo'lishlari uchun,  
So'nggisi va eng qudratlisi – Mordor Hukmdoriga,  
Elatlarning barini ayirib, erkidan mahrum qilish,  
Kurrai zamindagi o'z faqirona uylariga qamab,  
Qudratli Mordor Hukmdoriga qaram qilish uchun.



<sup>1</sup> **Gnom** – G'arbiy Yevropa xalqlari afsonalariga ko'ra, yer osti xazinalarini qo'riqlovchi maxluq.

## UZOQ KUTILGAN KATTA ZIYOFAT

Janob Bilbo Beggins o'zining bir yuz o'n bir yoshga to'lganini nishonlash maqsadida katta ziyofat berishga ahd qilgani hammani hayajonga solib, Hobbiton aholisi orasida turli gap-so'zlar tug'ilishiga sabab bo'ldi.

Bilbo juda boy va g'alati kishi bo'lib, bir zamonlar ancha vaqt gum bo'lib, yana topilib kelgan kundan so'ng o'tgan oltmish yil ichida butun Shir o'lkasi uchun ajablanish mavzusiga aylanib qoldi. Safardan o'zi bilan olib kelgan boylik mahalliy afsonaga aylanib, aksariyat hobbitlar Beg-Endning ostida xazinaga to'lib-toshgan tunnellar ko'pligiga shubha qilmaydi. Agar gap-so'z uchun bu ham kamlik qiladigan bo'lsa, Bilboning tasanno aytishiga munosib kuchi-yu, g'ayrat-shijoatiga oid mavzuga o'tiladi. Oradan o'tayotgan vaqt janob Bilbo Begginsga daxl qilmayotganday go'yo. To'qson yoshga to'lganida endigina ellik yoshga yetgan hobbitday ko'ringan. To'qson to'qqiz bahorini qoralab qo'yganida esa uni yaxshi saqlanib kelayotgan qariya deb atashdi, lekin o'zgarmas qolayotgan qariya deyishsa, aniqroq bo'lar edi. Ko'pchilik bosh siltab, bitta hobbit uchun bu haddan ortiq ko'p ne'mat, chunki uzoqqa cho'zilgan bunday serg'ayrat yoshlik bilan mish-mish gaplarga qaraganda, behisob boylik boshqa birorta hobbitga nasib qilishi amri mahol degan fikr bildirdi.

– Buning haqini berishga to'g'ri keladi hali, – deyishdi ular. – Bu tabiatda ko'rilmagan holat bo'lib, hali ko'p musibatlar olib keladi.

Lekin shu kungacha hech kimning boshiga hech qanday musibat tushmadi, modomiki janob Beggins saxovatli ekan, ko'pchilik uning g'ayrioddiyligi va tolei balandligini kechirishga tayyor edi. Janob Bilbo Beggins ko'plab qarindoshlarini (Sakvil-Begginslardan tashqari, albatta) mehmonga muntazam chaqirib boradi, kambag'al hamqishloqlar orasida unga zavq-la qaraydigan ixlosmandlariga ega. Lekin u, jiyanlari ulg'aya boshlaguncha o'ziga qadrdon do'st ortirmadi.

Jiyanlar orasida eng kattasi yosh Frodo Beggins bo'lib, Bilbo uni juda yaxshi ko'radi. Bilbo 99 yoshga to'lgan kuni Frodoni o'zining merosxo'ri deya e'lon qilib, Beg-Endga ko'chirib keldi. Sakvil-Begginslarning umidi o'sha kuni puchga chiqdi.


Qarang-ki, Bilbo bilan Frodo ikkalasi bir kunda – 22-sentabr kuni tug'ilgan ekan.

– Sen shu yerda yashaganing maqul kichkintoy Frodo, – dedi kunlardan bir kun Bilbo. – Shunda biz tug'ilgan kunimizni birga nishonlaymiz.

U vaqtda Frodo bolalik bilan o'ttiz uch yosh orasidagi, hobbitlar mas'uliyatsizlik yoshi deya e'tirof etishadigan yoshda edi.

O'sha kundan keyin yana o'n ikki yil o'tdi. Bilbo har yili tug'ilgan kun munosabati bilan Beg-Endda ziyofat uyushtirib keldi. Ammo bu yilgi tug'ilgan kun, ko'pchilik fahmlashicha, favqulodda hodisaga aylanadi. Janob Bilbo Beggins bir yuz o'n bir yoshga to'ldi – qiziq son va hobbit uchun juda tabarruk yosh (qariya Tuk bir yuz o'ttiz yoshga yetgan edi). Frodo ham shu kuni o'ttiz uch yoshga to'ldi – bu ham jiddiy yosh, hobbit uchun «katta bo'ldi» hisoblanadi. Hobbiton va Bayuoter qishloqlarida vaysaqi tillar ishga tushib, butun Shir bo'ylab mish-mish gaplar tarqadi. Janob Bilbo Begginsning tarixi va tabiati g'iybatchilar uchun navbatdagi bosh mavzuga aylandi, keksalarning fahmlashicha, ularning xotiralari yana dolzarb bo'lib qoldi.

Hamma joyda Qariya nomi ila tanilgan Xemfast Skrombining tinglovchilariday ziyrak tinglovchilar hech kimda



yo‘q. U Bayuoter yo‘lidagi mo‘jazgina «Pechak novdasi» mehmonxonasida o‘z odatiga ko‘ra, gap sotib o‘tiradi. Gapirganda ham takabburlanib, g‘urur-la gapiradi. Chunki u mana qirq yildirki, Beg-End bog‘ini yakka o‘zi parvarish qiladi, ungacha esa bu ishda qariya Xolmanga yordam bergan. Endi o‘zi ham keksayib, bo‘g‘imlari yaxshi bukilmay qolgani bois, asosiy ishlarni uning kenja o‘g‘li Sem Skrombi bajaradi. Ota-o‘g‘il Skrombilar Bilbo va Frodo bilan do‘stona munosabatda. Ular Hobbiton qishlog‘ining Begshot-Rou ko‘chasidagi Beg-End tepasida joylashgan uchinchi tepalikda yashashadi.

– Janob Bilbo juda dilkash, sergap hobbit-jentlmen ekanligini hamisha ta‘kidlab kelganman, – bayonot qildi qariya Xemfast.

Qariya haq. Doimo xushmuomala gaplashadigan Bilbo unga «janob Xemfast» deya murojaat qilib, sabzavot, ayniqsa, kartoshka yetishtirish masalasida maslahat so‘rab kelgan. Chunki dehqonchilik bobida keksa Xemfast Skrombi butun Shirda katta e‘tibor qozongan kishi sanaladi.

– U bilan birga yashayotgan Frodo haqida nima deysan? – so‘radi bayuoterlik qariya Peskuns. Uning familiyasi Beggins, ammo aytishlaricha, u Brendizayklar avlodiga mansub ekan. Voajab, qanday qilib hobbitonlik allaqanday Beggins xotin qidirib g‘alati xalq yashaydigan Baklend viloyatiga borishi mumkin?

– G‘alati bo‘lib qolganining hayron bo‘ladigan yeri yo‘q, – gapga aralashdi qariyaning qo‘shnisi Deddi Dvulap. – Bredivayning narigi sohilida, qadimiy o‘rmon yonida yashashgandan keyin ular g‘alati bo‘lmay, men g‘alati bo‘lishim kerakmi?!

– To‘g‘ri aytasiz, qariya! – dedi keksa Xemfast. – Baklendlik Brendizayklar o‘sha o‘rmonda yashashmaydi, albatta, lekin chindan ham sal g‘alatiroq qabila. Ular katta daryoda qayiqda suzishadi, bu biz hobbitlar uchun juda g‘ayrioddiy holat. Binobarin, har xil noxushliklar aynan o‘sha yerdan kelishi ham tabiiy. Ammo shunday bo‘lishiga qaramay, janob Frodo juda

yaxshi yigit. Nafaqat zohiran, balki ichki dunyosi bilan ham u o'z amakisi janob Begginsga o'xshaydi. Qolaversa, uning otasi Beggins bo'lgan. Salobatli kishi edi Drogo Beggins. U haqda aytarli gap bo'lmagan, daryoda g'arq bo'lib o'lmaguncha.

– Daryoda g'arq bo'lib? – ajablandi bir necha kishi.

Bu yerda o'tirganlarning hammasi o'sha fojia haqida va boshqa mish-mish gaplarni eshitgan, albatta, lekin hobbitlar birovning oilasiga taalluqli g'iybatga o'larcha o'ch bo'lishadi. Binobarin, ilgari eshitgan gapni takror eshitishaveradi.

– Ha, shunday deyishadi, – tasdiqladi qariya Xemfast Skrombi. – Xabaringiz bo'lsa, janob Drogo sho'rlik Primula Brendizayk xonimga uylangan. U qiz janob Bilboga xolavachcha bo'lgan. Primulaning onasi qariya Tukning kenja qizi edi. Janob Drogo esa janob Bilboning amakivachchasi bo'ladi. Binobarin, janob Frodo unga ona tomonidan ham, ota tomondan ham jiyani hisoblanadi. Janob Drogo uylangach, qaynotasi janob Gorbodok Tukning xonadonida tez-tez qoladigan, xotini Primula bilan Brendivayn daryosida qayiqda suzadigan odat chiqardi. Er-xotin ikkalasi daryoga g'arq bo'lishgan kuni sho'rlik janob Frodo hali yosh bola edi.

– Aytishlaricha, er-xotin daryo sayliga to'yib tushlik qilishganidan so'ng chiqishgan, – dedi qariya Peskuns. – Qayiqning ontarib ketishiga vazni og'irlashib ketgan Drogo sababchi bo'lgan.

– Men esa o'sha Drogo xotinini qayiqdan itarib yuborgan, suvga tushayotgan xotini esa o'zi bilan erini ham tortib ketgani haqida eshitganman, – dedi hobbitonlik tegirmonchi Sendimen.

– Kim nima desa, laq etib ishonavermaslik kerak, – jerkib berdi Sendimenni jini suymaydigan keksa Xemfast Skrombi. – Kimdir kimnidir itarib, kimdir kimnidir o'zi bilan tortib ketgani haqida bema'ni mish-mish tarqatma. Qayiq deganlari shundoq ham dog'uli narsa bo'ladi, fojining har xil tuturiqsiz sabablarini to'qib chiqarishga hojat yo'q. Nima qilgan taqdirda ham janob Frodo anavi g'alati baklendliklar orasida g'irt yetim, bir tiyin

pulsiz qolgan. U Brendixoll qishlog'ida yashadi. Qariya Gorbakning yuzlab qarindoshlari hamisha bir yerda yashagan. Janob Bilbo yetim bolani xushxulq jamiyatga qaytarib, savob ish qildi. Biroq bu Sakvil-Begginslar uchun mutlaqo kutilmagan zarba bo'ldi. Janob Bilbo bedarak ketganda uni o'ldiga chiqargan Sakvil-Begginslar Beg-Endni qo'lga kiritishga umid qilishgan. Uzoq cho'zilgan safarida: qaytib kelgan janob Bilbo ularni quvib soldida, qarish nimaligini bilmay, haligacha otday baquvvat yuribdi. Mana endi, tomdan tarasha tushganday, merosxo'ri ham paydo bo'lib, barcha hujjatlar qonunga muvofiq rasmiylashtirildi. Endi Beg-End Sakvil-Begginslarga hech qachon nasib qilmaydi.

– Eshitishimga qaraganda, Beg-End pulga liq to'la emish, – dedi olis Yerqazir qishlog'idan g'arbiy Shirga kelgan notanish kishi. – Tepalikning tepa qismida ko'p tunnel qazilgan bo'lib, ichiga oltin, kumush tangalar, ko'pdan ko'p javohirlar solingan qutilar joylangan ekan. Eshitganim shu, agar rost bo'lsa, albatta.

Unday bo'lsa, men aytishim mumkin bo'lgan gapdan ko'ra ko'proq eshitibsiz, – javob berdi qariya Xemfast Skrombi. – Javohirlar to'g'risida biror nima deya olmayman. Janob Bilbo Begginsning puli chindan ham yetarlicha bor, lekin siz aytgan tunnellar haqida hali eshitmaganman. Janob Bilbo sakson yil muqaddam topilib kelgan kunni yaxshi eslayman, unda men yosh bola bo'lib, qariya Xolmanga hali shogird tushmagan edim, chol otamning amakivachehasi edi. Lekin u meni yig'ib-terilmagan meva va sabzavotlarni qo'riqlash uchun o'zi bilan Beg-Endga tez-tez olib kelar edi. O'sha kunlardan birida janob Bilbo tepalikka poni minib chiqqan, o'zi bilan bir nechta qop va qutilar olib kelgan edi. Ammo o'sha yuk begona yurtlardan ko'tarib kelgan xazina bo'lganiga shubha qilaman. Nima qilganda ham tunnellarini to'ldirib tashlashga yetmas edi u. O'g'lim Sem bu masalada ko'proq biladi. Chunki u Beg-Enddan deyarli ketmaydi. Janob Bilboning ertaklarini eshitib, rosa zavq oladi. Janob Beggins

unga yozib-chizishni o'rgatib, savodini chiqarib qo'ydi. Umid qilamanki, puxta savod bolaga zarar qilmaydi.

«Qo'y o'sha elflar-u, ajdarlaringni, bizga karam bilan kartoshka foydaliroq. Birovning ishiga burningni suqma, pushaymon yeb qolasan», deyman men unga. Xuddi shu gapni boshqalarga ham aytishim mumkin, – dedi u, anavi notanish kishi bilan hobbitonlik tegir-monchiga o'qrayib.



Biroq qariya o'z tinglovchilarini ishontira olmadi. Bilboning bitmas-tuganmas boyligi haqidagi afsona yosh hobbitlar avlodining ongiga singib ketgan.

– O'zi bilan olib kelgan xazinaga yana xazina qo'shib kelgandir-da, – dedi tegirmonchi, umumiy fikrni ifoda etib. – Uning tez-tez gum bo'lib turadigan odati bor. Uyiga tez-tez tashrif buyurib turadigan ajnabiylarni ko'rmaysizmi: kechalari gnomlar keladimi-ey, anavi shlyapa kiygan ko'zbolog'ich chol choy ichib turadimi-ey, qisqasi mehmoni ko'p uning. Nima desangiz, deng-u, oqsoqol, lekin Beg-End juda g'alati joy, unda yashaydigan odamlar ham g'alati.

– Siz ko'nglingiz tusagancha aljirashingiz mumkin. O'tirgan joyingizda tuhmat qilib o'tirganingizni hamma biladi, janob Sendimen, – e'tiroz bildirdi keksa Xemfast, tegirmonchini yanada battar yomon ko'rib. – Ayrim g'alati narsalarga ko'niki-shimiz mumkin, Hobbitonda yashaydigan ba'zi shaxslar, kulbasining devori sof oltindan bo'lsa-da, uyiga kelgan mehmonga bir kosa pivo ham taklif qilmaydi. Ammo Sem bir narsani aniq biladi: aytishicha, katta ziyofat uyushtirilib unga hamma taklif qilinarkan ekan.

Ajoyib sentabr oyi kirib keldi. Ko'p o'tmay, aftidan, Semdan chiqqan bo'lsa kerak, mish-mish gap tarqaldi: Shirda keksa Tuk o'lgandan buyon hech kim ko'rmagan mushakbozlik bo'lar ekan.

Kun ketidan kun o'tib, katta ziyofat sanasi yaqinlashib qoldi. Oqshomlardan birida Hobbiton orqali qandaydir g'alati ot arava o'tib, Beg-End tepaligiga ko'tarildi. Aravaga ortilgan yuk esa yanada g'alati. Hayratlangancha qarab turgan hobbitlar eshik

yorug‘i orqali biror nimani ilg‘ab olishga urinishdi. Arava bosh-qarayotgan uzun soqolli kelgindilar egniga qaytarma qalpoqli plash kiyishgan bo‘lib, qo‘shiq aytib kelishdi. Ularning bir necha nafari Beg-Endda qoldi. Sentyabrning ikkinchi haftasi oxirida, kuppakunduz kuni Brendivayn ko‘prigidan o‘tgan yana bir ot arava Bayuoter yo‘lidan yurib keldi. Uni boshiga cho‘qqidor ko‘k shlyapa, egniga kulrang plash kiygan, bo‘yniga kumushrangli sharf o‘ragan, oppoq soqoli uzun, qoshi qalin qariya yolg‘iz o‘zi boshqardi. Jajji hobbitchalar arava ortidan Hobbitonning deyarli oxirigacha yugurib ergashishdi. Ular to‘g‘ri fahmlashgandek, arava mushakbozlik jihozlariga to‘la edi. Bilboning eshigiga yetgan qariya har xil o‘lcham va shaklga ega qutilarni aravasidan tushirib, ichkariga tashidi. Har bir qutida qizil «» (G) harfi va elflarning «» runasi tamg‘a sifatida bosilgan.


Turgan gapki, bu «Gendalf» belgisi bo‘lib, quti tushirgan chol esa Shirda asosan olov, tutun va yorug‘likni mohirona o‘ynatishi bilan tanilgan Gendalfning o‘zi edi. Uning faoliyati aslida ancha murakkab, xavfli-yu, Shir aholisi buni bilmaydi. Ushbu pakana xalq uchun Gendalf hamisha katta ziyofatlarda tomosha uyushtiradigan novcha bo‘yli odam bo‘lib kelgan. Jajji hobbitchalarning hayajoni ham shundan.

– «G» harfi «Gavdali» degan ma‘noni anglatadi! – dedi o‘zini aqlli deb bilgan jajji hobbitchalardan biri.

Hobbitchalar Gendalfni yaxshi tanishadi, garchi u Shirda kam paydo bo‘lib, ba‘zan uzoq qolmasa-da. Biroq ushbu bolachalar ham, ularning ota-onalari ham muqaddam mushakbozlikni ko‘rishmagan. Chunki unday ishlar afsonaviy o‘tmishda bo‘lib o‘tgan. O‘z qutilarini Bilbo va bir necha gnomlar yordamida aravadan tushirib bo‘lgan qariya bolachalarga mayda pul tarqatib chiqdi. Ammo birorta ham mushak portlatilmagani bois, katta-kichik merovlarning hafsalasi pir bo‘lib, tek qotib turishdi.

– Qani, endi uy-uyingizga tarqaling! – dedi Gendalf. – Vaqti kelib, hammasini ko‘rasiz.

Gendalf Bilbo bilan birga ichkariga kirib ketdi. Jajji hobbitchalar eshikka ma‘lum vaqt behuda qarab turishgach, har





tomon tarqashdi. Ularning nazarida, katta ziyofat sanasi hech qachon kelmaydiganday ko'rindi.

Ichkarida Bilbo bilan Gendalf kichkina xonaning g'arbga, boqqa qaragan ochiq derazasi oldida joylashishdi. Yoz kuni-ning ikkinchi yarmi yorqin va xotirjam o'tmoqda. Bog' gullari qizil va tilla tusda yarqiramoqda: itog'iz, kungaboqar va lotin chechagi chim devor bo'ylab o'sib, guli to'garak derazadan ichkariga mo'ralamoqda.

- Bog'ing juda chiroyli-da, – maqtadi Gendalf.

- Ha, chiroyli, – javob berdi Bilbo. – Uni juda yaxshi ko'raman, ko'hna, betakror o'lkam Shirni juda yaxshi ko'raman, ammo, nazarimda, ta'tilga chiqish vaqti yetgan ko'rinadi.

- Ketmoqchimisana bu yerlardan?

- Ha. Buni men ko'pdan buyon ko'nglimga tugib kelgan edim. Mana endi qarorim deyarli qat'iylashib qoldi.


- Yaxshi, unday bo'lsa, bu haqda boshqa gapirmaymiz. Qaringni qat'iylashtirib boraver. Bu ishing senga ham, bizga ham yaxshilik keltiradi.

- Shunga umid qilaman. Nima qilgan taqdirda ham payshanba kuni vaqtimni chog' o'tkazib, hazilkashlik qilmoqchiman.

- Hazillaringga kuladigan odamlar bo'ladimi? – so'radi Gendalf, bosh chayqab.

- Ko'ramiz, – kulib boqdi Bilbo.

Ertasi kuni Bilboning tepaligiga yana ko'p ot aravalar ko'tarildi. Dastlab qishloq aholisi orasida «mahalliy manfaatlar»ga doir ming'ir-ming'ir eshitildi. Lekin o'sha haftaning o'zida Beg-Enddan Shirning barcha burchaklariga Hobbiton, Bayuoter kabi mahalliy qishloqlarda yetishtiriladigan yoki ishlab chiqariladigan har xil mollar, turli-tuman zeb-ziyat buyumlari, oziq-ovqat mahsulotining har xil turlariga shoshilinch buyurtmalar g'izilladi. Mahalliy aholi tug'yon tortib quvnadi, odamlar kalendarga tez-tez ko'z tashlab, taklifnoma olish umidida pochtaachining yo'liga qaraydigan bo'lib qolishdi.



Ko'p o'tmay har tomon taklifnoma tarqatildi. Hobbiton pochtasi qurshab olindi, Bayuoter pochtasi esa ishga ko'milib ketganidan pochta-chining ko'ngilli yordamchisi lavozimiga ishga qabul qilish borasida e'lon berishga majbur bo'ldi... Undan keyin aks yo'nalishda qizg'in ish boshlandi. Hamma joydan Beg-End tepaligiga «Taklifingiz uchun katta rahmat, albatta, boraman» kabi boadab iboralar bitilgan javob xatlarining oqimi kela boshladi.

Beg-End darvozasida: «Kirish mumkin emas, ziyofat tashkilotchilari bundan istisno» so'zlari bitilgan e'lon paydo bo'ldi. Biroq o'sha tashkilotchilar yoki tashkilotchilikka da'vogarlar ham ichkariga kirishga kamdan kam hollarda ijozat olishdi. Bilboning o'zi juda band: bir dunyo taklifnoma yozdi, taklifnomalarga javoban kelgan xatlarni o'qib bordi, har bir mehmonga sovg'a tanladi va yana qandaydir hozirlik ko'rish ishlari bilan shug'ullandi. Gendalf kelgan kundan buyon birov uni ko'rmadi.

Sentabr tonglaridan birida hobbitlar Bilboning Beg-Endiga kiriladigan eshikning janub tomonidagi katta dalaga bir dunyo ip kalavalari, ulkan soyabonlar va ko'chma do'konlar tiklanadigan ustunlar terib chiqilganini ko'rishdi. Katta yo'lga olib chiqadigan ko'tarmalarda keng zina pog'onalari o'yildi, alohida yo'lak yotqizilib, uning boshida oppoq darvoza o'rnatildi. Ayniqsa, Bilboga qo'shni bo'lmish Begshot-Rou ko'chasidagi uchta xonadonga nihoyatda qiziq tomosha bo'lib, hobbitlar rosa maza qilishdi. Tomosha qiziq bo'lganidan hatto hurmatli qariya Sem Skrombi ham o'zini ishlayotgan ko'yga solmay qo'ydi.

Soyabon ko'tarish ishlari boshlandi. Keng dalada o'sayotgan yakka daraxt ustiga alohida, nihoyatda baland chodir shunday tiklandiki, shoxlariga fonuslar osib tashlangan ushbu daraxt dala o'rni-da hosil qilingan ulkan shiyponning bir burchagida, asosiy stol oldida qoldi. Eng qiziq, nihoyatda ma'nodor, har qanday hobbitning ko'nglini sust ketkazadigan narsa bu, dalaning shimoliy burchagidagi kattadan katta ochiq oshxona bo'ldi. Tevarak atrofdagi mehmonxona va oshxonalardan yig'ilib kel-

gan oshpazlar guruhi Beg-Indda yashayotgan gnomlar va yana qandaydir g'alati xalq vakillari uchun turli-tuman taomlar tayyorlamoqda. Umumiy hayajon kundan kunga oshib bormoqda.


Chorshanba kuni, ziyofat arafasida osmonni bulut qoplab, bundan hamma tashvishga tushib qoldi. Mana nihoyat 22-sentabr sanasi kirib keldi. Quyosh chiqib, bulutlar tarqadi, bayroqlar hilpirab, sayr-tomosha boshlandi.

Ushbu marosimni Bilbo Beggins ziyofat deb nomlagan bo'lsa-da, aslida bu tadbir o'yin-kulgining butun boshli tizimiga aylanib ketdi. Yaqin o'rtada yashaydiganlarning deyarli hammasi taklif qilingan. Ayrimlar bexosdan o'tkazib yuborilganiga qaramay katta shiyponga kirib kelaverishdi. Shuningdek, Shirning boshqa tumanlaridan ham juda ko'pchilik taklif qilindi, ziyofatga hatto xorijlik mehmonlar ham tashrif buyurishgan. Mehmonlarni oq darvoza oldida janob Bilbo Begginsning shaxsan o'zi qarshi oldi. Istisnosiz hammaga sovg'a ulashdi. Darvozadan chiqib, yana kirib kelganlar ikki martadan sovg'a olishdi. Hobbitlar, odatda, o'z tug'ilgan kunida mehmonlarga sovg'a berishadi. U qadar qimmat bo'lmasa-da, har qalay, sovg'a. Umuman aytganda, Hobbiton bilan Bayuoterda Xudoning bergan kuni kimningdir tug'ilgan kuni nishonlanadi. Shunday ekan, har bir hobbit haftada bitta bo'lsa ham sovg'a olishga umidvor bo'la oladi. Hobbitlar sovg'a olish va sovg'a berishdan hech qachon charchashmaydi.

Ammo bugungi sovg'alar juda ajoyib. Jajji hobbitchalar shu qadar to'liqinlanib ketishdiki, ovqatlanishni xayollariga ham keltirishmadi. Hammasi misli ko'rilmagan o'yinchoq sohibi bo'ldi. Ajoyib o'yinchoqlar, ularning ba'zilari sehriga o'xshaydi.

O'yinchoqlarning aksariyat qismiga bir yil muqaddam buyurtma berilgan bo'lib, yil davomida Deyldan va tog'li hududlardan yetkazib borildi. Darhaqiqat, ular usta o'yinchoqsoz gnomlar mehnatining mahsulidir.

Jamiki mehmonlar kelib, darvozadan o'tishgach qo'shiq, raqs, musiqa, o'yin-kulgi va, albatta, yeb-ichish boshlandi.



Hamma dasturxonga uch marta: lench<sup>1</sup>, choyxo'rlik va kechki ovqatga rasman taklif qilindi. Ta'kidlab o'timoq joizki, lench va choyxo'rlik mehmonlar dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanish bilangina farq qildi, xolos. Qolgan vaqtda, xususan, ertalabki o'n birdan, mushakbozlik vaqti yetguncha, ya'ni o'n sakkiz-u o'ttizgacha jag'i tiimay ovqatlanganlar ko'p bo'ldi.

Mushakbozlik Gendalf bajaradigan asosiy ishdir. U ke-rakli narsalarni tashib keltiribgina qolmay ba'zi narsalarni o'zi ixtiro qilib, namoyish etishga hozirlab qo'ydi. Bulardan tashqari, petarda<sup>2</sup>, bengal mushagi, mash'ala, fonus, olovli favvara, o'q uzilganda momaqaldiroqday yangraydigan goblinpistoletipatronlarining katta zaxirasi oldindan yig'ib qo'yilgan. Bularning bari nihoyatda ajoyib tomosha bo'lib, Gendalfning bu boradagi mahorati borgan sari oshib bormoqda.

Ayrim raketalar shirali sayragancha yaltirab uchayotgan qushlarni eslatadi. Tanasi qora tutundan hosil bo'lgan yashildaraxtlarning barglari ochilib, yaltiroq shoxlari dong qotgan hobbitlar ustiga olovli gul sochdi. Bu gullar muattar hid chiqargancha, yerga yetmay havoda o'chdi.

Tungi osmonda hosil bo'lgan daraxtlar orasida son-sanoqsiz kapalak uchdi; rang-barang olov ustuni baland ko'tarilgach burgutlar, bulutlar orasida suzayotgan kemalar yoki qanot qoqayotgan oqqush galasiga aylandi; qizil chaqmoq chaqib, sariq yomg'ir yog'di; kumush nayzalar zafar qozongan qo'shin kabi qichqirgancha havoga ko'tarilib, yerga yuzlab ilonlarga aylanib, hushtak chalib tushdi. Mushakbozlik oxirida esa Bilbo sharafiga sovg'a otilib, Gendalf ko'zlaganday, hobbitlarning bari hang-mang bo'lib qoldi. Olov o'chgach, yuqoriga tutundan hosil qilingan ulkan bulut ko'tarildi. Falakka yetgan ushbu bulut tog' shaklini kasb etib, cho'qqisi yorishdi. O'sha joydan olovning yashil va alvon tusli tillari otilib chiqdi. Kutilmaganda tog' ichidan

<sup>1</sup> **Lench** - Angliya, AQSh va ba'zi G'arbiy Yevropa mamiakatlarida: tushlikdan keyingi ikkinchi ovqat; (umuman yengil ovqatlanish, tamaddi qilib olish).

<sup>2</sup> **Petarda** - xatarli joylarda poyezdni darhol to'xtatish uchun signal sifatida qo'llaniladigan portlovchi snaryad.

qizg'ish-tilla tusli ajdar otilib chiqib, ko'zi tirik ajdarning ko'ziday yarqirab, og'zidan olov otilib, baland na'ra tortgancha xaloyiq ustiga tashlandi. Hamma egilib oldi, ko'pchilik o'zini yerga otdi. Ajdar poyezdday shovqin solgancha uchib o'tib, havoda keskin aylandi-da, shaloplagancha Bayuoter ko'liga tushdi.


– Bu kechki ovqatga chaqirish signali edi, – e'lon qildi Bilbo.

Hayajon shu zahoti barham topib, yerda cho'zilib yotgan hobbitlar tez oyoqqa turishdi. Ziyofatga taklif qilingan mehmonlarning hammasiga ovqat tarqatildi. Daraxt ostida esa alohida dasturxon tuzalgan bo'lib, bu yerda oilaviy ziyofat uyushtirildi. Bilbo katta ziyofatga taklif qilish maqsadida Shirning o'n ikkita burchagiga o'n ikkitadan taklifnoma yo'llangan (hosil bo'lgan sonni hobbitlar gross deb atashadi). Bunda Bilbo bilan Frodoga qarindosh sanalgan sulola vakillari hamda qarindosh bo'lmay. Gendalf kabi qadrdon do'st tutingan kishilar yig'ildi. Yosh hobbitlarning aksariyati ziyofatda uzoq ushlanib qolishlarini bilib, tekin ovqatlantirib olish uchun o'zlari bilan birga bolalarini ham olib kelishgan.

Bugungi ziyofatga hobbitlarning ko'plab sulolalari, xususan, Begginslar va Bulkinslar, Tuklar va Brendizayklar, Grabbalar (Bilbo Begginsning buvisiga) va Chabblar (Tuk buvasiga qarindosh bo'lishgan), Berouzlar, Breysgirdlar, Brokxauzlar, Gudbodlar, Xornblauerlar va Uzunoyoqlarning vakillari yig'ilgan.

Ularning ayrimlari Bilboning uzoq qarindoshlari sanalsa, ba'zilar Shirning olis tumanlarida yashab, Hobbitonga umrida bugun birinchi bor kelishi. Sakvil-Begginslar ham quruq qolmadi. Er-xotin Otto va Lyubeliya Sakvil-Begginslar ham shu yerda. Ikkalasi Bilbo bilan Frododan nihoyatda nafratlanishadi, biroq tilla suvida bitilgan taklifnomaning sehrlil ta'siri kuchlilik qilib, taklifni rad eta olishmadi. Boz ustiga, ularning amakivachchasi Bilbo uzoq yillar davomida taom tayyorlash hunarini olgan bo'lib, taomnomasi ancha shuhrat qozongan.

Taklif qilingan 144 nafar mehmon, garchi mezbonning



tushlikdan so'nggi nutqidan biroz xavfsiragan bo'lsa-da, bugungi ziyofat ko'ngilni quvontiradigan bayramga aylanishini kutdi. Bilboning tabiatida o'zi nazm deya nom bergan ijodiy faoliyatga moyilligi bor. Ba'zan, ayniqsa, bir-ikki stakan urib olganidan so'ng, mashhur safari davomida boshdan kechirgan ajoyib sarguzashtlarini so'zlab berishga kirishadi. Mehmonlar xursand: rang-barang hodisalarga boy, hamma narsa mo'l-ko'l ziyofat chindan ham uzoq cho'zilgan haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Keyingi haftalarda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi butun tuman bo'yicha sezilarli darajada tushib ketdi, biroq Bilboning bayramlari tevarak-atrofdagi barcha ombor va yerto'lalarda yig'ilgan mahsulot zaxiralarni quritib bitirgani bois, huning ahamiyati deyarli bo'lmadi.

Ovqatdan so'ng Bilboning nutqini eshitish vaqti yetdi. Tadbirga yig'ilganlarning aksariyati endi bunga chidasa bo'ladigan holatda, hobbitlar orasida «burchak-burchaklarga kirib olish» deya nom olgan yoqimli kayfiyatda edi. Ular o'zlari yoqtirgan ichimliklar ichib, xushxo'r ovqatlar yeb o'tirar ekan, nutqdan xavfsirash hissiyotlari batamom barham topdi. Endi ular kim gapirsa ham, nima desa ham, eshitishga tayyor.

– Qadri mehmonlarim! – gap boshladi Bilbo, o'rnidan turar ekan.

– Jim! Eshiting! Tinglang! – baqirishdi mehmonlar, ushbu da'vatiga o'zi amal qilmay, qolganlarga jo'r bo'lib qich-qirishni davom etishar ekan.

Bilbo yorishib turgan fonuslarga to'la daraxt ostidagi kursiga chiqib oldi. Fanuslarning shu'lasini uning yumaloq yuzini yoritdi, kostyumining tilla tugmalari yaltiradi. Bir qo'lini havoda siltayotgani, ikkinchi qo'lini shimining kissasiga solib olgani hammaga ko'rinmoqda.

– Mening qadrdon Begginslarim va Bulkinslarim, Tuklarim va Brendizayklarim, Grabblarim va Chabblarim, Berouzlarim va Xornblauerlarim, Boljerlarim va Breysgirdllarim, Gudbodlarim va Brokxauzlarim, Uzunoyoqlarim...

– Ha, biz Uzunoyoqlar! – o'kirdi shiyponning narigi bur-



chagida o'tirgan kekxa hobbit.

Bu, haqiqatan ham, uning familiyasi-yu, lekin ismi jismiga juda monand edi: qalin tuk bosgan yirik oyog'ini yuqoriga ko'tarib, stol ustiga tashlab olgan.

– Uzunoyoqlar! – takrorladi Bilbo. – Shu jumladan, mening qadrli, nihoyat Beg-Endga xush kelibsiz deya oladigan Sakvil-Begginslarim. Bugun men bir yuz o'n bir yoshga to'ldim.

– Yasha! Yasha! Yana ko'p yasha! – baqirishdi stol urib taqillatgan mehmonlar.

Bilbo yorqin nutq o'qidi. Aynan mana shunday, ya'ni qisqa, aniq va lo'nda nutqlarni yoqtiradi u.

– Umid qilamanki, bugun sizlar ham menday xursandsiz, shundaymi?

Quloqni qomatga keltirgan ayyuhannos, baralla baqirilgan «Ha!» javobi yangradi (kimdir «Yo'q!» degani ham eshitildi). Mis karnaylar, burg'ular<sup>1</sup>, qamishsumaylar, fleytalar<sup>2</sup> va shu kabi boshqa cholg'u asboblari chalingi. Yuqorida aytilgandek, bu yerda yosh hobbitlar juda ko'p bo'lib, o'nlab shaqildoq va karnay-sumay ushlab olishgan. Ushbu asboblarning aksariyatiga Deyl tamg'asi bosilgan. Hobbitlarning ko'pchiligi uchun bu hech narsani anglatmasa-da, sumaylar zo'r cholg'u asbobi ekanligini hammasi bir ovozdanda tan olishmoqda.

Mo'jazgina, lekin yuqori sifat-la yasalgan ushbu cholg'u asboblari chindan ham a'lo darajada sadolanmoqda. Bir burchakda o'tirgan yosh Tuklar bilan Brendizayklar Bilbo bobosining nutqi yakuniga yetdi, degan xayolga borishgan ko'rinadi, apil-tapil orkestr<sup>3</sup> tuzib, quvnoq raqs tusha boshlashdi. O'rnidan

<sup>1</sup> **Burg'u** – karnay yoki sumay shaklidagi qadimiy cholg'u asbobi.

<sup>2</sup> **Fleyta** (*nemischa*: Flote) – puflama musiqa cholg'u asbobi. Obnus va boshqa daraxt yog'ochi (dastlab yog'ochdan, hozirda – asosan metall)dan yasaladi. Boshcha (puflanadigan og'zi va tiqini bilan) hamda 2 asosiy bo'g'indan (chalg'ich teshiklari bilan) iborat. 1830-yillarda nemis sozandasi, soz ustasi va kompozitor F. Byom tomonidan takomillashtirilgan zamonaviy fleyta klapanli mexanizm bilan jihozlangan.

<sup>3</sup> **Orkestr** (*fransuzcha*: orchestre – teatrdagi o'tirish joyi yoki ochestra – raqs maydonchasi; *yunon* teatrida sahnaning old maydonchasi) – 1) musiqa asarini birgalikda ijro etadigan turli xil cholg'u asboblari yig'indisi va shu asboblarni chaluvchi musiqachilar



turgan janob Evard Tuk bilan Melilot Brendizayk xonim qo'llariga qo'ng'iroq ushlagancha dilkusho, lekin zo'r g'ayrat talab qiladigan «katta davra» raqsini boshlab yuborishdi.

Ammo Bilboning nutqi hali oxiriga yetmagan. Yonida turgan hobbitchanning qo'lidagi burg'uni olgan Bilbo uch marta baland tovush chiqarib chaldi. Shovqin tindi.

– Uzoq ushlab qolmayman sizni, – xitob qildi u. – Men sizlarni ziyofatga chaqirib, muayyan bir maqsadni ko'zladim...

Bilbo shunday ohangda gap boshladiki, butun shiyponda suv sepganday jimjitlik qaror topdi, Tuklarning bir-ikkitasi esa sergaklanib qolishdi.

– Yo'q, ko'zlagan maqsadim bir emas, naq uchta ekan! Birinchidan, aytmoqchimanki, men barchangizni yaxshi ko'raman va bir yuz o'n bir yil bunday ajoyib hobbitlar orasida yashash uchun juda qisqa muddat ekan...

Gulduros qarsaklar va ayyuhannos ko'tarildi.

– Orangizdan teng yarmingizni o'zim istaganday tani mayman, teng yarmingizni esa loyiqqligingizga nisbatan kamroq xush ko'raman.

Bu gap hobbitlar uchun mutlaqo kutilmagan, ma'nosini anglab yetish ancha qiyin kechadigan gap bo'ldi. Har joy-har joyda uzuq-yuluq qarsak eshitildi, ammo ko'pchilik eshitganini hazm qilib, xushomad nimadan iboratligini fahmlab yetishga urinib o'tirdi.

– Ikkinchidan, tug'ilgan kunimni nishonlash uchun.

Yana olqish yangradi.

– Aniqroq aytadigan bo'lsam, tug'ilgan kunimizni nishonlash uchun. Zero, bugun faqat o'zimning emas, mening jiyanim, asrandi o'g'lim va merosxo'rim Frodoning ham tug'ilgan kunidir. Bugun u katta yoshga to'lib, vorislik huquqini qo'lga kiritdi...

Katta yoshli hobbitlarning ayrimlari ehtiyot-la qarsak

urib qo'yishdi, yosh hobbitlarning bir qanchasi: «Frodo! Frodo! Quvnoq Frodo!» deya qichqirishdi. Sakvil-Begginslar esa «vorislik huquqini» qo'lga kiritish» so'zlari ustida chuqur o'ylga tolishdi.

Ikkinchisining yoshimizni qo'shib hisoblasak 144 yoshga to'libmiz. Mehmonlarning umumiy soni shunday hosil qilinganki, uni ta'bir joiz bo'lsa, gross deya ifodalash mumkin.


Hamma jim bo'ldi. Bu gap maqtov gap emasligi aniq. Mehmonlarning ko'pchiligi, ayniqsa, Sakvil-Begginslar bunday son hosil bo'lishi uchunгина taklif qilinishganini anglab, o'zlarini haqoratlanganday his etishdi. Gross emish-a! Naqadar dag'al ibora! (Gap shundaki, «gross» Shir o'lkasida uy hayvonlarining hisobini yuritish uchun qabul qilingan sanoq birligi hisoblanadi).

Agar menga moziyga nazar solib gapirishga ijozat berilsa, aytardimki, bu kun So'qqa tog' yaqinidagi Uzun ko'l o'rtasida qad ko'targan Esgarot shahriga bochka minib borgan kunim bo'lgan. U kun tug'ilgan kunim bo'lganini unutib yuborganman. O'shanda men endigina ellik bir yoshga to'lgan edim. Tug'ilgan kunim menga ahamiyatsiz kunday ko'rindi. Bizning sharafimizga zo'r ziyofatlar uyushtirildi, lekin men uch kun tinmay yo'talib, aksirib uydan chiqmay yotdim. Ziyofatda menga so'z berilganda esa dimog' bilan aytgan «Sizdan bag'oyat minnatdorman!» so'zlari ila cheklandim. Bugun esa men o'sha fikrimni yanada to'g'riroq, to'laroq ifoda etishim mumkin – kamtarin ziyofatimga tashrif buyurganingiz uchun hammangizga katta rahmat.

Uzoq davom etgan jimjitlik. Endi hamma Bilboning qo'shiq cho'zishi yoki uzundan uzoq she'r o'qishga kirishib ketishidan xavfsirab turibdi. Nega u vaysashni bas qilmayapti? Nega u hobbitlarga yeb-ichish bilan mashg'ul bo'lishga imkon bermayapti. Lekin Bilbo qo'shiq boshlamadi, she'r o'qimadi. Biroz sukut saqlab turgach, gapini davom etdi:

– Uchinchidan va bu, ko'zlangan maqsadlarning so'ngigisi edi – men bir narsani e'lon qilmoqchiman.

So'nggi so'zlarini u shunday baland ohangda aytdiki,



qaddini rost tutmay o'tirganlar ham to'g'ri o'tirib olishdi.

– Bir yuz o'n bir yosh sizday ajoyib hobbitlar orasida yashash uchun juda qisqa muddat ekanini yuqorida ta'kidlab o'tdim, lekin tilim aylanmasa-da, yana bir gapimni aytaman – bo'ldi bas, men ketaman. Va sizlarni hoziroq tark etaman. Alvido!

Kursidan sakrab tushgan Bilbo shu zahoti gum bo'ldi. Chaqmoq chaq nab, mehmonlarning ko'zi qamashib ketdi. Ko'z ochib, atrofga alanglashar ekan, Bilbo hech qayerda ko'rinmadi. Katta ziyofatga taklif qilingan bir yuz qirq to'rt nafar hobbit hayrat-la dong qotib o'tirdi. Keksa Odo Uzunoyoq oyog'ini stol ustidan olib, yer tepdi. Yana o'lik jimjitlik qaror topib, bir necha chuqur xo'rsinishlar eshitilgach, har bir Beggins, Bulkins, Tuk, Brendizayk, Grabb, Chabb, Berouz, Boljer, Breysgirdl, Brokxauz, Gurdhodi, Xornblauer va Uzunoyoq baravar tilga kirdi.

zil nihoyatda ahmoqona chiqqani, shok o'tib, jahl bosilisi.. uchun yana ko'p yegulig-u, ichimlik kerak bo'lishi – mehmonlar tomonidan bildirilgan umumiy fikr bo'ldi. «Qarib, tomi jilgani aniq, buni men hamisha ta'kidlab kelgan edim» kabi gaplar ko'pchilikning og'zidan chiqqan xulosa bo'ldi. Hatto Tuklar ham (ayrimlaridan tashqari) Bilboning xulqi tuturiqsiz kechganini ta'kidlab o'tishdi. O'sha paytda Bilboning gum bo'lishini hamma ahmoqona hazildan o'zga narsa emas deya e'tirof etdi.

Biroq qari Rori Brendizayk bu masalaga shubha ila qaradi. Na keksa yoshi, na mana bu zo'r ziyofat uning idrok qilish qobiliyatini xiralashtira oldi.

– Qandaydir shubhali gap bor-da, bu yerda, azizam! – dedi u yonida o'tirgan keliniga. – Nazarimda, anavi jinni yana ketib qoldi-yov. Tentak Beggins qarigan sari g'alati bo'lib bormoqda. Lekin xavotirga o'rin yo'q. Dasturxonimizdagi yeguliklarni o'zi bilan olib ketib qolmadi-yu, u, har qalay, to'g'rimi?

Qariya Brendizayk Frodoga baland ovozdagi murojaat qilib, yana vino uzatishni iltimos qildi.

Bilboning gum bo'lishiga oid fikr bildirmagan yagona kishi Frodo bo'ldi. Amakisining bo'sh kursisi yonida ma'lum

vaqt indamay o'tirgan Frodo mehmonlarning mulohazalari-yu, savollariga e'tibor qilmadi. Bilboning bunday hazil qilishini oldindan bilgan bo'lsa ham, mehmonlarga ko'rsata bilgan ta'siridan rosa zavqlandi. Odamlarning yuzlaridagi darg'azab hayrat qiyofasini ko'rib, o'zini kulgidan bazo'r tiyib o'tirdi. Ayni vaqtda u xavotirlanib qoldi: kutilmaganda kekxa hobbitni juda yaxshi ko'rishini anglab yetdi. Mehmonlarning aksariyati yeb-ichishni davom etar ekan, Bilbo Begginsning g'alati tabiati, o'tmishi va bugungi hayotini muhokama qilishga kirishib ketdi. Sakvil-Begginslarning nafrati esa boridan battar oshdi. Yana yegulik, ichimlik keltirish borasida ko'rsatma bergan Frodo o'rnidan turib Bilboning sog'ligi uchun indamay qadah ko'targach, birovga bildirmay shiypondan chiqib ketdi.

Bilbo Begginsning o'ziga kelsak, nutqini yakunlar ekan, shimining kissasiga solib chiqqan, uzoq yillar davomida hammadan sir saqlab kelgan tilla Uzukni paypaslab topdi. Kursidan sakrab tushish barobarida Uzukni barmog'iga taqdi. Shu fursatdan buyon Hobbiton hobbitlari uni hech qachon ko'rishmadi.

Shipillagancha yerosti kulbasi tomon yo'l olgan Bilbo ostonada biroz to'xtalib, shiyponda ko'tarilgan g'ala-g'ovur va dalaning narigi boshidagi o'yin-kulgiga tabassum-la quloq tutib turdi. Shundan so'ng, ichkariga kirib egnidagi bayramona kiyimini yechdi, kashta tikilgan shoyi kostyumini taxlab, qog'ozga o'ragach, chetga olib qo'ydi. Eski kiyimini kiyib, beliga sitilgan charm kamarini taqdi. Unga esa qora charmdan tayyorlangan ko'hna qinga solingan kalta qilichini taqdi. Kuyadorining hidi urib ketgan qutidan qaytarma qalpoqli eski piashini chiqardi. Garchi Bilboga kattalik qiladigan ushbu plash yamoq solinib, aftidan, bir zamonlar to'q yashil bo'lgan rangi o'ngib ketgan bo'lsa ham, o'sha quti ichida qimmatbaho buyumday qulflanib saqlandi. O'zining ish xonasiga o'tgan Bilbo qulflangan seyf ichidan eski kiyimga o'ralgan tugun, charm muqovali qo'lyozmalari va kattagina xatjild chiqardi. Kitob bilan tugunni oyog'i ostida yotgan, bo'g'zigacha to'lib qolgan yuk xaltasiga amallab joyladi. Xatjild ichiga tilla zanjir o'tkazilgan Uzukni solib

muhrladi-da, Frodoning nomiga rasmiylashtirdi. Ushbu xatjildni u dastlab kamin<sup>1</sup> tokchasiga qo'ydi, so'ng fikridan qaytib, kissa-siga soldi. Aynan shu fursatda kulba eshigi ochilib, Gendalf kirib keldi.

– Salom! Qaytish-qaytmasliging haqida o'ylab turgan edim, – dedi Bilbo.

– Yana ko'rinadigan bo'lib qolganingdan xursandman, – javob berdi schrgar, kursiga joylashib. Xayrlashish oldidan bir og'iz so'z aytib qo'ymoqchi edim senga. Nazarimda, ishlarimiz o'zimiz o'ylab qo'ygandek juda chiroyli o'tdi.

– Chindan ham tadbir chiroyli o'tdi, – dedi Bilbo, – lekin anavi chaqmoq men uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi. O'zim ham lolman, qolganlarni-yu gapirmasa ham bo'laveradi. Sening hunarining bo'lsa kerak?

Ha, mening ishim. Uzukni uzoq yillar davomida oqilon-na saqlab kelding. Shu bois gum bo'lishingni mehmonlarga sal boshqacharoq ko'rsatishni lozim topdim.

– Bu bilan hazilim yanada ta'sirli chiqdi. Sen hamisha ishlarimga kutilmagan tarzda aralashib kelgansan, – kulib boqdi Bilbo. – Va, aftidan, har doimgiday, qanday yo'l tutishni yaxshi bilgansan.

– Ha, agar biron nimani aniq bilsam, albatta. Lekin oxirgi ishimiz borasida ishonchim komil emas. Ish nihoyasiga yetdi. Sen o'z hazilingni o'ynab bo'lding, aksariyat qarindoshlaringni xavotirga qo'yib, ko'pchiligini xafa qilding. Butun Shir uchun to'qqiz kunga yoki to'qson to'qqiz kunga yetadigan gap-so'z topib berding. Rejang ijrosini davom etmoqchimisani?

– Ha, yo'lga chiqaman. Dam olishim kerakligini, ilgari aytganimdek, uzoq vaqt dam olishim kerakligini his etmoqdaman. Balkim, doimiy dam kerakdir menga: bu yerlarga yana qaytib kelishimga ko'zim yetmaydi. To'g'risini aytganda, qaytish niyatim ham yo'q. Hozirligimni ko'rib qo'ydim. Qaridim,

---

<sup>1</sup> **Kamin** (*nemischa*: Kamin; *yunoncha*: kaminos o'choq, pech) - devorga o'yib ishlangan, keng ochiq o'txonasi va tik mo'risi bo'lgan, bevosita yoqilg'i atangasi bilan xonani isitadigan o'choq.

Gendalf! Zohiran cholday ko'rinmasam-da, qariganimni ich-ichimdan his etmoqdaman. «Yaxshi saqlanib kelayotgan qariya» emish! pishqirib qo'ydi Bilbo. -- Vujudim erib, ingichka bo'lib qolganday. ajin qoplaganday go'yo, agar meni tushunayotgan bo'lsang. Nonga, kattagina non bo'lagiga ingichka qilib surtilgan sariyog'day his qilyapman o'zimni. Nimadir noto'g'ri. Menga o'zgacha muhit kerak.

Gendalf Bilboga diqqat-la razm soldi.

Darhaqiqat, bu yerda nimadir noto'g'ri, - xulosa qildi u, biroz o'ylanib turgach. To'g'ri o'y labsan, yo'lga chiq.

Xo'sh, safarga tayyorman. Men yana tog'larni ko'rishni istayman tushunyapsanmi, Gendalf, tog'larni. Dam oladigan, rostakamiga hordiq chiqaradigan joy topishim kerak. U yerda tinchlik-xotirjamlik hukm surishini, qarindosh-urug'lar g'ij-g'ij qaynamasligini, eshigimning qo'ng'irog'iga tinim bermaydigan mehmonlarim bo'lmasligini xohlayman. Kitobimni tinchgina oxiriga yetkaza oladigan sokin joy topishim kerak. Asarim xotimasini qanday jumla bilan bitishimni ham o'y lab qo'ydim: «Sarguzashti nihoyasiga yetib, umrining oxirigacha baxtiyor yashab o'tdi».

- Chindan ham shunday bo'lishiga umid qilaman, - ku- lib yubordi Gendalf. - Biroq yozib tugatgan kitobingni birov o'qimaydi-yu.

- Nega endi birov o'qimas ekan? Vaqti kelib o'qishadi. Masalan, Frodo qo'lyozmamni o'qib chiqdi. Aytganday, uning holidan xabar olib turasanmi?

- Albatta. Imkon qadar tez-tez kelib turaman.

- Agar iltimos qilsam, u men bilan birga ketar edi. Umuman aytganda, ziyofat uyushtirilayotgan kunlari buni o'zi taklif qilib qoldi. Aslida esa u hali istamaydi bu yerlarni tark etishni. Men o'limimdan oldin tog'larni, Yovvoyi o'lkani ko'rib qolmoqchiman, u esa Shirni, bu yerdagi dalalar, o'rmonlar va mayda daryolarni juda yaxshi ko'radi. Bu yerda u o'zini baxtiyor his etadi. Bor bisotimni unga qoldirib ketaman, ayrim maydachuyda narsalarimdan tashqari. Bu narsalarning bari endi unga

o'tganini bilib, o'zini yanada baxtli his etadi degan umiddaman. Endi u o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib yashaydi.

– Bor bisotingni? – so'radi Gendalf. – Uzukni hammi? Qoldirib ketaman degan eding, esingda bo'lsa.

– E-m-m... ha, uni ham tashlab ketsam kerak, – tutildi Bilbo.

– Qayerda o'zi u?

– O'zing bilasan, xatjildda, – betoqat bo'ldi Bilbo. – Xatjild esa kamin tokchasida. Yo'q. Mana, kissamda! – ikkilandi u. – G'alati emasmi? – dedi Bilbo o'ziga o'zi. – Nega endi yo'q? Nega endi u shu yerda qolmasligi kerak?

Bilboga yana bir bor diqqat-la razm solgan Gendalfning ko'zida nimadir yalt etdi.


– O'ylashimcha, Bilbo, Uzukni shu yerda qoldirganing ma'qul, – fikr bildirdi u vazmin ohangda. – O'zing shuni xohlamaysanmi?

– Xohlayman ham, xohlamayman ham. Hozir esa undan ayrilishni istamasligimni his etib turibman. Nima uchun uni birovga berishim kerak, hech tushunmayapman? Tashlab ketishimni istaysanmi? – shubha ila so'radi ovozi o'zgargan Bilbo qandaydir keskin, darg'azab ohangda. – Uzugim haqidagi savollaring bilan bir umr jonimga tegib kelgansan. Safar davomida qo'lga kiritilgan boshqa narsalarim bilan umuman ishing bo'lman.

– Chunki menga haq gap kerak bo'lgan, dedi Gendalf. – Bu juda muhim edi. Sehrli... Uzuk... ular... sehrli bo'ladi. Juda noyob bo'lib, ko'pchilikda qiziqish uyg'atadi. Uzuingga professional nuqtai nazardan qiziqish bildiryapman, xolos. Modomiki, jahongashtalik qilishga bel bog'lagan ekansan, Uzuk qayerda saqlanishini men bilishim kerak. Fikrimcha, sen unga yetarlicha egalik qilding. Agar yanglishmayotgan bo'lsam, endi u senga kerak emas, to'g'rimi, Bilbo?

Hobbitning yuzidagi yoqimtoylik barham topib, g'azab qiyofasi yalt etganicha qotib qoldi.

– Nega endi kerak emas ekan? – xitob qildi u. – Mening



mulkim bilan nima ishing bor? U meniki. Men topganman uni. U menga kelgan.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, achchiqlanishga hojat yo‘q, – tinchlantirishga harakat qildi Gendalf.

– Achchiqlanishimga sen aybdorsan, – o‘shqirdi Bilbo.  
– Uzuk meniki dedimmi, meniki. U mening xususiy mulkim. Mening malohatim. Ha, malohatim u mening.

Sehrgarning yuzi jiddiy va hushyor qiyofa kasb etgancha qoldi, ko‘zi tubidagi shu‘lagina uning hayratlanib, xavotir ola boshlaganidan dalolat bermoqda.

– Ilgari ham uni shunday deb atashgan, – dedi nihoyat u.  
– Lekin sen emas.

– Endi men ham shunday deb atayman uni. Nima qilibdi uni malohatim desam? – e‘tiroz bildirdi Bilbo. – Nima qilibdi uni Gollum shunday deb atagan bo‘lsa? Uzuk endi uniki emas, meniki. Aytdimmi Uzukni o‘zimdagi qoldiraman deb, demak, qoldiraman.

O‘rnidan turgan Gendalf qat‘iy ohangda javob berdi:

– Ahmoqlik qilgan bo‘lasan, Bilbo, agar uni o‘zing bilan olib ketsang. Har bir so‘zing bundan aniq dalolat bermoqda. Uzoq yillar egalik qilding sen Uzukka. Bu haddan ortiq ko‘p. Voz kech undan! Shunday qilsang yana asl holingga qaytasan.

– Ko‘nglim nimani tusasa, shuni qilaman, – o‘zinikini ma‘qullagancha turib oldi Bilbo.

– Menga qara, azizim hobbit! – dedi Gendalf. – Uzoq umring davomida ikkalamiz qardron do‘st bo‘lib keldik va sen mening oldimda qarzdorsan. Va‘daga vafo qilgin-da, Uzukni ber!

– Uzukka ega bo‘lmoqchi ekansan, to‘g‘risini aytib qo‘ya qol! – xitob qildi Bilbo, qo‘li qilichining sopiga yugurib. – Lekin sen unga ega bo‘lmaysan! Malohatimni bermayman dedimmi, bermayman.

– Achchiqlanish navbati hozir menga o‘tib qoladi, – dedi ko‘zi yarqirab ketgan Gendalf. – Shu gap yana chiqadigan bo‘lsa og‘zingdan, achchig‘im chiqadi. Ana o‘shanda ko‘rasan, Gen-



dalfning asl basharasini...

Hobbit tomon bir qadam bosgan sehrgarning bo'yi yanada cho'zilib, soyasi xonani qorong'ilashtirib yubordi.

Qo'lini kissasiga mahkam bosgan Bilbo og'ir nafas olgancha orqa devor tomon tisarildi. Keskin vaziyat qaror topgan xonada ikkalasi ma'lum vaqt bir-biriga o'qrayib turdi. Gendalf ko'zini hobbitdan uzmad. Nihoyat Bilbo qo'lini asta bo'shatib, vujudini yengil qaltiroq tutdi.

- Senga nima qildi, Gendalf? Menga hech qachon bunday qaramagan eding, - dedi u. - Boisi nima buning? Uzuk meniki-yu, axir. Men topib olganman uni. Agar Uzuk bo'lmasanda Gollum meni o'ldirar edi. U nima demasin, men o'g'ri emasman.

- Men hech qachon seni o'g'rilikda ayblamaganman. Seni talamoqchi ham emasman. Senga yordam bermoqchiman, xolos. Menga ilgariqiday ishonishingni istayman.

Teskari o'girilib, joyiga qaytgan Gendalfning yuzi o'z qiyofasini kasb etib, yana oppoq soqolli, qaddi munkayib, nima-dandir xavotirlanayotgan qariyaga aylanib qoldi.

- Ma'zur tut, - dedi Bilbo, qo'li bilan ko'zini ishqalab. - Qandaydir g'alati bo'lib ketyapman. Uzukning tashvishini qilmasam o'zimni ancha yengil tortsam kerak. Tafakkurimning haddan ortiq ko'p qismni egallab olgan u. Nazarimda, meni allaqanday ko'z kuzatib turganday. Uzukni taqib, o'sha ko'zdan uzoqlarga ketgim keladi. Uni bekitib tashlashga urindim, lekin agar kissamda bo'lmasa, o'zimni xotirjam his eta olmasligimni angladim. Sababini bilmayman. Buning oxiri ko'rinmaydiganga o'xshaydi.

- Unday bo'lsa, menga ishon, - dedi Gendalf. - Uni shu yerda qoldir-da, yo'lga chiq. Uzukka egalik qilishdan voz kech. Uni Frodoga topshir. Men esa Frododan boxabar bo'lib turaman.

Ikkilanib qolgan Bilbo biroz o'ylanib turdi. So'ng chuqur xo'rsindi.

- Ma'qul, - dedi u o'zini majbur qilib. - Roziman. Ziyofat uyushtirishdan maqsad ham shu edi-yu, aslida: hammaga

sovg'a tarqatar ekanman, o'sha sovg'alar bilan birga Urukdan ham voz kechish oson bo'ladi deb o'ylaganman. Afsuski, oson emas ekan. Demak, Uruk mol-mulkim bilan birga Frodoga o'tadi, – chuqur xo'rsindi u. – Endi chindan ham yo'lga chiqmasam bo'lmaydi, aks holda birov meni ko'rib qolishi mumkin. Hamma bilan xayrlashib bo'ldim, takror xayrlashishni istamayman.

Qopini ko'targan Bilbo chiqish eshigi tomon odimladi.

– Kissangda Uruk bilan chiqib ketyapsan, – eslatdi Gendalf.

– E, ha-ya! – xitob qildi Bilbo. – Vasiyatnoma-yu, boshqa hujjatlarni ham qo'shib olib ketyapman-a! Ma, ushla, meni xalos qil ulardan. Shunday qilsak, xavfsizroq bo'ladi.

– Yo'q, Uzukni menga ushlatma, – dedi Gendalf. – Kamin tokchasiga qo'y uni. Frodo kelguncha o'sha yerda yotadi. Men shu yerda kutib o'tiraman Frodoni.

Bilbo kissasidan chiqargan konverni kamin tokchasida turgan soat yoniga qo'ymoqchi bo'ldi-yu, qo'li siltanib yerga tushirib yubordi. Schrgar Bilbodan abjirroq harakat qilib shartta egildi-da, konverni olib tokchaga qo'ydi. Hobbitning yuzi g'azabdan yana burishdi. Biroq jahlidan tez tushib, yuziga yana tabassum yugurdi.

– Xo'sh, qilinishi kerak bo'lgan ish qilindi, – xulosa qildi u. – Ana endi ketdim men.

Ikkovlon zalga chiqdi. Bilbo o'zining xush ko'rgan safar asosini olib, qattiq hushtak chaldi. Ichkari xonalardan uchta gnom yugurib chiqdi.

– Hamma narsa tayyormi? – so'radi ulardan Bilbo. – Yuk ortildimi?

– Ortildi. Hamma narsa safarga shay, – javob berishdi ular.

– Unday bo'lsa, ketdik, – dedi Bilbo, chiqish eshigi tomon odimlab.

Qorong'i tushib, osmon yulduzlarga to'libdi. Bilbo boshini ko'tarib, tun havosidan chuqur nafas oldi.

– Maza! Gnomlar bilan yo‘l yurish naqadar maroqli! Uzoq yillar davomida aynan shu narsa yetishmayotgan edi menga. Alvido! – dedi u eski uyiga yuzlangancha ikki bukilib. – Ko‘rishguncha Gendalf!

– Ko‘rishguncha, Bilbo! O‘zingni ehtiyot qil! Qariding endi, balkim, aqling ham anchagina kirib qolgandir.

– O‘zimni ehtiyot qilay? Hech qachon! Mendan xavotir olma. Qara, men yana baxtiyorman. Yo‘lga chiqish vaqti bo‘ldi. Ilgarigidek, men yana yo‘ldaman, – qo‘shib qo‘ydi u va qorong‘ilikka kirar ekan, past ovozda hirgoyi qilib ketdi:

*Yo‘lga chiq, hoy beg‘am yo‘lovchi,  
G‘am-g‘ussadan xalos bo‘l endi.  
So‘qmoq ostonangdan nari qochmoqchi  
Qiziq sarguzashtlar kutmoqda seni.*


*Minglab so‘qmoqlar o‘ralib birga  
Aylana uzoq safar yo‘liga  
Qayoqqa eltar u, haq gap bilmayman,  
Olib ketsin mayli dunyo chetiga.*

Bilbo biroz sukut saqlab turdi. So‘ng, ortiqcha so‘z aytmay, ziyofat o‘tgan dala va unda tiklangan soyabonlar ostidan hanuzgacha eshitilayotgan ovozlari, fonuslarga teskari o‘girilib, uch nafar o‘rtog‘ining hamrohligida bog‘ oralab odimlagancha uzoq cho‘zilgan nishab so‘qmoqdan odimlay ketdi. Qiyalik oxiridagi chakalak devorga yetgach, uning past o‘sgan joyidan hatlab o‘tib, maysadagi shabada kabi yaylov tepalab ketgancha, qorong‘ilikda ko‘rinmay qoldi.

Gendalf Bilbo kirib ketgan qorong‘ilikka biroz qarab turdi.

– Xayr, qadrdonim Bilbo! Kelasi safar ko‘rishguncha! – past ovozda xayrlashdi u, ichkariga kirar ekan.

Ko‘p o‘tmay Frodo kelib, qorong‘ida o‘y surib o‘tirgan Gendalfni ko‘rdi.



Bilbo ketib qoldimi? – so‘radi u.

– Ketdi, javob berdi Gendalf. – Nihoyat ketdi.

– Istardimki... bugungi oqshomgacha bu gaplarning bari hazil bo‘lsa kerak degan umidda edim, – dedi Frodo. – Lekin ketishini bilar edim. Jiddiy narsalar haqida hamisha hazillashib gapiradi u. Ko‘rib qolishga ulgurish uchun tezroq kelmoqchi edim.

– Nazarimda, Bilbo birovga bildirmay ketishni afzal ko‘rdi, – dedi sehrgar. – Xavotir olma, uning ishlari joyida, sening nomingga rasmiylashtirilgan xatjild tashlab ketdi. Ana u!

Frodo kamin tokchasida yotgan xatjildni qo‘lga olib, ochishga shoshilmadi.

– Fikrimcha, ichida vasiyatnoma bilan birga boshqa hujjatlar ham bo‘lishi kerak. – dedi Gendalf. – Endi sen Beg-End sohibisan. Tilla Uzuk ham xatjild ichida bo‘lsa kerak.

– Uzuk! – xitob qildi Frodo. – Menga? Nega? Ko‘proq o‘ziga kerak emasmi hozir u?

– Balkim, shundaydir, balkim, unday emasdir, – fikr bildirdi Gendalf. – Sening o‘rningda bo‘lsam, Uzukdan foydalanmagan bo‘lar edim. Sehrli Uzuging borligi haqida birovga churq etma, uni ehtiyot qilib asra. Men borib uxlay endi.

Beg-End sohibi sifatida Frodo mehmonlar bilan xayrlashishni o‘zining mezbonlik burchi deb bildi. G‘alati hodisa haqidagi mish-mish gap butun qishloqqa yoyildi. Frodo odamlarga ertalab hamma narsa, shubhasiz, oydinlashishini ma‘lum qildi. Yarim kechada nufuzli hobbitlarni olib ketgani ot aravalar keldi. Ushbu aravalar navbat bilan qorni rosa to‘ygan, lekin kayfiyati yo‘q hobbitlarga to‘ldi. Shundan so‘ng bog‘bonlar kelib, mehmonlar qoldirib ketgan narsalarni zambilg‘altaklarga ortib ketishdi.

Tun asta o‘tib, tong otdi. Hobbitlar odatdagidan kech uyg‘onishdi. Kun yorishdi. Ishchilar kelib shiypon yig‘ishtirish, stol va kursilar, kosa-tovoqlar, shisha idishlar, fonuslar, qutiga ekilgan gullar, unutib qoldirilgan sumka, qo‘lqop kabi buyumlarni tashishga kirishishdi. Oxirigacha yeb tugatilmagan taom

turlari deyarli chiqmadi. Shundan so'ng, Begginslar, Bulkinslar, Boljerlar, Tuklarning katta ziyofatga taklif qilinmagan vakillari va shu yaqin atrofda yashaydigan boshqa mehmonlar tashrif buyurishdi. Kun o'rtasiga kelib Beg-Endda katta ziyofatda bo'lmagan, lekin kutilmagan deb bo'lmaydigan hobbitlar to'dasi yig'ildi.

Mehmonlarni zina pog'onasida turib, tabassum-la qarshi olayotgan Frodo toliqqan va tashvishli ko'rinmoqda. Hammani qutlar ekan, kechagi gapga qo'shimcha hech nima deya olmaypti. Barcha savollarga bir xil javob bermoqda:

– Janob Bilbo Beggins ketdi. Bilishimcha, u sog'-salomat.

Tashrif buyurganlarning bir necha nafarini ichkariga taklif qilib, Bilbo ularga sovg'a qoldirganini ma'lum qildi.

Zalda qog'ozxalta va bo'g'chalar uyumi yotibdi. Ularning har birida yorliq bor. Mana o'sha yorliqqa bitilgan so'zlar-dan namunalar:

Adelard Tukka Bilbodan: soyabon. Adelard kinnikiga mehmonga bormasin hamisha mezbanning soyabonini o'marib ketadi.


Dora Begginsga Bilbo Begginsdan ko'pdan ko'p yozish-malardan xotira sifatida: qog'oz chiqindisi uchun savat. Dora Drogoning opasi bo'lib, Bilbo bilan Frodoning qarindoshlari orasida eng keksasi sanaladi. U yaqinda 99 yoshga to'lgan bo'lib, so'nggi 50 yil davomida Bilboga har xil nasixatlar yozgan xatlarini tinimsiz yo'llab bordi.

Milo Berouzga asqatib qolishiga umid-la Bilbo Begginsdan: tilla patqalam bilan siyohdon. Milo birorta xatga javob yozmagan.

Anjelikaga Bilbo tog'adan: qavariq ko'zgu. Begginslar sulolasiga mansub Anjelika o'zini ko'zgudan hech uza olmaydi.

Xyugo Breysgirdl kolleksiyasiga qurbonlik qiluvchi kishidan: bo'sh kitob javoni. Xyugo birovdan olgan kitobni qaytarib bermay kitob yig'ishga odatlangan.

Lyubeliya Sakvil-Begginsga sovg'a: bir quti kumush qo-




shiq. Bir zamonlar safarga chiqib bedarak ketganda uyda bor qoshiqlarining ko'pini aynan Lyubeliya ko'tarib ketganiga Bilboning ishonchi komil edi. Ayol shamani fahmlagan bo'lishiga qaramay, sovg'ani rad etmadi.

Yuqorida bir nechta misol keltirildi, xolos. Bilboning kulbasi uzoq umri davomida har xil narsalarga to'lib-toshgan. Yer osti kulbasining turli-tuman buyumlarga to'lib turishi – hobbitlarning ota-buvasidan qolgan udum sanaladi. Tug'ilgan kunda bir biriga sovg'a berish an'anasi ushbu udumga mosdir. To'g'ri, tug'ilgan kunga olingan sovg'alar har doim ham yangi bo'lavermaydi. Nima maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan ayrim eski sovg'alar butun tuman bo'ylab qo'ldan qo'lga o'tib boraveradi. Ammo Bilboga hamisha yangi narsalar sovg'a qilingan bo'lib, u barini saqlab yurgan. Mana endi kulba asta-sekin bo'shab, tozalanmoqda.

Yuqorida aytilgandek, har bir sovg'ada Bilbo o'z qo'li bilan yozgan yorliq bor. Ularning ayrimlari istehzo ohangida yozilgan. Aksariyat sovg'alar, albatta, ko'ngildagiday narsalardir. Mana endi kambag'al hobbitlar, ayniqsa, Begshot-Rou ko'chasida istiqomat qiladiganlar ko'p yaxshi narsalarga ega bo'lishdi. Masalan, keksa dehqon Sem Skrombiga ikki qop kartoshka, yangigina belkurak, jun gazlamadan tikilgan plash va g'archillaydigan bo'g'imlariga surtiladigan bir shisha malham dori sovg'a qilindi. Qariya Rori Brendizayk mehmondo'stligi uchun o'n ikki shisha qizil vinoli bo'ldi. Sautfartingdan keltirilgan ushbu o'tkir vinoni bir zamonlar Bilboning otasi xarid qilgan. Rori Bilboni batamom kechirib, birinchi shishani quritiboq uni zo'r yigit deya baland ovozda e'lon qildi.

Frodoga juda ko'p narsa qoldi. U asosiy boyliklar, kitoblar, rasmlar, qimmatbaho mebel sohibi bo'ldi, albatta. Biroq kulbada na tilla tangalar, na javohirlar topildi. Birovga sariq chaqa ham tarqatilmadi.

Frodo bugun juda charchagan. Bilboning mulki tarqatib yuborilayotgani haqidagi soxta mish-mish gap o'rmonga tushgan yong'inday tarqadi. Ko'p o'tmay, Frodoning kulbasi oldidagi



maydon bu yerlarda hech qanday ishi bo‘magan hobbitlarga to‘lib, ulardan xalos bo‘lishning iloji bo‘lmadi. Yorlig‘i uzilgan sovg‘alar qo‘ldan qo‘lga o‘tib ketdi. Ayrimlar o‘zaro janjallashib qolishdi. Ba‘zilar sovg‘alarni ayirboshlasa, ayrimlar o‘ziga tegishli bo‘lmagan sovg‘alarni olib quyoning rasmini chizishga urinishdi. Yo‘lak boshida zambilg‘altak va qo‘l aravalar tirbandligi hosil bo‘ldi.

Ushbu ola-g‘ovur orasida Sakvil-Begginslar juftligi ham topilib keldi. Frodo tartibni nazorat qilib turishi uchun o‘z o‘rniga do‘sti Merri Brendizaykni qoldirib, ma‘lum vaqtga ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Otto baland ovozda Frodoni ko‘rmoqchi ekanligini bayonot qilgach, Merri unga odob-la ta‘zim qilib, javob berdi:

– Frodo dam olyapti.

– Bekinib olgan desang, to‘g‘riroq bo‘ladi, – chaqib oldi Lyubeliya. – Biz uni ko‘rishni istaymiz va nima qilgan taqdirda ham ko‘rmay ketmaymiz. Bor, qarorimiz qat‘iy ekanligini unga ayt, – dedi u talab ohangida.

Merri ularni zalda ancha vaqtga qoldirib ketgani bois, er-xotin o‘zlariga atalgan kumush qoshiqlarni obdan ko‘zdan kechirib chiqishga ulgurishdi. Ko‘p o‘tmay ikkalasi xizmat xonasiga taklif qilindi. Sakvil-Begginslarni ko‘rishni istamagani bois qiyofasidan ko‘ngli g‘ashligini uqib olish qiyin kechmagan Frodoning oldidagi stol ustiga bir talay hujjat batartib terilgan. Qo‘lini kissasiga solib, barmoqlarini harakatlantirayotgan Frodo er-xotinni boadab qarshi olish uchun o‘rnidan turib, xushmuomalalik-la gap boshladi.

Sakvil-Begginslar tajovuzkor kayfiyatda kelishibdi. Ikkalasi dastlab yorlig‘i bo‘lmagan har xil qimmatbaho buyumlarni arzon narxga sotib olish istagini bildirdi. Bilbo tayyorlab qo‘ygan narsalargina tarqatilishi mumkinligini eshitib, bu ishlarining bari juda shubhali ekanligiga doir fikr bildirishdi.

– Menga bir narsa ravshan, – dedi Otto, – sen hamma narsaga yolg‘iz o‘zing egalik qilmoqchisan. Bilboning vasiyat-nomasini ko‘rsatishingni talab qilaman.

Agar Bilbo Frodoni o‘ziga o‘g‘il qilib olmaganda, Otto

Bilboning merosxo'ri bo'lar edi. Vasiyatnomani diqqat-la o'qib chiqqan Otto pishqirib qo'ydi. Baxtga qarshi, hujjat tahriri nihoyatda aniq va tushunarli bitilgan bo'lib, qonunan to'g'ri rasmiylashtirilgan (hobbitlarning udumiga ko'ra, boshqa narsalardan tashqari, bunday hujjatlarda yetti nafar guvoh qizil siyoh-la imzo chekishi talab etiladi).

Yana o'sha eski hammom, eski toz, – dedi u xotiniga.  
– Yana quruq qolibmiz. Oltmish yil umid-la kutib, bir quti qoshiqqa ega bo'libmiz! Bekor gap!

Frodoning burni ostida barmoq chertgan Otto xonani zarda ila tark etdi. Ammo Lyubeliyadan qutulish oson kechmaydi. Hujjatlarni taxlab yig'ishtirgan Frodo birozdan so'ng nima ishlar bo'layotganini ko'rish uchun zalga chiqdi. Lyubeliya hamon shu yerda, kulba burchaklarida timirskilanib yuribdi. Frodo ushbu xira tabiat ayolni sumkasiga tasodifan kirib qolgan ayrim qimmatbaho narsalardan xalos qilgach, ostonagacha odob-la kuzatib qo'ydi. Sho'rlik ayolning yuzidan xayrlashish uchun so'z topa olmayotgani ko'rinib turibdi.

– Hali ko'p pushaymon qilasiz yigitcha, – deya oldi u nihoyat. -- Nega endi siz xo'jayinlik qilyapsiz bu yerda? Siz Beggins emas Brendizayksiz!

– Eshitdingmi, Merri? Haqoratdan o'zga narsa emas-ub, -- dedi Frodo, ayolning ortidan eshik yopar ekan.

– Haqorat emas maqtov, garchi adolatdan bo'lmasa-da, – javob berdi Merri.

Ikkovlon kulba xonalaridan biridan yosh hobbitlarning uch nafarini (ikkita Bulkins va bitta Boljerni) quvib solishdi. Omborga kirib olgan ushbu yigitchalar devor teshish bilan ovora ekan. Keksa Odo Uzunoyoqning nabirasi Sancho Uzunoyoqqa esa boshqa omborning tagi bo'shday tuyulib, astoydil yer qazish-ga kirishibdi. Frodo uni kulbadan haydab chiqarar ekan, yoqalashib qolishiga sal qoldi. Darhaqiqat, Bilboning oltinlari haqidagi afsonalar ko'pchilikning qiziqishini oshirib, tushunarsiz umid bag'ishlagan edi. Sehr-jodu ila qo'lga kiritilgan oltinni birov xalal bermagan vaziyatdagina qidirib topish mumkinligini



hamma biladi.

Sanchoni turtib, kulbasidan bir amallab chiqarib yuborgan Frodo o'zini zaldagi kursiga tashladi.

– Do'konni yopish vaqti yetti, Merri, – dedi u. – Bugunga yetar. Eshikni qulflab, tarang keltirib taqillatishsa ham hech kimga ochma.

Shundan so'ng ikkalasi kech bo'lsa ham, bir piyoladan choy ichishga ahd qilishdi.

Merrini kuzatgan Frodo kursiga o'tirishga ulgurmay eshik yana taqilladi.

– Lyubeliya keldi-yov, – taxmin qildi Frodo ovoz chiqarib. – Achchiqroq gap o'ylab topgan bo'lsa, ichida qoldirmay aytgani qaytgan. Shoshilishga hojat yo'q, eshitishga ulguraman hali.

E'tibor qilmagan Frodo choy ichishni davom etdi. Eshik yanada qattiqroq taqilladi. Kutilmaganda derazada sehrgarning yuzi ko'rindi.


– Frodo, eshikni ochmas ekansan, uni chunonam tepamanki, dahlizdan tikka uchib, tepaligingning orqa tomonidan teshib chiqadi! – va'da qildi u.

– Qadrdomim Gendalf! Bir daqiqa! – xitob qildi eshik tomon yugurgan Frodo. – Kir, kiraver! Lyubeliya qaytgan bo'lsa kerak degan xayolga boribman.

– Unday bo'lsa, mayli, kechirganim bo'lsin. Lekin yo'l-da uchratdim uni. Poni minib Bayuoter tomon yo'l olgan ekan. Yuzi burishib, shunaqangi achchiq qiyofa kasb etgan-ki, yangi sog'ilgan sut ham uning oldida tez achib qolsa kerak.

– Sut nari tursin, mening miyam achib ketdi uning dastidan. To'g'risini aytaman, Gendalf, o'shani ko'rmay gum bo'lish uchun qo'lim Uzukka yugurdi.

– Aslo unday qila ko'rma! – qat'iy tayinladi Gendalf, dasturxonga o'tirar ekan. – Uzuk bilan ehtiyotkorona muomala qilish kerak! Aynan Uzuk sababli kulbangga qaytdim, bilsang agar. Xayrlashishdan oldin ikki og'iz gap aytib ketmoqchiman senga.



Xo'sh?

– Uzuk haqida nimalarni bilasan?

– Bilboning og'zidan eshitganlarimni bilaman, xolos. Uzukni o'sha safarda qanday topib olgani-yu, nima maqsadda ishlatgani haqida aytib bergan.

– Nima degan?

– Gnomlarga aytib, kitobida bitgan hikoyani emas, albatta. Men bu yerga ko'chib o'tganimdan keyin u menga bor gapni ro'y-rost aytib bergan. Savollaring bilan uni qiynab yuborgan ekansan. Bor gapni senga aytgach, meni xam boxabar qilishni lozim topibdi. «Oramizda hech qanday sir bo'lmasligi kerak, Frodo. Lekin bu gaplarni boshqa birovga aytma. Nima qilgan taqdirda ham Uzuk meniki», degan edi.

– Qiziq, – g'udulladi Gendalf. – Xo'sh, o'zing nima deb o'ylaysan bu haqda?


– Agar «sovg'a»ga doir gapni nazarda tutayotgan bo'lsang, aytgan rost gapi haqiqatga yaqinroq. Nima uchun Bilbo hodisaning boshqa talqinini o'ylab topdi, tushunmadim. Bu unga xos emas. Umuman aytganda, u o'zini juda g'alati tutib qoldi.

– To'g'ri, lekin xazina topib olgan odamlar aksariyat hollarda chindan ham g'alati bo'lib qolishadi. Agar ular xazinasining imkoniyatlaridan foydalanishsa. Buni sen ogohlantirish sifatida ko'rishing kerak. Takror aytaman – Uzuk bilan muomala qilishda ehtiyot bo'l. Sahibini ko'rinmas qilib qo'yishdan tashqari boshqa xususiyatlari ham bo'lishi mumkin.

– Tushunmadim.

– Men ham tushunmayapman, Frodo, – dedi schrgar. – So'nggi vaqtda Uzuk haqida ko'p o'ylanadigan bo'lib qoldim, ayniqsa kechagi oqshomdan keyin. Xavotirga o'rin yo'q. Lekin nasihatim kerak bo'lsa, shuni aytamanki: undan imkon qadar kam foydalan. Foydalanganda ham shunday foydalanginki, har xil shubhalarga o'rin bo'lmasin, bema'ni gap-so'z tarqalmasin. Yodingda bo'lsin: bu gaplarni sir saqlab, Uzukni ehtiyot qil.

– Qandaydir jumboqli chiqyapti gaping, Gendalf. Biron nimadan xavotirdamisan?



– Ishonchim komil emas. Shuning uchun hozircha boshqa hech nima deya olmayman. Qaytsam, balkim, biron nima derman. Mayli, boray endi... – dedi sehrgar o‘rnidan turib.

– Darrov-a! – xitob qildi Frodo. – Biror haftaga qolarsan degan umidda edim. Menga sening yordaming kerak.

– Shunday qilmoqchi edim ham, lekin rejaga biroz o‘zgarish kirib qoldi. Balkim, men ham uzoq vaqt ko‘rinmay ketarman. Imkon topishim bilan qaytib, sen bilan ko‘rishaman. Meni kut, men endi yashirincha kelib turaman. Shirga ochiqdan ochiq kelish mumkin emas endi menga. Haddan ortiq taniqli bo‘lib ketyapman bu yerda. Aytishlaricha, men Shirdagi tinchlik-totuvlikni izdan chiqarayotgan o‘yinbuziqi ekanman. Ayrimlar meni Bilboning ketib qolishida va boshqa, yanada yomon gunohlarda ayblashmoqda. Bilmoqchi bo‘lsang, agar, Bilboning xazinasini qo‘lga kiritish maqsadida ikkalamiz til biriktirib olibmiz.

– Ayrimlar deysanmi?! – xitob qildi Frodo. – Otto bilan Lyubeliyaning uydirmalari-yu, bu! Bundan ortiq pastkashlik bo‘lmasa kerak! Bilbo Beggins bilan birga ketish mumkin bo‘lganda, mana shu Beg-Endni tag-tugi, ichidagi bor bisoti bilan berib yuborgan bo‘lar edim. Men Shirni yaxshi ko‘raman. Menda ham ketish istagi paydo bo‘lyapti. U bilan yana diydor ko‘rishamizmi, bilmadim.

– Menda ham shu ahvol, – dedi Gendalf. – Biroq meni boshqa muammolar ham tashvishga solmoqda. Hozircha xayr, o‘zingni ehtiyot qil. Yordamga kelishimga ishon, ayniqsa, murakkab vaziyatda. Ko‘rishguncha!

Qo‘l siltagan sehrgar kulbani tark etdi. Frodoning nazari-da, Gendalf odatdagidan ortiqcha munkayib qolganday, yelkasiga og‘ir yuk tushganday ko‘rindi. Qosh qoraymoqda. Plashga o‘ranib olgan kishi oqshom qorong‘iligida tez gum bo‘ldi. Frodo chindan ham Gendalfni uzoq vaqt ko‘rmadi.

## O‘TMISH KO‘LANKASI

Biroq mish-mish gaplar to‘qqiz kundan keyin ham, to‘qson to‘qqiz kundan keyin ham tinmadi. Janob Bilbo Begginsning ikkinchi marta daf bo‘lishi yil davomida nafaqat Hobbiton, balki butun Shir o‘lkasida muhokama qilinib, undan-da uzoq vaqt esga olib borildi. O‘sha hodisa hobbitlar uchun kechki ertakka aylandi, yuz bergan real voqea unutilib, chaqmoq va olov buluti ichra gum bo‘ladigan, so‘ng qop-qop javohir-u, oltin tangalar bilan qaytadigan savdoyi Beggins asta-sekin mahalliy afsonalarning haqiqiy qahramoniga aylanib bordi.


Hozircha hobbitlar orasida shakllangan umumiy fikr shundan iboratki, tomi eskitdan vaqti-vaqti bilan siljib turadigan Bilbo bu safar batamom aqldan ozib Bluga qochib ketgan. Shubha yo‘q-ki, Bluda u hovuz yoki daryoga tushib muqarrar o‘lim topgan. Bunda ayb asosan Gendalfning gardaniga yuklandi.

– Agar o‘sha la‘nati sehrgar yosh Frodoni tinch qo‘ysa, undan sog‘lom fikrli o‘troq hobbit chiqishi mumkin.

Aftidan, sehrgar Gendalf chindan ham Frodoni o‘z holi-ga qo‘ygan ko‘rinadi, lekin Frododa sog‘lom fikrlilik fazilati u qadar sezilmadi. Boz ustiga, Bilboning xulqida kuzatilgan g‘alati-lik alomatlari Frodoning tabiatida ham namoyon bo‘lmoqda. Xususan u, motam tutishdan umuman bosh tortdi. Kelgusi yili esa u Bilboning bir yuz o‘n ikki yoshga to‘lishi munosabati bilan rasmiy ziyofat uyushtirib, yigirma kishilik dasturxon tuzadi. Mehmonga kelgan hobbitlarning ta‘biri ila aytganda, ushbu ziyofatda «egulik bilan ichkilik qor-u, yomg‘irday yog‘di».

Ayrimlar xo‘p taajjublanishdi, lekin Frodo hamma ko‘nikib qolguncha Bilboning tug‘ilgan kunini har yili nishonlab boraverdi. U Bilboni o‘lgan deb hisoblamaydi. «Xo‘p, o‘lmagan bo‘lsa, qani u?» – deya berilgan savolga javoban esa yelka qisib qo‘yadi.

Frodo Bilbo kabi yolg‘iz yashasa-da, do‘stlari ko‘p.




Ularning ko'pchiligi qariya Tukning avlodiga mansub yosh hobbitlar bo'lib, Bilboni yaxshi ko'rishgani uchun Beg-Endga bolaliklaridan tez-tez kelib turishgan. Frodoning do'stlari jumlasiga Folko Bulkins bilan Fredegar Boljer kiradi. Lekin, odatda, Pin deya chaqiriladigan Peregrin Tuk va asl Meriadok ismi kamdan kam tilga olinadigan Merri Brendizayk Frodoning eng yaqin do'stlaridir. Frodo ular bilan tevarak-atrofnii tez-tez kezib turadi, ammo tanho o'zi sayr qilishni ko'proq xush ko'radi. Frodoni uyidan olisda, yorqin yulduzlar yoritgan tepalik va o'rmon etagida sanqib yurganini eshitgan qo'shnilari ko'p hayron bo'lishadi. Merri bilan Pinning taxminiga ko'ra Frodo Bilbo kabi elflarning huzuriga tashrif buyurib bormoqda.

Oradan ko'p yillar o'tdi.

Hamqishloqlar Frodo ham xuddi endigina o'ttiz yoshga yetgan, jismonan baquvvat, nihoyatda serg'ayrat hobbitday ko'rinish. Bilbo kabi «yaxshi saqlanib qolayotgani»ga e'tibor qila boshlashdi. «Ba'zilarining omadi xo'p chopadi-da», – xulosa qiladi ko'pchilik, ammo Frodo ellikdan o'tganiga qaramay, zo-hiran o'zgarmas qolayotganini ko'rgan hobbitlarning bari: «bularning bari juda g'alati holat», – deya fikr bildirib borishmoqda.

Frodoning o'zi esa muhtasham Beg-Endning yagona o'ziga xon, o'ziga bek sohibi – janob Beggins bo'lib yurish yoqimli kechayotganini his etmoqda. Ko'p yil davomida undan-da baxtiyor, kelajak haqida mutlaqo qayg'urmaydigan kishi topilishi qiyin bo'ldi. Ammo shu bilan bir vaqtda, bir zamonlar Bilbo bilan birga ketib qolmaganiga ich-ichdan achinish hissi shakllanib borayotganiga u qadar katta ahamiyat bermay bordi. Fahmlashicha ba'zan, ayniqsa, kuz mavsumida Yovvoyi o'lkaga ketib qolishni, tog'li hududlarda kechadigan, tushida bo'lsa ham muqaddam ko'rmagan g'alati hodisalarni tomosha qilishni orzu qiladigan bo'lib qolgan. «Kun o'tib bir kun daryoni kechib o'tarman?» – der edi u, o'ziga o'zi. «Hali erta», – javob berar edi hamisha ongining ikkinchi yarmi.


Yoshi qirqdan o'tib, ellikka yaqinlashguncha hayot shu



zaylda davom etdi. Ellik soni Frodoning tasavvurida qandaydir ahamiyatli (zamidra yovuzlik yashiringan) sondek ko'rinadi. Chunki Bilboning sarguzashtlari aynan ellik yoshida boshlangan. Frodo qandaydir ichki xavotir his eta boshlab, yurgan so'qmoqlari haddan ortiq tepkilanganday tuyula boshlandi. Xaritalarga termilar ekan, chegara tashqarisida nima borligini chamalab o'tirdi. Mahalliy xaritalarda Shir chegarasining tashqarisi asosan oq dog' shaklida ko'rsatilgan. Frodo dalalar, qir va adirlarni kezishni davom etib, asosan o'zi yuradigan bo'lib qoldi. Frodoning do'stlari va, ayniqsa, Merri uning qaytishini xavotir-la kutib o'tirishadi. Ko'p hollarda Frodo Shir hududida tez-tez paydo bo'lib boradigan, zohiran g'alati ko'rinishga ega begonalar bilan gaplashib yuradi.

Shir hududining tashqarisida ro'y berayotgan taajjub hodisalar haqida mish-mish gaplar tarqadi. Modomiki, bedarak ketgan Gendalf hech qanday xabar yo'llamay qo'ygan ekan, Frodo qo'ldan kelgancha dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lib borishga harakat qildi. Shirda, odatda, kamdan kam uchragan elflar endi oqshom mahalda o'rmon chetida tez-tez paydo bo'lishmoqda. Ular g'arb tomon yo'l olib, ortga qaytishmayapti. Elfilar O'rtayerni tark etib, uning g'am-tashvishlari bilan qiziqmay qo'yishgan. Katta yo'lda ko'rinayotgan gnomlar soni ancha ko'payib qoldi. Sharq bilan g'arbni o'zaro bog'lab, kulrang bandargohlarga eltadigan ushbu yo'l qadimdan mavjud bo'lib, bir zamonlar gnomlar Ko'k tog' koniga Shir hududi orqali o'tadigan aynan mana shu yo'l orqali qatnashgan. Gnomlar hobbitlar uchun O'rtayerning olis burchaklarida yuz berayotgan hodisalar haqidagi yangiliklarning asosiy manbai sifatida xizmat qilishgan, agar gnomlar gapirishni istashsa, albatta. Odatda, gnomlar juda kamgap bo'lib, hobbitlar o'z savolini takrorlamay qo'ya qolishgan. Endi esa Frodo olis yurtlardan g'arb tomon qochayotgan gnomlarni tez-tez uchratib bormoqda. Ularning bari birday bezovta bo'lib, Mordor o'lkasi-yu, allaqanday dushman haqida pichirlab gapirishadi.

Ushbu o'lka nomini hobbitlar hamisha tashvishga sola-



digan mudhish mazmunga ega fojiali o'tmish haqidagi afsonalarda eshitgan. Oqillarning Oq Kengashi tomonidan quvib solingan Yovuz o'rmondagi mudhish kuch qadimiy Mordor qasrlarida qayta jonlanayotganday go'yo. Aytishlaricha, Zulmat minorasi qayta tiklanibdi. U yerdan chiqayotgan ofat har tomon tarqalib, hamma joyda urush boshlanibdi, xalqlar va elatlar orasida qo'rquv kayfiyati qaror topibdi. Tog'li hududlarda orklar soni yana ko'paya boshlabdi. Paydo bo'layotgan trollar esa endi ilgarigiday befahm, anqov emas, aksincha, nihoyatda makkor bo'lib, bari qirg'in keltiradigan qudratli qurol bilan qurollangan. Ammo yanada dahshatli maxluqlar paydo bo'lgani, ular nima deb atalishi haqida mish-mish gap tarqadi.

Bunday yangiliklarning aksariyat qismi tabiiyki, oddiy hobbitlarga yetib kelmaydi. Biroq qo'rquvga soladigan g'alati gaplarni hatto qulog'i og'ir xonanishin hobbitlar ham eshitadigan bo'lib qoldi. Ish bo'yicha o'lka chegarasigacha boradiganlar esa alomat narsalarni o'z ko'zi bilan ko'rishmoqda. Bahorgi oqshomlardan birida Bayuoterning «Yashil ajdar» mayxonasida o'tgan suhbat har xil mish-mish gaplar hatto Shir markazigacha yetib kelganidan dalolat berdi, garchi bunday gaplar ko'pchilik hobbitlarning kulgisini qistayotgan bo'lsa-da.


Burchakdagi kamin oldida Sem Skrombi, uning qarshisida esa tegirmonchining nabirasi Ted Sendimen o'tiribdi. Ikkalasining orasida o'tayotgan suhbatga quloq tashlab qo'ygan hobbitlar ham oz emas bu yerda.

– G'alati gaplar eshitilyapti shu kunlarda, – fikr bildirdi Sem.

– Atrofga quloq tutib yursang, eshitilaveradi-da, – javob berdi Tet. – Iltasam, uyimda ham eshitaveraman bolalar uchun mo'ljalangan o'sha qo'rqinchli voqealarni.

– Albatta, shubhasiz, eshitishing mumkin, – javob berdi Sem. – Jur'at-la aytamanki, unday gaplar haqiqatdan uzoq emas. Kim to'qib chiqarishi mumkin ularni? Masalan, ajdar mavzusini olaylik.

– Yo'q, rahmat, eshitishni ham istamayman o'sha mav-



zuni, – rad etdi Ted. – Bolaligimda eshitaverib to‘yganman. O‘shanda ishongan bo‘lsam, endi umuman ishonmayman. Bayuoterimizda bittagina ajdar bo‘lib, sho‘rlikning rangi yam-yashil, – qo‘shimcha qildi u hammani kuldirib.

– Ha, yaxshi, – dedi Sem el qatori kulib. – Gigantlar, odam-daraxtlar haqida nima deysan? Aytishlaricha, ulardan biri oddiy daraxtdan ancha baland bo‘lib, yaqinda shimoliy botqoqlikning narigi tomonida ko‘ringan emish.

– Kim aytdi senga shu gapni?

– Masalan, amakivachcham Xel. U Overxilda yashaydigan janob Bulkinsning xizmatida bo‘lib, shimoliy Shirga ovga chiqib turadi. O‘sha daraxtni shaxsan o‘zi ko‘ribdi.

– O‘zi ko‘ribdi degin? Qo‘rqqanga qo‘sh ko‘rinadi, degan gapni eshitganmisan? Menimcha, yuragini oldirib qo‘ygan o‘sha Xel og‘ziga kelganini gapiraveradi.

– Lekin u chindan ham har bir qadami yetti yard kela-digan, bo‘yi qayrag‘ochdan baland davangirni uchratibdi.

– Unday bo‘lsa, ishonchim komilki, qayrag‘ochdan o‘z-ga narsani ko‘rmagan u.

– Biroq o‘sha «qayrag‘och» o‘z oyog‘i bilan yuradi, ishon. Shimoliy botqoqlikda esa qayrag‘och hech qachon o‘smagan.

– Bundan chiqdi, Xel hech narsa ko‘rmagan, – xulosa qildi Ted.

Kulgi va qarsak yangradi. Aftidan, mayxonada o‘tirganlarga qo‘rqinchli gapga ishonishdan ko‘ra, Tedning fikri ma‘qul ko‘rindi.

– Shir orqali o‘tayotgan g‘alati maxluqlarni ko‘pchilik ko‘rganini ham inkor etishing mumkin. Chegarachilar hali bu qadar band bo‘lishmagan. Elflar g‘arbga ko‘chib ketishayotganini men ham eshitdim. Aytishlaricha, ular bandargohga borib, u yerdan Oq minoralar tomon yo‘l olishayotgan ekan.

Qo‘lini mavhum siltagan Sem qayernidir ko‘rsatdi. Zero, Shirning g‘arbiy chegarasidagi ushbu qadimiy minoralardan boshlanadigan dengiz qayergacha cho‘zilganini na Sem, na bu



yerga yig'ilganlarning birortasi biladi. Biroq eski gaplardan ma'lum bo'lishicha, ushbu Oq minoralardan keyin Kumushrang bandargoh kelib, u yerda ba'zan elflarning bu yurtlarga qaytib kelmaydigan kemalari ko'rinish berib qoladi.

– Ular bizni tark etgancha, g'arb tomon suzib ketaverishadi, suzib ketaverishadi, – yarim hirgoyi qilgandek gapirdi Sem boshini tantanali va ayni vaqtda qandaydir g'amgin tebratib.

– Ja laqqa tushasanda, o'sha eski cho'pchaklarga, – kulib yubordi Ted. – Menga farqi yo'q. Suzib ketishsa, ketaverishsin! Ishonchim komilki, Shirdagilardan birortasi buni ko'rmagan.

– Bilmadim, bilmadim, o'ylanib qoldi Sem.

Uning nazarida, kunlardan bir kun ko'ziga elf chalin-ganday bo'lgan. Elflarni hali ko'p ko'rishiga umid qiladi. Bolaligida eshitgan afsonalar orasida elflar to'g'risidagi ertaklar va unutilayozgan hikoyalar unga ko'p ta'sir qilgan.

– Hatto o'z yurtimizda ham o'sha sehrigar xalqni shaxsan biladigan, uning vakillari orqali dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lib boradigan kishilar topiladi, – dedi Sem nihoyat. – Masalan, janob Begginsni olaylik. Men uning bog'ini bolaligimdan parvarish qilib kelaman. U kishi elflar to'g'risida ko'p narsalarni biladi. Keksa janob Beggins esa undan-da ko'p narsalarni bilgan. Bolalik chog'imda men qariya Beggins bilan ko'p gaplash-ganman.

– Ikkalasining ham tomi jilib qolgan, – ta'kidlab o'tdi Ted. – Har qalay, qari Bilbo savdoyi bo'lib, Frodoni ham aqldan ozdirib ketdi. Xo'p, mayli, do'stlar, uyga boray. Sog'ligingiz uchun!

Pivosini simirib tugatgan Ted shovqin solgancha mayxonadan chiqib ketdi.

Jim qolgan Sem ortiq biror og'iz so'z aytmadi. Fikr tarozisidan o'tkazilishi kerak bo'lgan narsalar ko'p. Bir tomonidan Beg-End bog'ida qiladigan ishlar oz emas, agar ertaga havo ochilib ketsa, kun bo'yi band bo'ladi. Ammo uning xayolini bog'tashvishidan tashqari boshqa narsa ham band qilgan. Ma'lum vaqt o'tirgach, og'ir xo'rsindi-da, o'rnidan turib mayxonani tark

etdi.

Aprel oyining boshi. Kuchli yomg'irdan o'tib osmon tozalandi. Quyosh botib, havosi sovuq xira oqshom asta-sekin tunga aylandi. Sem Hobbiton orqali endigina chiqqan yulduzlar ostida, o'ychan hushtak chalgancha uyi tomon shoshmay odimlab ketdi.

Aynan mana shu fursatda uzoq yo'qolib ketgan Gendalf topilib keldi. Bilbo uyushtirgan katta ziyofatdan keyin uch yil davomida undan hech qanday darak bo'lmadi. Shundan so'ng qisqa muddatga kelib, Frodoni yaxshilab ko'zdan kechirib chiqqach, yana gum bo'lib ketdi. So'nggi yillarda mutlaqo kutilmagan paytda juda qisqa vaqtga tez-tez paydo bo'lib bordi. U asosan oqshom mahalda kelib, tong otguncha Beg-Enddan chiqib ketadi. Gendalf o'z ishlari-yu, sarguzashtlari haqida gapirmay, Frodoning sog'ligi va ishlariga doir arzimas yangiliklarga katta qiziqish bildiradi.

O'xshash tashvishlari ham kutilmaganda to'xtab qoldi. Frodo u haqda biror-bir darak eshitmadi, endi hobbitlar sehrigarni qiziqitirmay qo'ydi, shekilli, degan xayolga ham bordi. Ammo Sem kechki payt uyga qaytar ekan, Frodoning xizmat xonasidagi deraza oynasi taqilladi.

Keksa do'stini hayrat-la qarshi olgan Frodo ruhi yengilashganini his etdi. Ikkalasi bir biriga diqqat-la nazar soldi.

– Ishlar qalay? – qiziqdi Gendalf. – Umuman o'zgar-mabsan, Frodo.

– Sendan ibrat olyapman, – hazil-la javob berdi hobbit.

Ammo Gendalf Frodoning ko'ziga qandaydir toliqqan, biroz keksaygandek ko'rindi. U sehrigarni savolga ko'mib, dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar bilan qiziqdi. Ko'p o'tmay ikkalasi tun yarmigacha cho'zilgan suhbatga kirishib ketdi.

Ertasiga ertalab kechki nonushtadan so'ng Gendalf Frodoning xizmat xonasidagi deraza oldiga joylashdi. Kaminda olov yorqin yonmoqda. Ko'cha serquyosh bo'lib, janub tomondan iliq shabada esmoqda. Atrof yangilanganday ko'rinmoqda, dala va daraxtlar yangi nish urgan yashil rangga burkangan.

Gendalf qariyb sakson yil muqaddam o'tgan bahorni, Bilboning Beg-Enddan dastro'molsiz chiqib ketganini esladi. Endi uning sochi oqarib, soqoli bilan qoshi ancha o'sdi, yuzini chuqur ajinlar-u, oqillik alomatlari qopladi, ko'zi esa har doimgiday yorqin. Hozir u tamaki chekib, moviy tutun halqalarini purkab o'tiribdi.

Frodo chuqur o'ylanib qolgani bois, Gendalf ham indamay chekyapti. Tong yorug'ida ham Frodo Gendalfning hikoyasidan qora ko'lankani his etmoqda.

– Kecha tunda Uzugimga doir g'alati narsalar haqida gapirding, Gendalf, – dedi u nihoyat tilga kirib. – Lekin gapingni bo'lib, bunday narsalar haqida kunduz kuni gapirgan yaxshi, deding. Balkim, endi o'sha gapni oxiriga yetkazib qo'yarsan? Uzukni men o'ylagandan ham xavfli xususiyatlari bor, deganday bo'lding. Qanaqangi xavf ekan o'zi u?

– Katta xavf, – javob berdi sehrgar. – Uzuk men o'ylagandan ham ancha qudratli ekan. Shu qadar qudratliki, unga sohiblik qiladigan har bir o'limga mahkum insonni yengmay qo'yamaydi va bora-bora unday sohibga o'zi xo'jayin bo'lib oladi.

Qadim zamonda Eregnor degan yurtda ko'pdan ko'p elf uzuklari yasalgan. Ularni sizlar sehrlı uzuk deb ataysizlar. Uzuklarning turi, tabiiyki, har xil bo'lgan: ba'ziları ancha qudratli, ayrimlari nisbatan zaif bo'lgan. Kichik uzuklar elf temirchilari uchun xomqolip, arzimagan ish bo'lgan. Shunga qaramay, o'limi muqarrar oddiy odam uchun juda xavfli sanalgan. Buyuk uzuklar, Hukmdorlik uzuklari esa – hamma uchun baravar xavflidir.

Sehrlı uzuklardan birining sohibi bo'lmish o'limi muqarrar Frodo esa o'lmayapti ham, qarimayapti ham. Lekin charchayapti. Agar Uzuk yordamida tez-tez ko'rinmas bo'lib borsa, qandaydir shalvirab, oxir-oqibat uzuksiz ham birovga ko'rinmaydigan, ya'ni qosh qoraygan mahalda uzuklarni idora qilayotgan yovuz kuchning noxush nigohi ostida izg'ib yuradigan bo'lib qolyapti. Ertami, kechmi yovuz kuch uni o'z izmiga solib oladi, agar u kuchli, ulug'sifat bo'lsa, bunday holat biroz kechga suriladi.

– Dahshat! – xulosa qildi Frodo.

Yana uzoq cho‘zilgan sukunat qaror topdi. Bog‘da Sem Skrombining maysa o‘rayotgani eshitilmoqda.

– Ko‘pdan buyon bilasanmi bularning barini? – so‘radi nihoyat Frodo. – Bilbo-chi, bilarmidi?

– Ishonchim komilki, Bilbo senga aytib bergan gaplardan tashqari hech narsa bilmagan, – dedi Gendalf. – Xavfliligini bilganida Uzukni, umuman aytganda, senga nisbatan xavf tug‘diradigan biror-bir narsani senga tashlab ketmagan bo‘lar edi, garchi men unga sendan ko‘z-quloq bo‘lib borishga so‘z bergan bo‘lsam-da. U Uzukni nihoyatda go‘zal, juda foydali, zaruriy buyum deb bilgan va agar biror nima noto‘g‘ri yoki g‘alati kechsa, gap Uzukda deb topgan. U menga: «Uzuk tafakkurimning haddan ortiq ko‘p qismni egallab olgan», – degan edi. Lekin Bilbo bu ishni Uzukning o‘zi qilayotganini xayoliga ham keltirmagan, garchi Uzuk bilan muomala qilishda ogoh bo‘lishni idrok etgan bo‘lsa-da: uning nazarida, Uzuk o‘zgarib borgan; hozirgina loyiq kelib, barmoqqa ishonchli taqilib turgan joyida birdan kengayib, barmoqdan sirpanib chiqishga uringan.

– To‘g‘ri, so‘nggi yuborgan xatida bu haqda ogohlantirib o‘tgan edi, – dedi Frodo. – Shu bois uni zanjirchaga ilib yuribman.

– Oqil ish, – ma‘qulladi Gendalf. – Umrining uzoqligiga kelsak, bunday holatni Bilbo hech qachon Uzuk bilan bog‘lamay o‘z taqdiri deb bilgan va hamisha bu bilan g‘ururlanib kelgan. Garchi u so‘nggi vaqtda holdan toygan, horg‘in ko‘ringan bo‘lsa ham. O‘zining ta‘biri ila aytganda o‘zini ingichka va burishib ketganday his etgan. Bu esa Uzuk uning ruhini o‘ziga qaram qila boshlaganidan dalolat edi.

– Ko‘pdan buyon bilar edingmi bularning barini? – so‘radi Frodo.

– Bilar edim? – taajjublandi Gendalf. – Faqat donolargagina ma‘lum bo‘lgan ko‘p narsalarni bilib kelganman. Ammo sen savolingni «mana bu Uzukni nazarda tutib» berding. Yo‘q, aytishim joizki, u haqda hozirgacha hech narsa bilmayman.

So'nggi tekshiruvni o'tkazishim kerak. Biroq men taxminlarim to'g'ri ekanligiga shubha qilmayman.

Gendalf biroz o'ylanib qoldi.

Ilk bor qachon fahmlay boshlaganimni aytishim kerak-da? davom etdi Gendalf xotiralarga cho'mib. — Bu hodisa Oqillarning Oq Kengashi Yovuz kuchni Yovuz o'rmondan Beshta lashkar jangidan oldin quvib solgan yili bo'lib o'tdi. Bilbo Uzukni o'sha yili topib olgan. Xavfsirashim sababini o'zim bilmasam-da, nimadir yuragimga g'ulg'ula soldi. Gollum Buyuk Uzukni qanday topib olgani haqida ko'p o'ylandim. Shundan so'ng Bilboning Uzukni topishmoq o'yinida «yutib olgani» haqidagi g'alati hikoyasini eshitib, to'g'risini aytaman, ishonmadim. Qiyin-qistovlarimdan so'ng bor gapni ro'yi-rost aytib berganidan so'nggina, Bilbo nima qilib bo'lsa ham, Uzukni o'ziniki qilib olmoqchi ekanligini anglab yetdim. Bu bilan u «tug'ilgan kuniga Uzuk sovg'a qilingan» Gollumdan farq qilmay qoldi. Ikkalasing mazmunan yolg'on, bir-biriga o'xshash hikoyasi meni tinch qo'ymadi. Shunisi ravshanki, Uzuk qudratli kuchga ega bo'lib, topilgan zahoti o'z sohibiga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Bu esa ishlar yaxshi emasligining aniq bildiradigan birinchi nishonasi edi. Men Bilboga bunday uzuklarni ishlatmagan ma'qulligini tez-tez ta'kidlab borganman. U esa ushbu gapimdan hamisha xafa bo'lib, achchiqlanar edi. Qo'limdan hech narsa kelmadi hisob. Uzukni Bilboga zarar yetkazmay tortib ololmayman, umuman aytganda bunday qilishga haqim ham yo'q edi. Faqat kutib, kuzatib borishim mumkin edi, xolos. Oq Sarumaning maslahatini olishim mumkin edi-yu, bunga nimadir to'sqinlik qildi.

Oq Saruman deganing kim bo'ldi endi? so'radi Frodo. U haqda hech qachon eshitmagan ekanman.

— Bo'lishi mumkin, javob berdi Gendalf. Hobbitlar u haqda zig'irday bo'lsin tasavvurga ega emas. Ammo u oqillar orasida eng buyugi bo'lib, Shrgarlar Ordeni dohiysi, Oq Kengashning bosh rahnamosi hisoblanadi. U chuqur bilimlarga ega, ammo o'sha bilimlar bilan birga takabburligi ham o'sib, har

qanday turdagi muloxazani hazm qila olmaydi. Sehrli uzuklar, Buyuk va Kichik uzuklar haqidagi qissalar uning ixtisosligidir. Ushbu ixtisoslikni u uzuk yasashning yo‘qotilgan sir-asrorlarini uzoq qidirgancha o‘zlashtirib bordi. Uzuklar masalasi Oqillar-ning Oq Kengashida muhokama qilinar ekan, uning bizga bergan har galgi ma‘lumotlari mening ogohliligimni sustlashtirib boraverdi. Xavotirim shu tariqa uyquga ketdi-yu, lekin uyquasi jonsarak kechdi. Kutish va kuzatishni davom etaverdim.

Bir qarashda Bilboning ishlari yaxshiday ko‘rindi. Yillar ortidan yillar o‘tdi, lekin o‘tayotgan ushbu yillar Bilboga daxl qilmadi. Keksayish alomatlari unda ko‘rinmadi. Yana nimadir yuragimga g‘ulg‘ula soldi. Shunda men o‘zimni o‘zim: «Nima qilgan taqdirda ham Bilbo onasi tomonidan uzoq yashovchi hobbitlar sulolasiga mansubdir. Hali vaqt bor, mayli, kutganim bo‘lsin», – deya tinchlantirib boraverdim.

Kutdim. Uyini tark etgan o‘sha kechagacha kutdim. Bilboning xatti-harakatlari, aytgan gaplari vujudimga dahshat solib, Sarumanning birorta so‘zi meni tinchlantirmadi. Qandaydir yovuz, ajal keltiradigan narsa harakatga kelganini angladim. O‘shandan buyon haqiqatning tagiga yetish yo‘lida ko‘p ter to‘kdim.

-- Bilboga tuzalmas shikast yetgani yo‘g‘-u, to‘g‘rimi? xavotir-la so‘radi Frodo. – Vaqt o‘tib ishlar o‘nglanib ketadi-yu, a? U tinchgina dam oladi, shundaymi?

– Uzukdan xalos bo‘lgach, u o‘zini yaxshi his eta boshladi, ma‘lum qildi Gendalf. -- Uzuklar va ularning karomatlari haqida faqat yolg‘iz bir kuch biladi, xolos, va fahmlashimcha, dunyoda hobbitlar haqida hamma narsani – ul ma‘lumotlar ilm-fanning yon tarmog‘i bo‘lsa ham, kutilmagan narsalarga boy bilimlardan boxabar kuch birorta bo‘lsin yo‘q. Hobbitlar tabiatan momiqday muloyim, ba‘zan ko‘hna emanning o‘q ildiziday mustahkam bo‘lishi mumkin. O‘ylashimcha, hobbitlarning ayrimlari Uzuk ta‘siriga, aksariyat oqillarning taxminiga zid ravishda, uzoq qarshilik ko‘rsata olishadi. Shunday ekan, Bilbodan xavotir olmasang ham bo‘laveradi.

Bilbo uzoq yillar davomida Uzuk sohibi bo'lib, undan ko'p foydalangan, albatta. Binobarin, Uzuk ta'siridan xalos bo'lishi, deylik, Uzukka xavfsiramay qaray olishi uchun ancha vaqt kerak bo'ladi. Boshqa masalalarda esa baxtli-saodatli yashayveradi. Chunki Bilbo Uzukdan o'z xohishi bilan voz kechdi – bu esa o'ta muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, Uzukdan voz kechgan qadrli Bilbodan tashvish tortmay qo'yanman. Endi men sendan xavotirdaman.

Bilbo ketgandan buyon men ko'proq sen va senga o'xshagan boshqa ajoyib, beso'naqay, notavon hobbitlarning tashvishi bilan bandman. Agar yovuz kuch Shirni bosib oladigan, Boljerlar, Xornblauerlar, Bulkinslar, Breysgirdlilar kabi barcha qalbi pok, quvnoq, gapi to'mtoq, hatto tabiati jirkanch bo'lsa ham, Sakvil-Begginsday hobbitlarni asoratga soladigan bo'lsa, jamiki jahon uchun bu qattiq zarba bo'ladi.

– Nega endi bizni birov asoratga solishi kerak ekan? – so'radi yelka qisib qo'yan Frodo. – Yovuz kuchga bizday o'jiz qullar nimaga kerak bo'lishi mumkin?

– To'g'risini aytganda yovuz kuch hobbitlarga umuman e'tibor qilmagan, ularning borligini bilmagan. Bundan biz minnatdor bo'lishimiz darkor. Ammo endi xavfsizligingiz barham topdi. Dushman sizning xizmatigingizga ehtiyoj sezmaydi – zero, uning foydasi ko'proq xizmatkorlari bisyor, – biroq u endi sizlarni o'z e'tiboridan chetga chiqarmaydi. Hobbitlar unga erkin, baxtiyor elat sifatida emas, baxti qaro qullar sifatida ko'proq yoqadi. Bundan tashqari, xusumat va qasos degan tushunchalar ham bor!

– Qasos? – tushunmadi Frodo. – Nega endi qasos? Hali-gacha hech tushuna olmayman, bularning bari menga, Bilboga va bizning Uzugimizga nima daxli bor?

– Bevosita daxli bor, – javob berdi Gendalf. – Haqiqiy xavfni bilmaysiz hali, lekin bilib olasiz. Bu yerda so'nggi bor bo'lganimda o'zimning ham ishonchim komil emas edi, mana endi bu haqda gap ochish mavridi keldi. Uzukni bir daqiqaga berib tur.

Frodo kamariga mahkamlangan zanjirga qadalib, kissasida saqlanayotgan Uzukni chiqardi-da, zanjirdan ajratib sehrarga uzatdi. Ushbu buyum odatdagidan ko'ra og'irroq bo'lib, Gendalfning qo'li tegishiga yo Frodo, yo Uzukning o'zi xohlamaganday bo'ldi.

Gendalf sof oltindan yasalgan Uzukni qo'liga oldi.

– Sirtida biror-bir belgi bormi? – so'radi sehrgar.

– Yo'q, hech qanday belgi yo'q, – javob berdi Frodo. -- Sirti silliq, timdalangan yoki eskirib yemirilgan alomati ko'rinmaydi.

– Unda bo'lsa qara!

Frodoni hayron-u dahshatda qoldirgan sehrgar Uzukni oldi-da kamin oloviga tashladi. Ayanch-la qichqirib, otashkurakka tashlangan Frodoni Gendalf arang to'xtatib qoldi.

– Shoshma! – dedi u qalin o'sgan qoshi ostidan Uzukka qarab.

Uzuk o'zgarmadi. Muayyan vaqt o'tgach o'rnidan turgan Gendalf deraza tavaqalarini yopib, pardalarni tortdi. Garchi bog' tomondan Sem ishlatayotgan o'roq shovqini hamon eshitilayotgan bo'lsa ham, xona qorong'ilashib, jimjit bo'lib qoldi. Sehrgar olovga tikilgancha biroz tek turgach, engashib otashkurakni oldi-da cho'g' ichidan Uzukni chiqarib Frodoga uzatdi.

– Muzday bo'lishi kerak, – dedi Gendalf. – Ushla!


Uzukni kaftiga olgan Frodo tilla buyumning yanada qalinlashib, og'irlashganini sezdi.

– Balandroq ko'tarib, sirtiga diqqat-la qara! – buyurdi sehrgar.

Uzukning ichki va tashqi sirtida nihoyatda ingichka chiziqlar paydo bo'lib, notanish harflarga aylanganicha allaqanday jumlar hosil qildi. So'zlar aniq ko'rinayotganiga qaramay, harflar chuqurlik ichida yaltirayotganday bo'lmoqda.

– Qandaydir notanish, sehrli harflar, o'qiy olmayapman, – dedi Frodo titroq ovozda.

– Ularni men o'qiy olaman, – dedi Gendalf. – Bu elflarning qadimiy yozuvi bo'lib, Mordor tilida bitilgan. U taxminan





quyidagicha tarjima qilinadi:

*So 'nggisi va eng qudratlisi – Mordor Hukmdoriga,  
Elatlarning barini ayirib, erkidan mahrum qilish,  
Kurrai zamindagi o'z baytulahzanlariga qamab...*

Bu misralar elflar haqidagi rivoyatning tegishli joyidan olingan:

*Uchta uzuk oqil elflarga – ezgu ishlari uchun,  
Yettita uzuk tog' gnomlariga – konchilik nafi uchun,  
O'ntasi – O'rta yer odamlariga – yovuzlikka xizmati,  
Va qirg'in-barot janglarda dovyurak bo'lishlari uchun,  
So 'nggisi va eng qudratlisi – Mordor Hukmdoriga,  
Elatlarning barini ayirib, erkidan mahrum qilish,  
Kurrai zamindagi o'z baytulahzanlariga qamab,  
Qudratli Mordor Hukmdoriga qaram qilish uchun.*

Biroz sukut saqlab turgan Gendalf davom etdi:

– Bu Cheksiz hukmronlik uzugi, ularning barini boshqaradigan Uzukdir. U ko'plab asrlar muqaddam yo'qotilgan va shu bois dushmanning kuchi putur ketgan. Dushman o'z Uzugini qaytarib olmoqchi, lekin Uzuk unga yetib bormasligi kerak.

Frodo qilt etmay, jim o'tiribdi. Nazarida, kimningdir qudratli qo'li qop-qora bulut singari shiftdan tushib, boshi ustida muallaq osilib turganday go'yo.

– Mana shu Uzuk-a! – duduqlandi u. – Mengacha qanday yetib kelgan u?

– O, bu juda uzun hikoya! – dedi Gendalf. – Uning boshi rivoyatchi oqinlargina eslaydigan mudhish yillarga borib taqaladi. Agar uni boshidan oxirigacha aytib beradigan bo'lsam, bahordan qishgacha o'tirishimizga to'g'ri keladi. Kecha kechasi men senga Zulmat Hokimi Buyuk Sauron haqida so'zlab berdim. Sen eshitgan mish-mish gaplar asoslidir: u chindan ham yana bosh ko'tarib Yovuz o'rmondagi panogohini tark etgancha Mordor-

ning qorong'i minorasida qadimdan saqlanayotgan qoq murdasiga qaytgan. O'sha joy nomini hatto siz hobbitlar ham eshitgan-siz. Mag'lub bo'lgach, uning ko'lankasi hamisha o'z shaklini o'zgartirib, yana kattalashib kelgan.

– Bu narsa mening davrimda bo'lib o'tishini istamayman, – dedi Frodo.

Men ham, – dedi Gendalf. – Bunday davrda yashaganlarning istagi o'xshash bo'lgan. Biroq buning yechimi bizning ixtiyorimizda emas. Qo'limizdan keladigan ish – o'z davrimizda qanday yo'l tutishga doir qaror qabul qilishdir. Bizning davrimiz esa Frodo, aftidan, mudhish kechadigan ko'rinadi. Dushman tez kuch yig'moqda. Uning rejasi hali oxirigacha pishib yetmagan, lekin, o'ylashimcha, bu uzoq davom etmaydi. Biz nihoyatda chtiyot bo'lishimiz kerak.

O'z bilim va qudratiga ega bo'lish, har qanday qarshilikni yanchib tashlash, himoya choralari yengib o'tish, jamiki jahonni zulmat-la qamrash uchun dushmanga hamon bir narsa, u ham bo'lsa sening Uzuging yetishmayapti.

Sehri qudratli uchta uzukni elf qirollari dushmandan yashirishga muvaffaq bo'lishdi. Dushmanning qo'li hech qachon o'sha uzuklarga tegmagan. Yettita uzukka gnomlar egalik qilishgan. Ammo yettida uzukdan uchtasi dushman qo'liga o'tgan bo'lsa, to'rttasini ajdar yutgan. To'qqizta uzukni u buyuk, kibrli, o'limi muqarrar odamlarga tuhfa etib, bu bilan ularni yo'ldan urgan. Qadimda ular dushmanga qaram bo'lib, Uzukning ruhi, dushman sharpasining soyasi, eng mudhish xizmatkorlariga aylanib qolishdi. Ko'pdan buyon, juda ko'p vaqtdan buyon o'sha to'qqizta arvoq tashqariga chiqmagan edi. Endi kim biladi deysan? Ulkan sharpasi yiriklashib borar ekan, xizmatkorlari ham ushbu yorug' olamga chiqib olishlari mumkin. Qo'y o'shalarni, Frodo. Ba'zi mavzularni tong otgan bo'lsa ham Shirda tilga olmagan ma'qul.

Shunday qilib, to'qqizta uzukni u to'la-to'kis o'ziniki qilib oldi, yettita uzukning muayyan qismini qo'lga kiritgan bo'lsa, qolgan qismi kafolatli yo'q bo'ldi, uchta uzuk esa undan

batamom bekitildi. Bu uni tashvishga solmaydi. Unga faqat bitta Uzuk kerak. Zero, o'sha Uzukni bir zamonlar o'zi yasagan bo'lib, unga qolgan uzuklarni, ular qayerda bo'lmasin boshqarishi maqsadida qadimiy qudratining aksariyat qismini kiritdi va bu bilan hammadan kuchli bo'lishni niyat qildi.

Bu o'ta xavfli, Frodo. Chunki dushman shu kungacha Uzukni barbod bo'lgan, elflar uni yo'q qilishgan deb hisoblab kelgan. Endi u Uzukning yo'qolmagani, uni qidirib topish mumkinligini biladi. Shubha yo'qki, endi dushman astoydil Uzuk qidiruviga tushadi, jamiki diqqat-e'tiborini o'z tilla buyumini qidirib topishga jamlaydi. Bu uning katta umidiga va bizga nisbatan tug'ilgan o'ta xavfli tahdidga aylanadi.

– Biroq nima uchun Uzukni shu kungacha hech kim yo'q qilmadi? – xitob qildi Frodo. – Va qanday qilib dushman shunchalik qo'li Uzugini, o'zi shu qadar qudratli bo'lishiga qaramay yo'qotib qo'ydi?

Frodo go'yo birovning qora qo'li uzatilganday Uzukni kaftiga mahkam siqib oldi.

– Uzukni undan tortib olishgan, – javob berdi Gandalf. – Bir zamonlar elflar kuchli bo'lib, odamlarning hammasi ham o'zini ulardan nari tortishmagan. G'arb aholisi ravnaq cho'qqisiga chiqqan. Bu qadimiy tarix hodisalari bo'lib, ularni yodda tutmoq lozim: o'sha davrda ham musibat ko'lami oshib, zulmat jamlanib borgan, lekin shu bilan bir vaqtda izsiz, behuda yo'qolib ketmagan ishlar ham amalga oshirilgan. Vaqti kelib senga bularning barini aytib beraman yoki o'sha voqealarni mendan ko'ra yaxshiroq biladiganlar hikoya qilib berishadi.

Hozir esa Uzuk qanday qilib sengacha yetib kelganini bilishing kifoya. Elflar qiroli Gil-Gelad bilan g'arb o'lkalarida yashagan odamlar qiroli Elendil Sauronni tengsiz jangda mag'lub qilishdi, garchi o'zlari ham o'sha jangda halok bo'lishgan bo'lsa-da. Elendilning o'g'li Isildur esa Sauronning qo'lini chopib tashlab, Uzukni o'ziniki qilib oldi. Mag'lub bo'lgan Sauronning ruhi olislarga uchib ketib, Yovuz o'rmondagi ko'lankasi yana muayyan shaklni kasb etguncha o'sha yurtlarda uzoq yillar

bekinib yurdi.

Uzuk yo'qotildi. Anduin deb ataladigan azim daryoga tushib ketgan sehrli buyum gum bo'ldi. Daryoning sharqiy sohili bo'ylab shimol tomon yo'l olgan Isildurga Quvonch dalasi yaqinida pistirma uyushtirgan tog' orklari hujum qilib, qo'shinini bitta qo'ymay qirib tashladi. O'zini daryoga tashlagan Isildurning barmog'idagi Uzuk sirpanib chiqib, suv tubida gum bo'ldi. Ko'zga ko'rinib qolgan Isildur esa orklar kamonidan o'lim topdi.

Gendalf biroz jim bo'lib qoldi.

– Shunday qilib, Uzuk Quvonch dalasi yaqinidagi suv havzasiga tushgancha bilim va afsonalardan shu qadar uzoqlasha bordi-ki, hatto Oqillarning Oq Kengashi ham uning kelgusi qismatidan bexabar qoldi. Endi esa o'sha hodisalar davomini men bilaman.

Oradan ko'p yillar o'tib, lekin bugungi zamonimizdan ancha oldin yovvoyi o'lka chetida, azim daryo sohilida qo'li gul, oyog'i chaqqon pakana xalq yashagan. Fikrimcha, o'sha xalq hobbitlarning qadimiy elati, storlarning uzoq qarindoshi bo'lgan. Chunki ular daryoni juda yaxshi ko'rishgan, unda tez-tez cho'milib, sohildan sohilga suzib o'tish uchun qamishdan katta-kichik qayig'-u, sollar yasashgan.

Ushbu xalq orasida boshqa sulolarga nisbatan kattaroq, anchagina davlatmand, obro'li sulola bo'lib, uni qadimiy rivoyatlarni yaxshi biladigan, qattiqqo'l, oqil, yoshi anchaga borgan ayol boshqargan. O'sha oilaning har narsaga qiziqib qaraydigan Smeagorl ismli a'zosi bo'lgan. U turli o'simliklar ildizini o'rganar, daryo girdobiga sho'ng'ir, ko'hna daraxtlar ostida uya qazir edi. U nigohini hamisha yerga qadab, tog' cho'qqilari, daraxt barglari, o'simlik guli kabi go'zalliklarga qaramay yurgan.

Smeagorl Diagorl ismli hobbit bilan do'st tutingan. O'tkir ko'zli Diagorl Smeagorlday abjir, kuchli bo'lmagan. Kunlardan bir kun ikkovlon qayiqqa o'tirib, gulsapsar qalin o'sgan, qamishzori gullagan Quvonch dalasi tomon yo'l oldi. Manzilga yetgach, Smeagorl suvga sho'ng'ib, qirg'oq yaqinida suzdi. Qayiqda qolgan Diagorl esa qarmoq tashlab baliq ovladi.

Qarmoqqa ilingan yirik baliq Diagorlga es-hushini yig'ib olishga qo'ymay suvga tortib, daryo tubiga g'arq qildi. Qarmoqni qo'ldan chiqarib yuborgan Diagorl daryo tubida nimadir yiltillayotganini ko'rib, damini chiqarmay yaltiroq buyumni changallab oldi.

Sochiga suv o'tlari yopishgan, boshdan oyoq balchiqqa belangan Diagorl bir amallab qirg'oqqa chiqib olgach rosa suv tufladi. O'ziga kelgach, mushtidagi loyni yuvib kaftida qolgan nihoyatda chiroyli tilla Uzukni ko'rdi. Quyosh nurida tovlana-yotgan Uzuk Diagorlning ko'zini quvontirdi. Daraxt ortida kuzatib turgan Smeagorl topilmasidan sevinayotgan Diagorlning yoniga pisib keldi.

– Menga ber uni, qadrdonim! – dedi Smeagorl do'stining yelkasi uzra Uzukka qarab.

– Nega endi senga berishim kerak ekan uni? – taajjublandi Diagorl.

– Chunki bugun mening tug'ilgan kunim, qadrdonim, – dedi Smeagorl. – Uzukni tug'ilgan kunimga sovg'a sifatida tuhfa qilishingni istayman.

– Istaging bilan nima ishim bor, – rad etdi Diagorl. – Qolaversa men senga sovg'a berdim, juda qimmatbaho sovg'a edi u. Uzukni esa men topdim, o'zim egalik qilaman unga.

– Obbo qadrdonimey, shunaqa degin?!

Uzukning schridan ta'sirlangan Smeagorl kutilmaganda do'sti Diagorlga tashlanib, tagiga bosib olganча bo'g'ib o'ldirdi. Mudhish jinoyatini yakuniga yetkazgach, qotillik-la qo'lga kiritilgan Uzukni barmog'iga taqdi.

Diagorl qayoqqa g'oyib bo'lgani, unga nima qilganini hech kim bilmadi. Chunki u uyidan ancha olisda o'ldirilgan bo'lib, jasaki ustomonlik-la bekitilgan edi. Smeagorl qishloqqa yolg'iz o'zi qaytdi va fahmlashicha, Uzuk barmog'iga taqilgan holatda uni hech kim ko'rmadi. Bundan u nihoyatda sevinib, Uzukning ushbu xususiyatini sir saqlashga ahd qildi. Shundan so'ng u Uzuk vositasida birovlarning sirlaridan voqif bo'lib, bunday ma'lumotlardan nopok, yovuz maqsadlarda foydalandi.

O'ziga ziyon yetkazadigan har qanday narsani tez ko'radigan, aniq eshitadigan bo'ldi. Uzuk unga o'z moyilliklarini qanoatlan-tirish imkonini berdi. Qabiladoshlar uni yomon ko'rib qolgani bejiz emas. Ular Smeagorlidan nari yuradigan, yaqin kelsa, tepib haydashadigan bo'lishdi, Smeagorl esa zohiran ko'rinmas bo'lib, ularni chalish bilan ovora bo'ldi. Vaqt o'tib Smeagorl o'g'irlikka qo'l urdi, o'zi bilan o'zi gaplashib yuradigan odat chiqardi. Binobarin, unga Gollum laqabi berilib, qabiladan la'nat-la hay-dab yuborildi. Smeagorlning enasi, sulolaning qari rahnamosi, qabilada tinchlik saqlanishini istagan keksa ayol Gollumni oila-dan quvib soldi.

Dunyo ishlarining shavqatsizligidan shikoyat qilgan Gollum tanho o'zi daryo oqimiga qarshi yo'nalishda safarga chiqdi, tog'dan oqib tushayotgan jilg'aga yetgach, uning oqimi bo'ylab yurgancha toqqa ko'tarildi. Ko'rinmas qo'li bilan suv aylanmasida baliq ovlab xomicha yeyishga odatlandi. Jazirama kunlardan birida suvga engashgan Gollumning ko'zini quyosh aksi qamashtirib qattiq og'ritdi. Quyoshning nimaligini unutib yuborgan Gollum uni ko'p yillardan buyon ilk bor ko'rib, quyosh aksiga musht-la tahdid qildi.

Yuqoridan pastga qaragan Gollum G'uborli tog'larning jilg'alar oqib tushayotgan olis cho'qqilarini ko'rdi. «Anavi tog' osti ancha salqin, qorong'i bo'lib, u yerda quyosh menga yeta olmasa kerag-ov, – xayoldan o'tkazdi Gollum. Tog' asosi – mukammal asos bo'lib, shu kungacha hamma uchun maxfiy bo'l-gancha qolayotgan ulug' sirlarni bekitib kelayotgani turgan gap».

Kechalari G'uborli tog'lar fizmasida kezib yurgan Gol-lum nihoyat jilg'a sizib chiqayotgan g'orni topishga muvaffaq bo'ldi. Chuvalchang singari tog' qa'riga singib ketgan Gollum hammaning ko'z o'ngidan g'oyib bo'ldi. U bilan birga Uzuk ham tog' ichiga kirib ketdi, hatto kuchi tobora oshib borayotgan Uzuk bunyodkori ham bundan bexabar qoldi.

Gollum! – xitob qildi Frodo. Gollum?... Bilboga duch kelgan o'sha Gollumda bu, a? Jirkanch maxluq!

– O'sha uchrashuv juda g'amgin hodisa bo'lib, fikrim-

cha, men bilgan hobbitlarning har qaysi biri boshdan o'tkazishi mumkin edi.

– Gollurning hobbitlarga daxldorligiga, bizning uzoq elatdoshimiz ekanligiga hech ishongim kelmaydi, – dedi Frodo. – Qanday mudhish hodisa ekan-a, bu?!

– Mudhish bo'lsa-da, haqiqiy hodisa u, – javob berdi sehrgar. – Hobbitlarning kelib chiqish masalasiga kelsak, buni men har qanday hobbitdan ko'ra yaxshiroq bilaman. Hatto Bilboning boshidan o'tgan ishlarning ham bu bilan ma'lum bir umumiyliigi bor. Bilbo bilan Gollurning ongi va xotirasida umumiy jihatlar ko'p bo'lgan. Ular bir-birini yaxshi tushunishgan, mulohazalarini hobbit bilan gnom yoki ork yoxud elf o'rtasida o'tadigan muloqotdan ko'ra yaxshi anglashgan. Masalan, javobini ikkalasi ham bilgan topishmoqlarni esla.

– Ha, shunday, – dedi Frodo. – Garchi boshqa xalqlar ham aksariyati mazmunan bizning topishmoqlarga o'xshash topishmoq aytishsa-da. Hobbitlar tovlamachilik qilishmaydi. Gollum esa nuqul aldab kelgan. Bilboni g'aflatda qoldirishga uringan. O'ylashimcha, oson o'lja bilan o'ynashish uning yovuz tabiati uchun ermak bo'lgan.

– To'g'ri aytasan, – ma'qulladi Gendalf. – Lekin o'ylashimcha, bunda sen ko'rmayotgan ayrim narsalar ham bor. Hatto Gollum ham Uzukka batamom qaram bo'lib qolmagan. U oqillar taxmin qilgandan ham kuchli bo'lib chiqdi. To'g'ri-da, axir, u bir vaqtlar hobbit bo'lgan. Miyasining bir burchagi o'ziniki bo'lgan-cha qolgan va aynan mana shu burchak zulmat qa'ridagi tirqish singari o'tmishdagi ro'shnolik nurini o'tkazib borgan. Fikrimcha, shamol va daraxtlarni, quyosh va maysani va shu kabi allaqachon unutilgan narsalarni eslatadigan o'tmish sadosini yana eshitish yoqimli kechsa kerak.

Biroq bu holat tabiatining yovuz qismini yanada yovuzlashtirib borgan, – chuqur xo'rsindi Gendalf. – Afsuski, undan umid yo'q! Zig'irday bo'lsin, umid qolmagan. Garchi tog' qa'ridagi zulmatda ehtiyoj tug'ilmagani bois Uzukdan ko'p foydalanmagan bo'lsa-da, unga haddan ortiq uzoq egalik qilgan. Shu

salabdan ham vujudi batanom «so'nib» bitmagan. Gollum ozib-to'zib ketganidan tashqari, Uzuk uning miyasini yeb tugatib borgan. Bu esa chidab bo'lmas jafoning o'zginasidir.

U o'ylagan «ulug' sirlar»ning bari puch bo'lib chiqdi: izzalaydigan narsaning, qiladigan ishning o'zi bo'lmadi, faqat o'lja yeb, xotira ila yashash bilan mashg'ul bo'ldi. Gollum nihoyatda badbaxt bo'lib, zulmatdan nafratlandi, yorug'likni undan-da battar yomon ko'rdi. U hamma narsaga, ayniqsa, Uzukka nafrat-la qaraydigan bo'lib qoldi.

– Uzukka nafrat-la qaraydigan bo'lib qoldi? – taajjublandi Frodo. – Uzuk uning malohati emasmi?! Qadrlaydigan yagona buyumi Uzuk bo'lgan-u?! Shunchalik nafratlangan ekan, nega uni biron yerda qoldirib ketib, xalos bo'lmadi?

– Shuncha gapni eshitib bir narsani tushunishing kerak, Frodo, – dedi Gandalf. – Gollum o'zidan nafratlanib, o'ziga mahliyo bo'lganday, Uzukni ham yaxshi ko'rib, ham nafratlangan. U Uzukdan o'z xohishi ila xalos bo'la olmagan. Bning uchun unga iroda-yu, jur'at yetmagan.

Hukmdorlik Uzugi o'zini o'zi idora qiladi, Frodo. Xiyo-natkorona ish tutib sohibining barmog'idan sirpanib tushishi mumkinki, sohibi o'z xohishi bilan undan xalos bo'la olmaydi. Uzuk sohibining qo'lidan keladigan yagona ish - ushbu buyumni boshqa birovga topshirish g'oyasi ila kezib yurishdir. Bu ham bo'lsa buyumga egalikning dastlabki pallasida, ya'ni Uzuk o'zining navbatdagi sohibini o'ziga qaram qilib olmasidan oldin ro'y berishi mumkin. Bilishimcha, Bilbo bunday g'oyani Uzuk tarixida birinchi bo'lib ro'yobga chiqara oldi, garchi buning uchun menga borki kuch-g'ayratimni ishga solishga to'g'ri kelgan bo'lsa-da. Ammo mening yordamim bilan ham bu ishni uddalay olishi amri mahol edi. Gollum emas Uzukning o'zi hal qiladi o'z qismatini, Frodo. Uzuk Gollumni tark etgan.

– Bilbo bilan uchrashish maqsadida, albatta, shundaymi? – dedi Frodo. – Biror bir ork munosibroq bo'lmasmi unga?

– Kulgili yeri yo'q buning. Ayniqsa, sen istehzo qilma, Frodo, – javob berdi Gandalf. – Bilbo o'z vaqtida paydo bo'lib,



qorong'ilikda Uzukni barmog'iga taqib olgani – Uzuk tarixidagi eng g'alati holatdir.

Bu yerda ta'sir o'tkazayotgan kuch bitta emas ko'proq, Frodo. Uzuk hamisha o'z hukmdorining ixtiyoriga qaytishga urinadi. U Isildurga, barmog'idan sirpanib chiqib xiyonat qildi. Imkon tug'ilishi bilan sho'rlik Diagorlari qaram qilib, o'lim topishiga sababchi bo'ldi. Vaqt o'tib u Gollumni ham tark etdi. Chunki pakana, zaif Gollum hech qachon tog' qa'ridan tashqariga chiqmas edi. Yovuz o'rmonda uyg'ongan hukmdori o'z niyatini yuborgach, Uzuk, tasavvur qilinishi nihoyatda qiyin kechadigan bir jonzot - Shirdan kelib qolgan Bilbo tomonidan topib olinishi uchun Gollumni tark etdi!

Bularning bariga qandaydir boshqa, Uzuk bunyodkorining xohish-istagiga mos kelmayotgan o'zga kuch ta'sir o'tkazmoqda. Fikrimni aniqroq ifoda eta olmayman-u, lekin aytishim mumkinki, Uzukni topib olishi uchun Bilbo tanlangan, ammo uni Uzuk hukmdori tanlamagan. Shunday ekan, sen ham Uzukka sohiblik qilishing uchun tanlangansan. Mana shu fikr dalda beruvchi fikrday tuyuladi menga.

- Seni to'g'ri va to'la-to'kis tushunganimga ishonchim komil emas, Gendalf, – dedi Frodo. - Bilbo bilan Gollum haqidagi ushbu tafsilotlarni qayerdan bila qolding? Bularning barini sen chindan ham bilasanmi, yo fahmlayapsanmi?

- Ko'p narsani shundoq ham bilar edim, yanada ko'p narsani endi bilib oldim, - javob berdi ko'zi yarqiragan Gendalf. - Qilgan barcha ishlarim haqida senga hisobot berib o'tirmoqchi emasman. Elendil, Isildur va Uzukning tarixidan oqillarning hammasiga voqif. Sening Uzuging Hukmdorlik Uzugidan o'zga narsa emas. Zero, boshqa dalillardan tashqari, olovli yozuv buning isbotidir.

- Xo'p, buni qachon bilib olgan eding? – gapni bo'ldi betoqat Frodo.

- Hozirgina, mana shu xonada, – keskin ohangda javob berdi Gendalf. - Lekin men shunday bo'lishini bilar edim. Olis yurtlarga safarlar va uzoq davom etgan izlanishlardan so'ng

o'tkazilgan oxirgi tekshiruv edi bu. Uzuk tarixida yetishmagan hodisalar silsilasi va Gollunning ushbu tarixda tutgan o'rnini aniqlash uchun anchagina kuch sarflashga to'g'ri keldi. Ilgari Gollum bilan bog'liq hodisalarni taxmin qilar edim, endi esa aniq bilaman. Chunki men uni qidirib topdim.

- Topding?! - taajjub-la xitob qildi Frodo.

- Eng mulohazali ish shu bo'ldi. Men uni uzoq qidirib, nihoyat suhbatini oldim.

- Bilbo undan qochib qutulganidan keyin nima bo'ldi, Gollunning o'ziga nima qildi? Bulardan ham xabaring bormi?

- Unchalik emas. Men senga Gollumdan eshitganlarimni qisqacha aytib berdim. Garchi, yo'q, hammasini emas. Gollum yolg'onchi, uning gaplarini yaxshilab g'alvirdan o'tkazish kerak. Masalan, Uzukni u «tug'ilgan kunimga berilgan sovg'a» deb, shu gapini qattiq turib ma'qullar edi. Uning gapiga qaraganda, Uzuk unga bunday chiroyli buyumlari ko'p bo'lgan enasidan meros qolgan. Jirkanch uydirma. Smeagorlning enasi kayvoni kampir bo'lganiga shubha qilmayman, biroq uning bisotida ko'plab elf uzuklari bo'lgani, ularni birovga sovg'a qilgani - bema'nilikdan o'zga narsa emas. Tug'ilgan kuniga sovg'a tariqasida olgani ham, boshqa gaplari ham g'irt yolg'on.

Diagorlni o'ldirgani uchun Gollum uzoq yillar davomida ma'nan qiynalgan. Nihoyat u vijdon ta'qibidan himoya o'ylab topgan va ushbu yolg'onini «o'z malohati» bilan gaplashayotganda ham, zulmatda o'ljasining suyagini g'ajiyotganda ham takror va takror talaffuz etib, oxiri o'zi ham ishonib yuborgan, ya'ni o'sha kun uning tug'ilgan kuni bo'lib, Diagorl unga Uzuk sovg'a qilgan va tabiiyki, Uzukni «tug'ilgan kunimga berilgan sovg'a» deb yurgan.

Uning yolg'oniga bardoshim yetguncha chidadim, lekin menga haqiqat kerak bo'lgani bois qattiqqo'llik ko'rsatishga majbur bo'ldim. Unga hassamdan chiqargan olov-la po'pisa qildim va nihoyat dam hiqillab, dam ho'ngrab yig'layotgan Gollunning ichidagi bor haqiqatni sug'urib oldim. O'z hikoyasini zimistondagi topishmoqlar-u, Bilboning qochib qutulgani

bilan yakunlagach, bir nechta tushunarsiz shamadan boshqa hech narsa ayta olmadi. Mendan ko'ra boshqa birovdan qo'rqar edi u. O'z mulkini qaytarib olishi kerakligi haqida po'ng'illadi. Odamlar uni ko'rib qolishi, rosa tepib, allaqanday uyaga tortib ketishlari va o'sha yerda shilishlarini aytdi. Endi Gollumning qudratli do'stlari borligi, unga yaqindan yordam berishlari, Beggins o'z qilmishi uchun javob berishi haqida gapirdi. Bilbo Begginsning jazoga tortilishi Gollumning asosiy fikri bo'ldi. U Bilbodan nafratlanar, uning ismini la'natlar edi. Boz ustiga u Bilbo qayerlik ekanini biladi.

– Qayerdan bila qoldi u?

– Bilbo Gollum bilan uchrashgan fursatda shu qadar kaltafahmlik qilib qo'yganki, o'zini janob Bilbo Beggins ekanligi, gnomlar va shehrgar sherigini yo'qotib qo'ygani, o'zi qayerdaligini bilmay, tezroq tashqariga chiqib ketishni istashini aytib qo'ygan. Keyinchalik tashqi dunyoga chiqqan Gollum haqiqatni anglab yetish borasida qiyinchilik sezmagani. Ha, nihoyat u zimistondan tashqi dunyoga chiqqan. Uzugini qaytarib olish istagi orklar va tabiiy yorug'lik oldidagi qo'rquvdan ustun kelgan. Bilasanmi, garchi egalik qilishni istasa-da, endi Uruk uni o'ziga qaram qilmay qo'ygani bois Gollum asta-sekin jonlana boshlagan. O'zini nihoyatda kekxa his etgan-u, dadillashib, ilgarigi jur'atsizligidan xalos bo'lgan, ishtahasi ochilgan.

Oy bilan quyosh nurini hamon yomon ko'radigan Gollum shaytontabiat bo'lib, kunduzgi yorug'lik va oydin kechadan bekinib yurish yo'lini topgan. Oysiz tunda sovuq, xira nigohi ila ehtiyotsiz yurgan mayda jonivorlarni tutib yeganxa, birovga sezdirmay tez harakatlangan. Yegulikning yangi turlari, toza havu ta'sirida borgan sari kuchli, dadil bo'lib borgan. Kutilgan-dek, oxiri u Yovuz o'rmonga yetib borgan.

– Va sen uni o'sha yerda topib olgansan, shundaymi? – so'radi Frodo.

– Men uni o'sha yerda ko'rganman, – javob berdi Gendalf. – Ammo o'sha kungacha u Bilboning izidan yurib ko'p narsalardan xabar topishga ulgurgan. Undan ma'nili gap olish

qiyin kechdi, har so'zi orasida Bilboga la'natlar o'qib, do'q-po'pisa yog'dirib bordi. «Kissasida nima borligini bilmagan edik, malohatim mening! – der edi u. – Aldadi. Noto'g'ri topishmoq berdi. O'yin qoidasini buzdi. Ko'riboq bo'g'ishimiz kerak edi uni, malohatim mening. Hech qisi yo'q, ulguramiz hali bo'g'ib, jonini sug'urib olishga!...»

Bu uning nutqidan kichik bir izoh, xolos. Davomini eshitishni istamasang kerak, deb o'ylayman. O'sha kunlar shaxsan men uchun og'ir kunlar edi. Biroq po'pisalari-yu la'natlari orasida Gollunning yassi to'voni ko'l shahri bo'lmish Esgarot va hatto Deyl ko'chalarida iz qoldirganini, shahar aholisining gap-so'zlarini pinhon eshitib, xatti-harakatlarini yashirincha kuzatib yurganini angladim. Buyuk hodisalarga doir yangiliklar yovvoyi o'lkalardan uzoq-uzoqlarga tarqagan. Bilboning ismini, qayerdan kelganini ko'pchilik eshitgan. G'arbga qaytganimizni biz hech kimdan sir tutmaganmiz. Shunday ekan, Gollunning o'tkir qulog'i kerakli ma'lumotlarning barini eshitgan.

– Unday bo'lsa, nega u Bilboning izidan yurishni davom etib, Shirga yetib kelmagan? – so'radi Frodo.

– Ana endi biz asosiy masalaga yetdik, – dedi Gendalf.  
– O'ylashimcha, u aynan shunday qilmoqchi bo'lgan. Gollum azim daryo bo'ylab g'arb tomon yo'l olgan, biroq negadir uning yo'li keskin burilgan. Ishonchim komilki, uni yo'lning olisligi cho'chitmagan, qandaydir boshqa narsa chalg'itgan. Uni men uchun kuzatib borgan do'stlarim shunday xulosaga borishgan.

Gollunning iziga birinchi bo'lib o'rmon elflari tushishgan. Bu masalada ular qiyinchilik sezishmagan. Chunki Gollumning izi yangi bo'lgan. Garchi ular Gollumni quvib yetishmagan bo'lsa-da, Yovuz o'rmonga kirib, tark etgan izlarini topishgan. O'rmon Gollum haqidagi mish-mish gapga to'lgan, hatto hayvonlar-u qushlar ham u haqda qo'rqinchli ertaklar to'qishgan. O'rmon ahli orasida jonivorlarning qonini tirigicha ichadigan yangi maxluq paydo bo'lgani haqida gap tarqagan. Ul maxluq in qidirib daraxtga chiqishi, bola qidirib uyalarga kirishi, beshik qidirib deraza oshib tushishi tillarda doston bo'lgan.


Biroq Yovuz oʻrmonning gʻarbiy chegarasiga yetgan Gollumning izi ortga qaytgan. U janub tomon yoʻl olib, elflar nazoratidagi hudud chegarasidan chiqib ketgancha gum boʻlgan. Shu yerga kelganda men katta xatoga yoʻl qoʻyganman. Ha, Frodo, garchi eng katta xato boʻlsa-da, yoʻl qoʻygan xatolarim orasida birinchisi emas edi. Shu yerga yetgan Gollumni taʼqib qilishni toʻxtatdim. Mendan uzoqlashib ketishiga imkon berdim. Chunki oʻsha paytda qiladigan ishlarim koʻp boʻlib, Sarumanga hamon ishonar edim.

Oradan yillar oʻtdi. Yoʻl qoʻygan xatoim uchun oʻsha kundan buyon boshimdan koʻplab mudhish kunlar oʻtdi. Bilbo Shirni tark etgandan keyin yana qidirishga kirishar ekanman, Gollumning izi allaqachon sovib boʻlgan edi. Zamonamizning buyuk sayyohi-yu, eng mohir ovchisi sanalmish doʻstim Aragorn yordam bermaganida mening saʼy-harakatlarim behuda boʻlar edi. Ikkalamiz Gollumni yovuz oʻlkada xoʻp qidirdik, ishimiz umidsiz, muvaffaqiyatsiz kechdi. Qidiruv ishlaridan endigina voz kechmoqchi boʻlib turganimda Gollum topilib qoldi. Katta xavf-xatarni yengib oʻtgan doʻstim Aragorn oʻsha ojiz maxluqni tutib keltirdi.

Gollum oʻz qilmishini bizga aytmadi. Faqat yigʻlab, dagʻal munosabat koʻrsatayotganimizdan nolidi. Biroz siquvga olgan edik, chirillab dod soldi, qoʻlini uqalab, barmoqlarini yaladi, qandaydir qiynoqni eslab, joni ogʻriganday boʻldi. Gollum qayeda boʻlib chiqqani borasida shubha qolmadi. Chunki u ilon izi boʻylab asta yurgancha, Mordor zamini tomon qadam-baqadam yoʻl olgan edi.

Xonaga ogʻir sukunat choʻkdi. Frodo oʻz yuragining tepishini eshitib oʻtiribdi. Tashqarida eshitilgan shovqin ham tingan. Maysa oʻrayotgan Semning oʻrogʻi ham ishdan toʻxtagan.

– Afsuski, Mordor jamiki yovuz narsalarni oʻziga tortadi, yovuz kuch jahonning jirkanch narsalarini shu yerga yigʻadi. Dunyoning barcha xalqlari janubda paydo boʻlgan yangi koʻlanka haqida, uning gʻarbga boʻlgan nafrati haqida pichirlab gapiradi. Gollum oʻsha yerda Bilbodan qasos olish masalasida oʻziga



do'st topishga umid qilgan.

To'le'i past ahmoq-da! O'sha hududda o'z tinchi uchun juda ko'p narsalarni bilib oldi. Ertami, kechmi Mordor hududida u qo'lga tushishi muqarrar edi. Iziga qaytayotganda qo'lga olindi ham.... Arzimas bir xato tufayli. Endi buning ahamiyati yo'q, eng yomon xatoga yo'l qo'yib bo'lgan edi.

Ming afsuski, dushman Uzuk topilganini aynan Gollumdan bilib oldi. Isildur qayerda halok bo'lganini u shundoq ham bilardi. Gollum Uzukni qayerdan topib olganini fahmladi. Bu Uzuk buyuk Uzukligini, sohibiga uzoq umr baxsh etishini tabiiyki, biladi. To'qqizta yoki yettita uzuklardan biri emasligini ham biladi. Chunki ularning bari allaqachon qo'lga kiritilib, sanab chiqilgan. Bu Uzuk yakka Uzuk ekanligini biladi va o'ylashimcha, endi u hobbitlar va Shir o'lkasi borligidan ham xabar topdi.

Fikrimcha, hozir u Shir o'lkasini qidiriyapti, agar ushbu o'lka qayerda joylashganini allaqachon bilib olmagan bo'lsa. Ilgari u Beggins ismini hech qachon eshitmagan bo'lsa, ushbu ism endi uning uchun katta ahamiyat kasb etib qolgan, Frodo.


- Dahshat! - xitob qildi hobbit. - Sening ogohlantirishlaring-u, shamalaringdan fahmlashim kerak bo'lgan xavfdan ham besh battar dahshat! Hoy Gendalf, do'stlarim orasidagi eng qadrli do'stim Gendalf! O'zing ayt, nima qilay endi men? O, attang-a! Imkoni bo'la turib, o'sha jirkanch qabohatni Bilbo o'z vaqtida o'ldirmagani yomon bo'libdi-da, afsus!

- Afsus deysanmi? To'g'ri, aynan shafqat tuyg'usi bir zamonlar Bilboning qo'lini to'xtatib qo'ygan edi. Rahm-shafqat ma'lum bir jonzotni ehtiyojsiz o'ldirmaslikni anglatadi. Va buning uchun Bilbo rag'bat topdi, Frodo. Hech shubha yo'qki, aynan mana shu ishi uchun u yovuzlik ta'siriga berilmadi va oxir-oqibat Uzukdan voz kecha oldi.

- Ma'zur tutasan meni, Gendalf. Lekin vujudimni qo'ruq qamrab olgan va shu bois Gollumga nisbatan shafqat tuyg'usini his etmayapman.

- Chunki sen uni ko'rmagansan, - gapni bo'ldi Gendalf.

- Ha, ko'rmaganman, ko'rishni ham istamayman, - dedi




Frodo. – Seni tushunmay qoldim. Nahotki sen elf do'stlaring bilan uni shuncha mudhish ishlaridan keyin ham tirik qoldirgan bo'lsang? Hozir uning orkdan farqi yo'q va u bizning dushmanimiz sanaladi. U o'limga loyiq.

– O'limga loyiq degin?! Ha, albatta. Hozir yashayotganlar orasida ko'pchilik o'limga loyiq bo'lsa, o'lganlar orasida ko'pchilik yashashga loyiq edi. Ularni hayotga qaytara olasanmi, Frodo? Qaytara olmaysan. Shunday ekan, birovni o'limga hukm qilish masalasida shoshilma. Zero, eng oqil kishi ham barcha oqibatlarni oldindan ko'ra bilmaydi. Gollunning tabiati to'olim topguncha o'zgarishiga ishonmayman, lekin kelgusida nima bo'lishini birov bilmaydi... Boz ustiga uning qismati Uzukning taqdiri bilan bog'liqdir. Ko'nglim sezib turibdi, o'jiz Gollum yaxshimi, yomonmi o'z rolini albatta o'ynaydi. Ana o'sha fursatda Bilboning shafqati ko'pchilikning taqdirida, shu jumladan, sening qismatingda o'z aksini topadi. Biz ham uni o'ldirmadik, chunki u nihoyatda keksa, zaif va juda baxtsiz edi. O'rmon elflari hozir uni o'z qamog'iga saqlashmoqda va oqil qalblariga mos ravishda unga mehr-la munosabat ko'rsatishmoqda.

– Bilbo Gollumni o'ldirmagan bo'lsa ham Uzuk Gollunning qo'liga tushishini istamas edim. Unga hech qachon yetisha olmasligini, men ham Uzukni qo'lga olmaslikni istagan bo'lar edim. Nega sen Uzukni qo'lga olishimga yo'l qo'yding? Nega uni darhol uloqtirib yuborish yoki yo'q qilishni buyurmading?

– Shuncha vaqtdan buyon qulog'ingga tanbur chalib o'tirdimmi, Frodo? – taajjublandi schrgar. – O'ylab gapiryapsanmi gapingni? Uzukni uloqtirib yuborish mumkin emas. Uni boshqa birov topishi muqarrar. Yovuz qo'lga tushib qolguday bo'lsa, ko'pchilikning sho'ri quriydi. Agar Uzuk dushmanning qo'liga yetguday bo'lsa bundan besh battar bo'ladi. Unga yetishi esa turgan gap. Chunki bu yagona Uzuk bo'lib, uni qidirib topish uchun dushman bor kuchini sarflamoqda.

Qadrdonim Frodo, ushbu Uzuk sen uchun ham juda xavfli, albatta. Va bu meni chuqur tashvishga soladi. Ammo tavakkal qilishdan o'zga choramiz yo'q. O'zim olis yurtlarni



kezib yurar ekanman, Shirni hamisha ziyrak ko'zlar kuzatib, himoya qilib bergan. Uzukdan foydalanmas ekansan, u senga ta'sir o'tkaza olmaydi. Boz ustiga yodingda bo'lsa kerak, to'qqiz yil muqaddam men ko'p narsalarni bilmas edim.

Modomiki, sening ta'biring ila aytganda, Uzuk allaqachon yo'q qilinishi kerak ekan, nega shu kungacha yo'q qilmadik uni? o'voz ko'tardi Frodo. – Bir og'iz xabar yuborganingda allaqachon yo'q qilib yuborgan bo'lar edim-u uni.

Rostdanmi?! Xo'sh, qanday uddalagan bo'lar eding sen bu ishni? Hech urinib ko'rganmisan o'zi?


Yo'q, urinmaganman. Bolg'a bilan urib majaqlasa yoki olovga tashlab eritsa bo'lar, axir?

Qani boshla, urinib ko'r! – dedi Gendalf. – Hoziroq yo'q qilib yuborchi uni!

Frodo kissasidan chiqargan Uzukka qaradi. Endi Uzuk uning ko'ziga toza, silliq, sirtida yozuv alomati yo'q. Tilla buyum Frodoning ko'ziga yanada chiroyli porlab ko'rindi. Hobbit Uzukning maftunkor ranglarga boyligi, yumaloq shaklining muammalligidan hayratlandi. Uning Uzugi tahsinga loyiq qimmatbaho buyum ekan-u! Zargarlik buyumini kissadan chiqarar ekan, Frodo uni zudlik bilan olovga tashlashni niyat qilgan edi, endi esa bu ishga qo'li bormasligini, vujudida ichki kurash kechayotganini his etdi. Uzuk vaznini qo'lida tortib ko'rganday bo'lib, ikkalangancha o'zini Gendalfning hozirgina aytib bergan hiko-yalarini eslashga majbur qildi. Shundan so'ng katta kuch sarflangancha Uzukni uloqtirganday harakat bajardi-yu, aslida kissasiga solayotganini his etdi.

Gendalf g'amgin kulib boqdi.

– Ko'rdingmi ana, Frodo, Uzuk sohibi bo'la turib uni yo'q qila olmaysan. Men esa bu masalada senga yordam bera olmayman. Kuch qo'llashim mumkin, albatta, ammo bu sening ong-u aqlingga nihoyatda jiddiy ziyon yetkazadi. Boz ustiga, Uzukka nisbatan kuch qo'llashning foydasi yo'q. Agar Uzukka og'ir jism, deylik, temirchining bolg'asi bilan zarb bersang, bolg'a sinsa sinadiki, Uzukka balo ham urmaydi, silliq sirti





o'zgarmay, silliqlicha qoladi. Uni na sening va na mening qo'lim bilan yo'q qilib bo'ladi.

O'chog'ingda yonayotgan tafti past olov oddiy tillani ham erita olmaydi, albatta. Unga tashlangan Uzuk muzdayligicha qolaveradi. Dunyoda Uzukka ta'sir o'tkazadigan birorta ham temirchilik o'chog'i topilmaydi. Hatto gnomlarning sandoni-yu, yuqori haroratli o'chog'i ham kor bermaydi. Aytishlaricha, ajdarning bo'g'zidan chiqqan olov Hukmdorlik Uzugini eritib, yo'q qilib yuborishi mumkin ekan, ammo yer yuzida purkaydigan olovining tafti yetarlicha issiq bo'lgan birorta ham ajdar qolmagan. Biroq ushbu yagona Uzuk Sauronning o'zi yasagan Hukmdorlik Uzugi bo'lib, uni qudratli ajdarlarning birortasi, hatto Qora Ankalagon laqabli eng mudhish ajdar ham, agar tirik bo'lganida, hech nima qila olmas edi.

Uzukni yo'q qilishning yagona yo'li – olovli Orodruin tog'i markazidagi Taqdir tirqishiga tashlashdir, agar sen chindan ham dushmanni Uzukka hukmdorlik qilish imkonidan mahrum qilish maqsadida uni yo'q qilishni istasang, albatta.

– Istayman, albatta, istayman! Ammo men xavfli sarguzasht-u, qidiruvlar uchun yaralmaganman, – xitob qildi Frodo. – Nega ko'rib qoldim-a o'sha Uzukni? Nega endi u aynan menga nasib qildi-ya?! Nima uchun aynan men tanlandim...

– Bunday savollarga javob topilmaydi, ortiq kuyunma, – dedi Gendalf. – Biroq ishonching komil bo'lsinkim, haddan ortiq oqil bo'lganing-u, allaqanday qudrat sohibi ekanliging uchun emas, boshqalarning ham tabiatida bor fazilatlaringga, kuching va aql-farosatingga zo'r berishing uchun tanlangansan, xolos, sen bu ishga.

– Lekin men ja aqlli ham emasman, – xo'rsindi Frodo. – Sen mendan ko'ra ancha dono va qudratlisan. Nega Uzukni o'zing olmaysan?

– Yo'q! – ovoz ko'tardi Gendalf, o'rnidan irg'ib turib. – U holda men nihoyatda ulkan, dahshatli hokimiyatga ega bo'lib qolaman. Men tufayli Uzuk yanada qudratli, yanada xavfli buyumga aylanadi. Yo'ldan ozdirma meni, Frodo! – ko'zi yarqirab,

yuzi ich-ichidan porlagancha xitob qildi u. – Zulmat xoqoniga o'xshashni istamayman. Yo'ldan ozdirma! Foydalanmaslik sharti bilan ham olishga jur'at etmayman uni. Uzukka egalik qilish istagi kuchimni oshirib yuboradi. Kun o'tib bir kun uning yordami kerak bo'lib qolishi mumkin menga. Nihoyatda mudhish xavf kutadi u holda meni.

Deraza oldiga borgan Gendalf pardani ochib, tavaqani turtirdi. Xonani quyosh nuri to'ldirdi. Sem deraza ostidan shamolday yelib o'tdi.

-- Uzuk har qanday boshqa odamning qalbiga nisbatan mening qalbiga singib kirish yo'lini juda yaxshi biladi. Xo'sh, endi, hobbitga yuzlandi sehrigar, – bir qarorga kelishing kerak. Men hamisha yoningda bo'laman, senga yaqindan yordam beraman, – dedi u, qo'lini Frodoning yelkasiga qo'yib. Ushbu mashaqqatni yengish masalasida seni yolg'iz qo'ymayman. Ammo harakatimizni tezroq boshlashimiz kerak. Dushman yaqinlashmoqda.

Oraga cho'kkan sukunat uzoq cho'zildi. Gendalf joyiga o'tirib, trubkasini tutatgancha chuqur xayolga cho'mdi. Bir qarashda ko'zi yumuqday bo'lsa-da, qalin kiprigi ortidagi ko'zi Frodoni diqqat-la kuzatmoqda. Hobbit esa o'chog'ning qip-qizil cho'g'iga qarab, do'zaxning lovullayotgan tubini ko'rganday bo'lyapti. Hozir uning fikr-xayollarini har xil Taqdir tirqishlariyu, olovli tog' dahshatlari qamrab olgan.


– Xo'sh! – ovoz chiqardi nihoyat Gendalf. – Biror-bir qarorga keldingmi?

Xayoli zulmatdan voqelikka qaytgan Frodo o'zining shinam xonasi, deraza ortidagi quyosh yoritgan bog'ini ko'rdi.

– Yo'q! Ha! – javob berdi u. – Agar seni to'g'ri tushungan bo'lsam, Uzukni yonimda olib yurib ham saqlasam bo'laveradi, shundaymi? Har qalay, hozircha u menga hech qanday ta'sir o'tkazmadi-yu.

– Agar sen undan foydalanmasang, ta'siri sekin kechadi, – eslatib o'tdi Gendalf.

– Shunga umid qilaman, yana shunga umid qilamanki,



tez orada sen Uzukka mendan ko'ra yaxshiroq sohib topasan. Chunki hozir men atrofimda yashayotganlar uchun xavf tug'dir-moqdaman. Uzukni saqlar ekanman, bu yerda qola olmayman. Beg-Endni tashlab chiqishim, Shirni tark etishim, hamma narsamdan voz kechib ketishimga to'g'ri keladi, ~ chuqur xo'r-sindi u. – Agar qo'limdan kelsa, Shirni qutqarib qolishni istagan bo'lar edim, garchi uning aholisi ko'zimga ba'zan g'irt ahmoq-day ko'rinib, uning aqlini zilzilami, dushman bosqinimi, yo boshqa bir balomi kirgizib qo'yadiganday tuyulsa-da. Ammo endi unday tuyg'u yo'q. Ortimda qolgan Shirning xavfsizligi ta'minlanar ekan, o'ylaymanki, sargardonligim oson kechadi: qayerdadir olisda ishonchli tayanchim borligini his etaman, garchi bu yerga qaytishim amri mahol bo'lsa-da.

To'g'ri, ba'zan xayolinga Shirni tark etish fikri kelib turgan, albatta. Lekin men buni o'ziga xos ta'til, sayr yoki Bilboning sarguzashtiga o'xshash biror-bir yengilroq, oxiri baxayr safar sifatida tasavvur etganman. Endi esa bu yerdan daf bo'lishim, muayyan bir xavfdan qochib, undan-da battar xavf sari yugurishim kerak bo'ladi. Va modomiki, dunyoni saqlab qolishim kerak ekan, nazarimda, yolg'iz o'zim yo'lga chiqishim kerak bo'ladi. O'zimni o'zim nihoyatda mayda, notavon lapa-shangday, dushmanni esa o'ta dahshatli, ulkan va qudratli kuch-day ko'raman.

Kutilmaganda paydo bo'lgan istagini Gendalfga aytma-di-yu, lekin hozir u hamma narsani tashlab Bilboning izidan yugurishni, uni tezroq topishni istadi. Frodoning ushbu istagi shu qadar kuchli ediki, har qanday qo'rquvni yengib, bir zamonlar Beg-Endni dastro'molsiz tark etgan Bilboday ko'chaga bosh kiyimsiz yugurib chiqishiga sal qoldi.

– Qadrdonim Frodo! – xitob qildi Gendalf. – Ilgari aytganimdek, hobbitlar – ajoyib xalqdir. Bir oy ichida ularning barcha udum va odatlarini o'rganib chiqish mumkin bo'lib, hatto yuz yil o'tib ham o'zgarmas qolishlari ila kishini hayratga solishadi. Javobing taxminan shu mazmunda bo'lishini kutgan edim. O'ziga voris tanlagan Bilbo adashmabdi, garchi o'shanda ushbu

tanlovi qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lishi haqida o'ylamagan bo'lsa-da. Afsuski, gaping to'g'ri. Uzukni Shirida saqlab bo'lmaydi endi. O'z manfaating yo'lida va boshqalarning xavfsizligi uchun Shirmi tark etib, hozircha Beggins ismini unutganing ma'qul. Zero, ushbu familiya Shir tashqarisida juda xavfli-dir endi. Safar davomida boshqa ism bilan yurganing ma'qul, deylik Nakruchins bo'lib.

Lekin safarga yolg'iz o'zing chiqishing noto'g'ri bo'ladi. Hamroh sifatida ishonchli, sen bilan safarga chiqishga rozilik beradigan biror kishini ol. Ammo bu masalada ehtiyot bo'! Do'stlaring bilan muloqotda ham gapingni o'ylab gapir. Dushmaning josuslari ko'p, birovning suhbatini pinhona eshitish usullari ham oz emas.

Sehrgar kutilmaganda gapini to'xtatib, atrofga quloq tutdi. Frodoning nazarida, ichkarida ham, tashqarida ham jimjitlik hukm surmoqda. Deraza tomon qadam bosgan Gendalf tokcha orqali chuqur engashdi-da, uzun qo'lini pastga uzatdi. Kimdir chiyilladi. Birozdan so'ng, qulog'idan tortib ko'tarilgan Sem Skrombining boshi ko'rindi.

– Xo'sh, xo'sh! Oppoq soqolim-la ont ichamanki, bu kishi Sem Skrombi bo'ladi! – ma'lum qildi Gendalf. – Nima qilyapsan bu yerda?


– Hech... hech narsa, janob Gendalf! – inqilladi Sem. – Deraza ostida o't o'ryapman, – dedi u, isbot tariqasida qo'lidagi o'roqni ko'targancha siltab.

– Yolg'on gapiryapsan, – qoshini chimirdi Gendalf. – O'rog'ingning shovqini eshitilmay qolganiga ancha bo'ldi. Qachondan buyon gap poylab o'tiribsan?

– Gap poylab? Nimalar deyapsiz, qo'ysangizchi, janob Gendalf.

– O'zingni ovsarlikka solma, – o'shqirdi uzun qoshi nayzalarday hurpaygan Gendalf ko'zi yarqirab. – Nima sababdan, nimalarni eshitding?

– Janob Frodo! – og'riq va qo'rquvdan baqira boshladi Sem. – Menga zarar yetkazishga ruxsat bermang unga! Meni



allaqanday mudhish qabohatga aylantirib qo'yishiga imkon bermang! Keksa otamning yuragi ko'tara olmaydi buni. Ont ichaman, biror bir yomon niyatni ko'zlaganim yo'q!

– Ziyon yetkazmaydi u senga Sem, – javob berdi o'zini kulgidan bazo'r tiyilgan Frodo. – Niyating yomon emasligini Gendalf ikkalamiz bilamiz. Shovqin solishni bas qilib, savollariga javob ber.

– Xo'p bo'ladi, ser, – rozi bo'ldi Sem, biroz tutilib. – Eshitganimni yaxshi uqmadim, ser. Allaqanday dushman-u, uning uzuklari, janob Bilbo haqida, ajdarlar, olovli tog'lar va... elflar haqidagi gaplarni eshitdim. O'zimni idora qila olmaganim uchun eshitib o'tirgan edim, ser. Meni koyisangiz ham mayli, lekin ertaklarni juda yaxshi ko'raman. Elflar, ser. Ularni juda, juda ko'rgim keladi. Meni ham o'zingiz bilan olib keting, ser. Siz bilan safarga chiqib elflarni ko'rmoqchiman.

Gendalf kutilmaganda xandon otib yubordi.

– Bu yoqqa kir! – dedi u, ikkala qo'li bilan bog'bon hobbitni qo'lidagi o'rog'i bilan ko'tarib, polga qo'yar ekan. – Elflarni ko'rgim kelyapti, degin?! – so'radi u, kulib boqqancha Semga boshdan oyoq sinchkovlik-la razm solib. – Demak, sen janob Frodo Shirni tark etib ketayotganidan boxabarsan, shundaymi?

– Ha, ser. Shuning uchun nafasim tiqilib qoldi. Siz esa eshitib qoldingiz. Dilim qattiq og'riganidan o'zimni uddalay olmadim.

– Menga hech kim yordam bera olmaydi, Sem, – dedi Frodo g'amgin ohangda.

Shirdan qochib chiqish shunchaki shinamgina Beg-Endni tark etishgina emasligini Frodo kutilmaganda anglab yetdi.

– Men yurtni tashlab ketishim kerak. Biroq... – Frodo Semga diqqat-la qaradi. – Agar chindan ham menga yordam bermoqchi bo'lsang, bu gaplarni sen sir saqlashing kerak bo'ladi. Tushundingmi? Agar tilingni tiyib yurmas ekansan, janob Gendalf mening iltimosimga ko'ra seni qurbaqaga, tevarak-atrofdagi bog'larni esa qurbaqaxo'r ilonlarning eng zo'r makoniga aylan-

tiradi.

Dag'-dag' titray boshlagan Sem gurs etib tizzaga yiqildi.

– Tur o'ringdan, Sem, – buyurdi Gendalf. Men bundan-da yaxshiroq narsa o'ylab topdim. U shunday bir chora-ki, birovlarining gapini pinhona eshitib yurishni yaxshi ko'rganing uchun jazo bo'ladi. Sen janob Frodo bilan birga safarga chiqasan!

### III BOB

#### UCH NAFAR HAMROH

– Albatta, ser, chiqaman safarga! – xitob qildi Sem, ko'p-dan buyon uyda qamalib, nihoyat sayrga chaqirilgan itday o'rni-dan quvonch-la irg'ib turib. – Men ham boraman, elflarni ko'raman! Ana shunday! Ura-a!

– Hozircha esa sen bu yerdan tez, shovqin solmay chiqib ketishing kerak, – amr etdi Gendalf.


Oradan ikki-uch hafta o'tgan bo'lishiga qaramay, Frodo yo'lga chiqishga shayligini ko'rsatmayapti.

– Bilaman cho'zmaslik kerakligini, lekin Shirni tashlab ketish oson emas, – e'tiroz bildirdi u. – Agar men Bilbo singari kutilmaganda gum bo'lib qolguday bo'lsam, butun o'lka bo'ylab mish-mish gap tarqaydi.

– Kutilmaganda gum bo'lishing mumkin emas, albatta, – ma'qulladi Gendalf. – «Tez» tushunchasi «Zudlik bilan» degan ma'noni anglatmaydi, to'g'ri. Shirni birovga sezdirmay tark etish usulini o'ylab topishing kerak. Buning uchun biroz ushalib qolsa, arziydi. Ammo uzoq cho'zma.

– Tug'ilgan kunimizdan keyin keladigan kuz masalasiga qanday qaraysan? – so'radi Frodo. – O'ylaymanki, o'sha vaqtga kelib yo'lga chiqishga tayyor bo'lsam kerak.

Fo'g'risini aytganda, yo'lga chiqishga hozirlik ko'rishni Frodo mutlaqo istamayapti. Beg-End endi uning ko'ziga ilgari-



gidan ham ardoqli ko'rinib, ko'ngli Shirda o'tadigan so'nggi yoz mavsumidan zavqlanib olishni istamoqda. Kuz kelsa, har doimgiday, yilning ushbu faslidagi safar haqida o'ylash oson kechishini biladi. Ellik yoshga to'lgach yo'lga chiqishini ongingning qaysidir burchagi ila allaqachon hal qilib bo'lgan. Bu vaqtga kelib Bilbo 128 yoshini nishonlaydi. Safarga chiqish uchun, uning nazarida, aynan mana shu kun ma'qul keladi. Bilboning izidan borish – Frodoning doimiy orzusi bo'lib, sarguzasht boshlashga doir fikrga ko'nikishni yengillashtirmoqda. Uzuk haqida, o'sha buyum uni qayoqlarga yetaklab ketishi haqida imkon qadar o'ylamaslikka harakat qilmoqda. Biroq u ushbu mulohazalarini Gendalfga aytmaslikka qaror qildi. Gendalfning o'zi nimalar haqida o'ylayotganini esa fahmlab bo'lmaydi.


– Ma'qul, – kulib boqdi Gendalf. – Lekin undan uzoqqa cho'zib yuborma. Men xavotirga tushib qoldim. Hozir esa ehtiyot bo'l, qayoqqa ketishing haqida birovga shama ham qilma. Sem Skrombi ham tilini tiyib yurayotganini kuzatib bor. Tiymas ekan, uni chindan ham qurbaqaga aylantirib qo'yaman.

– Qayoqqa ketishimni birovga bexos aytib qo'yishim qiyin kechsa kerag-ov. Chunki qayoqqa borishni hozircha o'zim ham bilmayman.

– Bema'ni gapni qo'y! – achchiq qildi Gendalf. – Boradigan manzilingni pochtaga tashlab ketishni xayolingga ham keltirma, demadim, shekilli. – Sen Shimi tark etasan, mana shu gapni bilmasligi kerak birov. Shimi esa tark etishing shart. Bunda sen qayoqqa – shimol yo'nalishidami, janub, g'arb yoki sharq tomon ketdingmi, hech bir zog' bilmasligi kerak.

– Beg-End va Shir bilan xayrlashish xayoli bilan shu qadar band bo'ldimki, harakat yo'nalishi haqida hali o'ylab ham ko'rganim yo'q, – iqror bo'ldi Frodo. – Qayoqqa borishim, nimalarga amal qilishim, nimani qidirib topishim kerak o'zi? Bilboku tushunarli, xazina qidirib ketib, uyiga qaytdi. Men-chi, tushunishimcha, qaytib kelmaslik uchun ketishim kerakmi?

– Bu qadar uzoq kelajakni ko'ra olmaysan, – dedi Gendalf. – Men ham ko'ra olmayman. Balkim, vazifang Taqdir



tirqishini qidirib topishdan iborat bo'lar, balkim, bu ish bilan boshqa birov shug'ullanar, bilmadim. Nima qilgan taqdirda ham, sen hozircha uzoq safarga tayyor emassan.

– To'g'ri, tayyor emasman, – rozi bo'ldi Frodo. – Xo'sh, qayoqqa yo'l olishim kerak ekan men?

– Xavf-xatarlarga qarshi yo'nalishga, ammo shoshilmay, oyoqni qo'lga olgancha, zing'illamay borishing kerak, – javob berdi sehrgar. – Agar ushbu savolingga javob olishni, aniqroq aytiladigan bo'lsa, tavsiya olishni istasang, Rivendell vodiysiga bor. U yo'l, garchi ilgarigiday ravon bo'lmasa-da, nisbatan xavfsiz. Yildan yilga bu yo'nalishda yurish qiyin kechaveradi.

– Rivendellga?! – hayron bo'ldi Frodo. – Juda soz, sharqqa, Rivendell vodiysi tomon yo'l olaman. Elflar mehmoni sifatida o'zim bilan Semni ham yetaklab olaman, rosa xursand bo'ladi.

Frodo quvnoq ohangda gapiryapti-yu, ammo yarim elf Elrondning koshonasini, sehrli xalq yashayotgan chuqurlikdagi moviy tuman pardasini ko'rishga yuragi ila ishtiyoqman bo'ldi.

Yoz oqshomlaridan birida «Pechak novdasi» mehmonxonasi bilan «Yashil ajdar» mayxonasiga aqlni shoshiradigan yangilik yetib keldi. Shir chegarasidan o'tgan gigantlar-u, boshqa turdagi maxluqlar darhol unut bo'lib, nisbatan jiddiy yangilik, u ham bo'lsa, janob Frodo Beggins Beg-Endni sotuvga qo'ygani, aniqrog'i, Sakvil-Begginslarga sotgani qizg'in muhokama qilindi.

– Mo'maygina pulga sotilibdi, – ta'kidlashdi ayrimlar.

– Lyubeliya xonim xaridor bo'lar ekan, unday pulni qo'lga ushlab oson kechmaydi, – qo'shimcha qildi yana birov. – Otto bir necha yil muqaddam 102 yoshga to'lib boqiy dunyoga rixlat qildi, garchi hobbit uchun bu eng ulug' yosh sanalmasa-da.

Bunda, janob Frodo o'zining ajoyib uyasini qanchaga sotgani emas, nima sababdan sotgani ko'proq muhokama qilindi. Ayrimlar janob Begginsning bosh irg'ishlari-yu, ayrim purma'no shamalari ila qo'llab borilgan nazariyani rivojlantirishdi: emishki, jamg'armasi tugay deb qolgan janob Frodo Beggins Hob-



bitonni tark etib, endi Baklend viloyatida «Sakvil-Begginslardan imkon qadar narida», o'z qarindoshlari – Brendizayklar orasida tinchgina yashashga ahd qilgan. Biroq Beg-End xazinasining bitmas-tuganmasligiga bo'lgan ishonch shu qadar kuchli ekanki, aholining aksariyat qismi bunday nazariyaga bovar qilmay, oldi-sotdining boshqa sababini topishga urinishdi. Ko'pchilik bunda Gendalfning fosh etilmay, qorong'i bo'lgan qolayotgan fitnasini ko'rishdi. Garchi sehrgarning xulq-atvori kamtarin kechib, kunduz kuni ko'chaga chiqmayotgan bo'lsa-da. Gendalf Beg-Endga «bekinib olgani» ko'pchilikka sir emas. Frodoning ko'chishini uning sehr-jodusi bilan bog'lash qiyin kechsa-da, fakt faktligicha qolmoqda: janob Frodo Beggins Baklend viloyatiga ko'chib o'tmoqda.

– Ha, kuzda ko'chib o'taman, – der edi u so'raganlarga. – do'stim Merri Brendizayk men uchun shinamgina uya, agar narxi to'g'ri kelib qolsa, ixchamgina uy qidiraypti.

Umuman aytganda u allaqachon Merrining yordami bilan Baklberidan keyingi Krikxellou qishlog'ida kichik bir uy topib, oldi-sotdi ishlarini amalga oshirib bo'lgan edi. Frodo ushbu uyga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi Semdan tashqari hammaga ma'lum qilindi. Uy aynan shu yerda tanlangani bo'lg'usi sarguzashtning sharqiy yo'nalishi ila izohlanadi: Baklend viloyati Shirning sharqiy chegarasida joylashgan va modomiki, Frodoning bolaligi o'sha yerda o'tgan ekan, uning Baklendga qaytishi mantiqqa to'g'ri keladiganday ko'rinadi.

Ikki oy vaqtini Shirda o'tkazgan Gendalf Frodoning rejasini aniq bir mazmunga ega bo'lgach, iyun oyining oxirida kutilmaganda «ertaga ertalab ketaman»ga tushib qoldi.

– Uzoq yo'qolib ketmasam kerak degan umiddaman, – dedi sehrgar. – Nima yangiliklar borligini bilish maqsadida janubiy chegaralarga borib kelay. Bu yerda keragidan ortiq ushlanib qoldim.

Gendalf quvnoq ohangda gapirayotganiga qaramay, Frodoning nazarida, sehrgar nimadandir xavotirlanayotganini sezib turibdi.

– Tinchlikmi o‘zi, nima bo‘ldi? - ochiqchasiga so‘radi u Gendalfdan.

– Hech nima bo‘lgani yo‘q, lekin men bir narsa haqida eshitib, uni o‘z ko‘zim bilan ko‘rishga ahd qildim. Agar sen bu yerni zudlik bilan tark etishing kerakligini fahmlasam, tez qaytib kelaman yoki tegishli xabar yo‘llayman. Sen hamisha yo‘lga chiqishga shay turib, ayniqsa, Uzuk bilan muomalada ogoh bo‘l. Takror eslatib o‘taman: undan hech qachon foydalanma!


Ertasiga tong sahar mahalda Gendalf Beg-Endni tark etdi.

– Men har qanday fursatda, kechi bilan – xayrlashish ziyofati kuni kirib kelishim mumkin - dedi sehrgar. – Yo‘lda senga yordamim kerak bo‘lib qolishi mumkin, deb o‘ylayman.

Boshida Frodo xavotirga tushib, Gendalf nimani eshitgan bo‘lishi mumkinligi haqida uzoq o‘ylanib yurdi. Vaqt o‘tgan sari uning xavotiri barham topib, havo ochiq kunlari har qanday tashvishini unutadigan bo‘ldi. Bunday ajoyib yoz, bunday g‘aroyib kuz Shirda hali bo‘lmagan: mevasining og‘irligidan olma shoxi egilib tushgan, arixonalar asalga to‘lgan, bug‘doy baland va nihoyatda qalin o‘sgan.

Frodo yana Gendalfdan xavotir ola boshlaganida kuz kirib kelganiga ancha bo‘lib qolgan edi. Sentabr oxirlab qolganiga qaramay, sehrgardan hamon xabar yo‘q. Tug‘ilgan kun sanasi bilan ko‘chib ketish uchun belgilangan kun yaqinlashmoqda, Gendalfdan esa hech qanday darak yo‘q. Beg-Endda g‘imir-g‘imir boshlangan. Tugun-tersagini yig‘ishtirishga yordam berish uchun Frodoning do‘stlari, xususan, Frekogar Boljer bilan Fols Bulkins hamda uning qadrdon do‘stlari Pin Tuk bilan Merri Brendizayk kelgan. To‘rtovlon Frodoning Beg-Enddini alg‘ov-dalg‘ov qilib tashladi.

Yigirmanchi sentabr kuni Frodoning yangi uyini jihozlash uchun mebel va boshqa narsalar ortilgan ikkita yuk arava Baklend viloyati tomon yo‘l oldi. Ushbu aravalarda Brendivayn ko‘prigi orqali o‘tishi kerak. Ertasi kuni Frodo rostakamiga xavotirlanib, Gendalfning yo‘lidan ko‘z uzmay yurdi. Tug‘ilgan kuni



– payshanba tongi ko‘p yillar oldin Bilbo uyushtirgan katta ziyofatda kechganday quyoshli bo‘ldi. Gendalfning qorasi ko‘rinmaydi. Kechqurun Frodo xayrlashuv ziyofatini uyushtirdi. Ushbu tadbir tor doirada, o‘zi va yordamchilari ishtirokida o‘tdi. Xavotiri kuchayib borayotgan Frodoning kayfiyati ko‘tarilmadi. Bolalik yillaridan buyon do‘stlashib kelgan hamyurtlari bilan xayrlashish fikrining o‘zi unga azob bermoqda. Buni ularga qanday aytishni bilmay boshi qotgan.

Qolgan to‘rtovlon hobbit maza qilmoqda. Gendalf kela olmagan bo‘lsa-da, kechki ovqat taomili ko‘p o‘tmay quvnoq kechaga aylanib ketdi. Stol va kursilardan tashqari, oshxonada boshqa hech narsa yo‘q. Lekin taomlar zo‘r, ichimliklar mazali. Frodo o‘z vino zaxirasini Sakvil-Begginslarga sotilgan buyumlar ro‘yxatiga kiritmadi.

– Sakvil-Begginslar bor bisotimning qolgan qismiga qo‘l tekkizib, nimalar qilsa qilsin, mayli, lekin vino zaxirasiga yeta olmaydi, buning uchun yaxshi joy topib qo‘ydim! – xitob qildi Frodo, qadahini bo‘shatar ekan.

Beshovlon ko‘p qo‘shiq aytdi, anchagina mavzularni muhokama qilib chiqdi, Frodo tomonidan joriy etilgan an‘anaga muvofiq Bilbo bilan Frodoning sog‘ligi uchun ko‘p qadah ko‘tarildi. Shundan so‘ng ular toza havodan nafas olib, yulduzlarni tomosha qilish uchun tashqariga chiqishdi va ko‘p o‘tmay uyquga yotishdi. Shu bilan Beg-End mehmonlari uchun uyushtirilgan ziyofat o‘z nihoyasiga yetdi, Gendalfdan esa darak bo‘lmadi.

Ertasiga ertalab ular qolgan narsalarni yana bir aravaga ortish bilan mashg‘ul bo‘lishdi. Ushbu aravada Fredegar Boljer bilan birga Merri ham yo‘lga chiqdi.

– Kimdir oldinroq borib, sizlarning kelishingizga uyni isitib qo‘yishi kerak-ku, – dedi Merri. – Xo‘p, mayli. Indinga uchrashguncha, agar yo‘lda ushlanib qolmasangiz.

Nonushtadan keyin Fols ham uyiga ketdi. Frodo bilan endi faqat Pin qoldi. Frodoning xavotiri kuchayib, Gendalfning qadamini eshitishga behuda urinmoqda. U tungacha kutishga ahd

qildi. Agar Frodo Gendalfiga zudlik bilan kerak bo'lib qolguday bo'lsa, Krikselloudagi uyiga borishi mumkin-u, har qalay. Balkim, Gendalf allaqachon o'sha yerda kutib o'tirgandir. Frodo Hobbitondan Baklberiga piyoda ketmoqchi. Bunda, ko'plab boshqa bahonalar orasida Shir hududiga so'nggi bor ko'z yugurtirib chiqish sababi ham bor. «Boz ustiga, biroz mashq qilib olishim ham kerak», – dedi u o'ziga o'zi, chang qoplagan ko'zguna qarab.


Ko'pdan buyon olis masofaga piyoda yurmagani bois, nazarida, ko'zgdagi aksi allaqanday lanj ko'rinmoqda.

Nonushtadan so'ng, Beg-Endga Frodoning kayfiyatini buzib, Sakvil-Begginslar, xususan, Lyubeliya va uning to'ng'ich o'g'li Lotto kirib kelishdi.

– Va nihoyat bizniki bo'ldi bu uy! – xitob qildi kekxa ayol.

Ularning tashrifi noto'g'ri, qolaversa behurmatlik ham edi. Chunki Beg-Endga oid oldi-sotdi shartnomasi tungi soat o'n ikkida kuchga kiradi. Lekin yoshi 100 dan oshgan Lyubeliyaning gunohini kechirsa bo'ladi, axir, ushbu fursatni u o'zi ko'zlagan muddatdan 77 yildan ziyod vaqt kutdi-yu. Kampir puli to'langan jihozlarning bari joyida turganiga ishonch hosil qilib, uying kalitini olish uchun kelgan emish. O'zi bilan uzundan uzoq ro'y-xat olib kelgan kekxa ayolning istagini qondirish uchun ancha vaqt sarflashga to'g'ri keldi. Kalitni qabul qilib olgan kampir nihoyat o'g'li Lotto bilan birga Beg-Endni tark etar ekan, ikkinchi kalit Skrombining Begshot-Roudagi uyiga tashlab ketilishiga umid bog'ladi. Pishqirib qo'ygan kampir qariya Xemfast Skrombiga ishonmasligi, kekxa bog'bon tun yarmigacha Beg-Endni shilib ketishi mumkinligiga shubha qilmasligini yaqqol namoyon etib ketdi. Frodo unga bir piyola choy ham taklif qilmadi.

Choyni u oshxonada do'stlari Pin va Sem Skrombi bilan birga ichdi. Yosh Skrombi janob Frodo bilan birga Baklend viloyatiga ketib, bog'bonlikni Frodoning yangi hovlisida davom etishi ilgari rasman e'lon qilingan. Beg-Endning oldi-sotdisiga



doir shartnomani Lyubeliya bilan qo'shnihilik qilishga majburligidan g'ashlanayotgan bo'layotgan Gaffor imzolagan.

Beg-Endda so'nggi bor o'tadigan kechki ovqatimiz bu, – ma'lum qildi, kresloda o'tirgan joyida cho'zilib olgan Frodo.

Uchalasi ziyofatda ishlatilgan idish-tovoqlarni yuvishni Lyubeliyaga qoldirishdi. Pin bilan Sem uch kishining safar qoplarini ko'tarib, ostonaga olib chiqishdi. Pin bog'ni so'nggi bor aylanib chiqishga ahd qildi. Sem esa shu zahoti qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

Kun botdi. Beg-End qandaydir g'amgin, noxush, hurpalyib olganday ko'rinmoqda. Frodo xonama-xona izg'ib, derazalardan devorga tushgan yorug'lik xiralashayotgani, burchak-burchaklardan uzun ko'lankalar chiqib kelayotgani ko'rdi. Hovlida qosh qoraymoqda. Ostona hatlab Beg-Endni tark etib chiqqan Frodo bog' eshigi tomon yo'l olib, biroz pastlab borgan yo'ldan ketdi. O'sha yerda qorong'ilikdan chiqib keladigan Gendalfni uchratishga umid qildi.

Toza osmonda yulduzlar ko'rinish bera boshladi.

Ajoyib tun bo'ladi bugun, – baland ovozda ma'lum qildi Frodo. Safarimiz boshi uchun yomon emas. Daydishni yoqtiraman. Gendalfni ortiq kutmayman, yo'lga chiqaveraman. Kerak bo'lsam, quvib yetadi meni.

Iziga qaytishga hozirlangan Frodo keskin to'xtadi. Begnot-Rou ko'chasiga o'tiladigan muyulish ortidan qandaydir ovoz eshitildi. Suhbatlashayotganlardan birining, ya'ni keksa Xemfast Skrombining ovozi Frodo darhol tanidi. Ikkinchi ovoz notanish va qandaydir ilg'ab bo'lmaydigan darajada yoqimsiz eshitilmoqda. Notanish ovoz sohibi nima deyotgani Frodoga aniq eshitilmayapti, ammo keskin ohangda gapirayotgan qariyaning javobi aniq yangramoqda. Chol nimadandir achchiqlanayotgan ko'rinadi.

– Janob Beggins bu yerda yo'q, ko'chib ketgan. Bugun ertalab yo'lga chiqqan. O'g'lim Sem ham u bilan birga ketgan. Ko'ch-ko'ronini oldindan jo'natib yuborgan. Aytdim-u, sizga, uyini sotib ko'chib ketdi deb. Nega deysizmi? Men qayerdan

bilay. Yo‘q, qayoqqa ko‘chgani sir emas. Baklberiga bosh olib ketdi u. Ha, o‘sha tomonga. Umrin bino bo‘lib bunchalik olis masofaga bormaganman... G‘alati xalq yashaydi o‘sha Baklend viloyatida. Yo‘q, men unga hech narsa aytib qo‘ya olmayman. Uzr, xayrli tun.

Dukur-dukur qadam tovushi tepalikdan pastga qarab ketgancha so‘ndi. O‘sha tovush yaqinlashmay, aksincha, uzoqlashganidan Frodo o‘zini yengil tortdi. «Aftidan, atrofdagilarning ishlarimga oid qiziquvchanligi va har xil savollaridan kasal bo‘lib qolgan ko‘rinaman, - xayoldan o‘tkazdi u. - Namuncha qiziquvchan bo‘lmasa, a, xalqimiz!» Dastlab u kekxa Xemfast Skrombining uyiga kirib, uni kim tergap kelganini so‘rab bilmoqchi bo‘ldi-yu, fikridan qaytib, tez Beg-End tomon odimladi.

Pin ostonada safar qopida o‘tiribdi. Uchinchi hamroh ko‘rinmaydi.

- Sem! - Beg-Endning qorong‘i xonalariga qarab baqirdi Frodo. - Sem, vaqt bo‘ldi!

- Chiqyapman, ser!

Ko‘p o‘tmay, og‘zini artgancha Semning o‘zi ham paydo bo‘ldi. Aftidan, yigitcha yerto‘ladagi pivo bochkalari bilan xayrlashib chiqqan ko‘rinadi.

- Hamma narsa tayyormi, Sem? - so‘radi Frodo.

- Xuddi shunday, tayyor, ser!

Frodo Beg-Endning yumaloq eshigini qulflab, kalitni Semga uzatdi.


- Uyingga yugur, Sem! - tayinladi u. - Kalitni otangga topshirib, Rou bo‘ylab yugurgancha, bizni yaylov darvozasi yaqinida quvib yetasan. Tunda qishloq bo‘ylab yurmaymiz, qiziquvchan ko‘z-quloqlar haddan ortiq ko‘p.

Sem yugurgancha qorong‘ilikka kirib ketdi.

- Ana bo‘ldi! - dedi Frodo.

Pin ikkalasi qoplarni yelkaga tashlab, safar tayoqlarini qo‘lga olishdi-da, Beg-Endni g‘arb tomondan aylanib o‘tishdi.

- Alvido! - dedi u, kulbaning qorong‘i derazalariga qo‘l siltab.



Peregrinning ortidan bog' so'qmog'i bo'ylab odimlagan Frodo o'zi bilmagan holda Bilboning izidan yo'l oldi. Ikkovlon chakalak devorning pastqam joyidan sakrab o'tib, dalaga o'tgan-cha, o't-o'lan shovqini singari qorong'ilikka cho'kib ketdi.

Birozdan so'ng ikkalasi tepalikning g'arbiy bo'sag'asi-dagi tor so'qmoqqa olib chiqadigan bog' eshigiga yetishdi. Shu yerda to'xtab, safar qoplarining yelka kamarlarini moslab olishdi. Ko'p o'tmay tez yurib og'ir nafas olayotgan Sem ham ikkalasini quvib yetdi. Yelkasiga og'ir qop tashlab olgan Sem boshiga shlyapa deb ataladigan, aslida fetrdan<sup>1</sup> tikilgan shaklsiz chelak kiyib olgan. Qorong'ilikda u nima bilandir gnomni eslatmoqda.

– Ishonchim komilki, ikkalangiz eng og'ir narsalarni menga ko'targizib qo'ygansiz, – vaysadi Frodo. – O'z uyini belida ko'tarib yuradigan shilliqqurtga achinaman.

– Sizning qopingizni ham ko'tarib olishim mumkin, ser. Mening qopim chindan ham yengil, – aldashga urindi Sem.

– Kerak emas, Sem! -- dedi Pin. -- Shundoq ham yaxshi unga. Uning qopiga o'zi tayinlagan narsalar solingan. Hech qisi yo'q, biroz yursa, yukining og'irligini sezmay qoladi.

– Qarib qolgan sho'rlik hobbitga achinmaysizlar-a! – kulib boqdi Frodo. -- Bu ketishda Baklend viloyatiga yetgunimiz-cha tol novdasiday ozib ketsam kerag-ov. Nazarimda, Sem, o'zingga haddan ortiq og'ir yuk ortib olgansan. Keyingi dam olish joyida qoplarimizdagi narsalarni qayta taqsimlab chiqamiz, shekilli. Xo'sh... -- dedi u, safar tayog'ini qo'lga olib, -- zulmat sari olg'a. Tunash joyini tanlashdan oldin bir necha milya bo'lsa ham yo'l bosishga ulguraylik.

Uchalasi muayyan vaqt shu yo'ldan yurib, g'arb yo'nalishida borishdi. So'ng, yo'lni tark etib, dalaga kirishdi. Tun tobora quyiqlashar ekan chakalak to'siqlar-u, daraxtzorlar chetidan yurishdi. Egnidagi qora plashlari ila ular tun qorong'isida sehrli uzuk taqib olishganday ko'rinmas bo'lib qolishgan. Uchala hobbit shovqin solmay yurishga harakat qilishayotgani bois.

---

<sup>1</sup> Fetr – alo nav yupqa namatsimon mato.

hech qanday tovush chiqarishmayapti. Hozir dala va daraxtzorlarning tungi ovga chiqqan yovvoyi jonivorlari ham ularni sezishi amri mahol.

Ma'lum vaqtdan so'ng uchalasi Hobbiton g'arbidagi katta ariq ustiga yotqizilgan yog'och ko'prikdan o'tishdi. Ilonizi oqayotgan ariqning ikkala qirg'og'ida majnuntol o'sgan. Say-yohlarimiz janub tomon bir ikki milya yurib, Brendivayn daryosining narigi qirg'og'iga olib o'tadigan ko'priikka olib boradigan katta yo'lni tez kesib o'tishdi. Endi ular Ukrole qishlog'i hududida janubiy-sharq yo'nalishida yurib, yashil tepaliklar bo'sag'asiga yaqinlashishmoqda. Birinchi qiyalikka ko'tarilishar ekan, ortga o'girilib olisda qolgan Hobbitonning milt-milt etayotgan chiroqlarini ko'rishdi. Ko'p o'tmay o'sha chiroqlar ham qorong'ilikda ko'rinmay qoldi. Frodo qadrdon qishlog'i tomon yana o'girilib, qo'l siltadi.

– Chiroqlaringni yana ko'rish nasib qiladimi menga Hobbiton, yo'qmi, bilmadim, – dedi u vazmin ohangda.

Yana uch soat yo'l bosib, dam olishga to'xtashdi. Tun havosi sovuq, osmoni musaffo, seryulduz bo'lib, yaylov va jilg'alardan tutunni eslatadigan pag'a-pag'a tuman ko'tarilmoqda. Tanasi ingichka oq qayinlar yengil esayotgan shamolda tebranib, shoxlari bosh ustida xira osmonni to'sgan to'r hosil qilgan. Uchovlon hobbitlar nuqtai nazaridan qaralganda yengil ovqatlanib, yo'lni davom etdi. Ko'p o'tmay ular ilang-bilang ketgan, dam ko'tarilib, dam pastlagancha, narigi boshi qorong'ilikda ko'zga ilashay qolayotgan so'qmoqqa chiqishdi. Ushbu yo'l Vudxoll, Stok va Baklberi-Ferriga olib borib, asosiy yo'ldan tarmoqlangancha Istfarting viloyatining yovvoyi burchaklaridan biri sanalmish Budi-End tomon cho'zilgan.

Birozdan so'ng ular qorong'ilikda quruq barglari ila shovqin solayotgan baland daraxtlar orasidagi ayri yo'lga kelib qolishdi. Tun zimistonga aylandi. Safar boshidagi qiziquvchan quloqlardan ancha uzoqlashgach, past ovozda qo'shiq aytib, shivirlashib ketishdi. Toliqishgach jim yurishdi, Pin ortda qola boshladi. Tik nishablikka ko'tarilishayotganda esa chuqur esna-



gan Pin taqqa to'xtadi.

Shu qadar uyqum kelyapdiki, hozir mana bu so'qmoqqa tappa tashlayman-da, tarashaday qotib uxlayman, - dedi u. - Sizlarchi, yurgan yo'lingizda uxlab ketasizlarmi? Tun yarmiga yetdi-yu.

- Qorong'ilikda yurishni yoqtirasan deb o'ylagan edim, - eslatib qo'ydi Frodo. - Lekin chindan ham shoshadigan yerimiz yo'q. Merri bizni ertadan keyin, kunduzi kutadi. Shunday ekan, ixtiyorimizda yana ikki kun bor. Tunash uchun qulay joy topishimiz bilan to'xtaymiz.


Shamol g'arbdan esyapti, ser. Anavi tepalikni aylanib o'tsak, narigi tomonida shamoldan pana, qulay joy topiladi, - fikr bildirdi Sem. - U yerda qurib qolgan oqqarag'ay bo'lishi kerak, adashmasam.

Sem Hobbiton atrofining yigirma milya naridagi joylarni juda yaxshi biladi, biroq uning geografik bilimi shu bilan cheklanadi.

Tepalik ortiga o'tishlari bilan ular qurib qolgan oqqarag'aylar qatoriga duch kelishdi. So'qmoqni og'gan yo'lovchilari-miz daraxt shirasining hidi gupullayotgan qorong'ilikka kirib, gulxan yoqish uchun sinib tushgan quruq shox-u, so'ta terishdi. Ko'p o'tmay, yirik oqqarag'ay ostida gulxanning tasir-tusur yonishi eshitildi. Uyqusirab o'tirgan yo'lovchilar daraxtning yerdan bo'rtib chiqqan ildizlari orasiga joylashib,plash va adyollariga o'rangancha uxlab qolishdi. Ular soqchilik xizmatini joriy etishmadi. Shir bag'rida yurishar ekan, hatto Frodo ham hech narsadan qo'rqmadi. Gulxan o'chgach, ularning atrofida bir nechta mayda o'rmon jonivorlari o'ralashib qoldi. O'z yumushi bilan yugurib o'tayotgan tulki bir necha soniyaga to'xtab, pishqirib qo'ydi.

- Hobbitlar-u! - taajjublandi u. - Yana kimlarni uchratar ekanman bu atrofda? Bu hududda g'alati ishlar bo'layotganini eshitgan edim. Biroq hobbitlarning bir emas naq uch nafari daraxt tagida mana bunday yotishi?! Favqulodda g'alati holat.

Tulki haq edi, garchi boshqa hech nima bila olmagan



bo'lsa-da.

Xira, havosi sovuq tong otdi. Birinchi bo'lib uyg'ongan Frodo daraxt ildizi beliga botgani, bo'yni uvishib qolganini sezdi. «Ko'ngil ochish sayiri emish! Ot aravada yo'lga chiqsam bo'lar edi-yu?! Mana bu ildiz qurg'ur bitta qo'ymay anavi yaramas Sakvil-Begginslarga sotib yuborilgan parto'shaklarimning o'rni bosmas ekan», – xayoldan o'tkazdi u.

– Qani, uyg'oning-chi, hoy, uyqichi hobbitlar! – baqirdi u, yaxshilab kerishib olgach. – Ajoyib tong otibdi.

– Nimasi ajoyib ekan? – xafaholda taajjublandi Pin, adyol ostidan bir ko'zi ila qarab. – Sem! Nonushta to'qqiz yarimga tayyor bo'lsin. Vannani issiq suvga to'ldirib qo'ydingmi?

– Yo'q, ser, ulguranim yo'q hali! – talmovsiragancha javob berdi o'rnidan irg'ib turgan Sem atrofga alanglab.

Frodo Pinning ustidagi adyolini tortib, bir yonboshidan boshqasiga ag'dardi-da, daraxtzorning narigi cheti tomon odimladi. Sharqda, yerni qamragan tuman orasida quyoshning qizil gardishi xira ko'rinmoqda. Kuzning tilla tusiga burkangan daraxtlar tuman dengizida oqayotganday go'yo. Sal pastroqda yo'lovchilarimizning so'qmog'i vodiya tushib, ko'zdan g'oyib bo'lgan.

Sem bilan Pin gulxan yoqishga ulgurishibdi.


– Suv qani? – hayron bo'ldi Pin, yotoq joyiga qaytib kelgan Frododan.

– Cho'ntagimda suv olib yuradigan odatim yo'q, – istehzo qildi Frodo.

– Suvga ketgansan deb o'ylabmiz, – fikrini tushuntirgan bo'ldi Pin, yegulik bilan idishni safar qopidan chiqarar ekan. – Mana idish, bor, suv olib kel.

– Yur, birga boramiz, – dedi Frodo. – Hali ishlatilmagan yangi suv idishlari ham bor edi, ularni ham chiqar.

Tepalik etagida ariq oqib o'tadi. Ikkovlon suv idishlarini bir necha fut balandlikdagi kulrang toshdan tushayotgan sharsharaga tutib to'ldirishgach, yuz-qo'lini muzday suvda pishqirganча yuvdi.



Nonushtadan so'ng, hamma narsa yana qoplarga joylandi. Bu vaqtga kelib soat o'ndan oshdi. Bugungi kun ravshan o'tishi ayon. Yo'lovchilar qiyalik bo'ylab pastga tushib, so'qmoqni kesib o'tgan ariqdan hatlab o'tishdi, navbatdagi tepalikka chiqishdi, yana pastga tushishdi. Bu vaqtga kelib plash, adyol, suv, yegulik kabi narsalar og'ir yukday ko'rindi.

Kunduzgi yo'l og'ir, holdan toydiradigan ko'rinadi. Yana bir necha milyadan so'ng yo'lning past-baland qismi tugab, tik ko'tarilgan tepalik bag'ridagi zeriktirib yuboradigan ilonizi so'qmoqqa aylandi. Tepalikka chiqishgach, ularning ko'z oldida tumanga g'arq bo'lgan olis o'rmonga ulangan mayda-mayda daraxtzorlarga ega yassi tekislikdan iborat manzara ochildi. Hozir yo'lovchilarimiz Vudi-End tepaligida turib Brendivayn dar-yosi tomon qarashmoqda. So'qmoq oyoq ostida yotgan arqon bo'lag'i pastga ilang-bilang cho'zilgan.

Yo'l tinim bilmaydi, men esa charchadim, – ma'lum qildi Pin. – Dam olmasam bo'lmaydi. Lench vaqti ham bo'lib qoldi-yov.

U dastlab sal naridagi tabiiy supachaga, so'ng tuman qoplagan sharqqa qaradi. Tuman ortida daryo bo'lib, bolaligi o'tgan Shir hududi o'sha yerda cheklanadi. Pinning yonida turgan Sem yirik tangaday ochilgan ko'zi ila muqaddam ko'rmagan hududga baqrayib qolgan.

– Elflar ho'v anavi o'rmonda yashaydimi? – so'radi u.

– Unaqa gapni eshitmaganman, – javob berdi Pin.

Frodo indamadi. U ham umrida yo'l ko'rmaganday sharqqa qarab qolgan. Kutilmaganda u, xuddi o'ziga o'zi aytayotganday baland ovozdagi gap boshlab qoldi:

*Yo'lga chiq, hoy beg'am yo'lovchi,  
G'am-g'ussadan xalos bo'l endi.*

*So'qmoq ostonangdan nari qochmoqchi  
Qiziq sarguzashtlar kutmoqda seni.*

*Minglab so'qmoqlar o'ralib birga  
Aylanar uzoq safar yo'liga*

*Qayoqqa eltar u, haq gap bilmayman,  
Olib ketsin mayli dunyo chetiga.*

– Bilbo to'qigan she'rlardan biriga o'xshar ekan, – fikr bildirdi Pin. – Yo o'z ijodingdanmi bu? Kishini ruhlantirib yu-bordi deb bo'lmas ekan.

– Bilmadim, xayolga kelib qoldi, – javob berdi Frodo. – Balkim, bir vaqtlar eshitib xotiramda saqlanib qolgandir. Chindan ham, Bilboning Shirni tark etishidan oldin yozgan so'nggi she'rlaridan biri bo'lsa kerak. Dunyoda faqat bitta yo'l bo'lishi, u ham katta daryoga o'xshab ketishi haqida tez-tez gapirib turar edi. O'sha yo'l Bilboning fikricha, har bir ostonadan boshlanadigan son-sanoqsiz so'qmoqlardan boshlanar emish. «Kulba eshigini ochib, ko'chaga ostonaga hatlab chiqish o'ta xavfli ish, – der edi har gal Beg-Endni tark etib chiqayotganda. – Yo'lga chiqib, olg'a odimladingmi, endi oyog'ingni idora qil! Aks holda kim biladi deysan qayoqlarga borib qolishingni. Har bir so'qmoq Yovuz o'rmonga yoki So'qqa toqqa yoxud yanada olis va mud-hish yerlarga olib ketishi mumkinligini idrok etyapsanmi?»

– Xo'sh, nima ham der edim. So'qmoq meni yelkasiga ortib, biror soat davomida o'zi xohlagan yerga olib ketaversin, mayli, – dedi Pin, safar qopining kamarini yelkasidan yechib. – Men biroz dam olay.

Qolganlar ham shu ishni qildi. Uchovlon yo'l chetidagi supachaga o'tirib, oyog'ini yo'lga tashladi. Biroz dam olgach tamaddi qilishdi va yana biroz dam olib o'tirishdi.

Uchalasi tepalik etagiga tushishganda quyosh og'a bosh-ladi. Shu vaqtgacha ular yo'lda biror kishini uchratishmadi. Ot arava yurishi uchun mo'ljallanmagani bois. ushbu yo'l serqatnov emas. Bir soat yurishgach Sem to'xtab atrofga quloq soldi. Endi ular tekis yerga yetishgan. Ko'p ilang-bilang muyulishlardan so'ng yo'l ham maysa qoplagan. ikki chetida baland daraxtlar

o'sgancha tarang tortildi.

– Ortimizdan yo ot, yo poni kelyapti, – ma'lum qildi Sem.

Uchovlon orqaga qaradi, ammo hozir o'tilgan muyulish uzoqni ko'rish imkonini bermadi.

– Balkim, Gendalf quvib yetayotgandir bizni, – taxmin qildi Frodo.

O'zi aytgan gapga o'zi ishonmagan Frodo ongining bir burchagida yo'lni tark etib, quvib kelayotgan anavi chavandozdan bekinish istagi paydo bo'lganini his etdi.


– Balkim, sal oshirib yuborayotgandirman-u, – uzr ohangida pichirladi u, – lekin meni yo'lda ko'rishlarini istamayman. Har xil savollar-u, g'iybatlardan charchaganman. – Agar o'sha otliq Gendalf bo'lib chiqsa, kechikkani uchun bir boplaymiz. Qani, bekindik!

Uchovlon chap tomon tez yugurdi-da, yo'ldan sal nari-dagi o'pirilgan yerga sakrab tushib, xandaqda chalqanchasiga yotib oldi. Ikkilanib yotgan Frodoning ichida bekinish bilan qiziquvchanlik o'zaro kurashmoqda. Yaqinlashayotgan tuyoq tovushi tobora aniq eshitila boshladi. O'pirilgan yerdan chiqqan Frodo o'zini soyasi yo'lga tushgan daraxt ostidagi baland o'sgan maysaga vaqtida tashladi. Boshini biroz ko'tarib, daraxtning yerdan bo'rtib chiqqan ildizlari orasida hosil bo'lgan tirqish orqali yo'lga qaradi.

Muyulish ortidan qop-qora ot chiqdi. Bu ot, odatda, hobbitlar minib yuradigan poni emas, bahaybat ot bo'lib, uni egniga qaytarma qalpoqli plash kiygan daroz bo'yli baquvvat kishi egarlagan. Plash ostidan uzangiga qo'yilgan etikkina ko'rinishda, xolos. Qora otliqning yuzini ko'lanka to'sgan.

Frodo bekinib olgan daraxt ro'parasiga yetgan otliq kutilmaganda taqqa to'xtab boshini xam qilib olgancha qilt etmay tevarak-atrofga quloq tutdi. Qaytarma qalpoq ostidan qandaydir g'alati tovush chiqdi. Aftidan, atrofni hidlaganday bo'ldi, shekilli, boshi o'ng va chap tomon burildi.

Kutilmaganda Frodoning vujudini dahshat qamrab, ne-



gadir Uzugi esiga tushdi. Nafas chiqarishga jur'at etmayotgan hobbitning Uzukni kissasidan chiqarish istagi shu qadar kuchli bo'ldiki, qo'li beixtiyor harakat boshladi. Uzukni barmog'iga taqsa bas, xavfsizligi ta'minlanishini his etdi. Gendalfning nasihatini hozir g'irt bema'ni gapday tuyuldi. Bilbo foydalangan-u, axir, uzukdan. «Boz ustiga men hamon Shir hududidaman», – xayoldan o'tkazdi barmog'i Uzuk zanjiriga yetgan Frodo. Shu fursatda qora otliq o'tirgan joyida qaddini rostlab ot tizginini tortdi. Bahaybat hayvon dastlab sekin odimlab, uzoqlashgan sari qadamini tezlatdi.

Frodo Qora otliqning izidan, toki ko'zdan g'oyib bo'lguncha qarab qoldi. Nazarida, ot so'qmoqdan o'ngga burilib, daraxtlar guruhi orasiga kirib ketganday bo'ldi.

«Juda g'alati va xavotirga soladigan holat», – xayoldan o'tkazdi Frodo, hamrohlarining yoniga qaytar ekan. Pin bilan Sem o'pirilgan yerdagi maysa orasida qilt etmay yotgani bois hech narsani ko'rishmabdi. Shu bois Frodoga ko'rganini aytib berishga to'g'ri keldi.


– Sababini tushuntirib bera olmayman-u, nazarimda, u mening izimga tushgan, – taxmin qildi Frodo. – Va ishonchim komilki, meni qidirib topishini umuman istamayman. Bunaqangi otliqlar Shir hududidan hali o'tmagan.

– Novcha bo'yli xalqqa mansub o'sha Qora otliqning bizga nima daxli bor? – tushunmadi Pin. – Shirning bu tomonida nima qilib yuribdi o'zi u?

– Kamdan kam bo'lsa ham, novcha bo'yli odamlar bu tomonlarga ham o'tib turishadi, – dedi Frodo. – Janubiy Shir aholisi bilan ushbu odamlar orasida janjal ko'tarilgan holat ham bo'lgan. Ammo men anavi Qora otliqqa o'xshash odamlar o'tganidan xabarim yo'q. Qiziq, qayerlardan kelgan ekan u?!

Ma'zur tuting, men bilaman qayerdan kelayotganini, – deb qoldi kutilmaganda Sem. – Hobbitondan kelyapti u, agar Qora otliqlar ko'p bo'lmasa, albatta. Qay tomon yo'l olganini ham bilaman.

– Nimalar deyapsan? – keskin burildi Frodo, Semga taaj-



jub-la qarab. – Nega shu vaqtgacha indamay kelding?

– Hozirgina esimga tushib qoldi, ser. Kecha kalitingizni olib uyamizga yugurdim. Otam meni ko‘rib hayron bo‘ldi: «Salom, Sem! Janob Frodo bilan ertalab yo‘lga chiqib ketgansan, deb o‘ylagan edim. Qandaydir g‘alati notanish Beg-Endda yashaydigan janob Begginsni so‘rab keldi. Hozirgina ketdi ostonamizdan. Uni Baklberiga yubordim. Yoqmadi u menga. Janob Beggins eski uyini tark etib, bu yerlardan ko‘chib ketgani-ni aytgan edim, jahli chiqib ketsa bo‘ladimi. Menga qarata hushtak chalib yubordi. Vujudim titrab ketdi-ya». «Kim ekan o‘zi u?» – so‘radim men otamdan. «Kimligini bilmadim-u, hobbit emasligi aniq, – javob berdi otam. – Bo‘yi daroz, egnidagi kiyimi ham, oti ham qop-qora. Men bilan engashib gaplashdi. Novcha xalqqa mansub odam. Lekin inglizcha talaffuz bilan gapirdi».

Ortiq ushalib qola olmas edim, ser. Chunki sizlar meni kutib qolishlaring mumkin edi. O‘sha holatga ahamiyat bermab-man. Otam qari, ko‘zi xira. Notanish kishi bizning tepaligimizga kelgan paytda qosh qorayib qolgan edi. Otam yanglishgan bo‘li-shi ham mumkin, degan xayolga borgan edim.


– Yo‘q, u yanglishmagan, – xulosa qildi Frodo. – Otang bilan o‘sha otliq o‘rtasidagi suhbatni eshitgan edim. Otangning oldiga borib, otliq haqida so‘rab bilmoqchi ham bo‘ldim. Sal ertaroq aytsang bo‘lar edi shu gapni. Yo‘lda ehtiyotroq bo‘lib yurar edik.

– Balkim, anavi Qora otliq bilan qariyaning kechki suhbatdoshi o‘rtasida hech qanday umumiylik yo‘qdir, – taxmin qildi Pin. – Biz Hobbitonni yashirinchalik tark etib chiqdik. Ortimizdan ergashib kelishi mumkinligini tasavvur ham qila olmayman.

– Begona otliqning tevarak-atrofnii hidlash odati borasida nima deysiz, ser? – so‘radi Sem. – Otam ham anavi yigitning egnidagi kiyim qop-qoraligini aytgan edi.

– Gendalfni kutib o‘tirishim kerak edi, – po‘ng‘illadi Frodo. – Xo‘p, mayli, har yomonning bir yaxshiligi bo‘ladi.

– Demak, sen anavi Qora otliq haqida nimadir bilar ekan-



san-da? – so‘radi, aftidan, Frodoning so‘nggi gapidan cho‘chigan Pin.

– Bilmayman-u, lekin fahmlaganday bo‘lyapman, – javob berdi Frodo.

– Juda soz, qarindoshim Frodo! – dedi Pin e‘tiroz ohangida. – Sirli bo‘lganicha qolishni istasang, fahmlab yurgan o‘sha gaplaringni bemalol sir saqlab o‘tiraver. Biroq biz-chi, nima qilamiz? Tamaddi qilib olmoqchi edim-u, yaxshisi tuyog‘imizni shiqillatganimiz ma‘qul bu yerlardan. Yuzi ko‘rinmas iskovuch chavandozlar haqidagi gaplaringiz yoqmadi menga.

– To‘g‘ri, men ham bu yerdan tezroq ketish kerak, degan fikrdaman, – ma‘qulladi Frodo. – Faqat yo‘ldan yurmaymiz. Chunki anavi otlq iziga qaytishi yoki ortidan sherigi ergashib kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bugun ko‘proq yo‘l bosishimizga to‘g‘ri keladi. Baklend viloyatigacha hali anchagina milya bor.

Hobbitlar harakat boshlashgan vaqtda daraxt ko‘lankalari o‘t-o‘lanlar ustiga tushib bo‘ldi. Endi ular tasodifiy kuza-tuvchilardan panada borish uchun yo‘ning chap tomonidagi xar-sanglar tizmasi bo‘ylab ketishdi. Biroq yurish oson kechmayapti: o‘t-o‘lan qalin o‘sgan, yo‘l notekis, daraxtzorlardagi daraxt tanalari yo‘g‘onlashgan.

Orqada qolgan quyosh tepaliklar ustiga yetib qizg‘ish tus oldi. Bir necha milyaga cho‘zilgan uzundan uzoq yo‘lga chiqib olishganda kun poyoniga yetdi. Shu yerga kelganda yo‘l chapga og‘ib Jeyl tekisligiga tushar ekan, sharqiy yo‘nalishidagi qadimiy eman o‘rmoniga ilang-bilang kirib ketdi.

– Mana bizning yo‘limiz, – e‘lon qildi Frodo.

Ko‘p o‘tmay yo‘lovchilar ulkan daraxtga yetishdi. Ko‘hna daraxt hali batamom qurib bitmagan, tanasidan chiqqan yosh novdalarda yangi barg ko‘karib turibdi. Biroq daraxt tanasi kovak bo‘lib, yo‘lovchilarning harakat yo‘nalishiga teskari tomonida keng tirqish hosil bo‘lgan. Hobbitlar daraxt kovagiga kirib, xazon va deyarli chirigan yog‘ochdan hosil bo‘lgan to‘shakka joylashib o‘tirishdi, dam olib, yengil tamaddi qilib olish-



di. Shivirlab suhbatlashar ekan, vaqti-vaqti bilan tevarak-atrofga quloq tutib o'firishdi.

Qosh qoraygan mahalda sayyohlar yo'lni davom etishga ahd qilishdi. G'arbdan esayotgan shamol daraxtlar orasida shovqin solib, barglarini shitirlatmoqda. Birozdan so'ng qosh qoraya boshladi. Daraxtlar ustidagi osmonning sharqiy etagida yorqin yulduz ko'rindi. Hobbitlar tetiklikni saqlab borish maqsadida yonma-yon, bir xil qadam tashlab yurishmoqda. Osmon yulduzlarga to'la boshlagach biroz tinchlangan yo'lovchilar tuyoq tovushini ilg'ash harakatini bas qilishdi, yurish davomida, ayniqsa, tunash joyiga yaqinlashib ko'ngil ko'tarilganda hobbitlar orasida udum bo'lganday qo'shiq aytish odatiga ko'ra past ovozda kuylay boshlashdi. Aksariyat hobbitlar bunday paytda kechki ovqat yoki uyqu haqida qo'shiq cho'zib qolishadi, biroq mana bu uchalasi yurish haqida kuylashmoqda. Qo'shiq matnini bir zamonlar Bilbo Beggins yozgan bo'lib, mavzusi anavi tepalik singari eski. Bilbo bu qo'shiqni Frodoga Shir dalalari-yu o'rmonlari bo'ylab birga sayr qilib, sarguzashtlar haqida suhbat qurib yurishgan yillari o'rgatgan.

Qo'shiq misralari quyidagicha:

*Uyqusiragan uyimiz, xonasi sovimagan,  
O'chog'ida kuli oz, cho'g'i hanuz o'chmagan.  
Biz uyg'ondik ertaroq, endi yo'lga chiqaylik,  
Safarda qiziqarli manzaralar ko'raylik.*

*Ko'raylik qishloqlarni, boshi oppoq tog'larni,  
Shoshih oqqan soylarni, keng dala-yu bog'larni.  
Quvonar ko'zlarimiz, yulduzlar hamrohimiz,  
Davom etar yo'limiz, keldi yana uyqumiz.*

*Tog' ostidan yurarmiz, osmonlarga chiqarmiz,  
O'tkazib yuborsak gar, yo'limiz yana tushar  
Yer kurrasin aylanib, quyosh, oyga ergashib  
Qaytdik uyga biz yana, o'choqqa tez o'l qala.*

– Faqat uyga emas, daraxt kovagiga kirib oldik, – kinoya qildi Pin.

– Jim! – dedi Frodo. – Nazarimda, tuyuqning dupuri eshitiqanday bo‘ldi.

Yo‘lovchilar keskin to‘xtab, tevarak-atrofqa quloq tutishdi. Orqa tomondan chindan ham tuyuq tovushi eshitildi. Ot shoshmay kelayotganiga qaramay, tuyog‘ining zarbasi aniq yangramoqda. Hobbitlar zudlik bilan yo‘ldan chiqib, emanlarning quyuy ko‘lankasiga bekinib olishdi.

– Uzoq ketmang! – pichirladi Frodo. – Bizni ko‘rmasligi kerak, lekin men uning kimligini bilmoqchiman. Balkim, boshqa Qora otliqdir u.


– Yaxshi! – dedi Pin. – Faqat uning iskovuchligini unutma.

Tuyuq dupuri yaqinlashmoqda. Hobbitlarning daraxt soyasidan ko‘ra durustroq boshpana qidirgani vaqti yo‘q. Sem bilan Pin ulkan daraxt ortiga bekinishdi. Frodo esa yo‘lga bir necha yardga yaqinroq emaklab bordi. Yo‘l qorong‘ilikda xira kulrang tusda ba‘zo‘r ko‘rinmoqda. Osmon gumbazi yulduzlarga to‘la bo‘lsa-da, oy yo‘q.

Dupur-dupur tindi. Ikkita daraxt orasidan diqqat bilan razm solgan Frodo yo‘lning kulrang tusini kesib o‘tib, keskin to‘xtagan ko‘lankaga e‘tibor qildi. Ko‘lanka hobbitlar yo‘ldan chiqqan joyda to‘xtab, u yon bu yoniga tebrana boshlagancha, pishqirgan tovush chiqardi. Ko‘lanka past engashib, hobbitlar bekingan joyga pisib yaqinlasha boshladi.

Frodoning vujudini yana Uzuk taqish istagi qamrab oldi. Ushbu istak bu safar ilgarigidan kuchli kechdi. Nima qilayotganini idrok etishga ulgurmagan Frodo qo‘li kissasiga kirganini his etdi. Shu fursatda kimningdir vazmin qo‘shiq aytib, kulgani eshitildi. Tiniq ovoz allaqanday yog‘du yorgan havoda yangramoqda. Hobbitlarning iziga tushgan qora sharpa qaddini rostlab, ortga chekindi-da, bahaybat otiga minib, zimistonga kirib ketdi. Frodo biroz nafas rostladi.

– Elflar! – pichirlab xitob qildi Sem xirillab qolgan ovozi



ila. – Ko‘ryapsizmi, ser, elflar!

Agar kiyimidan mahkam ushlab qolinmaganda Sem daraxtni teshib o‘tib bo‘lsa ham, o‘zi bilmagan holda anavi notanish otliqning ortidan quvib ketgan bo‘lar edi.

– Ha, elflar, – dedi Frodo. Vudi-End hududida ular kam uchraydi. Elflar Shirda yashashmaydi, lekin bahor va kuz fasllarida o‘z hududini tark etib, minoralar ortidagi tepaliklar tomon yo‘l olishganda shu yerlardan o‘tishadi. Buning uchun ulardan minnatdorman! Anavi Qora otliq otidan tushib, biz tomonga pisib kelayotganini, elflarning ovozini eshitib juftakni rostlab qolganini ko‘rmasdilar.

– Elflarni ko‘rib kelsam maylimi? – so‘radi hayajoni tiyilmagan Sem, allaqanday otliq borasida tashvish tortmay.

– Eshit, ular shundoq ham biz tomon kelishyapti! – dedi Frodo. – Biroz sabr qilsang bas, ko‘rasan.

Darhaqiqat, qo‘shiq aytayotganlar yaqin kelib qolishdi. Elflardan birining ovozi qolganlarning ovozidan baland yangramoqda. Qo‘shiq elflarning sehrli tilida aytilmoqda. Frodo bu tilni sal-pal biladi, hamrohlari esa umuman tushunishmaydi. Qo‘shiq uchun bastalangan kuy ham chiroyli eshitilmoqda. Mana o‘sha qo‘shiq ma‘nosi:

*Olis dengiz ortidagi  
Kechki shafaq shu‘lasi  
Mangu umid-la yonaver  
Tog‘larimiz qudrati.*

*O Elberet! Giltoniel!  
Chuqur ta‘zimidir senga.  
Ishonch baxsh etaver  
Oqshom tusli yerlarga*

*Yovuz zulmatni yengding  
Qora osmon gumbazida  
Yulduzlarni yoritding  
Tungi tojing shu‘lasi-la.  
Giltoniel! O Elberet!*

*Moviy qasr mash'alasi!  
Mangu umid-la yonaver  
Tog'larimiz qudrati.*

– Bularni oliy tabaqali g'arb elflari, qisqa qilib oliy elflar deb atashadi! Chunki ular Elbert ismini tilga olib o'tishdi! – xitob qildi Frodo. – Olis-olislarda yashaydigan ushbu xalq Shirda deyarli uchramaydi. O'rta yerda juda kam qolishgan, faqat Buyuk dengizning sharqidagina ko'rish mumkin ularni. Favqulodda hodisa!

Hobbitlar yo'l yaqinidagi ko'lankada o'tirishibdi. Elflar anavi yo'ldan odimlab vodiya tushib ketishmoqda. Ular asta-sekin o'tishayotgani bois, hobbitlar ularning sochlari va ko'zlari taratayotgan yulduz shu'lasini ko'rishmoqda. Elflarning qo'lida mash'ala yo'q, lekin ulardan taralayotgan shu'la oy yorug'ligini eslatadi. Hozir ular qo'shiq aytishni bas qilib jim odimlashmoqda. Hammasi o'tib bo'lgach, saf oxirida ketayotgan elf hobbitlar tomon yuzlanib kulib boqdi.

– Salom, Frodo! – ko'rishdi u. – Sayr uchun kech bo'l-madimi, yo yo'ldan adashib qoldingmi?


Elf hamrohlariga allanima dedi. Elflar to'xtab hobbitlarni qurshab olganicha, diqqat-la ko'zdan kechirib chiqishdi.

– Tungi o'rmonda bir emas naq uch nafar hobbit! Qiziq! Bilbo ketgandan buyon bunaqasini ko'rmagan edik. Nimadan darak bo'lishi mumkin bu?

– Biz ham sizlar ketayotgan yo'ldan borayotganimizdan darakdir bu, o sehrli xalq! – dedi Frodo. – Yulduzlar yog'dusida sayr qilishni yaxshi ko'raman men. Jamiyatingizni qutlaymiz, o qadrli elflar.

– Hech qanaqangi jamiyat emasmiz biz. Hobbitlar g'irt ahmoq bo'ladi deyishgancha bor ekan-da, – kulishdi ayrim elflar. – Qay tomon yo'l olganimizni bilmaysan-u, sizlar ketayotgan yo'ldan borayotganimizni qayerdan bilasan?

– Mening ismimni qayerdan bilasiz? – savolga savol bilan javob berdi Frodo.



– Biz ko‘p narsani bilamiz, – dedi elflardan biri. – Bilbo ikkalangiz birga sayr qilib yurganingizni ko‘p ko‘rganmiz, garchi sizlar bizni sezmagani bo‘lsangiz-da.

– Sizlar kim bo‘lasizlar, rahnamangiz kim? – so‘radi Frodo.

– Mening ismim Gildor, – javob berdi Frodogga birinchi bo‘lib salom bergan elf. – Finrod sulolasiga mansub Gildor Inglarion. Xesh-aqrabolarimizning aksariyati allaqachon ketib bo‘lgan, mana endi biz ham Buyuk dengiz tomon yo‘l oldik. Lekin ayrim qarindoshlarimiz Shir va Rivendellda hamon yashashmoqda. Xo‘sh, Frodo, endi sening galing, qani, ayt-chi bizga, nima qilyapsiz bu yerlarda? Sizlar nimadandir qattiq qo‘rqqaningiz yaqqol ko‘rinib turibdi.

– Ey, oqil xalq! – gapni bo‘ldi Pin. – Qora otliqlar haqida bilganingizni bizga aytib bering.

– Qora otliqlar? – pichirlashdi elflar. – Nima sababdan qiziqib qoldingiz o‘sha Qora otliqlar bilan?

– Chunki ularning ikkitasi bugun bizni ta‘qib qilmoqda. Balkim, ikkita emas bittadir, – dedi Pin. – Hozirgina o‘shalardan biri shu so‘qmoqdan o‘tib ketdi.

Elflar o‘z tilida nimanidir o‘zaro muhokama qilishdi. Birozdan so‘ng Gildor hobbitlarga yuzlandi.

– O‘sha Qora otliqlar haqida bu yerda gaplashmaylik, – dedi u. – Sizlar biz bilan yursangiz, o‘ylashimizcha, yaxshi bo‘ladi. Garchi bu bizning odatlarimizga kirmasa-da, sizlarni o‘zimiz bilan olib ketishimiz mumkin, agar istasangiz, albatta.

Sem hayajonlanib ketganidan so‘z ayta olmadi.

– Ey, buyuk xalq! Bu taklifingiz mening orzu-umidlarimdan ham oshib tushadi! – xitob qildi Pin.

– Sendan bag‘oyat minnatdor bo‘lar edim, Gildor Inglarion, – chuqur ta‘zim bajo ayladi Frodo. – Eliya siyla lummen omentiyelvo. Uchrashuvimiz bois yulduzlar yanada yorqin portladi.

– Ogoh bo‘ling, do‘stlarim! – dedi Gildor o‘z qabildoshlariga kulib boqib. – Sirlarimiz haqida gap ochmang. Mana

bu hobbit qadimiy tilimizdan boxabar ekan. Bilbo durustgina ustozlik qilibdi unga. Salom senga, elflar do'sti! – qutladi u, Frodoga ta'zim aylab. –Do'stlaring bilan safimizga qo'shil. Adashib qolmasligingiz uchun yaxshisi saf o'rtasida boring. Biz to'xtagunimizcha sizlar toliqib qolishingiz mumkin.


– Qay tomon yo'l olgansiz? – so'radi Frodo.

– Bugun tunda Vudxollning yuqori qismidagi tepaliklarda o'sgan o'rmonga boramiz. Manzilgacha yana bir necha milya bor. U yerga yetgach dam olasiz, ertaga esa yo'lingiz qisqaradi.

Shovqin solmay yurish masalasida kerak bo'lgan paytda hobbitlardan ham o'tib tushishadigan elflar soyaday jim odimlay ketishdi. Ko'p o'tmay uyqusirayotgan Pin toshlarga qoqila boshladi, lekin uni har gal novcha bo'yi bir elf yiqilib tushmasligi uchun qo'ltig'idan tutib bordi. Vujudida qo'rquv va hayrat uyg'unlashgan Sem esa Frodo bilan yonma-yon odimlamoqda.

So'qmoqning ikkala tomonidagi o'rmon tobora qalinlashib bormoqda. O'rmon daraxtlari hali yosh. Yo'l soylikka tushib borar ekan, atrofdagi butasimon o'simlik bo'lmish o'rmon yong'og'i ko'rindi. Nihoyat elflar ochilib borayotgan so'qmoqdan chiqib, o'ngga, deyarli ko'z ilg'amas xiyobonga kirishdi. Ilang-bilang ketgan ushbu xiyobon yo'lovchilarni daryoli soylikning quyi qismidagi tepalik cho'qqisiga olib chiqdi. Kutilmaganda ular daraxtlar soyasidan chiqqancha, tunda kulrang ko'rinib, o't-o'lani baland o'sgan yalanglikka o'tishdi. Uch tomondagi daraxtlar ancha narida o'sgan, tepalikning sharqiy nishabi esa tik tushgan bo'lib, unda o'sgan daraxtlarning uchi ko'rinmoqda. Pastdagi yassi tekislik manzarasi yulduzlar yorug'ligida xira ko'rinmoqda. Olisda esa Vudxoll qishlog'ining chiroqlari miltillamoqda.

Maysazorga joylashib o'tirgan elflar hobbitlarga e'tibor ham qilmay, o'zaro pichirlay boshlashdi. Uyqu bosayotgan Frodo va uning do'stlari plashga o'ranib olishgan. Tun qalinlashib, qishloq chiroqlari birma-bir o'cha boshladi. Boshini egatga qo'ygan Pin shu zahoti uxlab qoldi.



Sharqning baland osmonida Rimmirat yaltirayotgan bo'lsa, tuman uzra ko'mirning cho'g'iday qizargan Bergil ko'tarilmoqda. Birozdan so'ng shamol tumanni ochilayotgan pardaday haydab ketgach, osmonda kamari yaltirayogan qilichbardor miltilladi. Qo'shiq boshlagan elflar daraxt ostiga gulxan yoqishdi.

– Turing, tez davramizga qo'shiling! – chiqarishdi elflar hobbitlarni. – Qo'shiq aytib, raqs tushish vaqti yetdi!

Pin yotgan o'rniga o'tirib, biroz titragancha ko'zini ishqaladi.

– Zalga gulxan yoqilgan, ochiqqan mehmonlarimiz uchun yegulik tayyor, – dedi hobbitlarning yonida turgan elf.

Janub tomonda chindan ham zalga o'xshash to'rtburchak xona paydo bo'libdi. Ikkala tomonda daraxtlarning yashil tusli tanalari ustun kabi tik o'rnatilgan bo'lib, o'rtada gulxan charsillamoqda. Gulxan yoniga o'rnatilgan xontaxtaga terilgan idishlar oltin va kumush tusda yaltiramoqda. Elfilar xontaxta atrofida maysa yoki g'olalarga joylashib o'tirishibdi, ularning bir necha nafari yegulik bilan ichimlik tarqatmoqda.

– Taomlarimiz kamtarinroq, chunki biz uydan biroz olisroqdamiz. Uyda bo'lganimizda Frodoning tug'ilgan kuni munosabati bilan yaxshigina ziyofat uyushtirgan bo'lar edik, – tushuntirish bergan bo'lishdi ular hobbitlarga.

Pin keyinchalik o'sha kecha nima yegani-yu, nima ichganini elas-elas xotirladi. U asosan olovning elflar yuzida aks etgan shu'lasini, tushida eshitganday yoqimli ovoz va tovushlarni, mazali oq non, shirin-shakar mevalarni, buloqdan olinganday sevuq, yoz kuniday tilla tusli ichimliklarni eslaydi.

Sem keyinchalik o'sha kechani boshqalarga aytib berish nari tursin, o'ziga o'zi bo'lsa ham, tavsiflab o'tishga so'z topa olmadi, garchi hayotidagi eng muhim hodisaday xotirasida aniq saqlanib qolgan bo'lsa-da. Ayta olgan gapi quyidagicha bo'ldi, xolos: «Bilasizmi, ser, agar men ham elflar bergan olmayay mazali mevalar yetishtira olganimda, o'zimni haqiqiy bog'bon deb bilgan bo'lar edim. Ularning qo'shiqlari esa, agar nima

demoqchi bo'lganimni tushunayotgan bo'lsangiz, qalbm to'ridan joy oldi».

Frodo o'z uyida o'tirganday yeb, ichdi. Elf tilini yaxshi unchalik bilmasa-da, mezbonlarning gap-so'zlarini diqqat-la eshitib o'tirdi, xizmat ko'rsatayotgan elflarga ularning tilida minnatdorlik bildirib bordi. Kulib boqqan elflar esa bunga javo-ban: «Hobbitlarning tillasi!» – deya maqtab o'tishdi.

Birozdan so'ng Pin tarashaday qotib qoldi. Elf-lar uni ko'tarib, daraxtlar orasidan olib o'tishgancha, joyiga eltib qo'yishdi. Yumshoq ko'rpa-to'shakka burkangan Pin tuning qol-gan yarmini qilt etmay o'tkazdi. Sem o'z sohibidan nari ketishni istamadi. Frodoning yonida mizg'ib o'tirgancha, nihoyat uxlab qoldi. Frodo esa uyqusiz, Gildor bilan uzoq suhbatlashib o'tirdi.


Ikkovlon eski va yangi mavzularga doir suhbat qurib o'tirdi. Bunda, Frodo asosan Shir tashqarisida, yovvoyi o'lka-larda kechayotgan hodisalar bilan qiziqib, har xil savollar berib bordi. Yangiliklar mazmunan qayg'uli, ba'zan vahimali bo'lib, zulmatning quyuqlashib borayotgani, odamlar dunyosida kecha-yotgan urushlar, elflarning O'rtayerdan qochishi haqida bo'ldi. Nihoyat Frodo ko'pdan buyon qiynab kelayotgan savolini berish-ga jur'at etdi:

– Beg-Endni tark etgan Bilboni hech ko'rdingmi, Gildor?

– Ko'rdim, – kulib boqdi Gildor. – Bir emas ikki marta ko'rdim. Aynan mana shu yerda u biz bilan xayrlashib ketgan edi. Lekin men uni keyinchalik yana ko'rdim, bu yerlardan ancha olisda.

Gildor Bilbo haqida boshqa hech nima demagani uchun Frodo ortiq xiralik qilmadi.

– O'zlaringga taalluqli narsalar haqida nega so'ramayap-san, Frodo? – qiziqdi elf. – Men sizlar haqingizda kam bilaman, lekin yuzlaringizdan ko'p narsalarni uqib olishim mumkin. Sen Shirni tark etib ketyapsan, lekin qidirayotgan narsangni topi-shing, vaqti kelib yurtga qaytishing borasida ikkilanyapsan. Shunday emasmi?





– Shunday, ammo Shirni tark etayotganimni Gendalf bilan Sem biladi, xolos, deb o‘ylagan edim, – javob berdi Frodo pishillab yotgan Semga qarab.

– Dushman ushbu siringni bizdan bila olmaydi, – tinchlantirdi uni Gildor.

– Dushman? – hayron bo‘ldi Frodo. – Demak, Shirni nima sababdan tark etayotganimni ham bilar ekansan-da?

– Dushman sizlarni nima sababdan ta‘qib qilib kelayotganini bilmayman, – javob berdi Gildor, – lekin izlaringga tushganiga ishonchim komil. Ogohlantirib o‘tishim joizki, xavf sizlarni oldinda ham, ortda ham, ikki yoningizda ham ta‘qib qilib boradi.

– Anavi Qora otliqlarni nazarda tutyapsanmi? O‘ylashimcha, ular dushmanga xizmat qiladi. Kim o‘zi ular, o‘sha Qora otliqlar?

– Gendalf hech nima demaganmidi ular haqda?


– Yo‘q, menga hech nima aytib bermagan.

– Demak, men ham gapirmasligim kerak, aks holda qo‘rquv hissi sizlarga mashaqqatli safaringizni oxiriga yetkazishga xalal beradi. Nazarimda, agar kech qolmagan bo‘lsang, Shir-dan o‘z vaqtida chiqib ketgansan. Ortga qaytmay, olg‘a ildamlashing kerak. Endi Shir seni himoya qila olmaydi.

– Shamali gaping-u, ogohlantirishingdan-da qo‘rqinchli narsalarni tasavvur qila olmay qoldim! – xitob qildi Frodo. – Yo‘lda meni xavf-xatar kutayotganini bilar edim, albatta, lekin unga Shir hududidayoq duch kelishim mumkinligini xayolimga ham keltirmaganman. Nahotki endi hobbit o‘z o‘lkasidagi bir daryodan boshqa daryogacha xotirjam yura olmasa?!

– Shir sizning muxtor olamingiz emas, – dedi Gildor. – Qolaversa hobbitlar doim ham yashamagan bu o‘lkada. Hobbitlar ketishsa, boshqalar kelib yashaydi bu yerda. Dunyo sizlar o‘ylagandan ham ancha keng.

– Bilaman. Lekin Shir, nazarimda, hamisha xavfsiz, tinch joy bo‘lib kelgan. Endi nima qilishim kerak? Shirni birovga bildirmay tark etib, Rivendell tomon yo‘l olmoqchi edim, ammo



hali Baklend viloyatiga yetmay turib izimga tushishga ulgurishibdi.

– O‘ylashimcha, o‘ylangan rejangni ro‘yobga chiqarishingni davom etishing kerak, – dedi Gildor. – Yo‘l sen o‘ylaganchalik mashaqqatli kechishiga ishonmayman, lekin yanada tushunarliroq maslahat olmoqchi bo‘lsang, Gendalfga murojaat qil. Shirdan qochib ketishing sababi menga qorong‘i, binobarin, taqib qilib kelayotganlar senga nisbatan qanday chora ko‘rishi mumkinligini tasavvur qila olmayman. Buni Gendalf biladi. Balkim, Shirdan chiqib ketguningcha uni yana uchratarsan.

– Men ham shunga umid qilyapman. Biroq qaror topgan vaziyat meni tashvishga solmoqda. Gap shundaki, men Gendalfni ko‘pdan buyon kutypman. U Hobbitonga kechi bilan ikki kun oldin yetib kelishi kerak edi, kelmadi. Unga biron nima qildimikan, degan xayolga boryapman. Yo kutaymikan uni?

– Bu gapiing menga yoqmadi, – dedi nihoyat Gildor, ancha sukut saqlab o‘tirgach. – Gendalfning va‘da qilingan vaqtda yetib kelmagani yaxshilikdan dalolat bermaydi, albatta. Lekin bir naql bor: «Sehrgarning ishiga aralashma, zero u dog‘uli bo‘lib, jahli burnining uchida turadi». Shirda qolib kutish yoki yo‘lni davom etish masalasini o‘zing hal etishing kerak.

– Yana bir naql bor: «Ovora bo‘lib elfdan maslahat so‘rama, zero u na ijobiy, na salbiy javob beradi», – dedi Frodo.

– Yo‘g‘-e?! – kulib yubordi Gildor. – Elflar ehtiyotsiz maslahat berishdan o‘zlarini tiyishadi. Chunki har qanday maslahat, u oqillarning oqili tomonidan berilgan bo‘lsa ham, xavfli tuhfadir. Ammo sen o‘z ishing, rejalarining haqingda deyarli hech narsa demading. Shunday ekan, qanday maslahat berishim mumkin men senga? Agar senga chindan ham maslahat kerak ekan, do‘stligimiz haqi berishim mumkin uni. O‘ylashimcha, hech ikkilanmay, zudlik bilan safarga chiqishing kerak. Agar Gendalf Shirni tark etguningcha topilib kelmasa, maslahatim: safarga yolg‘iz o‘zing chiqma. O‘zing ishonadigan, sen bilan birga o‘z xohishi bilan ketishga rozi bo‘lgan do‘stlaringni hamroh qilib ol. Minnatdor bo‘lsang, arziydi, chunki men hammaga

ham maslahat beravermayman. Elflarning o'z qonunlari, o'z g'am-tashvishi bo'lib, hobbitlar yoki boshqa mavjudotlarning ishlari bilan kamdan kam qiziqishadi. Boshqalar bilan yo'limiz deyarli kesishmaydi. Bu yerdagi uchrashuvimiz tasodif bo'lishi ham mumkin: maqsadi menga qorong'i bo'lgan qalayotgani bois, ortiqcha gapirib qo'yishdan qo'rqaman.

– Bag'oyat minnatdorman, – dedi Frodo. – Ammo menga anavi Qora otliqlar haqida aytib berishingni istar edim. Agar maslahatingga quloq tutib, yo'lga chiqadigan bo'lsam, Gandalfni uzoq vaqt ko'rmasligim mumkin. Shuning uchun men nimadan xavotirlanishimni, meni qanday xavf ta'qib qilayotganini bilishim kerak.

– Ular dushman malaylari ekanini bilishning o'zi kammi? – javob berdi Gildor. – Qora otliqlardan ehtiyot bo'! Ular halokat keltirishadi. Boshqa hech narsa so'rama mendan. Ko'nglim sezib turibdiki, bu ishlarning bari nihoyasiga yetguncha sen, Drogoning o'g'li Frodo o'sha qabohat haqida Inqlarion Gildordan ham ko'proq bilib olasan. Elberetning o'zi asrasin seni!

– Menga hozir jur'at, dadillik kerak. Uni qayerdan olsam bo'ladi? – so'radi Frodo.

– Jur'at-u, dadillikni keyinroq topishing mumkin, – javob berdi Gildor. – Muhimi noumid bo'lma! Endi yotib uxla. Biz tong saharda ketamiz, lekin o'rmonlarga xabar tarqatamiz. Sayyor guruhlar sening safaringdan boxabar bo'lishadi, elflarning do'stlari g'amingni yeb borishadi. Boshing uzra hamisha yulduzlar yaraqlasin. Sizlarday yaxshi do'stlarga kamdan kam duch kelganmiz. Yana bir maxluqot qadimiy tilimizda gapirishini eshitish juda yoqimli kechadi bizga.

Frodo Gildorning gapi tugamay uyquga ketayotganini his etdi.

– Hozir uxlab qolaman, – dedi u.

Elf Frodoni Pin yotgan joyga eltib qo'ydi. Yumshoq ko'rpaga yotgan Frodo tushsiz uyquga ketdi.

#### IV BOB

## QO'ZIQORINGA BORISH YO'LI

Yerdan bo'rtib chiqqan eski daraxt ildizlari orasidagi chuqurchada, maysagacha egilgan yosh novdalar pardasi ortida yotgan Frodo ertalab uyquga to'yib uyg'ondi. Qirqquloq va o't-o'landan to'shalgan yumshoqqina ko'rpasidan xushbo'y hid taralmoqda. Quyosh nuri novdalar orqali singib o'tgan. Xayolini yig'ib olgan Frodo o'rnidan sakrab turdi.

Sem o'rmon chetidagi maysada o'tiribdi. Uning yonida turgan Pin, aftidan, osmon-u, ob-havoni o'rganmoqda. Elflar yo'q, kctishibdi.

– Ular bizga non, meva-cheva va ichimlik qoldirishibdi, – ma'lum qildi Pin. – Nonushta qilib ol. Non tungi mazasini saqlab qolgan. Senga qoldirmay paqqos urmoqchi bo'ldim-u, Sem qo'ymadi.

Semning yoniga o'tirgan Frodo nonushta qilishga kirishti.

– Bugungi rejamiz qanaqa? – so'radi Pin.

– Baklberiga imkon qadar tezroq yetib olishimiz kerak, – javob berdi Frodo, yegulikning mazasiga e'tibor qilib.

– Nima deb o'ylaysan, anavi chavandozlarga yana duch kelishimiz mumkinmi? – so'radi Pin.

Aftidan, tong quyoshining yorug'i Pinga yaxshigina dalda bergan ko'rinadi, Qora o'tliqlarning butun boshli qo'shini bilan to'qnash kelish istiqboli uni cho'chitmayapti.

– Mumkin, – javob berdi Frodo, o'sha o'tliqlar haqida o'ylashni istamay. – Lekin umid qilamanki, daryoni kechib o'tgunimizcha ular bizni ko'rishmaydi.

– Ular haqda Gildordan biron nima so'rab bildingmi?

– Ko'p emas. Shama-yu, jumboqlardan nari o'tmadi, – mujmal javob berdi Frodo.

– Safarimiz haqida-chi, so'radingmi?

– Bu haqda gap ochilmadi, – iqror bo'ldi og'zini nonga to'ldirib olgan Frodo.

– Ochish kerak edi. Ishonchim komilki, bu juda muhim mavzu.

– O‘ylashimcha, Gildor biror-bir tushuntirish bermagan bo‘lar edi, – keskin ohangda javob berdi Frodo. – Endi iltimos sendan, biroz tinch qo‘y meni, nonushta qilib olay. Og‘zimda yegulik bilan sening bir olam savolingga javob bera olmayman. O‘zimning ham o‘ylab ko‘radigan narsalarim bor!

– Yo, falak! – xitob qildi Pin nari ketar ekan. – Nonushta vaqtida o‘ylash-a!

Mana bu «xiyonatkor yorqin tong» Frodo o‘ylaganday, ta‘qib qiluvchilar oldidagi qo‘rquvni ongidan quvib chiqarmadi. Hozir u Gildorning so‘zlarini fikr tarozisidan o‘tkazib o‘tiribdi. Sal narida Pin quvnoq qo‘shiq boshlab qoldi.

«Yo‘q, unday qila olmayman! – e‘tiroz bildirdi Frodo o‘ziga o‘zi. – Yosh do‘sting bilan Shir bo‘ylab sayr qilib yurish, toliqib, ochqaganingda tayyor ovqatni yeb, yumshoqqina ko‘rpa-ga kirib uxlash boshqa, yurtdan birga qochib chiqib, begona o‘lkalarda och-nahor yurgan boshqa. Bu faqat mening qismatim. Hatto Semni ham olib ketmasligim kerak o‘zim bilan».

Semga qarab qo‘ygan Frodo ushbu hamrohining diqqat-la razm solib o‘tirganini ko‘rdi.

– Xo‘sh, qalaysan, Sem? – qiziqdi Frodo. – Men Shirni imkon qadar tezroq tashlab chiqaman. Gendalfni kutib o‘tirgani bir kun bo‘lsin, vaqtim bo‘lmaydi.

– Juda yaxshi, ser!

– Sen haliyam men bilan birga yo‘lga chiqish niyatidamisan?

– Ha, ser.

– Safarimiz juda xavfli kechadi, Sem, juda xavfli. Biror-tamiz omon qaytishimiz amri mahol.

– Siz qaytmaydigan bo‘lsangiz, men ham qaytmayman, ser, – dedi Sem. – «Uni yolg‘iz qoldirma» – deya tayinlashdi ular menga. – «Yolg‘iz qoldirish? Nimalar deyapsiz, xayolimga ham keltirganim yo‘q. Oyga chiqsa ham yonida boraman. Agar anavi Qora otliqlar janob Frodoni yo‘ldan to‘xtatishga urinadigan

bo'lishsa, shaxsan o'zim adablarini berib qo'yaman», - deya javob berdim. Ular esa rosa miriqib kulishdi.

- Ular deganing kim? Kimlar haqida gapiryapsan?

- Elflar haqida, ser. Tunda biroz suhbatini oldim ularning. Aftidan, elflar ikkalamiz Shirni tark etishimizdan boxabar, shekilli, sir tutib o'tirmadim. Ajoyib xalq ekan elflar, ser! Ajoyib!

- Ha. ajoyib, - ma'qulladi Frodo. - Mana, ularni yaqindan ko'rding, tanishding, ilgariqiday yoqtirasanmi ularni?

-- Elflar, nima desam ekan, - asta javob berdi Sem. - Mening ularga bo'lgan muhabbatimdan ham yuksak xalq ekan. Ular haqida qanday fikrga borganimning ahamiyati yo'q. Elflar men kutganday emas ekan. Keksa-yu, yosh, quvnoq va g'amgin.


Frodo Senga hayrat-la qarab, hamrohida yuz berayotgan g'alati o'zgarishlar sababini idrok etishga urinib ko'rdi. Ro'parasida o'tirgan hobbit g'ayrioddiy tarzda o'y surib qolgan o'sha Sem Skrombi bo'lishiga qaramay, ovozi boshqacha chiqib, Semning tanish ovozigacha o'xshamadi.

- Elflarni ko'rish orzuving ushlandi-yu, Shirni tark etish niyatidan qaytarsan endi?

- Yo'q ser, unday niyatimdan qaytmayman. Qanday izohlab berishni bilmayman-u, ertalab turib ichimda nimadir o'z-garganini his etdim... Oldinga, kelajakka nazar solganday bo'ldim. Zulmat ichra uzoq yurishimiz kerakligidan xabarim bor, lekin ortga chekina olmayman, Gap mening elflarni, ajdar yoki haqiqiy tog'larni ko'rish istagimda emas. To'g'risini aytganda, nima istayotganimni o'zim ham bilmayman, lekin men qandaydir ishni bajarishim kerakligini va u ishning ijrosi Shir tashqarisida bo'lishini bilaman. Men uzoq yo'l bosib o'tishim kerak, ser, agar nima demoqchi bo'lganimni tushungan bo'lsangiz.

-- To'liq tushunmadim, lekin shuni angladimki. Gendalf menga yaxshi do'st tanlab beribdi. Sendan mamnunman, mayli, safarga birga chiqqanimiz bo'lsin.

Frodo ortiq gapirmay nonushtani oxiriga yetkazgach, o'rnidan turib yo'lga qaradi-da, Pinni chaqirdi.



– Hamma narsa tayyormi, safarimizni davom etishga? – so‘radi u, yugurib kelgan Pindan. – Zudlik bilan yo‘lga chiqishimiz kerak. Biz haddan ortiq uzoq uxladik, oldinda esa yana bir necha milya kutyapti bizni.

– Biz emas, sen uzoq uxlading, – aniqlik kiritdi Pin. – Uyg‘onganimga ancha bo‘ldi. Sem ikkalamiz boyadan buyon enangni uyida o‘tirganday uzoq nonushta qilishing-u, o‘ylab o‘yingga yetishingni kutib o‘tiribmiz.

– O‘ylab bo‘ldim. Baklberi-Feriga imkon qadar tezroq yetib borishga ahd qildim. Kechagidek yo‘ldan bormaymiz, tikkasiga kesib chiqamiz.

– Unday bo‘lsa yurish emas, uchishimizga to‘g‘ri keladi, – dedi Pin. – Tikkasiga piyoda yurib bo‘lmaydi.

– Shunga qaramay, to‘g‘ri yo‘ldan emas, qisqa yo‘ldan boramiz. – Ferri Vudxollning sharqida joylashgan, lekin yo‘l chapga burilgan, ana, shimol tomonda uning muyulishi ko‘rin-yapti. Yo‘l Marishning shimoliy chetini aylanib o‘tib, soy ko‘pri-giga olib boradigan tosh yo‘lga borib taqaladi. Biroq bu yo‘l safarimizni bir necha milyaga cho‘zib yuboradi. Agar Ferriga shu yerdan tikkasiga kesib chiqadigan bo‘lsak, yo‘lni to‘rtidan bir qismiga qisqartirgan bo‘lamiz.

– Tikka ketgan ushbu qisqa yo‘l vaqtimizni oladi, – ta‘kidlab o‘tdi Pin. – Hudud notekis bo‘lib, botqoqlik va boshqa turdagi tabiiy to‘siqlardan iborat. Bu yerlarni yaxshi bilaman. Agar sen anavi Qora otliqlarga duch kelishdan xavotir olayotgan bo‘lsang, fikrimcha, ular bilan o‘rmon yoki dalada emas, katta yo‘lda to‘qnash kelgan ma‘qul.

– Bizni o‘rmon yoki dalada topish qiyinroq kechadi, – javob berdi Frodo. – Modomiki, ular bizni yo‘lda izlab topishgan ekan, bundan bu yog‘iga ham katta yo‘lda qidirishadi.

– Yaxshi, – ma‘qul topdi Pin. – Sening ortingdan har qanday chuqur-u, botqoqqa kirib ketishga tayyorman. Biroq yana bir ogohlantirib qo‘yay: yo‘l qiyin kechadi! To‘g‘ri yo‘ldan borib, quyosh botguncha Soy sohilidagi «Yashil qo‘noq» meh-monxonasiga yetib olishga umid qilgan edim. U yerning mayxo-

nasida sharqiy Shirning eng zo'r pivosi sotiladi. Ichmaganimga ancha bo'ldi uni.

– Darhaqiqat, qisqa yo'l vaqt olsa, mehmonxonaga tashrifing vaqtimizni battar o'ldiradi, – dedi Frodo. – Nima qilgan taqdirda ham seni «Yashil qo'noq»qa kiritib bo'lmaydi. Qosh qorayguncha Baklberiga yetib olishimiz shart. Nima deding, Sem?

– Men siz bilan, janob Frodo, – javob berdi Sem, garchi yuzi Shir sharqidagi eng zo'r pivodan quruq qolayotgani uchun achinayotganini aytib turgan bo'lsa-da.

– Modomiki, bugungi qismatimizga botqoqlig-u, changalzordan o'tish yozilgan ekan, bo'lgan ishning bo'lgani ma'qul, shoshilaylik! – taklif kiritdi Pin.

Bugun kechagiday issiq, lekin g'arb osmonidan bulut suzib kelmoqda. Aftidan, yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi. Hobbitlar to'g'ri yo'lni qo'yib, bo'm-bo'sh o'rmon tomon odimlashdi. Ular Vudxollni harakat yo'nalishining chap tomonida qoldirish, tepalikning sharqiy qiyaligidagi o'rmonni kesib o'tib, sayhonlikka chiqishni niyat qilishgan. Shunda ular ochiq joy bo'ylab yurib, tikka Ferriga borishlari mumkin. Yo'lda bir nechta zovur va chakalak devorlarni yengib o'tishga to'g'ri keladi. Frodoning hisob-kitobiga ko'ra tikka kesib chiqadigan yo'nalish bo'ylab o'n sakkiz milya yo'l yurishadi.

Ko'p o'tmay yo'lovchilar bir qarashda o'tish osonday ko'ringan o'rmon qalinlashib, chigallashib ketayotganini fahmlashdi. Yetilmagan daraxtlar orasi zich bo'lib, so'qmoq yo'qligi bois olg'a ilgarilash sust kechmoqda. Dara<sup>1</sup> tubiga yetishgach, qirg'oqlari tik ko'tarilgan chuqur soylikdagi tepalikdan oqib tushayotgancha yo'llarini kesib o'tayotgan jilg'ani ko'rishdi. Uni hatlab o'tishning iloji yo'q, kechib o'tiladigan bo'lsa, kiyim ho'l bo'lib, loyga belanadi.

– Birinchi g'ov! – kulib boqdi Pin.

---

<sup>1</sup> Dara – 1) tog' orasi; 2) ikki yoki bir tog'bo'laklarini ajratadigan soylik.



Atrofga alanglagan Sem Skrombi daraxtlar orasidan hozirgina tark etilgan tepalik cho'qqisiga e'tibor qildi.

– Anavini qarang! – dedi u Frodoning qo'lidan tutib.

Uchovlon Sem ko'rsatgan tomon qarab, yuqorida, ko'mo'k osmon tusida bahaybat ot va uning yonida turgan qora kiyingan kishini ko'rdi.

Ortga qaytish fikri shu zahoti barham topdi. Yo'l boshlab borayotgan Frodo zudlik bilan jilg'a qirg'og'idagi qalin butalar orasiga sho'ng'idi.

– Jin ursin, ikkalamiz ham haq bo'lib chiqdik! – dedi u Pinga. – Tikkasiga kesib chiqadigan yo'l uzoq cho'ziladigan bo'ldi, lekin biz vaqtida bekinib olibmiz. Qulog'ing yaxshi eshitadi, Sem: biror bir shubhali tovush eshitilmayaptimi?

Ular nafas chiqarmay tek qotganicha atrofga quloq tutishdi. Ta'qib alomati eshitilmadi.

– Bu yoqqa tusha olishiga shubha qilaman, lekin biz qayerdaligimizni bilsa kerak, – taxmin qildi Sem. – Bu yerdan tezroq ketganimiz ma'qul.

Yurish oson kechmayapti. Daraxt novdalari, buta shoxlari safar qopiga ilinib yurishga to'sqinlik qilmoqda. Qiyalik ularni shamoldan to'sgan, soylikdagi havo dim bo'lib, harakatsiz qotgan. Nisbatan ochiq joyga yetguncha toliqib, terlagan yo'lovchilarning a'zoyi-badani rosa timalandi. Boz ustiga, tanlangan yo'nalish to'g'ri ekanligiga shubha qilib qolishdi. Dara qiyaligi yanada tik ko'tarilib, nisbatan tekis yerga yetgan jilg'a kengayib, chuqurlashib, katta ariqqa aylandi.

– Boya men aytgan Soyning boshlanishi-yu, bu! – dedi Pin. – Tanlangan yo'nalishni saqlab borishni istasak, suv kechib o'tishga to'g'ri keladi.

Soyni kechib o'tgan hobbitlar o'rmonsiz, onda-sonda buta o'sgan ochiq joyda shosha-pisha odimlab ketishdi. Ushbu yalanglik tugab, yana o'rmon boshlandi. Bu yerda asosan eman o'sib, ba'zan yakka qayrag'och yoki shumtol ko'rinib qolmoqda. Hudud tekis, yetilmagan nihollar yo'q, mavjud daraxtlar yirik bo'lib, tevarak-atrofnii kuzatib borish imkoni cheklangan. Qisqa

vaqtga kuchayib borayotgan shamol yo'lovchilarning boshi ustidagi barglarni shitirlatmoqda. Bulut qoplagan osmondan ba'zan yomg'ir yog'ib, tinmoqda. Birozdan so'ng shamol tinib, yomg'ir kuchaydi. Ba'zi-ba'zida orqaga qarab, indamay odimlayotgan hobbitlar maysa va xazon ko'rparasini tepalagancha, rutubatli havoda imkon qadar tez yurishga harakat qilishmoqda.

– Umid qilamanki, janub tomon ko'p og'madik, yo'limiz ham o'rmonning uzunasi bo'yicha ketayotgani yo'q, – dedi Pin yarim soatdan so'ng. – Ushbu o'rmon mintaqasi keng emas, eni bir milyadan oshmaydi. Taxminimcha, hozir biz uni kesib chiqqan bo'lishimiz kerak edi.

– Aylanma yurgan bo'lsak chatoq. Yo'nalishimiz to'g'riligini tekshirib ko'rishimiz kerak, kutilmaganda ochiq joyga chiqib qolishni istamayman – dedi Frodo.

Uchovlon yana bir necha milya yo'l yurdi. Yomg'ir tinib, bulutlar orasidan quyosh ko'rindi. Kun yarmiga yetib, ovqatlanish vaqti bo'lganini his etishdi. Hobbitlar bargi sarg'aygan bo'lsa ham, hali to'kilmagan, tagi quruq ulkan bujun<sup>1</sup> ostiga joylashib o'tirishdi. Yegulik tugunini ochishar ekan, elflar ularning idishlarini xira tilla tusli ichimlikka to'ldirishganiga ahamiyat berishdi. Ta'mi juda yoqimli ushbu ichimlikdan asal hidi keladi. Birozdan so'ng hobbitlarning yuziga kulgi yugurib, yomg'ir va anavi Qora otlıqqa doir hazil-mutoyiba qilib o'tirishdi. Ko'p o'tmay ular biroz kuchga to'lib, so'nggi bir necha milyani ortda qoldira olishlarini his etishdi.

Daraxtga suyangan Frodo ko'zini yumdi. Sem bilan Pin esa qo'shiq cho'zib qolishdi:

*Ulisin shamol oyga qarab yovuz o'rmonda,  
Jimjitlikni ayamay quvib solaman,  
Qora gumbaz yulduzi miltillaydi ustimda,  
O'tmishda aytishganday qo'shiq cho'zaman.*

---

<sup>1</sup> **Bujun** – qayrag'ochning bir turi, qattiq tanali daraxt.

*O'kirsin o'ksib o'rmon, quysin olamga jala,  
Mardonavor odimlab, faqat olg'a boraman,  
Suv idishda nima bor, do'stim bir qara,  
Yo'l azobi oson kechsin, qonib ichaman.*

– Yo'l azobi oson kechsin, qonib ichaman! – yanada balandroq kuylashdi ular.

Frodo kutilmaganda oyoqqa sakrab turdi. Sem bilan Pin qo'shiq aytishni bas qilishdi. Nimadir past ovozda uzoq ulib, o'rmonda yolg'iz yashaydigan yovuz maxluqni eslatdi. Ulish to'vushi ko'tarildi, pasaydi va baland notada keskin to'xtadi. Hobbitlar esankirab, qo'rqqanidan gapirolmay turishar ekan, olisdan anavi ulishga javoban nisbatan past, kishi tomiridagi qonni battar muzlatib yuboradigan boshqa ulish eshitildi. Shundan so'ng o'rmonga shamol shovqini-yu, barglarning shitirlashi bilan buzib borilayotgan sukunat cho'kdi.

– Nima edi u? – so'radi nihoyat Pin, yengil titrayotgani bilinayotgan bo'lsa-da, vazmin ohangda gapirishga urinib. – Agar qush bo'lsa, bunday sayraydigan qush ovozi Shirda hali eshitmaganman.

– Qush ham, hayvon ham emas edi u, – dedi Frodo. – Kimdir sherigini chaqirdi yo unga signal berdi. Ushbu qichqiriq, garchi aniq tushunmagan bo'lsam-da, ishonchim komilki, so'zlardan iborat bo'ldi. Shuni aytishim mumkinki, hobbitning ovozi emas edi.

Bu haqda boshqa gap ochilmadi. Uchala hobbitning xayoliga kelgan fikr Qora otliqlar bo'ldi-yu, bir-biriga indamay qo'ya qolishdi. Pana joydan chiqishni xohlashmasa-da, ertami-kechmi ochiq maydonni kesib o'tishlari kerak bo'lgani bois, bu ishni kunning yorug'ida bajargan ma'qul deb topishdi. Yo'lovchilar safar qoplarini ko'tarib, zudlik bilan yo'lga chiqishdi.

Ko'p o'tmay o'rmon keskin uzilib, hobbitlarning qarshisida maysa o'sgan keng sayhonlik ochildi. Ular chindan ham janub tomon ko'p og'ib ketishganiga ishonch hosil qilishdi. Olisda, daryoning narigi sohilida faqat endi chap qo'lda Baklbe-

rining pastqam tepaliklari ko'rindi. Daraxt panasidan asta chiqqan hobbitlar ochiq sayhonlikda imkon qadar tezroq odimlay ketishdi.

O'rmondan chiqqan dastlabki pallada hobbitlar biroz qo'rqib yurishdi. O'rtda, olisda, uchalasi nonushta qilgan tepalik ko'rindi. Frodo u yerda Qora otlarning sharpasini kutdi, lekin hech nima ko'zga tashlanmadi. Ertalabdan buyon bulut ortiga bekiniib kelgan quyosh olamni yana yorqin yoritmoqda. Xavotir hissi batamom tark etmagan bo'lsa-da, hobbitlarning vujudini qamrab olgan qo'rquv, har qalay, ancha chekindi. Yerga ishlov berilib, tevarak-atrof parvarish qilingan alomatlar ko'zga tashlanib boshlandi. Ko'p o'tmay ekin maydonlari, yaylovlar boshlanib, bog' eshiklari, zovurlar ko'rindi. Shirning oddiy bir burchagi kabi atrof tinch-xotirjam tus ola boshladi. Qishloqqa o'tiladigan daryo yaqinlashgan sari yo'lovchilarimizning kayfiyati ko'tarilib, Qora otlar ularning tasavvurida o'rmonda qolib ketgan mudhish arvohlarga aylanib bordi.

Hobbitlar keng sholg'om dalasidan o'tib, mustahkam o'rnatilgan bog' eshigiga yetishdi. Eshik ortida ikki chetida chakalak devor o'sgan bo'lib, huv naridagi daraxtzorga olib boradigan uzundan uzoq yo'l cho'zilgan.

– Bu eshik va anavi dala egasini taniyman, – dedi Pin to'xtab. – Bu yer Bemfarlong deb atalib, qariya Biryukning mulki hisoblanadi. Anavi daraxtzor ortida uning fermasi bor.

– Shamoldan qochib, dovulga uchrabmiz-da! – dedi rangi bo'zday oqargan Frodo, huddi Pin mana bu yo'l ajdar makoniga olib borishini e'lon qilganday cho'chib.

Hamrohlar Frodoga hayrat-la baqrayishdi.

– Qariya Biryuk nima yomonlik qildi senga? – qiziqdi Pin. – U Brendizayklar urug'ining qadrdon do'sti sanaladi-yu. To'g'ri, u o'g'rilarning adabini berib, yovuzlashgan it galasini boqadi. Lekin buni to'g'ri tushunish kerak, chunki bu yer chegara hududi bo'lib, hushyor yurishga to'g'ri keladi.

– Bilaman, – dedi Frodo. – Lekin shunga qaramay men Biryukning o'zidan ham, uning itlaridan ham qo'rqaman. Ko'p

yillardan buyon men uni va uning fermasini chetlab o'tadigan bo'lib qolganman. Brendixoll qishlog'ida yashab yurgan bolalik kezlarimda uning hududida qo'ziqorin terayotganimda bir necha bor tutib olgan meni. So'nggi bor qo'lga tushganimda meni rosa savalab, itlariga obdan iskatdi-da: «Mana bu yigitchaning sassiq hidini yaxshilab eslab qolinglar, hayvonlar. Agar ushbu valakisalang yana bir bor mening yerimga oyoq bosguday bo'lsa, tovonini tishlab uzinglar. Qani, bir quvib solinglar-chi endi uni», – deya tayinladi. Itlar meni Ferrigacha quvib borishdi. Bunchalik qo'rqmagan edim, garchi itlar o'z ishini bilib, menga tegishmagan bo'lsa-da.

Pin miriqib kuldi.

– Nima ham der edim. Modomiki, Baklend viloyatiga ko'chib o'tishga ahd qilgan ekansan, orani ochiq qiladigan vaqt yetibdi, – dedi u. – Qariya Biryuk yaxshi yigit, agar birov uning qo'ziqorinlariga tegmasa, albatta. Mana bu yo'ldan borsak o'g'riga o'xshamaymiz. Agar unga duch keladigan bo'lsak, o'zim gaplashib qo'yaman u bilan. Biryuk Merrining do'sti bo'ladi. Men u bilan bir necha marta kelganman bu yerga.

Uchovlon daraxtlar ortidagi, tomiga qamish bosilgan uyni ko'rguncha kelayotgan yo'ldan yurdi. Biryuklar Marish aholisining aksariyat qismi va soyluk Uzunoyoqlar kabi yer ostida emas, yer ustiga qurilgan uyda yashashadi. Biryukning fermasi g'ishtdan ko'tarilgan bo'lib, atrofi baland devor bilan o'ralgan. Yo'l ushbu devor orasiga o'rnatilgan katta darvozaga borib taqaldi.

Sayyohlar yaqin kelishlari bilan ichkarida itlarning baland vovullashi-yu, kimningdir ingichka ovozda:

– Gring, Feng, Vulf! Olg'a! – deya qichqirgani eshitildi.

Frodo bilan Sem turgan joyida qotib qolishdi, Pin yana bir necha qadam odimladi. Darvoza ochilib, ichkaridan uchta yirik it otilib chiqdi. Darg'azab akillayotgan itlar Pinni nazar-pisand qilmay, tikka Frodo bilan Sem tomon yelishdi. Ikkitasi Semni o'rab olgan bo'lsa, eng yirik, baquvvat it Frodoning oldiga yugurib kelib, qilt etishi bilan baland irillab turdi.

Darvoza ostonasida girdig'umgina, yumaloq yuzi qizg'ish tus olgan hobbit ko'rindi.

– Salom! Salom! – ko'rishdi u. – Kim bo'lasizlar? Nima kerak sizlarga bu yerda?

– Xayrli kun, janob Bryuk! – ko'rishdi Pin.

Keksa fermer Pinga diqqat-la razm soldi.

– Ha, tanidim sizni, janob Pin, yo'g'-e, janob Peregrin Tuk! – xitob qildi qariya, badqovoq yuzi quvnoq qiyofa kasb etib. – Ko'pdan buyon ko'rinmay qoldingiz bu yerlarda. Baxtingizga tanib qoldim sizni. Begonalarga it solishga ahd qilib chiqqan edim. Bu yerda bugun g'alati narsalar sodir bo'lyapti. To'g'ri, g'alati maxluqotlar ilgari ham o'tgan bu yerlardan. Daryo yaqin, – imo qildi u. – Ammo anavi yigit haddan ortiq g'alati ekan, shu yoshga yetib unaqasini ko'rmagan edim. Ikkinchi o'tmaydi endi u mening yerimdan, agar uni to'xtata olsam.

– Qanaqangi yigit ekan u? – so'radi Pin.

– Nahotki uchratmagan bo'lsangiz? – xayron bo'ldi fermer. – Yaqinda katta yo'ldan shu tomon burgan edi. G'ayrioddiy kiyingan bo'lib, savollari ham g'ayrioddiy edi. Balki, ichkariga kirarsizlar, nisbatan qulay vaziyatda suhbat qurarmiz? Mazali pivom bor, ichib huzur qilasiz, janob Tuk, agar siz va do'stlaringiz taklifimni rad etmasangiz, albatta.

Fermerning ichi gapga to'lib qolgan, shekilli, o'zi bilganicha so'zlab berish imkoni bo'lsa, ko'p narsalarni aytishi mumkinligi ko'rinib turibdi.

– It masalasi nima bo'ladi? – xavotir-la qiziqdi Frodo.

– Men buyurmaguncha tegmaydi sizga, – dedi qariya kulib. – Gring! Feng! Oldimga! – qichqirdi u. – Vulf! Oldimga! Nari ketgan itlar hobbitlarga e'tibor qilmay qo'yishdi.

Pin do'stlarini fermerga tanishtirdi.

– Marhamat qilib tanishing, janob Frodo Beggins! – dedi u. – Balkim, esingizda yo'qdir, lekin ilgari u Brendixoll qishlog'ida yashagan.

Beggins familiyasini eshitgan fermer seskanib tushib, Frodoga diqqat-la razm soldi. Frodoning xayoliga kelgan fikr:

hozir fermer bir zamonlar o'g'irlangan qo'ziqorinlarini eslab, yana it solishi bo'ldi. Biroq fermer it solish o'rniqga qo'l uzatdi.

– Chindan ham g'alati narsalar! – xitob qildi u. – Rostdan ham janob Begginsmisiz? Ichkariga kiring, siz bilan alohida gaplashib olishimiz kerak.

Mehmonlar oshxonaga kirib, o'choq yaqiniga joylashib o'tirishdi. Bryuk xonim katta ko'za to'la pivo keltirib, to'rta qadahga quyib chiqdi. Pivo chindan ham mazali bo'lib, «Yashil qo'noq»qa kirib chiqish imkoniyatidan mahrum bo'lgan Pin achinmadi. Sem esa pivoni shubha ila ta'tib ko'rdi. U Shir o'lka-sining boshqa burchaklarida yashaydiganlarga hamisha shubha ila qarab kelgan. Boz ustiga, hozir u sohibini ko'p yillar muqaddam bo'lsa-da, kaltaklagan kishiga nisbatan do'stona munosabat bildirishni xayoliga ham keltirmay o'tiribdi.

Bu yilgi ob-havo va ko'zlangan hosil mavzusi biroz muhokama qilingach, fermer Bryuk qo'lidagi qadahni stolga qo'yib, hammaga birma-bir razm solib chiqdi.

– Xo'sh, janob Peregrin, qayerdan kelyapsiz-u, qay tomon yo'l olyapsiz? Nahotki holimdan xabar olgani kelgan bo'lsangiz? – so'radi u. – U holda siz negadir asosiy darvozadan sezdirmay o'tdingiz.

– To'g'risini aytganda, biz boshqa tomondan, ekin dalalaringiz tomonidan keldik. Biroq bu tasodifan ro'y berdi. Chunki biz Ferriga tezroq yetib borishni ko'zlab, Vudxoll o'rmonida adashib qoldik.

– Shoshilgan bo'lsangiz, Soy orqali borishingiz kerak edi, – ta'kidlab o'tdi fermer. – Biroq meni xavotirga solgan narsa bu emas. Mening yerlarimda istaganingizcha yurishingiz mumkin, janob Peregrin. Sizga ham taalluqli bu, janob Beggins, agar ilgariqiday qo'ziqorinlarimni xush ko'rsangiz ham, – kulib boqdi qariya. – Sizni yaxshi eslayman. Yosh Frodo Beggins Baklend viloyatining uchiga chiqqan bezorisi bo'lganini ham eslayman. Hozir men qo'ziqorinlar haqida o'ylayotganim yo'q. Beggins familiyasini bu yerga kirib kelmasingizdan oldin eshitganim haqida o'ylayapman. Nima deb o'ylaysiz, anavi g'alati yigit men-

dan nimalarni soʻragan boʻlishi mumkin?

Mehmonlar xavotir-la hikoyaning davomini kutishdi.

– Xoʻsh, – davom etdi qariya, hikoyasining asosiy mazmuniga shoshilmay yaqinlashib, – u qop-qora bahaybat ot minib keldi. Ochiq darvozadan bemalol oʻtib, eshigim oldida toʻxtadi. Egnidagi kiyimi ham qop-qora. Birov uni eslab qolmasligi uchun boʻlsa kerak, boshiga ham qora qaytarma qalpogʻini tashlab olgan. «Shirda nima kerak ekan unga?» – xayoldan oʻtkazdim men. Chegara yaqinida yashar ekanmiz, novcha xalq vakillarini tez-tez koʻrib turamiz, lekin bunaqasini xali uchratmaganman.

«Xayrli kech! – soʻrashdim men unga yaqinroq borib. – Bu yoʻl mening uyimga eltadi, xolos, agar boshqa manzilni koʻzlagan boʻlsangiz, ortga qaytganingiz maʼqul» – dedim men unga. U yigit menga yoqmad: Gring ham yaqinroq borib hidlab koʻrgach, dumini ikki puti orasiga qisib, tepki yeganday angillagancha nari qochdi. Qora begona esa egarda xotirjam oʻtirganча qoldi.

«Men anavi tomondan keldim, – dedi u, gapirishi nihoyatda qiyin kechgancha, ekin maydonlarim tomon ishora qilib. – Begginsni koʻrdingizmi?» – gʻalati ohangda soʻradi u men tomon egilib. Qaytarma qalpogʻi past tushgani uchun yuzini koʻra olmadim. Etim jimirlab ketdi, lekin nima uchun bu kishi birovning dalasida bemalol yurishi mumkinligini tushunmadim.

«Keting bu yerdan! – dedim unga men. – Begginslar yoʻq bu yerda. Shirning teskari tomonida qidiraysiz siz uni. Hobbitonga borib soʻrang. Faqat bu safar toʻgʻri yoʻldan boring»

«Beggins Hobbitondan koʻchib ketibdi, – pichirlaganча javob berdi u. – Aniqlanishicha, shu tomon kelyapti. Sizning yerlaringiz orqali oʻtsa, menga xabar berasizmi? Kelasi safar oltin bilan qaytaman»

«Kerak emas menga sening oltining, – dedim men unga. – Tuyogʻingni shiqillat bu yerdan. Bir daqiqa vaqt senga. Keyin ortingdan it solaman».

Qora kiyingan kishi hushtakka oʻxshash ovoz chiqardi. Balkim, shu tariqa kulgandir, bilmadim. Shundan soʻng u otini



men tomon yo'naltirdi, bazo'r chap berishga ulgurib qoldim. Tozi itlarimni chaqirdim. U otini qaytarib darvozadan chiqdi-da, yo'ldan yashin tezligida ot choptirib ketdi. Nima deb o'ylaysiz bu borada?

Frodo o'choqda yonayotgan o'tga qaragancha o'tiribdi. Hozir uni o'yg'a toldirgan yagona fikr – Ferriga sog'-salomat yetib borish muammosidir.

– Nima deyishga ham hayronman, – dedi u nihoyat.

– Unda men aytaman, – dedi Biryuk. – Hobbiton aholisiga ilashmasligingiz kerak edi, janob Frodo. Juda g'alati hobbitlar ular.


Sem o'tirgan joyida bir tipirchilab, fermerga yovqarash qilib qo'ydi.

– Siz hamisha bemulohaza bo'lgansiz, – koyishni davom etdi qariya. – Brendizayklarni tark etib keksa janob Bilboning uyiga ko'chib o'tayotganingizni eshitgan kunim o'zingizga o'zingiz tashvish orttirib ketayotganingiz haqida indamay qo'ya qoldim. O'shanda aytgan gaplarimni eslang, bularning bari janob Bilboning g'alati ishlari tufayli bo'lyapti. Mish-mish gaplarga qaraganda u o'z boyligini yot yurtida sehr vositasida qo'lga kiritgan emish. Balkim, kimdir uning Hobbitondagi uyasiga ko'mib yashirgan oltinlari-yu, javohirlarining payiga tushgandir.

Frodo indamadi. Fermerning gapga to'n kiydirib aytgan fikri, umuman olganda, haqiqatdan yiroq ham emas.

– Lekin kech bo'lsa ham, Baklendga qaytishga farosatingiz yetganidan xursandman, – o'zinikini ma'qullagancha turib oldi qariya. – Sizga maslahatim shuki: ona yurtigingizda qolib, ajnabiylar bilan ilashib yurmang. Shu yerda ham do'st topiladi sizga. Anavi qora kiyinganlardan yana birortasi paydo bo'lsa, menga to'qnash kelishi muqarrar. Men ularga omonatingizni topshirganingiz yoki Shirmi tark etib ketganingizni aytaman, nima desangiz, shu bo'ladi. Ehtimol, ular keksa janob Bilbo haqida biron nima bilishni xohlashayotgandir.

– Balkim, chindan ham siz haqdirsiz, – dedi Frodo nigohini fermerdan yana olovga olib o'tib.



Biryuk o'yga tolgancha Frodoga qarab qoldi.

– O'ylab qo'ygan rejangiz borligini ko'rib turibman, – dedi u nihoyat. – Shunisi ayonki, siz bilan anavi Qora otliq bu yerga bir kunda kirib kelganingiz tasodif emas. Men vaysab o'tirgan gaplar siz uchun yangilik bo'lmasa ham kerak. Xayolingizga nimalar kelganini so'rab ham o'tirmayman. Balkim, Ferriga yetib borishingiz oson kechmasligi haqida o'ylayotgandirsiz?

– Ha, aynan shu haqda o'ylayotgan edim, – iqrор bo'ldi Frodo. – Lekin oson kechadimi u yerga yetib borishim, qiyami, baribir, yo'lga chiqishimiz kerak. Bu yerda xayol surib o'tirgandan foyda yo'q. Sizga katta rahmat, biz endi yo'lga chiqaylik. O'ttiz yildan buyon men sizdan va itlaringizdan qo'rqib kelgan edim, fermer Biryuk, garchi bu gap sizga kulgili eshitilsa-da. Ming afsus, bu bilan men sodiq bir do'stni yo'qotgan ekanman. Endi esa bu yerdan, to'g'risini aytsam, ketishni istamayapman. Kun o'tib bir kun qaytarman, uddalay olsam agar.

– Va quvonch-la qarshi olinasiz, – dedi Biryuk. – Lekin hozir menda bir taklif bor. Ko'p o'tmay qosh qorayadi. Bu vaqtda biz ovqatlanib, kun botgach, uyquga yotamiz. Agar siz, janob Peregrin va qolganlar kechki ovqatni biz bilan birga baham ko'rsangiz, boshimiz osmonga yetgan bo'lar edi.

– Biz ham, shubhasiz, nihoyatda mamnun bo'lar edik! – javob berdi Frodo. – Lekin, afsuski, hoziroq yo'lga chiqishimiz kerak. Shunday qilgan taqdirda ham Ferriga qorong'i tushganda yetib boramiz.

– Bir daqiqa! Keling mundaq qilaylik: kechki ovqatdan so'ng ponilarimga soyabonli aravamni qo'shib, sizlarni Ferriga eltib qo'yaman. Bu sizning vaqtingizni tejab, ortiqcha xavotirdan xalos etadi.

Pin bilan Semni quvontirgan Frodo ushbu taklifga mamnuniyat-la rozi bo'ldi. Kun botib, g'arb tepaliklarida qorong'i tushdi. Biryukning ikki nafar o'g'li bilan uch nafar qizi ichkaridan chiqib o'lchami o'rtacha xontaxtaga boy dasturxon tuzashdi. O'choqqa o'tin tashlab, oshxona fonuslarini yoqishdi. Biryuk

xonimning qo‘l-oyog‘i tinmadi. Fermada ishlayotgan bir necha nafar hobbitlar ham dasturxon atrofiga joylashishdi. Ko‘p o‘tmay xontaxta atrofiga yig‘ilganlarning bari ovqatlanishga kirishdi. Pivo yetarlicha ko‘p uzatildi, qo‘ziqorinli, go‘shtli taomlar berildi. Itlar o‘choq yonida cho‘zilgancha, dasturxondan ortgan suyak va paylarni g‘ajib yotishdi.

Hamma ovqatlanib bo‘lgach, hovliga fonus ushlab chiqqan fermer o‘z o‘g‘illari bilan ponilarga soyabonli arava qo‘shishdi. Tun ancha qalinlashibdi. Mehmonlar safar qoplarini olib, aravaga chiqishdi. Fermer izvoshchining kursisiga o‘tirib, bir juft baquvvat poniga qamchi soldi.

– Ehtiyot bo‘l, Biryuk, – tayinladi fermerning ostonada qo‘l siltab qolgan xotini. – Ajnabiylar bilan aytishib yurmay, tez uyga qavt


ko‘p, – javob berdi fermer, ponilarning boshini darvoza tomon surib.

Qilt etgan shabada yo‘q: sokin tunning sovug‘i sezildi. Arava fonusi yoqilmagani bois harakat sust kechmoqda. Bir-ikki milyadan keyin nihoyasiga yetgan tuproq yo‘l daraga sho‘ng‘idi, pastak tepalikka ko‘tarildi va o‘sha yerda tosh yotqizilgan katta yo‘l bilan tutashdi. Aravadan tushgan Biryuk yo‘lga diqqat-la razm soldi-yu, ko‘zi hech nimani ilg‘amadi. Daryodan ko‘tarilayotgan tuman pag‘alari daradan ko‘tarilib, dala tomon suzmoqda.

– Tuman qalinlashyapti, – ma‘lum qildi Biryuk. – Lekin aravamni ortga buragunimcha fonus yoqmayman. Yo‘lda birov paydo bo‘lsa, eshitamiz.

Biryukning fermasi bilan Ferri orasidagi masofa besh milya chiqadi. Plashga o‘ranib olishgan hobbitlar tevarak-atrofga diqqat-la quloq tutib borishmoqda. G‘ildirakning g‘achir-g‘uchiri bilan tuyoqning dukur-dukuridan boshqa tovush eshitilmadi. Frodoning nazarida, ot-arava shilliqqurtdan ham sekin yurganday tuyulyapti. Uning yonida o‘tirgan Pin pinakka ketyapti. Hammaning nigohi qalinlashib borayotgan tumanda.

Yo‘lovchilarimiz nihoyat Ferriga yetib borishdi. O‘ng tomondagi oqqa bo‘yalgan ikkita baland ustun paromga kirish



joyini ko'rsatmoqda. Soyabonli ot arava g'ajirlagancha to'xtadi. Yo'lovchilar aravadan tushish harakatini boshlashgan edi hamki, yo'l davomida eshitib qolishdan qo'rqib kelishgan tovush yangradi: oldinda ot tuyog'ining taqir-tuquri eshitildi. Aftidan, begona ot hobbitlarga yaqinlashmoqda. Izvoshchining o'rindig'idan sakrab tushgan Biryuk ponilarining yonida turib, oldinga sinchiklab qaradi. Taq-tuq, taq-tuq... Otliq kishi yaqinlashib kelmoqda. Tuyoq tovushi harakatsiz tumanli havoda tobora baland eshitilmoqda.

– Bekinib olganingiz ma'qul, janob Frodo, – xavotir-la taklif qildi Sem. – Aravada qolib, adyolga o'ranib oling. Biz esa anavi otliqni tegishli joyga jo'natib yuboramiz.

Aravadan tushgan Sem fermerning yoniga borib turdi. Qora otliq aravaga yetishidan oldin ikkalasining yonidan o'tishi kerak bo'ladi.

Taq-tuq, taq-tuq... Otliq kishi yanada yaqin keldi.

– Hoy, siz! – ovoz ko'tardi Bryuk.

Tuyoq tovushi to'xtadi. Otliq kishi plashga o'ranib olganday ko'rindi.

– Hoy, siz! – takrorladi Bryuk, jilovni Semga tutqizar ekan, oldinga odimlab. – Yaqinlashmang! Sizga nima kerak o'zi? Qayoqqa yo'l olgansiz?

– Menga janob Beggins kerak, ko'rmadingizmi uni? – so'radi bo'g'iq eshitilgan ovoz.

Merri Brendizaykning ovozi-yu! Fonus yonib, shulasi fermerning hayratlangan yuzini yoritdi.


– Janob Meriadok?! – xitob qildi qariya.

– Men, albatta! Siz kimni kutgan edingiz? – so'radi Merri yaqinroq kelib.

Hobbitlarning qo'rquvi barham topgach, tumandan chiqqan Merrining bo'y-basti oddiy hobbitning o'lchamigacha kichrayganday tuyuldi. Bo'yni va iyagini sharf bilan o'rab olgan Merri poni egarlab kelibdi.

Frodo aravadan sakrab tushdi.

– Mana nihoyat! – xitob qildi Merri. – Bugun ham ke-



lishmasa kerak, degan xayolga borib, kechki ovqat haqida o'ylab qolgan edim. Tuman ko'tarilgach Soylikka borib, biror-bir xandaqqa qulab tushmaganingizga ishonch hosil qilmoqchi bo'ldim. Lekin bu tomondan paydo bo'lib kelishingizni o'lay agar, kutmagan edim. Qayerdan topib oldingiz ularni, janob Biryuk? Tovuqxonangizdanmi?

– Yo'q, sholg'om o'g'irlashayotgan ekan, – javob berdi fermer. – It solishimga sal qoldi. Bo'lgan gapni o'zlari aytib berishar. Endi ma'zur tuting, janob Merri, janob Frodo va qolganlar, men boray, Bryuk xonim uxlamay, xavotir olib o'tiradi. Hammangizga xayrli tun! – dedi u ot aravasini ortga burib. – Kunimiz yaxshi o'tdi, xatolardan xalos bo'lmasa-da. Hodisalar yaxshilik-la poyoniga yetsa, yaxshi-da. Garchi bu gapni uyga eson-omon yetib olgandan so'ng aytgan ma'qul bo'lsa-da.

Fermer arava fonusini yoqib, izvoshchining o'rniga irg'ib chiqqach, o'rindiqlik ostidan katta savat chiqardi.

– Yodimdan ko'tarilib, qaytarib ketishimga sal qolibdiya. Bryuk xonim janobr Begginsga ezgu tilaklar-la mana buni berib yuborgan edi...

Savatni ushlatgan fermer ot qamchilab, minnatdorlik va xayrli tun tilaklari ostida yo'lga chiqdi.

Hobbitlar tuman qa'riga kirgancha xiralashib borayotgan arava chiroqlariga qarab turishdi. Kutilmaganda Frodo xandon otib yubordi: qo'lidagi qopqog'i ochilgan savatdan qo'ziqorin hidi gupilladi.

## FOSH BO'LGAN FITNA

– Biz ham uyga boraylik endi, – dedi Merri. – Qiziq bir gap bor-u, uni uyga borib aytsa ham bo'laveradi.

Hobbitlar Ferri qishlog'i tomon yo'l olishdi. Sifatli yotqizilgan to'g'ri yo'lning ikki chetiga yuz yilcha muqaddam daryoning olisdagi yog'och bandargohidan keltirilgan yirik oq toshlar terilgan. Yo'ldan qayiq bog'lash joyi ham, unda turgan kattagina yassi parom ham ko'rinmoqda. Suv chetidagi oq rangli kema bog'lash ustunlari baland tepaliklarda yonayotgan bir juft fonus yorug'ida yarqiramoqda. To'q qoramtir suv yuzasida bir nechta tuman pag'alari havoda muallaq osifib qolibdi. Narigi sohilda tuman deyarli yo'q.

Merri ponini taxta zina bo'ylab yetaklab paromga tortdi. Qolganlar ham uning ortidan ergashdi. Uzun xodani qo'liga olgan Merri paromni sohildan turtgach, sol narigi qirg'oq tomon harakat boshladi. Brendivayn daryosi parom ostida sokin oqmoqda. Narigi qirg'oq tik bo'lib, unda ilang-bilang so'qmoq ko'tarilgan. Sohilda yonayotgan fonuslar ortida Bag-xoll tepaligi ko'rinmoqda. Tuman orasida ushbu tepalikning, ya'ni Brendizayklar sulolasiga qarashli qadimiy qishloqning ko'plab derazalari sariq va qizg'ish tusda yarqiramoqda.

Ko'p yillar muqaddam Marishning, umuman olganda Shir o'lkasining qadimiy oilalaridan biri - Pobegayklar sulolasining oqsoqoli Grexendad Pobegayk hobbitlar yurtining sharqidagi tabiiy chegara vazifasini o'tagan Brendivayn daryosining narigi qirg'og'iga suzib o'tib, sohilga yaqin tepaliklardan birida uya qazidi va bu bilan bugungi Brendixoll qishlog'iga asos soldi. O'ziga Brendizayk familiyasini olgan o'sha hobbit shu yerga ko'chib o'tgach, kam sonli muxtor jamiyat sohibiga aylandi. Yillar o'tib, Brendixoll qishlog'i quyi tepalikni batamom egalladi, unda uchta kattagina kirish eshigi, yuzlab katta-kichik derazalar ochildi va shu tariqa Brendizayklar sulolasiga mansub

oilalar soni oshib boraverdi. Keyinchalik Brendizayklar va ularning ko'p sonli avlodlari atrofdagi tepaliklarga tarqab uya qazigancha, Bredivayn daryosi bilan Qadimiy o'rmon orasida aholisi zich yashaydigan Baklendga – Shirning o'ziga xos muxtor viloyatiga asos solishdi. Brendixoll tepaligi qiyaligida joylashgan Baklberi qishlog'i esa bu yerda bosh qishlog'iga aylandi.

Marish aholisi bilan Baklend viloyatining hobbitlari o'rtasida do'stona munosabatlar bugungi kungacha saqlanib, Xoll sohibining (Brendizayklar sulolasining rahnamosi shunday deb ataladi) hokimligi Stok va Remey fermerlari orasida tan olingan. Garchi baklendliklar Shirning qolgan to'rtta viloyatida yashaydigan hobbitlardan umuman farq qilishmasa-da, eski Shir aholisining aksariyati ularni g'alati, yarim ajnabiy xalq deb biladi. Adolat yuzasidan aytmoq joizki, haqiqatan ham, baklendliklarning qolganlardan farq qiladigan istisno tariqasidagi bir jihati bor, albatta: ular qayiqda suzishni, ko'pchiligi esa daryoning iliq suvida cho'milishni yoqtiradi.

Dastlabki yillarda Baklend hududi sharq tomondan himoyasiz qolgan. Keyinchalik qalin o'sadigan buta ekilib, ko'p avlodlar parvarishi ila zich o'sgan baland buta-devor hosil bo'lgan. Bredivayni ko'prigidan boshlanib, katta hududni qamrab olgan halqa hosil qilgancha daryodan nari ketgan. O'rmondan oqib chiqadigan Vidivayl soyi Bredivaynga quyiladigan joydagi Xeysend qishlog'ida yana daryo bilan tutashadigan ushbu qalin buta-devorning uzunligi qariyb yigirma milyacha keladi. Turgan gapki, devor mutlaq himoya bo'la olmaydi. Ushbu buta-devorning ko'p joylariga Qadimiy o'rmon bevosita taqalgan. Shirning qolgan viloyatlarida yashaydigan hobbitlardan farqli o'laroq baklendliklar tungi vaqtda eshik-derazalarini mahkam tambalab yotishadi.

Parom suv betida asta suzib, Baklend sohiliga yaqinlashmoqda. Yo'lovchilarimiz orasida faqat Semgina umrida daryo kechmagan. Hozir u butun vujudi ila shoshmay shildirayotgan daryo-yu, suv yuzasida suzayotgan mana bu tuman pag'alari uning o'tgan hayotini oqizib ketayotgani, oldinda majhullik kuta-

yotganini his etmoqda. Boshini bir siltab olgan Sem xayoliga kelgan fikr, ya'ni janob Frodo hech qayoqqa ketmay, Beg-Endda yashashni davom etishini istashi bilan bog'liq o'yni miyadan chiqarib yuborgan bo'ldi.

To'rala hobbit paromdan qirg'oqqa tushgach, Merri solni ustunga bog'ladi, Pin esa uning ponisini so'qmoqqa tortdi, Shir bilan xayrlashish uchun ortga qaragan Sem kutilmaganda xirillab pichirladi:

– Anavini qarang, janob Frodo!... Ko'rdingizmi?

Fonus yoritayotgan narigi sohilda allaqanday sharpa qirg'oqqa og'ib qolgan katta qora tugunday ko'rindi. Hobbitlar unga tikilib turishdi. Sharpa yerdan biroz ko'tarilib, g'alati harakatlanganicha qirg'oq bo'ylab emakladi. Birozdan so'ng yana yerga qapishib, qorong'ilikda ko'rinmay qoldi.

– Nimaning sharpasi u? – so'radi Merri.

– Safar davomida ortimizdan allaqanday qabohat ergashib keldi, – javob berdi Frodo. – Savol-javobni bas qilib, tezroq ketaylik bu yerdan.

To'rtovlon tik ko'tarilgan so'qmoqdan yurganicha sohilga chiqib, yuqoriga yetgach yana ortga o'girilib qarar ekan, tuman qalinlashgan narigi qirg'oqda hech nimani ko'rmadi.

– Yaxshiyamki, g'arbiy qirg'oqda qayiq saqlanmas ekan, – dedi Frodo.

– Ot daryodan o'ta oladimi? – so'radi Sem.

– Shimol yo'nalishida yursa, yigirma milya narida ko'prik bor yoki shu yerning o'zida suv kechib o'tishi mumkin, – javob berdi Merri. – Lekin hali birorta ot Brendivaynni suzib o'tganini eshitmaganman. Tushunmadim, otning nima daxli bor bu yerda?

– Keyin aytib beramiz, – dedi Frodo. – Ketdik bu yerdan, uyga borib, bemalol gaplashib o'tiramiz.

– Yaxshi! Pin ikkalangiz yo'lni bilasiz. Men ponida tezroq boray. Fredegar Boljerga sizlar kelayotganingizni aytib, ikkalamiz kechki ovqat tayyorlashga kirishamiz.

– Biz yaqinda fermer Bryukning uyida ovqatlandik, –



dedi Frodo. – Lekin yana ovqatlanishimiz mumkin.

– Juda soz. Unday bo'lsa savatingni ber, – qo'l uzatdi Merri.


Olg'a ildamlagan Merri birozdan so'ng qorong'ida ko'rinmay qoldi.

Brendivayndan Frodoning Krikselloudagi yangi uyigacha ma'lum bir masofa bor. Hobbitlar Bakxill bilan Brendixoll qishloqlarini chap qo'lda qoldirib, Baklberi qishlog'ining oxiriga yetganda Baklend viloyatining ko'prikdan janub tomon ketgan asosiy yo'lini kesib o'tishdi. Yarim milya yurishgach, o'ng tomon ketgan tuproq yo'l ko'rindi. Hobbitlar ushbu yo'ldan dam tepalikka chiqib, dam uvaga tushgancha yana bir necha milya yo'l yurishdi.

Nihoyat uchovlon qalin o'sgan buta devorda ochilgan ensiz bog' eshigiga yetdi. Tevarak-atrof qorong'i bo'lgani uchun yo'ldan narida, keng yaylov markazida, buta-devor ortidagi daraxtzor o'rtasida qad ko'targan bir qavatli uy ko'rinmayapti. Frodo ushbu uyni katta yo'ldan uzoqroqda joylashgani, yaqin o'rtada boshqa uy bo'lmagani uchun tanlagan. Bu yerda birovga bildirmay kelib-ketib yurish mumkin. Ushbu uy bir zamonlar Brendizayk tomonidan mehmonlar yoki Brendixolning tiqilinchidan biroz dam olmoqchi bo'lgan oila a'zolari uchun qurilgan. Qishloq sharoitida eskicha loyiha asosida qurilgan bir qavatli, uzun, pastqam, tomiga chim bosilgan, eshik va derazalari yumaloq ushbu uy hobbitlarning tepalik qiyaligida qaziladigan yerosti uyasidan ko'p farq qilmaydi.

Bog' eshigidan o'tib, yashil so'qmoqqa o'tgan hobbitlar birorta bo'lsin yongan chiroq ko'rishmadi: uy qop-qorong'i. Frodo taqillatgan eshikni Fredegar Boljer ochdi. Ichkarida chiroqning yoqimli shu'lasini ko'rindi. Hobbitlar tez ostona hatlab, eshikni ichkaridan yopishdi. Sayyohlarimiz yaxshi yoritilgan, ichkariga kirib ketgan uzun yo'lakning ikki tomonida qator eshiklar ochilgan keng dahlizga kirib qolishdi.

– Xo'sh, nima dedingiz? – so'radi ichkaridan chiqib kelgan Merri. – Fredegar ikkalamiz o'tgan kuni kelganimizga



qaramay, mana bu kulbani uyga o'xshatish uchun qo'ldan kelgancha harakat qildik.

Frodo atrofga nazar solib chiqdi. Chindan ham uyga o'xshabdi. O'zi va Bilbo yoqtirgan ko'p narsalar Beg-Endda qanday joylashgan bo'lsa, imkon qadar shunday joylashtirilgan. Bu uy juda shinam, har tomonlama qulay, pishiq maskan ekan. Frodo chindan ham shu yerda qolib, odamlardan uzoqda yolg'iz o'zi yashashni ich-ichdan istadi. Do'stlarini anavi tashvishlarga aralashtirishni xohlamadi. Hozir ularga Shirni zudlik bilan tark etib ketishi kerakligini qanday aytishni bilmay, boshi qotgan. U shu bugunoq, do'stlari uyquga yotishini kutnay uydan chiqib ketishi kerak.

– Ajoyib! – bazo'r ayta oldi u. – Hech qayoqqa ko'chib o'tmagandayman go'yo.

Sayyohlar safar tayoqlarini ostona yaqiniga suyashdi, egnidagi plashlarini yechib, devordagi ilgaklarga osishdi. Merri hammani ortidan ergashtirib, yo'lakning narigi boshidagi eshiklardan birini ochdi. U yerdan o'choq shulasi bilan bug' chiqdi.

– Hammom! – xitob qildi Pin. – O, Xudoning marhamatiga sazovor bo'lgur Meriadok!

– Yuvinish navbati qanday bo'ladi? – so'radi Frodo. – Yoshi kattalar kirib chiqishadimi oldin, yo abjirlar? Nima bo'lgan taqdirda ham, oxirgi bo'lib siz kirasiz, janob Peregrin.

– Hammasini tashkillashtirib bo'lganman, – dedi Merri. – Kelinglar, Krixxelloudagi hayotimizni yuvinish uchun navbat talashib janjallashdan boshlamaylik. Ichkarida sovun-sochiqlar yetarlicha bor. Kiringlar, tezroq bo'linglar.

Merri bilan Fredegar yo'lakning narigi boshida joylashgan oshxona tomon yo'l olib, kechki ovqat tayyorlashga kirishib ketishdi. Kutilmaganda Pin Bilboning hammomda aytishni yoqtiradigan qo'shiqlaridan birini ovozi boricha cho'zib qoldi:

*Aytgin qo'shiq, hoy hobbit! Issiq suvga kir, yasha!  
Safar kiri, tashvishini tanangdan yuvib tashla!*



*Tashi isqirt, ichi irqit issiq suvni yoqtirmas,  
Sen unday emas, sen hobbitsan, badaningni ishqala!*

*Yomg'ir yog'ib, qatralari bir ajib kuy chaladir,  
Tog' bag'rida oqqan buloq suvi rosa mazadir!*

*Issiq suvdan chiqqan bug' vujudingni yondirar,  
Yuvin hobbit hammomda sen, g'uborlaring chiqadir!*

*Favvoraning ustunlari osmonni qaynoq o'par,  
Suluv qizning qomatiday bir chiroyli ko'rinar,*

*Lek hammomning bo'sasi issiqdir misoli bug'.*  
*Yuvin hobbit, xushbo'y suvda vujuding kuchga to'lar!*

Suvning shapillashi bilan Frodoning «voy-voy»lab baqirgani eshitildi. Hammom eshigini taqillatgan Merri yuvina-yotganlardan so'radi:

– Kechki ovqat bilan muzday pivoga nima deysiz?

Hammomdan birinchi bo'lib boshini artayotgan Frodo chiqib keldi.

– Bu yerning havosi shu qadar namki, boshimni oshxonada quritganim ma'qul, – dedi u.

– Yo'g'-e! – hayron bo'ldi Merri ichkariga bosh suqib.

Tosh to'shalgan polni suv bosibdi.

– Dasturxon tuzagunimizcha hammomni tozalab, tartibga keltir, Peregrin, – dedi u. – Tezlash, uzoq kutib o'tirmaymiz seni.

Birozdan so'ng hamma oshxona o'chog'iga yaqin o'rnatilgan stol atrofida yig'ildi.

– Qo'ziqorin yemasalaring kerak, degan umiddaman, – so'radi Frodo umidsiz ohangda.

– Yeymiz, albatta, – ovoz ko'tardi Pin.

– Bu mening qo'ziqorinlarim! Fermerlarning xotinlari orasida qirolicha sanaladigan Biryuk xonim hadya qilgan, – dedi Frodo. – Ochko'z qo'lingizni torting, o'zim pishiraman ularni.

Har qanday hobbit qo'ziqorinni biz, ya'ni novcha xalq-

dan ham yaxshi ko'radi. Bu holat yosh Frodoning mashhur Marish dalalariga buyurgan uzoq tashriflari-yu, izzati-nafsi olingan Biryukning g'azabini oydinlashtiradi. Fermer ayol berib yuborgan mana bu qo'ziqorin hammaga to'yguncha yetadi. Ovqat mo'l bo'ldi, hatto to'yishi oson kechmaydigan Fredegar Boljer ham mamnuniyat-la kekirib qo'ydi. Ovqatlanib bo'lgach stol nari surilib, kursilar o'choq oldiga terildi.

– Idish-tovoqni ertaga yuvamiz, – dedi Merri. – Endi menga bor gapni oqizmay-tomizmay aytib beringlar. Aftidan, allaqanday sarguzashtlar o'tgan ko'rinadi boshingizdan. To'liq hisobot berishingizni istayman: hammasidan ham qariya Biryukning bu ishlarga nima daxli borligini, nega u men bilan g'alati ohangda gaplashganini bilmoqchiman. U, garchi ishonish qiyin bo'lsa-da, nimadandir qattiq qo'rqqan ko'rinadi.

– Faqat ugina emas, hammamiz qo'rqdik, – javob berdi Pin biroz cho'zilgan sukunatni buzib. – Frodo gapirishni istamas ekan, o'zim aytib beraman hammasini, – dedi u, o'chog'dagi olovga tikilganicha indamay o'tirgan Frodoga ko'z qiri ila qarab qo'yib. – Sen ham qo'rqib ketgan bo'lar eding, agar seni Qora o'tliq ikki kun ta'qib qilib kelsa.

– Kim ekan u? – so'radi Meriadok.

– Qora ot mingan qora sharpalar, – javob berdi Pin va Hobbitonni tark etib chiqishgan fursatdan boshlangan sarguzashtni batafsil so'zlab, tavsiflab berdi.

Sem hikoya mazmunini o'tirgan joyida bosh irg'ib, nido chiqarib tasdiqlab bordi. Frodo esa ovoz chiqarmay o'tirishni davom etdi.

– Agar bandargohda anavi sharpani o'z ko'zim bilan ko'rmaganimda, kekxa Biryukning ovozida g'ayrioddiy ohang eshitmaganimda bularning barini to'qib chiqargansiz, degan xayolga borgan bo'lar edim, – xulosa qildi Merri. – Xo'sh, Frodo, sen nima deysan?

– Amakivachchamiz Frodo ichini birovga yorgisi kelmay yuribdi, – chaqib o'tdi Pin. – Lekin bor gapni aytadigan vaqt bo'ldi. Hozircha bizda qariya Biryukning taxmini bor, xolos.

Uning fikricha, bularning bari Bilboning xazinasi bilan bog'liq emish.

- Bu uning taxminidan o'zga narsa emas, - javob berdi Frodo hovliqib. - Qariya Bryuk hech nimani bilmaydi.

- Kulcha yuzli qariya Bryuk ancha ziyrak hobbit, - dedi Merri. - U ko'p narsalarni biladi-yu, suhbatda sir boy bermaydi. Bir zamonlar Qadimgi o'rmonga kirib-chiqib yurgani-yu, ko'plab eski gaplardan boxabar ekanini bilaman. Uning taxmini haqiqatga qanchalik yaqin ekanligini aytishing mumkin-u bizga, Frodo?

- Mavriddi yetdi, - pichirladi Pin, Merriga.

Merri bosh irg'ib qo'ydi.

- Nima ham der edim, - dedi nihoyat Frodo, uzil-kesil qaror qabul qilgan kishiday o'tirgan joyida qaddini rostlab. - Ichimda ortiq ushlab tura olmayman. Sizlarga aytar gapim bor, ammo nimadan boshlashni bilmay o'tiribman.

- Bu masalada yordamlashib yuborishim mumkin, - dedi Merri xotirjam ohangda.

- Nimani nazarda tutyapsan? - so'radi Frodo, Merriga xavotir-la qarab.

- Biz bilan nima deb xayrlashib chiqib ketishni bilmay boshing qotayotganidan baxtsiz qiyofa yasab o'tiribsan, qadrdonim Frodo. Sen Shirni tark etmoqchisan, ammo xavf tez quvib yetayotgani bois zudlik bilan yo'lga chiqishing kerak bo'lib qoldi. Sen buni istamaysan, albatta. Biz senga chin yurakdan achinamiz.

Frodo og'zini ochdi-yu, yana yopti. Yuzidagi hayrat qiyofasi shu qadar kulgili chiqdiki, hamma xandon otib yubordi.

- Qadrdonim Frodo! - dedi Pin. - Bizni laqillata olganingga o'zing ishonasanmi? Yoshing anchaga borib qolgan bo'lishiga qaramay, bizni laqillatish masalasida aqling ham, tajribang ham yetishmaydi. Aprel oyidan buyon kuzatilayotgan xulq-atvoring Shirni tark etishga ahd qilganingdan dalolat berib bordi. Yurgan yo'lingda: «Bu vodiyni yana ko'rish nasib qilarmikan?!»

kabi oh-voh qilayotganingni eshitib yuribmiz. Puling tugab,

qadrdon Beg-Endni anavi Sakvil-Begginslarga sotib yuborganing-chi? Gendalf bilan o'tgan sirli uchrashuvlaring-chi?


- O, karami keng falak! - xitob qildi Frodo. - O'zimni ehtiyotli deb bilgan edim. Bularning bariga Gendalf nima deydi, bilmadim. Nahotki butun Shir muhokama qilayotgan bo'lsa ketayotganimni?

- Yo'q, bu masalada xotirjam bo'laver, - dedi Merri. - Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi, albatta, biroq bu gaplarni biz bilamiz, xolos. Yodingda bo'lsin, biz sen bilan ko'pdan buyon do'stmiz, ko'p vaqtimizni sen bilan o'tkazganmiz, aytmochimanki, seni yaxshi bilamiz. Bilboni ham yaxshi bilar edim va to'g'risini aytaman, Bilbo ketgandan buyon seni diqqat-la kuzatib kelmoqdaman. Ertami, kechmi, uning izidan ketishingni bilar edim. Faqat bu ishni Bilbo kabi hech kimga bildirmay qilishingdan xavfsirar edik, xolos. O'tgan bahordan buyon seni diqqat bilan kuzatib kelyapmiz. Bizni laqillatib ketishing oson kechmaydi, birodar!

- Qanday qilib bo'lmasin, zudlik bilan ketishim kerak, - dedi Frodo. - Va sizlar menga hech qanday yordam bera olmaysizlar, do'stlarim. Qayg'uli holat, albatta, lekin ketishimga to'sqinlik qila olmaysizlar. Modomiki, ko'p gaplardan boxabar ekansiz, meni ushlab qolishga urinmay, aksincha, yo'lga chiqishimga yordamlashib yuboring.

- Hech narsani tushunmabsan, do'stim! - dedi Pin. - Sen ketishing kerak, biz esa sen bilan borishimiz kerak. Merri ikkalamiz sen bilan birga yo'lga chiqamiz. Sem zo'r yigit, albatta. Agar o'ng oyog'i chap oyog'iga qoqinib ketmasa, seni qutqarish yo'lida ajdarning bo'g'ziga sakrashga ham tayyor u, lekin bunday xavfli safarda bitta do'st senga kamlik qiladi.

- Mening qadrdon, suyuqli hobbitlarim! - dedi qattiq ta'sirlangan Frodo. Men bunga yo'l qo'ya olmayman. Shirdan ketishga ahd qilganimga ko'p bo'lgan. Xavf-xatar haqida gapiryapsiz-u, lekin qanday xavf kutayotganini aslida tasavvur ham qila olmaysiz. Bu xazina izlab topish maqsadida uyushtirilgan yurish emas, borib qaytish sarguzashti ham emas. Men halokat



keltiradigan xavfdan qochib, undan-da battar xavf sari yo‘l olyapman.

– Biz hammasini tushunib turibmiz, – dedi Merri qat’iy ohangda. – Shuning uchun ham senga hamroh bo‘lishga ahd qildik. Uzuk masalasi ham yechimi yengil masalalardan emasligini ham bilamiz. Biroq biz senga dushmanga qarshi kurashda qo‘limizdan kelgancha yordam berishga ahd qilganmiz.

– Uzuk masalasi?! – cheksiz hayrat-la baqraydi Frodo.

– Ha, Uzuk masalasi, – dedi Merri. – Qadrdonim hobbit, do‘stlaring qanchalik ziyrak ekanini tasavvur ham qila olmaysan. Bilbo Shirni tark etmasidan ancha oldin uning sehrli Uzugi borligini bilib bo‘lganman. Modomiki, u o‘sha buyumini hammadan sir tutgan ekan, men ham maxfiy uyushmamiz shakllanguncha tilimni tiyib, indamay yuraverdim. To‘g‘ri. Bilboni seni bilgan-day yaxshi bilmas edim, albatta. O‘shanda men juda yosh edim, u esa senga nisbatan ancha ehtiyotli bo‘lgan. Lekin ehtiyotsizlikka yo‘l o‘ygan holatlar ham bo‘lgan. Agar Bilboning sehrli Uzugi borligini qanday qilib fahmlaganimni bilishni istasang, aytib berishim mumkin.

– Ayt, – dedi batamom bo‘shashib qolgan Frodo.

– Bunga, tabiiyki. Sakvil-Begginslar sababchi bo‘lgan. Kunlardan bir kun (Bilbo uyushtirgan katta ziyofatdan bir yilcha oldin) yo‘lda ketar ekanman, mendan ancha oldinda borayotgan Bilboni ko‘rib qoldim. Kutilmaganda bizga qarshi yo‘nalishda kelayotgan er-xotin Sakvil-Begginslar paydo bo‘lishdi. Bilbo taqqa to‘xtadi-da, birdan gum bo‘ldi-qoldi! Men shu qadar lol qoldimki, oddiy usulda bo‘lsa ham bekinishim kerakligini ba‘zo‘r fahmlashga ulgurdim. Buta-devordan sakrab o‘tib, yo‘l yonidan dala tepalab ketdim. Buta-devor uzra yo‘lga qarab bordim. Anavi Sakvil-Begginslar o‘tib ketishgach, Bilbo yana tekis yo‘lda o‘zidan o‘zi paydo bo‘ldi. Kissasiga nimanidir solar ekan, tilla buyumning yalt etganini ilg‘ab qoldim.

O‘sha kundan buyon Bilboni diqqat-la kuzatib bordim. To‘g‘risini aytaman, josuslik qildim. Hali yigirma yoshga yetmagan menday hobbit uchun o‘ta qiziq topishmoq edi-yu, bu,

axir! Nazarimda, Frododan tashqari, qariya Bilboning sirli kitobini ko'rgan yolg'iz o'zim bo'lsam kerak.

– Uning kitobini ham o'qib chiqqanmisan?! – hayrat-la xitob qildi Frodo. – Falakning o'zi rahm qilsin bizni! Nahotki bu yorug' olamda birorta sir maxfiy bo'lgan qolmasa?!

– O'ta maxfiy narsaning o'zi bo'lmaydi degan bo'lar edim men, – fikr bildirib o'tdi Merri. – Men uning Alvon kitobiga ko'z yugurtirib chiqishga ulgurdim, xolos. Shuni ham bazo'r uddaladim. Kitobini hech qachon ochiq joyda tashlab ketmas edi. Qiziq, o'sha kitob qayerda ekan hozir, a? Yana bir bor ko'z yugurtirib chiqar edim unga. Senda emasmi, mabodo, Frodo?

– Yo'q, Beg-Enddan chiqmadi, o'zi bilan olib ketgan ko'rinadi, – dedi Frodo.


– Shunday qilib, yuqorida aytganimday, bilgan narsalarimni birovga aytmay yuraverdim, – davom etdi Merri. – Ammo o'tgan bahorda vaziyat jiddiy tus olib, maxfiy uyushma tuzishimizga to'g'ri keldi. Nozik tabiatlik qilib o'tirmadik. Sen epga solib bo'lmaydigan hobbit bo'lib chiqding, Gendalf esa sendan o'tib tushdi. Agar bosh izquvarimiz kimligini bilishni istasang, uni senga tanishtirib o'tishim mumkin.

– Kim ekan u? – atrofga alangladi Frodo, ko'zalarning birortasidan yuziga niqob taqqan yovuz kishi otilib chiqishini kutib.

– Bir qadam oldinga chiq, Sem! – buyurdi Merri va qulog'igacha qizarib ketgan hobbitning yoniga borib turdi. – Mana bizning ma'lumot yig'uvchimiz. Aytishim joizki, Gendalf ikkalangiz uni qo'lga tushirgunizcha anchagina ma'lumot yig'ishga ulgurib qoldi.

– Sem! – xitob qildi Frodo, na hayron bo'lish, na ach-chiqqanish, na yengil tortish va na ahmoqligidan laqqa tushganini tan olishni bilmay.

– Ma'zur tuting, ser! – dedi Sem. – Lekin men sizga ham, janob Frodo, janob Gendalfga ham ziyon yetkazish niyatida bo'lmaganman. Ishontirib aytamanki, sehgarning fikri sog'lom, ser. Safarga yolg'iz o'zingiz chiqish istagini bildirganingizda janob





Gendalf qarshi chiqdi, ishonch bildirsa bo'ladigan kishini o'zingizga hamroh qilib olishingiz kerakligini tayinladi.

– Endi esa birovga ishonch bildirmaydigan bo'ldim, – dedi Frodo.

Sem baxtsiz qiyofa ila Frodoga baqrayib qoldi.


– Birovga ishonch bildirish, avvalambor, o'sha birovdan nima istashingga bog'liq, Frodo, – hikmat qilgan bo'ldi Merri. – Sen yaxshi kuningda ham, yomon kuningda ham bizga ishonishing mumkin. Kunimiz bitguncha senga sodiq qolamiz. Har qanday siringni bizga ishonishing mumkin. Biz uni sendan ham yaxshi saqlay bilamiz. Unutma, biz senga dushman emas, do'stmiz, Frodo. Gendalf senga aytgan gaplarning ko'pini bilamiz. Uzuk haqidagi gaplardan ham xabarimiz bor. To'g'risini aytganda biz o'larcha qo'rquyapmiz, lekin shunga qaramay sen bilan ketishga tayyormiz.

– Nima qilgan taqdirda ham, ser, elflarning nasihatiga quloq tutmoq lozim, – qo'shimcha qildi Sem. – Gildor sizga o'z ixtiyori ila hamroh bo'lishni istaganlar bilan safarga chiqishni maslahat berdi. Buni rad eta olmaysiz.

– Yo'q, rad etayotganim yo'q, – dedi Frodo endi tirjayib qarayotgan Semga diqqat-la razm solib. – Biroq bundan buyon qattiq xurрак otayotgan bo'lsang ham uxlayotganingga bovar qilmayman. Aniq ishonch hosil qilish uchun yaxshilab kelishtirib tepaman. Sizlar esa, – dedi u, qolganlarga murojaat qilib, – g'irt fitnachi ekansiz! Jin ursin hammangizni! – qo'l siltaganча kulib yubordi Frodo. – Yengildim, Gildorning maslahatiga amal qilganim bo'lsin mayli. Agar bizni kutayotgan xatarlar unchalik xavfli bo'lmaganda, hozir quvonchdan raqsга tushar edim. Shunga qaramay o'zimni baxtiyor deb bilmoqdaman: ko'pdan buyon bunday quvonmagan edim. Ushbu oqshomdan qanchalik qo'rq-qanimni bilsangiz edi.

– Juda soz, masala hal! Yashasin sardorimiz Frodo va uning jamoasi! – baqirdi Merri.

Qolganlar ham Frodoning atrofida raqs tushganча ushbu qutlovni baland ovozda takrorlashdi. Merri bilan Pin shu kun



uchun tayyorlab qo'yilgan qo'shiqni cho'zib qolishdi. Qo'shiq bir zamonlar Bilboning sarguzashti boshlangan gnomlar qo'shig'iga taqlid qilingan bo'lib, mavzusi ham o'zgarmas qolgan.

*Qo'shiq aytar uchovlon,  
Xayr o'choq, xayr uya,  
Kutar bizni Dorilomon  
Rivendell vodiysida.*

*Elflar yashar u yerda  
G'uborli tog' bag'rida,  
Uyni tashlab ketamiz  
Yovni albat yengamiz.*

*Keyingi ishlarimiz  
Hal bo'ladi manzilda,  
Oson kechmas yo'limiz  
Qaytar yana uyaga.*

*Ketdik endi uchovlon  
Kutar bizni Dorilomon.*

– Juda soz! – dedi Frodo. – Unday bo'lsa uyquga yotguncha ko'p ishlar qilishimiz kerak bo'ladi. – Uxlab olishga vaqtimiz oz qoldi.

– Zo'r-u! – dedi Pin. – Sen chindan ham tong otmasdan yo'lga chiqish kerak deb o'ylaysanmi?

– Bilmadim, – iqror bo'ldi Frodo. – Men anavi Qora otliqlardan qo'rquyapman. Ko'nglim aytib turibdi, bir yerda uzoq qolishimiz mumkin emas. Ayniqsa, ularning fikricha, men ko'chib o'tib yashashga ahd qilgan uyda. Gildor ham birovni kutmay, yo'lga chiqishni maslahat bergan. Lekin men Gendalfni juda ko'rgim kelyapti. Sehrgardan darak yo'qligini eshitgan Gildor ham xavotirga tushib qoldi. Hozir hamma narsa ikkita shartning ijrosiga bog'liq, xususan: Qora otliqlarning Baklberiga yetib kelishi va imkon qadar tezroq yo'lga chiqishimiz. Safarga hozirlik ko'rishimizga esa anchagina vaqt kerak bo'ladi.

– Ikkinchi shart ijrosiga kirishishga deyarli tayyormiz, – dedi Merri. – Bir soatga qolmay yoʻlga chiqishimiz mumkin. Hamma narsani safarga hozirlab qoʻyganman. Ponilar otxonada, yegulik bilan kiyim-kechakdan tashqari, zaruriy zaxiralari qop-larga joylangan.

– Maxfiy uyushmangiz juda samarali ishlabdi, – ijobiy baho berdi Frodo. – Qora otliqlar borasida nima deysan, Gendalf-ni yana biror kun kutish xavf darajasini kuchaytirmasmi?

– Hamma gap bizni quvib yetgan oʻsha Qora otliqlar seni nima qilishlariga bogʻliq, – javob berdi Merri. – Agar ular baland oʻsgan buta-devor koʻprikkaga taqalgan joydagi Shimoliy darvo-zada ushlanib qolishmagan boʻlsa, koʻp oʻtmay eshik taqillatib qolishadi. Darvoza qoʻriqlash xizmati ularni tunda oʻtkazib yubormaydi, lekin otliqlar darvoza muhofazasini buzib oʻtishi mumkin. Kunduz kuni ham qoʻriqchilar Xoll sohibiga xabar berib, uning javobini olmaguncha qora mehmonlarni viloyat hududiga kiritmasligi mumkin. Turq-atvorini koʻrib choʻchib ketgan darvoza qoʻriqchilariga Qora otliqlar yoqmasligi muqar-rar. Baklend otliqlarning hujumini qaytara olmaydi, aibatta. Agar ular oʻzlarini janob Begginsning mehmoni sifatida tanishtirishsa, ertalab, balkim, monesiz oʻtkazib yuborilishlari ham mumkindir. Chunki janob Beggins Kriksellouga koʻchib oʻtgani hammaga maʼlum.

Frodo maʼlum vaqt oʻylanib turdi.

– Gap mundoq, – qaror qildi u nihoyat. – Tong saharda yoʻlga chiqamiz, lekin toʻgʻri yoʻldan bormaymiz. Chunki toʻgʻri yoʻldan borgandan koʻra shu yerda kutgan xavfsizroq. Agar Shimoliy darvozadan chiqadigan boʻlsam, Baklendni tark etga-nim bir necha kun boʻlsa ham sir saqlanishi oʻrniga shu zahoti hammaga maʼlum boʻladi. Koʻprik bilan chegara yaqinidagi sharqiy yoʻlni tabiiyki, Qora otliqlar oʻz nazorati ostiga olishadi. Ular nechtaligini biz bilmaymiz, kam deganda ikkita ekanligi aniq, balkim, koʻproqdir. Vaziyatdan chiqishning yagona yoʻli – hech kim kutmagan joydan chiqib ketishdir.

– Bu faqat Qadimiy oʻrmon orqali yurishni anglatadi! – dahshat-la xitob qildi Frekogar. – U yerga kirish mumkin emas, chunki Qadimiy oʻrmon Qora otlqlarday xavfli joydir.


– Unchalik emas, – tuzatish kiritdi Merri. – Vaziyatdan chiqishning chindan ham murakkab yoʻli-yu, lekin Frodo toʻgʻri aytyapti. Birovga bildirmay chiqib ketishning yagona yoʻli shu. Omadimiz chopsa, ishni yaxshi boshlaymiz.

– Qadimiy oʻrmonda omad nima qiladi?! – eʻtiroz bildirdi Frekogar. – Birovning omadi chopmagan u yerda, adashib qolasiz. Hech kim kirmaydi u yerga.

– Kiradi, – rad etdi Merri. – Brendizayklar baʻzan kirib-chiqib yurishadi u yerga, qulay sharoit tugʻilganda. Alohida soʻq-mogʻimiz bor. Frodo bir zamonlar bir martagina kirib-chiqqan, xolos, u yerga. Men esa bir necha marta boʻlganman, odatda, kunduz kuni, daraxtlar uyquga ketgan, oʻrmon nisbatan tinch boʻlgan mahalda, albatta.

– Bilganingizni qiling, – dedi Frekogar. – Shaxsan men hammasidan ham Qadimiy oʻrmonni qoʻrqinchli deb bilaman. Chunki oʻsha oʻrmon haqida xalq orasida juda qoʻrqinchli rivoyatlar yuradi. Modomiki men yurish ishtirokchisi emas ekanman, ovozim hal qiladigan ovoz hisoblanmaydi. Gendalfni shu yerda kutib, bor gapni unga oʻzim aytib berishim mumkinligidan xursandman. Ishonchim komilki, sehgarning topilib kelishi uzoqqa choʻzilmaydi.

Frodoni juda yaxshi koʻrsa-da, Fredegar Boljer Shirmi tark etib, uning tashqarisida nimalar borligini koʻrishga ishtiyoqmand emas. Uning oilasi Sharqiy Shirning Badifordidan kelib chiqqaniga qaramay, Brendivayn koʻprigining narigi tomoniga hech qachon oʻtmagan. Fitna rejasiga muvofiq, uning zimmasiga yuklangan vazifa uyda qolib, qiziquvchilarning savollariga javob berib chalgʻitish va ayni vaqtda janob Beggins Kriksellouda yashayotganini anglatadigan vaziyat qaror toptirishdan iborat. U oʻz rolini yanada ishonarliroq oʻynay olishi uchun Frodoning eski-tuski kiyimlarini ham olib kelgan. Bu rol qanchalik xavfli ekanligini ular tasavvur ham qila olishmaydi.



– Ajoyib! – dedi Frodo fitna rejasining ushbu qismi bilan batafsil tanishib chiqqach. – Gendalfga xabar qoldirishning boshqacha yoʻli ham yoʻq-da bizda oʻzi! Qora otliqlar oʻqishni bilish-bilmasliklaridan xabarim yoʻgʻ-u, lekin Gendalfga xat qoldirib, tavakkal qilmagan boʻlar edim: uyni tintuv qilishadigan boʻlsa, xatni topib olishadi. Modomiki, Fredegar ushbu qasrimizni qoʻriqlashni istar ekan, Gendalf men tanlagan yoʻldan xabar topadi. Nima ham der edim, juda mamnunman. Ertalab Qadimiy oʻrmon tomon yoʻl olamiz.

– Demak, masala hal! – dedi Pin. – Lekin Fredegar, bu yerda Qora otliqlarni kulib oʻtirishdan safarga chiqishni afzal koʻrgan boʻlar edim.

Oʻrmonga kiraverchi, oʻshanda bilasan, taʼkidlab qoʻydi Fredegar. – Bu yerdan ketganingga pushaymonlar yeb yuborasan.

– Bu mavzuda ortiqcha bahslashmaylik. – gapni kesdi Merri. – Uyquga yotguncha baʼzi narsalarni safar qoplariga joylashimiz kerak. Tong sahar uygʻotaman sizlarni.

Koʻrpaga yotgan Frodo ancha vaqtgacha uxlay olmadi. Piyoda uzoq yurib oyogʻi ogʻriyotgani bois, ertaga yoʻlga ot minib chiqishidan quvondi. Asta-sekin mudroq bosib, allaqanday baland bino derazasidan oʻrmon ummoniga qarayotganday boʻldi. Pastda binoga pisib koʻtarilayotgan hayvonlarning tovushi eshitilmoqda. Ertami, kechmi hayvonlar uning hidini sezib qolishi mumkinligini Frodo idrok etib turibdi. Shundan soʻng, uzoqdan kelayotgan shovqin eshitildi. Dastlab Frodo oʻsha shovqinni daraxt barglarining shitirlashi sifatida qabul qildi. Birozdan soʻng bu olis dengiz shovqini ekanligini anglab yetdi. Eshitishni orzu qilgan, ammo hayotda eshitmagan dengiz shovqini. Kutilmaganda u tunda allaqanday sayhonlikka chiqib qolibdi. Havoda gʻalati bir shoʻr hid bor. Frodo tepalikka oʻrnatilgan baland Oq minorani koʻrdi. Oʻsha minoraga koʻtarilib, dengizni tomosha qilish istagi tugʻildi. Minora tomon qadam bosgan ediki, yashin chaqib, momaqaldiraq gumburladi.

## QADIMIY O'RMON

Frodo birdan uyg'onib ketdi. Xona hanuz qorong'i. Osto-nada bir qo'liga sham ushlagan, ikkinchi qo'li bilan eshik taqillatayotgan Merri turibdi.

– Tinchlikmi, nima gap? – so'radi Frodo uyqusirab.

– Tinchlik, turadigan vaqt bo'ldi. Soat to'rt yarim, hovli-da qalin tuman, – javob berdi Merri. – Tur, kctdik. Sem nonushta tayyorlab qo'ydi. Hatto Pin ham uyg'ongan. Men ponilarimizni egarlab, bittasiga yukimizni ortib qaytaman. Anavi lapashang Fredegarni ham uyg'ot. Biz bilan xayrlashish uchun bo'lsa ham turishi kerag-u, u.

Soat oltidan o'tganda to'rtovlon hobbit olis safarga chiqishga tayyor bo'lib, ortiqcha shovqin solmay uydan pisib chiqishdi. Fredegar Boljer hamon esnamoqda. Merri yuk ortilib, ostona oldiga bog'langan ponini otxona tomon tortdi. Qolganlar uning ortidan ergashishdi. Daraxt shoxlaridan shabnam qatralari tommoqda. Atrof tinch, olisdagi shovqinlar, xususan, qo'shni hovlilardagi xo'rozlarning qichqirishi, kimdir o'z uyasining eshigini qattiq yopgani bir necha qadam narida yangrayotganday aniq eshutilmoqda.

Otxonada hobbitlar yaxshi ko'radigan, jussasi kichik bo'lsa ham juda baquvvat, kundalik ishlar va uzoq cho'ziladigan safarga yaroqli ponilar egar urilib, safarga shay holatda turibdi. Ularni minib olgan hobbitlar ko'p o'tmay tuman qa'riga kirib ketishdi. Bir soatcha indamay yurishgach, baland o'sgan qalin buta-devorga duch kelishdi.

Xo'sh, qanday oshib o'tmoqchisizlar uni endi? – so'radi Frekogar.

– Ortimdan jim yursang, ko'rasan, dedi Merri.

Chapga burilgan Merri buta-devor bo'ylab odimlagancha, yo'l boshlab ketdi. Ko'p o'tmay buta-devor uva bo'ylab burilib, shu yerda og'zi katta quvurni eslatadigan o'rmonga

o'tish yo'lagi ko'rindi. Yo'lak devori g'ishtdan ko'tarilgan bo'lib, bosh ustida tutashguncha balandlashib ketgan. Uva bo'ylab ketgancha buta-devor ichiga kirib ketgan ushbu g'ishtli quvur-yo'lakning narigi tomoni Qadimiy o'rmonga chiqar ekan.

Fredegar Boljer quvur og'ziga yetib to'xtadi.

– Xayr, Frodo, – dedi u. – O'rmon orqali ketishingni istamas edim. Umid qilamanki, kun oxirigacha seni qutqarishga to'g'ri kelmaydi. Hammangizga bugun va bundan keyin ham omad yor bo'lsin.

– Agar bizni narigi tomonda Qadimiy o'rmondan tashqari boshqa hech narsa kutayotgan bo'lmasa, o'zimni baxtiyor deb bilaman, – javob qildi Frodo. – Iltimosimni Gendalfga yetkaz, tezlashsin... Sharqiy yo'ldan boraversin: biz ham yaqin orada o'sha yo'lga chiqib, harakatimizni tezlatamiz.

Ular o'tish quvuriga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lguncha baqirib xayrlashishdi.

G'ishtli quvur-yo'lakning ichi zax va qorong'i. Uning narigi boshi yo'g'on metall chiviqlardan bolg'alab yasalgan panjara vositasida to'silgan bo'lib, o'rtasida kichik eshik bor. Ponidan tushgan Merri kissasidan kalit chiqarib eshikni ochdi. Hammani o'tkazib yuborgach, xunuk jaranglab yopilgan eshikni yana qulfladi.

– Mana marhamat. Shirni tark etib, Qadimiy o'rmonning boshlanish joyiga chiqdik! – dedi Merri.

– O'rmon haqidagi mish-mish gaplar rostmikan? – so'radi Pin.


– Qaysi gaplarni nazarda tutayotganingni bilmadim-u, Fredegarga arvohlar, goblinlar, bo'rilar va shu kabi boshqa qo'rqinchli narsalar haqida enagasi uyqudan oldin aytib bergan cho'pchaklar – cho'pchakdan o'zga narsa emasligini bilaman. Har narsaga ishonaverma. Lekin shunisi aniqki, o'rmon chindan ham qo'rqinchli joy. Bu yerdagi hayot, ta'bir joiz bo'lsa, Shirda kechadigan hayotga nisbatan ancha jonli kechadi. O'rmon daraxtlari yot kimsalarni yoqtirmaydi, hududiga kirib kelgan har bir kishini diqqat-la kuzatib boradi. Odatda, o'rmonning qila-

digan ishi kuzatish bilan cheklanib, kun yorug'ida hech qanday chora ko'rmaydi. Nisbatan darg'azab daraxtlar kamdan kam holatlardagina o'z shoxi yoki butog'i bilan timdalashi, ildizi ila chalib yuborishi yoki chirmovig'iga chuvaltirishi mumkin. Aytishlaricha, Qadimiy o'rmon tunda yanayam xavfli bo'lar emish. Shaxsan men bir-ikki marta kirganman, xolos, tungi vaqtda. Shunda ham boshlanish qismida yurib, ichkariga kirmaganman. O'shanda menga Qadimiy o'rmon daraxtlari o'zaro shivirlashganday, yangiliklar, mish-mish gaplarni tushunarsiz tilda muhokama qilishganday tuyulgan, bunda ularning novdalari shamol bo'lmasa ham tebranib, yergacha egilib, yana o'z holatiga qaytgan. Aytishlaricha, ushbu daraxtlar harakatlanib, o'rmonda sanqib yurganlarni qurshov halqasiga olishi mumkin ekan. Uzoq o'tmishda o'rmon daraxtlari Baklendning buta-devoriga hamla qilibdi, ya'ni devorga taqalgancha o'sib, ustiga egilib ezishibdi. Shunda baklendliklar tashqariga chiqib devorning sharqiy yo'nalishi bo'ylab o'sgan yuzlab daraxtlarni ayamay kesib, maydalab chopib, katta gulxanda yoqishibdi. O'rmon hujumini bas qilibdi-yu, lekin hobbitlarga nisbatan kek saqlab qolibdi. Daraxtlar kesilib yoqilgan joylar hamon bo'shab yotgan emish.

– Daraxt xavflimi, xolos, bu o'rmonda? – so'radi Pin.

– Qadimiy o'rmon qa'rida va uning narigi boshida biri boshqasidan g'alati jonzotlar yashaydi, – javob berdi Merri. – O'zim birortasini bo'lsin o'z ko'zim bilan ko'rmagan bo'lsamda, har qalay, menga shunday deyishgan. Lekin kimdir o'rmonda yashab, yolg'izoyoq yo'l ochib yurishi aniq. Vaqti-vaqti bilan g'alati tarzda o'zgarib boradigan izlar ham uchrab turadi. Mana bu quvur-yo'lakdan sal narida daraxt yoqilgan maydonga eltib, u yerdan shimoliy-sharq tomon olib ketadigan keng so'qmoq boshlanadi. Uning yo'nalishi bizga kerakli yo'nalish bilan deyarli mos tushadi. O'sha so'qmoqni topishga urinib ko'raman.

Quvur-yo'lakdan chiqqan hobbitlar daraxtdan tozalangan keng sayhonlik bo'ylab harakat boshlashdi. Sayhonlikning narigi boshida ko'zga bazo'r ilingan o'rmon so'qmog'i ko'rindi-





yu, yaqinroq borilganda daraxt tanalari ortida gum bo'ldi. Daraxtlar orasiga qaragan hobbitlar qoramtir butalarni, tanasi egri, to'g'ri, bo'yi past, baland, sirti tekis, qasmoq bosgan, ser-shox, shoxsiz daraxtlarni ko'rishdi. Daraxtlarning barini birday yashil va kulrang yo'sin bosgan. Hobbitlar orasida faqat Merri-gina sira hovliqmay turibdi.

– Oldinga chiqib, so'qmoqni topganing ma'qul, – dedi unga Frodo. – Biz bir-birimizni yo'qotib qo'ymasligimiz, Baklendning buta-devori qaysi tomonda qolganini adashtirib yubormasligimiz kerak.

Hobbitlar o'rmon cheti bo'ylab harakatlanishmoqda. Ponilar osilib tushgan shoxlarga ilashmay, yerdan bo'rtib chiqan ildizlarga qoqinmay yurishga harakat qilishmoqda. Hudud asta ko'tarilib, yo'lovchilarimiz olg'a ilgarilagan sari daraxtlar ham balandlashib, tanasi yo'g'onlashib bormoqda. Atrof jimjit, onda-sonda qalin barglar orasidan o'ziga yo'l ocha bilgan suv tomchilarining yerga tushgani eshitilib qolmoqda, xolos. Daraxt shoxlari qilt etmayapti, barglar shitirlamayapti, lekin biron qandaydir noxush, ba'zan yovqarash-la kuzatib borayotganini hobbitlar his etishyapti. Bunday hissiyot daf'atan hamla qilinishini kutayotganday orqaga o'girilib, atrofga alanglab yurishar ekan, yanada kuchayib boryapti.

So'qmoqdan asar yo'q, daraxtlar yo'l bermayotganday go'yo... Ortiq bardosh bera olmasligini anglagan Pin kutilmaganida ovoz ko'tarib qoldi:

– Voy! Voy! Men hech nima qilmadim, ijzatingiz-la o'tib ketay, iltimos.

Qolganlar hayrat-la to'xtab qolishdi. Pining ovozi qalin parda ortida so'nganday tindi. Hech qanday javob eshitilmadi, aks-sado yangramadi, biroq daraxtlar safi sayyohlar ro'parasida zichlashib, yanada kuchli e'tibor-la kuzatayotganday bo'lmoqda.

– Baqirma, foydadan ko'ra ziyoni ko'proq bo'ladi, – dedi Merri.

Frodo ushbu o'rmon orqali o'tiladigan so'qmoq borligiga shubha qilib, do'stlarini mash'um yo'nalish sari yetakla-

ganidan afsuslana boshladi. Merri esa qayoqqa borishni aniq bilganday atrofga ishonch-la alanglamoqda. Bu holat Pining nazaridan chetda qolmadi.

– Adashib qolish uchun ko‘p vaqt kerak bo‘lmaydigan ko‘rinadi, – kinoya qildi u.

Shu fursatda yengil tortgan Merri harakat yo‘nalishiga imo qildi.

– Bu tomon yuramiz, – dedi u. – Mana bu daraxtlar ilgari umuman boshqacha edi. Qarshimizda boya aytganimday, bir zamonlar daraxt yondirilgan maydon bor, har qalay, men shunga umid qilaman, ammo unda bo‘lgan so‘qmoq qayoqqadir ketib qolganga o‘xshaydi.

Yo‘lovchilar Merri imo qilgan tomon odimlashdi. Kun yorishganday bo‘ldi, daraxtlar kutilmaganda tugab, sayyohlar oldida kenggina o‘rmon yalangligi ochildi. Bosh ustida moviy tus olgan musaffo osmon bo‘lib, hobbitlarni hayratlantirgan narsa Qadimiy o‘rmonda na tong otayotgani, na tuman tarqalishi bo‘ldi. Quyosh hali u qadar baland ko‘tarilmay, daraxt uchlarinigina yoritayotgani bois, o‘rmon yalangligi qorong‘i bo‘lgancha qolmoqda. Yalanglik chegarasidagi daraxt barglari yashil va zich bo‘lib, deyarli yaxlit devor hosil qilgan. Yalanglikda esa birorta daraxt yo‘q, bodiyoni<sup>1</sup> rumi, oshko‘ksimon ko‘kat, gazanda o‘t, qushqo‘nmas kabi dag‘al o‘t-o‘lan baland o‘sgan, xolos. G‘amgin joy-yu, o‘rmonga taqqoslanadigan bo‘lsa, ajoyib bog‘day ko‘rinadi.

Biroz dadillashgan hobbitlar osmonga umid-la qarab-qarab qo‘yishmoqda. Yalanglikning narigi boshidagi daraxtlar orasida so‘qmoq boshlangan oraliq joy ko‘zga tashlandi. Ba‘zi qismi tor, ayrim joylari keng ushbu so‘qmoq daraxtlar qa‘riga ilang-bilang kirgan bo‘lib, o‘zaro chirmashib ketgan shox-shabbalar uning ustida o‘ziga xos ravoq hosil qilgan. Qadimiy o‘rmonning jahli tushib, monesiz o‘tkazib yuborishini his etayot-

---

<sup>1</sup> Bodiyon – urug‘i, mevasida asosan efir moyi, shuningdek, oqsil va boshqa moddalar bo‘lgan, ziradoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlik.

gan sayyohlarimiz uzluksiz ko'tarilib borayotgan ushbu so'qmoqdan yo'lni davom etishdi.

Biroq ko'p o'tmay qizigan havo karaxt bo'lib qolganday tuyuldi. O'rmon daraxtlari bir-biriga yanada yaqinroq kelib, oldinda nima borligi ko'rinmay qoldi. Hobbittlar o'rmonning diqqat-la kuzatib borayotganini yanada kuchli his etishdi. Tevarak-atrofdagi o'lik jimjilik hukm surayotgan bo'lib, xazonga bosilgan yoki ildizga urilgan tuyoq tovushi momaqaldiraqday yangramoqda. Hamrohlariga dalda bermoqchi bo'lgan Frodo qo'shiq boshladi-yu, lekin bo'g'iq chiqayotgan ovozi deyarli eshitilmayapti:


*Qadimiy o'rmondan o'tamiz dadil,  
Ro'shnolikka, shubhasiz, chiqamiz albat,  
Burkiras bu zulmat hayotda mangu,  
Ezgu orzu qalblarda yashaydi abad.*

*Tong yorishgan, kun botgan mahal  
Shafaq porlab, sabo jaranglar  
Quyosh qildi bizni xo'p mahtal,  
Zulmatni hayotdan umrbod haydar.*

Havo shu qadar og'irlashib ketdiki, Frodoning nafasi ichiga tushib, qo'shiq ayta olmay qoldi. Singaniga, aftidan, ancha bo'lgan, daraxt tanasiga bazo'r ilashib turgan yirik shox o'chakishganday Frodo yaqin kelganda gumburlaganicha yerga tushdi. Daraxtlar go'yo yo'lovchilarimiz atrofida halqa hosil qilganday bo'ldi.

– Qadimiy o'rmon zulmatidan ro'shnolikka chiqish mavzusi yoqmagan ko'rinadi daraxtlarga, – taxmin qildi Merri. – Hozircha qo'shiq aytmay boraylik. O'rmon oxiriga yetsak, albatta, hammamiz jo'r bo'lib aytamiz.

Merri vazmin ohangda gapirib, xavotirga soladigan biror-bir holatni sezsa ham bildirmaslikka harakat qilmoqda. Qolganlar ruhan siniqib, jimgina odimlab borishmoqda. Qadimiy



o'rmon daraxtlariga qarshi gapirib qo'ygani bois Frodoni vijdon azobi qiynay boshladi. Shartta to'xtab, agar imkoni bo'lsa, ortga qaytishni taklif qilmoqchi bo'ldi-yu, keyingi hodisalar boshqacha tus oldi. So'qmoqning ko'tarilishi to'xtab, yo'lovchilar tekislikka yetishdi. Qoramtir daraxtlar siyraklashib, so'qmoq to'g'ri ketadigan bo'lib qoldi. Olisda o'rmon o'rtasida bo'rtib chiqib, toz kallani eslatadigan yashil tepalik ko'rindi. Mana bu so'qmoq esa tikka o'sha tepalik tomon ketgan.

Hobbitlar qisqa vaqtga bo'lsa ham o'rmon istibdodidan chiqish imkoniyati paydo bo'lganidan quvonib, qadamni tezlatishdi. So'qmoq yana ko'tarila boshlab, yo'lovchilarni tepalik bo'sag'asiga eltdi. O'rmondan chiqqan yo'lak chim yerda davom etdi. O'rmon daraxtlari ushbu tepalikni qurshab, tonzura<sup>1</sup> atrofidagi sochga o'xshab qoldi.

Nishabi tik ko'tarilgan tepalikning ilang-bilang so'qmoq'i bo'ylab poni boshqarib borayotgan hobbitlar nihoyat cho'qqiga chiqib olishdi. Tepalik ustida to'xtab, atrofga nazar solishdi. Havo quyosh nuriga to'yingan bo'lib, o'rmon ustida, ayniqsa, janub yo'nalishida qalin tuman pardasi shakllangani bois, uzoqni ko'rish imkoni bo'lmadi. Yaqin masofada tuman yo'q.

– Ho'v anavi yerdan Vitvindl o'zani o'tgan, – ma'lum qildi Merri, qo'li bilan ko'rsatib. – Katta tepaliklardan sizib tushgan ariqlardan boshlanadigan ushbu daryo Qadimiy o'rmon o'rtasida janubiy-g'arb yo'nalishida oqib, Xeysend ostonasida Brendivayn daryosiga quyiladi. Biz u tomonga yurmaymiz. Aytishlaricha, Vitvindl vodiysi – ushbu o'rmonning eng xavfli joyi bo'lib, g'ayrioddiy, taajjub narsalar o'sha yerda boshlanar ekan.

Merri ko'rsatgan tomonga qaragan hobbitlar chuqur vodiy uzra ko'tarilgan tumandan o'zga narsani ko'rishmadi. Vodiy ortida Qadimiy o'rmonning janubiy qismi davom etgan.

Quyosh tepalik ustini rosa qizdiryapti. Soat taxminan o'n bir bo'ldi, ammo kuzgi tuman pardasi olis-olislarni ko'rishga monelik qilmoqda. G'arb tomonda na buta-devor chizig'i, na

---

<sup>1</sup> Tonzura -- katolik ruhoniylarining bosh tepasida sochi olingan joy.

Brendivayn vodiysi ko'rinadi. Shimolda ham daraxtlar ummonidagi orolga tushib qolishgan yo'lovchilarimiz umid-la qidirib ketayotgan buyuk sharq yo'lining alomatleri ko'rinmaydi.

Janubiy-sharq tomonda yer yuzasi tik tushib ketgan bo'lib, mana bu tepalik go'yo suv tubidan chiqqan orol cho'qqisi-yu, uning quyi qismi o'rmon ko'rpasi ostida davom etmoqda. Yashil tepalik ustida ovqatlanib o'tirishar ekan, hobbitlar oyoq ostidagi o'rmonga nazar solishdi. Quyosh yana biroz ko'tarilib, kun yarmiga yetganda olis sharqda Qadimiy o'rmon ortidagi kulrang-yashil qiyaliklar qorasi ko'ringanday bo'ldi. Ushbu holat yo'lovchilarning ruhini biroz ko'tardi: chunki o'rmon manzarisidan tashqari boshqa narsani ham ko'rish ko'zni quvontirdi. Biroq o'sha joylar hobbitlar orasida yurgan afsonalarga muvofiq, yovuzlik masalasida mana bu Qadimiy o'rmondan qolishmaydi.

Ovqatlanib, dam olgan sayyohlar yo'lni davom etishga ahd qilishdi. Tepalik cho'qqisiga olib kelgan so'qmoqning davomi shimoliy-g'arbiy qiyalikda ko'rindi. Biroq ushbu so'qmoqdan biroz yurgan hobbitlar yo'l tinimsiz o'ng tomon og'ib borayotganiga e'tibor qilishdi. So'qmoq pasaya boshlagach, sayyohlar ushbu yo'l ko'zlanmagan manzil, ya'ni Vitvindl vodiysi tomon olib ketayotganiga ishonch hosil qilishdi va biroz fikrlashgach, ushbu aldamchi so'qmoqni qo'yib, shimol yo'nalishida yurishga qaror qilishdi. Garchi tepalik cho'qqisida ko'z ilg'ama-gan bo'lsa-da, ularning fikricha, buyuk sharq yo'li o'sha tomonda bo'lib, hademay yetib borishlari kerak. Boz ustiga, shimolga, so'qmoqdan chap tomonga og'ib boriladigan bo'lsa, joy nisbatan quruq, ochiq, tepaliklar bag'ridagi daraxt tanalari ingichkaday ko'rinib, o'rmonning qalin joyidagi emanlar, qayrag'ochlar, boshqa turdagi nomsiz daraxtlar o'rnida oqqarag'ay paydo bo'ldi.


Yo'lovchilarning qarori dastlab to'g'riday ko'rindi: olg'a ilgarilashlari ancha jadallashdi, ammo o'rmon yalangliklaridan birida quyoshni ko'rib, sharq tomon biroz og'ib ketishayotganiga e'tibor qilishdi. Uzoqdan tanasi ingichkaday ko'ringan daraxtlar ma'lum vaqt o'tib hobbitlarni yana zich qurshov

halqasiga ola boshladi. Kutilmaganda yerda misli ko'rilmagan ulkan arava iziga yoki bir zamonlar foydalangan bo'lib, endilikda o't va matymunjon bosgan yo'ldagi keng xandaqlarga o'xshash chuqur burushiqlar paydo bo'ldi. Bu xandaqlar sayyohlarning yo'lida to'siq bo'lib, ushbu g'ovni yengib o'tish uchun xandaq ichiga tushish va qarshi tomondagi tepalikka yana chiqishga to'g'ri keldi. Har gal xandaq tubiga yetishar ekan, u yerda zich o'sgan yetilmagan daraxtlar chap tomon yurishga to'sqinlik qilib, o'ng tomon burilganda osongina siyraklashib borayotganiga e'tibor qilishdi. Yuqoriga ko'tarilishning qulay yo'li topilguncha xandaq tubida uzoq ivirsishga to'g'ri kelmoqda. Har gal xandaqdan chiqishar ekan, o'rmon daraxtlari qalinlashib, qoramtir tus olib bormoqda. Har gal chap tomon yurish qiyinlashayotgani bois, o'ng tomon harakatlanishga majbur bo'lishmoqda.

Bir yoki ikki soat shu tarzda yurgach, harakat shimol tomon kechmayotganini aniq bilgan holda, qay tomon ketishayotganini tasavvur ham qila olishmadi. Ularga o'rmonning o'zi ochib berayotgan yo'ldan borib, o'rmon qa'riga kirib ketishdan o'zga chora qolmayapti.

Navbatdagi xandaqqa tushib ketishayotganida kun ancha og'ib qolgan edi. Ushbu xandaq ilgari xandaqlarga nisbatan ancha chuqur bo'lib, yuk va ponilar bilan tushib-chiqish uchun nishablari haddan ortiq tikday ko'rindi. Iloj qancha, tobora pastlab borayotgan burushiq tubidan yurishga to'g'ri keladi. Nam yer yumshab, borgan sari botqoqlashib bormoqda. Xandaq nishabliklaridan buloq suvi oqib tushmoqda. Ko'p o'tmay yo'lovchilar o't bosgan eski o'zanida shaldirab, mavj urib oqayotgan ariq bo'ylab ketishayotganini fahmlashdi. Endi yer tik pastlay boshlab, ariq sersuv, sershovqin, tez oqar bo'lib bordi. Yo'lovchilar chuqur xandaq tubiga yetib, tepalaridagi daraxt shoxlari o'zaro chirmashib ketganiga e'tibor qilishdi.

Hobbitlar ariq bo'ylab bir amallab yurishar ekan, xandaqning bir tomoni kutilmaganda tugab, ko'rinmas darvoza ochilganday xandaq ichi nurga to'ldi. Yo'lovchilar tik kesilib tushgan qoya qirg'oqqa kelib qolishdi. Oyoq ostida hosil bo'lgan



daraning tik ko'tarilgan narigi qirg'og'i ham qoyali bo'lib, o'rta-dagi keng maydonda o't-o'lan bilan qamish baland o'sgan. Kunning ikkinchi yarmidagi tilla tusli quyosh nuri ikki qirg'oq o'rtasidagi ushbu maydonni ilitib, havosini karaxt qilib qo'ygan. Dara o'rtasida qo'ng'ir tusli daryo oqmoqda. Daryo o'zanining ikkala sohilini qadimiy tol ildizlari mustahkamlagan. Suvga qulagan tol tanasi xazon oqimiga to'siq bo'lib, havo ham chirigan xazon hidiga to'yingan. Tekislikda yengil esayotgan garmsel sarg'aygan son-sanoqsiz tol barglarini tebratib, qamishni shitir-latib o'tmoqda.

– Qayerga kelib qolganimizni mana endi tushundim! – ma'lum qildi Merri. – Ko'zlagan yo'nalishning qarama-qarshi tomoniga yurib, nihoyat Vitvindl daryosiga chiqibmiz. Qani, oldinga chiqib, josuslik qilib kelay-chi.

Quyosh yoritgan maydonga qadam bosgan Merri baland o'sgan o't-o'lan orasida gum bo'ldi. Binoydan so'ng qaytib kelgan hobbit tik tushgan qoyali sohil bilan daryo oralig'idagi yer qattiq bo'lib, chim qirg'oqqacha yetgan joylar ham borligini ma'lum qildi.

– Bundan tashqari, daryo bo'ylab ketib, piyodalar yo'lagini eslatadigan so'qmoqni ham ko'rdim, – qo'shimcha qildi Merri. – Agar hozir biz chapga burilib, o'zina so'qmoqdan boradigan bo'lsak, ertami, kechmi mana bu o'rmonning sharqiy chegarasidan chiqamiz.

– Agar so'qmoq bizni tikka botqoqlikka eltib qo'ysa-chi? – so'radi Pin. – Uni kim va nima maqsadda toptaganini bilasanmi? Ishonchim komilki, o'sha so'qmoq aslida so'qmoq emas, tuzoq. Chunki endi men bundan buyon o'rmon-u, u bilan bog'liq narsalarga shubha ila qarayman va o'rmon haqidagi cho'pchaklarga ishonaman. Sharq tomon qancha yurishimiz kerak, bilmaysanmi?

– Yo'q, bilmayman, – iqror bo'ldi Merri. – Vitvindl bo'ylab qancha yurish kerakligini bilmayman, bu yerlarda kimlar so'qmoq toptab o'tishini ham bilmayman. Ammo boshqa yo'lni ko'rmayapman.

Boshqa chora chindan ham yo'qligini hamma tushunib yetgach, Merri hamrohlarini hozirgina topib kelgan so'qmoq tomon boshladi. Qamish bilan maysa hamma joyda birday shirali, zich, baland o'sgan bo'lib, ayrim joylarida hobbitlar umuman ko'rinmay qolmoqda. Shunday bo'lsa ham ko'lmak bilan balchiq orasidagi qattiq yerda ilang-bilang ketgan so'qmoqdan yurish oson kechyapti. Vaqti-vaqti bilan tik ko'tarilgan qirg'oqdan oqib tushib, so'qmoqni kesib o'tganicha, Vitvindl daryosiga quyilayotgan ariq va jilg'alar uchramoqda. Bunday joylarga daraxt tanasi ko'ndalang tashlanib, kichik ko'priklar hosil qilingan.

Bora-bora hobbitlar quyoshda qiziy boshlashdi. Ular-ning boshi uzra har xil chivin va pashshalarning yirik galalari zir uchmoqda, quyosh nuri bellarini kuydirmoqda. Nihoyat ular yirik kulrang shoxlari so'qmoq ustigacha yetib egilgan shasha soyaga yetishdi. Navbatdagi har bir qadam og'ir bosilib, yo'lovchilarni g'alati mudroq bosmoqda. Frodo uxlab qolayotganini his etdi: boshi xam bo'lganicha, iyagi ko'kragiga taqaldi. Oldida ponisini tortib ketayotgan Pin tiz cho'kib qoldi. Frodo ham yurishdan to'xtadi.

- Dam olmasam bo'lmaydi, ortiq yura olmayman, eshitdi u Merrining ovozi. Biroz mizg'ib olay. Mana bu qayrag'ochning tagi safqinroq, chivin ham deyarli yo'q ekan.

*Bu gap Frodoga yoqmadi.*

- Yuringlar! - ovoz ko'tardi u. - Erta hali uyquga yotgani. O'rmondan chiqib olaylik, keyin to'yib uxlaymiz.

Biroq hech kim unga itoat qilmadi. Yonidagi Sem ham chuqur esnadi. Kutilmaganda o'zining ham uyqusi kuchlilik qilayotganini his etib, boshi aylandi. Har qanday shovqin borki tindi. Hatto pashsha galasining vizzilayotgani ham eshitilmay qoldi. Faqat qandaydir mayin tovush, shitir-shitir, pichir-pichir eshitilmoqda. Og'ir qovog'ini bazo'r ocha olgan Frodo ularning ustiga shox-shabbalariga oq oralagan qadimiy qayrag'och egilayotganini ko'rdi. Daraxt nihoyatda yirik bo'lib, shoxlari kafti titrayotgan son-sanoqsiz qo'llarni eslatdi. Daraxtning serbutoq, egri-bugri tanasidagi darz ketgan joylari og'iz kabi g'archillab



ochilmoqda. Qayrag'och barglarining harakati Frodoning uyqusini keltiryapti. Uyqusi kuchlilik qilgan Frodo maysaga yiqildi.

Merri bilan Pin emaklab daraxtning yirik tanasiga suyanib joylashishdi. Daraxt tanasining darz ketgan joylari ichkariga taklif qilganday tobora keng ochilib bormoqda. Hobbitlar daraxtning harakatchan yashil va kulrang barglariga baqrayib, alla eshitganday bo'lishdi. Ko'zini yumgan sayyohlar uyqu haqidagi misralar eshitishdi. Alladan ta'sirlangan yo'lovchilar qayrag'och soyasiga yiqilishdi.

Yotgan joyida uyqu bilan kurashgan Frodo bir amallab oyoqqa turdi. Hozir u muzday suvda yuvinishni istadi.


– Meni shu yerda kut, Sem, – g'udulladi u. – Tez qaytaman.

Uyqusiragan Frodo daryo qirg'og'i tomon odimladi. Bu yerda anavi bahaybat qayrag'ochning yerdan bo'rtib chiqqan ildizlari suv ichayotgan ajdarvachchalar kabi suvga botgan. Ildizlar ustidan hatlab o'tgan Frodo qizib ketgan oyog'ini qo'ng'ir suvga botirib, yonidagi yirik ildizga suyangancha uxlab qoldi.

Boshini qashlab, og'zini katta ochgancha esnayotgan Sem xavotirga tushdi. «Oqshom yaqin, lekin mudroq hammani barobar bosishi bejiz emas, – xayoldan o'tkazdi u. – Buning ortida jazirama issiq bilan toliqishdan ham battar sabab bor. Men unga ishonmayman. Alla aytishi-chi, uning! Oxiri baxayr bo'lmaydi-yov!»

O'zini oyoqqa turishga majbur qilgan Sem ponilarga e'tibor qildi. Jonivorlarning ikkitasi so'qmoqdan chiqib, ancha nari ketib qolibdi. Sem ularni bazo'r quvib yetib qaytarib keltirgan ediki, qulog'iga ikkita har xil tovush eshitildi: biri baland, ikkinchisi past, muloyim, lekin aniq yangradi. Birinchi tovush tananing suvga shaloplagancha tushganidan chiqqan bo'lsa, past tovush – asta yopilgan eshik qulfining shaqillab yopilganini eslatdi.

Sem daryo tomon yugurdi. Suvga tushib, uyqudan uyg'onishga urinayotgan Frodoni yirik ildiz suvdan chiqishga qo'y-may, g'arq qilishga harakat qilganday bo'lmoqda. Sem Frodoni



kiyimidan tortib ildizdan ajratib olgach, qirg'oqqa chiqardi. Uyg'ongan Frodo yo'talib, anchagina suv tufladi.

– Aytsam, ishonmaysan, Sem, – dedi nihoyat Frodo, – anavi yovuz daraxt meni suvga itarib yubordi. Buni aniq his etdim. Yirik ildiz dastlab ikki bukildi-da, shartta to'g'rilanib meni suvga itarib yubordi.

– Tushingizga kirgandir, janob Frodo, – fikr bildirdi Sem. – Uyqu kelganda bunday joyda o'tirmagan ma'qul.

– Qolganlarning ahvoli qalay? – so'radi Frodo. – Qiziq, ularning tushiga nimalar kiryapti ekan?

Ikkovlon daraxt atrofida aylanib chiqqach, Sem ikkinchi tovush nimaning tovushi ekanligini fahmladi. Pin yo'q. Daraxt tanasidagi darz ketgan joy yopilibdi. Merri ham tuzoqqa tushgan. Ikkinchi tirqish chala yopilib, u yerdan Merrining oyog'i chiqib turibdi.

Frodo bilan Sem Pin yotgan yerga yugurib, Merrini xalos etish uchun daraxt tanasidagi tirqishni ochishga jon-jahd ila urinishdi-yu, foydasi bo'lmadi.

– Qanaqangi bema'nilik bo'ldi bu! – xitob qilib yubordi Frodo. – Nega kirdik o'zi shu o'rmonga. Qaniydi yana Krikxellouda paydo bo'lib qolsak!

Frodo daraxtni kuchi boricha tepti. Daraxtning tanasi bilan shoxlari sezilar-sezilmas titrab qo'ydi. Barglarining shitirlashi masxaraomuz kulgiday eshitildi.

– Yukimiz ichida bolta bormi, janob Frodo? – so'radi Sem.

– Gulxan yoqish uchun tutantiriq chopishga mo'ljallangan kichkinagina boltacham bor, – javob berdi Frodo. – Undan naf bo'lmaydi.

– Bir daqiqa! – xitob qildi gulxan haqida eshitgan Sem. – O't yoqamiz.

– Yoqishga-yu, yoqaveramiz-u, daraxt ichidagi Pinni ham qovurib qo'yamiz-da, – ikkilandi Frodo.

– Biz dastlab daraxtga olov bilan po'pisa qilamiz, – dedi

g'azabi qaynagan Sem. – Ularni qo'yib yubormas ekan, men uni arralab, chopib, burda-burda qilib tashlayman.

Sem yuk ortilgan ponining oldiga yugurib borib, bir juft chaqmoq tosh bilan boltacha ko'tarib keldi.

Ikkovlon daraxtning asirlarni yutib yuborgan joyiga teskari tomon o'tib, qurigan pichan, xazon va shox-shabba yig'di. Sem chaqmoq toshga zarba berishi bilan pichan o't olib, olov tili tutun aralash yuqoriga ko'tarildi. Daraxt shoxlari qarsiladi, hobbitlarning boshi ustidagi barglar og'riq va g'azabdan vishillagan tovush chiqardi. Olov tili qayrag'och tanasini yalay ketdi. Daraxt tanasi qattiq titray boshladi. Shunda Merrining baqirgani, ichkaridan esa Pining bo'g'iq ovozi eshitildi.

– Bas qiling! Bas qiling! – baqirdi Merri. – Ikki bo'lib tashlaydi hozir u meni. U shunday deyapti menga.

Kim? Nima dedi? – qichqirdi Frodo daraxt atrofida yugurib.

– Bas qiling! Olovni o'chiring! – o'tindi Merri.

Qayrag'och shoxlari bilanglab, to'lg'ondi. Atrofdagi daraxtlar ham g'imirlab, o'rmonda shamol ko'tarilganday bo'ldi, suvga tashlangan tosh hosil qilgan to'lqinday butun o'rmon bo'ylab g'azab to'lqini yoyildi. Sem gulxanni tepalab o'chirdi. Frodo nimaga umid qilish, nimaga ishonishni bilmay, baland ovozdagi baqira ketdi:

Yordam bering! Yordam bering! Kim bor, yordam bering!

Frodo o'z ovozini o'zi bazo'r eshitganday bo'ldi. Og'zidan chiqqan ovoz shu zahoti atrofdagi daraxt shoxlari-yu, barglar orasiga singib ketdi. Umidsizlik Frodoning vujudini batamom qamrab oldi.

Kutilmaganda u dong qotib qoldi. Aftidan, qichqirig'iga o'rmon qa'ridan javob yangraganday bo'ldi. Ovoz eshitilgan tomon burilib, diqqat-la quloq soldi. Shubha bo'lishi mumkin emas, kimdir qo'shiq aytib kelyapti. Kimdir xotirjam, bir maromda qo'shiq xirgoyi qilyapti, lekin qo'shiq misralarida zig'irday bo'lsin ma'no yo'q:

*Gol – log, volgliy log, va log ustida tutab yon!  
Sux – mox, sir – bor, volgliy log kelar bu yon!*

Umid uchqunini his etgan va ayni vaqtda paydo bo'lgan yangi tahdiddan xavfsiragan Frodo bilan Sem qoqilgan qoziqday turgan joyida tek qotishdi. Ma'nosiz misralarga ega uzoq cho'zilgan qo'shiqdan so'ng kuychining ovozi yanada baland yangrab, quyidagi so'zlar eshitildi:

*Ko'hna o'rmon bo'rsib, to'zg'igan tamom,  
Qush sayramas, quvonch so'ngan batamom.  
Kun yarmidan o'tib, oqshom kirmoqda,  
Uyda Tomni Tillaxonim kutmoqda.*

*Tillaxonim – tengi yo'q daryo qizi,  
Yo'lim poylar, ikki yuzi qirmizi.  
Qora qayin, qayrag'och, eman, jo'kalar<sup>1</sup>  
Kayfiyatim chatoqdir, yo'lim to'smanglar.*

*Sen ham jim bo'l, ko'p nolima hoy qamish,  
Manzil uzoq, eshitdim men ko'p mish-mish.  
Toliqdi Tom, o'z maskaniga shoshmoqda,  
Uyda Tomni Tillaxonim kutmoqda.*

Daraxt barglari o'z shoxlarida yana harakatsiz osildi. Frodo bilan Sem esa sehrlanganday dong qotgancha turishibdi.

Qo'shiq yangrar ekan, so'qmoqdagi qamish ustida eskirib yirilgan, uchiga uzun ko'k pat ulangan cho'qqidor shlyapa irg'ishlab, raqs tushayotgandek havoda suzib kelayotgani ko'rindi. Shlyapa yana bir bor irg'ishlagach, uni kiygan kishining o'zi ham ko'rindi. Novcha xalq vakili emasligi aniq, chunki uning bo'yi haddan ortiq daroz, jussasi nihoyatda yirik, vazni ham ancha og'ir. Yo'g'on oyog'iga sariq boshmoq, egniga ko'k plash

<sup>1</sup> Jo'ka – jo'kadoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi.

kiygan bu kishi suv ichgani shoshayotgan novvosday maysa va qamishni toptagancha shovqin solib kelmoqda. Uning jigarrang soqoli uzun, ko'k ko'zi ravshan, kulgi ajini qoplagan yuzi olmayday qip-qizil bo'lib, qo'lga suv lolagulining kattagina dastasini ushlab olgan.

– Yordam bering! - baravar baqirishdi Frodo bilan Sem, ikki qo'lini keng ochib.

Hoy! Hoy! To'xtang! -- qichqirdi qo'lini baland ko'targan qariya. – Ana shunday. Qani, mitti odamlar, gapiring, nima gap? Mening kimligimni bilasizmi? Mening ismim Tom Bombadil va men juda shoshyapman. Lolagullaringa tegmang. Xo'sh, gapiring, nima gap, tinchlikmi?

Do'stlarim qayrag'ochning tuzog'iga tushib qolishdi. – deyarli unsiz qichqirdi Frodo.


– Janob Merri tirqishga qisilib qolgan, – baqirdi Sem.

– Nima?! - ovoz ko'tardi Tom, turgan joyida irg'ishlab. -- Qariya qayrag'och-a? Undan xunuk ish bo'lgani yo'qmi, ishqilib? Hech qisi yo'q, hozir hammasi joyida bo'ladi. Nima qilish kerakligini bilaman. Obbo, qari qayrag'och-ey! O'rmon oqsoqolining xulqi xunuk kechadigan bo'lsa, muzlatib qo'yaman, ildizlarini sug'iraman, shamol yo'llab, bargini shilaman! Hoy, qari qayrag'och!

Qo'lidagi suv lolagulini maysaga asta qo'ygan Tom Bombadil ko'hna daraxt oldiga yugurdi. Merrining tanasi ichkarida, oyog'i tashqarida qolganini ko'rib, og'zini daraxt tirqishiga keltirdi-da, past ovozda nimanidir xirgoyi qilganday bo'ldi. Qanday qo'shiq aytganini ilg'ab bo'lmadi-yu, lekin Merri nimanidir his etgan ko'rinadi, oyog'ini siltay boshladi. Tom Bombadil orqaga tisarilib, yerda yotgan shoxlardan birini olib, daraxt tanasini biroz savaladi.

– Qo'yib yubor ularni qari qayrag'och! - amr etdi u. – Nimalar qilyapsan? Nega uyg'onding? Tuproq ye, suv ich, yer qa'riga ildiz ot! Uxla! Uyg'onma! Buni senga men – Tom Bombadil aytyapman!

U Merrini oyog'idan ushlagancha, daf'atan katta ochil-



gan tirqishdan tortib oldi. Shundan so‘ng yog‘ochning qattiq qarsillagani eshilib, ikkinchi tirqish ham keng ochildi. Ichkaridan buddi tepki yeganday Pin otilib chiqdi. Qarsillagan tovush yana baland yangrab, ikkala tirqish baravar yopildi. Daraxt uchidan ildizigacha bir titrab olgach yana jimjillik qaror topdi.

– Rahmat! – birin-ketin minnatdorlik bildirishdi hobbitlar.

Tom Bombadil miriqib kuldi.

– Xo‘sh, mening mitti do‘stlarim, endi uyimga boramiz! – dedi u, har bir hobbitni sinchkovlik-la ko‘zdan kechirib chiqib. – Dasturxonim yog‘, asal va oq nonga boy tuzaladi. Tillaxonim sizni mehmonga kutadi. Savol-javobni o‘sha yerda qilamiz. Ortimdan imkon qadar tez yuring.

Qariya suv lolagullarini oldi-da, hobbitlarga qo‘l siltab, so‘qmoqda irg‘ishlagancha sharq tomon yo‘l oldi.

Qattiq ajablangan, kuchli quvonganidan so‘z topa olmayotgan hobbitlar ham Tomning ortidan shoshishdi. Biroq ularning harakat tezligi Tomga yetishib yurish uchun yetmaydi. Qariya ko‘zdan g‘oyib bo‘lib, uzoqlashayotgan qo‘shig‘i tobora past eshilib bordi. Birozdan so‘ng uning ovozi yana balandlashdi:

*Tezroq yuring mittilar, oqshom tushmoqda,  
Tom oldinga o‘tib ketib, fonus yoqmoqda.  
Qorong‘i tushsa hozir esadi kuchli shamol,  
Bardosh hera olmas hatto kuchli qora mol.*

*Qo‘rqmang endi qayrag‘och-u, bujundan,  
Do‘st tutindik endi biz shu bugundan.  
Eshigim ochiq sizga, dasturxonga marhabo,  
Dahshat orqada qoldi, ayting unga alvido.*

Shundan so‘ng hobbitlar hech nima eshitishmadi. Qu-yosh daraxtlar ortiga botib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Hobbitlar Brendivayn oqshomini, Baklberi qishlog‘ining yuzlab chiroqlari deyarli bir vaqtda yonishini eslashdi. Maysa ustiga daraxtlarning yirik ko‘lankalari tushdi. Daryo sirtida hosil bo‘lgan tuman pa-

g'alari yuqoriga ko'tarilib, qirg'oq tomon suza boshladi.

Oyoqlariga og'ir kishan solinganday sekin odimlayotgan yo'lovchilar kuchli toliqishdi. So'qmoqning ikkala tomonidagi buta va qamish orasidan g'alati tovush chiqdi. Hobbitlar yuqoriga, xira osmonga qarab, daraxtlar uchida o'tirgan maxluqlarning qorong'ilikda baqrayib turgan badbashara yuzlarini ko'rishdi. Sayyohlar o'zlarini xayoliy dunyoga kelib qolishganday, alahsiragan holatdagi oxiri ko'rinmas qo'rqinchli tushda yurishganday his qilishdi.

Charchab, yurgan yo'lida qoqinayotgan sayyohlar harakatni to'xtatishni istashdi. Shu paytda so'qmoq ko'tarila boshlab, qayerdandir suvning shildirayotgani eshitildi. Qorong'ilikda daryoning kichik sharsharalari hosil qilgan ko'pikning oq tusi ko'rindi. Kutilmaganda daraxtlar tugab, tuman tarqaldi. Hobbitlar o'rmonning maysa qoplagan keng yalangligiga chiqib qolishdi. Tezoqar ensiz ariq osmonda paydo bo'lgan yulduzlar shu'lalasi yarqiragancha oqmoqda.

Yalanglikdagi maysa bir tekis, qisqa o'rilgan. Orqada qolgan o'rmon yaxlit devorday ko'rinmoqda. Chetiga tosh terilib, tekislangan so'qmoq yulduzlarning xira shu'lalasi kulrang ko'rinayotgan o'tli tepalik tomon ketgan. Tepalik ustida esa derazalari miltillayotgan bino qad ko'targan. Past-baland bo'lib ketgan so'qmoq to'g'ri o'sha uy ostonasiga eltmoqda. Kutilmaganda ochilgan eshikdan sarg'ish tusli keng nur taraldi. Yo'lovchilarimiz Tom Bombadilning uyiga yetishdi. Bino ortida esa tungi sharq tomon uzoqlashib ketayotgan katta-kichik tepaliklar qorasi ko'rinmoqda.

Hobbitlar bilan ularning ponilari qadamni tezlatishdi. Charchoq qayoqqadir chekindi.

– Hoy, olg'a, Merri dol! – eshitildi ovoz.

*Keling mitti do'stlarim,  
Qadamni bosing dadil!  
Tillaxonim kutmoqda  
Sevinchga to'lgandir dil.*

Yana bir yosh, benazir, yuqoridan oqib tushayotgan bahorgi jilg'aday jarangli ovoz Tom Bombadilning ovozigina jo'r bo'ldi:

*Kiring do'stlar kulbaga,  
Mehmon bo'ling siz aziz.  
To'xtadingiz siz nega,  
Ovqat tayyor, bir laziz!*

*Bombadil Tom uyiga  
Xush kelibsiz hobbitlar,  
Dam olib, gaplashamiz,  
Biroz tinsin ponilar.*

Ostona hatlab o'tgan sayyohlar yaxshigina yoritilgan kulbaga kirishdi.

## VII BOB

### TOM BOMBADILNING UYIDA

Kattagina tosh ostonadan hatlab shifti past uzun xonaga kirgan to'rt nafar hobbit yorqin nurdan ko'zini pirliratgancha, harakatsiz to'xtab qoldi. Sayqal berilgan qo'ng'ir stol ustida baland shamlar yorqin yonmoqda.

Xonaning narigi tomonidagi kursida bir ayol kirish eshigiga yuzlanib o'tiribdi. Uning yangi chiqan qamish rangiday yashil, shudring tomchilarini eslatadigan kumush bilan bezak berilgan uzun sochi yelkasiga yoyilgan bo'lib, beliga o'zaro chirmashgan bo'tako'z<sup>1</sup> va lolagulning tasviri tushirilgan tilla kamar taqqan. Oyog'i yonidagi keng idishda suv lolagullari suzar ekan, bir qarashda ayol hovuz o'rtasidagi taxtda o'tirganday ko'rin-

---

<sup>1</sup> Bo'tako'z – binafsha yoki havorang gulli bir yillik begona o't.



moqda.

– Keling, aziz mehmonlar, ichkariga marhamat! – taklif qildi ayol.

Yaqinda aynan mana shu benazir ovoz eshitilganiga shubha yo‘q. Ichkariga bir necha jur‘atsiz qadam tashlagan yo‘lovchilar xonadon sohibasiga chuqur ta‘zim qilishdi. O‘zlarini juda noqulay, suv so‘rab yo‘l bo‘yidagi uy eshigini taqillatganday his etgan hobbitlar, egniga haqiqiy gul yaproqlaridan tikilgan ko‘ylak kiygan elf qirolchasini uchratganday bo‘lishdi. Yo‘lovchilar og‘iz juftlashiga ulgurmay, o‘rnidan turgan ayol lolagullar ustidan osonlikcha hatlab o‘tdi-da, mehmonlarni tabassum-la qarshi oldi. Uning ko‘ylagi daryo qirg‘og‘iga urilayotgan to‘lqindek shitirlab ovoz chiqarmoqda.

– Xush kelibsiz, qadrdonlar! -- dedi u Frodoning qo‘lidan ushlab. – Tabassum qiling, quvnoqroq bo‘ling. Men daryo qizi Tillabonu bo‘laman.

Ayol mehmonlarni aylanib o‘tib, eshikni ichkaridan yopti-da, hobbitlar tomon yuzlanib, oppoq qo‘lini oldinga uzatdi.

– Tundan bekinib olganimiz ma‘qul! – dedi u. – Hanuz tumandan, daraxtlar soyasi, chuqur havzadan xavotirdamisiz? Hech narsadan qo‘rqmang! Zero, siz, Tom Bombadilning mehmonisiz.

Hobbitlar ayolga hayrat-la tikilib qolishdi, ayol esa har bir mehmonga alohida kulib boqdi.

– Go‘zallikda tengi yo‘q Tillabonu! – tilga kirdi nihoyat Frodo, ayolning ovozigina maftun bo‘lgancha, qalbi tushunarsiz quvonchga to‘lib borayotganini his etib. – Dilrabo Tillabonu! – davom etdi u. – Biz eshitgan qo‘shiq zamiridagi quvonch tuyg‘u-sining sababini mana endi tushundim.

*Qomati xushbichim daryo qizi Tillaxon,  
Nigohi maftunkordir, qarar go‘yo olmaxon.  
Tabassumi eslatar ilk bahor quyoshini,  
Har kim ko‘rib yo‘qotar o‘z tinchi va boshini.*

Frodo o‘z ovozidan o‘zi hayratlangancha birdan to‘xtadi. Shu qo‘shiqni hozir o‘zi aytdimi?! Tillabonu esa kulib yubordi.

– Xush kelibsiz! – takrorladi u. – Shir aholisi bunchalik shirinzabon ekanligidan bexabar ekanman. Anglashimcha, sen elflar do‘sti bo‘lib, chaqnoq nigohing bilan benuqson ovozing bundan dalolat bermoqda. Omadli uchrashuv! O‘tiring, uy sohibini kuting, hozir kelib qoladi. Toliqqan ponilaringiz bilan shug‘ullanyapti u ayni damda.

Hobbitlar suyanchig‘i qayrilma kursilarga joylashishdi. Tillabonu esa dasturxon tuzashga kirishdi. Mehmonlar ayoldan ko‘zini uza olishmayapti. Uy sohibasining nazokati, xirom aylab harakatlanishi hobbitlarning qalbiga zavq bag‘ishlamoqda.

Uyning orqa tomonida qo‘shiq eshitildi. Yana o‘sha tushunarsiz misralar: «gol-log», «sir-bor», «sux-mox».

Yashavor Bombadil, vaqtida qutqarding, yelday yugurding,

Moviy kamzul-u, sariq boshmog‘ingni bejiz kiymading.

– Go‘zallikda betakror yaxshi qiz, marhamat qilib aytsangiz, Tom Bombadil kim o‘zi? Agar savolim ahmoqona chiqmagan bo‘lsa, albatta.

– Bombadil bu, Bombadil, – javob berdi harakatini to‘xtatgan Tillabonu, hobbitlarga kulib boqib.

Frodo ayolga savol nigohi ila qaradi.

– U mana bu tepalik, o‘rmon va undagi suv sohibi, – tushuntirish bergan bo‘ldi ayol.

– Demak, ushbu hudud to‘la-to‘kis uning tasarrufidagi mulk ekan-da? – so‘radi Frodo.

– Yo‘q, albatta. Bu haddan ortiq mashaqqatli vazifa bo‘lar edi, – javob berdi kulgisi so‘ngan Tillabonu. – Daraxtlar, o‘t-o‘lanlar, shu o‘rmonda borki o‘simlik va jonivorlarning ixtiyori o‘z qo‘lida. Tom Bombadil esa shunchaki, bu yerning xo‘jayini, xolos. Hech kim Bombadilni kun yorug‘ida bo‘lsin, yo qosh qorayganda o‘rmonda izg‘ib yurgani, suv kechayotgani,

tepalikka chiqayotganini ko'rmagan. Tom qo'rquv nimaligini bilmaydi, Tom Bombadil – yaxshi xo'jayin.

Eshik ochilib ostonada Tom Bombadil ko'rindi. Uning shlyapasiz boshidagi qalin qizg'ish-qo'ng'ir sochiga kuz barglaridan yasalgan tosh qo'ndirilgan. Tillabonuning oldiga kelar ekan, qo'lidan tutgancha kulib boqdi.

– Bu mening go'zal rafiqam! – dedi u hobbitlarga ta'zim bajo aylab. – Yashil va kumush tushlarga burkangan, oyog'i ostida gul ochiladigan Tillabonu. Dasturxon tayyormi? Xo'sh, non, yog', asal, sut, meva-cheva bor ekan, ko'rdim. Bo'laveradimi, qadrli mehmonlar? Kechki ovqat tayyormi, azizam?

– Ovqat-u, tayyor, – javob berdi Tillabonu, – mehmonlarimiz tayyormikan?

Tom qarsak urib, xitob qildi:

– Obbo, Tom-ey! Mehmonlarning toliqqanini unutibsan-u! Ortimdan yuring, quvnoq do'stlarim. Bir tetiklashtirsin Tom sizlarni. Yuvinib, maza qilasz. Plashlaringiz va yuk xaltalaringizni bir chetga qo'ying.

Hobbitlar eshiklardan birini ochgancha xonani tark etgan Tomning ortidan ergashib, yo'lak muyulishi ortiga o'tishdi. Bu yerda past shifti qiya xona bo'lib, aftidan, uyning shimoliy tomoniga taqab solingan kichik imoratga o'xshaydi. Xonaning tosh devoriga yashil va sariq pardalar osilgan. Pol ham toshdan yotqizilgan bo'lib, ustiga yangi o'rilgan qamish to'shalgan. Qamish ustiga, devor yaqiniga to'rtta yumshoq ko'rpa bir qator tashlangan. Har bir ko'rpa oq adyol bilan yopilgan. Narigi devor yaqiniga uzun bog' kursisi o'rnatilgan bo'lib, ustida katta sopol tog'oralar, yoniga esa sovuq va issiq suv quyilgan ko'zalar turibdi. Har bir ko'rpa oldiga bir juftdan yashil rangli xona shippaklari qo'yilgan.

Ko'p o'tmay, yuvinib tarangan hobbitlar dasturxon atrofiga, stolning ikki tomonida juft-juft bo'lib joylashishdi. Stolning ikki boshiga esa Tillabonu bilan uy sohibi bir-biriga yuzlanib o'tirishdi. Kechki ovqat uzoq va quvnoq o'tdi. Taomlar benuqsan bo'lib, mehmonlar o'z hurmatini bilgan hobbit qanday ovqatlan-

sa, shunday to'yib ovqatlanishdi. Piyolalariga quyilgan ichimliklar muzday buloq suvidan ham toza bo'lsa-da, qandaydir g'alati ta'sir o'tkazib, qalbgga quvonch bag'ishlaganicha, gapni gapga uladi. Mehmonlarning gapirishidan ko'ra qo'shiq aytishi oson kechdi.

Kechki ovqat nihoyasiga yetgach, Tom bilan Tillabonu dasturxonni yig'ishtirishdi. Mehmonlarga bezovta bo'lmay, bemalol o'tirishga ijozat berilib, toliqqan oyoqlari ostiga bittadan yumshoqqina kursichalar berildi. Ularning oldidagi keng o'choqda yonayotgan olovdan xushbo'y hid taralmoqda. Aftidan, olma g'olasi yoqilayotgan ko'rinadi. Hamma joy yig'ishtirilib, saranjom-sarishta qilingach, o'rtada turgan bitta fonus va uzun stolning ikki boshidagi bittadan shamdan tashqari barcha sham va fonuslar o'chirildi. Qo'lida sham ushlab, hobbitlarning qarshisiga kelib to'xtagan Tillabonu hammaga xayrli tun va yaxshi tushlar tiladi.


– Erta tonggacha uyqungiz tinch kechsiz! – dedi u. – Tungi tovushlardan cho'chimang. Eshik-derazalarimizdan oy va yulduzlar shu'lasini bilan tepalik cho'qqisidan o'tgan shabodadan tashqari hech narsa singib o'tmaydi. Xayrli tun!

Charaqlayotgan ayol ko'ylagini mayin shitirlatganicha xonani tark etdi. Uning qadami tungi sokinlikda kichik tepalikdan oqib tushib, toshga urilayotgan jilg'a shovqinini eslatdi. Tom ularning yonida sukut saqlab, ovqat mahalida miyasiga kelgan ko'plab savollarini berishga jur'at eta olmay o'tiribdi. Nihoyat Frodoning o'zi gap ochib qoldi:

– Mening qichqirig'imni eshitib yetib keldingizmi bugun siz, ser, yo biz uchun og'ir damda paydo bo'lganingiz shunchaki, tasodif bo'ldimi?

Tom kutilmagan ushbu savoldan uyg'onib ketganday bo'ldi.

– Nima? Qichqirig'ingizni? Yo'q, eshitganim yo'q, – javob berdi u. – Bu vaqtda qo'shiq aytib kelayotgan edim-u. Agar tasodif deyish mumkin bo'lsa, yoningizda paydo bo'lganim tasodif edi. Umuman aytganda, sizlarni kutgandik. Siz haqingiz-



da, uzoq safarga chiqqaningiz haqida eshitdik. Har qanday yo'l Vitvindi daryosiga olib kelishi bois, shu yerga yetishingizni bilardik. Ko'lina qayrag'och juda qudratli daraxt: pakana xalq uning murakkab jodusidan qochib qutulishi qiyin kechadi. Biroq u yerda Tomning juda zarur, kechiktirib bo'lmas ishlari bor edi.

Tom uyqusiraganday bosh siltab qo'ydi-yu, ohangdor ovoz bilan davom etdi:

– U yerda mening ishim bor, Tillabonu uchun oq nilufar teraman. Birinchi qor yog'ishidan, sovuq gulni nobud qilishidan oldin hamisha shunday qilaman. Uyda ko'zini quvontirib yozgacha gullaydi. Ko'pdan buyon yuraman men ushbu daryo sohilida. Qamishlar orasida maftunkor ovozi ila qo'shiq aytayotgan rafiqamni ham erda bahorda, shu yerda topganman.

Bombadil boshini ko'tarib, yarqirayotgan ko'k ko'zini mehmonlarga qadadi.

– Shunday ekan, do'stlarim, – davom etdi u, – oq tol oldiga bahor faslidagina borishim mumkin. Qayrag'och bilan ham loygarchilikdan keyin, yangi barglarga burkanganda ko'rishaman.

Tom yana jim bo'lib qoldi. Savol berishdan o'zini tiya olmagan Frodo javobini eshitishga qiziqqan navbatdagi savolini berdi:

– Qariya qayrag'och haqida so'zlab bersangiz, ser. Kim o'zi u? Ilgari eshitmagan ekanman bunday daraxt haqida.

– Yo'q, gapirmang, har qalay, hozir emas, – baravar e'tiroz bildirishdi Merri bilan Pin, kutilmaganda qad rostlab. – Ertalab eshitarmiz bunday hikoyalarni.

– To'ppa-to'g'ri! – ma'qul topti qariya. – Dam oladigan vaqt bo'ldi. Ayrim narsalarni yerga ko'lanka tushganda eshitish xavfli. Ertalabgacha miriqib uxlang. Tungi tovushlardan, qariya qayrag'ochdan qo'rqmang.

Fonusni puflab o'chirgan Tom Bombadil ikki qo'lga bittadan sham ushladi-da, hobbitlarni xonalarigacha kuzatib qo'ydi.

Oppoq jundan tikilgan ko'rpa-yostiqlar juda yumshoq ekan. O'larcha toliqqan hobbitlar o'rniga yotiboq tarashadek qotib qolishdi.

Frodooning tushiga tilla tusli oyning chiqishi kirdi. Bunday oy yog'dusida baland tosh devor va katta darvozaga o'xshash qora ravoq ko'rinib, nazarida, o'sha devorga ko'tarilayotganday bo'ldi. Aslida bu devor emas tepaliklardan hosil bo'lgan halqaday ko'rinib, halqa markazi tekis maydon, uning qoq o'rtasida esa uchi o'tkir tosh minora qad ko'targan. Minorada inson sharpassi ko'rindi. Ko'tarilayotgan oy ushbu sharpa ustida to'xtalib, shamolda xilpirayotgan oppoq soch-soqolini yaltiratdi. Pastda bo'rilar galasi uylab, yana qandaydir g'alati tovushlar eshitilmoqda. Kutilmaganda bahaybat qushning keng yozilgan ulkan qanoti o'z ko'lankasi ila oy yog'dusini to'sib qo'ydi. Minorada turgan kishi qo'lini ko'tardi. Kutilmaganda qo'lidagi narsa yorug' shu'la taratdi. Osmon-u falakdan uchib tushgan bahaybat burgut minoradagi kishini beliga o'tqazib uchib ketdi. Maydonda qolganlar buni ko'rib rosa o'kirishdi. Kuchli shamol shovqini, sharq tomondan yugurib kelgan ot tuyog'ining dupur-dupuri eshitildi. «Qora otliqlar!» – xayoldan o'tkazdi uyg'onayotgan Frodo, ot dupurini hamon eshitar ekan. Yotgan joyida uzoq o'yga toldi: mana bu tosh devor ichidagi xavfsiz joyni tashlab chiqishga yana jur'at qilarmikan? Qilt etmay, atrofga quloq tutdi. Hamma yoq jimjit. Narigi biqiniga yonboshlab, yana uyquga ketdi. Keyingi tushini endi eslab qolmadi.

Uning yonida yoqimli tush ko'rib yotgan Pinning ham uyquasi buzilib, tushi kutilmaganda o'zgardi, ingragancha narigi tomoniga yonboshladi. Birdan u uyg'onib ketdi, yo uyg'ondim deb o'yladi. Pin qorong'ilikda eshitilib tushini buzgan tovushni hamon eshitmoqda. Ushbu tovush shamolda bir-biriga ishqalana-yotgan daraxt shoxlarining g'archillashiga, yog'och barmoqlarining tosh devor va deraza oynasini timdalab chiqarayotgan g'arch-g'arch tovushiga o'xshaydi. «Anavi odamxo'r qayrag'och uy ortiga kelib olmadimikan», – xayoldan o'tkazdi Pin. Daf'atan uning vujudini qandaydir qo'rqinchli, mana bu xona

qayrag'ochning qorni bo'lib, ustidan masxaraomuz kulayotgan ovozlar eshitalayotganiga qo'rqinchli ishonch hissi qamrab oldi. Yotgan joyiga irg'ib o'tirgan Pin yumshoq ko'rpa-to'shakni ko'rgach, tinchlanib yana yonboshladi. Nazarida, kimdir: «Hech narsadan qo'rqma! Ertalabgacha tinchgina dam ol! Tungi tovushlardan cho'chima!» – deya tinchlantirganday bo'ldi. Pin yana uyquga ketdi.

Xotirjam uxlab yotgan Merri tushida shildirab oqayotgan suv shovqinini eshitmadi. Tepadan asta oqib tushayotgan suv uy atrofida to'planib, atrofda hovuz hosil qildi, devor yaqinida jildirab asta ko'tarilgancha, yengib bo'lmas havzaga aylandi. «Cho'kib o'laman! – xayoidan o'tkazdi u. – Suv uy ichiga singib kirish yo'lini topsa bas, g'arq bo'lishim muqarrar». Hozir u sirpanchiq balchiqda yotganday his etdi o'zini. Irg'ib turgan Merri-ning oyog'i muzday polga tegdi. Qayerdaligini eslab, yana yotdi. Tillabonuning: «Eshik-derazalarimizdan oy va yulduzlar shu'lasi bilar 'epalik cho'qqisidan o'tgan shabodadan tashqari hech narsa singib o'tmaydi», – deganini eslab tinchlanguancha, yana o'rniga yotdi. Yengil esgan shabada pardani qo'zg'atdi. Chuqur xo'rsingan Merri uyquga ketdi.

Sem tun davomida tarashaday qotib uxlab, rosa miriqdi, agar tarashaga miriqish hissi yot bo'lmasa, albatta.

To'rtovlon hobbit tong yorug'ida deyarli bir vaqtda uyg'ondi. Ularning xonasiga kirib kelgan Tom chug'urchiqqa taqlid qilgancha, u yoq, bu yoq hushtak chalib yuribdi. Hobbitlarning qo'zg'alayotganini ko'rgan Bombadil qars urib, xitob qildi:

– Quyosh chiqib tong otdi! Uyg'oninglar quyonlar!

Tom sariq pardalarni surib ochdi. Xonani yoritgan derazalardan biri sharq, ikkinchisi g'arb tomon qaragan.

Uyquga to'ygan hobbitlar charchog'ini unutib turishdi. Deraza oldiga borgan Frodo shudring qoplab kulrang tus olgan ekinzorni ko'rdi. Nazarida, chimda tuyoq izlari bo'lib, derazagacha yetib kelishi kerak edi. Bir-biriga zich qo'qilgan yog'ochlardan qad ko'targan qoziqdevor atrofini ko'rish imkonini chek-

lab qo‘ygan. Olisda, ufq ortidan quyosh chiqayotgan joyda tepaliklarning cho‘qqi qismi ko‘rinmoqda. Tong xira otgan bo‘lib, sharq osmonida sarg‘ish tus olgan uzun bulutlar suzmoqda. Hademay yomg‘ir yog‘adigan ko‘rinadi. Kun tez yorishib, loviyaning qirmizi gullari nam barglarning yashil tusida porlab ko‘rindi.

Pin g‘arb tomon ochilgan derazadan o‘rmonni batamom to‘sgan tuman okeanini tomosha qilmoqda. Ensiz bulutlarning yaxlit qatlamini yuqoridan ko‘rib turganday go‘yo. Bir joyda tuman ko‘pdan ko‘p oqim va to‘lqinlarga parchalanib ketgan. U yer Vitvindl vodiysi. Tepaliklar tizimida hosil bo‘lib pastga tushgan tuman oq ko‘lankalar orasida gum bo‘lmoqda. Deraza ostida gulzor va kumush ip chirmalgan buta-devor ko‘rinib, uning ortidagi bir tekis o‘rilgan maysa shudring ostida qolgan. Keksa qayrag‘och alomati ko‘rinmaydi.

– Salom, quvnoq do‘stlarim! – xitob qildi Tom sharqiy deraza tavaqasini kengroq ochib. Xona yomg‘ir hidiga to‘yingan havoga to‘ldi. – Fikrimcha, quyosh bugun o‘z chehrasini ko‘p ko‘rsatmaydi. Tong otmasdan oldin tevarak-atrofnı kezib, tepaliklargacha yetdim, havo, shamol va oyoq ostidagi nam maysaning so‘zlariga quloq tutdim. Tillabonuni derazasi tagida qo‘shiq aytib uyg‘otdim. Ammo hobbitlarnı tong saharda hech narsa uyg‘ota olmas ekan. Tungi vaqtda pakana xalq vakillari alahsirab uyg‘ondi-yu, yana tarashaday qotishdi. Endi turing, qadrdon do‘stlarim! Tungi tovushlarnı unuting. Imillamasangiz, sizni nonushta kutadi. Kech qolsangiz, yomg‘ir suvi bilan alafdan<sup>1</sup> tashqari, hech narsa topa olmaysiz!

Tomning ushbu ogohlantirishi hazil bo‘lsa-da, hobbitlar dasturxon atrofıdagi joylarını egallab, taomlar yeb tugatilganidan so‘nggina, tark etishdi. Na Tom va na Tillabonu nonushta dasturxonıgı o‘tirdi. Tom oshxonada taraqa-turuq qildi, tepaga chiqib, pastga tushdi, uy atrofıda hirgoyi qilib yurdi. Oshxona derazasi g‘arbgı, tuman qamragan yalanglikka qaragan bo‘lib, tavaqalari

<sup>1</sup> Alaf (arabcha) – 1) o‘t, xashak, ko‘kat; 2) supurgi o‘t.



keng ochiq. Qamish tik bosilgan tomdan hovliga suv tomyapti. Hobbitlar nonushta qilishni yakunlashar ekan, chakka o'tmas tom ustida yig'ilgan bulutdan jala quya boshladi. Yomg'ir pardasi shu qadar qalinki, ortidagi o'rmon ko'rinmaydi.

Derazadan tashqi manzarani tomosha qilib o'tirishar ekan, mehmonlar Tillabonuning osmondan yomg'ir bilan birga tushayotganday jaranglayotgan ovozi eshitishdi. Ayol qayerdadir tepada turib qo'shiq aytyapti. Qo'shiqning bir necha misralarini eshitib, yomg'irga bag'ishlanganini anglashdi. Hobbitlar zavq-la qo'shiq tinglashdi. Frodoning qalbi quvonchga to'lib, safarga chiqishlari kechga surilgani uchun ob-havodan minnatdor bo'ldi. Uyg'onganidan buyon safar tashvishini qilayotgan edi, endi esa bugun ketmaslikka ahd qildi.

Tepaliklar tizimining moviy bag'riga yomg'ir bo'lib to'kilishi uchun bo'lsa kerak, g'arbdan esayotgan shamol osmondagi bulutlarning barini shu tomon quvib kelmoqda. Yog'ayotgan yomg'ir suv pardasiga aylang bo'lib, tevarak-atrofdan aniq bir narsa ko'rinmaydi. Frodo ochiq eshik ostonasiga chiqib, yomg'ir qatralari hosil qilgan pufakchalarga to'lgan bo'r-so'qmoq oq sutday pastga, vodiya oqib ketayotganini kuzatdi. Muyulish ortidan qo'l siltab yomg'ir qatralarini o'zidan nari quvayotgan Tom Bombadil chiqib keldi. Darhaqiqat, ostonada yechib o'choq oldiga keltirib qo'ygan ho'l boshmog'idan tashqari, biror joyiga nam tegmagan. Eng katta kursiga joylashib o'tirgan Tom hobbitlarni yoniga chaqirdi.

– Bugun Tillabonuning kir yuvish kuni, – ma'lum qildi u. – Kuz faslida hamma narsani yuvib tozalab oladi. Hobbitlar uchun esa haddan ortiq rutubatli kun bo'ladi! Uzundan uzoq hikoya va rivoyatlar aytib, savol-javob qilib o'tirish uchun ayni muddao. Binobarin, bu ishni Tomning o'zi boshlab beradi.

Mehmonlar kun bo'yi ko'pdan ko'p qiziqarli narsalar eshitishdi. Tom ba'zan o'ziga o'zi murojaat qilganday gapirayotgan bo'lsa, ba'zan qalin o'sgan uzun qoshi orqali yorqin moviy ko'zi ila hobbitlarga qarab-qarab qo'ymoqda. Hikoyasini davom etar ekan, gohida o'tirgan o'rmondan shartta turadi-da,

qo'shiq hirgoyi qilganча raqsga tushib qoladi. Tom hobbitlarga asalarilar, o'rmon gullari, daraxtlar hayoti, o'rmonda yashaydigan g'alati jonivorlar, parmachak butalarida yashaydigan yovuz va beozor, tabiatan do'stona va badxohona, shafqatsiz va ochiq ko'ngil mavjudotlar haqida so'zlab berdi.

Uning hikoyalarini eshitgan hobbitlar o'zlarini ushbu o'rmonda begona ekanligini anglab, unda kechayotgan hayotni asta tushuna boshlashdi. Tomning hikoyalarida qariya qayrag'och muntazam tilga olib borildi. Frodo o'sha daraxt haqida juda ko'p narsalarni bilib oldi, chunki bunday rivoyatlar qandaydir orom baxsh etar edi. Tomning aytganlari daraxtlarning g'ayrioddiy, noxush fikrlarini, yerda bemalol yurib, daraxtlarni kemiradigan, g'ajib yeydigan, kesib, chopib, sindirib olovda yoqadiganlarga, bir so'z bilan aytganda, o'rmonni vayron qiluvchi bosqinchilarga nisbatan nafratga to'la qalbini ochib, ko'rsatdi.


O'rmonga «Qadimiy» nomi berilgani bejiz emas, u chindan ham allaqachon unut bo'lib ketgan o'tmish o'rmonlarining qoldig'i sanalib, mana bu daraxtlar har biri tog'day uzoq umr ko'rgan, dunyoga ustun bo'lgan ko'hna bobokalon daraxtlarning bobokalonlaridan qolgan avlodidir. Minglab yillar ushbu daraxtlar vujudini takabburlik, oqillik va g'azabga to'ldirgan. Ammo ularning birortasi kekxa qayrag'och singari xavfli emas. Uning yuragi allaqachon chirib tushgan bo'lsa-da, yoshlik davridagi kuch-qudrati batamom saqlanib qolgan. Ayyor, makkor, seyr-jodu masalasida katta tajribaga ega ushbu qayrag'ochning qo'shig'i-yu, mulohazasi o'rmonda, daryoning ikkala tomonida baralla yangraydi. Uning xira, hamisha tashna qalbi uzoq-uzoqlarga yetgan ildizlari orqali yer qa'ridan kuch olib, zohiran ko'rinmas tashqi barmoqlari orqali esa havodan qudrat olib, baland to'siq ostidan ho'v anavi tog' bag'rigacha cho'zilgan o'rmon daraxtlarini o'z izmida saqlaydi.

Kutilmaganda Tomning hikoyalari o'rmon mavzusidan chetga chiqib, huddi sharsharalari sharillab, muzday suvi toshdan toshga sapchib, singan qoyalarga urilib, o'zani maysazor bo'ylab

ilang-bilang ketgancha oqadigan o'ynoqi soy kabi tog' bag'ri tomon burilib ketdi. Endi hobbitlar katta-katta qo'rg'onlar, muhtasham qabr ko'tarmalari, tepaliklar va ular orasidagi jarliklarda mavjud tosh to'garaklar haqida rivoyatlar eshitishmoqda. Bir zamonlar o'sha tog' bag'ridagi yaylovlarda qo'y podalari ma'rashgan. U yoq, bu yoqda baland ko'tarilgan yashil va oq devorlar bo'lgan. Tepaliklar ustida katta-kichik qal'alar qad ko'targan. Ammo mahalliy mayda qirolliklar bir-biriga qarshi tinim bilmay urush olib borishgan. Ularning qonga to'yimas yangi qilichlarida tong quyoshi qizg'ish tus olib charaqlagan. Ko'p g'alabalar va mag'lubiyatlar bo'lib, minoralar qulagan, qal'alar yonib bitib, olov osmongacha baland ko'tarilgan. Qirollar va qirolchalarning sag'analariga oltin-kumush buyumlar kiritilgan, qabrlar hamma narsani yutib yuboravergan, tosh devorlar qulab, keyinchalik bu yerlar qalin o't-o'lan bosgancha yaylovlarga aylangan. Qo'y podalari izg'ib o't yegan joylar vaqt o'tib yana giyoh o'smas joyga aylangan. Uzoq-uzoqlardan cho'zilib kelgan ko'lanka tepalikalarga yetib, qabrlardagi suyaklar qo'zg'ala boshlagan. Qo'rg'on arvohlari oltin-kumushlarini, sovuq barmoqlariga taqilgan uzuklarini jaranglatgancha jarliklarda izg'iy boshlashgan. Tosh to'garaklar yer qa'ridan bo'rtib chiqib, oydin kechalarda yalang'ochlangan siniq tishlarday ko'rinish bergan.

Hobbitlar qo'rquvdan titrashdi. Hatto Shirda ham o'rmon ortidagi katta qo'rg'on arvohlari haqida har xil mish-mish gaplar yuradi. Bunday hikoyalarni hobbitlar qadrdon uyining tarsillab yonayotgan o'chog'i oldida o'tirib ham eshitishni yoqtirishmaydi. To'rtovlon hobbit kutilmaganda shuni anglab yetdiki, Tomning rivoyatlari qalblarida bor quvonchni quvib soldi. Uning uyi esa aynan mana shu o'lim keltiradigan qo'rg'onlar chegarasida turibdi. Ular Tom aytayotgan hikoyalarning mantiqiy tizmasini yo'qotib qo'yib, tipirchilab qolishdi.

Uning gaplariga yana e'tibor qilishar ekan, fahmlashlaricha, endi Tomning hikoyalari ularning xotirasi-yu, tasavvuridan tashqaridagi, dunyo hali keng, dengizlar olisda bo'lgan



allaqanday makon va zamonlarga yetakladi. Qariya faqat elflar yashagan ibtidoiy zamonlar haqida kuylamoqda. Daf'atan unini o'chirgan Tom mudroq bosayotganday bosh irg'ib qoldi. Hobbitlar sehrlanganday jim o'tirishdi, Tom aytayotgan narsalardan shamol tinib, bulut tarqadi, zulmat sharqdan ham, g'arbdan ham bostirib, osmon oppoq yulduzga to'ldi.

Tong edimi bu, oqshommi, bir kun o'tdimi, ko'pmi, Frodo ayta olmaydi. Na ochqaganini sezdi u, na toliqqanini. Hayratda ekanini biladi, xolos. Yulduzlar taratgan shu'la dera-zadan xonaga tushib, atrofni falak sukunati qurshab olganday go'yo. Frodo kuchli hayratdan va ushbu jimjittilik sabab kutil-magan qo'rquvdan tilga kirdi.

– O'zingiz kim bo'lasiz? – so'radi u nihoyat.

– Nima? – tushunmadi Tom, nim qorong'ilikda ko'zi yarqirab. – Ismimni bilasan, shekilli? Sening savolingga berila-digan yagona javob shu. Qani, ayt-chi, kimsan sen, nega yol-g'izsan, nega ismingni o'zgartirib olgansan? Sen yoshi, men qari. Men ushbu hudud oqsoqoliman. So'zlarimni eslab qoling do'st-larim: Tom bu yerga anavi daryo o'zani paydo bo'lmay, o'rmon hali shakllanmay turib kelgan. Tom yomg'irning bu yerga yog'ilgan eng birinchi qatralarini, tuproqqa qadalgan dastlabki urug'ni yaxshi eslaydi. So'qmoqlarni novcha bo'yli xalqdan oldin tepalab ochgan, pakana xalqning paydo bo'lishini o'z ko'zi bilan kuzatgan. Bu yerlarga u qirollardan oldin, ularni qabr ko'tarmalari-yu, qo'rg'onlarda izg'iyotgan arvoqlaridan ancha oldin kelgan. Elfilar g'arb tomon yo'l olgan zamonlarda Tom ham shu yerda bo'lgan. U vaqtda dengizlar hali qayrilib ketmagan, yerda qo'rquv bo'lmagan, Zulmat Hukmdori tashqaridan kirib kelmagan zamonlar edi.

Deraza ortida qandaydir sharpa o'tganday bo'lib, hobbit-lar bir-biriga qarab qo'yishdi. Atrofga alanglab, yorug'lik oqimi taralayotgan ostonada turgan Tillabonuni ko'rishdi. Ayol qo'li-dagi shamni yelvizakdan kafti bilar himoya qilmoqda. Sham shu'lasi uning barmoqlari orasidan quyoshning oq parda ortidan singib o'tgan nurlaridek taralmoqda.

– Yomg‘ir tindi, – ma‘lum qildi Tillabonu. – Yangi suv yulduzlar ostida daralar orasida jo‘sh urib shildiramoqda. Keling, biz ham quvnab, kulaylik!

– Va keling endi ovqatlanaylik! – xitob qildi Tom. – Uzoq cho‘zilgan hikoya kishi chanqovini kuchaytirsa, tinmay hikoya eshitish – kishining och qolishiga sabab bo‘ladi. Ertalabdan kechgacha hikoya-yu, rivoyat eshitingiz.

Kursisidan irg‘ib turgan Tom kamin tokchasidagi shamni olib Tillabonuning qo‘lidagi sham o‘tidan o‘t oldirdi. Stolni raqs tushgancha aylanib o‘tgach, chiqish eshigi tomon yurib, g‘oyib bo‘ldi.

Ko‘p o‘tmay u yegulik terilgan og‘irgina patnis ko‘tarib qaytdi. Tom bilan Tillabonu o‘z joylarini egallashdi. Hobbitlar ham quvonch va hayrat-la dasturxon atrofidagi kursilarga joylashib o‘tirishdi. Tillabonuning xirom aylab yurishi, Tomning g‘alati va ayni vaqtda quvnoq sakrashi hobbitlarning qalbini quvonchga to‘ldirdi. Zero, Tomning xona bo‘ylab va stol atrofida raqs tushib yurishi, ko‘p o‘tmay dasturxonning yegulikka to‘lib-toshishiga qandaydir daxli borday ko‘rindi. Devorga o‘rnatilgan shamlar oq va sarg‘ish shu‘la berib yondi. Tom mehmonlarga ta‘zim qildi.

– Kechki ovqatga marhamat, – taklif qildi Tillabonu.

Oq kamar taqqan ayolning egnidagi kiyimi kumush bilan bezatilgan, oyog‘iga baliq tangasidan tayyorlangan shippak kiygan. Tom esa egniga, yashil paypog‘ini hisobga olmaganda, endigina yomg‘ir yuvgan bo‘tako‘zni eslatadigan moviy kiyim kiygan.

Kechki ovqat kechagidan ham zo‘r bo‘ldi. Shu vaqtgacha Tomning so‘zlaridan ta‘sir lanib o‘tirgan hobbitlar yegulikni xayoliga xam keltirishmagan ekan. Mana endi taom to‘la dasturxonni ko‘rib, qorin ochgani esga tushdi, o‘zlarini bir hafta ovqatlanmaganday his etishdi. To‘rtovlon dastlab qo‘shiq aytmay, gaplashmay, hech narsaga e‘tibor qilmay ovqatlandi. Birozdan so‘ng kayfiyatlari asta-sekin ko‘tarilib, ovozlarida quvonch ohangi paydo bo‘ldi.

Ovqatdan so'ng Tillabonu mehmonlarga ko'p qo'shiq aytib berdi. Uning qo'shiqlari chiroyli ohangda boshlanib, sukunat-la yakun topdi. Ushbu sukunatda hobbitlar xayolan chuqur o'pqonlarni, keng xandaqlarni tasavvur qilishdi, ularning tubida qop-qora osmon-u, olmosday yaltiroq yulduzlar aksini ko'rishdi. Shundan so'ng, Tillabonu mehmonlarga yana xayrli tun tilab, ularni o'choq oldida qoldirgancha, xonani tark etdi. Tom esa hali ancha tetik bo'lib, hobbitlarni savolga ko'mib tashladi.

Aftidan, Tom, hobbitlarning o'zlari bazo'r eslaydigan Shir tarixi va undagi ishlar haqida, mehmonlar va ularning sulolari haqida ko'p narsalarni biladigan ko'rinadi. Bundan ular hayron bo'lishmadi, Tom ham yaqinda bo'lib o'tgan hodisalarga doir ma'lumotlarni fermer Biryukdan eshitganini sir tutmadi. Chunki u Biryukni jiddiy shaxs deb biladi.

– Oyog'i ostida yerga ishlov beradigan, qo'li hamisha loy, suyagining iligigacha oqil, ikkala ko'zi ochiq hobbitlardan u, – dedi Tom, Biryukni tavsiflar ekan.

Tom elflar bilan muloqotda bo'lib, Frodoning Shirdan yashirincha qochib chiqqani haqidagi xabar unga Gildordan kelgani aniq.

Qariya Tom shunchalik ko'p narsalarni bilar, savollari shunchalik ustomon ediki, Frodo unga beixtiyor Bilbo haqida, o'z umidlari-yu, qo'rquvlari haqida Gendalfga aytgan gaplardan ham ko'p narsalarni aytib berdi. Bosh chayqagan Tom Qora otliqlar haqidagi gaplarni eshitib, ko'zida uchqunga o'xshash allanima porlaganday bo'ldi.

Qani, ko'rsat-chi menga, o'sha qimmatbaho Uzuing-ni! – gapni bo'ldi birdan u.

Frodo o'zi o'zidan hayratlangan holda kissasiga qadalgan zanjirni chiqarib, uchiga qadalgan uzukni yechdi-da. Tomga uzatdi.

Uzuk Tomning terisi qora kaftiga tegishi bilan o'lchami kattalashdi. Buyumni ko'tarib, ko'ziga yaqin keltirgan Tom kutilmaganda xandon otib yubordi. Hobbitlar bir vaqtning o'zida ham kulgili, ham xavotirli tomosha ko'rishdi: Tomning yorqin

keltirdi. Dastavval hobbitlar bunda hech qanday g'alati narsa ko'rishmadi. Sal o'tib oh urib yuborishdi. Nega Tom ko'zdan g'oyib bo'lmadi?!

Tom Bombadil yana kulib yubordi, Uzukni havoga otgan edi, buyum yalt etib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hayajonlanib ketgan Frodo g'ayriixtiyoriy ravishda baqirib yubordi. Tom esa engashib, kulib boqqancha, Uzukni Frodoga uzatdi.

Frodo Uzukni ko'zboylog'ichga berganday shubha ila diqqat bilan ko'zdan kechirdi. O'sha uzukning o'zi yoki juda o'xshash ko'rinyapti, vazni ham o'sha: Uzuk hamisha Frodoning kaftiga og'ir yotgan. Gendalf muhim va xavfli deb bilgan narsaga kaltabinlik-la qaragani uchun Tomdan biroz achchiqlanganday ham bo'ldi. Tom o'z hikoyalarini davom etib, bu safar bo'rsiqlar<sup>1</sup> va ularning g'alati odatlari haqida gap boshlar ekan, Frodo Uzukni hech kimga bildirmay asta taqib oldi.

Nimadir demoqchi bo'lgan Merri Frodo tomon yuzlanib og'iz juftlar ekan, hayajondan qichqirib yubordi. Frodo esa Uzuk chindan ham haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qildi, ta'bir joiz bo'lsa, bundan u xursand ham bo'ldi. Merri Frodo o'tirgan kursiga qarayotgan bo'lsa-da, uni ko'rmayapti. Frodo asta o'rnidan turib, chiqish eshigi tomon odimladi.

– Hoy, Beggins! – dedi Tom, yarqirayotgan moviy ko'zi ila Frodoga qarab. – Qayoqqa yo'l olding? Qariya Tom Bombadil hali batamom so'qir bo'lib qolganicha yo'q. Uzugingni yech-da, joyingga qayt, o'zingga yaxshi bo'ladi. O'yiningni qo'y, yoningga o'tir! Ayrim narsalar haqida gaplashib, ertangi tong borasida o'ylashib olishimiz kerak. Tom sizlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, adashib qolishingizga yo'l qo'ymasligi lozim.

Uzukni yechib, o'z joyini egallagan Frodo mamnunday ko'rinishga uringancha kulib boqdi. Tom ertangi havo yaxshi

---

<sup>1</sup> **Bo'rsiq** – sutemizuvchilar turkumining suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon.

bo'lishini, quyosh charaqlab, yomg'ir yog'masligini ma'lum qildi. Ammo mehmonlar safarga tong safarlab chiqishi lozimligini, ob-havo bu yerlarda tez o'zgarib qolishi mumkinligini alohida ta'kidlab o'tdi.

– Men ob-havoni o'zgartira olmayman, – qo'shimcha qildi u. – Ikki oyoqda yuradigan jonzotlarning birortasi ob-havoga o'z hukmini o'tkaza olmaydi.

Tomning maslahatiga ko'ra sayyohlarimiz mana bu uydan tikka shimol tomon, tepaliklar tizimidagi g'arbiy tepaliklar orasidan, eng past soyliklardan yuradigan bo'lishdi. Shunday qilishsa, qo'rg'onlarni chetlab o'tib sharqiy yo'lga kunduz kuni yetib olishga muvaffaq bo'lishadi. Tom hobbitlarga hech narsadan qo'rqmaslikni va ayni vaqtda hushyor bo'lishni maslahat berdi.

– Yashil maysadan chetga chiqmang! Ko'hna toshlar orasiga kirib ketmang, qo'rg'onlardagi arvohtar bilan ilashib yurmang, ularning makoniga tegmang, agar siz kuchli bo'lib, vujudingiz qo'rquv nimaligini bilmasa, albatta.

Bu so'zlarni u bir necha bor takrorlab, katta qo'rg'onlarni, agar ularga duch bo'lishga to'g'ri kelib qolsa, g'arb tomondan chetlab o'tishni maslahat berdi. Shundan so'ng u hobbitlarga hayot uchun xavfli vaziyatga tushib qolganda aytishlari lozim bo'lgan quyidagi misrani o'rgatdi.

Yo'limizda uchradi  
Juda xavfli bir to'siq  
Tom bizni qutqaradi  
Bombadilni top qo'shiq.



## QO'RG'ONLARGA TUSHGAN TUMAN

Bu kecha hech qanday g'alati tovush chiqmadi-yu, lekin o'ngidami, tushidami, Frodoning qulog'iga allaqanday kuy eshitildi. Kuy unga kulrang yomg'ir pardasi orqali singib kira-yotgan xira shu'laday tuyuldi. Tobora baland eshitilayotgan ushbu tovush yomg'ir pardasini shisha va kumushga aylantirgancha chetga surib, olisda, quyosh nurlarida yarqirayotgan yashil o'lka manzarasini ochib yubordi.

Frodo uyg'onar ekan, manzara hama gum bo'ldi. Tom daraxtni batamom egallab olgan turli-tuman sayroqi qushlarga taqlid qilgancha hushtak chalmoqda. Quyosh chindan ham tepaliklarni yoritgan bo'lib, tavaqalari keng ochilgan derazadan xonaga kirgan.

Yana mezbonsiz o'tgan nonushtadan so'ng xayrlashib, shunday ajoyib, kuzning yaxshilab yuvilgan xira moviy osmoni ostidagi salqin tongda olis safarga chiqishga hozirlanishdi. Shimoliy-g'arbdan mayin shabada esmoqda. Ancha dam olgan mitti otlar tetiklashib, pishqirgancha betoqat bo'lishmoqda. Uydan chiqqan Tom Bombadil shlyapasini siltab, ostonada raqs tushgandek harakat qilar ekan, hobbitlarga oq yo'l tiladi.

Sayyohlar Tom Bombadilning hovlisidan boshlanib, uning uyini himoya qilayotgan shimoliy tepaliklar tizmasi tomon ilang-bilang bo'lib ketgan so'qmoqdan yo'lga chiqishdi. Tik ko'tarilgan nishablikka chiqishdan oldin hobbitlar ponilaridan tushishdi.

– Kumush tusli yashil ko'ylak kiygan Tillabonu! – kutilmaganda to'xtab xitob qilib qoldi Frodo. – Shunday go'zal ayol bilan xayrlashmay ketibmiz-u! Kecha oqshomdan buyon ko'r-madik, shekilli, uni!

Xonadon sohibasi bilan xayrlashmay ketgani uchun o'zi o'zidan xafa bo'lgan Frodo iziga qaytmoqchi bo'ldi. Shu fursatda qayerdandir tepadan tiniq ovoz eshitildi. Sochi quyoshda erkin

hilpirayotgan Tillabonu tepada turib, hobbitlarga qo‘l siltamoqda. Raqs harakatini bajarar ekan, oyog‘i ostida suv yarqirayotganday bo‘ldi.


Hobbitlar shosha-pisha odimlab, ko‘p o‘tmay Tilla-bonuning yoniga hansiragancha chiqib olishdi. Ularning ta‘zimi-ga e‘tibor qilmagan ayol qo‘l harakati ila imo qilib, tevarak-atrofga nazar solib chiqishga undadi. Hamma alanglab, tongi olamni ko‘rdi. Tepalik cho‘qqisida turishganida o‘rmonni tuman qamragan edi, hozir esa havo ochilib, olis-olislar yaxshi ko‘rinmoqda. G‘arb tomondagi hudud ko‘tarilgan, u yerda o‘rmon qoplagan tepaliklar quyosh nurida yashil, sarg‘ish, qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangda ko‘rinmoqda. Ularning ortida Brendivayn vodiysi qolib ketgan. Janubda, Vitvindl daryosi oqayotgan tomonda nimadir xira shishadek yaltiramoqda. U daryo o‘sha yerda katta sirtmoq hosil qilib, hobbitlar bilmaydigan hududga kirib ketgan. Shimol tomonda tobora pasayib, narigi boshi ko‘rinmay borayotgan kulrang, yashil tekislik ko‘rinmoqda. Sharqda katta qo‘rg‘onlar tizmasi ko‘tarilib, narigi boshi olis-olislarda gum bo‘lgan. O‘sha tomonda, ufq chetida oqish-ko‘k narsa bazo‘r ko‘rinmoqda. Bu hobbitlarning qadimdan saqlanib kelgan rivoyatlarida tilga olinadigan tog‘lar edi.

Ular toza havodan chuqur nafas olib, o‘zlarini go‘yo bir necha qadam qo‘yilsa bas, istagan yerga yetib oladiganday his etishdi. Qoyalar uyumi uzra tepalikdan tepalikka Tom singari sakrab o‘tish o‘rniga qiyalik va daralar bo‘ylab yurish istagi irodasizlikday tuyuldi.

Tillabonu gap boshlar ekan, hobbitlar tevarak-atrof manzarasidan bazo‘r ko‘z uzishdi.

– Oq yo‘l bo‘lsin sizlarga, qadrlı mehmonlarim! – dedi ayol. – Ko‘zlangan maqsad sari boring! Mushkulingiz oson bo‘lsin! Quyosh charaqlar ekan, to‘xtamang! Xayr senga, elflar do‘sti! – qo‘shimcha qildi u Frodoga qarab. – Uchrashuvimiz juda dilkash o‘tdi.

Frodo javob aytishga so‘z topmadi. Tillabonuga chuqur ta‘zim aylagach, ponisiga o‘tirdi-da, do‘stlar hamrohligida tepa-



likdan tusha ketdi. O'rmon, vodiy, Tom Bombadilning uyi – hammasi ko'zdan g'oyib bo'ldi. Tepaliklar orasidagi yashil nishablikda havo iliqroq bo'lib, bo'g'iz chimning achchiq hidiga to'ldi. Ko'm-ko'k soylik tubiga yetishgach orqaga o'girilib, osmon chegarasida quyosh yoritgan gulni eslatgancha turgan mittigina Tillabonuni ko'rishdi. Hobbitlarning ortidan qarab qolgan ayol qo'lini uzatib turibdi. Sayyohlarga allanima deya xitob qilgan Tillabonu qo'l siltagach, teskari o'girilib, tepalikning narigi tomoniga tushib ketdi.

Ular yurayotgan yo'l tik ko'tarilgan tepaliklar qiyamasidan ilon izi bo'lib borib, keyingi, nisbatan chuqur, keng soylikka tushdi, u yerdan navbatdagi tepalikka ko'tarilib, yana tik pastga tushdi. Bu yerda na bir daraxt, na bir jilg'a ko'rindi. Shamol shovqini bilan, notanish qushlarning yakkam-dukkam qiyqiriqlari hisobga olinmaganda, bu yer jimjitlik hukm surgan chimli makon ekan. Quyosh baland ko'tarilib, havo qizidi. Har bir navbatdagi tepalikka chiqishar ekan, shamol sustlashib bordi. Tepaliklar orasidan g'arb tomon qarash imkoni tug'ilganda, olisdagi o'rmon huddi ustiga yog'ayotgan yomg'ir shu zahoti bug'lanib shox-shabbalar orasidan ko'tarilayotgan kabi tutab ko'rindi. Hududga qandaydir katta ko'lanka, allaqanday tutun pardasi tushib, ustida qolgan osmon issiq, og'ir moviy shlyapaga o'xshab qoldi.

Kun o'rtasiga kelib yo'lovchilar cho'qqisi yashil to'g'inli mayda likopni eslatadigan keng, yassi tepalikka chiqishdi. Bu yerdagi havo harakatsiz bo'lib, osmon hobbitlarning boshiga tegar-tegmas darajada pastga tushib qolganday go'yo. Cho'qqi ustiga chiqqan sayyohlar shimol tomon qarab quvonishdi: kutilgandan uzoq yo'l bosib o'tishibdi. Yo'l uzoq bo'lib, olis hududni tuman pardasi to'sib qo'ygan, lekin shubha yo'qki, mana bu tepaliklar tizmasi hademay nihoyasiga yetadi. Oyoq ostida shimol tomon cho'zilgan uzun soylik yotibdi. Uning narigi tomonida tepalik yo'q, faqat uzun kulrang chiziq ko'rinmoqda.

– Daraxtlar qatori u, – fikr bildirdi Merri. – Bu esa o'sha yerda katta yo'l borligini anglatadi. Yo'l chetida ko'prikkacha

ketgan baland daraxtlar qatori o'sadi. Aytishlaricha, o'sha daraxtlar qadim zamonda ekilgan ekan.

– Juda soz! – dedi Frodo. – Agar kunning ikkinchi yarmida ham shuncha yo'l bosib o'tsak, kun botguncha mana bu tepaliklar tizmasini ortda qoldirib, tunash uchun qulay joy topishga ulguramiz.

Sharq tomonni ko'zdan kechirib chiqqan Frodo tepaliklar nisbatan pastligiga, yuqoridan qaralganda ularning barini yashil ko'tarmalar qamraganiga, ushbu ko'tarmalarning ayrimlarida yashil milkdan bo'rtib chiqqan tish kabi uchi o'tkir toshlar turganiga e'tibor qildi.

Manzara hobbitlarga yoqmadı. Qabriston sifatida foydalanган tepalikka teskari o'gırilgan yo'lovchilar pastga, kichik halqa yo'lga tushishdi. Halqa o'rtasida biror bir shaklga ega bo'lmagan, baland, ammo ayni damda soya tashlamagan yagona tosh turıbdi. Chegara ustunıday turgan ushbu tosh xavf haqida ogohlantirayotgan emas, aksıncha, tahdid solayotgan barmoqni eslatdı. Ammo hobbitlar har narsaga tayyor. Quyosh eng baland cho'qqisiga ko'tarılğani bois har qanday qo'rquv ahmoqlikday ko'rındı. Binobarın, yo'lovchılarımız toshning sharqiy tomonıga suyanib o'tırıshdı. Tosh sovuq bo'lib, uni isıtıshga quyoshning taftı kamlik qilğanday go'yo. Lekin uning sovuqlıgı hozır juda xush yoqyaptı. Hobbitlar huzur-la ovqatlanıshdı. Tom ularning qopını yegulikning anchagina zaxırası bilan to'ldırıb bergan. Ustıdan yuki tushırılğan ponılar ham yayrab o'tlashmoqda.

Tepaliklar tizmasida bosib o'tılğan uzoq yo'l, ilıq quyosh, maysaning xushbo'y hıdı bir pas oyoq uzatıb yotısh istagını tug'dırdı va bularning bari keyıngı hodısaga sabab bo'ldı. To'rtovlon kutılmaganda g'ayrıixtıyoriy uyqudan baravar uyg'onıb ketdı. Tik o'rnatılğın muzday tosh sharq tomon cho'zilğın xıra soya tashlabdı. O'rtasida hobbitlar dam olğın yumaloq maydonning chetıgacha yetğın tuman pardası orqalı quyoshning sarg'ısh tuslı xıra nuri bazo'r sıngıb o'tğın. Qalıın tuman shimol, sharq va janub tomonlardan pastdagı mana bu maydonga havonı sovuğıncha asta tushıb kelmoqda. Mittı otlar ham o'z sohib-

larining oldiga kelib, bir yerga g'uj to'planib olishgan.

Vujudini vahima bosgan hobbitlar oyoqqa qalqib, g'arb tomon yugurishdi. Atrofga nazar solib, o'zlarini tuman bosgan orolga tushib qolishganday his etishdi. Ufq ortiga botayotgan quyoshga umidsiz termilishar ekan, sharq tomondan sovuq ko'lanka cho'zilib keldi. Shiddat bilan ko'tarilayotgan tuman tepaliklardan oshib tushib, ko'p o'tmay mana bu tik tosh atrofida aylana devor ko'targancha to'garak zal hosil qildi.

Tuzoqqa tushishganini anglagan hobbitlar esankirashmadi. Ular umid baxsh etadigan anavi daraxtlar qatori va uning yonidan ketgan yo'lni, o'sha yo'lga yetish uchun qaysi yo'nalishda borish kerakligini hali unutmagan. Nima qilgan taqdir-da ham tosh o'rnatilgan mana bu joydan jirkana boshlagan hobbitlar bu yerda ortiq qolishni istamay, narsalarini yig'ishtirishga kirishishdi.

Ko'p o'tmay ular o'z ponilarini bir chiziqqa ketma-ket tizib, uzun cho'zilgan shimoliy qiyalikdan tuman ummoniga yetaklashdi. Yo'l pastlab borgan sari tuman sovib, namligi oshib, sayyohlarning sochi boshiga yopishdi. Soylik tubiga yetishganda havo shu qadar sovib ketdiki, hobbitlar to'xtashga, safar qoplaridan qaytarma qalpoqli plashlarini chiqarib, kiyib olishga majbur bo'lishdi. Plashlari shu zahoti kulrang tomchilarga burkangan hobbitlar ponilarini egarlab, past-baland yo'ldan asta odimlay ketishdi. Ular soylikdan chiqish joyi tomon harakatlanishayotganiga komil ishonch-la ketishmoqda. Chunki o'sha chiqish joyini kunduz kuni shimoliy yo'nalishda ko'rishgan. Soylikdan chiqib to'g'ri yurishsa katta yo'lga borib taqalishlarini ham bilishadi. Keyingi harakatlar borasida hozircha biron-bir mulohaza yo'q, agar o'sha yo'lda tuman yo'qligiga umid qili-shayotgani hisobga olinmasa.

To'rtovlon juda sekin odimlamoqda. Bo'linib, har tomon tarqab ketmaslik uchun ular bir chiziqqa ketma-ket tizilishgan. Frodo oldinda yo'l boshlab borishmoqda, uning ketidan Sem, o'rtada Pin, oxirida Merri ketmoqda. Soylikning keti ko'rinmaydi. Kutilmaganda Frodo umid bag'ishlovchi yo'l belgisini ko'r-

ganday bo'ldi. Ikkala tomonda ko'tarilgan tuman qa'rida nimadir qorayib turibdi. Frodoning taxminicha, ular soylikdan chiqish joyiga yetishgan. Shu yerdan o'tishsa bas, tepaliklar iskanjasidan xalos bo'lishadi.

– Ortimdan, olg'a! – buyurdi u, tovoni bilan otni niqtab.

Biroq uning ishonchi bir zumda umidsizlik va xavotirga aylandi. Qoramtir ko'ringan dog' yanada qora tus olmoqda. Kutilmaganda Frodoning qarshisidan mana bu yo'ldan baland ko'tarilib, bir-biri tomon biroz egilgan, nimasi bilandir kesakisi-ning tepadori yo'q eshikni eslatayotgan bir juft mudhish tosh chiqdi. Kunduz kuni tepalikda turib qaraganda o'xshash narsa ko'ziga ilinganini eslay olmadi. Poni ikkala tosh orasiga oyoq qo'yar ekan, Frodo allaqanday zimistonga kirib qoldi. Jonivor orqaga tisarilib, pishqirgancha, ustida o'tirgan Frodoni yerga yiqitdi. Atrofga alanglagan hobbit hozirgina izma-iz kelayotgan hamrohlarini topa olmay, yerda yolg'iz o'zi yotganini fahmladi.


– Sem! – baqirdi u. – Pin! Merri! Qayerdasiz? Bu yoqqa keling!

Javob eshitilmadi. Vujudini qo'rquv qamragan Frodo toshlar orasidan yugurgancha ortga qaytdi.

– Sem! – qichqirdi u. – Sem! Pin! Merri!

Poni tuman qa'riga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hobbitning nazarida, kimdir chaqirganday bo'ldi: «Frodo! Hoy, Frodo!» Qichqiriq sharqdan, chap tomondan eshitilmoqda. Hobbit ulkan xarsang toshlar orasida zimziyo qorong'ilikka tikilgancha, atrofga quloq tutdi. Nihoyat u qichqiriq eshitilgan tomon yurishga ahd qilib, tikka yuqoriga ko'tarila boshladi.

Bir amallab ko'tarilar ekan Frodo baqir-chaqir qilishni qo'ymadi. Dastlab hech qanday javob eshitilmadi. Birozdan so'ng esa birov tepadan, juda olisdan chaqirganday bo'ldi: «Frodo! Hoy, Frodo!» Sal o'tib boshqa birov: «Yordam bering! Yordam!» – deya qichqirdi. Uzoq cho'zilgan chinqiriqqa aylangan ushbu ovoz birdaniga tindi. Frodo o'sha ovoz tomon kuchi boricha yugurdi, javob eshitmadi, atrofidagi zulmat quyuqlashdi va ko'p o'tmay harakat yo'nalishiga doir har qanday tasavvurini



yo'qotdi. Nazarida, qayoqqadir tinimsiz ko'tarilmoqda.

Tekis joyga yetgach, tepalik ustiga chiqqanini angladi. Charchagan, jiqqa terga botgan Frodo sovuqdan dag'-dag' titrayapti. Atrof zimziyo.

– Qayerdasiz? – baqirdi u qandaydir mungli ohangda.

Birov javob bermadi. Hobbit joyida tek turganicha tevarak-atrofga quloq tutdi. Havo nihoyatda sovuq. Bu yerda muzday shamol esib, yonidan pag'a-pag'a tuman qatlamlari suzib o'tmoqda. Og'zidan chiqayotgan bug'ni ko'rgan Frodo atrof biroz yorishganini angladi. Boshini yuqoriga ko'tarib, bulutlar orasida yulduz ko'rdi. Shamol o't-o'lan orasida hushtak chalmoqda.

Frodoning qulog'iga qandaydir bo'g'iq ovoz eshitildi. O'sha tomon odimlar ekan, tuman siyraklashib, yulduzlar shu'lasini tobora yorqinlashib bordi. Atrofga alanglab, tepalikning tik cho'qqisiga, aftidan, shimol tomondan ko'tarilib, endi janubga yuzlanayotganini angladi. Shamol sharqdan esmoqda. O'ng tomonida, g'arb yulduzlari tusida ulkan qabr ko'tarmasining mudhish shakli ko'rindi.

– Qayerdasiz? – yana baqirdi u, g'azab bilan qo'rquv aralash ovozda.

– Shu yerda! – javob berdi qandaydir sovuq, yer ostidan chiqayotganday yangragan ovoz. – Men seni qidirib yuribman!

– Yo'q! – baqirdi Frodo, qochishga qurbi yetmasligini idrok etib.

Tizzasi g'ayriixtiyoriy bukilgan Frodo yerga yiqildi. Hech narsa yuz bermadi, hech kimning ovozi eshutilmadi. Dag'-dag' titrayotgan Frodo boshini ko'tarib, yulduzlar tusida kimningdir qop-qora, daroz qomatini ko'rdi. Nazarida, unga bir juft nihoyatda sovuq, go'yo uzoqda yonayotgan allaqanday xira olov yoritgan ko'z qarayotganday tuyuldi. Shundan so'ng qandaydir shafqatsiz, po'latdan sovuq narsa uni mahkam siqti. Sovuq suyangigacha yetgan Frodo hushini yo'qotdi.


O'ziga kelgan hobbit dahshatli qo'rquv hissidan boshqa hech narsani eslay olmadi. Asirga olingani, vaziyatdan chiqib keta olmasligini, allaqanday qabrda yotganini aniq idrok etdi.

Qo'rg'onda hukm suradigan arvoih uni qo'lga olgan. Endi u Shir aholisi pichirlab tilga oladigan katta qo'rg'on arvoihlarining izmida. Muzday tosh ustida ikkala qo'li ko'ksida qovushtirilgancho'zilib yotgan Frodo qilt etishga jur'at etmadi.

Garchi qo'rquv hissi shu qadar katta bo'lib, mana bu zulmatning muayyan qismiday tuyulayotgan bo'lsa-da, yotgan joyida hozir Bilbo Begginsni, uning hikoyalari, Shir tashqarisida kechgan sarguzashtlari, bosib o'tgan yo'li, amalga oshirgan safari haqida o'ylayotganiga e'tibor qildi. Yaxshigina semirgan, jur'atsiz hobbitning qalbida, eng chuqur joyida mardlik urug'i yashiringan. Ushbu urug' unib chiqishi uchun xavf-xatarga to'lib-toshgan favqulodda qaltis vaziyatni kutgan. Frodo o'zini yaxshi semirgan, jur'atsiz hobbitlar jumlasidan deb bilmaydi, lekin o'zi bexabar bo'lsa-da Bilbo bilan Gendalf uni dunyodagi eng zo'r hobbit, deya e'tirof etishgan. Hozir Frodo sarguzashti yakuniga yetib, xotimasi mudhish bo'lgani haqida o'ylab yotibdi, ammo aynan mana shu fikr unga kuch bag'ishladi. So'nggi bor sakrash uchun tanasiga zo'r berayotganini, endi u zaif, lapashang, nochor o'lja emasligini his etdi.

Harakatsiz yotib, aql-xushini yig'ar ekan, zulmat asta tarqalib, atrofda yashil yorug'lik kuchayib borayotganini fahmladi. Ushbu yorug'lik qayerdan singib kirayotganini tushunmadi. Boshini burib, yerda cho'zilib yotgan, yuzlari bo'zday oqargan, egniga oq kafan kiydirilgan Sem, Pin va Merrini ko'rdi. Ularning atrofida oltin-kumush xazinasini sochilib yotibdi. Hozirgi holatda ushbu xazina qandaydir sovuq, yoqimsiz ko'rindi. Sheriklarining boshiga oltin chambar kiydirilgan, beliga tilla zanjir qadalgan, barmoqlariga ko'pdan ko'p qimmatbaho uzuklar taqilgan, yoniga qilich, oyoq tomoniga qalqon qo'yilgan. Bitta uzun va, aftidan, nihoyatda vazmin qilich yalang'ochlanib, yonma-yon yotgan uchala hobbitning bo'g'ziga ko'ndalang o'rnatilgan.

Birdan dam baland, dam past ovozda, qandaydir sovuq ohangda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir aytilayotgan qo'shiq eshitildi. Qo'shiq baland aytilganda ovoz uzoqdan eshitilib, past aytilganda yer tagidan chiqib, Frodoning ko'ngliga mudhish vahima soldi.






G'amgin, lekin dahshat tug'diradigan ushbu mubham tovush oqimida Frodo vaqti-vaqti bilan shafqatsiz, sovuq so'zlarni ilg'ab olmoqda. Go'yo tun tongni koyiganday, sovuq havо esa iliqlikni la'natlayotganday bo'lyapti. Sovuq Frodoning ich-ichiga singib kirib, yuragigacha yetib bordi. Muayyan vaqt o'tib qo'shiq misralari nisbatan aniqroq eshitila boshladi. Shunda Frodo aytilayotgan so'zlar aslida qo'shiq emas, balki quyidagi afsun misralari ekanligini angladi:

*Yer qa'rida suyakday bari birday qotishsin,  
Tong tun-la teng otar, shu yerda tek yotishsin.  
Oy, quyosh-u, yulduzlar ketsin butkul yo'qolib.  
Falak xira bo'lsa-da, mayli qolsin yorishib,  
Hukm sursin dunyoda Uzuklar Hukmdori,  
Baland uchsин hamisha uning Qora tulpori.*

Bundan tashqari, Frodoning qulog'iga allaqanday g'ir-chillagan tovush chalindi. Tirsagiga suyanib ko'tarilgan hobbit xira yorug'likda atrofga nazar solar ekan, qandaydir yo'lakda yotganini fahmladi. Ushbu yo'lak Frodo bilan sheriklarining bosh tomonida muyulish hosil qilgancha o'ng tomon burilgan. Muyulish ortidan esa uzun qo'l chiqib, barmoqlarini yaqinroq yotgan Semga cho'zmoqda. Hademay ushbu panja hobbitlarning bo'g'zi ustida yalang'ochlangan vazmin qilich dastasiga yetadi.

Avvaliga Frodo o'zini chindan ham afsun vositasida toshga aylantirilganday his etdi. So'ng xayoliga nima qilib bo'lsa ham bu yerdan qochib chiqish fikri keldi. Uzugini eslab, taqib olishni niyat qildi. Qo'rg'on arvohi uni ko'rmasligiga, bu yerdan chiqish yo'lini topa olishiga umid qildi. O'zini qalin o'sgan maysazorda Sem, Pin va Merriga aza tutib yig'lagancha, ammo erkin va tirik holatda bu yerdan nari qochayotganini tasavvur qildi. Qo'lidan boshqa hech narsa kelmaganiga Gendalf ishongan bo'lar edi.

Biroq vujudida uyg'ongan mardlik ancha kuchli chiqdi: do'stlarini osonlikcha tashlab ketmaydi. Kissasini titkilar ekan,



o'zi bilan o'zi kurashib, ikkilandi... Anavi qo'l esa yaqin kelib qoldi. Jur'ati kutilmaganda qat'iylashgan Frodo yonida yotgan qisqa qilichni mahkam ushlab, tizzasiga o'tirgancha, do'stlari ustiga engashdi. Qilichni ko'tarib, cho'zilib kelayotgan anavi qo'lga kuchi boricha zarba berib ikki bo'lib tashladi. Zarba kuchidan qo'lidagi qilich tig'i ham sopi yaqinida sinib tushdi. Chinqiriq yangrab, yorug'lik o'chdi. Qorong'ilikda pishqirgan tovushlar eshitildi.


Frodo lunji bilan Merrining ustiga yiqildi. Merrining yuzi muzlab qolibdi. Frodoning miyasiga lop etib tuman tushish barobarida ko'zdan g'oyib bo'lgan tepalik ustidagi uy bilan Tom o'rgatgan qo'shiq misralari keldi. «Tom Bombadil!» – past ovozda umidsiz chaqirdi Frodo. Talaffuz etilgan ushbu so'z hobbitning ovoziga kuch bag'ishladi, qorong'i makonda aks-sado berib, burg'u bilan do'mbiraning tovushiday yangradi:

*Yo'limizda uchradi  
Juda xavfli bir to'siq.  
Tom bizni qutqaradi,  
Bombadilni top qo'shiq.*

Kutilmaganda hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Frodo yotgan yerida yuragi tepayotganini his etmoqda. So'ng qalin devor va shift orqali eshitalayotgan ovoz eshitildi:

*Tom sizni qutqaradi,  
Bombadil aytar qo'shiq,  
Sariq boshmoq kiyadi,  
Yo'q unga hech bir to'siq.*

Gumbur-gumbur shovqin yangradi. Aftidan, yirik xar-sanglar qulab, sirpanmoqda. Birdan g'or haqiqiy kun yorug'idan yorishib ketdi. Yo'lakning narigi boshida, Frodoning oyoq tomonida chiqish eshigiga o'xshash tuynuk ochilib, Tomning boshi (shlyapasi, pati va qolgan qismi) ko'rindi. Tomning orqasida esa



quyoshning gardishi lovullamoqda. Quyosh nuri g'or tubi va yerdan, Frodoning yonida yotgan uch nafar hobbitga tushdi. Ular qilt etishmayapdi, lekin yuzlariga qon yugurgan ko'rinadi. Uchalasi tarashaday qotib uxlayotganday go'yo.

Shlyapasini yechgan Tom qo'shiq aytganicha qorong'i g'orga engashib kirdi:

*Quyosh porlar, Aldar tosh uxlar hamon,  
Keting yovuz arvoqlar Yovvoyi o'lka tomon.  
G'uborli tog'lar oshib tumanga siz qorishing,  
Qadimiy qabrlarni bitta qo'ymay bo'shating.  
Shiddatli ushbu dunyo fitna ila to'lmoqda,  
U yerdan hatto tong ham tunday qora otmqda.*


yerdandir qichqiriq ovozi eshilib, g'orning ichki qismi o'parilib tushdi. Kimningdir tobora uzoqlashayotgan fig'oni yangrab, tevarak-atrofdan jimjitlik qaror topdi.

– Tur, Frodo, ketdik bu yerdan! – dedi Tom. – Toza havoga, yashil maysaga chiqamiz! Sheriklaringni ham olib chiqamiz. Qani, yordamlashib yubor.

Ikkalasi Merri, Pin va Semni tashqariga olib chiqishdi. Frodo sag'anani tark etib chiqayotganda, nazarida, hamon nimanidir changallab olishga urinayotgan panjani ko'rganday bo'ldi. Tom yana qabrga kirib ketgach, ichkaridan jiringlagan, dang'illagan tovush eshilib, birozdan so'ng bir quchoq xazina: tilla, kumush, mis va bronza buyumlar, marjon shodalari, tilla zanjirlar, qimmatbaho zeb-ziyat bilan chiqdi. Yashil qabr ko'tarmasining ustiga chiqib, qo'lidagilarni o'sha yerga to'kdi.

*Aldar tosh uxlamoqda – uyg'oning hoy quyonlar!  
Bombadil keldi mana – quyoshda isininglar!  
Qora ravot ochildi, Ajal qo'li yo'q endi,  
Sharpasi ham ko'rinmas, ziyon zulmati ketdi.*

Quyoshda yotgan hobbitlar Frodoning ko'zini quvontir-



gancha asta qimirlay boshlashdi: qo‘l ko‘tarishdi, kerishib olishdi, ko‘z ishqalashdi va birdan oyoqqa sakrab turishdi. Hayron bo‘lgancha dastlab Frodoga, so‘ng sal narida, qabr ustida turgan Tom Bombadilga, shundan so‘ng o‘z egnilaridagi tilla kamar taqilib, javohirlardan jaranglayotgan kafanlariga qarashdi.

– Nima bu? – so‘radi tilla uzugi barmog‘idan chiqib ketayotgan Merri.

Biroz o‘yga tolgan Merrining yodiga nimadir tushgan ko‘rinadi, ko‘zini chirt yumdi.

– Esladim! – xitob qildi u. – Karn-Dam jangchilari bizga hujum qilib, bo‘linmalarimiz mag‘lub bo‘ldi. Oh! Yuraginga sanchilgan nayza! – chinqirdi Merri ko‘kragini changallab. – Yo‘q! Nayza yo‘q! – dedi u ko‘zini ochib. – Nimalar deb aljira-yapman? Tush ko‘rdim, shekilli. Qani... Frodo?

– Adashib qoldim, deb o‘ylabman, – javob berdi Frodo. – Keling, bu haqda gapirmaylik. Nima qilish kerakligini hal qilaylik, yaxshisi. Yo‘limizni davom etaylik.

– Shu ahvolda-ya, ser? – hayron bo‘ldi Sem. – Kiyimim qani?

Boshidagi oltin chambar, kamar va uzuklarini yechib, maysaga otgan Sem plashi, nimchasi va boshqa narsalarini qidirib atrofga alangladi.

– Ovora bo‘lma, narsalaringni topa olmaysan. – javob berdi qabr ko‘tarmasidan raqs harakatida tushayotgan Tom.

Uning harakatiga qarab hech qanday qo‘rqinchli ish sodir bo‘lmadi, degan xayolga borish mumkin. Lekin chindan ham qo‘rquv yuragini tark etgan hobbitlar Tomning ko‘zida quvnoq jilva ko‘rishdi.

– Nima uchun topa olmaymiz? – so‘radi Pin hayron bo‘lib.

– Siz chuqur suv havzasidan qalqib chiqdingiz. G‘arq bo‘lmagan ekansiz, kiyimingiz katta yo‘qotish emas. Quvoning, mening pakana do‘stlarim! Quyosh tafti qalbingiz va tanangizni isitsin! Yechib uloqtiring egningizdagi kafanni! Maysada biroz yugurib qizishib oling, Tom esa ov qilib qaytadi.

Hushtak chalib, baqir-chaqir qila boshlagan Tom tepalikdan pastga qarab yugura ketdi. Frodo Bombadilning janubga, yashil soylikka tushib hushtak chalayotganini kuzatib o'tirdi.


*Qayerdasan ovoz ber mitti otim xop-xlop?  
Burni sezgir, ko'zi ziyrak, o'zi tiyrak Bobkin!  
Yonimga qayt, tez yugur, kutmoqdaman gop-top,  
Oyog'i oq, qorni katta, o'tkir quloq Xopkin!*

Soylikdagi ko'tarma ortiga o'tib ketguncha shlyapasini osmonga uloqtirib tutib olayotgan Tomning baqir-chaqiri eshitiilib turdi: «Qayerdasan xop-xlop? Yonimga qayt gop-top». Janubdan esayotgan shamol baqir-chaqimning aks-sadosini olib kelmoqda.

Havo yana ilidi. Hobbitlar Tom aytganday maysada biroz yugurib, qizishib olishdi. So'ng o'zlarini qabraton qishdan mo'tadil iqlimga olib o'tilganday yoki uzoq xasta yotib, kutilmaganda sog'ayib ketganday his etib, oftobda toblanishdi.

Tom qaytib kelgan fursatda hobbitlar kuchga to'lib, qorin ochganini his etishdi. Tepalik chetida dastlab uning shlyapasi, so'ng o'zi va itoat-la saf tortib kelayotgan olti bosh poni ko'rindi: ulardan beshtasi yo'lovchilarimizga qarashli, bittasi begona. Aftidan, u Fetti Lampikan laqabli keksa poni, shekilli. Chunki jonivor qolgan ponilarga nisbatan yoshi katta, baquvvat, semiz va yirik ko'rinmoqda. Beshala ponining egasi Merri o'z jonivorlariga laqab qo'ymagan, Tom esa ularning bariga laqab qo'yib chiqib, endi mitti otlarning har biri o'z laqabiga javob bermoqda.

– Mana marhamat, ponilaringiz! – dedi Tom hobbitlarga ta'zim qilib. – Ularning burun bilan yuritadigan fikri ma'lum ma'noda Sayyoh hobbitlarning fikriga nisbatan sog'lomroq ko'rinadi. Xavf tomon odimlayotganingizni burni ila sezib, omon qolish uchun tuyoqlarini shiqillatib qolishgan. Ularning gunohidan o'ting. Poni o'z sohibiga sadoqatli jonivor, lekin ular katta qo'rg'on arvoqlariga qarshilik ko'rsatish uchun yaralmagan. Mana ular, yukingizni ko'tarib, yana ixtiyoringizga qaytishdi!



Merri, Pin va Sem qoplaridan zaxira kiyimlarini chiqarib kiyib olishdi va ko'p o'tmay qizib ketishdi. Chunki bu qishki kiyim edi.

– Fetti Lampikan deganing shumi? – so'radi Frodo. – Qari jonivor qayerdan paydo bo'ldi?

– Bu mening to'rt oyoqli do'stim bo'ladi, – javob berdi Tom. – Uni kamdan kam hollarda minaman. Odatda, u, egarjabduqsiz erkin o'tlab yuradi. Ponilaringiz otxonamda yashagan kunlari Lampikan bilan yaqindan tanishib olishdi. Tunda uning hididan tanib, oldiga yugurishgan. Lampikan ponilaringizga qarab, yuraklaridagi qo'rquvni haydab chiqarish uchun kerakli so'z topa bilishiga ishongan edim. Xo'sh, mening quvnoq Lampikanim, hobbitlar poni minib ketadigan bo'lishsa, ular bilan piyoda yurib gaplashish oson kechmaydi. Shunday ekan, keksa Tom Bombadil endi seni egarlab, hobbitlarga yo'l ko'rsatib ketadi.

Ushbu so'zlar hobbitlarga quvonch bag'ishlab, Tomga ko'p minnatdorlik izhor qilishdi. Tom esa javoban kulib boqib, hobbitlar yo'ldan adashishga usta ekanliklarini, shuning uchun o'z hududining chiqish joyigacha kuzatib qo'ysa o'zini xotirjam sezishini ma'lum qildi.

– Qiladigan ishlarim ko'p, – dedi u. – Qo'shiq aytishim, gapirishim, yurishim, hududni ko'zdan kechirib borishim kerak. Tom hadeb ko'hna qabrlar-u qari qayrag'ochlarning qornini ochib yuravermaydi-yu, axir. Tomning uyi bor, uyida esa uni kutadigan xotini Tillabonu bor.

Kun hali erta, soat to'qqiz bilan o'ning orasida bo'lib, hobbitlar ovqatlanib olish haqida gap ochishdi. So'nggi bor ular kecha, tik o'rnatilgan anavi tosh yonida ovqatlanishgan. Endi ular mavjud yegulik zaxirasi va bugun Tom o'zi bilan olib kelgan oziq-ovqat bilan nonushta qilishdi. Nonushta vaziyatga monand kelib, u qadar mo'l-ko'l bo'lmadi, lekin yo'lovchilarimiz o'zlarini ancha tetik his etib qolishdi. Hobbitlar ovqatlanar ekan, Tom yana sag'anaga kirib, xazina bilan shug'ullandi. Zeb-ziyatlarining yirik qismini yaltiroq uyum qilib to'plagan Tom «qushlar.

jonivorlar, elflar, odamlar va ezgu niyatli boshqa mavjudotlarga nasib qilishi» haqida afsun o'qiganday po'ng'illadi. Chunki sag'anaga qo'llanilgan qadimgi jodu barbod bo'lib, endi arvoqlar unga qaytishmaydi. Javohirlar uyumi orasida u o'ziga kapalak qanoti shaklida yasalib, sirtiga mayda ko'k toshlar qoplangan to'g'nag'ichni tanladi, ushbu tilla buyumga tikilar ekan, uzoq xotiralarga berildi.

– Tom va uning bonusi uchun yaxshi o'yinchoq, – dedi u nihoyat, boshini sarak-sarak siltab. – Uni yelkaga qadab yurgan ayol juda go'zal edi. Endi buni Tillabonu taqib, oldingi sohibasining haqiga duo qilib yuradi!


Barg shaklini eslatadigan, o'yma naqshli sopiga qizil va yashil rangli ilonlar qadalib yasalgan uzun xanjarlar topib chiqib, har bir hobbitga bittadan uzatdi. Tilla qindan sug'urib chiqarilgan ushbu xanjarlarning qandaydir g'alati metallardan yasalgan yengil, pishiq tig'lari quyoshda o'ynoqlab yaraqladi. Qurol tig'lari ham mayda toshlar bilan bezatilgan. Sopi sifatli bo'lgani yoki afsun qo'llanilgani uchunmi sag'anada yillar osha yotgan bo'lishiga qaramay, quyoshda porlayotgan qurolning o'tkir tig'iga vaqt ta'sir o'tkazmabdi.

– Bu juda qadimiy pichoqlar. Sizlarga qilich vazifasini o'taydi, degan umiddaman, – fikr bildirdi Tom. – Modomiki, Shir vakillari o'ta xavfli zulmat qamragan sharq va janub tomon yo'l olgan ekan, o'tkir tig' ularga ortiqchalik qilmaydi.

Shundan so'ng Tom mazkur qurollar ko'p asrlar muqaddam g'arblik qurolsoz ustalar tomonidan bolg'alab yasalganini, o'sha odamlar Zulmat Hukmdorining dushmanlari sanalib, Angmar zaminida Karn-Damning yovuz qiroli tomonidan mag'lubiyatga uchraganini aytib berdi.

– Ular deyarli unut bo'lib ketishgan, – dedi Tom. – Ammo ayrimlari... unutilgan qirollarning farzandlari hamon yolg'iz bo'lib, musibatga uchraganlarni yovuzlikdan himoya qilgan-cha musofirlikda daydib yurishibdi.

Hobbitlar Tomning so'zlarini tushunishmadi. Ularning tasavvurida bepoyon tekislik va ushbu hududda novcha bo'yli,



badqovoq, yaltiroq qilich taqib olganча izg'ib yurgan, birining peshanasida esa yulduz porlayotgan odamlar qiyofasi gavdalandi. Yo'lga chiqish vaqti bo'ldi. Narsalar qopga joylanib, ponilarga egar urildi. Yangi quollarini nimcha ostidagi kamarlariga osishar ekan, o'zlarini iltifotsiz odamlarday his etib, ushbu qurol ularga qachonlardir asqatib qolishi mumkinligi borasida o'ycha surishdi. Ko'zlangan manzilda birov bilan jang qilish istiqboli sayyohlarni quvontirmadi.

Nihoyat ular harakat boshlashdi. Tepalikdan tushgach ponilarini minib olishdi-da soylikda tez yurib ketishdi. Orqaga o'girilib, hozirgina tark etilgan eski qabr ko'tarmasini, uning ustida esa sarg'ish gulxanday tovlanayotgan oltin uyumini ko'rishdi. Tepaliklar tizmasi tomon burilishgach, tepalikdagi sag'ana ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Atrofga muntazam alanglab borayotgan Frodo darvozaday turgan yirik toshlar alomatini ko'rmadi. Ko'p o'tmay sayyohlar soylikning shimoliy chegarasiga yetib, pastlikka tushayotgan hududga chiqishdi. Tom Bombadil bilan yo'l yurish quvnoq kechdi: Tom kutilgandan ham tez yuradigan Fetti Lampikanini minib olgan. Yo'lning asosiy qismini Tom qandaydir ma'nisiz, hobbitlarga notanish, g'alati eshitaladigan qadimiy tilda bitilgan qo'shiqlar aytganча, hamrohlarni lol qoldirib, ko'ngillariga zavq bag'ishladi.

Ildam odimlashayotgan bo'lsa-da, kecha ko'ringan katta yo'l sayyohlarimiz o'ylagandan ham uzoq bo'lib chiqdi. Tuman bo'lmaganda ham kecha ular o'sha yo'lga yeta olishmas edi. Tepalikda ko'ringan qoramtir chiziq Merri aytganday daraxt qatori emas, chuqur xandaq yoqasida qalin o'sgan butazor ekan. Tomning so'zlariga qaraganda, bir zamonlar bu yerdan qirollik chegarasi o'tgan. Aftidan, nihoyatda g'amgin hodisalar esiga tushgan chog'i, ortiq so'z aytmadi.

Yo'lovchilar xandaqning narigi qirg'og'iga o'tib olishgach, Tom, yo'l davomida g'arb tomon haddan ortiq ko'p og'ib kelishgani bois, shimol yo'nalishiga burildi. Sayyohlar oldida ochiq, tekis hudud manzarasi ochildi. Harakat jadallashtiril-



ganiga qaramay, oldinda baland o'sgan daraxtlar qatori ko'ringan fursatda quyosh ufq ortiga o'ta boshladi. Kutilmagan sarguzashtlardan so'ng oxiri katta yo'lga yetishganini idrok etishdi. Ponilarini niqtab biroz choptirishgach yo'lovchilar daraxtlar soyasida to'xtashdi. Qiya tepalik cho'qqisida turgan sayyohlarning ko'ziga ko'ringan yo'l shom qorong'isida ilang-bilang cho'zilib, janubiy-g'arbdan shimoliy-sharq tomon ketgan, uning o'ng tomoni keng vodiya tik kesilib tushgan. Yo'l o'nqir-cho'nqir bo'lib, sirti yaqinda quygan kuchli jala izini saqlab qolgan. O'nqir-cho'nqir joylar suv to'la ko'lmakka aylangan.

Sayyohlar dam tepaga, dam pastga tikilganча qiyalikdan pastga qarab yo'l olishdi.

– Va nihoyat katta yo'lga yetdik, – dedi Frodo. – O'rmon orqali o'tib ikki kun yo'qotdik, lekin bu foydali yo'qotish bo'ldi. Qora otliqlar bizning izimizni yo'qotishganiga shubha yo'q.

Hobbitlar Frodogaga qarashdi. Qora otliqlardan qo'rqishayotgani ularning qiyofalaridan bilindi. O'rmonga kirib ketishganlaridan buyon hobbitlarning fikr-xayolini katta yo'lga tezroq yetish maqsadi egallagan edi. Mana, o'sha yo'lga yetib ham kelishdi. Endi ularning fikr-xayollarini aynan mana shu yo'lda kutayotgan xavf egalladi. Hobbitlar botayotgan quyoshga umidsiz nigoh-la qarab qo'yishdi.

– Nima deb o'ylaysiz, bugun tunda quvib yetishadimi ular bizni? – jur'atsiz ohangda so'radi Pin.

– Yo'q, o'ylashimcha, bugun quvib yetishmaydi, – javob berdi Tom Bombadil. – Balkim, ertaga ham yeta olishmas, aniq bir nima deyish qiyin. Mening bilimim sharq yo'nalishiga daxl qilmaydi. Tom o'z tasarrufidagi hudud tashqarisida daydib yurgan Yovuz yurt otliqlariga o'z hukmini o'tkaza olmaydi.

Hobbitlar yo'lining qolgan qismini ham Tom hamrohligida bosib o'tishni istashdi. Tom Qora otliqlar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini har kimdan ko'ra yaxshi biladi. Ko'p o'tmay sayyohlar mutlaqo notanish, zaif afsonalardagina tilga olingan hududga qadam bosishdi. Quyuqlashib borayotgan oqshomda ular qadrdon uyalarini sog'inishdi, vujudlarini yol-

g'izlik va qarovsizlik hissi qamrab oldi. Xayrlashishni istamay, biroz sukut saqlashdi. Tom xayrlashar ekan, hobbitlarga dadil bo'lishni, qorong'i tushib, atrof ko'rinmay qolguncha to'xtamay yurishni maslahat berdi.

– Tom bugungi kunning oxirigacha yetadigan bir bama'ni maslahat beradi, ertaga esa o'z fikringiz bilan ish tutasiz, – dedi Tom Bombadil. – Mana shu yo'ldan bir necha milya yursangiz, Bri tepaligi yaqinidagi Tog'bag'ri qishlog'iga yetasiz. Qishloq darvozasi g'arbga qaragan. O'sha yerda «Javlon urar poni» mehmonxonasi bor. Sohibining ismi Lavr Narkiss. O'sha mehmonxonada tunab, ertalab yo'lingizni davom eting. Dadil bo'ling va ayni vaqtda hushyorlikni yo'qotmang! Qani endi, mardlik va shijoatingizni bir yerga yig'ing-da, o'z taqdiringiz sari yo'l oling!

Hobbitlar yana bir bor Tomni loaqal mehmonxonagacha borib, birga ovqatlanishga ko'ndirishga urinib ko'rishdi. Kulib boqqan Tom taklifni rad etib, quyidagi so'zlar bilan xayrlashdi.

Shu yerga yetganda tugar menga sodiq yurt,  
Oq yo'l senga mard do'stim, yaxshi kunni kut.

Tom ortga burilib, Lampikan ustida engashib o'tirgan-cha qo'shiq kuylab nari ketdi. Oqshom qorong'isida g'oyib bo'lguncha hobbitlar uning ortidan qarab qolishdi.

– Janob Bombadil bilan xayrlashish juda achinarli hol, albatta, – dedi Sem. – Umid qilamanki, u haq bo'lib chiqib, bugun biz hech qanday xavfga yo'liqmaymiz. Tog'bag'ri qishlog'ida kimlar yashashi, anavi «Javlon urar poni» deganlari qanaqangi mehmonxona ekanligi, to'g'risini aytсам, menga juda qiziq tuyulyapti. O'zimizning «Yashil ajdar» mayxonamizdan qolishmas, a?

– Tog'bag'ri qishlog'ida hobbitlar bilan novcha xalq ham yashaydi, – javob berdi Merri. – O'ylaymanki, biz u yerda o'z uyimizga kirganday bo'lamiz. «Poni» ham yomon mehmonxona emas. Hamyurtlarimiz bu yerda tez-tez tunab turishadi.

- Bo'lishi mumkin, - dedi Frodo, - biroq shuni unut-mangki, biz Shir tashqarisidamiz, ya'ni qarddon uyimizda emas-miz. Iltimos, Beggins ismi bu yerda tilga olinishi mumkin emas-ligini unutmag. Men endi janob Nakruchinsman, agar meni birovga tanishtirish kerak bo'lib qolsa.

Yana ponilariga minib olgan hobbitlar indamay yo'lga tushishdi. Qorong'ilik tez quyuqlashib, yo'l dam ko'tarilib, dam pastlab bordi. Muayyan vaqt o'tib oldinda miltillayotgan chiroqlar ko'rindi.


Sayyohlar seryulduz osmon tusida qorayib turgan Bri tepaligiga yetishdi. Uning g'arbiy etagida Tog'bag'ri qishlog'i joylashgan. O'choq tafti va zulmatni tashqarida qoldirib yopiladigan eshik qidirib topishga umid qilgan hobbitlar qadamni tezlatishdi.

## IX BOB

### «JAVLON URAR PONI»

Atrofini dashtlik o'ragan Tog'bag'ri qishlog'i Bri viloyatiga qarashli aholi yashaydigan kichik bir tumanning asosiy qishlog'i sanaladi. Ushbu qishloqdan tashqari viloyat hududida, xususan, tepalikning narigi etagida Steddl, undan keyingi chuqur soylikda - Komb, Chetvud o'rmoni chetida esa Archet qishloqlari ham bor. Bri tepaligining yaqin atrofi ekin maydoni va eni bir necha milya keladigan siyrak o'rmondan iborat.

Tog'bag'ri qishlog'ida keng yelkali, xushmuomalali, qizg'ish-qo'ng'ir sochli bo'yi past odamlar yashaydi. Ular o'ziga xon, o'ziga bek tarzda, yani sarbast hayot kechirishadi, lekin novcha xalq odatiga monand hobbitlar, elflar va gnomlarga xayrixohona munosabat ko'rsatishadi. Mahalliy rivoyatlariga ko'ra, ular bu yerda azaldan yashab kelayotgan xalq bo'lib, g'arbdan ko'chib o'tgan dastlabki odamlarning avlodi sanaladi. Qadimda yuz bergan falokatda omon qolganlar soni ko'p bo'l-



magan. Qirollar avlodi buyuk dengizdan yana shu yerlarga qaytib, Tog'bag'ri qishlog'i va uning aholisi hamon joyida qolganini ko'rishgan. O'sha qirollar haqidagi xotiralar bugungi kunda bata-mom yo'qotilgan bo'lsa ham, qishloq va uning aholisi hamon joyida.

O'sha davrda bunchalik olis g'arbda boshqa toifaga mansub odamlar yashashmagan. Biroq Tog'bag'ri qishlog'i ortidagi dashtliklarda tong qolarli musofirlar uchrab turadi. Qishloq aholisi novcha bo'yli, bug'doyrang, ko'rish va eshitish qobiliyati o'ta kuchli rivojlangan, qush-u hayvon tilini tushunadigan bunday odamlarning kelib chiqishi haqida hech narsa bilmay, ularga izquvar ovchilar deya nom bergan. Ular Tog'bag'ri qishlog'ining janub va g'arb tomonlarida kezib, G'uborli tog'lar-gacha yetib yuraverishadi. Endi ularning soni oz qolib, kamdan kam hollarda uchraydi. Paydo bo'lishsa, o'is yurtlardan har xil yangiliklar olib kelishadi, unut bo'lib ketgan g'alati rivoyatlarni hikoya qilib berishadi, odamlar ularni berilib tinglashadi. Ammo Tog'bag'ri aholisi unday musofirlar bilan do'st tutinismaydi.

Bri viloyatida yashaydigan hobbitlar ham Tog'bag'ri qishlog'ini o'zlarining azaliy maskani deb bilib, Shir o'lkasi Brendivayn daryosidan o'tgan hobbitlar tomonidan mustamlaka qilinishidan ancha oldin qadimgi hobbitlar Tog'bag'ri qishlog'iga asos solganini da'vo qilishadi. Hobbitlarning asosiy qismi Steddl qishlog'ida yashaydi, Tog'bag'ri qishlog'idagi hobbitlar esa tepalikning yuqori qiyalmasini, odamlarning uyidan baland joylarni egallashgan. Novcha xalq bilan pakana xalq, ular bir-birini shunday deb atashadi, o'zaro yaxshi qo'shnichilik qilishadi, lekin o'z urf-odatlariga monand yashab, har biri o'zini Tog'bag'ri aholisining eng muhim qismi deb biladi. Dunyoda bundan-da g'alati qo'shnichilikni topish qiyin bo'lsa kerak.

Tog'bag'ri aholisi, ya'ni novcha va pakana xalq vakillari yurtma-yurt kezishni yomon ko'radi. Uzoq borsa Bri viloyati-ning to'rtta qishlog'i orasida sayyohlik qilishadi. Tog'bag'ri hobbitlari Baklend viloyati yoki sharqiy Shirga kamdan kam hollarda tashrif buyurishadi. Brendivayn ko'prigidan ularning

mana bu kichik yurtigacha masofa atigi bir kunlik yo'lni tashkil etsa-da, Shir hobbitlari ham bu yerga hadeganda kelaverishmaydi. Baklendning tasodifiy vakili yoki biror-bir tavakkalchi Tuk Tog'bag'ri mehmonxonasida kamdan kam holatlarda, uzog'i bilan bir-ikki kunga qolishadi. Bunday tashriflar ham so'nggi yillarda kamayib qoldi. Shir hobbitlari Bri viloyatida yashaydigan hobbitlarni ajnabiylar sifatida ko'rib, ularga nisbatan hech qanday qiziqish bildirishmaydi, barini birday kaltafahm, madaniyatsiz, dag'al xalq deya e'tirof qilishadi. Aftidan, ajnabiylar g'arb o'lkalarida Shir aholisining tasavvuridan ham ko'proq tarqalgan. Ularning ayrimlari, shubhasiz, daydi bo'lib, egasiz yotgan har qanday narsani olib, to'g'ri kelmasa, tashlab ketishi mumkin. Ammo Bri viloyati hobbitlari xushxulq, hayoti ravnaq topgan xalq bo'lib, dag'allik bobida uzoq qarindosh sanaladigan Shir hobbitlaridan zig'irday bo'lsin, o'tib tushmaydi. Shir bilan Bri hobbitlari o'zaro apoq-chapoq yashagan davrlar hali bata-mom unut bo'lib ketmagan. Har qalay, Brendizayklar tomirida Tog'bag'ri hobbitlarining qoni borligi bilinadi.

Tog'bag'ri qishlog'i novcha xalqqa tegishli, asosan katta yo'l bo'yida qad ko'targan yuzlab uylardan tashkil topgan. Ushbu imoratlar Bri tepaligi qiyaligida derazalari g'arbiga qaratilib zich qurilgan. Qishloqning bu tomonini tepalik aylanasi bo'ylab cho'zilgan, chetida mustahkam buta-devor hosil qilingan chuqur dara qurshab olgan. Sayyohlarimiz kelayotgan yo'l ushbu dara ustidan o'tkazilgan ko'prik orqali o'tadi va buta-devorga borib taqalgan joyda qishloqning kirish darvozasiga duch keladi. Chiqish darvozasi esa qishloq janubida joylashgan. Tungi vaqtda ikkala darvoza yopiladi. Har bir darvoza yonida qorovullik xizmati uchun bino mavjud.

Tepalikni aylanib o'tib, o'ngga burilgan yo'l muyulishida katta mehmonxona bor. Uning binosi mana bu yo'l nisbatan serqatnov bo'lgan davrda qurilgan. Tog'bag'ri qishlog'i katta yo'llar chorrahasida joylashgan, ya'ni qadimdan mavjud bir yo'l sayyohlarimiz kelayotgan ikkinchi, sharqiy yo'lni qishloqning g'arbiy chetida, buta-devor tashqarisida kesib o'tadi. Ilgari

odamlar, elf, gnom va hobbitlar ushbu yoʻldan tez-tez qatnab borishgan. Shir sharqida hanuzgacha «Togʻbagʻridan keltirilgan yangilikday ajoyib» iborasi qoʻllanib turiladi. Bu ibora dunyoning turli oʻlkalaridan kelgan sayyohlar toʻxtab oʻtadigan Togʻbagʻri mehmonxonasida shimol, janub va sharqdan kelgan yangiliklar qizgʻin muhokama qilingan kunlardan qolgan. Biroq shimol oʻlkalari anchadan buyon kimsasiz boʻlib qolgani bois, oʻt bosgan shimoliy yoʻldan endi birov yurmay qoʻygan. Shu sababdan Togʻbagʻri aholisi uni Yashil yoʻl deb ataydigan boʻlib qolgan.

Shunga qaramay, Togʻbagʻri mehmonxonasi oʻz faoliyatini toʻxtatgani yoʻq. Uning sohibi bu yerlarda katta obroʻga ega. Mehmonxonaning umumiy zali Bri zaminidagi toʻrtta qishloqning jamiki bekorchi, tabiatan qiziquvchan, gap sotib oʻtirishga moyil novcha va pakana odamlari uchun uchrashuv joyiga aylangan. Mehmonxona esa togʻ tomon yoʻl olgan yoki togʻli oʻlkalardan qaytayotgan darbadar va sayyohlar (asosan gnomlar) va musofir izquvarlar uchun boshpana vazifasini oʻtaydi.

Frodo oʻz hamrohilari bilan chorrahaga yetganda tun quyuqlashib, osmon yulduzga toʻldi. Sayyohlarimiz qishloqning allaqachon yopib qoʻyilgan gʻarbiy darvozasi oldiga kelishdi. Ichkarida, darvoza yonidagi shiyponda oʻtirgan qorovul tashqaridagi otliqlarni koʻrib fonusni changallaganicha tuynuk orqali taajjub-la moʻraladi.

– Kimsiz, qayerdan kelyapsiz? – soʻradi darvozabon.

– Sharq yoʻnalishida safarga chiqqanmiz. Tunda yurmaslik uchun mehmonxonada toʻxtalib oʻtmoqchimiz, – javob berdi Frodo.

– Hobbitlar? Choʻrt nafar hobbit?! Shevasiga qaraganda Shirdan kelayotganga oʻxshaydi, – dedi darvozabon oʻziga oʻzi.

Qorovul sayyohlarga biroz baqrayib turgach, darvozani asta ochib, hobbitlarni ichkariga kiritdi.

– Shirlik hobbitlarning tunda yurishi kam uchraydigan holat! – davom etdi u, darvoza oldida toʻxtagan otliqlarga tikilib.

– Mening taajjubimni maʼzur tuting, qanaqangi ish ekan u, siz-

larni Tog‘bag‘ri qishlog‘idan sharq sari yetaklagan? Ism, shariflaringizni bilsam bo‘ladimi?

– Ishimiz-u, ismimiz faqat bizga taalluqli, ularni muhokama qilish joyi emas bu yer, – javob berdi, darvozabonning noxush ohangini yoqtirmagan Frodo.

– Ishingiz faqat o‘zingizga taalluqli, bu to‘g‘ri, – rozi bo‘ldi darvozabon, – mening ishim esa tunda tashrif buyurganlarga savol berishdan iborat.

– Ko‘rib turganingizdek, biz baklendlik hobbitlarmiz. Safarga chiqqanmiz va yo‘l-yo‘lakay qishlog‘ingiz mehmonxonasida to‘xtab o‘tishni niyat qilganmiz, – gapga aralashdi Merri. – Men janob Brendizayk bo‘laman. Shunisi yetar? Aytishlaricha, Tog‘bag‘ri aholisi sayyohlarga do‘stona munosabatda bo‘lishar ekan.

– To‘g‘ri aytishadi, – dedi darvozabon. – Sizni xafa qilmoqchi emas edim. Ko‘p o‘tmay qariya Garri Kaprifolning o‘ziga sersavol emasligini bilib olasiz. Har yoqda g‘alati odamlar yuribdi. «Javlon urar poni»da to‘xtaladigan bo‘lsangiz, bunga o‘zingiz ishonch hosil qilasiz.

Darvozabondan xayrli tun tilagini olgan sayyohlarimiz yo‘lni davom etishdi, lekin Frodo qo‘lida fonus ushlagan qariya ularning ortidan uzoq qarab qolganiga e‘tibor qildi. Darvoza tavaqasining yopilishini eshitgan Frodo yengil tortib, nima uchun anavi keksa qorovul shubha ila kuzatayotganining sababini idrok etishga urindi: balkim, unga birov sayyoh hobbitlar guruhi haqida biror nima degandir? Gendalf emasmikan? Hobbitlar o‘rmonu, sag‘analar oralab kelishguncha sehrgar ham yetib kelgandir, axir? Lekin darvozabonning nigohi-yu, ohangi Frodoni xayotirga soldi.

Darvozabon yana ma‘lum vaqt otliqlar ortidan qarab turgach, o‘z shiyponiga kirib ketdi. Qariya orqa o‘girishi bilan darvoza oldidagi devordan qora sharpa ajrab chiqib, qishloqning qorong‘i ko‘chasiga kirgancha, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Hobbitlar u qadar tik ko‘tarilmagan qiyalamaga chiqqach, bir nechta alohida turgan uy yonidan o‘tib, mehmonxona

tomon yo'l olishdi. Qishloq uylari ularning ko'ziga juda bahaybat va qandaydir g'alati ko'rinmoqda. Ko'pdan ko'p derazalarga ega uch qavatli mehmonxona binosini ko'rgan Semning yuragi orqasiga tortib ketdi. Hozir u daraxtdan baland gigantlarga, yo'lda uchragan mavjudotlardan ham qo'rqinchli maxluqlarga duch kelishini ko'z oldiga keltirdi. Odamlar va ularning baland uylarini Sem unurida endi ko'rishi. Bahaybat, qop-qora otlar mehmonxonaning otxonasiga egar urilgan holatda bog'lab qo'yilganini, Qora otiqlar esa yuqori qavatdagi derazalardan yo'lga diqqat bilan qarayotganini tasavvur qildi.

– Shu yerda tunab qolmaymiz-u, ser, to'g'rimi? – xitob qilganday so'radi u. – Qishloqda hobbitlar ham yashashar ekan. Balkim, o'shalarning birortasidikiga borganimiz ma'quldir, tunaydigan joy topib berar, axir, birortasi? Hobbit uyasida o'zimizni erkinroq his etarmidik, deyman-da...

– Mehmonxonaning nimasi yomon? – hayron bo'ldi Frodo. – Tom Bombadil shu yerda to'xtashni maslahat berdi. Demak, biz uchun shu yer ma'qul.

Hatto tashqi tomondan qaraganda ham mehmonxona binosi ko'zi ko'nikkanlar uchun shinam uyday ko'rinmoqda. Uning old tomoni yo'lga qaragan bo'lsa, ikkita qo'shimcha binosi orqaga ketib, tepalikning unchalik tik tushmagan etagi ortiga bekingan. Mana bu yo'lda turib qaraganda, orqadagi ikkinchi qavat derazasi yer sathi bilan barobar bo'lib ko'rinadi. Binoning o'rtasida ochilgan keng ravoq ichkari hovliga olib kiradi. Ravoqning chap tomonida bir nechta zina pog'onasiga ko'tarilib kiriladigan katta eshik mavjud. Ushbu eshik ochiq bo'lib, ichkari yaxshi yoritilgani shu yerdan ko'rinib turibdi. Eshik ustiga mahkamlangan yorliqqa yirik harflar bilan: «Lavr Narkissning «Javlon urar poni» mehmonxonasi» so'zlari bitilgan. Ravoq ustiga fonus mahkamlangan. Fonus ustida esa tanasini tik ko'tarib orqa oyog'iga turib olgan oq poni tasvirlangan keng taxta osilgan. Parda tortilgan ko'plab derazalarda fonus yonib turibdi.

Hobbitlar eshik oldida ikkilanib turishar ekan, ichkarida kimdir quvnoq qo'shiq boshlab qoldi. Ko'pchilik unga jo'r bo'l-



di. Dalda bergan ovozlarga bir pas quloq tutib turgan yo'lovchilar otdan tushishdi. Qo'shiq tugab, gulduros qarsaklar bilan qahqaha yangradi.

Sayyohlar ponilarini ravoqdan ichkari hovliga olib kirib, o'sha yerda qoldirishdi. Zina pog'onalaridan ko'tarilishar ekan, Frodo pakana bo'yli, boshi kal, yuzi qizil, oldiga oq fartuk tashlab olgan kishi bilan to'qnashib ketishiga bir bahya qoldi. Frodo qo'lida qadah terilgan patnis ushlagancha bir eshikdan chiqib ikkinchi eshik tomon shosha-pisha yo'l olgan ushbu kishiga murojaat qilib, og'iz juftladi:

– Ser, iloji bo'lsa, biz...

– Bir daqiqa, – yelka orqali gapirgancha gapni bo'ldi fartukli kishi va ichkariga, tutun bilan har xil ovozlarga to'lgan xonaga kirib ketdi va chindan ham bir daqiqa o'tar o'tmas qo'lini fartukka artgancha chiqib keldi. – Xayrli kech, janob hobbit! – ko'rishdi u, ikki bukilib. – Xizmat?

– Iloji bo'lsa, bizga to'rt o'rinli xona, otxonada esa besh-ta poniga joy va yem solingan oxur. Janob Narkiss o'zingiz bo'lasizmi?

– Ha, mening ismim Lavr. Lavr Narkiss, xizmatingizga muntazirman! Shirdanmisiz, deyman? – qiziqdi u va bir narsa esiga tushib ketganday, kaftini peshanasiga urdi. – Hobbitlar! – xitob qildi janob Narkiss. – Nimanidir eslashim kerak edi hozir. Ismlaringizni bilsam bo'ladingiz, ser?

– Janob Tuk va janob Brendizayk, – tanishtirdi Frodo. – Bu kishi esa janob Sem Skrombi. Men Nakruchinsman.

– Yo'q, esimga tushmadi, – barmoq chertdi janob Narkiss. – Keyinroq eslarman. Xo'sh, hozir ko'ramiz, sizlar uchun nima qilish mumkinligini. Bugungi kunda shirlik sayyohlarni uchratish qiyin bo'lib qoldi. Sizga munosib xizmat ko'rsata olmasam, vijdon azobi qiynab qo'yadi-yu, meni. Lekin bugun negadir mehmon ko'payib ketdi. «Yog'may-yog'may, jala quyay», deyishadi biz tomonda.

– Hoy, Bob! – baqirdi u. – Qayerga gum bo'lding, lapashang? Bob dedim!

– Bu yoqdaman, men, ser! Hozir chiqaman! – eshitildi ovoz.

Ostonada iljaygancha paydo bo'lgan hobbit mehmonlarni ko'rib, baqrayib qoldi.

– Boboni ko'rmadingmi, Bob? – so'radi mehmonxona sohibi. – Qayerda yuribdi u, bilmaysan?! Tezroq top uni. Oyog'im oltita emas mening, ko'zim ham bir juft, xolos! Boboni topib ayt, otxonada beshta poni uchun joy topib, yem bersin

Kulib boqqan Bob mehmonlarga ko'z qisib qo'ydi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Nima deb turgan edim sizga? – so'radi peshanasini artayotgan Narkiss. – Biri bo'lmasa, boshqasi. Qo'lim qo'limga tegmay qoldi bugun. Kecha oqshom Yashil yo'ning janubiy yo'nalishidan sayyohlar kelishgan, juda g'alati holat. Bugun esa g'arb tomon yo'l olgan bir guruh gnomlar tashrif buyurishdi. Endi, mana sizlar mehmonga kelibsiz. Agar hobbit bo'lmaganingizda, joy topilishi qiyin bo'lar edi-yov. Mehmonxona binosining shimoliy qanotida atayin hobbitlar uchun jihozlangan xonalarimiz bor. Elatingiz xush ko'radiganday tuproq polli, yumaloq derazali. Umid qilamanki, sizga qulay bo'ladi. Tabiiyki, ovqatdan bosh tortmaysiz. Ko'p o'tmay, hammasi tayyor bo'ladi. Marhamat qilsinlar, bu yoqqa yuramiz!

Yo'lakdan odimlagan Narkiss eshiklardan birini ochdi.

– Mo'jazzina ajoyib mehmonxona! – dedi u. – Sizga ma'qul keladi, degan umiddaman. Endi ma'zur tutasiz, juda bandman. Bamaylixotir suhbat qurishga vaqt yo'q. Yugur-yugur kutyapti meni. Ish og'ir, lekin vaznim hech o'zgarmaydi negadir. Kechroq xabar olaman sizlardan. Biron nima kerak bo'lsa, qo'ng'iroqchani chaling, Bob keladi. Kelmasa, baqirib-baqirib chaqiravering!

Hobbitlar quloq-miyani yegan vaysaqi mezbondan qutulishganidan sevinishdi. Bandligini pesh qiladi-yu, jag'i tinim bilmay gapiraverar ekan-a. Atrofga nazar solgan mehmonlar shinamgina xonaga kirib qolishganini fahmlashdi. O'choqda o'tin charsillayapti, qulay kursilar o'choq oldida qator terilgan.

Dumaloq stolga oq dasturxon solingan bo'lib, o'rtasiga qo'ng'iroqcha qo'yilibdi. Bobni chaqirish uchun uni chalishga hojat bo'lmadi, ko'p o'tmay sham va likop terilgan patnis ko'targancha o'zi topilib keldi.

– Biron nima ichasizlarmi, janoblar? – so'radi u. – Ovqat tayyor bo'lguncha, xobxonangizni ko'rsataman.

Yuvinib chiqqan hobbitlar, xushbo'y ichimlik ichib o'tirishar ekan, yana janob Narkiss bilan Bob paydo bo'ldi. Dasturxon ovqatga to'ldi. Ular qaynoq sho'rva, yaxna go'sht, reza mevali tort, yangi yopilgan kulcha, sariyog' va nimta pishloq keltirishdi: yomon emas, Shir taomlaridan qolishmaydi.

Mehmonxona sohibi hobbitlarga xizmat ko'rsatib, biroz kuymalangach, chiqish eshigi tomon odimladi.

– Ovqatlanib bo'lgach, qolgan mehmonlar davrasiga qo'shilib, ularning suhbatini olishni istaysizmi, yo'qmi, bilmadim, – dedi u, ostonaga yetib. – Balkim, ko'rpangizga kirib ketishni afzal ko'rarsiz. Kelgindilar, voy, uzr, shirlik sayyohlar mehmonxonamizga kamdan kam tashrif buyurishadi. Biror bir hikoyangiz, rivoyatingiz yoki qo'shig'ingizni eshitsak, boshimiz osmonga yetgan bo'lar edi. Ixtiyor o'zingizda! Biron nima kerak bo'lsa, marhamat, qo'ng'iroqcha xizmatimizga muntazir!

Taxminan qirq besh daqiqa ichida ovqatlanib bo'lgach, hobbitlar ancha dadillashib, Frodo, Sem va Pin borib boshqa mehmonlar davrasiga qo'shilishga ahd qilishdi. Merri esa buni noqulay deb topdi.

– O'choq oldida biroz o'tirgach, balkim, ochiq havoga chiqib kelarman, dedi u. – Yodingizdan chiqmasin, biz Shirni yashirincha tark etib, yurtdan hali uzoq ketmadik.

– Xavotir olma! Yaxshisi o'zingni o'yla, e'tiroz bildirdi Pin. – Ko'chaga chiqib adashib qolma tag'in. Uy ichi tashqaridan xavfsizroq.

Umumiy zalga turli o'lkalardan tashrif buyurgan mehmonlar yig'ilibdi. Ko'zi yorug'likka ko'nikayotgan Frodoning fahmlashicha bu yerda aralash-quralash jamoa to'plangan. Zalni asosan o'choq olovi yoritgan, to'sindan osilib tushgan uchta

fonus xira yoritib, tutun ichida qolib ketgan. Lavr Narkiss o'choq oldida uch nafar gnom va ikki nafar g'alati kiyingan odam bilan suhbatlashmoqda. Kursilarda Tog'bag'ri qishlog'ida yashovchi odamlar, mahalliy hobbitlar, bir qancha gnomlar va qorong'ilikda ko'z yaxshi ilg'amayotgan odamlar o'tirishibdi.

Shirlik hobbitlar umumiy zalga kirib kelishganda Tog'bag'ri aholisining olqishi yangradi. Boshqa yurt vakillari, ayniqsa, Yashil yo'ldan kelgan mehmonlar sinchkovlik-la qarashdi. Mehmonxona sohibi shirlik hobbitlarga Tog'bag'ri vakillarini tanishtira ketdi. Ismlarni tez talaffuz etgani bois, qaysi ism kimga tegishli ekanini eslab qolishning iloji bo'lmadi. Hobbitlarga shunisi g'alati ko'rindiki, Tog'bag'rida odamlarining ismlari nimasi bilandir o'simlik nomlariga o'xshar ekan: Goatlif, Fitsetto, Enildor, Tistlvud, Forpi, mehmonxona sohibining Narkiss familiyasini-yu aytmasa ham bo'laveradi. Mahalliy hobbitlarning aksariyati ham shunday ismli ekan. Magvortlar ko'pchilikni tashkil etdi. Boshqalar esa hobbitlarga xos oddiy ismga ega. Chunonchi, Bonkslar, Brokxauzlar, Longxollar, Sendxoverlar, Tayanellar. Ushbu ismlarning aksariyati Shirda ham uchraydi. Stedllik bir necha nafar Nakruchinstlar ham topildi. Ular Nakruchins familiyali har qanday hobbit borki, qarindosh sanalishini e'tirof etib, Frodoni o'z qadrtoniday bag'riga bosib qutlashdi.

Tog'bag'ri hobbitlari tabiatan sodda, samimiy, qiziquvchan chiqib qolishdi va ko'p o'tmay Frodo bu yerlarda qanday paydo bo'lib qolgani borasida ularga tushuntirish berishiga to'g'ri kelishini fahmladi. Shu bois u geografiya faniga oid ilmiy tadqiqotlar va hobbitlarning qadimiy va yangi tarixiga katta qiziqish bildirishini ma'lum qildi. Bunga javoban tinglovchilarning aksariyati ma'nodor bosh irg'ishdi, garchi bunday ilmiy-aqlli so'zlar Tog'bag'ri aholisi orasida kamdan kam qo'llanilsa-da. Shuningdek, Frodo tinglovchilarning og'zini hayratdan lang ochdirganicha, ushbu sohalarga oid ilmiy asarlar yozish niyatida ekanligini, shu sababdan o'z do'stlari bilan Shit tashqarisida, ayniqsa, sharq o'lkalarida yashaydigan hobbitlar

haqida ma'lumotlar yig'ib yurganini ham qisqacha ma'lum qilib o'tdi.

Hamma baravar javob qaytarib, Frodoning gapi bo'lindi. Agar u chindan ham kitob yozishni niyat qilgan bo'lib, qulog'i ko'p bo'lganda, bir necha bobga tatigulik material yig'gan bo'lar edi. Agar shu ham kamlik qilganda, kelgusida foydali ma'lumot berishi mumkin bo'lgan hobbitlar ismlarining ho'v anavi «qariya Lavr»dan boshlab butun boshli ro'yxatiga ega bo'lar edi. Biroq, ma'lum vaqt o'tgach, modomiki Frodo hozirning o'zida kitob yozishga kirishmas ekan, hobbitlar Shir haqida savol yog'dirishga kirishishdi. Frodo bunday savol-javobda ishtirok etmagani uchun ko'p o'tmay bir burchakda gap so'zlarga quloq tutib, atrofga nazar solib o'tirdi.

Odamlar bilan gnomlar dunyo yangiliklarini, bo'lib o'tgan ayrim hodisalarni, janubiy o'lkalarda qandaydir tartibsizliklar yuz berayotgani, shu bois Yashil yo'ldan kelgan odamlar, aftidan, tinch hayot kechirish uchun makon qidirishayotganini muhokama qilishmoqda. Tog'bag'riliklar ochiq ko'ngil bo'lgani bilan tabiiyki, o'zlarining shundoq ham aholisi zich yashaydigan kichik qishlog'ida ajnabiylar qo'nim topishini istashmaydi. Xorijliklar orasidagi ko'zi g'ilay, turishidan xasta kishi yaqin kelajakda shimol tomon yo'l olgan qochqinlar soni borgan sari ko'payib boraverishini o'tirgan joyida bashorat qildi.

– Agar ularga hayot kechirish uchun makon ajratilmasa, uni o'zlari qidirib topishadi. Qolganlar kabi ular ham yashashga haqli, – dedi u, baland ovozda.

Mahalliy aholiga bunday istiqbol yoqmadi.

Hobbitlar bunday gaplarga deyarli e'tibor qilishmadi. Bu ishlar hozircha ularga daxl qilmagan. Zero, novcha xalq hobbitlarning yerosti uyalariga da'vo qilishi qiyin. Ularni hozir Sem bilan Pin ko'proq qiziqtirmoqda. Chunki ikkalasi o'zini enasining uyida o'tirganday his etib, Shirda kechgan hodisalarni bemalol, quvnoq ohangda aytib berishmoqda. Mikel-Delvin qishlog'idagi Taun uyasining tomi qanday o'pirlib tushganini aytib bergan Pin hammani kuldirdi. Ushbu qishloq hokimi, G'ar-

biy Shirning eng semiz hobbiti Uill Betfut bo'rga belanib, uya vayronasidan bir qop unga tushgan mitaday emaklab chiqibdi. Shu yerga kelganda Frodoni tashvishga solgan bir nechta savol berildi. Shirda bo'lgan tog'bag'riliklardan biri Nakruchinslar qayerda yashashi, ular kimga qarindosh ekanligi bilan qiziqib qoldi.


Frodoning e'tiborini umumiy zal eshigi yaqinidagi qorong'i burchakda o'tirgan, zohiran g'alati ko'rinib, yuzini shamol yalagan kishi o'ziga tortdi. Kattagina qadahdan pivo simirib, ajib bukilgan trubka chekar ekan, hobbitlarning suhbatini diqqat bilan eshitib o'tiribdi. Yumshoq charmdan tikilgan qo'nji baland etigi eskirib, loyga belangan bo'lsa ham oldinga uzatilgan oyog'iga yarashib turibdi. Egniga eski, to'q yashil matodan tikilgan dag'al plash kiygan bo'lib, zal havosi dim bo'lishiga qaramay, boshiga, yuzi aniq ko'rinmasligi uchun bo'lsa kerak, qaytarma qalpog'ini tashlab olgan. Biroq hobbitlarga qaratilgan ko'zi yarqirayotganday bo'ldi.

– Anavi kishi kim? – so'radi u, janob Narkiss bilan pichirlashib olish imkoni tug'ilishi bilan. – Uni bizga tanishtirmadingiz, shekilli.

– Unimi? – boshini eshik tomon burmay, ko'z qiri ila qaradi mehmonxona sohibi. – To'g'risini aytsam, o'zim ham yaxshi tanimayman uni. Jahongashtalardan biri. Biz bundaylarni sayyoh yoki izquvar deb ataymiz. Juda kamgap inson, lekin kayfiyati yaxshi bo'lsa juda qiziq narsalarni aytib beradi. Bir-ikki oy, ba'zan bir yilgacha ko'rinmay ketib, yana topilib keladi. So'nggi bor bahorda ko'rgan edim uni. Haqiqiy ismini bilmayman-u, mahalliy odamlar uni Musofir deb chaqirishadi. Uzun oyog'i bilan tez yuradi, ammo qayerga, nima sababdan shoshib ketayotganini birov bilmaydi. Dunyoning sharqi-yu, g'arbi unga cho't emas, istagan burchagiga borib kezib chiqaveradi. Uzi, nega u haqda so'rab qoldingiz, menga qiziq?...

Mehmonlar ichimlik so'rab, janob Narkissning gapini bo'lishdi.

Musofir huddi janob Narkiss bilan o'tgan suhbatni eshitib qolganday, tikka Frodoga qaradi. So'ng qo'l va bosh



imosi ila Frodoni chaqirib, yonidagi bo'sh kursini ko'rsatdi. Frodo yaqin kelishi bilan notanish kishi qaytarma qalpog'ini orqaga tashlagancha, oq oralagan qora sochi, qiyofasi qat'iy rangpar yuzi va o'tkir nigohli kulrang ko'zini ochdi.

– Meni Musofir deb chaqirishadi, – o'zini tanishtirdi u, past ovozda. – Siz bilan uchrashganimdan bag'oyat xursandman, janob... Nakruchins, agar qariya Narkiss ismingizni to'g'ri aytgan bo'lsa.

– Ha, to'g'ri aytdi, --jur'atsiz ohangda javob berdi Frodo.

Musofirning o'tkir nigohi ostida Frodo o'zini qandaydir qat'iyatsiz his etdi.

– Nima desam ekan, janob Nakruchins, – gap boshladi begona odam, – sizning o'ringizda bo'lsam, anavi yosh do'stlaringizga tilga haddan ortiq erk berishga yo'l qo'ymagan bo'lar edim. Ichimlik, yegulik, o'choq tafti, quvnoq suhbatdoshlar – bularning bari yaxshi, albatta, lekin unutmang, sizlar Shirda emassiz. Bu yerda g'alati mehmonlar uchrab turadi. Bilishimcha, siz buni fahmlagansiz, – quruq tabassum-la ta'kidlab qo'ydi u, Frodoning nigohini tutib. – Boz ustiga, Tog'bag'ri orqali juda g'alati sayyohlar o'tishdi yaqinda, – davom etdi u, Frododan ko'zini uzmay.

Frodo ham Musofirga qarab qo'ydi-yu, indamadi. Musofir ham gapini tugatdi. Aftidan, Pin, uning e'tiborini o'ziga jalb qilgan ko'rinadi. Frodo, Mikel-Delvin qishlog'ining semiz hokimi haqidagi hikoyasi kulgili chiqqanidan ruhlanib ketgan anavi valdirvasar Tuk baxtga qarshi endi Bilbo uyushtirgan katta ziyofatning tavsifiga o'tganini angladi. Hozir u Bilboning nutqiga taqlid qilib, hammaning ko'z o'ngida sirli ravishda g'oyib bo'ladigan joyiga yetdi.

Frodo achchiqlandi. Hech shubha yo'qki, Pining valdirashi mahalliy hobbitlarning aksariyati uchun birovga ozor keltirmaydigan, daryoning narigi sohilida yashaydigan qiziq odamlar haqidagi qiziqarli hikoyaday tuyuladi. Biroq ayrimlar, masalan, qariya Narkiss ba'zi narsalardan boxabar bo'lib, Bilboning sirli ravishda g'oyib bo'lgani haqida har xil gaplar eshitishgan. Pin-

ning hikoyasida hozir Beggins familiyasi tilga olinishi kerak.

Nima qilishni bilmagan Frodo o'tirgan joyida tipirciniab qo'ydi. Pin hammaning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb eta olganidan huzur qilayotgan ko'rinadi, ogohlikni batamom unutib qo'ydi. Frodo esa kayfiyati osmongacha ko'tarilib ketgan Pin hozir Uzukni ham tilga olib o'tishi, bu o'z navbatida falokat-la yakun topishi mumkinligidan qo'rqib ketdi.

– Zudlik bilan biror chora ko'rishingiz kerak! – qulog'iga pichirladi Musofir.

Frodo uzoq o'ylanmay shartta stol ustiga chiqdi-da, gap boshlab qoldi. Tinglovchilarning e'tibori Pindan chalg'ib, Frodoga qaratildi. Janob Nakruchinsning kayfi oshib qoldi, deb o'ylagan hobbitlar Frodoning atrofida yig'ilib, kulib boqqancha qarsak chalishdi.

Ahmoqona holatga tushib qolgan Frodo ko'pchilik oldida gapirayotganda qilishga odatlangan ishiga – kissa titkilashga kirishib ketdi. Qo'li zanjirga ilingan Uzukka tegib, uni barmoqqa taqqancha gum bo'lish istagi paydo bo'ldi. Biroq ushbu istak unga ichidan chiqqan emas, qandaydir tashqi kuch majburan singdirganday tuyuldi. Vasvasani yenggan hobbit yo'qotib qo'y-maslik uchun Uzukni kaftiga mahkam siqib oldi. U Shirida qabul qilinganday, tegishli vaziyatga taalluqli bir necha so'z aytdi:

– Bizni iliq qarshi olganingizdan bag'oyat minnatdormiz. Umid qilamanki, Tog'bag'riga buyurilgan ushbu qisqa tashrifim Shir bilan o'lkangiz o'rtasidagi qadimiy do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.

Shundan so'ng u tomoq qirib oldi. Umumiy zalda o'tirganlarning bari unga tikilib turibdi.

– Qo'shiq eshitaylik! – ovoz ko'tardi hobbitlardan biri.

– Qo'shiq! Qo'shiq! – ma'qullagancha baqirishdi qolganlar. – Qani, janob mehmon, yangisidan bo'lsin!

Frodo biroz ikkilanib qoldi. So'ng bir vaqtlar Bilbo yozgan bo'lib, o'zi yoqtirib aytgan qo'shiqni boshladi. Qo'shiqda mehmonxona haqida ham gap borgan, shuning uchun Frodoning xayoliga kelgan birinchi qo'shiq shu bo'ldi. Mana o'sha



Shir haqidagi qo‘shiqning ayrim misralari.

*Otboqar bor qishloqda, mushugi hamisha mast,  
Qo‘shnisi itboqardir, mushukdan olmoqchi qasd.  
Qozonga yaqin borsang, qorasi yuqar albat,  
Mushukka qo‘shilgan it qiliq chiqaribdi bad.*

*Sigiri bor qo‘shnimning shoxi xuddiki hilol.  
Musiqani yoqtirar, sut berar suvdek zilol.  
Mushukning qilig‘i bor – skripka<sup>1</sup> chalar bearmon,  
Tomdan uni quvmoqqa hamma qidirar narvon.*

*Mehmonxona bor ajib, oqshomlar o‘tar quvnoq,  
Unda aziz mehmonlar sakraydi misli toychoq.  
Bunda qahva, taom mo‘l, musiqa ham ko‘p bo‘lar,  
Uzoq-yaqin yurtlardan odamlar tinmay kelar.*

Umumiy zaldagilar olqishlab, gulduros qarsak chaldi.  
Frodoning ovozi shirali bo‘lgani bois, qo‘shig‘i hammaga yoqdi.

– Qariya Lavr qani? – baqirishdi tinglovchilar. – U ham eshitdimi, qo‘shiqni? Bob uning mushugiga skripka chalishni o‘rgatsin, biz esa jonivorning kuyiga raqs tushamiz.

Qadahini simirib bo‘shatgan mehmonlar talab ohangida baqirishdi:

– Yana eshitaylik! Yana eshitaylik!

Frodo ham qadahini bo‘shatib, aksariyat tinglovchilarning talabiga binoan qo‘shiqni takror aytdi. Misralarni ko‘pchilik eslab qolgan ekan, Frodoga jo‘r bo‘lishdi. Hammaning diqqat-e‘tiborini jalb etib, huzur qilish navbati endi Frodoga yetdi. Stol ustida oyoq tepib o‘ynar ekan, takror aytilayotgan «Mushukning qilig‘i bor – skripka chalar bearmon» misrada sakrab-sakrab, mushukka taqlid qilgancha, skripka chalayotgan harakat bajardi.

---

<sup>1</sup> **Skripka** (*ruscha*: «g‘ijir-g‘ijir, g‘arch-g‘urch») – kamoncha bilan chalinadigan, to‘rt torli musiqa asbobi.

Oyog'i qadah to'la patnisga tushib, sirpanib yiqilayotgan Frodo kutilmaganda hammaning ko'z o'ngida gum bo'ldi. Kulish uchun endigina og'iz ochgan tinglovchilar turgan joyida dong qotib qolishdi. Hozirgina qo'shiq aytayotgan janob Nakruchins teshik qoldirmay, pol ostiga tushib ketganday bo'ldi.


Mahalliy hobbitlar hayratdan oyoqqa qalqib turib, Lavrni chaqirishdi. Umumiy zaldagilarning bari burchakda yolg'iz o'tirgan Pin bilan Semdan nari tislandi. Qudrati-yu, qobiliyati noma'lum qolgan daydi sehrugarlar bilan haddan ortiq apoq-chapoq bo'lib ketgani uchun ko'pchilik attang qilayotgani yaqqol ko'rinib turibdi. Boshqa burchakda o'tirgan qorachadan kelgan tog'bag'rilik kishi esa mahalliy hobbitlarga qarab, istehzoli kulib qo'ydi-da, o'rnidan turib, chiqish eshigi tomon odimladi. U bilan pichirlashib o'tirgan g'ilay ko'zli janublik ham turib, darvozabon qariya Garri bilan birga umumiy zalni tark etdi.

Frodo o'zini ahmoqday his etmoqda. Nima qilishni bilmay, stol ostida emaklaganicha, biron nima haqida o'ylayotganini bildirmay tek o'tirgan Musofirning yoniga, qorong'i burchakka bordi. Devorga qapishib olgach, Uzukni yechdi. Qanday qilib Uzuk barmog'iga taqilib qolganini Frodo bilmaydi. Stoldan sirpanib tushayotganida barmog'iga bexos ilashib qolganiga umid qildi. Ammo, nazarida, bunday hazilni Uzukning o'zi atayin qilganday bo'ldi: balkim, Uzuk zalda o'tirganlardan birining istagi yoki amrini bajarish uchun o'zini fosh qilgandir. Anavi kishilar umumiy zalni tark etgani Frodoga yoqmadi.

– Xo'sh? – dedi Musofir, yana paydo bo'lgan Frodoga qarab. – Nima qilib qo'yganingizni bilasizmi? Bunday qiling'ingiz do'stlaringizning hikoyalaridan battar yengiltaklik bo'ldi-yu. O'z oyog'ingizni, aniqroq aytiladigan bo'lsa, barmog'ingizni o'zingiz tuzoqqa ilintirdingiz.

– Fikringizni tushunmadim, – dedi Frodo jahl va xavotir aralash ohangda.

– Juda yaxshi tushunib turibsiz, janob Beggins, – pichirladi Musofir. – Hayajon-u, gap-so'zlar tinguncha endi shu yerda kutib turganingiz ma'qul. Shundan so'ng, ikki og'iz gap



aytib qo'yishim kerak bo'ladi sizga.

– Nima haqda? – so'radi Frodo, haqiqiy familiyasi talafuz etilganiga e'tibor qilmay.

– Ikkalamiz uchun nihoyatda muhim bir ish haqida, – javob berdi Musofir, Frodoning ko'ziga tik qarab. O'zingiz uchun foydali narsalarni eshitasiz.

– Ma'qul, – bosh irg'idi Frodo, o'zini vazmin tutishga urinib. – Keyinroq xonada gaplashamiz.

Bu vaqtda o'choq oldida qizg'in bahs boshlandi. Qayerdandir topilib kelgan janob Narkissga mazmunan bir-biriga zid narsalar aytib berilmoqda.

– Uni o'z ko'zim bilan ko'rdim, janob Narkiss, – dedi hobbitlardan biri. – Aniqroq aytadigan bo'lsam, ko'rmadim. Havoda daf bo'ldi.

– Bo'lishi mumkin emas, janob Magvort! – xitob qildi hayratlangan mehmonxona sohibi.

– Men aytganday bo'ldi, – o'zinikini ma'qullagancha turib oldi Magvort.

– Yanglishyapsiz chog'i, – bosh siltadi Narkiss. – Janob Nakruchinsning tanasi haddan ortiq yirik, ko'rinmay qolgani.

– Xo'p, unday bo'lsa, qani, qayerda endi u, hozir? – bir ovozdan xitob qildi bir necha kishi.


– Men qayerdan bilay, axir? – hayron bo'ldi Narkiss. – Istagan joyiga borishi mumkin u, ertalab haq to'lab ketsa bo'ldi, ishqilib. Biroq uning hamrohi janob Tuk ana, o'tiribdi, hech qayoqqa gum bo'lgani yo'q.

– Ko'rganimni ko'rdim, ko'rmaganimni ko'rmadim, deyman-da, – qaysarlik-la turib oldi janob Magvort.

– Men esa yana bir bor yanglishyotganingizni eslatib o'taman, – takrorladi Narkiss, yerda yotgan patnisga singan idish parchalarini yig'ib.

Yanglishyapti, albatta, – dedi Frodo. – Mana men, hech qayoqqa daf bo'lganim yo'q. Burchakda yolg'iz o'tirgan janob Musofir bilan suhbat qurgim keldi, bor gap shu.

Frodo o'choq tomon odimladi. Uni ko'rib, battar cho'-



chiganlar yanada nariroq tisarildi. Mehmonning stoldan qulab, tez emaklab ketgani haqidagi tushuntirishidan ko'pchilik qanoatlanmadi. Tog'bag'ri qishlog'ining odamlari bilan hobbitlari bugungi vaqtichog'likni bas qilish maqsadida o'rnidan turishdi. Ayrimlar Frodoga yovqarash qilgancha, bir nimalar vaysab umumiy zalni tark etdi. Gnom bilan bir-ikki nafar g'alati-g'alati kishilar mehmonxona sohibiga xayrli tun tilashdi-yu, Frodo bilan uning do'stlariga hech narsa demay, chiqib ketishdi. Ko'p o'tmay, umumiy zalda bir burchakda indamay o'tirgan Musofirdan boshqa hech kim qolmadi.

Janob Narkissning ushbu holatdan dili siyoh bo'lmagan ko'rinadi. Aftidan, uning uyi hozirgina ro'y bergan g'alati hodisa mehmonlar tomonidan keyingi bir necha kun davomida qizg'in muhokama qiladigan joyga aylanishini fahmlagan ko'rinadi.

– Endi nima qilmoqchisiz, janob Nakruchins? – so'radi u. – Akrobatika<sup>1</sup> bilan shug'ullangancha, mehmonlarimni cho'chitib, idishlarimni sindirishni davom etasizmi?

– Sizni tashvishga qo'yganimdan hijolatdaman, janob Narkiss, – dedi Frodo. – Ishoning bexosdan shunday bo'lib qoldi. Shunchaki, baxtsiz hodisa ro'y berdi.

– Yaxshi, janob Nakruchins. Lekin mabodo ko'nglingiz yana akrobatikani tusab qolsa, iltimos, mehmonlarimni va birinchi navbatda meni bu haqda oldindan ogohlantirib qo'ysangiz. Biz shunaqa xalqmiz, hamma narsaga... ayniqsa, g'ayritabiiy narsalarga shubha ila qaraymiz, nima demoqchi bo'lganimni tushungan bo'lsangiz, albatta.

– Yo'q, unday narsalar bilan shug'ullanmayman, janob Narkiss, so'z beraman. Endi esa, ijozatingiz bilan, borib yotsam. Biz imkon qadar ertaroq yo'lga chiqish niyatidamiz. Iltimos, ponilarimizni ertalab soat sakkizda safarga chiqishga shay qilib qo'ysangiz.

– Albatta! Biroq mehmonxonani tark etishingizdan oldin sizga aytadigan bir-ikki og'iz gapim bor. Boya aytmoqchi bo'l-

---

<sup>1</sup> Akrobatika – sport gimnastikasi va sirk san'atining murakkab turi.

gan gapim yodimga tushdi. Bir-ikki ishlarimni tinchitib olgach, e'tirozingiz bo'lmasa, huzuringizga kiraman va bu ishinni bemavrid deb topmaysiz, degan umiddaman.

– Kutaman, – dedi Frodo yuragi tovoniga tushib.

«Yana qancha sirli suhbatlar o'tishi, yana nimalarni bilib olishim kerak ekan bugun, a? Nahotki hamma menga qarshi birlashib olgan bo'lsa?» – xayoldan o'tkazdi Frodo, qariya Nar-kissning semiz yuzi qaragancha pismiqona shubha qilib.

## X BOB

### MUSOFIR

Frodo, Pin va Sem xonaga kirishdi. Ichkari qorong'i, Merri yo'q, o'choqdagi o't ham deyarli o'chib qolibdi. Cho'g' titib, besh-oltita tarasha tashlashgach, eshik yonidagi kursida xotirjam o'tirgan Musofir ham ular bilan birga kirib kelganini ko'rishdi.

– Salom, – ko'rishdi Pin. – Siz kimsiz? Nima kerak sizga?

– Meni Musofir deb chaqirishadi, – javob berdi u. – Do'stingiz unutib qo'ygan bo'lishi mumkin, albatta, lekin u men bilan ushbu xonada xotirjam gaplashib olishni va'da qilgan edi.

– O'zim uchun foydali narsadan voqif bo'lishimni aytgan edingiz, – ma'qulladi Frodo. Nima ekan u?

– Bir emas, bir nechta narsadan, – javob berdi Musofir.

Biroq, tabiiyki, buning uchun haq talab qilaman.

– Buni qanday tushunish kerak? – keskin ohangda so'radi Frodo.

Hayajonlanmang! Buni shunday tushunish kerakki: men sizga o'zim bilgan narsalarni aytib, bir nechta maslahat berib o'taman, ammo buning evaziga mukofot so'rayman.

– Qancha va qanaqangi mukofot haqida gap ketyapti? so'radi Frodo.

Tovlamachiga duch kelganini fahmlagan Frodo o'zi bilan ko'proq pul olmaganiga afsus qildi. Yonida bori esa mana bu qallobga kamlik qilsa kerak.

– Bera oladiganingizdan ko'p emas, janob Nakruchins, – kulib boqdi Musofir, Frodoning xayoliga kelganini uqib olganday bo'lib. – Faqat bitta shartim bor: sizlarni o'zim tark etib ketguningcha, safarga meni ham o'zingizga hamroh qilib ketishingiz kerak.

– Shunaqa deng! – xitob qildi hayratlangan, lekin ko'p xursand bo'lmagan Frodo. Agar menga yana bir hamroh kerak bo'lgan taqdirda ham, sizni va siz shug'ullanadigan kasb-koringizni yaxshiroq bilib olmaganimcha, rozilik bermagan bo'lar edim.

– Juda soz! – xitob qildi oyoqlarini chalishtirganча, tanasini kursi suyanchig'iga tashlab, astoydil joylashib olgan Musofir. – Fikr-mulohazalaringizni yig'ib, o'zingizga kelyapsiz, bu juda yaxshi. Bundan keyin ham sergaklikni yo'qotmang. Juda soz! Sizga o'z bilganimni aytib, mukofotimni kutaman. Gapimni eshitib, balkim, ma'qul toparsiz.

– Yaxshi, boshlang! – dedi Frodo. – Xo'sh, sizga nimalar ma'lum ekan?

– Juda ko'p narsalar, bir-biridan qayg'uli gaplar, – g'amgin ohangda gap boshladi Musofir. – Sizning ishingizga kelsak...

U kutilmaganda o'rnidan turib eshikni shartta ochdi-da, yo'lakka bosh chiqardi, hech kimni ko'rmagach, tavaqani yopib, yana joyiga o'tirdi.

– Qulog'im yaxshi eshitadi, – past ovozda davom etdi Musofir. – Garchi hammaning ko'z o'ngida gum bo'la olmasam-da, g'alati, yovuz narsalarni ajrata bilaman va agar istasam, kishi sezmas bo'la olaman. Bugun oqshomda Tog'bag'ridan g'arb tomon ketgan yo'lda turib, tepaliklar orasidan chiqib kelgan to'rt nafar hobbitni ko'rib qoldim. Ularning qariya Bombadil-u, bir-biriga aytgan gaplarini takrorlab o'tirmayman. Ammo ulardan birining aytgan gapi, u ham bo'lsa: «Biz Shir tashqarisidamiz, ya'ni qadrdon uyimizda emasmiz. Iltimos, Beggins ismi bu yerda

tilga olinishi mumkin emasligini unutmang. Men endi janob Nakruchinsman, agar meni birovga tanishtirish kerak bo‘lib qolsa», – deya tayinlagani menda qiziqish uyg‘otdi. Orqalaridan ergashib, birovga bildirmay darvozadan kirib oldim. Haqiqiy ismingizni sir saqlash uchun uzrli sabab bordir-u, janob Beggins, lekin sizga va do‘stlaringizga beradigan maslahatim shuki, ogoch bo‘ling.

– Nega endi asl ismim birovni qiziqtirishi kerak bu qishloqda, hech tushunmayapman? – achchiqlandi Frodo. – Nima uchun mening haqiqiy ismim shaxsan sizni qiziqtirib qoldi, shuni bilmog‘chi edim. Janob Musofirning bizni o‘g‘rincha kuzatib, suhbatimizni o‘g‘rincha eshitib yurishi uchun uzrli, vijdonga hilof bo‘lmagan sababi bordir-u, lekin men o‘sha sababni va unga beriladigan tushuntirishlarni eshitmoqchiman.

– Chiroyli gap bo‘ldi, – tabassum-la ta‘kidlab qo‘ydi Musofir. – Beriladigan tushuntirish mazmunan juda sodda: men Frodo Beggins ismli hobbitni qidirib yuribman. Uni imkon qadar tez topishim kerak edi. Shirni tark etganidan xabarim bor...

– Qandaydir muhim bir ish haqida gapirmog‘chi edingiz, – gapni bo‘ldi Frodo.


– Vaqtini behuda yo‘qotmang! – ovoz ko‘tardi Musofir, Frodoning o‘rnidan turgani-yu, Semning jahl-la oyoqqa qalqiganini ko‘rib. – Esingizda bo‘lsa, sir tutish g‘amini umumiy zalda siz emas, ko‘proq men yedim, janob Beggins. Ehtiyotkorlik esa hozir juda zarur.

Musofir oldinga engashib, hobbitlarning har biriga alohida qarab chiqdi.

– Har bir sharpani kuzatib boring! – pichirladi u. – Qora otliqlar Tog‘bag‘ri qishlog‘i orqali o‘tib ketishdi. Aytishlaricha, ulardan biri dushanba kuni Yashil yo‘l orqali pastga yo‘l olgan, ikkinchisi ham Yashil yo‘ldan, lekin sal kechroq, janubiy yo‘nalishdan kelgan.

Oraga sukunat cho‘kdi.

– Bizni qarshi olgan darvozabonning xulqidan fahmlashim kerak edi buni, – dedi nihoyat Frodo, Sem bilan Pinga



murojaat qilib. – Mehmonxona sohibi ham nimadir eshitgan. Ni-  
ma sababdan u bizni mehmonlar davrasiga taklif qilgan bo'lishi  
mumkin? U yerda biz chindan ham o'zimizni juda ahmoqona  
tutdik. Shu yerda jimgina o'tirishimiz kerak edi.

– Yaxshi bo'lar edi, – ta'kidlab qo'ydi Musofir. –  
Umumiy zalga kiritmagan bo'lar edim sizlarni, agar ilojini top-  
ganimda. Biroq mehmonxona sohibi sizlar bilan ko'rishishga  
ijozat bermadi, mendan xabar kiritib yuborishni ham istamadi.

– O'ylaysizki, u?... – og'iz juftladi Frodo.

– Yo'q, qariya Narkiss biron-bir turda ziyon yetkazmoq-  
chi bo'lgan deb o'ylamayman. U menga o'xshagan muammoli  
daydilarni yoqtirmaydi. Axir, men turishimdan qallobga o'x-  
shayman-u, to'g'rimi? – sirli kulib boqdi u, Frodoning hayrat-la  
baqrayib turganini ko'rib. – Umid qilamanki, biz hali bir-birimiz-  
ni yaxshiroq tanib olamiz. Tanishib olgach esa qo'shiq oxirida,  
patnisni bosib, sirpanib ketganingizdan so'ng ro'y bergan hodi-  
sani tushuntirib berasiz menga.

– Tasodifan shunday bo'lib qoldi, – gapni bo'ldi Frodo.

– Shubham bor bu masalada, dedi Musofir. Tasodif  
emish! Shunday bo'lgan taqdirda ham, o'sha tasodif sizga  
nisbatan katta xavf tug'dirdi.

– Bo'lishi mumkin emas, – dedi Frodo. Qora otliqlar  
meni ta'qib qilishganini bilaman, lekin ular meni yo'qotib qo'-  
yib, bu yerlardan ketib bo'lishdi.

Chuchvarani xom sanabsiz! – ovoz ko'tardi Musofir. –  
Ular hademay qaytib kelishadi. Soni ham ko'payadi. Ular nechta  
bo'lishi kerakligini yaxshi bilaman. Kimligini ham bilaman.

O'y surib qolgan Musofirning nigohi sovuq, qahrli  
bo'lib qoldi.

– Tog'bag'ri qishlog'ida esa shubhali odamlar yashaydi,  
– davom etdi u, birozdan so'ng. – Masalan, Bill Ferni. O'ziga  
yomon ot ortirib olgan. Har xil qabohatlar tashrif buyurib turadi  
uning uyiga. Umumiy zaldagi odamlar orasida o'sha kas ham bor  
edi, ko'rgan bo'lsangiz: qorachadan kelgan, masxaraomuz irja-  
yib o'tirgan nusxa. *Janublik daydilardan biri bilan o'tirdi. Siz-*



ning «tasodifan»ingizdan keyin ikkalasi birga chiqib ketishdi. Janubliklarning hammasi ham yaxshi odam emas. Ferni masalasiga kelsak, durustroq foyda ko'radigan bo'lsa, otasini sotishga tayyor u.

– Nimani sotishi mumkin Ferni va men yo'l qo'yan «tasodifan»imga nima daxli bor uning? – qiziqdi Frodo, o'zini Musofirning shamalarini hamon tushunmayotganga solib.

– Sizning qishloq hududiga kirib kelganingiz-u, hozirgina umumiy zalda ko'rsatgan hunaringizni sotadi, – javob berdi Musofir. – Unday ma'lumot ayrimlar uchun juda qimmatli bo'lib, asl ismingizni aniqlashga hojat qolmaydi. Siz haqingizda ular bugungi tun oxirigacha xabar topishi muqarrar. Shu gapning o'zi yetar? Mening mukofotimni ko'nglingiz tusagan narsaga sarflashingiz mumkin. Meni o'zingizga hamroh qilib olasizmi, yo'qmi, farqi yo'q, ixtiyor o'zingizda. Lekin shuni aytib qo'yishim kerakki, Shir bilan G'uborli tog'lar orasidagi katta hududni menday yaxshi biladigan odamni topa olmaysiz. Ko'p yillardan buyon izg'iyman bu yerlarda. Zohiran yosh ko'ringanim bilan ancha kattaman. Sizga nafim tegishini yaxshi bilaman. Ertaga katta yo'lni tark etishingizga to'g'ri keladi. Chunki Qora otlqlar sizlarni kun-u, tun katta yo'lda qidiradi. Tog'bag'ri qishlog'idan chiqib, kun botguncha xavfsiz yurishingiz mumkin, ammo ulardan qochib, uzoq keta olmaysiz. Birov sizga yordam bera olmaydigan joyda yo'lingizni to'sishadi. Sizlarni topib olishlarini istaysizmi? Juda dahshatli ular, bilmoqchi bo'lsangiz.

Hobbitlar yuzi og'riq sezganday burishib, qo'li kursining tirsakqo'ygichini mahkam siqib olgan Musofirga hayrat-la qarashdi. Xonada jimjitlik qaror topib, fonus juda xira yoritmoqda. Musofir nigohsiz ko'zini olis-olislarga tikib, uzoq o'tmishni eslayotganday, tungi shovqinga quloq tutayotganday o'tirdi.

– Shunday ekan, payingizga tushganlar haqida sizga nisbatan ko'proq bilaman. Siz ulardan qo'rquapsiz, bilaman, lekin qo'rquvingiz yetarli darajada emas. Ertaga, agar uddalasak, ulardan qochib qutulamiz. Musofir sizlarga yo'l ko'rsatib, ko'p-

chilik bilmaydigan so'qmoqlardan olib ketadi. Xo'sh, hamroh qilib olasizmi uni o'zingizga?

Oraga yanada og'ir sukunat cho'kdi. Frodo indamayapti. Uning ikkilanayotgan xayoli qo'rquvga to'lgan. Qoshini chimirib olgan Sem esa sohibidan ko'z uzmay o'tiribdi.

– Ijzat bersangiz, janob Frodo, men yo'q deya javob beraman! – sukunatni buzdi nihoyat u. – Mana bu Musofir deganlari bizni ogohlikka da'vat etmoqda. To'g'ri qilyapti va biz ogohlikni uning o'zidan boshlaymiz. Bu yerga u Yovvoyi o'lkadan kelgan. Shaxsan men o'sha o'lkadan ezgulik kelganini hech eshitmaganman. U ba'zi narsalardan xabardor, albatta, lekin u biz haqimizda keragidan ortiq biladi va bu uni o'zimizga hamroh qilib olmaslikka asos bo'ladi.

Ayanchli qiyofa kasb etgan Pin o'tirgan joyida tipirchilab qo'ydi. Musofir Semning gapiga javob qaytarmay, Frodoga qarab o'tiribdi. Frodo esa ko'zini uning nigohidan olib qochdi.

– Yo'q, rozi emasman, – asta gap boshladi u. – Nazarimda, siz aslida mutlaqo boshqa odamsiz. Avvaliga tog'bag'rilik kishiday gap boshladingiz, so'ng ohangiz o'zgardi. Fikrimcha, Sem haq. Men bir narsani hech tushuna olmayapman: o'zingiz bizni ogohlikka da'vat etyapsiz-u, ayni vaqtda sizni o'zimizga hamroh qilishimizni talab qilyapsiz. Kimsiz o'zi? Nimalarni bilasiz... mening ishim haqida? Qayerdan xabar topgansiz?

– Ogohlik darsi yaxshi o'zlashtirilibdi, – g'amgin kulib boqqancha xulosa qildi Musofir. – Biroq ogohlik – bir gap, ikkilanish bilan qat'iysizlik esa – mutlaqo boshqa gap. Rivedellgacha hech qachon o'zlaring mustaqil yeta olmaysiz. Yagona yo'lingiz – menga ishonch bildirishdir. Bir qarorga keling. Agar bir to'xtamga kelishingizga yordam beradigan bo'lsa, mayli, ayrim savollaringizga javob berishim ham mumkin. Lekin o'zimga ishonmas ekansiz, javoblarimga qanday ishonasiz, hayronman. Bunda, hamon...

Shu fursatda eshik taqillab, ostonada sham ushlagan janob Narkiss bilan issiq suv ko'tarib kelgan Bob paydo bo'ldi.

Musofir astagina oʻrnidan turib, xonaning qorongʻi burchagiga biqinib oldi.

– Sizga xayrli tun tilagani keldim, – dedi mehmonxona sohibi qoʻlidagi shamni stol ustiga qoʻyar ekan. – Bob! Suvni xobxonaga kirit!

Bob xobxonaga kirib, eshikni narigi tomondan yopti.

– Boya aytmoqchi boʻlganim, – gap boshladi ikkilanib, hijolat tortayotgan janob Narkiss, – mabodo sizga ziyon yetkazgan boʻlsam, afsusdaman, albatta. Biri ikkinchisiga qoʻshilib ketaveradi... Koʻrib turibsiz, juda band odamman. Oldin biri, soʻng ikkinchisi, keyin esa bari miyamdan uchib chiqadi... Umid qilamanki, hali u qadar kech boʻlmay, vaqtida esga oldim. Gap shundaki, bir kishi menga bir ish tayinlab ketgan edi... Shirlik hobbitlarni, ayniqsa, Beggins deganlarini qidirib topishim kerak edi...

Xoʻp, lekin u ishning menga nima daxli bor? – soʻradi Frodo.

– Nima daxli borligini oʻzingiz yaxshi bilsangiz kerak, – javob berdi mehmonxona sohibi. – Menga uqtirilishicha, oʻsha Beggins deganlari oʻzini siz kabi Nakruchins deya tanishtirishi kerak. Tashqi koʻrinishini ham tavsiflab bergan va oʻsha tavsif sizning qiyofangizga mos kelyapti, agar taʼbir joiz boʻlsa.

– Xoʻsh, keyinchi? – betoqatlik-la gapni boʻldi Frodo.

– Jussasi baquvvat, ikki lunji qizil, boʻyi pakana odam, – tantana ohangida maʼlum qildi janob Narkiss.

Pin hiringlab qoʻydi, Sem esa mehmonxona sohibiga dargʻazab qarash qildi.

– «Bu tavsif sizga unchalik yordam bermaydi, chunki hobbitlarning aksariyati zohiran shunday koʻrinishga ega, Lavr», – degan edi oʻsha kishi menga, – davom etdi janob Narkiss, koʻz qiri ila Pinga qarab qoʻyib. – «Ammo men aytayotgan hobbitning koʻzi sokin, tabiatan quvnoq, sheriklariga nisbatan novcharoq boʻlib, iyagida chuqurchasi bor», dedi.

– Kim aytdi sizga buni? – betoqat boʻldi Frodo.

– Kim deysizmi? Gendalf, albatta, kimni nazarda tutayotganimni bilsangiz, agar. Uning sehrgarligidan xabarim yo‘g‘-u, lekin qadrdon do‘stim ekanini bilaman. Keyingi gal uchrashganimizda menga nimalar deb yuboradi, tasavvur ham qila olmayman: yo borki ichimliklarimni ichib bitiradi, yo meni o‘choqboq g‘o‘laga aylantirib yuboradi. So‘nggi bor uchrashganimizda juda shoshayotgan edi. O‘sha kuni menga bir ish tayinlab ketdi...

– Nima ish ekan? – so‘radi Frodo, Narkissning hikoya qilish tarzidan achchiqlanib.

– Nima ish, deysizmi? – talmovsiradi mehmonxona sohibi va biroz jim qolgach, barmog‘ini chertdi. – Ha-ya! Qariya Gendalf. Uch oycha muqaddam eshikni taqillatmay tikka xonamga kirib keldi. «Lavr, men ertaga ertalab yo‘lga chiqaman. Bir ish tayinlab ketsam, bajarasanmi?» dedi u. «Albatta», javob berdim men. «Juda shoshyapman, o‘zim bajargani vaqtim yo‘q. Shirga ikki enli xat yuborishim kerak. O‘sha tomon yo‘l oladigan birorta odaming yo‘qmi?» so‘radi u mendan. «Topaman, erta, indin topilib qoladi o‘sha tomonga yo‘l oladigan odam», dedim men. «Ertagayoq jo‘natib yubor», tayinladi u, menga mana bu xatni uzatib. Manzil aniq, – davom etdi janob Narkiss, kissasidan xatni chiqarar ekan, shoshilmay, dona-dona qilib o‘qib: «Shir, Hobbiton, Beg-End, janob Frodo Begginsga».

– Gendalfdan menga xat?! – xitob qildi Frodo.

– Xo‘sh, demak, sizning haqiqiy ismingiz Beggins ekan-da, shundaymi? – dedi janob Narkiss, xatni Frodoga uzatib.

– Ha, Beggins deganlari men bo‘laman, – javob berdi xatni qo‘liga olgan Frodo. – Nima uchun xatni Shirga jo‘natmaganingizni tushuntirib bering endi. O‘ylashimcha, siz aynan shu maqsadda kelgansiz bu yerga, garchi tayinlangan ish ijrosini ancha cho‘zib yuborgan bo‘lsangiz-da.

– Siz haqsiz, ser va men uzr so‘rayman, – hijolatda qoldi sho‘rluk janob Narkiss, – Gendalf kelib, menga nimalar devorishi mumkinligini o‘ylab, o‘larcha qo‘rqib ketyapman. Iloj qancha. Dastlab men bu xatni yashirib qo‘ydim. Ertasi kuni Shir-

ga yo‘l olishga rozilik beradigan odam topilmadi. Indiniga ham o‘sha ahvol. Qo‘l ostimdagi odamlarning bari band. Biri ikkinchisiga qo‘shilib ketaverdi. Men juda band odamman. Hamma ishlarni shaxsan o‘zim kuzatib borishimga to‘g‘ri kelmoqda. Agar sizga biror yordam kerak bo‘lsa, ayting, qo‘ldan kelgancha harakat qilaman. Xat jo‘natishdan tashqari, Gendalfga men yana bir narsani va‘da qilganman. «O‘sha shirlik do‘stim o‘z hamroh-lari bilan sening mehmonxonangga kelishi mumkin», dedi u o‘sha kuni. «Hammaga o‘zini Nakruchins deb tanishtiradi, eslab qol! Har xil bema‘ni, betasir savollaring bilan bezovta qilma. Agar bu yerga mensiz kelsa, demak, u xavf ostida qolgan hisoblanadi. Unga qo‘lingdan kelgancha yordam bersang, sendan mamnun bo‘laman», tayinladi menga Gendalf. Mana siz, Gendalfsiz kelibsiz. Demak, sizga qandaydir xavf tahdid solmoqda.

– Xo‘sh, endi nima qilmoqchisiz? – so‘radi Frodo.


– Anavi qora odamlar Begginsni qidirib yurishibdi, – javob berdi mehmonxona sohibi ovozi pasaytirib. – Agar ular sizga yaxshilik tilab yurgan bo‘lsa, men hobbit emasman. Ular dushanba kuni kelishdi, qishloqda borki it uvladi, g‘ozlar qiy-chuv ko‘tarib yubordi. Bunda qandaydir nopoklik bor, ishonavering. Bob huzuringa kirib, tashqarida ikki kishi Beggins ismli hobbitni so‘rab kelganini aytdi. Biroq murdaday oqarib, tepa sochi tik bo‘lib qolgan Bobning ahvoliga qarab bo‘lmas edi. Ikkalasini nari haydab, eshikni ichkaridan yopdim. Shuni aniq bilamanki, ikkalasi Begginsni qidirib Archetgacha yetishgan. Anavi Musofir reynjer-chi, u ham sizni so‘rab yurgan edi. Siz bilan yo‘lga chiqishingizdan oldin uchrashish maqsadida shu yerga ham kirishga urinib ko‘rdi.

– To‘g‘ri, urinib ko‘rdi! – dedi qorong‘i burchakdan yorug‘likka chiqqan Musofir.

Janob Narkinss hayratdan turgan joyida bir sapchib tushti.

– Agar sen Musofirni hobbitlarning oldiga kiritganingda, Lavr, ko‘plab noxushliklarni chetlab o‘tgan bo‘lar edik.

– Siz! – xitob qildi janob Narkiss. – Bir amallab kiribsiz-



da? Nima kerak o'zi sizga bu yerda?

– Men bilan keldi u, – dedi Frodo. – U bizga yordam bermoqchi.

– Nima ham der edim, o'z ishingizni yaxshi biladigan ko'rinasiz, – dedi mehmonxona sohibi Musofirga shubha ila o'qrayib. – Lekin shaxsan men, janob Frodo, sizning o'rningizda bo'lganimda reynjerni o'zimga sherik qilmagan bo'lar edim, – fikrini bildirib o'tdi u Frodoga murojaat qilib.

– Xo'sh, kimni olgan bo'lar edingiz, janob Frodoning o'rnida bo'lganingizda? – so'radi Musofir ovoz ko'tarib. – Odamlar tinmay chaqirgani boisgina o'z ismini yaxshi eslab qolib, qolgan har qanday narsani unutib yuboradigan qorni yumaloq mehmonxona sohibinimi? Hozir bular «Javlon urar poni» mehmonxonasida qolishi mumkin emas, Shirga ham qaytib keta olishmaydi. Ular olis safarga chiqishlari kerak. Birga ketasizmi ular bilan? Qora otliqlardan himoya qilib borasizmi?


– Men? Tog'bag'rini tashlab-a?! Bo'yim barobar oltin to'kib bersangiz ham, rozi bo'lmayman, – dedi janob Narkiss cho'chigan ohangda. – Nima uchun shu yerda qolishingiz mumkin emas ekan, janob Nakruchins? Kim o'zi ular, anavi qora odamlar?

– Uzr-u, sizga buni ayta olmayman, – javob berdi Frodo. – Hozir qattiq xavotirdaman va juda charchaganman. Qora otliqlar haqidagi gap esa uzoqdan uzoq hikoyaga aylanib ketadi. Modomiki, bizga yordam berishni istar ekansiz, sizni ogohlantirib qo'yishim kerak, toki men shu yerda ekanman, siz ham xavf ostida qolasiz. Anavi Qora otliqlar esa, qayerdan kelgani borasida ishonchim komil emas-u, lekin ular...

– Mordordan tashrif buyurishgan, – ma'lum qildi Musofir pichirlab. – Mordordan kelishgan ular, Lavr, agar bu gap siz uchun biror-bir ma'noga ega bo'lsa.

– Falakning o'zi asrasin bizni! – xitob qilib yubordi rangi oqarib ketgan janob Narkiss. – Tog'bag'rida o'tgan umrim davomida eshitgan eng yomon shumxabar bo'ldi bu.

– Menga yordam berish istagingiz yo'qolmadimi hali? –



so'radi Frodo.

– Albatta, – javob berdi janob Narkiss, – ilgarijidan ham ko'proq istab qoldim. Garchi, qo'limdan nima kelishi mumkinligini tasavvur qila olmasam-da, axir, anavi... anavi....

– Sharqlik ko'lankalar, – vazmin ohangda yordamlashib yubordi Musofir. – Qo'lingizdan ko'p ish kelmasligi turgan gap, Lavr, biroq shunga qaramay yordam ko'rsatishingiz mumkin. Janob Nakruchinsni ertalabgacha o'z holiga qo'yib, Beggins ismini unutishingiz kerak.

– Unutish qo'limdan keladigan ish, – dedi Narkiss. – Biroq uning shu yerdaligini Qora otliqlar mening yordamimsiz ham bilib olishadi. Janob Bilboning havoda daf bo'lgani haqidagi gaplar Tog'bag'ri qishlog'ida yaxshi ma'lum. Hatto Bob ham aqli noqis bo'lishiga qaramay ayrim xulosalarga kela oldi. Tog'bag'rida esa undan farosatliroqlar ham bor.

– Nachora, – dedi Frodo. – Biz yagona bir narsaga, u ham bo'lsa, Qora otliqlar qishloqqa qaytmasligiga umid qilamiz, xolos.

– Men ham shunga umid qilaman, – pichirladi Narkiss. – Ammo ular kim bo'lishmasin, «Poni»ga osonlikcha kira olishmaydi. Ertalabgacha xotirjam bo'ling. Bob hech kimga churq etmaydi. Toki oyoqda turar ekanman, birorta ham qora odam ostonamdan hatlab o'tmaydi. Men o'z odamlarim bilan ertalabgacha navbatchilik qilib chiqaman, sizlar esa yo'lga chiqishdan oldin biroz uxlab olganingiz ma'qul.

– Nima bo'lgan taqdirda ham bizni tong sahar uyg'oting, – dedi Frodo. – Imkon qadar ertaroq yo'lga chiqishimiz kerak. Nonushtani, iltimos, soat olti yarimga tayyorlab qo'ying.

– Ma'qul, men hoziroq tegishli ko'rsatmalar berib qo'yaman, – javob berdi mehmonxona sohibi. – Xayrli tun, janob Beggins, iye, uzr, Nakruchins demoqchi edim. Yaxshi qoling... Jin ursin, sherigingiz janob Brendizayk qani?

– Bilmadim, – xavotir-la javob berdi Frodo. – Tashqariga chiqib ketgan bo'lsa kerak. Ochiq havoda nafas olib qaytish niyati bor edi uning.

– Mehmonxonaning asosiy eshigini ichkaridan bekitib qo'yishim kerak, – dedi Narkis. – Do'stingiz topilib kelsa, kiritib yuboraman. Yaxshisi topib kelishi uchun Bobni jo'nataman. Hammangizga xayrli tun!

Musofirga yana bir bor o'qrayib qaragan janob Narkiss boshini sarak-sarak qilgancha chiqib ketdi. Qadami yo'lakda uzoq eshitilib, tindi.

– Xo'sh? – dedi Musofir. – Xatni qachon ochasiz?

Qo'lidagi xatjildni diqqat-la ko'zdan kechirib chiqqan Frodo xatni ochdi. Manzilni Gendalfning o'zi o'z qo'li bilan yozgani ko'rinib turibdi. Xatjild ichidan Gendalfning qat'iy, chiroyli xati ila bitilgan quyidagi noma chiqdi:


Tog'bag'ri qishlog'i,  
«Javlon urar poni» mehmonxonasi.  
Shir solnomasiga ko'ra 1418-yil,  
Yil o'rtasi kuni.

*Qadrli Frodo,*

*Menga shumxabar keldi va shu bois zudlik bilan safarga chiqish zarurati tug'ildi. Sen Beg-Endni imkon qadar tezroq tark etib, kechi bilan iyulning oxirigacha Shirdan chiqib ketishing kerak. Qo'lim bo'shishi bilan qaytaman. Seni topa olmasam, izingdan borib, quvib yetaman. Tog'bag'ri orqali o'tayotganingda menga xat qoldirib ket. Mehmonxona sohibiga (Narkissga) ishonch bildirishing mumkin. Yo'lda senga novcha bo'yli, qorachadan kelgan, qaddi-qomati kelishgan kishi uchraishi mumkin. U mening do'stim. Ba'zilar uni Musofir deb chaqirishadi. Rivendell tomon yo'l ol. Umid qilamanki, o'sha yerda yana yuz ko'rishamiz. Agar men kelmasam, maslahatgo'ying Elrond bo'ladi.*

*Shoshayotganiga qaramay, xizimatingga muntazir bo'lgancha qoladigan Gendalf.* ♣

*P.S.: Nima qilgan taqdirda ham anavi narsadan foydalanma.* ♣





*P.P.S.: Yo'lingda uchragan kishi chindan ham Musofir ekanligiga ishonch hosil qil. Yo'lda begonalar ko'p. Uning asli ismi Aragorn.* ✎

*Qadimiy oltin ko'p porlamas,  
O'tmish qilichi yovni ayamas.  
Jangga chiqar izquvar qiro,  
Barkamollik – qarilik emas.*

*Musibatlar qolar uzoq o'tmishda,  
Yarqirar ul qilich shuhrat-la yana,  
Qirolni olqishlar jamiki bu yurt,  
Qadimda o'tgan qiro<sup>l</sup> sharafiga.*

P.P.P.S.: Umid qilamanki, Narkiss ushbu xatimni zudlik bilan yuboradi. O'zi yaxshi odam-u, xotirasi ko'p narsalar unutib qoldirilgan qaznoqdan farq qilmaydi.

Xotirasi pand bergudek bo'lsa, uni olovda qizartirib qovuraman.




Frodo xatni ichida o'qib chiqqach, Pin bilan Semga uzatdi.

– Qariya Narkiss chindan ham ishni chappasiga ketkizib, olovda qizartirilishiga munosib ish qilibdi, – xulosa qildi Frodo. – Agar shu xatni o'z vaqtida olganimda allaqachon Rivendellda, eng xavfsiz joyda o'tirgan bo'lar edik. Gendalfga nima qilgan bo'lishi mumkin? Xatiga qaraganda, olovga sakrashga taraddud ko'rayotgan odamga o'xshaydi.

– U shundoq ham ko'p yildan buyon olov ichra yuribdi, – dedi Musofir.

Frodo Musofirga yuzlanib, Gendalfning ikkinchi ogohlantirishi haqida o'ylanib qoldi.

– Nima uchun Gendalfning do'sti ekanligingni gap boshida aytmading? – so'radi u. – Ancha vaqtni tejagan bo'lar



edik.

– Ishongan bo‘lar edingmi? – e’tiroz bildirdi Musofir. – Bu xatdan bexabar edim. Yordam bera olganimda menga isbot-dalillarsiz ishonishni so‘ragan bo‘lar edim, xolos. Nima qilgan taqdirda ham, men sizlarga o‘zim haqimda biror nima aytib bermoqchi emasman. Dastlab men sizlarni o‘rganib chiqib, to‘liq ishonch hosil qilishim kerak edi. Dushman eskitdan menga tuzoq qo‘yib kelgan. Ishonch hosil qilganimdan so‘nggina barcha savollaringizga javob berishga tayyor edim. Biroq tan olishim kerakki, – istehzo-la kulib qo‘ydi u, – meni shundoq ham o‘zingizga hamroh qilib olishingizga umid qilgan edim. Ta‘qib ostidagi kishi ishonchsizlikdan charchab, do‘st yordamiga ehtiyoj sezadi. Lekin, nazarimda, tashqi qiyofam pand bergan ko‘ri-nadi.

– To‘g‘ri, – kulib boqdi Pin, Gendalfning xatidan keyin o‘zini ancha yengil his etib. – Har qalay, birinchi qarashda shubha tug‘ilishiga asos bor. Lekin taxminimcha, yovvoyi dashtda bir necha kun yuradigan bo‘lsak, tashqi qiyofa borasida biz ham sendan qolishmaydigan bo‘lib qolamiz.

– Musofirga o‘xshash uchun bir necha kun nari tursin, bir necha hafta, hatto bir necha yil dashtlikda izg‘ish kerak, – javob qaytardi Musofir. – Sizlar esa dashtlikda hech qancha yashamay, tez o‘lib bitishga ulgurasiz, agar loylaring men o‘ylagandan pishiqroq bo‘lmasa, albatta.

Pin jim bo‘lib qoldi, lekin Sem bu gaplardan qanoatlanmay, hanuzgacha Musofirga shubha ila qaramoqda.

– Gendalf nazarda tutgan Musofir ekaniningni qayerdan bilamiz? – qiziqdi u. – Mana bu xat paydo bo‘lmaguncha Gendalfni biror marta bo‘lsin, tilga olmading. Balkim, sen dushman josusi bo‘lib, bizning ishonchimizni qozonishga urinayotgandirsan. Balkim, haqiqiy Musofirni o‘ldirib, kiyimini kiyib olgandirsan, a labbay?

– Pishiq-puxta yigit ekansan, deyishim mumkin, xolos, – javob berdi Musofir. – Mening yagona javobim shundan iboratki, muhtaram Sem Skrombi, agar men haqiqiy Musofirni

o'ldirgan bo'lganimda boyadan buyon latta chaynab o'tirmay, sizlarni ham bir yoqli qilib, Uzukni qo'lga kiritgan bo'lar edim!

O'rnidan turgan Musofirning bo'yi yanada cho'zilgan-day tuyulib, ko'zida yorqin, amirona chaqmoq ko'rindi. Plashini ortga tashlab, qo'lini yonidagi qilich sopiga qo'ydi. Birov qilt etishga jur'at etmadi. Sem og'zi lang ochilganicha Musofirga baqrayib qoldi.

– Ammo baxtingizga men haqiqiy Musofirman, – dedi u, pakanalarga tepadan kulib boqib. – Men Araxornning o'g'li Aragornman va agar sizlarni o'z hayotim yoki o'limim-la qutqara oladigan bo'lsam, biror soniya bo'lsin, o'ylanib o'tirmayman.

Oraga cho'kkan sukunat uzoq cho'zildi.

– Sen haqiqiy do'st ekaningga ushbu xatni olmay ham ishonib bo'lgan edim, – qat'iyatsiz ohangda gap boshladi nihoyat Frodo. – Har qalay, bizga do'st bo'lishingni istagan edim. – Bugun sen meni anavi dushman malaylariday bo'lmasa ham, bir necha bor cho'chitib yubording. Fikrimcha, uning malaylari zohiran ko'rkam ko'rinib, ichki dunyosi razil bo'lishi kerak, agar nima demoqchi bo'lganimni angelayotgan bo'lsang, albatta.

– Tushunib turibman, – kulib yubordi Musofir. – Ko'rinishim xunuk bo'lsa ham, fikr-mulohazalarim chiroyli, to'g'rimi? Qadimiy oltin ko'p porlamas!

– Bundan chiqdi, anavi she'r sen haqingda ekan-da? – so'radi Frodo. – Hech tushunmay turgan edim, o'sha misralar ahamiyatini. Gendalfning xatini o'qimay turib, unda she'r bitilganini qayerdan bilasan?


– Bilmas edim, – javob berdi Musofir. – Biroq men Aragornman, misralar esa bizning sharafimizga bitilgan.

Musofir yana qilichini ushlab, qinidan sug'urib chiqardi. Qurol tig'i sopidan bir futcha narida singan ekan.

– Biror-bir foydasi yo'q qurol, to'g'rimi Sem? – so'radi Musofir. – Lekin u qaytadan bolg'alanib, butun qilinadigan kun yaqin.

Sem indamadi.

– Xo'sh, Semning ijozati bilan mavzu yopildi, deb hisob-



laymiz, – dedi reynjer. – Endi Musofir yo‘l boshlovchingiz bo‘ladi. Ertaga uzoq yo‘l yurishimiz kerak. Ular bizga Tog‘- bag‘ridan monesiz chiqib ketishga imkon bergan taqdirda ham, kishi bilmas tarzda ketishimiz amri mahol. Lekin men imkon qadar tezroq bekinib olishga harakat qilaman. Asosiy yo‘ldan tashqari, Bri zaminidan o‘tgan yo‘llarning bir nechtasini bila- man. Agar ta‘qib qiluvchilarni chalg‘itishga muvaffaq bo‘lsak, Zavert tomon yo‘l olamiz.

– Zavert deganing nima bo‘ldi? – so‘radi Sem.

– Rivendell yo‘lining yarmiga yetgan joydagi tepalik nomi. Tevarak-atrof kaftdek ko‘rinib turadigan asosiy tepalik. O‘sha yerda turib, tevarak-atrofni ko‘zdan kechirib chiqishimiz mumkin. Gendalf ham, agar u izingizdan kelayotgan bo‘lsa, o‘sha tomon yo‘l oladi. Zavertdan keyingi yo‘l esa ancha murak- kablashadi. Ko‘plab xavf-xatarlarni yengib borishga to‘g‘ri kela- di.

– Gendalfni so‘nggi bor qachon ko‘rgansan? – so‘radi Frodo. – Qayerda u, nimalar bilan band, bilasanmi?

– *Bilmadim*, – dedi Musofir Frodoga jiddiy qarab. – Bahorda xayrlashgan edim u bilan, g‘arb tomon yo‘l olgan kuni. So‘nggi bir necha yil davomida men Gendalf band bo‘lgan vaqt- da Shir chegaralarini kuzatib yurdim. U tez-tez o‘lkangiz chega- ralarini muhofazasiz qoldirib ketar edi. So‘nggi bor may oyi boshida, Brendivayn daryosining Seripije kechuvi yaqinida ko‘rishganmiz. Sen bilan bog‘liq ishlari yaxshi kechayotgani, sentabr oyi oxirida Rivendell tomon yo‘l olishing kerakligini aytgan edi. Senga o‘zi hamrohlik qilishini eshitib, men o‘z ish- larim bilan olis safarga ketdim. Yaxshi ish qilmabman. Aftidan, u, qandaydir shumxabar olib, qayoqqadir jo‘nab ketgan. Men esa unga yordam bera olmadim. Gendalf bilan tanishganimdan bu- yon ilk bor undan jiddiy xavotir ola boshladim. O‘zi kela olmagan taqdirda ham biron-bir xabar qoldirib ketishi kerak edi. Ancha vaqt o‘tib qaytgach, yomon xabar eshitdim. Hamma joyda mish-mish gap: Gendalf gum bo‘lib, Qora otliqlar paydo bo‘- libdi. Buni menga Gildorning elflari aytishdi. Vaqt o‘tib sen o‘z

uyangni tark etganing haqida xabar eshitdim, ammo Baklendni tashlab chiqqaningdan bexabar qoldim. Shu bois, xavotir-la Sharqiy yo'lni nazorat qilib bordim.

– Gendalfning bedarak ketganiga Qora otliqlarning daxli bor deb o'ylaysanmi? – so'radi Frodo.

– Dushmanning shaxsan o'zidan tashqari, Gendalfni ushlab qolishi mumkin bo'lgan biror bir kuch borligini bilmayman, e'tiroz bildirdi Musofir. – Noumid bo'lma! Gendalf Shir aholisi tasavvur qila bilgandan ko'ra ming chandon qudratlidir. Zero, sen uning hazilari-yu, arzimas fokuslarini ko'rgansan, xolos. Bizning bugungi ishimiz esa -- uning oldida turgan buyuk vazifadir.

– Ma'zur tutasizlar, – dedi chuqur esnagan Pin, – o'larcha charchagan ko'rinaman. Qanday xavf-xatar tahdid solayotgan bo'lmasin, ko'rpamga kirib yotmasam, o'tirgan joyimda uxlab qolaman. Anavi bekorchi Merri qayerlarda izg'ib yuribdi ekan, a? Uni kechasi qidirib yurish kamlik qilayotgan edi hozir.


Aynan shu fursatda mehmonxonaning asosiy eshigi taqillagani va yo'lakda birov yurgani eshitildi. Xonaga oldin Merri, uning orqasidan Bob yugurib kirdi. Xona eshigini ichkaridan yopgan Merri hansiragancha tavaqaga suyanib oldi. Hamma xavotir-la uning tilga kirishini kutdi.

– Ularni ko'rdim, Frodo! Qora otliqlarni o'z ko'zim bilan ko'rdim! – dedi nihoyat Merri.

– Qora otliqlarni?! – xitob qildi Frodo. – Qayerda?

– Shu yerda, qishloqda. Sizlar chiqib ketganingizdan so'ng, men bir soatcha shu yerda o'tirdim. Qaytmadingiz. Ochiq havoga chiqdim. Biroz sayr qilgach, mehmonxonaga qaytib, ko'lankada turgancha yulduzlarni tomosha qilar ekanman, kutilmaganda qandaydir qo'rqinchli narsa men tomon yaqinlashib kelayotganini ko'rib seskanib ketdim. Fonusdan hosil bo'lgan yorug'lik to'garagi tashqarisida tundan-da qora sharpa paydo bo'lib, hech qanday tovush chiqarmay zulmat qa'riga kirib ketdi... Otsiz edi u.

– Qay tomon yo'l oldi o'sha sharpa? – keskin ovozda



so'radi Musofir.

Xonada notanish odam borligini endi fahmlagan Merri hayrat-la baqrayib qoldi.

-- Davom et! -- dedi Frodo. -- Bu kishi Gendalfning do'sti ekan, keyin tushuntirib beraman.


-- Sharqiy yo'l tomon yurganday bo'ldi u, -- davom etdi Merri. -- Uning izidan borib, kuzatishga urindim. Lekin u juda tez gum bo'ldi. Shunga qaramay, yo'l yaqinidagi oxirgi uygacha bordim.

-- Mard yigit ekansan, -- dedi Musofir, Merriga hayrat-la qarab. -- Lekin bu ketini o'ylamay qilingan ish bo'lgan.

-- Mardlik edimi u, ahmoqlikmi, bilmadim. Meni nimadir o'sha tomon tortib ketayotganday bo'ldi. Qishloq devoriga yetgach, qandaydir g'alati ovoz eshitdim. Biri g'udullayotgan bo'lsa, boshqachi pichirlar yoki hushtak chalar edi. Ularning suhbatidan biror og'iz so'zni ilg'ay olmadim. A'zoyi-badanim titrayotgani bois, yaqinroq borishga jur'at etmadim. Qattiq qo'r-qib, ortga burildim-da, izimga qaytdim. Mehmonxonaga yetgan edimki, orqadan meni nimadir mahkam changallab oldi. Shunda men... yiqildim.

-- Men topib oldim uni, ser, -- xitob qildi Bob. -- Janob Narkiss qo'limga fonus ushlatib, ushbu janobni topib kelishni tayinlagan edi. Dastlab g'arbiy darvozaga, u yerdan janubiy darvozaga bordim. Bill Fernining uyi yaqinidagi yo'lda qandaydir g'alati narsa yotganini ko'rdim. Ikki kishi esa o'sha narsa ustida engashib, ko'tarishga harakat qilishmoqda. Baqirgancha yugurdim. Borsam, anavi ikkalasi yo'q. Yo'l chetida esa janob Brendizayk yotibdi. Bir qarashda uxlab yotganday ko'rindi. Siltab uyg'otdim. «Suvga g'arq bo'ldim deb o'ylabman», dedi u menga. Menga hayrat-la tikildi. Yerdan ko'tarib, oyoqqa qo'yishim bilan quyonday yugurib ketdi.

-- To'g'ri aytyapti, -- dedi Merri. -- Qanday tushuntirib berishni bilmayman. Jirkanch tush ko'rganday bo'ldim. Go'yo mayda bo'laklarga burdalab tashlangandayman. Menga nima bo'lganini tavsiflab bera olmayman.



– Men tavsiflab berishim mumkin, – dedi Musofir. – Buni qora nafas deyishadi. Aftidan, ular o‘z otlarini tashqarida qoldirib, qishloq hududiga janubiy darvoza orqali o‘g‘rincha kirib kelishgan ko‘rinadi. Ular Bill Ferni bilan gaplashib, bor gapdan xabar topishgan. Anavi janublik ularning josusi bo‘lsa kerak. Tog‘ yonbag‘rini tashlab chiqqunimizcha tunda bu yerda nimalardir ro‘y beradi.

– Nima ro‘y beradi? – so‘radi Merri. – Mehmonxonaga hujum qilishadimi?

– Unday deb o‘ylamayman, – javob berdi Musofir. -- Ularning hammasi yig‘ilmagan bu yerga. Har qalay, bu ularga xos emas. Zulmatda, yolg‘izlikda ular ustun kelishadi. Yoritilgan, odam ko‘p joyga hamla qilishga jur‘at etishmaydi. Ammo ularning kuchi qo‘rquvda va ayrim tog‘bag‘riliklar changallariga tushishgan. Sharqlik ko‘lankalar o‘z manfaatlarida ayrim yaramaslarni ishga solishmoqda. Ular jumlasiga anavi Ferni, darvozabonlar kiradi. Dushanba kuni g‘arbiy darvoza qorovuli Garri bilan gaplashib turishgan edi. Hammasini kuzatib bordim. Rangim oqarib, qaltirab qolgan edim ular ketishganda.

– Aftidan, dushman qurshovida qolgan ko‘rinamiz, – xulosa qildi Frodo. – Xo‘sh, endi nima qilamiz?

– Xobxonaga kirmay, shu yerda qolasiz. Turgan gapki, xobxonangiz qayerdaligini bilishadi. Hobbitlar uchun mo‘ljallangan xonalarning derazasi shimolga qaragan bo‘lib, sal kam yer sathida joylashgan. Hammamiz shu yerda qolib, eshik derazalarni yopib olamiz. Lekin bundan oldin Bob ikkalamiz yukingizni olib kelamiz.

Musofir yo‘qligida Frodo Merriga kechki ovqatdan keyin bo‘lib o‘tgan hodisalarni qisqacha aytib berdi. Musofir bilan Bob qaytib kelgan fursatda Merri Gendalfning xatini o‘qib o‘tirgan edi.

– Janoblar, -- dedi Bob, – men qo‘shimcha choyshablardan sizlarning tulumlaringizni yasab, go‘yo hammangiz o‘z ko‘rpangizda yotganingizday karavotlaringizga joylab chiqdim. Ulardan birini sizning boshingizga o‘xshatib qo‘ydim, janob

Beg... Nakruchins, – kulib boqdi hobbit.

– Juda soz! – hiringlab qo‘ydi Pin. – Soxtalikni fahmlashsa, nima bo‘ladi?

– O‘shanda ko‘ramiz nima bo‘lishini, – dedi Musofir. – Umid qilamizki, mana bu qal‘amizni ertalabgacha qo‘lda saqlab qolamiz.

– Hammangizga xayrli tun, – tilak bildirdi Bob. – Borib eshik oldidagi navbatchilikka qo‘shilay.

Ular bo‘xcha va qoplarini xona poliga polga terib, past stolni eshikka tirab qo‘yishgach, derazalarni yopishdi. Derazaga qarab, tashqarida oydin kecha hukm surayotganini ko‘rdi. Tun osmonida Katta Ayiq Bri tepaligi ustida yarqiramoqda. Deraza tavaqasini yopgan Frodo pardani tortib qo‘ydi. Musofir esa o‘choq cho‘g‘iga kul tortib, shamni puflab o‘chirdi.

Hobbitlar oyoqni o‘choq tomon uzatgancha har biri o‘z adyoliga yotdi. Musofir esa eshik yaqinidagi kursiga joylashdi. Merri bilan savol-javob qilib, biroz gaplashib yotishdi.

– «Mushukning qilig‘i bor – skripka chalar bearmon» degin! – hiringladi Merri, adyoliga o‘ranib. – Qanday bema‘nilik, Frodo. Esiz, o‘zim ko‘rmabman-a. Bu hodisa Tog‘bag‘ri qishlog‘ida yana yuz yilcha muhokama qilinadi.


– Men ham shunga umid qilaman, – ma‘qul topdi Musofir.

Hamma jim bo‘lib, hobbitlar birin-ketin uyquga ketishdi.

## XI BOB

### ZULMATDA SANCHILGAN PICHQOQ

Hobbitlar Tog‘bag‘ri qishlog‘idagi «Javlon urar poni» mehmonxonasida uyquga ketar ekan, Baklendni zimiston qamradi. Uvalar va daryo sohillaridan tuman suzib keldi. Krikselloudagi uyda o‘lik jimjitlik hukm surmoqda. Fredegar Boljer eshikni asta ochib, boshini chiqardi. Kun bo‘yi uning vujudini qo‘rquv





qamrab bordi, tungi havoda allaqanday tahdiddan uygʻonib, na ishlay oldi, na dam ola bildi. Qorongʻiga qarar ekan, daraxtlar orasida qora sharpa harakatlanganday, darvoza oʻzidan oʻzi ochilib, tovush chiqarmay yopilganday boʻldi. Dahshat! Orqaga tislangan Fredegar qaltiragancha maʼlum vaqt dahlizda turdi, soʻng eshikni yopib, loʻkidonini<sup>1</sup> surib qoʻydi.

Zimziyo tun. Bir vaqt ot dupuri eshitildi: kimdir otda asta uyga yaqinlashib kelmoqda. Darvoza oldida ot dupuri tinib, tungi koʻlanka singari paydo boʻlgan uchta sharpa oʻgʻrincha uyga yaqinlashdi. Ulardan biri eshik tomon odimlagan boʻlsa, ikkitasi uyning ikki tomonidan, binoning orqa burchaklari ortiga oʻtib oldi. Uchalasi shu holatda tosh koʻlankasiday tek qotdi, tun esa asta choʻzilmogʻda. Uy va uning atrofidagi daraxtlar nafas chiqarmay, nimanidir kutayotganday goʻyo.

Daraxt barglari asta shitirladi, uzoqda xoʻroz qichqirigʻi eshitildi. Tongotar vaqt yaqinlashmoqda. Eshik oldida turgan sharpa qoʻzgʻaldi. Oysiz, yulduzsiz zulmatda sovuq chiroq yoqilgan kabi yalangʻochlangan tigʻ yalt etdi. Asta, lekin ogʻir taqillatilgan eshik yengil titradi.

– Mordor nomi ila buyuraman, oching! – yangradi mudhish ingichka ovoz.

Ikkinchi zarbaga chidash berolmagan qulf sinib, eshik quladi. Singan yogʻoch tarashalari har tomon sachradi. Qora sharpalar baravariga ichkariga yopirilishdi.

Shu fursatda daraxtlar ortida huddi tepalik choʻqqisida olov lovullagandek burgʻu tovushi yangradi. «Uygʻoning! Dushman bosdi! Uygʻoning! Gulxan yoqing! Uygʻoning!»

Fredegar Boljer ahmoq anoyilardan emas. Bogʻda pisib yurgan sharpalarni koʻrgach yo qochishi, yo halok boʻlishi kerakligini angladi. Orqa eshikdan chiqib, bogʻ va ekinzor orqali qochib qoldi. Bir milyacha naridagi yaqin uygacha yetib, ostonada yiqildi.

– Yoʻq! Yoʻq! Yoʻq! – baqirdi u. – Men emas! Menikida

---

<sup>1</sup> Loʻkidon eshikni berkitish, qulflash uchun ishlatiladigan juda sodda qulf moslama.

emas u!

U nima demoqchi bo'lganini anglab yetish uchun biroz vaqt kerak bo'ldi. Nihoyat qo'shnilar Baklendga dushman bos-tirib kirganini, begonalar Qadimiy o'rmondan o'tib kelishganini tushunishdi va endi ortiqcha vaqt yo'qotishmadi.

– Dahshat! Uyg'oning! Dushman bosdi! Uyg'oning!  
Gulxan yoqing!

Xavf haqida jar solish burg'usining ovozi o'tgan yuz yildan buyon endi yangradi. So'nggi bor u bir zamonlar qahraton qishda Brendivayn daryosi muzlab oq bo'rilar qishloqqa hamla qilganda chalingan edi.

– Uyg'oning! Dushman bosdi! Uyg'oning!

Olisda javob tariqasida boshqa burg'u yangradi. Xavf haqidagi xabar qishloq bo'ylab yong'in tezligida tarqadi.

Qora sharpalar uydan chiqishdi. Ulardan biri hobbitning plashini tushirib qo'ydi. Birozdan so'ng yo'lda dupur-dupur eshitilib, sharpalar qora otlarini yeldirib ketishdi. Krixxellou atrofida burg'u tovushlari, qiy-chuv, dukur-dukur eshutilmoqda. Qora otliqlar shimoliy darvozadan to'fonday o'tib ketishdi. Mayli, mitti odamlar hozircha burg'ularini chalib turaversin! Sauron ular bilan keyin shug'ullanadi. Hozir esa ularning zimmasiga boshqa topshiriq yuklangan. Uy kimsasiz, Uzuk u yerda yo'qligini endi ular aniq bilishadi. Darvozani qo'riqlash xizmatini chetlab o'tgan Qora otliqlar Baklendni tark etishdi.

Frodo qandaydir tovush yoki kimningdir sharpasidan uyg'onib ketdi. Qarasa Musofir o'z kursisida qilt etmay, sergak o'tiribdi. O'choqqa qalanib, yarqirab yonayotgan olov tili uning ko'zida aks etmoqda.

Biroz vaqt o'tib Frodo yana uyquga ketdi, ammo bu gal unga shamol shovqini bilan otlar dukuri xalal berdi. Shamol uy atrofida gir aylanib, siltayotganday go'yo, olis-olisdan burg'u tovushi kelyapti. Ko'zini ochgan Frodo mehmonxona hovlisida yurgan xo'roz qichqirig'ini eshitdi. Musofir pardani ochib, taraqturuq qilganicha deraza tavaqalarini ochdi. Xonaga xira yorug'lik bilan muzday havo kirdi.

Musofir hammani uygʻotib, xobxonaga yetakladi. Ushbu xonaga kirib ahvolni koʻrishgach, Musofirning maslahatiga quloq tutishganidan xursand boʻlishdi: xobxona derazalari lang ochiq boʻlib, sindirilgan tavaqalari oshiq-moshigʻida osilib qolgan, pardalar uzib tashlangan, koʻrpa-toʻshak agʻdar-toʻntar qilingan, kecha oqshom Bob yotqizgan tulumlar titib tashlangan, Frodoga oʻxshatilgan jigarrang koʻrpa esa burda-burda qilingan.

Musofir shu zahoti mehmonxona sohibini topib keldi. Shoʻrlik janob Narkiss uyqusirab, qattiq choʻchigan. Aytishicha, kechasi bilan mijja qoqmay oʻtirgan, lekin biron-bir shubhali shovqin eshitmagan.

– Umrin davomida hali bunaqasi boʻlmagan! – xitob qildi u, ikki qoʻlini baland koʻtarib. – Bu nima ahvol? Mehmonlar oʻz oʻrnida tinch yota olmasa! Qancha buyum rasvo boʻlibdi-ya! Qayoqqa qarab ketyapmiz?!

– Zamon shunaqa hozir, – dedi Musofir. – Bizdan qutulsangiz sizni tinch qoʻyishadi. Biz esa zudlik bilan yoʻlga chiqishimiz kerak. Nonushtamizni unutmang. Bir qultum suv bilan bir boʻlak non – yetarli boʻladi. Bir necha daqiqa ichida narsalarimizni yigʻishtirib, safarga shay boʻlishimiz kerak.

Janob Narkiss shoshgancha ponilarning shayligini tekshirib, «qultum-u boʻlak» keltirgani ketdi. Ammo koʻp oʻtmay umidsiz qiyofa yasab qaytdi. Aniqlanishicha, ponilar gʻoyib boʻlibdi. Tunda kimdir otxona eshigini ochib yuboribdi. Nafaqat Merrining, boshqa mehmonlarning ham otlari-yu, ponilari boʻshab ketibdi.

Bunday yangilik Frodo uchun qattiq zarba boʻldi: Rivendellga piyoda yetib boʻladimi? Otliq dushman taʼqibi ostida-ya?! Musofir hobbitlarga, ularning kuchi va dadilligini chamalab koʻrayotganday qarab, biroz oʻylanib oʻtirdi.

– Ponilar anavi otliqlardan qochib qutulish masalasida koʻp yordam bera olishmas edi, – oʻychan fikr bildirdi nihoyat u, Frodoning xavotirini fahmlaganday boʻlib. – Men tanlagan yoʻlda piyoda u qadar sekin yurmaymiz. Oʻzim ham piyoda yuraman u yoʻlda. Meni yegulik zaxirasi va boshqa narsalar oʻylan-

tirmoqda. Tog'bag'ri bilan Rivendell orasida yegulik topish qiyin kechadi: hamma narsani o'zimiz bilan olib ketamiz. Imkon qadar ko'proq zaxira ko'tarib ketishimiz lozim. Chunki yo'lda ushali qolishimiz yoki ma'lum bir joyni chetlab o'tishimiz kerak bo'ladi. Qancha yuk ko'tara olasizlar?

– Qancha kerak bo'lsa, shuncha ko'taramiz, – aslida dadil bo'lsa ham g'amgin ohangda javob berdi Pin.

– Men ikki kishining yukini ko'tarib ketishim mumkin! – dedi Sem.

– Biron nima o'ylab topishning iloji yo'qmi, janob Narkiss? – so'radi Frodo. – Qishloqda odam tashiydigan bir nechta yoki yukimizni ko'taradigan loaqal bitta poni topilmaydimi? Ijaraga ola bilmasak ham, bittasini sotib olishga qurbimiz yetar, axir, qo'shimcha qildi u, puli yetish-yetmasligi haqida o'ylanib qolib.

– Juda murakkab masala bu, janob Frodo, – javob berdi mehmonxona sohibi g'amgin qiyofada. – Tog'bag'rida minishga yaroqli atigi ikki-uch bosh poni bo'lib, ular ham mening otxonamda boqilar edi. O'sha jonivorlar ham yo'q. Katta ot yoki yuk tashishga yaraydigan boshqa turdagi jonivorlarga kelsak, ular Tog'bag'rida juda kam bo'lib, egalari sotishga rozi bo'lishiga shubha qilaman. Lekin qo'ldan kelgancha urinib ko'raman. Hozir Bobni topib, poni qidiruviga jo'nataman.

– To'g'ri, aynan shunday qilish kerak, – istar-istamas ma'qul topdi Musofir. – Bitta bo'lsa ham poni kerak bo'ladi bizga. Lekin bu ertaroq yo'lga chiqish umididan voz kechishimizni anglatadi va Tog'bag'rini tashlab ketayotganimizni e'lon qilgancha, burg'u chalgandan o'zga narsa bo'lmaydi. Hech shubha yo'qki, Qora otlqlar tomonidan ko'zlangan maqsad ham aynan shunday bo'lgan.

– Eiar yomonning bir yaxshiligi bo'ladi, deganday, bunday holatning ham yaxshi tomoni bor, – ta'kidlab o'tdi Merri. – To'yib nonushta qilib oladigan bo'ldik. Hoy, Bob!

Yo'lga chiqish vaqti naq uch soatga kechiktirildi. Poni qidirib ketgan Bob quruq qaytdi. Aytishicha, Bill Fernidan:

tashqari, hech kim oti yoki ponisini sotishga rozi bo'lmabdi.

– Bill Ferni taklif qilayotgan ot esa qarib, ozib-to'zib ketgan, – ma'lum qildi u. – Shundoq bo'lsa ham paytdan foydalanган Ferni o'sha nimjon otiga uch hissa ortiq narx qo'yib olibdi.

– Bill Ferni deysanmi? – so'radi Frodo. Biror-bir nayrang yo'qmikan bu yerda? Oti bizning yukimiz bilan qochib, eski egasining uyiga qaytmasmikan? Yo bizni ortidan quvishga majbur qilib, oldindan uyushtirilgan pistirmaga olib boradimi?

– Billning qo'lidan bir amallab qutulib chiqqan jonivor o'z xohishi bilan uning uyiga qaytib kelishini tasavvur qilish qiyin, – dedi Musofir. – Lekin bizga ot sotish niyatini savobtalab niyat deb bo'lmaydi. Chindan ham u, paytdan foydalanib mo'maygina daromad ko'rmoqchi. Eng yomoni - sho'rlik jonivor bir oyog'i bilan go'r yoqasiga kelib qolgandir. Iloj qancha, o'zga chora yo'qqa o'xshaydi. Qancha so'rayapti o'zi, o'sha otiga?

Bill Ferni o'z oti uchun o'n ikki kumush penni<sup>1</sup> talab qildi. Bu chindan ham mahalliy bozorda poni uchun uch chandon ortiq qo'yilgan narxdir. Jonivor g'oyat ozg'in, yemga to'yagan, gangigandek ko'rinsa-da, hoziroq o'lib qoladigan hayvonga o'xshamaydi. Otning pulini janob Narkissning o'zi to'lab, yo'qotilgan ponilari uchun Merriga yana o'n sakkiz penni berdi. U vijdonli va Tog'bag'ri qishlog'i aholisining ta'biri ila aytganda davlatmand odam bo'lib chiqdi. Shunday bo'lsa ham, o'ttiz kumush penni kattagina pul sanalib, moliyaviy zarba, ularning ma'lum bir qismi Bill Ferniga to'langani esa ma'naviy kuchli bo'ldi.

Keyinchalik aniqlanishicha, janob Narkiss ham yaxshigina foyda ko'ribdi. Gap shundaki, faqat bir bosh otgina o'g'irlab ketilgan ekan. Qolganlar tumtaraqay qochib, Bri zaminining turli burchaklaridan topib keltirildi. Merrining ponilari ham qishloqdan qochib, sog'lom fikr yuritgancha Tom Bombadilning ponisi Fetti Lampikanni qidirib ketishibdi. U yerda Tomning parvarishida bo'lib, yaxshigina semirishibdi. Tog'bag'rida bo'lgan

---

<sup>1</sup> Penni, pens - Finlyandiyaning mayda puli, chaqasi.

ishlardan xabar topgan Tom jonivorlarni janob Narkissning ixtiyoriga yuboribdi. Moʻtadil narxga qoʻlga kiritilgan besh bosh yoshgina sogʻlom poni yangi sohibiga yaxshi xizmat qilishibdi. Shu tariqa ular xavfli kechadigan mashaqqatli safardan qutulib qolishdi. Biroq Rivendellda boʻlish baxtidan quruq qolishdi.

Hozir esa, janob Narkiss oʻzini katta mablagʻ boy bergan kishiday his etayotgan bir paytda boshiga boshqa bir tashvish tushdi. Mehmonxonada tunab qolgan boshqa mehmonlar uygʻonib, tungi hujumdan xabar topishgach, katta sarosima boshlandi. Janublik sayyohlar otlarini yoʻqotib, bunda, toki oʻz sheriklaridan biri ham tunda gʻoyib boʻlgani aniqlanguncha, mehmonxona sohibini ayblashdi. Bilishlaricha, u Bill Fernining gʻilay koʻzli oʻrtogʻi ekan. Shundan soʻng, gumon oʻsha odamga tushdi.

– Agar oʻsha ot oʻgʻrisini uyimga boshlab kelmaganlaringda bunday noxushliklar yuz bermas edi. Zarar oʻrnini oʻzingiz qoplang endi. Fernining uyiga borib, ajoyib doʻstingiz qayerga daf boʻlganini soʻrang.

Aniqlanishicha, oʻsha gʻilay hech kimga doʻst boʻlmagan ekan. Guruhga qanday qoʻshilib qolganini birov eslay olmadi.

Nonushtadan soʻng hobbitlar narsa yigʻishtirib, olis safarga hozirlik koʻrishdi. Soat oʻnga yetib yoʻlga chiqishga shay boʻlishdi. Bu vaqtga kelib Togʻbagʻri aholisi orasida katta hayajon uygʻondi. Frodoning kecha oqshom hammaning koʻz oʻngida daf boʻlishi, Qora otliqlarning mehmonxonaga uyush tirgan hujumi, Musofir deya chaqiriladigan reyner gʻalati hobbitlarga qoʻshilib olgani – bunday ishlar Togʻbagʻri qishlogʻida koʻp yillardan buyon sodir boʻlmagan edi. Togʻbagʻri, Steddl, Komba va Archet qishloqlari aholisining aksariyati sayyohlarning ketishini koʻrish uchun katta yoʻlga yigʻilib olgan. Mehmonxonada qolgan mehmonlar asosiy eshik ostonasida yigʻilib olishgan yoki derazalardan bosh chiqarib qarashmoqda.

Musofir oldingi rejasidan voz kechib, Togʻbagʻri qishlogʻidan chiqqancha katta yoʻlda toʻgʻri ketaverishga ahd qildi.

Chunki hozir yo'lni tark etish yaxshilikka olib kelmaydi. O'g'rincha ov bilan shug'ullanishga xalal berish uchun bo'lsa kerak, qayoqqa ketishayotganini bilish maqsadida ko'pchilik ularning izidan ergashib kelmoqda.

Ular Bob bilan xayrlashib, janob Narkissga ko'p minnatdorlik izhor qilishdi.

– Umid qilamanki, ishlarimiz yurishib, yaxshi kunlarda yana yuz ko'rishamiz, – dedi Frodo. – Uyingizda xotirjam uxlab oldik, rahmat.

Sayyohlarimiz yurakni ezadigan o'ylar bilan, xaloyiq kuzatuvi ostida mehmonxonani tark etib yo'lga chiqishdi. Kuzatuvchilarning hammasi ham do'stona, samimiy nigoh-la qarayotgani yo'q. Aftidan, Tog'bag'ri aholisining aksariyati Musofirdan hadiksiraydigan ko'rinadi, nigohi Musofirning nigohi bilan to'qnash kelgan odamlar unini o'chirib, nari qochmoqda. Musofir oldinda, Frodo bilan yonma-yon bormoqda. Ularni ortidan Merri bilan Pin, orqada esa yuk ortilgan ponini yetaklagan Sem ketmoqda. Uning cho'ntaklari Bob bergan olmaga to'la bo'lib, bittadan yeb bormoqda.

– Yurganda olma, turganda trubka, – izohladi u. – Lekin shuni bilamanki, hadcmay unisidan ham, bunisidan ham mahrum bo'laman.

Hamrohlar eshik derazalardan mo'ralayotgan, devorga suyanib o'tirgan, buta-devor oldida turgan anavi merovlarga e'tibor qilishgani ham yo'q. Darvozaga yaqin borishar ekan, Frodo qalin o'sgan buta-devor ortidagi, qishloqning oxirgi imorati bo'lmish noxush uyga razm solib qaradi. Derazalardan birida sarg'ish yuzli g'ilay kishi parda orqasiga tez bekinib olganini ko'rdi.

– Anavi janublik shu yerga biqinib olibdi-da! – dedi u past ovozda. – Turishidan orkka o'xshaydi.

Buta-devor ortida qoshi qalin o'sib, qora ko'zi nafratga to'lgan, katta og'zi istehzo-la yirilgan boshqa kishi qarab turibdi. Sayyohlar yaqin borgach qisqagina qora trubkasini og'zidan chiqarib, tufladi.

– Salom, uzunoyoq! – ko‘rishgan bo‘ldi u. – Bu gal sal erta chiqibsanmi, yo‘lga? Nihoyat o‘zingga hamroh topibsanda?

Musofir bosh irg‘ib qo‘ydi-yu, indamadi.

– Xayrli tong, indamas do‘stlarim! – davom etdi u. – Kimni o‘zingizga hamroh qilib olganingizni bilasiz degan umiddaman. Musofir, Nishonsiz Zarba! Uning yana boshqa, bir-biridan yoqimsiz ismlarini ham bilaman. Tunda undan ogoh bo‘ling! Siz esa, Semmi sho‘rlik otimni xafa qilmang! Tuf!

– Siz esa, Ferni, – keskin o‘girildi Sem, – buzib qo‘ymasimdan oldin beor basharangizni ehtiyot qiling.

Harakati yashin tezligiday kechgan Sem qo‘liga kirgan navbatdagi olmani uloqtirdi. Chap berishga ulgurmagan Billning buta-devor ortida og‘riqdan o‘kirib la‘natlagani eshitildi.

– Esiz, mazali olma edi-ya! – achindi Sem, yo‘lini davom etib.


Nihoyat qishloq hududi tugab, merovlar-u, bolalardan iborat kuzatuvchilar guruhi har tomon tarqadi. Tomoshadan zerikkan odamlar janubiy darvoza tomon yo‘l olishdi. Sayyohlar katta yo‘lda bir necha milya yurishdi. Bri tepaligini aylanib o‘tgan yo‘l chapga burilib, o‘rmonli soylikka pastladi. Chap qo‘l tomonda, ya‘ni Bri tepaligining janubiy-sharqiy etagida Steddl qishlog‘ining aholisini tashkil qiladigan hobbitlarning uylari-yu, yerosti uyalari ko‘rindi. Pastda, chuqur darada, yo‘lning Komb qishlog‘i joylashgan shimol tomonida tuman pag‘alari ko‘tarilmoqda. Baland o‘sgan daraxtlar Archet qishlog‘ini to‘sb qo‘ygan.

Yo‘lda biroz pastlab Tog‘bag‘ri qishlog‘ining jigarrang tepaligi ortda qolgach, shimol yo‘nalishida ketgan so‘qmoqqa burilishdi.

– Shu yerdan bekina boshlaymiz, – ma‘lum qildi Musofir.

– Umid qilamanki, bu tikkasiga kesib chiqiladigan «qisqa yo‘l» emas, – dedi Sem. – Negaki, unaqangi «qisqa yo‘lda» kunimiz bitishiga sal qolganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q.

– Chunki o‘shanda yoningizda bo‘lmaganman, – kulib





yubordi Musofir. – Qisqami, uzoqmi, men yuradigan yo‘l hamisha to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi.


Musofir dastlab tepalikni, so‘ng soylikni tez ko‘zdan kechirib chiqdi-da, hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilib hamrohlarini o‘rmonzorga.

Hududni bilmaydigan hobbitlarning anglashicha, Musofirning rejasi dastlab Archet tomon yo‘l olish, so‘ng o‘sha qishloqni sharq tomonidan chetlab o‘tib, yovvoyi hudud orqali tikka Zavert tomon yo‘l olishdan iborat. Natijada, agar ishlar silliq kechsa, ular, Chivin botqog‘iga kirmay, yo‘lning janub tomon og‘ib ketadigan katta halqasini chetlab ketishadi. Biroq botqoqlikni batamom chetlab o‘tishning iloji yo‘q, qisman kechib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Musofirning botqoqlikka doir tushuntirishlari esa kishiga dalda beradigan mazmunda chiqmadi.

Hozircha safar noxush kechayotgani yo‘q. O‘tgan tungi vahima hisobga olinmaganda, sayyohlar safardan zavq olishyapti desa ham bo‘laveradi. Quyosh yorqin porlayotganiga qaramay, havo kuydiradigan darajada issiq emas. Soylikka ko‘rk berayotgan daraxtlarning bargi rang-baranglikni saqlab qolgan. Musofir o‘z hamrohlarini o‘zaro kesishgan ko‘plab so‘qmoqlar orasidan to‘g‘ri yo‘l tanlab boshlab bormoqda. Agar Musofirsiz, o‘zlari mustaqil ketishganda adashib qolishlari muqarrar edi. Ta‘qib qiluvchilarni chalg‘itish uchun ko‘p burilgan, hatto ortga qaytgan so‘qmoqlardan bormoqda.

– Hech shubha yo‘qki, Bill Ferni, garchi yolg‘iz o‘zi izimizdan kelayotganiga shubha qilsam-da, katta yo‘lni qayerda tark etishimizni kuzatadi. Hududni yaxshi biladi-yu, lekin, baribir, menga bas kela olmaydi. Faqat qay tomon ketganimizni hamtovoqlariga aytishi chatoq. Dushman malaylari bizni Archet tomon yo‘l olgan deb o‘ylashsa, yaxshi bo‘ladi.

Yo Musofirning mahorati tufaylimi, yo boshqa sababdanmi, kun davomida hech kim ko‘rinmadi. O‘rmon qushlari, bitta tulki va bir nechta olmaxonni hisobga olmaganda na ikki oyog‘li, na to‘rt oyoqli biror-bir jonzot uchramadi, yo ovozi eshitilmadi. Ertasi kuni sayyohlar tikka sharq tomon yo‘l olishdi.



Kun kechagiday tinch, xotirjam o'tdi. Uchinchi kuni sayyohlar Chetvudga yetishdi. Katta yo'ldan chiqishgan kundan buyon hudud muntazam pastlab borib, endi ular Bri zaminidan ancha olisdagi, birorta yo'l yotqizilmagan Chivin botqoqligiga chegaradosh keng tekislikka kelib qolishdi.

Yer nam tortib, ayrim joylari balchiqli bo'lib qoldi. U yoq, bu yoqda ko'lmak va o'pqonlar, turli-tuman qushlar makon qilgan qamishzorlar uchrab turibdi. Yo'lovchilar oyoqni ho'l qilmay, tanlangan yo'nalishdan og'may borish uchun endi ehtiyot bo'lib, yo'l tanlab yurishmoqda. Boshida ularning harakati ancha tez kechdi, ammo uzoqlashgan sari harakatlari sustlashib, tobora xavfli tus olib boraverdi. Botqoqlik aldanchi bo'lib, uzluksiz ketgan so'qmoq yo'q. Hatto reynjerlar ham bu yo'ldan kamdan kam yurishadi, Musofirga esa hobbitlar guruhini yetaklab yurish oson kechmayapti. Ularni chivin qiynay boshladi, botqoqlik yuzasi yeng ichiga, yoqa ostiga va soch orasiga kirib olganicha og'ritib chaqayotgan mayda hasharotning yirik-yirik galalariga to'lgan.

– Mana bular meni tiriklayin yeyishyapti! – qichqirdi Pin. – Chivin botqoqligi emish! Nomini qarang-a!

– Qiziq, yegani hobbit topilmasa, nima qilishar ekan bular, a? – kinoya qildi Sem, o'z bo'yniga o'zi tarsaki qo'yib.

Sayyohlar kunni kimsasiz, noxush joyda o'tkazishdi. Dam olgani tanlangan qarorgoh esa zax, sovuq, noqulay bo'lib, chivin uyqu bermadi. Allaqanday jirkanch, qichqirig'i yirik chigirtkaning mudhish g'ichirlashiga o'xshash jonivorlar qamishzor va o'nqir-cho'nqir joylarda ov qilmoqda. Ming-minglab bunday jonivorlar atrofda tun bo'yi baqir-chaqir qilib, hobbitlarni aqlan ozdirib qo'yishiga sal qoldi.

Olis safarning navbatdagi, to'rtinchi kuni nisbatan yengil o'tgan bo'lsa-da, tun, garchi botqoqlik ortda qolgan bo'lsa ham juda yomon kechdi, Sem nom bergan «baqir-chaqir» jonivorlarning tungi uvvosi hamon ta'qib qilib kelmoqda. Juda toliqqan bo'lishiga qaramay Frodo uyqusini topa olmadi. Uning nazarida, sharq ufqida qandaydir shafaq bir necha bor charaqlab

o'chganday bo'ldi. Tong yorug'i emas edi u, chunki tong yorishi-shiga hali ancha bor.

– Qanaqangi shafaq ekan u? – so'radi Frodo, hozirgina uyg'onib ketib tun qorong'isiga tikilib o'tirgan Musofirdan.

– Bilmadim, – javob berdi Musofir. – Juda uzoqda charaq-ladi. Tog' cho'qqisiga urilgan kuchli yashin bo'lsa kerak.

Oq chaqnoqlar, indamay, zo'riqib o'tirgan Musofimi uzoq kuzatib yotgan Frodo nihoyat notinch uyquga ketdi.

Beshinchi kuni qamish o'sgan orolchalar biroz yurgan hamrohlarning ortida qoldi. Hudud endi yoppasiga asta ko'tarila boshladi. Olish sharqda tepaliklar tizmasining qorasi ko'rindi. Eng baland, cho'qqisi biroz yapasqi ko'rinishga ega konussimon tepalik asosiy tizmadan ajralgan holda yakka o'zi turibdi.

– Biz yetishimiz kerak bo'lgan Zavert tepaligi o'sha bo'ladi, – tushuntirish berdi Musofir. – Biz tark etib, hozir o'ng qo'l tomonimizda qolgan eski yo'l o'sha tepalik yaqinidan o'tadi. Agar tikka yuradigan bo'lsak, o'sha tepalikka ertaga tushlik-kacha yetib borishimiz kerak. O'ylashimcha, aynan shunday ish tutishimiz lozim.

– Sabab? – so'radi Frodo.

– Bu yerlardan qancha tez ketsak, shuncha yaxshi, chunki katta yo'lga juda yaqinmiz.

– Ammo biz Gendalfni kutmoqchimiz-u, u yerda?! – hayron bo'ldi Frodo.

– To'g'ri, lekin umid deyarli yo'q. Agar u o'sha yo'ldan borsa ham Tog'bag'riga kirib o'tmagan. Demak, hozir biz qayerdaligimizni bilmaydi. U yerga tasodifan bir vaqtda yetib bormasak, bir-birimizni yo'qotib qo'yishimiz mumkin. Uzoq kutish biz uchun ham, Gendalf uchun ham xavfsiz kechmaydi. Agar Qora otliqlar yo'lsiz joyda izimizni yo'qotib qo'yishgan bo'lsa, hech shubha yo'qki, ular ham Zavert tomon yo'l olishadi. O'sha tepalikdan tevarak-atrof kaftdagidek yaqqol ko'rinadi. Son-sanoqsiz qushlar-u, jonivorlar ko'rdi bizni. Ularning hammasiga ham ishonib bo'lmaydi. Bu yerlarda o'sha jonzotlardan ham yovuzroq boshqa turdagi josuslar topiladi.

Hobbitlar olisdagi tepalikka xavotir-la qarashdi. Sem bulutlar ostida parvoz qilayotgan nigohi yovuz qarchig'ay yoki burgutni ko'rib qolishdan xavfsiragancha xira osmonga tikildi.

– O'zimni yo'qolib qolgan yolg'iz kishidek his etishga majbur qilding, Musofir! – e'tiroz bildirdi Sem.


– Fikringcha, qanday yo'l tutish kerak? – so'radi Frodo Musofirdan.

– Fikrimchami? – o'y toldi Musofir. – Fikrimcha, tikka Zavertga qarab emas, sharqqa, tepaliklar tizmasi tomon yurishimiz kerak. U yerda biz Zavert bo'sag'asiga olib boradigan so'qmoqni kesib o'tamiz. Shunday qilsak, tepalikning turli to'siqlarga ega shimol tomonidan yaqinlashamiz. U yog'i esa bir gap bo'lar.

Sovuq oqshomga qadar sayyohlar tinmay olg'a yurishdi. Yer ancha qurib, notekis shaklga ega bo'lib bordi, orqada qolgan botqoqlikda hosil bo'lgan tuman izma-iz quvib kelmoqda. Quyoshning qizil gardishi g'arb ko'lankasi ortiga botar ekan, allaqanday qushlar mungli sayray boshlashdi. Qosh qoraya boshlagach hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Hobbitlar bu yerdan ancha olisda qolgan Beg-End derazasi-yu, undan ko'rinadigan quyosh shafaqining yoqimli shu'lasini eslab o'tishdi.

Kun oxirida tepaliklardan oqib tushib, botqoqning ko'l-mak suviga quyilayotgan ariq uchradi. Sayyohlar qorong'i tushguncha ushbu ariq bo'ylab yo'l yurishdi. Atrof qorong'ilashgach yurishdan to'xtab, ariq yaqinidagi pakana qandag'och daraxti ostida tunaydigan bo'lishdi. Oldinda xira osmon ostida qorayib ko'rinayotgan o'rmonsiz tepaliklarning noxush manzarasi ochilgan. Endi ular tungi navbatchilik joriy etishdi. Musofir esa shundoq ham mijja qoqmay yotganga o'xshaydi. To'lishgan oying xira kulrang shu'lasini tunning dastlabki pallasida atrofni xira yoritdi.

Ertasi kuni ertalab quyosh ko'rinishi bilan yo'lga chiqishdi. Havoda kuzgi ayoz borligi sezilib, musaffo osmon xira-moviy tus olgan. Hobbitlar tun bo'yi to'yib uxlaganday o'zlarini bardam his etishmoqda. Boz ustiga, ular uzoq yurish havosini



olib, shunday olis masofalarni bosib o'tishmoqdaki, bunday safar Shir hobbitlarini allaqachon yiqitgan bo'lar edi. Pinning aytishi-cha, Frodo ilgarigiga nisbatan ikki karra hobbit bo'lib qolgan emish.

-- Ozib-to'zib, ilgarigi hobbitligimdan quruq suyak qolayotgani inobatga olinadigan bo'lsa, juda g'alati gap bo'ldi, dedi Frodo kamarini tortib. -- Umid qilamanki, ozish jarayoni men arvoonga aylanib qolgumicha u qadar jadal kechmaydi.

– Bunday narsalar haqida gapirma bu yerda! – jiddiy ohangda ogohlantirdi Musofir.

Yaqin qolgan tepaliklar tizmasi dam kertik-mertik devor shaklini kasb etar, dam ming futcha yuqoriga ko'tarilar, dam pastlab, o'zaro kesishgan chuqur jarliklar yoki sharq zaminiga eltadigan o'tish joylariga aylanar edi. Tizma qirrasida hobbitlar kulrang-yashil devor qoldiqlari va ularning yaqinida qazilgan xandaqlardan iborat qadimiy qal'a alomatlarini, soylukda esa toshdan ko'tarilgan eski istehkomlarni ko'rishdi. Oqshom mahalida sayyohlarimiz g'arbiy qiyalik etagiga yetib kelib, tunagani joy tayyorlashdi. Beshinchi oktabr, Tog'bag'ri qishlog'idan chiqib ketishganlaridan buyon bugun mana olti kun o'tdi.

Tong otgach, Chetvutni ortda qoldirishgan kundan buyon ilk bor so'qmoq ko'rindi. O'ngga burilib, ushbu so'qmoqda janubiy yo'nalishda odimlashdi. Yo'l huddi ularni tepaliklar tizmasidan yoki g'arbdagi tekislikdan kuzatish qiyin kechishi uchun atayin pana joylar orqali o'tib, chuvalib ketganday go'yo. So'qmoq dam tik qiyalikka chiqib, dam daraga tushib bormoqda. Nisbatan tekis hududda esa singan qoya parchalari va to'g'ri burchakli tosh bo'laklaridan iborat uyumlar ikki tomonida cho'zilgan bo'lib, yo'lovchilar buta-devor ortida ketishayotganday bo'ldi.

– Qiziq, kim yotqizgan ekan, a, bu so'qmoqni? – so'radi Merri, g'ayrioddiy yirik toshlari bir-biriga jiplashtirilib ko'tarilgan devor yonidan o'tar ekan. – Menga yoqmayapti. Nimasi bilandir qo'rg'on arvohing sag'anasiga o'xshab ketar ekan bu. Zaverda qo'rg'on bormi?

– Zavertda ham, boshqa tepaliklarda ham qo‘rg‘on yo‘q,  
– javob berdi Musofir. – G‘arb aholisi bu yerda yashamagan,  
garchi g‘arblik so‘nggi kunlarda mana bu tepaliklarni Angmar-  
dan yopirilib kelgan yovuz kuchdan himoya qilgan bo‘lsa-da.  
Sen so‘rayotgan so‘qmoq esa ancha oldin, shimoliy qirollikning  
ilk kunlarida devor bo‘ylab ketgan istehkomlarga xizmat ko‘rsa-  
tish maqsadida bunyod etilgan. O‘shanda odamlar Zavert tepa-  
ligida ulkan qo‘riqlash minorasini qurib, unga Amon-Sul degan  
nom berishgan. Vaqt o‘tib, o‘sha minora buzilib, yondirildi. Endi  
uning o‘rnida tepalikning qadimiy boshiga kiydirilgan dag‘al  
tojga o‘xshash to‘garak poydevor qolgan, xolos. Lekin u minora  
bir zamonlar baland, nihoyatda ko‘rkam bo‘lgan. Aytishlaricha,  
so‘nggi ittifoq tuzilgan davrda unga Elendilning shaxsan o‘zi  
chiqib, Gil-Geladning g‘arb tomondan yaqinlashib kelayotganini  
kuzatgan ekan.

Hobbitlar hayrat-la Musofirga baqrayib qolishdi. Zero,  
u, Yovvoyi o‘lkaning so‘qmoqlarini yaxshi bilganday, qadimiy  
rivoyatlarini ham yaxshi biladigan ko‘rinadi.

· Gil-Gelad deganing kim bo‘ldi? · so‘radi Merri.

O‘yga tolgan Musofir indamadi. Kutilmaganda past  
eshitilgan ovoz quyidagi misralarni talaffuz etib qoldi:

Gil-Gelad – adolat-la boshqargan podsho,  
Butun elf olamining so‘nggi hoqoni.  
Dunyoga tahdid solgan zulmatni yengib,  
«Olam chirog‘i»dir olgan maqomi.

Quyoshday porlagan Gil-Gelad hamisha,  
Yarqiragan davlatda misoli qalqon,  
Dushman qurolini urib sindirib,  
Qo‘shinini yanchgan misoli tolqon.

G‘anim chekindi, yengilmadi hech  
Gil-Gelad qilichi baland kelmadi  
So‘ndi yulduzi, bo‘ldi endi kech  
Quvilsa-da yov, nafi bo‘lmadi.

Hamma hayrat-la Semga baqraydi.

– Davomini ham ayt, – iltimos qildi Merri talab ohangida.

– Bilganim shu, – javob berdi Sem, rangi qizarib. – Bolaligimda janob Bilbodan eshitib yodlagan edim. Elflar haqidagi hikoyalardan zavq olishimni ko‘rib, o‘xshash ertaklarni tez-tez aytib berar edi menga. Xat-savodi kuchli, menga ham o‘qish-yozishni o‘rgatgan shoirtabiat inson bo‘lgan janob Bilbo. Hozir o‘qigan misralarimni ham o‘sha kishi yozgan.

– Yo‘q, bu misralarni u yozmagan, – e‘tiroz bildirdi Musofir. – «Gil-Geladning qulashi» deb nomlangan qissadan parcha edi bu. Asar qadimiy tilda bitilgan bo‘lib, Bilbo uni tarjima qilibdi. Men esa bundan bexabar ekanman.

– O‘sha qissa juda uzun edi, – esladi Sem. – Hammasi Mordor haqida. Eshitib, vujudimni vahimaga bosgani bois yodlay olmadim. O‘sha tomon yo‘l olishimni xayolimga ham keltirmagan ekanman.

– Mordor tomon yo‘l olishimni, deysanmi?! – xitob qildi Pin. Umid qilamanki, ish u darajaga borib yetmaydi.

– U nomni bu yerda baland talaffuz etmang! yana eslatib o‘tdi Musofir.

Sayyohlar so‘qmoqning janubiy boshiga yetib, tepalikning shimoliy etagiga o‘tish ko‘prigi vazifasini o‘tayotgan kulrang-yashil ko‘tarmani ko‘rishganda oktyabrning xira quyoshi o‘z cho‘qqisiga edi. Kun yorug‘ligida zudlik bilan tepalikka chiqib olishga ahd qilishdi. Bekinishning iloji yo‘q. Yuqorida dushman yoki uning josusi bekinib olmaganiga umid qilgan yo‘lovchilar cho‘qqida biron-bir harakat alomatini sezishmadi. Gendalf yaqin orada bo‘lgan taqdirda ham, uning borligi bilinmayapti.

Zavertning g‘arbiy etagida xarobaga aylangan, tubi bochkasimon xandaq shakliga ega, devori o‘t-o‘landan iborat boshpana topildi. Bu yerda poni va u ko‘tarib kelgan yuk qoldirilib, Sem bilan Pin qo‘riqchi etib tayinlandi. Qolgan uch

kishi tepalikka ko'tarilishni davom etdi. Yarim soat o'tib Musofir yassi cho'qqi chetiga yetdi. Charchab, og'ir hansirayotgan Frodo bilan Merri uning izidan ko'tarilishmoqda. Yo'lning oxirgi qismi tik va sertosh ekan.

Tepalik usti Musofir aytgandek, uvalanib, o't-o'lan bosgan keng tosh to'garakdan iborat. To'garak o'rtasiga katta-kichik toshlardan uyum hosil qilingan bo'lib, olov ta'siridan qoraygan. Uyum atrofidagi chim ham yonib, ostidagi tosh ochilib qolgan. To'garak ichida o'sgan maysa cho'qqini qamrab yongan olov taftidan qovjirab qoraygan, lekin biron-bir jonzot izi ko'rinmaydi.

Qadimiy minora xarobasining chetida turgan sayyohlar tevarak-atrofni tomosha qilib, olis ufqni, umumiy manzarani ko'zdan kechirib chiqishdi. Hududning asosiy qismi dashtlik bo'lib, o'ziga xos xususiyatlar juda kam. Janub tomondagina bir nechta daraxtzor ko'rinib, u yer, bu yerda suv mavjlanmoqda. O'sha daraxtzorlar ortida kamarni eslatadigan, g'arb tomondan cho'zilib kelgancha, dam ko'tarilib, dam soylikka tushib, sharqda qorayib ko'rinayotgan tepaliklar tizmasida gum bo'lguncha ilang-bilang bo'lib ketgan katta yo'l ko'rindi. Unda hech qanday harakat ko'rinmaydi. Sharqqa ketgan yo'l tasmasini ko'zdan kechirgan sayyohlar tog' tizmasini: dastlab uning jigarrang etagini, keyin baland kulrang tepaliklarini, ularning ortida esa qor bosgan ulkan cho'qqilarini ko'rishdi.

– Mana nihoyat yetib keldik! – dedi Merri. – Yoqimsiz joy ekan. Na suv bor, na istiqomat maskani. Gendalfning ham izi ko'rinmaydi. Lekin bizni kutib o'tirmagani uchun koyimoqchi emasman uni, agar bu yerdan o'tgan bo'lsa, albatta.


– Bilmadim, – dedi Musofir. – Agar u Tog'bag'ri qishlog'iga biz chiqib ketgan kunning ertasi yoki indiniga kirib kelgan bo'lsa ham, bu yerga bizdan oldin yetib kelishi kerak edi. Zarurat tug'ilganda juda tez yurish qobiliyatiga ega u.

Kutilmaganda jim bo'lgan Musofir tosh uyumining tepasida turgan yassi toshga uzoq qarab qoldi. Boshqa toshlarga qiyoslanadigan bo'lsa, olov tegmagan ushbu tosh o'zining tabiiy




rangini saqlab qolgan. Musofir uni qo‘liga olib, diqqat-la ko‘zdan kechirib chiqdi.

– Yaqinda kimningdir qo‘lida bo‘lgan bu, – xulosa qildi nihoyat u. – Mana bu belgilar borasida nima deysiz?

Frodo toshga diqqat-la qarab, yassi tomonida timdalan-gan iz ko‘rdi: 

– Chiziqcha, nuqta va yana uchta chiziqcha, shekilli, – taxmin qildi u.

– Chap chiziqchanning tarmoqlanishiga ko‘ra runa yozu-vidagi «» harfiga o‘xshatish mumkin, – fikr bildirdi Musofir. – Balkim, chindan ham ushbu belgini Gendalf qoldirib ketgandir, garchi bu masalada mutlaq ishonch bildirib bo‘lmasa-da. Chiziq-chalar juda aniq ko‘rinyapti, lekin ularning mazmuni mutlaqo boshqacha bo‘lib, bizga daxli bo‘lmasligi ham mumkin. Chunki reynjerlar ham runa yozuvidan foydalanib, bu yerlardan tez-tez o‘tib turishadi.

– Agar bu belgini Gendalf qoldirib ketgan bo‘lsa-chi, unda nimani anglatgan bo‘lar edi ushbu yozuv? – so‘radi Merri.

– Fikrimcha, «G» harfini anglatadi, – dedi Musofir. – ya’ni Gendalf bu yerda uch kun oldin, uchinchi oktabr kuni bo‘lgan. Shuningdek, bu belgi Gendalf xavf ostida bo‘lib, juda shoshganini anglatishi ham mumkin. Shu bois sal batafsilroq, tushunarliroq narsa yozib qoldirishga vaqti bo‘lmagan yoki bizni xavfga qo‘ymaslik uchun jur‘at etmagan. Agar chindan ham shunday bo‘lsa, juda ehtiyot bo‘lishimiz kerak.

– Bu belgini aynan Gendalf qoldirib ketganiga ishonch hosil qilishni istagan bo‘lar edim, – dedi Frodo. – Oldimizda ketayotgani haqidagi xabar biroz taskin bergan bo‘lar edi, dey-man-da.

– Shunday bo‘lishi ham mumkin, – fikr bildirdi Musofir. – Zavertga kelgani va xavf ostida bo‘lganiga shaxsan men ishonaman. Bu yerda katta olov yongan. Uch kun oldin tunda ko‘ringan shafaqni eslang. O‘ylashimcha, bu cho‘qqida Gendalf-ga hamla qilingan. Jang nima bilan yakun topganini aytish qiyin. Gendalf endi bu yerda yo‘q va biz o‘z g‘amimizni o‘zimiz yeb,

Rivendellga imkon qadar tezroq yetib olishimiz kerak.

– Ancha bormi hali Rivendellga? – so‘radi atrofga xavfsirab alanglayotgan Merri.

Zavert cho‘qqisidan tevarak-atrofdan yovvoyi dashtlikdan o‘zga narsa ko‘rinmayapti.

– O‘rtda qolgan «Javlon urar poni» mehmonxonasidan keyin, Bri zaminining sharqidagi qadimiy yo‘llarni birov milya hisobida o‘lchab chiqqanidan xabarim yo‘q, – javob berdi Musofir. – Ayrimlar yo‘lni uzoq deydi, ba‘zilar – aksincha. Bu juda g‘alati yo‘l, sayyohlar uni uzunmi, qisqami, tezroq bosib o‘tishni istashadi. Lekin shuni aytish mumkinki, agar ob-havo qulay kelib, biron-bir kutilmagan hodisaga yo‘liqmay monesiz yuradigan bo‘lsam, Bruinen kechuvigacha qolgan yo‘lni bir o‘zim o‘n ikki kunda bosib o‘tgan bo‘lar edim. U yerda yo‘l Rivendell dan oqib chiqadigan Laudvoter daryosini kesib o‘tadi. Qisqasi, bizni yana ikki haftali safar kutmoqda, chunki anavi yo‘ldan bora olmaymiz, degan fikrdaman.

– Ikki hafta degin! – o‘ylanib qoldi Frodo. – Ha, bu vaqt ichida ko‘p narsalar sodir bo‘lishi mumkin.

– Shunday, – rozi bo‘ldi Musofir.


Uchovlon tepalik cho‘qqisida ma‘lum vaqt jim qoldi. So‘qqa joyda turgan Frodo uysizligi, qanday xavf ostida qolgani ilk bor to‘liq idrok etdi. Taqdir uni qadrdon Shirdan olib ketgani uchun o‘kindi, ko‘z qiri bilan pastga, ortga, g‘arbiga, qadrdon uyiga olib boradigan jirkanch yo‘lga yana bir bor qarab qo‘ydi. Kutilmaganda Frodo anavi yo‘lda g‘arb tomon harakatlanayotgan ikkita qora nuqtani, yana uchta nuqta esa ularga peshvoz kelayotganini ko‘rib qoldi. U baqirib, Musofirning qo‘lidan tortdi.

– Anavilarni qara! – dedi u, qo‘lini pastga uzatib.

Musofir shu zahoti Frodo bilan Merrini yerga yotqizib, o‘zi ham ularning yoniga yotdi.

-- Kim ular? – pichirladi Frodo.

-- Bilmadim, – javob berdi Musofir, – nima qilgan taqdir-da ham noxushlikka shay turish kerak.



Uchovlon to'garak chetiga asta emaklab, ikkita tosh orasidagi tirqishdan qaradi. Kun yorug'ligi endi u qadar yorqin emas, oydin tong o'tib, sharqdan suzib kelgan bulut quyoshni to'sib qo'ygan. Atrof kunbotar mahalidek xira ko'rinmoqda. Qora nuqtalarni hamma ko'rib turibdi-yu, Frodo bilan Merri ularning shakli va o'lchamini aniqlay olishmayapti. Ammo shu narsa ayonki, pastda, tepalik bo'sag'asidagi olis yo'lda Qora otlilar uchrashmoqda.

– Darhaqiqat, dushman malaylari shu yerda, – xulosa qildi o'tkir ko'zi pand bermaydigan Musofir.

Uchovlon to'garak chetidan tez chekinib, shimoliy qiya-madan pastda qolgan hamrohlar oldiga tushdi.

Sem bilan Pin vaqtni bekor o'tkazmay xandaq va uning atrofini ko'zdan kechirib chiqishdi. Toza suv manbasini, ushbu manba o'rtasida esa ikki-uch kunlik izlarni ko'rishdi. Bochkasimon . . . xandaq tubida gulxan kuli va kimdir bu yerda bo'lganidan dalolat beradigan izlar topildi. Xandaq chetida qoya bo'laklari bo'lib, Sem ularning ostida o'tin zaxirasini topdi.

– Gendalfning ishi bo'lsa kerak bu, fikr bildirdi Sem Pinga. – Bu yerga qaytishni niyat qilgan bo'lsa, yig'ib qo'ygan-dir.

Ikkalasining tadqiqoti Musofirni qiziqtirib qo'ydi.

– Qani, o'zim ko'zdan kechirib chiqaychi atrofni, – dedi u, suv manbai tomon yo'l olib.

Musofir ko'p o'tmay qaytib keldi.

– Ko'nglimga kelgandi-ya, – dedi u. – Sem bilan Pin atrofni erinmay toptab chiqishibdi. Bu yerda reynerlar bo'lgan. Iz o'shalarники. Biroq reynerlarga tegishli bo'lmagan izlar ham bor. Ularning bir turi bir-ikki kun muqaddam qoldirilgan og'ir boshmoq izlari. Aniq ayta olmayman-u, lekin boshmoq kiyganlar bu yerda ko'pchilikni tashkil etgan.

U jim bo'lib, o'yga toldi.

Hobbitlarning har biri boshiga qaytarma qalpoq tashlab, oyog'iga og'ir boshmoq kiygan Qora otlilarni ko'z oldiga keltirib ko'rdi. Mabodo ular ushbu xandaqning mavjudligidan

boxabar ekan, bu yer qancha tez tark etilsa, shuncha yaxshi. Dushman bir necha milya narida, katta yo'lda yurganini eshitgan Sem ushbu boshpanaga shubha ila razm solib chiqdi.

– Bu yerdan tezroq ketganimiz yaxshi emasmi, janob Musofir? – so'radi u betoqat bo'lib. – Kech bo'lyapti, mana bu ovloq esa menga yoqmayapti.

– To'g'ri, – ma'qul topdi Musofir, vaqt bilan ob-havoga baho berganday osmonga qarab. – Endi qanday ish tutishni bahamjihat hal qilishimiz kerak. Bu yer menga ham yoqmayapti, Sem. Lekin tunash uchun kechgacha durustroq joy topa olishimizga ko'zim yetmaydi. Shu yerdaligimizni dushman malaylari hozircha ko'rmagan, harakat boshlaydigan bo'lsak, shu zahoti sezib qolishadi. Qilishimiz mumkin bo'lgan ish – ko'l tomon ketgan yo'limizdan o'ngga og'ishdir. U yerdagi hudud mana bu hududdan ko'p farq qilmaydi. Yo'l nazorat ostida. Biroq janubdagi chakalakzor ichiga biqinib olishni istasak, uni kesib o'tishimizga to'g'ri keladi. Yo'lning shimolidagi tepalik ortidagi hudud ochiq va ko'plab milya yassi tekislik ko'rinishida cho'zilgan.

– Qora otlqlarning ko'rish qobiliyati bormi o'zi? – qiziqdi Merri. – Nazarimda, ular ko'proq ko'zidan emas, burnidan, hid bo'lish qobiliyatidan foydalanishadi. Fikrimcha, ular bizni kunduz kuni hidimizdan ta'qib qilib kelishyapti. Anavi cho'qqida sen bizni yerga yotqizib qo'yding, hozir esa harakat boshlasak ko'rib qolishadi deyapsan.

– Tepalik ustida ehtiyotsizlik qilib qo'ydim, – tushuntirish berdi Musofir. – Gendalfning izini qidirib topishni istab, xatoga yo'l qo'ydim: cho'qqiga uch kishi bo'lib chiqmasligimiz, u yerda uzoq ushlanib qolmasligimiz kerak edi. Chunki Qora otlqlarning o'zlari ko'ra olishmasa, otlari ko'ra biladi. Boz ustiga, Qora otlqlar Tog'bag'ri qishlog'ida o'zingiz shohid bo'lganingizday, odamlar va boshqa turdagi jonzotlardan josus sifatida foydalanishadi. Kunduz kuni siz-u bizday ko'ra bilishmaydi, lekin har bir jism ularning miyasiga ko'lanka tashlaydi. Jism ko'lankasini quyosh nurigina bartaraf etadi. Qorong'ilikda esa biz ko'rmaydigan ko'plab narsalarning alomati-yu, shaklla-

rini his etishadi. Biroq kunning har qanday vaqtida jonli mavjudotlar qonining hidini sezishadi, ular ushbu qonga tashna va ayni vaqtda undan nafratlanishadi. Hid bilish va ko'rishdan tashqari boshqa sezgi alomatlari ham mavjud. Ularning yaqin kelganini biz his vujud-la his etamiz, ularni ko'rmasak ham qalbimizda vahima uyg'onadi. Bundan tashqari, – qo'shimcha qildi u, ovozini pasaytirib, – Uzukning o'zi ham ularni o'ziga jalb qiladi.

– Unday bo'lsa, qanday qutulishim kerak, agar harakat boshlab, ularni ortimdan tortib boradigan bo'lsam? umidsiz ohangda so'radi Frodo.

– Nourmid bo'lma! - dedi qo'lini Frodoning yelkasiga qo'ygan Musofir, hobbitga taskin berib. – Sen yolg'iz emassan. Mana bu quruq o'tindan foydalanamiz. Olov bizni himoya qiladi. Sauron olovni o'z maqsadi yo'lida qo'llashi mumkin, uning qo'lidan har narsa keladi, ammo anavi Qora otliqlar olovni yoqtirishmaydi, olovni boshqarayotgan kishidan qo'rqishadi. Shunday ekan, olov bizning do'stimizdir.

- Balkim, shundaydir, - g'udulladi Sem.

Sayyohlar boshpananing eng chuqur joyida gulxan yoqib, ovqat tayyorlashdi. Oqshom ko'lankasi cho'zilib, havo sovidi. Nonushtadan buyon birov tuz totmagani bois ochlik hissi kuchli sezildi. Shunga qaramay, kechki ovqat yengil bo'ldi. Oldinda quruq dasht, qush-u, jonivor kam uchraydi. Elatlarning bari bitta qolmay ko'chib ketgan. Tepaliklar tizimi ortida ba'zan reynerlar o'tib qolishi mumkin bo'lib, bu yerlarda deyarli to'xtashmaydi. Boshqa toifaga mansub sayyohlar bu dashtlikdan kamdan kam o'tadi, biroq ular aksariyat hollarda yovuz elat vakillari bo'lib chiqadi: vaqti-vaqti bilan G'uborli tog'larning shimoliy soyliklaridan trollar chiqib qoladi. Kamdan kam holatlarda o'z yumushi bilan shosha-pisha ketayotgan gnomlar uchrab qolishi mumkin.

– Yegulik masalasini qanday hal qilamiz, bilmadim, – dedi Frodo. – So'nggi kunlarda yegulik zahirasini tejab sarfladik, mana bu kechki ovqatni ham ziyofat deb bo'lmaydi. Oldinda esa kam deganda yana ikki haftalik yo'l kutyapti bizni.

– Ovloq hudud bo'lsa ham, yegulik topiladi bu yerda, – dedi Musofir. – Iste'molga yaroqli reza meva, ildiz, o't-o'lan topiladi. Bundan tashqari, zarurat tug'ilgan holatda men durustgina ovchiman. Qishgacha ochlikdan o'lmaysiz. Biroq meva terimi-yu, hayvon ovi – uzoq kechadigan mashaqqatli ishdir. Shu bois, damni qattiq tutib, Elrond uyida uyushtiriladigan ziyofatni orzu qiling.

Qorong'i tushib, havo ancha sovidi. Sayyohlar xandaq ichidan bosh chiqarib ko'lanka qamrayotgan kulrang yerni ko'ra olishdi, xolos. Osmon yana tozalanib, miltillayotgan yulduzga to'la boshladi. Frodo va uning hamrohlari adyoiga o'rangancha gulxanga yaqinroq o'tirishdi. Musofir esa o'z plashiga o'ranib, bir chetda trubka chekkancha, chuqur o'yg'a toldi.

Qorong'i tushgach, hobbitlarning qo'rquvini yengish uchun elflar, odamlar, qadimda ro'y bergan yovuz va ezgu ishlar haqida ko'p afsona va rivoyat biladigan Musofir qissa aytishga kirishdi.

– Gil-Gelad haqida gapirib ber, – iltimos qildi Merri, elflar qirolligi haqidagi hikoyasini eshitishgach. – O'sha qadimiy qissani bilasanmi?

– Bilaman, – dedi Musofir. – Frodo ham biladi. U qissa bizga bevosita daxldor.

Merri bilan Pin olovga tikilib o'tirgan Frodoga qarashdi.

– Gendalfdan eshitganlarimni bilaman, xolos, – past ovozda gap boshladi Frodo. – Gil-Gelad O'rtayer elflarining so'nggi buyuk qiroli bo'lgan. Elf tilida Gil-Gelad «yulduz shu'lasi» degan ma'noni anglatadi. Elfilar do'sti Elendil bilan Gil-Gelad ikkalasi...

– To'xta! – gapni bo'ldi Musofir. – Bu qissani dushman malaylari izg'ib yurgan makonda aytish shart emas. Elrond huzurida uni to'la-to'kis eshitishingiz mumkin.

– Unday bo'lsa, qadim zamonlarda o'tgan hodisalar haqida boshqa biron nima aytib ber, – iltimos qildi Sem. – Elfilar haqida yana biron-nima eshitmoqchiman. Tevarak-atrofimizdagi zulmat tobora qalinlashib borayotganday tuyulmoqda menga.

– Unday bo‘lsa, Tinuviel haqida qissa aytib beraman, – dedi Musofir. – O‘zi uzoq, xotimasi noma‘lum qissa-yu, men sizlarga uning qisqacha mazmunini so‘zlab beraman. Bugungi kunda ushbu qissaning qadimda qanday bayon etilganini biladigan Elronddan boshqa odam qolmadi. G‘amgin bo‘lsa ham juda chiroyli qissa bu. O‘rtayer qissalarining hammasi shunaqa g‘amgin aslida, lekin u ruhingizni ko‘taradi.

Ma‘lum vaqt jim qolgan Musofir chuqur xo‘rsinib olgach, asta gap boshladi.

– Mazkur doston elf tilida aytilganda «ennitennat» tarzida bitilgan bo‘lib, uni bizning so‘zlashuv tilimizga tarjima qilish juda qiyin, kuchsiz aks-sadoday yangraydi, xolos, – gap boshladi Musofir. – Unda Baragirning o‘g‘li Beren bilan Lyutiye Tinuvielning uchrashuvi haqida hikoya qilinadi. Beren o‘limi muqarrar insonning o‘g‘li, Lyutiye esa – O‘rtayer elflarining qiroli Tingolning qizi bo‘lgan. Lyutiye kurrai zamin farzandlari orasida eng go‘zal qiz sanalgan. Uning go‘zalligi shimol yerlaridagi tuman ustida yarqiragan yulduz shu‘lasiga o‘xshatilgan bo‘lib, yuzidan nur taralgan. O‘sha davrda xizmatida mordorlik Sauron bo‘lgan Buyuk Dushman shimolda, Angbandda yashagan. G‘arb elflari O‘rtayerga qaytib, o‘g‘irlangan silmaril javohirini qaytarib olish maqsadida unga qarshi urush boshlashgan. Odamlarning ajdodlari ham elflar bilan yelkama-yelka turib jang qilishgan. Biroq Dushman ustun keldi, Baragir halok bo‘ldi, Beren esa omon qolib, dahshat tog‘larini oshib o‘tgancha, Neldoret o‘rmonidagi yashirin Tingol qirolligiga qochib keldi. Bu yerda u schrlangan Esgalduin soyi yaqinidagi yalanglikda qo‘shiq aytib, raqs tushadigan Lyutiye ga ega bo‘lib, unga qadimiy tilda «bulbul» ma‘nosini anglatadigan Tinuviel deya ism berdi. Oldinda ularni ko‘p musibatlar kutib, ikkalasi xayrlashgan. Tinuviel Berenni Sauronning zindonidan xalos etdi. Ikkalasi ko‘plab xavf-xatar va qiyinchiliklarni boshdan kechirib, Lyutiye uchun to‘y evazi tariqasida qizning otasi Tingolga topshirish maqsadida Buyuk Dushman tojidan silmaril javohirini sug‘urib olishdi. Ushbu javohir o‘sha zamonning jamiki javohirotlari

orasida eng ulugʻi boʻlgan. Biroq Berenni Angband darvozasidan chiqqan boʻri gʻajib tashlab, xotini Tinuvielning qoʻlida jon berdi. Tinuviel ham oʻlimi muqarrarlar qismatini tanlab, erining izidan borgancha vafot etishni istadi. Dostonda aytilishicha, ikkalasi ayirish dengizi ortida yana uchrashishgan va muayyan vaqt oʻtib, yorugʻ dunyo sarhadlarining tashqarisidagi yashil oʻrmonlarda kezib yurishgan. Shunday qilib, elf qirollarining sulolalasi orasida faqat Lyutiyeu Tinuvelgina vafot topib, bu yorugʻ dunyoni tark etgan. Oʻsha qizni juda yaxshi koʻrgan elflar uchun bu ogʻir judolik boʻlgan. Baʼzi qadimiy odamlarning naslnasabi Lyutiyeudan boshlangan. Lyutiyeuening ajdodlari hali tirik boʻlib, aytilishlaricha, uning avlodi hech qachon yoʻq boʻlib ketmaydi. Rivendellik Elrond ham oʻsha sulolaga mansub. Beren bilan Lyutiyeudan Tingolning merosxoʻri Dior tugʻilgan, undan esa – Oq Elving dunyoga kelgan. Bu qizga Erendil uylangan, ikkalasidan bugungi kunda Yovvoyi oʻlka deya nomlanadigan Numenor qirollari tugʻilgan.

Hobbitlar qissa aytayotgan Musofirning qizgʻish olov xira yoritayotgan qatʻiy qiyofasi, gʻayratli yuzi va nigohi yarqirayotgan koʻziga qarab oʻtirishibdi. Kutilmaganda Zavert choʻqqisi ustidagi yulduzli qora osmonda xira yorugʻlik paydo boʻldi. Tepalik ortidan oy koʻtarilib, choʻqqi ustidagi yulduzlar xira tortdi.

Qissa nihoyasiga yetdi. Hobbitlar qoʻzgʻalib, ayrimlari kerishib oldi.

– Qarang! Oy koʻtariyapti! – maʼlum qildi Merri. – Tun yarmiga yetgan boʻlsa kerak.

Qolganlar ham boshini koʻtarib, tepalik choʻqqisida, oy tusida maydagina qora narsani koʻrishdi. Oyning xira nuri yoritgan yirik xarsang boʻlsa kerak.

Sem bilan Merri oʻrnidan turib, gulxandan nari ketishdi. Frodo bilan Pin indamay oʻz joylarida oʻtirishdi. Musofir tepalik choʻqqisiga diqqat-la tikilmoqda. Hamma yoq tinch, sokinday goʻyo. Biroq Musofir jim oʻtirgani uchunmi, Frodoning nazarida, havoning sovugʻi yuragigacha singib oʻtganday boʻlib, gulxanga



yanada yaqinroq surildi. Shu fursatda xandaq chetiga ketgan Sem yugurib qaytdi.

– Nimani ko'rganimni bilmadim-u, qattiq qo'rqdim, – dedi u. – Bo'yim barobar tilla to'kib bersangiz ham, xandaqdan chiqmayman. Nazarimda, bu yerga nimadir kelyapti.

– Biron nima ko'rdingmi? – so'radi Frodo oyoqqa qalqib turib.

– Yo'q, ser, hech nima ko'rmadim, lekin nimaligini bilish uchun to'xtab qaramadim.

– Men esa nimanidir ko'rganday bo'ldim, – dedi Merri. – Balkim, menga shunday tuyulgandir, bilmadim. Anavi yerda, g'arb tomonda, oy nuri tekis joyga tushgan yerda ikki-uchta qora sharpa ko'rganday bo'ldim. Shu tomon kelishayotgan edi ular.

– Hammangiz gulxan atrofida yig'iling, lekin olovga teskari o'girilib oling, – buyurdi Musofir. – Qo'lingizga uzunroq tayoq ushlang.

Ma'lum vaqt ular shu holatda indamay, o'rab olgan zulmatga termilganча, xavotirlanib o'tirishdi. Tungi sukunatda biror-bir tovush yoki harakat eshitilmayapti. Frodo jimjitlikni buzmasa, ovozi boricha baqirib yuborishini his etganча o'tirgan joyida tipirchilay boshladi.

– Ana... – pichirladi Musofir. – Nima u?

Xandaq chetida ko'tarilayotgan ko'lanka ko'ringandan ko'ra ko'proq his etildi. Qora sharpa... bir emas, bir nechta. Hobbitlar ko'zga zo'r berib qarashmoqda – ko'lankalar esa tobora o'sib bormoqda. Shubha yo'q, uch-to'rtta baland bo'yli qora sharpa qiyalikda, yuqoridan qarab turishibdi. Sharpalar shu qadar qoraki, tungi osmonning qora teshigiday ko'rinmoqda. Frodo past chalinib, zaharli nafasday tuyulgan hushtakni eshitib, vujudini teshib o'tayotgan sovuqni his etdi. Qora sharpalar asta yaqinlasha boshlashdi.

Dahshatdan qotgan Pin bilan Merri chalqanchasiga yerga yiqilishdi. Sem Frodoga qapishib oldi. Kuchli ayozda qolganday dag'-dag' titrayotgan Frodoning qo'rquvi o'rtoqlarining qo'rquvidan qolishgani yo'q, biroq hozir uning dahsha-

tini daf'atan paydo bo'lgan Uzuk taqish vasvasasi yutib yubordi. Bunday istak vujudini shunday qamrab oldiki, miyasidan har qanday boshqa xayol chiqib ketdi. U arvoqli qo'rg'onni, Gendalf o'z xatida tayinlagan gapini unutgani yo'q, ammo qandaydir kuch har qanday ogohlikni chetga uloqtirishga majbur qilib, Frodo nihoyat taslim bo'ldi. Xalos bo'lishga umid qilmagan, biron-bir yaxshilik, yo yomonlik qilishni istamagan tarzda Uzukni kissadan chiqarib, barmoqqa taqish kerakligini his etdi. Biron nima deyish uchun og'iz juftlay olmayapti. Sohibi katta xavf ostida qolganini bilgan Sem unga qarab turganini his etmoqdayu, harchand urinmasin Sem tomon yuzlana olmadi. Frodo ko'zini yumib, ma'lum vaqt qarshilik ko'rsatishni davom etdi, ammo ko'p o'tmay qarshilik ko'rsatishning iloji bo'lmay qoldi. Zanjirchani kissadan asta chiqarib, Uzukni chap qo'lining barmog'iga taqdi.

Shu zahoti, garchi tevarak-atrof manzarasi o'zgarmas qolayotgan bo'lsa-da, anavi qora sharpalar endi aniq ko'rindi. Frodo ularning qora qobig'i ostiga qarash imkoniga ega bo'ldi. Jami beshta ekan, beshalasining daroz-daroz qomatlari ko'rindi: ikkitasi xandaq yoqasida, uchta asta yaqinlashmoqda. Hammasining yuzi birday rangpar, nigohi o'tkir bo'lib, plash ostida uzun kulrang jubba, boshlarida kumush dubulg'a, holdan ketgan qo'llarida po'lat shamshir ko'rindi. Tobora yaqinlashib kelayotgan sharpalar Frododan ko'z uzishmayapti. Chorasiz qolgan Frodo qilichini yalang'ochladi-yu, quroli shu zahoti qizil tus oldi. Sharpalarning ikkitasi to'xtadi, uchinchi sharpa qolganlarga nisbatan novcharoq, uzun sochi yelkasiga tushgan bo'lib, dubulg'a ostida yarqirayotgan qirollik toji ko'rindi. Sharpa bir qo'lga shamshir, ikkinchisiga pichoq ushlagan. Pichoq va uni ushlagan qo'l xira yorishayotgan sharpa oldinga bir sakrab, Frodoning yelkasiga pichoq sanchdi.

Yerga yiqilgan Frodo o'zining: «O, Elberet Giltoniel!...» – deya baqirganini eshitdi va ayni vaqtning o'zida tanasi bilan dushman oyog'iga urildi. Tunda quloqni qomatga keltirgan qichqiriq yangradi. Yelkasini muzday tig' teshib o'tganini his

etgan Frodo hushini yo'qotar ekan, ko'zini qoplayotgan tuman orasida ikkala qo'liga bittadan yonayotgan shox ushlagan Musofirni ko'rdi. Qilichi qo'lidan tushib ketgan Frodo bor kuchi ila Uzukni yechib, o'ng qo'lining kaftiga mahkam siqib oldi.

## XII BOB

### KECHUV TOMON QOCHISH


Xushiga kelgan Frodo Uzukni kaftiga mahkam siqib yotganini his etdi. Fahmlashicha, yorqin yonayotgan, olov tili baland ko'tarilgan gulxan yaqinida yotibdi. Ustiga uch nafar do'sti engashib olgan.

- Nima bo'ldi? Anavi rangpar qirol qani? – dovdiradi u.

Frodoning tilga kirganini ko'rgan do'stlari rosa xursand bo'lishdi. Savolini esa hech kim tushunmadi. Shovqin tingach, Frodo Semdan do'stlari allaqanday ko'lankalardan o'zga hech narsani ko'rishmaganini, ulardan biri yaqin kelganda sohibi gum bo'lganini ko'rgan, notanish so'zlarni baqirib aytayotgan ovozi yer ostidan chiqayotganini cshitgan Sem dahshatga tushganini angladi. Bundan boshqa narsa ularning ko'ziga ko'rinmagan. Frodoni qorong'ilikda yuzi bilan yerga qaragancha maysada, qilichi tagida qolgan murdaday yotgan tanasiga qoqilib ketib topishgan. Biroq bu ishlar o'tganiga ancha vaqt bo'libdi.

Aftidan, Sem Musofir borasida yana shubhaga borgan ko'rinadi, qorong'ilikdan chiqib kelgan reynjerni ko'rgan Sem qilichini yalang'ochlab, tanasi bilan Frodoni panaladi.

- Qora oltiq emasman men, Sem, - dedi muloyim ovozda Musofir, quti o'chgancha baqrayib turgan hobbitlarga qarar ekan, Semning qo'lini qaytarib, - Ular bilan til biriktirgan ham emasman. Dushman ketidan borib keyingi rejasidan voqif bo'lishga urindim-u, uddalay olmadim. Nima sababdan chekinishgani, nima uchun yana hamla qilishmayotganini hech tushunmayapman. Shunisi aniqki, ular bu yerlardan daf bo'lishdi.



Frodoning kechinmasini eshitgan Musofir uzoq o'yga tolib, boshini sarak-sarak qilgancha chuqur xo'rsindi. Shundan so'ng Pin bilan Merriga ko'proq suv isitib, Frodoning jarohatini yuvib tozalashni buyurdi.

– Frodoni issiq tutish kerak, – tayinladi u.

O'rmidan turib, nari borgan Musofir birozdan so'ng Semni chaqirdi.

– Nima bo'lganini endi anglagandayman, – pichirladi u.

– Dushman malaylarining atigi besh nafari keldi, xolos, nima uchun hammasi kelmadi, hayronman. Fikrimcha, qarshilikka duch kelishgani ular uchun kutilmagan holat bo'lgan. Hozircha chekinishdi, lekin uzoq ketishmaydi. Ertaga tunda yana qaytishadi, agar ulardan qochib qutulmaydigan bo'lsak. Maqsadga erishishlariga oz qolgani, Uzukni ulardan uzoq keta olmasliklarini bilganlari bois yo'limizni poylashadi. O'ylashimcha, Sem, sohibing dushmanga qaram qiladigan halokatli jarohat olganini bilishadi. Qani, bu yog'i nima bo'lishini kutamiz!

Sem o'pkasi to'lib, ko'ziga yosh oldi.

– Noumid bo'lma! – dedi Musofir. – Sen endi menga to'liq ishonishing kerak. Sohibingning loyi men o'ylagandan ham pishiq ekan, garchi buni isbot qilib berishini Gendalf menga bir necha bor shama qilgan bo'lsa-da. Frodo o'lmadi va, o'ylashimcha, u jarohatning yovuz hukmiga dushman kutgandan ham uzoq qarshilik ko'rsata biladi. Qo'ldan kelgancha unga yordam qilaman. Men yo'qligimda uni yaxshilab himoya qil.

Musofir yana zulmat qa'riga kirib ketdi.

Garchi jarohat og'rig'i kuchayib, halokatli sovuq yelkasi-yu biqiniga tarqayotgan bo'lsa-da, Frodo mudramoqda. Do'stlari uni isitib, jarohatini yuvib borishdi. Tun toliqtiradigan darajada sekin o'tmoqda. Musofir topilib kelgan vaqtda osmonni shafaq yoritib, xandaq tong nuridan kulrang tus ola boshlagan edi.

– Mana buni qarang! – xitob qildi Musofir, oyoq ostidagi qora plashni ko'tarib.

Qorong'ida ko'rinmay yerda yotgan plash etagining quyi chetidan bir futcha yuqorida teshik ko'rindi.

– Buni Frodo o‘z qilichi bilan zarba berib teshgan va bu dushmanga yetkazilgan yagona jarohat bo‘lgan, – dedi Musofir. – Dushman malaylariga bizning qurolimiz kor qilmaydi. Halokat yetkazuvchi o‘sha qiroлга qarata berilgan har qanday zarbamiz besamar ketadi. Biroq Elberet ismi har qanday xanjardan qudratli bo‘lib chiqdi... Frodo uchun esa mana bu narsa xavfliroq bo‘ldi.

Yana ikki bukilib egilgan Musofir yerda yotgan ingichka pichoqni ko‘tardi. Yalt etgan pichoq tig‘i kertik bo‘lib, uchi sinib tushgan ekan. Hobbitlar Musofirning qo‘lidagi pichoq kutilmaganida erib, havoga ko‘tarilgan tutun kabi tarqab, faqat sopi qolganча gum bo‘lganini hayrat-la ko‘rib o‘tirishdi.

– Afsuski, aynan mana shu la‘nati pichoq Frodoning tanasiga jarohat yetkazdi, – afsus-la xitob qildi Musofir. – Bunday qurol bilan yetkazilgan jarohatni davolay biladiganlar bugungi davrimizda kamdan kam uchraydi, ammo men ham qo‘ldan kelganча urinib ko‘raman.

Yerga o‘tirgan Musofir qilich sopini tizzasiga qo‘yib, qandaydir g‘alati tilda past ovozda qo‘shiq kuyladi. So‘ng qilichini chetga olib Frodoga yuzlandi-da, hech kim tushunmayotgan tilda bir-ikki og‘iz so‘z aytgach, yon cho‘ntagidan allaqanday o‘simlikning uzun-uzun barglarini chiqardi.

– Bu bargni qidirib topish uzun uzoq-uzoqlarga borib keldim, – tushuntirish berdi u, o‘tni barmog‘i bilan ezganча, o‘tkir hidini chiqarib. – Tepalik yaqinida o‘smaydi, anavi katta yo‘l janubigacha yetib, hididan topdim. Baxtimizga topilganini qarang. Ushbu shifobaxsh o‘simlikni bir zamonlar g‘arblik odamlar olib kelishgan bo‘lib, uni atelas deya tanitishgan. Hozir bu o‘simlik o‘tmishda qishloq aholisi yashagan joylardagina topiladi. Bugungi g‘arbliklar, uning shifobaxsh xususiyatini bilishmaydi. Yovvoyi o‘lkada kezib yuradiganlaridan tashqari, albatta. Atelas juda kuchli vosita, ammo bunday jarohatni davolashga kifoya qilmasligi mumkin.

Musofir o‘simlikni qaynoq suvga solib, hosil bo‘lgan damlama bilan Frodoning jarohatini yuvdi. Damlama bug‘i hammaning ruhini ko‘tarib, ongini ravshanlashtirdi, suvi esa

jarohatga shifobaxsh ta'sir o'tkazib, Frodoning yelkasidagi og'riq sal pasaydi, yonboshiga tarqayotgan sovuq barham topa boshladi. Biroq qo'li ko'tarilmay, barmoqlari bukilmagancha qoldi. Frodo o'z ahmoqligidan pushaymon yeb, irodasizligi uchun o'zini o'zi koyidi: Uzukni barmog'iga taqib dushmanning yovuz izmiga kirishiga mana endi to'la-to'kis ishonch hosil qildi. Ishqilib, umrining oxirigacha majruh bo'lib qolmasinda. Holsizlikdan oyoqqa tura olmasligini his etdi. Yo'lni qanday davom etadi endi u?

Qolganlar ham ushbu masalani muhokama qilishmoqda. Zavertni imkon qadar tezroq tark etishga ahd qilindi.

– Bilishimcha, dushman malaylari bir necha kun davomida aynan shu yerni nazorat qilib borishgan, – fikr bildirdi Musofir. – Gendalf Zavertga kelgan bo'lsa ham yo'lni davom etishga majbur bo'lib, iziga qayta olmagan. Demoqchimanki, yo'limizning eng xavfli joyi shu yer bo'lib, qolgan qismida bu qadar katta xavfga duchor bo'lishimiz ehtimoldan yiroq.

Tong otib, osmon yorishishi bilan sayyohlar tez nonush-ta qilib, narsalarini yig'ishtirishdi. Frodoning yurishga madori yo'qligi bois yukning asosiy qismi o'zaro taqsimlanib, yarador ponini mindi. So'nggi bir necha kun ichida sho'rlik jonivor yaxshi xizmat qildi, to'yib o't yeb, tetiklashdi, etiga et qo'shilib qolganday ham bo'ldi, yangi sohiblariga, ayniqsa, Senga mehr qo'ydi. Aftidan, Bill Fernining jonivorga ko'rsatgan munosabati mana bu mashaqqatli safardan ham battar bo'lgan ko'rinadi.

Yo'lovchilar janub yo'nalishida harakat boshlashdi. Bu esa o'rmonli hududga o'tib olishning o'zga chorasi yo'qligi bois, katta yo'lni kesib o'tish kerakligini anglatadi. Shoshilish kerak. Musofirning aytishicha, Frodoni sovqotishiga yo'l qo'ymay muntazam, ayniqsa, tungi vaqtda gulxan oldida isitib borish kerak. Boz ustiga, olov qolganlar uchun ham himoya vositasi bo'ladi. Musofirning rejasi bosib o'tilayotgan yo'lni qisqartirishdan, ya'ni katta yo'lning yana bir halqasini kesib o'tishdan iborat. Chunki katta yo'lning to'g'ri ketgan yo'nalishi o'zgarib, Zavert sharqida shimol tomon og'gan katta burilish hosil qilgan.

Tepalikning janubiy-g'arbiy qiyaligidan pastga ehtiyotlik-la, shoshmay tushgan yo'lovchilar ko'p o'tmay katta yo'l ko'tarmasiga yaqin borishdi. Qora otliqlarning izi ko'rinmaydi. Biroq yo'lni kesib o'tishar ekan, ikkita qichqiriq yangradi: qandaydir sovuq ovoz chaqirdi, boshqa bir sovuq ovoz unga javob qaytardi. Qo'rqib ketgan hobbitlar zudlik bilan chakalak-zorga kirib ketishdi. Endi ular yanada yovvoyi, so'qmoqsiz hududda yo'l topib borishlari kerak. Butalar va pakana daraxtlar guruh-guruh bo'lib o'sib, oralarida keng sayhonliklar qolgan. O't-o'lan oz o'sgan, bori ham juda dag'al, kulrang tus olgan, daraxt barglari so'lib, aksariyat qismi to'kilib tushgan. G'amnok hududda yo'lovchilarning safari ham g'amgin kechmoqda. Hamma jim. Jarohati og'riyotgan Frodo og'ir yukdan bukilib, boshini xam qilib ketayotgan do'stlariga ma'yus qarab qo'ymoqda. Hatto Musofir ham ta'bi xira, toliqqan ko'rinadi.

Kun yorug'ida kechgan safarning birinchi kuni oxirida jarohat og'rig'i yana kuchaydi-yu, Frodo bu haqda uzoq vaqt indamay keldi. Oradan to'rt kun o'tgan bo'lsa ham hudud xususiyati o'zgarmadi. O'rtda qolgan Zavert asta-sekin kichrayotgan bo'lsa, oldinda ko'rinayotgan olis tog'lar manzarasi tobora ravshanlashib bormoqda. Olisda yangragan anavi qichqiriqdan tashqari, dushman malaylarining qorasi ko'rinmadi. Sharqlik otliqlar sayyohlarning nazoratdan chiqib ketganini fahulab, ta'qib qilayotganining atomati sezilmadi. Bulut to'sgan oyda xira yoritilgan qora sharpalar har qanday fursatda paydo bo'lishi mumkinligi bois, qorong'ilikdan xavfsiragan sayyohlar juft-juft bo'lib tungi navbatchilik joriy etishdi. Ammo daraxt barglari bilan o't-o'laning shitirlashidan tashqari, hozircha hech qanday

qo'ng'irg'ida qilib ketayotgan. Olisda to'rtinchi kundan oldinda pistirma ayushtirayotgandir.

Beshinchi kun xotimasida yo'lovchilar pastlab borgan keng soylik asta ko'tarila boshladi. Musofir yana shimoliy-sharq

tomon yo'l boshlab, oltinchi kuni kichik tepalik cho'qqisiga yetishdi. Sayyohlarning ko'z oldida o'rmonli tepaliklarning tartibsiz guruhidan iborat manzara ochildi. Pastda, o'zlari turgan tepalik bo'sag'asida katta yo'l muyulishini ko'rishdi. O'ng tomonda kulrang daryo quyosh nurida xira mavjlanmoqda. Olisda, toshloq tekislikda esa yana bir daryo tuman pardasi ortida yarqiramoqda.

- Ma'lum vaqt anavi yo'ldan yurishimizga to'g'ri keladi, - ma'lum qildi Musofir. - Elflar Miteytel deb ataydigan Xoarvell daryosiga yetdik. Ushbu daryo Rivendell shimolidagi Etten botqog'idan oqib chiqib ayrimlar Greyflud deb ataydigan Laudvoter daryosiga quyiladi. Dengizga borib quyilishdan oldin u nihoyatda kattar daryoga aylanadi. Mana bu yo'l eltadigan oxirgi ko'prikdan tashqari, Xoarvellni kechib o'tsa bo'ladigan joy, uning Etten botqog'idagi sarchashmasigacha topilmaydi.

- Uzoqda ko'rinayotgan daryoning nomi nima? - so'radi Merri.

- Rivendellning Laudvoter - Bruinen daryosi, - javob berdi Musofir. - Mana bu yo'l ko'prikdan Bruinen kechuvigacha tepaliklar osha ko'p milyaga cho'zilgan. Ammo men o'sha kechuvdan qanday o'tishimiz borasida hali bir qarorga kelganim yo'q. Dushman oxirgi ko'prik yaqinida pistirma uyushtirmagan bo'lsa, biz uchun katta baxt bo'ladi.

Ertasiga tong sahar sayyohlar tepalikdan katta yo'l ko'tarmasiga tushishdi. Sem bilan Musofir oldinroq tushib, yo'l-ni ko'zdan kechirib chiqishdi. Musofirning aytishicha, bu yerda ikki kun muqaddam yomg'ir yog'gan bo'lib, izlarni yuvib tashlagan. O'shandan buyon birorta otliq o'tmagan.

Yo'lovchilar imkon qadar tez yurib, bir-ikki milyadan so'ng oldinda oxirgi ko'prikni ko'rishdi. Qora sharpalar alomati yo'q. Musofir hobbitlarga yo'l yoqasidagi chakalakzor orasiga bekinib olishni buyurib, o'zi josuslik qilib kelgani ketdi.

Ma'lum vaqt o'tgach, shoshib-pishib ortga qaytdi.

- Dushman malaylarining izi ko'rinmaydi, - ma'lum qildi u. - Hayronman, nimadan darak bo'lishi mumkin ekan bu?



Lekin men g'alati narsa topib oldim, – dedi u, kaftida yotgan xira yashil rangli qimmatbaho toshni ko'rsatib. – Ko'prik o'rtasida, loyga aralashib yotgan ekan. Elflar ardoqlaydigan berill toshi. Atayin tashlab ketilganmi, yo birov tushirib qo'rganmi, aytish qiyin, lekin nima qilgan taqdirda ham bu menga umid baxsh etmoqda. Ko'prik orqali o'tishimiz mumkinligini anglatadigan shamaday qabul qilyapman uni, lekin aniq bir dalil topilmas ekan, yo'ldan borish masalasida tavakkal qilmayman.

Nihoyat ular yana yo'lga chiqib, ko'prik ostidagi uchta yirik ravoq orqali oqib o'tayotgan suv shovqinidan tashqari, o'zga tovush eshitmagan holda ko'prikdan eson-omon o'tib olishdi. Bir milyacha yo'l yurgach, sayyohlar o'ng qo'lda boshlangan tor dara oldiga kelib qolishdi. Musofir yo'lni tark etishni buyurib, ko'p o'tmay vahimali tepaliklar bo'sag'asidagi noxush yerda o'sgan qoramtir daraxtlar orasiga kirib ketishdi.

Hobbitlar mudhish yo'lni ortda tashlab ketishganidan xursand, albatta, lekin mana bu hudud tahlikali bo'lib, noxushlik borasida qolishmas ekan. Olg'a yurilar ekan tepaliklar ham tobora balandlashib bormoqda. Tepaliklar yonbag'ri-yu, tepaliklar tizmasida ahyon-ahyon toshdan ko'tarilgan qadimiy devor yoki minoraning xunuk xarobalari uchrab bormoqda. Ponida ketayotgan Frodoning osmonga qarab, o'y surib ketish imkoni bor. U Bilboning safari, yurgan yo'lining shimol tomonidagi tahdid soluvchi minoralar, o'sha yerda, trollar o'rmoni yaqinida yuz bergan birinchi sarguzashti haqidagi hikoyalarini esladi. Frodoning nazarida, hozir ular huddi o'sha hududda yurishganday go'yo.

– Bu yerda kimlar yashaydi? – so'radi u Musofirdan. – Anavi minoralarni kim qurgan, trollarmi?

– Yo'q, trollar maskan qurishmaydi, – javob berdi Musofir. – Bu yerda hech kim yashamaydi. Ko'p asrlar muqaddam bu hududda odamlar yashagan, hozir hech zog' qolmagan. Afsonalarda aytilishicha, ularning ustiga Angmar ko'lankasi tushgan va shu bois juda yovuzlashib ketishgan. Hammasi janglarda halok bo'lib, oxir-oqibat Shimoliy Qirollik halokatga yo'liqqan.

Ko'lanka ushbu zamin ustida hamon hukm surmoqda, tepaliklar esa ko'p asrlar muqaddam unut bo'lib ketgan.

– Bu yerlar kimsasiz, odamlar xotirasidan unut bo'lib ketgan ekan, shuncha gapni sen qayerdan bilasan? – qiziqdi Pin.  
– Qushlar-u, hayvonlar hikoya qilib yurmas, axir, unday qissalarni.

Elendil avlodi o'tmishni unutmaydi, – dedi Musofir. – Rivendellda esa men bilgan narsalardan ko'proq narsalarni yodda saqlashadi.

– Tez-tez borib turasanmi, Rivendellga? – so'radi Frodo.

– U yerda men bir zamonlar uzoq yashaganman, shu bois, vaqt topishim bilan borib turaman, – javob berdi Musofir. – Qalhim o'sha yerda qolgan, lekin Elrondning xonadoni ming ajoyib bo'lmasin, bir yerda uzoq o'tira olmayman.

Sayyohlar tepaliklar tizimi qurshoviga kirishdi. Bruinen daryosiga olib boradigan yo'l ham, ortda qolgan daryo ham endi ko'rinmayapti. Yo'lovchilar jimjitlik hukm surayotgan, devori tik ko'tarilgan uzun soylikka yetishdi. Yuqoridagi osma qoyalarda daraxtlar o'sib, toshlarning darz ketgan joylaridan osilib tushgan ildizlari o'zaro chigallashib ketgani pastdan aniq ko'rinmoqda.

Yo'l yurib charchagan hobbitlar asta-sekin ilgarilab, qulagan daraxt tanalari, singan qoyalar orasidan yo'l ochib borishmoqda. Frodo qiynalmasligi uchun tik tushgan yoki tik ko'tarilgan qiyamalarni chetlab o'tishmoqda, biroq ba'zan tor darada boshqa yo'l topishning iloji bo'lmayapti. Ular ikki kundan buyon shunday yo'lsizlikda yurib, mana endi yomg'ir ostida qolishdi. G'arbdan esgan barqaror shamol olisdagi dengizda ko'tarilgan bulutlarni haydab kelib, tepaliklar ustiga yomg'ir qilib to'kmoqda. Qorong'i tushguncha ipidan ignasigacha shalabbo bo'lib, gulxan yoqishning ilojini qila olmagan hamrohlarning tunash joyi g'amgin bo'ldi. Ertasi kuni uchragan tepaliklar yanada tiklashib, sayyohlar yo'nalishni shimol tomon o'zgartirishga majbur bo'lishdi. Zavertni tark etishganiga o'n kun bo'lib, yegulik zaxirasining oxiri ko'rinib qolganidan

Musofir tashvishga tusha boshladi. Yomg'ir esa o'chakishganday, tinmay quymoqda.

Kechasi ular yo'lni devorday to'sgan tik qoya oldida to'xtashdi. Uning darz ketgan joyi keng bo'lib, o'ziga xos g'or hosil bo'lgan. Frodo tinchini batamom yo'qotdi. Sovuq va zax jarohat og'rig'ini chidab bo'lmas darajada kuchaytirmoqda. Og'riq azobi bilan dahshatli sovuq uyqu bermayapti. Joni og'riyotgan Frodo tinchini topolmay u yonidan bu yoniga yonboshlab, tunning sirlil tovushlariga quloq solmoqda: shamol qoyalarga urilib shovqin solmoqda, hamma yoqda suv tommoqda, ahyon-ahyon nimadir tarsillab, tosh to'kilmog'ida. Frodo qora sharpalar bo'g'ib o'ldirish niyatida yaqinlashib kelayotganini his etib, yotgan joyiga o'tirib oldi, ammo bukehayib o'tirgancha trubka chekib, zulmatga qarab o'tirgan Musofirning belidan boshqa narsani ko'rmadi. Yana yonboshlab, birozdan so'ng notinch uyg'uga ketdi. Tushida ona yurti Shirdagi bog'ida maysa tepalab yurganini ko'rdi, faqat bog'i negadir jozibasiz, daraxtlari nimjon, bog' panjarasi ortida turgan qora ko'lankalardan ancha pastday tuyuldi.

Yomg'ir tongga yaqin tingan bo'lsa-da, qalin bulut osmonni to'sgancha qolgan, faqat u yoq, bu yog'idagina moviy osmon tilimlari ko'rinish bermoqda. Shamol kuchayib, ertaroq yo'lga chiqishning iloji bo'lmadi. Musofir hobbitlarga nochor sovuq nonushtadan keyin qilt etmay qoya panasida o'tirishni buyurib, tunash joyini yolg'iz o'zi tark etdi va oldinda nima kutayotganini bilish maqsadida qoyaga chiqdi. Ammo topib kelgan gapi hech kimga taskin bermadi.

– Shimol yo'nalishida uzoq ketib qolibmiz, – dedi Musofir. – Janub tomon yo'l topish kerak endi. Yo'nalishni o'zgartirmas ekanmiz, Rivendellning shimolida, ancha uzoqda joylashgan Ettendeylsga borib qolamiz. U yer menga notanish bo'lib, trollar hududi sanaladi. Balkim, u yerdan o'tib, Rivendellga shimol tomondan kirsa ham bo'lar, biroq u holda yo'limiz haddan ortiq cho'zilib ketadi. Boz ustiga u yo'lni men yaxshi bilmayman, yeguligimizning ham oxiri ko'rinib qoldi.

Kunning qolgan yarmida sayyohlar qoya oshish bilan band bo'lishdi. Ikkita tepalik orasidan o'tsa bo'ladigan yo'l topildi. U yerdan janubiy-g'arbiy yo'nalishda cho'zilgan soylikka o'tishdi. Sayyohlar aynan shu yo'nalishda yurishni niyat qilishgan edi, biroq kun oxiriga kelib ularning yo'li yana baland, cho'qqilari osmon tusida o'tmas arraning tishlaridek ko'rinayotgan tepalikka duch kelishdi. Endi ikki yo'ldan birini: yo ortga qaytish, yo murakkab tepalikdan oshib o'tishni tanlash kerak.

Yo'lovchilar tepalikni oshib o'tishga ahd qilishdi. Biroq bu ish oson kechmadi. Frodoga otdan tushib, piyoda tarmashishga to'g'ri keldi. Shunday bo'lsa ham serqoya tepalikda yo'l topib yurish juda mashaqqatli kechdi. Tepalik cho'qqisiga tinka-madorlari qurib chiqishganda kun o'tib, qosh qorayishga ulgurdi. Hamrohlar ikkita baland o'rkach o'rtasidagi tor so'qmoqqa joylashishdi. Frodo toshda yotgan yerida dag'-dag' titramoqda. Uning chap qo'li falaj bo'lib qolgan, biqini bilan yelkasi muzday panja changallab olganday og'rимоqda. Ko'zi atrofdagi daraxt va qoyalarni ko'lanka parda ortidan qaraganday ko'rmoqda.

– Yo'lni davom eta olmaymiz, – dedi Merri Musofirga.

– Frodoga og'ir keladi. Qattiq xavotirdaman. Nima qilsak ekan? Rivendellga yetib olsak, dardiga davo topiladimi. o'zi?

– Yetib borsak ko'ramiz. – javob berdi Musofir. – Ushbu Yovvoyi o'lkada ortiq bir nima deya olmayman. Aynan uning jarohati uchun ham juda shoshimoqdaman. Bugun yo'lni davom eta olmasligimiz to'g'ri. Lekin,

– Sohibimga nima qilgan o'zi? – past ovozda so'radi Sem. – Yarasi deyarli bitib, o'rnida sovuq eq chandliqdan o'zga narsa ko'rinmaydi-yo'?

– Qandaydir tashvishli, qandaydir qayg'inchilik bor. – dedi Frodo. – Uning ko'zlarida qandaydir qayg'inchilik bor.

– Qandaydir qayg'inchilik bor. – dedi Frodo. – Uning ko'zlarida qandaydir qayg'inchilik bor.

Tepalik cho'qqisida sovuq yanada kuchli ekan. Bu yerda eski qarag'ay bo'lib, uning egri-bugri ildizlari ostida nimasi bilandir qimmatbaho tosh qazib olingan kongga o'xshash g'or bor

ekan. Sayyohlar ushbu ildizlar ostiga o't yoqishdi. Uch nafar hobbit o'tirgan joyida bukchayib oldi. Sovuq shamol esib. Pastdagi daraxtlarning ingrab g'ijirayotgani eshutilmoqda. Mudrab yotgan Frodoning nazarida, tepalik uzra nimadir qora qanotini qoqib uchmoqda. O'sha nimadirni mingan ta'qibchilar tog'ning har bir tirqishini ko'zdan kechirib chiqishmoqda.

Chiroyli tong otdi. Osmon musaffo, havo toza, yomg'ir yuvib tozalagan tevarak-atrof xira yorishgan. Ruhi biroz ko'tarilgan hobbitlar sal bo'lsa ham isinib olish uchun quyosh chiqishini sabrsizlik-la kutishmoqda. Kun yorishishi bilan Musofir o'zi bilan Merrini olib hududni josuslik qilib kelish uchun pastga tushib ketdi. Uning quyosh yorqin yoritgan mahalda olib kelgan bu galgi gapi oz bo'lsa ham taskin berdi. Aniqlanishicha, endi ular nisbatan to'g'ri yo'nalishda ketishmoqda. Agar mana bu tepalikdan yo'nalish to'g'ri saqlangan holda tushiladigan bo'lsa, tog' tizmasi hamisha chap qo'l tomonda qolishi lozim. Oldinda, muayyan masofa narida Musofir suv havzasining mavjini ilg'abdi. Demak, Loudvoter daryosi yaqin, endi u, garchi o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa-da, kechuv joyiga eltadigan yo'l daryoning bu sohilida, shu yaqin orada ekanini biladi.

– Biz yana yo'lga chiqishimiz kerak, – ta'kidlab o'tdi u. – Mana bu tepaliklarni oshib o'ta olmasligimiz kunday ravshan. Qanday xavf kutayotgan bo'lmasin, katta yo'l – bizni kechuv joyiga eltadigan yagona umiddir!

Yengil tamaddi qilib olgach, sayyohlar zudlik bilan yo'lga chiqishdi. Tepalikning janubiy qiyamasidan shoshmay tushishdi. Tushish jarayoni kutilgandan ham oson kechdi. Chunki tepalikning bu tomoni unchalik tik emas. Ko'p o'tmay Frodo yana ponini minib oldi. Bill Fernining sho'rlik qari ponisi yo'l tanlab yurishni yaxshi bilar ekan. Hammaning kayfiyati ko'tarinki. Hatto Frodo ham tong yorug'ida o'zini yengil his etmoqda, ammo unga vaqti-vaqti bilan ko'rinayotgan tuman pardasi ko'z o'ngini xiralashtirib, ko'z ishqalab borishga majbur qilmoqda.

Hammadan oldinga chiqib olgan Pin kutilmaganda orqaga o'girilib, qolganlarni chaqirdi:

– Qarang, so‘qmoq!

Pin adashmabdi, oldindagi o‘rmondan chiqqan so‘qmoq ilang-bilang bo‘lib ortda qolgan tepalik ustiga ko‘tarilgan. Ayrim qismlari o‘t o‘sib ko‘zga tashlanmay qolgan, ba‘zi joylarini singan daraxt tanasi yoki tepadan qulab tushgan qoya parchasi to‘sib qo‘ygan, lekin ayrim qismlari ko‘p toptalgan. Ushbu so‘qmoqni baquvvat qo‘llar, vazmin oyoqlar ochgani ko‘zga tashlanib turibdi. U yoq, bu yoqda sindirilib nari uloqtirilgan eski daraxtlar, surib qo‘yilgan yirik xarsanglar yotibdi.

Tushish oson kechgani bois sayyohlar ma‘lum vaqt ushbu so‘qmoqdan yurishdi. Ehtiyotlik-la ilgari lab borishar ekan, qorong‘i o‘rmonga kirilgan sari so‘qmoq kengayib, ravshan ko‘rinayotgani bois, xavotir oshaverdi. Ko‘p o‘tmay yo‘lovchilar oqqarag‘ay qatoriga yetishdi. Bu yerda so‘qmoq tepalikdan tik tushib, qoyali bo‘rtig‘ini aylanib o‘tgancha, chap tomonga keskin burilibdi. Bo‘rtiqqa yetib, tevarak-atrofga nazar solgan sayyohlar so‘qmoqning daraxtlar to‘sgan tosh devor oldida yakun topgani, devorda esa sinib, bittagina oshiq-moshig‘ida osilib turgan eshikni ko‘rishdi

Yo‘lovchilar yaqinroq borib, eshik qarshisida to‘xtashdi. Uning ortidagi g‘or nimqorong‘i bo‘lib, tashqaridan hech narsa ko‘rinmayapti. Musofir, Sem va Merri bor kuchini ishga solib eshikni sal kengroq ochishdi. Shundan so‘ng Musofir bilan Merri ichkariga kirib ketishdi. Yerda yotgan suyaklar uyumi, ichi bo‘sh qadimiy ko‘zalar va singan tuvaklardan boshqa narsa ko‘rinmadi.

– Hech shubha yo‘qki, bu trollar g‘ori! – dedi Pin. – Qani, ikkalangiz, tez chiqing-chi u yerdan. Mana bu so‘qmoqni kim yotqizganini endi aniq bilamiz.

– O‘ylashimcha, oshiqishga hojat yo‘q, – fikr bildirdi ovozi ichkaridan chiqqan Musofir. – Bu trollar g‘ori, albatta, lekin unda ko‘pdan buyon hech kim yashamaydi. Qo‘rqmang, lekin yo‘limizni ehtiyotlik-la davom etaveramiz va nima bo‘lishini ko‘ramiz.

Eshikdan nari ketgan so‘qmoq o‘ngga burilib, qiyalikdan

qalin o‘rmonga kirib ketdi. Qo‘rqib ketganini Musofirga ko‘rsatishni istamagan Pin sir boy bermay Merridan oldinga chiqib oldi. Ikkalasi ning ortidan Sem bilan Musofir poni mingan Frodo ning ikki tomonida borishdi. Chunki so‘qmoq shunchalik kengki, unda to‘rt-besh nafar hobbit bir chiziqda yonma-yon saf tortib yurish imkon bor.

Hamrohlar ko‘p yurishmadi. Merri hamrohligidagi Pin yugurgancha ortga qaytdi. Ikkalasi ning yuzida dahshat qiyofasi qotib qolgan.

– Anavi yerda trollar o‘tiribdi! – og‘ir hansiragancha xitob qildi Pin. – O‘rmon yalangligida, bu yerdan juda uzoqda. Daraxtlar orasida ko‘rib qoldik. Nihoyatda bahaybat ekan, ular!

– Yuringlarchi, borib ko‘raylik-chi, – dedi qo‘liga tayoq olgan Musofir.

Frodo indamadi, Semning yuzida ham qo‘rquv alomati ko‘rindi.

Quyosh baland ko‘tarilgan, uning barglar orasidan singib o‘tgan nuri o‘rmon yalangligini yaxshi yoritmoqda. Hobbitlar ushbu yalanglik chetida to‘xtab, nafas chiqarmay daraxtlar ortidan mo‘ralashdi. Darhaqiqat, o‘rmon yalangligida uchta troll bor ekan. Ulardan biri engashib olgan bo‘lsa, ikkita sherigi unga qarab turibdi.

Musofir xotirjam oldinga chiqdi.

– Daf bo‘l, eski tosh! – dedi u, engashib olgan trollning ketiga qo‘lidagi tayoq bilan qattiq zarb berib.

Tayoq sinib ikki bo‘linganiga qaramay, hech narsa ro‘y bermadi. Hobbitlar hayrat-la ingrab yuborishdi, hatto Frodo ham kulib yubordi.

– Oilamiz tarixini unutib qo‘yibmiz-u! – dedi u. – Bir vaqtlar Gendalf o‘n uch nafar gnomdan qanday taomlar tayyorlash mumkinligi borasida bahslashishga majbur qilgan trollarlari, bu!

– O‘sha joyga yetib kelganimizni xayolimga ham keltirmagan edim! – xitob qildi Pin.

Bir vaqtlar bu yerda bo‘lib o‘tgan voqeani Pin yaxshi bi-

ladi. Bilbo bilan Frodo uni ko'p marta aytib berishgan. Voqea-ning haqqoniyligiga Pin unchalik ishonmagan, albatta. Mana hozir ham o'z ko'zi bilan ko'rib turgan bo'lsa-da, trollarga shubha ila qarab, biron-bir jodu ularni hozir jonlantirib yuborishidan cho'chimoqda.

– Sizlar nafaqat oila tarixini, balki trollarga doir tegishli ma'lumotlarni unutib yuborgansiz, – tushuntirish berdi Musofir. – Hozir kun yorug', quyosh charaqlab turibdi, sizlar esa yugurib kelib o'rmon yalangligida bizni kutib o'tirgan tirik trollar bilan meni qo'rqitishga urinmoqdasiz! Nima bo'lgan taqdirda ham siz trollardan birining qulog'iga qush uya solganini ko'rishingiz kerak edi. Bunday bezak esa tirik trollga xos emas!

Hamrohlar miriqib kulishdi. Frodo o'zini nisbatan yengil his etdi, Bilboning eng birinchi muvaffaqiyatli sarguzashti haqidagi xotiralar ruhiga ancha dalda berdi. Boz ustiga, uni quyosh isitib, ko'z oldidagi tuman biroz tarqaganday bo'ldi. Hamrohlar yalanglikda dam olib, bahaybat troll oyog'ining soyasida yengil tamaddi qilib olishdi.

– Kunning yorug'ida kimdir qo'shiq aytib berar, balkim? – dedi Merri, ovqatlanib bo'lgach. – Ko'pdan buyon na qo'shiq eshitdik, na bir rivoyat.

– Zavertdan yo'lga chiqqanimizdan buyon, ta'kidlab qo'ydi Frodo. – Mendan xavotir olmang! – qo'shimcha qildi u, hamma unga yuzlanganini ko'rib. – O'zimni nisbatan yaxshi his etyapman-u, qo'shiq aytishga layoqatim yetmasa kerak. Balkim, Sem o'z xotirasini titkilab, biron nima topib chiqar bizga?

– Boshla, Sem! – dedi Pin. – Sening miyangda biz eshitmagan ko'p narsalar bor.

– Bilmadim, ehtimol, bordir, – javob berdi Sem. – Urinib ko'raymikan? Sizlarga yoqishi horasida ikkilanaman-da. Bu esh she'riyat emas, albatta, agar nima demoqchi bo'lganimni anglagan bo'lsangiz, shunchaki, kelishmagan gaplar. Anavi eski nomlar menga o'sha she'rni esga soldi.

O'rnidan turib, qo'lini maktabda o'rgatilgandek orqada qovushtirgan Sem qo'shiq aytib berdi.



– Buni ogohlantirish deb bilish kerak! – kulib yubordi Merri. – Shuning uchun qo‘l bilan emas, tayoq bilan urgan ekansan-da, Musofir!

– Qayerdan bilasan bu qo‘shiqni, Sem? – so‘radi Frodo. – Ilgari eshitmagan ekanman bu misralarni.

Sem allanima g‘udullab qo‘ydi.

– O‘zing yozgansan, tushunarli, – dedi Frodo. – Safari-miz boshlanganidan buyon Sem Skrombi haqida men ko‘p narsalarni bilib oldim. Dastlab u payimga tushgan josus bo‘lib chiqdi, endi esa masxaraboz ekanligini ko‘rsatdi. Safar oxirida schrgar yoki jangchi bo‘lib chiqsa, hech hayron bo‘lmayman!

– Umid qilamanki, ish u darajaga borib yetmaydi, – dedi Sem. – Schrgar ham, jangchi ham bo‘lmoqchi emasman.

Kun yarmidan o‘tgach, sayyohlar o‘rmon orqali pastga tushishni davom etishdi. Aftidan, ular ko‘p yillar muqaddam Gendalf, Bilbo va gnomlar bosib o‘tgan yo‘ldan borishayotgan ko‘rinadi. Bir necha milya yurgach ular katta yo‘l ustidagi tepalik cho‘qqisiga yetishdi. Bu yerda katta yo‘l Xoarvell daryosining tor o‘zanini chap qo‘l tomonda, olisda qoldirib o‘rmonlar, chakalakzor qoplagan qiyalamalar orqali ilang-bilang o‘tgancha kechuv joyiga, u yerdan tepaliklar tizimi, so‘ng tog‘li hududga ko‘tarilib ketmoqda. Musofir shamol yalab, rutubatli ob-havo kuchli ta‘sir o‘tkazgan, sirtiga gnomlar runasi bitilgan bo‘lib, maxfiy belgilar yuritilgan sal naridagi toshga imo qildi.

– Aftidan, ushbu tosh trollar xazinasi bekitilgan joy ko‘rsatkichi sifatida o‘rnatilgan ko‘rinadi, – fikr bildirdi Merri. – Qiziq, o‘sha xazinaning qancha qismi Bilbo bilan Frodoning ulushi sifatida qoldirilgan ekan, a?

Toshga razm solgan Frodo bir zamonlar Bilbo uyga bugungi kunda ayrilish qiyin kechayotgan qimmatbaho buyum olib kelganiga achindi.

– Hech qancha qoldirilmagan, chunki Bilbo o‘z ulushidan to‘la-to‘kis voz kechgan, – ma‘lum qildi u. – O‘sha xazina tolon-toroj mahsuli bo‘lgani bois, o‘z ulushini o‘ziniki deb bilmagan.

Erta tushgan oqshomning uzun ko‘lankalarida xotirjam yo‘l yurildi. Yo‘lda hech kim ko‘rinmadi. Boshqa yo‘l bo‘lmagani bois, sayyohlar tepalikdan pastga tushib o‘ngga burilishdida, imkon qadar tez yurishdi. Ko‘p o‘tmay, tepaliklar tizimining alohida tarmog‘i ufq ortiga botayotgan quyoshni batamom to‘tdi. Tog‘li hududda ko‘tarilgan sovuq shamol bu yergacha yetib keldi.


Sayyohlar yo‘lni tark etib, tunash uchun qulay joy qidira boshlashdi. Shu fursatda orqa tomonida ot tuyog‘ining dukurdukuri eshilib, deyarli unut bo‘layotgan qo‘rquv hissi vujudni boz qamradi. Hamrohlar atrofga alanglab, yo‘l ilang-bilang ketgani bois hech nimani ko‘rishmadi. Yo‘ldan imkon qadar uzoqlashib, reza meva butalari qalin o‘sgan nishablikka ko‘tarila boshlashdi. Ko‘p o‘tmay ular chakalakzorga kirib ketishdi. O‘sha yerda, ya‘ni taxminan o‘ttiz futcha balandlikda turib oqshom tusida kulrang ko‘rinayotgan yo‘lni ko‘zdan kechirib chiqishdi. Ot dupuri bilan birga nimadir yengil jaranglayapti.

– Qora otliqning oti emas u, – dedi diqqat-la quloq tutgan Frodo.

Qolgan hobbitlar ham sevinch-la ma‘qullashdi-yu, panalikda qilt etmagancha qolishdi. Ular ko‘pdan buyon ta‘qib ostida qolib kelishayotgani bois, har qanday tovush ularga mudhish va tahdidli tuyuladi. Biroz oldinga engashib, kaftini qulog‘iga bosgan Musofirning yuziga esa tabassum yugurdi.

Qosh qoraymoqda, buta barglari asta shitirlamoqda. Yo‘lda kelayotgan anavi ot qo‘ng‘iroqchalarining jarangi tobora yaqinroq, yanada aniqroq yangramoqda. Banogoh ular pastda qolgan katta yo‘lda tez yugurib ketayotgan oq otni ko‘rishdi. Oqshom ko‘lankasida uning abzali huddi haqiqiy yulduzlar qadalgan kabi yaltiramoqda. Chavandozning qaytarma qalpog‘ini orqaga tashlab olgan plashi bilan tilla tusli uzun sochi shamolda hilpiramoqda. Frodoning nazarida, chavandozning kiyimi-yu, otining abzali oq shu‘la taratmoqda.

Panogohdan sakrab chiqqan Musofir baqirib chaqirgan-cha pastga, katta yo‘lga qarab yugurdi. Ammo chavandoz



shundoq ham abzalni tortib, otini to'xtatgan, tepaliklarni ko'zdan kechirayotgan edi. Musofirni ko'rib otdan tushdi-da, unga peshvoz chiqdi: «Anna vedun dyundeyn! Maye govannen!» Uning nutqi, jarangli ovozi zig'irday bo'lsin, shubha qoldirmadi – chavandoz elf. Dunyoda elflarning yuzlariday barno chehralar bo'lmaydi. Biroq uning ovozida shoshilish va qo'rquv ohangi eshitilganday bo'ldi. U Musofirga nimalarnidir shosha-pisha uqtirmoqda.

Musofirning imlab chaqirganini ko'rgan hobbitlar butalar orasidan chiqib yo'l tomon oshiqishdi.

– Tanishing, bu kishi Glorfindel, u Elrondning xonadonida yashaydi, – dedi Musofir.

– Salom! Va nihoyat uchrashdik, ko'rishdi elf Frodoga murojaat qilib. – Men Rivendelldan yo'llangan vakilman. Yo'lda sizlarga xavf tahdid soladi, degan xulosaga bordik.

– Bundan chiqdi, Gendalf Rivendellga yetib boribdi-da? quvonch-la so'radi Frodo.

– Rivendelldan chiqib ketayotganimda hali yetib bormagan edi, biroq u yerdan chiqqanimga to'qqiz kun bo'ldi, balkim, kirib borgandir ham, – javob berdi Glorfindel. Noxush yangilikdan xabar topgan Elrond xavotirga tushdi. Baranduinning narigi sohilida sayr qilib yurgan qabiladoshlarimdan biri bizga xabar yo'lladi. Unda aytilishicha, To'qqizlik biz yashayotgan dunyo yo'llariga chiqibdi. Sizlar esa, Gendalf hamon topilib kelmagani bois, yo'l boshlovchisiz, og'ir yuk bilan yo'lga chiqibsiz. To'qqizlikka ochiqdan ochiq qarshi chiqishga jur'at etadiganlar hatto Rivendellda ham juda kam topiladi. Sizlar To'qqizlik ta'qibidan xalos bo'lish maqsadida yo'ldan og'ib uzoq ketib, oxir-oqibat Yovvoyi o'lkada adashib qolishingiz mumkinligini bilgan Elrond bizlarni taqsimlab shimol, g'arb va janub tomonlarga yubordi

Men mana bu katta yo'lni nazorat ostiga olib, Miteyter orqali o'tgan ko'prik tomon yo'l oldim va yetti kun muqaddam u yerga belgi tashlab ketdim. Sauronning ko'prikda turgan uchta malayi meni ko'rib qochdi. Ularning izidan borib, g'arb tomon

yo'l oldim. U yerda yana ikkitasini ko'rdim, beshalasi burilib, janub yo'nalishida ketishdi. O'sha kundan buyon izingizni qidirib, ikki kun oldin topdim. Sizlarni qidirib ko'prikkacha yetdim, bugun esa yana tepalikdan tushganingizni angladim. Yuringlar, to'xtamanglar! Gaplashib o'tirgani vaqt yo'q. Modomiki, shu yerda ekansiz, xavfli bo'lsa ham yo'ldan borishimiz kerak. Ortimizda beshtasi bor. Izimizni topsa bas, yelday quvib yetishadi. Biroq bu hali hammasi emas. Sauron malaylarining yana to'rttasi qayerdaligini bilmayman. Kechuvda poylayotgan bo'lsa kerak.

Glorfindel gapirar ekan, oqshom ko'lankalari qalinlashib bordi. Frodo juda toliqqan. Quyosh botgach ko'zi oldidagi tuman qalinlashib, do'stlarining yuzi xiralashdi. Jarohatiga kuchli og'riq kirib, badanini sovuq qamradi. Semning qo'lini mahkam siqqancha og'riqdan ingrab yubordi.

- Sohibimning tobi yo'q, u og'ir yaralangan, - dedi Sem darg'azab ohangda. - Kun botgandan keyin yura olmaydi. Dam berish kerak unga.

Yerga yiqilayotgan Frodoni tutib olgan Glorfindel hobbitning yuziga xavotir-la qaradi. Musofir unga dushman malaylarining tungi hamlasi haqida qisqacha aytib berib, Frodoga sanchilgan pichoq sopini chiqarib elfga ko'rsatdi. Glorfindel sopni titragan qo'li bilan olib, ko'zdan kechirib chiqdi.

- Sizlarga ko'rinmaydi-yu, lekin bu qurolga nihoyatda yovuz sehr-jodu qo'llanilgan, - xulosa qildi elf. - Elrondning uyiga yetgunimizcha yoningda saqlab bor uni, Aragom. Ammo ehtiyot bo'l, imkon qadar qo'lingga olma! Afsuski, bunday jarohatlarni davolash mening vakolatimga kirmaydi, lekin qo'ldan kelgancha yordam beraman va ayni vaqtda yo'lni zudlik bilan, dam olmay davom etishni talab qilaman.

Frodoning yelkasidagi jarohatni paypaslab ko'rgan Glorfindel xavotir-la qoshini chimirdi. Frodo esa qo'li va yelkasi isib, vujudini qamragan sovuq barham topayotgani, jarohatining og'rig'i qolayotganini his etdi. Bulutlar tarqab, dunyo yorish-ganday bo'ldi. Do'stlarining yuzlari aniqroq ko'rindi, qalbiga



umid, tanasiga kuch qaytdi.

– Mening otimni minib olasan, – dedi Glorfindel Frodoga. – Oyoq qo‘yadigan uzangini qisqartirib beraman. Sen egarga yaxshilab joylashib olishing kerak. Qo‘rqma, otim o‘zim o‘tqizgan chavandozni hech qachon yiqitmaydi. U yengil, bir tekis yuguradi. Agar xavf yaqin kelguday bo‘lsa, shunaqangi tez yuguradiki, dushmanning birorta oti quvib yeta olmaydi.

– Yo‘q, minmayman! – rad etdi Frodo. – Do‘stlarimni xavf changalida qoldirib, o‘zim Rivendellga qochmayman.

– Aksincha, sen yo‘q joyda do‘stlaring xavfsiz bo‘ladi, – kulib boqdi Glorfindel. – Dushman faqat sening payingga tushgan. Sen qanchalik nari bo‘lsang, bizga shuncha yaxshi bo‘ladi, dushman malaylari bizni o‘z holimizga qo‘yishadi. Aynan sen, Frodo va sen ko‘tarib yurgan buyum hammamizning boshimizga balo olib kelmoqda.

Bu borada e‘tiroz uchun so‘z topa olmagan Frodo hamrohlarining yordami bilan Glorfindelning otiga minib oldi. Hobbitlar yelkasida ko‘tarib yurgan yukning asosiy qismi Poniga ortildi. Shunday ekan. Yuki yengillashgan do‘stlar qadamni tezlatishdi. Biroq ko‘p o‘tmay pakanalar novcha bo‘yli, oyog‘i yengil elfdan ortda qolishadigan bo‘ldi. Atrof qop-qorong‘i, osmonda na oy ko‘rinadi, na bir yulduz. Glorfindel tong sahar-gacha tinim bermadi. Pin, Merri va Sem yurgan yo‘lida mudrab bormoqda, hatto Musofir ham toliqqanidan yelkasini quyi solib olgan. Egarda o‘tirgan Frodo esa mudrab ketmoqda.

Nihoyat sayyohlar yo‘ldan bir necha yard naridagi chakalazorga kirib, tarashaday qotib uxlashdi. Qo‘riqchilik qilgan Glorfindel ularni uyg‘otganda quyosh baland ko‘tarilib, tungi tuman tarqagan edi.

– Mana bundan ichib oling! – taklif qildi Glorfindel, o‘zining kumush suv idishidan hamrohlarga navbat bilan ozgina-ozgina suyuqlik quyib.

Ichimlik buloq suviday tiniq bo‘lib, og‘iz bo‘shlig‘ida uning ta‘mi ham, issiq-sovuq harorati ham sezilmadi. Lekin ichishlari bilan sayyohlarning kuchi va ruhiy tetikligi tiklandi.

Yeguliklarining so'nggi zaxirasi— quruq non bilan mevani yeb tugatishdi.

Besh soatcha hordiqdan so'ng hamrohlar yana yo'lga chiqishdi. Glorfindel ularni shoshirib, kun bo'yi ikki marda qisqa vaqtga to'xtab dam olishga imkon berdi, xolos. Kechgacha ular sal kam yigirma milyacha yo'l bosib, yo'l o'ngga burilib, tikka Bruinenga tushgan joyga yetishdi. Hozircha hobbitlar ta'qib alomatini ko'rishmayapti ham, eshitishmayapti ham, lekin yuzi xavotir qiyofasini kasb etgan Glorfindel tez-tez to'xtab, atrofga quloq solib boryapti. Bir-ikki marta u Musofir bilan elf tilida nimanidir muhokama qildi.

Biroq yo'l boshlovchilar qanchalik xavotir olishmasin, hobbitlar tunda yurishga madori yo'qligi ko'rinib turibdi. O'larcha charchagan pakanalar o'z oyoqlaridan tashqari boshqa biron nima haqida fikr yuritishga qodir bo'lmay qolishdi. Frodoning og'rig'i ikki hissa kuchaydi, hatto kunning yorug'ida ham uning atrofida kulrang tusli yovuz dud hosil bo'lgan. Endi u tungi vaqtni xush ko'rmoqda, chunki tunda dunyo uning ko'ziga nisbatan bo'sh va yorug'roq ko'rinmoqda.

Ertasiga ertalab yo'lga chiqqan hobbitlar olis safar ularni kuchli charchatganini his etishdi. Kechuv joyigacha esa hali ancha yurish kerak. Imkon qadar tezroq yurishga harakat qilgan pakanalar kalovlanib ketishmoqda.

— Daryoning bu sohilida bizni katta xavf kutadi, — ma'lum qildi Glorfindel. — Yuragim sezib turibdi, ta'qibchilar bizni quvib yetishadi. Kechuv joyida esa ularning pistirmasi kutadi.

Pastlab borayotgan yo'lning ikkala chetida o't-o'lan qalin o'sgan. Hobbitlar toliqqan oyoqlarining og'rig'ini bosish uchun ba'zan maysa tepalab ketishmoqda. Kun yarmida yo'lning katta qarag'ay soyasi tushgan joyiga yetishdi. Yo'l shu yerga kelganda ikki tomonidagi yo'sin qoplagan devori qizil toshli tor daraga kirib ketdi. Darada bosilgan har bir qadam tik devordan aks-sado bo'lib qaytmoqda. Yo'lovchilarga orqada ko'pchilik ta'qib qilib kelayotganday tuyuldi. Nihoyat, yo'l, huddi darvoza orqali o'tganday, ochiq makonga chiqib, sayyohlar oldida qiya

nishablik orqali tushgan, narigi boshi Rivendellga olib o'tadigan kechuvga taqalgan bigizday uzun so'qmoq manzarasi ko'rindi. Kechuvning narigi tomonidagi jigarrang tusli qirg'oq tik ko'tarilgan bo'lib, sohilga chiqib olish uchun ilang-bilang ketgan so'qmoqqa ega. Daryoning narigi tomoni past-baland tepaliklar tizmasidan iborat bo'lib, bora-bora olisdagi xira osmonga sanchilgan baland tog'larga aylangan.

Orqada esa hanuzgacha qadam tovushining aks-sadosi eshitilmoqda, qarag'ay shoxlarida shamol shovqin solmoqda. Orqaga yelka orqali o'girilib diqqat bilan quloq tutgan Glorfindel olg'a sakragancha baqirdi:

– Yugur Frodo! Dushman ortimizda! Yugur!

Oq ot olg'a tashlandi. Hobbitlar qiyalama so'qmoqda yugurib ketishdi, Musofir bilan Glorfindel ularni orqadan himoya qilib borishdi.

Kechuvga eltadigan so'qmoqning yarmiga yetganda ot dukuri eshitildi. Dara darvozasidan Qora otliq chiqib keldi-da, otni to'xtatib, egarida tebrangancha o'tirdi. Uning orqasidan yana bir Qora otliq, keyin yana ikkita Qora otliq chiqib keldi.

– Otni choptir, Frodo! Choptir! – baqirdi Glorfindel.

Frodo biroz ikkilanib qoldi, bir ish ko'rsatish istagi vujudini qamradi. Ot yugurtirmay, o'girilib orqaga qaradi. Bahaybat otlarida o'tirgan qora sharpalar ulkan haykalday, qomatlari ravshan ko'rindi, qolgan narsalar qo'ng'ir tumanga g'arq bo'lgan. Kutilmaganda, Frodo, anavi otliqlar unga turgan joyida kutib turishni imo qilishayotganini idrok etdi. Egar qoshini qo'yib yuborgan Frodoning qo'li qilich dastasiga yugurdi.

– Otni choptir deypman, Frodo! Qoch bu yerdan! – baqirdi Glorfindel va otiga elf tilida baland ovozda buyruq berdi: – «Noro li, noro lim, xofalot!»

Ot shu zahoti o'qday uchdi. Tepalikdagi Qora otliqlar ham Frodoni quvib, ot choptirishdi. Ular Shirda baqirishganday dahshatli tovush chiqarishdi. Qichqiriqqa javoban chap tomondagi daraxt va qoyalar ortidan mudhish na'ra eshitilib, u yerdan yana to'rtta Qora otliq otilib chiqdi. Ularning ikkitasi Frodoning

ortidan, ikkitasi kechuv tomon yugurdi. Frodoning nazarida, Qora otliqlar yelday uchishmoqda, tez yiriklashib, yanada qora-yib borishmoqda.

Yelka orqali o'girilib, orqaga qaragan Frodo do'stlarini ko'rmadi. Qora sharpalar orqada qolib ketishmoqda, ularning qop-qora bahaybat otlari tezlik masalasida elfning oq otiga bas kela olishmayapti. Biroq oldinga qaragan Frodoning so'nggi umidi uzildi. Ro'parada, kechuv joyida pistirma uyushtirgan Qora otliqlar yo'l to'sib turibdi. Qora plashlari va qaytarma qalpoqlarini ochib, orqaga tashlagan, egniga oq va kulrang kiyim kiygan Qora otliqlar endi aniq ko'rinishmoqda. Boshiga dubulg'a kiygan sharpalar shamshirlarini yalang'ochlab rangpar qo'liga tutishgan. Sovuq ko'zlari yarqirar ekan, xirildoq ovozlari ila Frodoni chaqirishmoqda.

Hobbitning miyasini dahshat qamradi. Endi u o'z qilichi haqida o'ylashga, qichqirishga qodir emas. Ot yolini mahkam changallab olgan Frodo ko'zini chirt yumdi. Shamol hushtak chalmoqda, ot abzaliga qadalgan qo'ng'iroqchalar quloqni qomatga keltirar darajada jaranglamoqda. Sovuqning halokatli to'lqini Frodoga nayzaday zarba berdi. Bor kuchini ishga solgan oq ot qanot qoqib uchgan singari oldinda turgan Qora otliq basharasining oldidan oppoq olov chaqnog'i kabi lovullagancha uchib o'tdi.

Frodo oyoq ostida ko'piklayotgan suv shovqinini eshitdi. So'ng oq otning yuqoriga yurib ko'tarilayotganini his etib, tosh so'qmoqda ketayotganini ko'rdi. Ot qirg'oq so'qmog'idan ko'tarilib, narigi sohilga chiqyapti, demak, Frodo kechuvdan o'tibdi.

Biroq ta'qib qilayotganlar yaqin. Oq ot birdan to'xtab, zo'r berganча kishnab yubordi. Pastda, suv boshida to'qqizta otliq turibdi. Ularning rangpar yuzini ko'rgan Frodoning ruhi yana tushib ketdi. Kechuvni Frodo kabi osonlikcha yengib o'tib, hobbitni quvib yetishlariga nima xalal berishi mumkin hozir ularga? Dushman malaylaridan qochib qutilishga urinish mutlaqo befoyda ekanligini Frodo ich-ichidan his etdi. Nimadir unga to'xtashni buyurdi. Vujudini nafrat qamrayotgan Frodoning qar-



shilik ko'rsatishga umuman madori qolmadi.

Saf oldida turgan Qora otliq otini olg'a yurishga undadi. Uning oti suv oldida to'xtab, orqaga tislendi. Qaddini rostlagan Frodo bor kuchini ishga solib qilichini yalang'ochladi.

– Mordorga qayting! Meni ta'qib qilishni bas qiling! – buyurdi u past, zaif eshitilgan ovozi bilan.

Otliqlar taqqa to'xtashdi. Frodo Tom Bombadilday qudratga ega bo'lmaganiga achindi. Dushman malaylari xirildoq ovoz chiqarib kulishdi.

– Bu yoqqa kel! Pastga tush, pakana! – chaqirdi ular. – Biz seni o'zimiz bilan Mordorga olib ketamiz!

– Daf bo'linglar! – pichirladi Frodo.

– Uzukni ber! Uzukni! – baqirdi ular.

Oldinda turgan sharpa o'z otini suvga kirishga majbur qildi. Uning ortidan yana ikkita otliq ergashdi.

– Elbert va go'zal Lyutiyeen nomi ila qasamki, sizlar na Uzukni va na meni qo'lga kirita olasizlar! – dedi so'nggi kuchini yig'gan Frodo qilichini baland ko'tarib.

Kechuv joyining o'rtasiga yetgan Qora otliq otini to'xtatib, tahdid solganday uzangida turib oldi-da, qo'lini ko'tardi.

Dong qotgan Frodo tili tanglayiga yopishib qolganini, yuragi siqilganini his etib, titrayotgan qo'lidagi qilichini tushirib yubordi. Oq ot orqaga tislaniib pishqirdi. Qora otliq yana harakat boshlab, qirg'oqqa yaqin kelib qoldi.

Shu fursatda allaqanday na'ra-yu, tars-turs shovqin, og'ir xarsanglarni turtib kelayotgan qudratli oqimning gurillagani eshitildi. Frodo tuman orasidan qarayotganday daryo sathi keskin ko'tarilib, sirtida suv otliqlarini ko'rdi. To'lqin cho'qqi-sida oppoq ko'pik yarqiradi. Frodo nazarida, yoli xilpirayotgan oppoq ot mingan otliqlarni ko'rganday bo'ldi. Suvga kirgan uchta Qora otliqni qudratli to'lqin shu zahoti yuvib ketdi. Qolganlar suvdan nari qochdi.

Hushini yo'qotar ekan, Frodo yana baqir-chaqir eshitdi. Nazarida, suvdan nari tisarilgan Qora otliqlar ortida kimningdir

yaraqlagan oppoq qomati, uning orqasida esa tuman orasida qizil qo'shin ko'rindi.

Qora otlar aqldan ozganday kishnab, dahshatdan o'zlarini suvga otgancha qaynab oqayotgan daryoda otlari bilan birga g'arq bo'lishdi. Ularning baqir-chaqiri daryo na'rasi bilan aralashib ketdi. Frodo yiqilayotganini, na'ra-yu, ola-g'ovur uni dast ko'tarib, dushmanlar bilan birga olib ketayotganini his etdi. Boshqa hech narsani eshitmadi, ko'rmadi.

## IKKINCHI KITOB



Hushini yo qotar etkan, Frodo yana baqir-chakir eshildi.  
Nazarida, ayvandan tash tashnigina Doras oltiqdar orinda kimgingdir.

## I BOB

### TALAYGINA UCHRASHUV

Hushiga kelgan Frodo ko'rpada yotganini fahmladi. Oldiniga u uzoq cho'zilgan, hamon aqlining bir qismini egallab turgan noxush uyqudan kech uyg'onganday bo'ldi. Tobi qochib yotgandir, balkim? Mana bu notanish, yassi shiftning qoramtir to'sinlariga juda boy o'yma naqsh solinibdi. Frodo devorga tushgan quyosh nuriga qaragancha tashqaridan kelayotgan sharshara shovqinini bir pas eshitib yotdi.

– Soat nechchi bo'ldi? Qayerda yotibman o'zi men? – baland ovozda so'radi u, shiftga murojaat qilib.

– Elrondning uyidasan. Soat ertalabki to'qqiz bo'ldi, – javob berdi tanish ovoz. – Bugun 24-oktabr, agar buni bilish senga zarur bo'lsa. Tong otdi.

– Gendalf! – xitob qildi yotgan o'rniga shartta o'tirib olgan Frodo.

– Ha, men, – dedi deraza oldidagi kursida o'tirgan sehr-gar. – Uyangni tark etib ketgan kuningdan buyon qilgan shuncha bema'ni ishlaringdan so'ng, bu yerda yotishni baxt deb bilishing kerak.

Yutib chiqishiga ko'zi yetmagan Frodo bahslashmay, o'z tinchi va halovatini buzmay yana yonboshlab oldi. Batamom uyg'ongan hobbitga o'z safari bilan bog'liq xotiralari tiklana

boshladi, xususan: halokat tomon odimlagan sari Qadimiy o'ronni «tikka kesib» chiqqani, «Javlon urar poni» mehmonxonasidagi hodisa, Zavert etagidagi xandaq ichida Uzuk taqqanini esladi. Bu yerga, Rivendellga yetib kelguncha boshdan kechirgan hodisalarni birma-bir eslab, xotirasini tartibga keltirib olish borasida behuda urinib yotar ekan, xonada og'zidan oq tutun halqalarini puf lab derazadan chiqarayotgan Gendalfning trubkasi ba'zan pishqirib buzayotgan jimjitlik hukm surdi.

– Sem ko'rinmaydi? – so'radi Frodo. – Qolganlar-chi, sog'-salomatmi?

– Xavotir olma, hammasi yaxshi, to'rt muchasi sog', – javob berdi Gendalf. – Sem shu yerda edi, biroz dam ol deya yarim soatcha oldin chiqarib yuborgan edim uni.

– Kechuv joyida nima bo'ldi? – so'radi Frodo. – Hamma narsa tumanda bo'lganday go'yo. Hozir ham shunday ko'rinyapti menga o'sha hodisa.

– To'g'ri, sen asta taslim bo'la boshlading o'shanda. Jarohating seni batamom o'z izmiga solib oldi. Yana bir necha soatga kechikkanimizda senga yordam ko'rsatish masalasida qo'limizdan hech nima kelmas edi. Lekin sen kuchli bo'lib chiqding, qadrdonim hobbit. Buni sen katta qo'rg'onda namoyon eta bilding. Havfli holatga tushib qolgan edilaring. Zavertda ham dushman ta'siriga berilib qolmasligingni juda istagan edim...

– Safarimizning tafsilotlaridan yaxshigina xabar topgan ko'rinasan, – ta'kidlab qo'ydi Frodo. – Lekin qo'rg'ondagi sag'ana ichida bo'lgan ishni hali hech kimga aytmagan edim... Boshida juda qo'rqdim, keyin boshqacha holat yuzaga kelib qoldi. Qayerdan bila qolding buni?

– Uyqingda ko'p alahsiraysan, Frodo, – muloyim ohangda javob berdi Gendalf. – Shu bois xotirangda saqlanib qolgan narsalarni o'qib olish menga qiyin kechmadi. Tashvish tortma! Hozir men ishlaringni bema'ni dedim-u, aslida unday emas. Men sen haqingda, hamrohlaring haqida juda yaxshi fikrdaman. Bu yerga shuncha xavf-xatar orqali o'tib, Uzukni saqlab qolgan holda yetib kelishning o'zi bo'lmaydi.

– Musofir bo‘limganda qo‘limizdan hech nima kelmas edi, – dedi Frodo. – Ammo sening o‘rning juda bilindi. Sensiz nima qilishni bilmay, boshim qotdi.

– Meni ushlab qolishdi va bu holat halokat-la yakun topishiga sal qoldi, – ma‘lum qildi Gendalf. – Tag‘in bilmadim, balkim, yaxshilikka bo‘lgandir meni ushlab qolishgani.

– Bo‘lgan ishlarning barini aytib berishingni istar edim.

– Har narsaning o‘z vaqti-soati bor! Elrondning iltimosiga ko‘ra, seni bugun ortiq bezovta qilmasligimiz, sen ham ko‘p gapirmasliging kerak ekan.

– Ammo bu meni har xil narsalar haqida o‘ylamaslik, qandaydir taxminlarga borishdan xalos qilmaydi, aksincha, batar charchatadi, – e‘tiroz bildirdi Frodo. – Uyqudan uyg‘onib, ko‘plab izohtalab narsalarni esladim. Nega endi buni kechiktirish kerak? Baribir, bularning barini tushuntirib o‘tishing kerak-ku, menga.

– Hademay, bor gapdan xabar topasan. Sog‘ayib, kuch-quvvatga kirib olishing bilan Kengash o‘tkazamiz. Hozircha esa, meni asir olishganini aytishim mumkin, xolos.

– Seni asirga olishdi? – xitob qilib yubordi Frodo.

– Ha, meni, Kulrang Gendalfni, – tantana ohangida ma‘lum qildi sehrgar. – Dunyoda ezgu va yovuz kuchlar ko‘p, Frodo. Mendan kuchlilar ham bor, albatta. Ba‘zilari bilan esa hozircha kuch sinashib ko‘rganim yo‘q. Buning fursati keladi hali. Morgul hukmdori bilan uning Qora otliqlari hujumga o‘tishgan. Urush bo‘lishi muqarrar!

– Demak, men Qora otliqlarga duch kelishimdan oldin ularning borligini sen bilgansan, shundaymi?

– Ha, bilganman. Qora otliqlar – Uzukning ruhiga, Uzuklar hukmdorining to‘qqizta xizmatkori, uning sharpasiga aylanib qolishganini, o‘sha to‘qqizta arvoq ko‘pdan buyon, juda ko‘p vaqtdan buyon tashqariga chiqmaganini senga ham allaqaysi kuni aytgan edim. Lekin ular bu yorug‘ olamga chiqishganidan xabarim yo‘q edi, aks holda seni Shirdan zudlik bilan o‘zim olib ketgan bo‘lar edim. Iyun oyida, ya‘ni sen bilan xayrlashib

ketganimdan keyin xabar topdim. Lekin bu uzoq hikoya bo'lib, bu haqda keyin gaplashamiz. Hozircha biz Aragornning sharofati bilan yo'q qilib yuborilmay, omon qolganimizni bilsang bo'ldi.

– To'g'ri, Musofir bizni qutqarib qoldi. Lekin boshida men undan qo'rqan edim. Sem esa, o'ylashimcha, Glorfindelni uchratgunimizga Musofirdan shubhalanib yurdi.

– Bilaman, – kulib boqdi Gendalf. – Endi Sem unga to'liq ishonadi.

– Yaxshi ish bo'libdi. Chunki Musofir menga juda yoqdi. Fikrimni, balkim, noto'g'ri ifodalagandirman, aytmoqchimanki, u menga qadrdonday bo'lib qoldi, garchi ba'zan qandaydir badqovoq, g'alati yursa-da. Sen haqingda tez-tez gapirib bordi. Novcha xalq shunaqa xushxulq bo'lishi mumkinligini bilmagan ekanman. Ular jismonan yirik va aqlan tentaknamo bo'ladi, deb o'ylardim. Ularni Narkiss kabi marhamatli va ayni vaqtda kaltafahm, Bill Ferni kabi yovuz va ahmoq kishilar sifatida tasavvur qilganman. Ammo biz Shirda yakkalangan holda yashab, novcha xalq haqida deyarli hech narsa bilmaymiz, Tog'bag'ri qishlog'i aholisini hisobga olmaganda, albatta.

– Agar qariya Lavrni kaltafahm deb topgan bo'lsang, demak, tog' yonbag'rilarini ham yaxshi o'rganib chiqmabsan. Narkiss o'z foydasini yaxshi biladigan ichidan pishgan qovunlardan. To'g'ri, uning fikr yuritish qobiliyati gapirish qobiliyatiga nisbatan ancha sust rivojlangan, lekin u, tog'bag'riliklar ta'biri ila aytganda yer ostida ilon yursa biladi. Biroq butun O'rtayerda Araxornning o'g'li Aragorn kabi odamlar kam qolgan. Dengiz ortidan kelgan qirollar avlodi deyarli tugab bitdi. Uzuk uchun urush ularning bu dunyodagi so'nggi ishiga aylaniishi mumkin.

– Sen chindan ham Musofirni qadimiy qirollik odamlarining avlodiga mansub deb bilasanmi? – hayron bo'ldi Frodo.  
– Ularning bari allaqachon yo'q bo'lib ketishgan deb bilar edim. Uni men shunchaki, o'lkama-o'lka daydib yuradigan darbadarlardan deb o'ylagan edim.

– Shunchaki darbadar, degin! – xitob qildi sehrgar. –

Qadrdonim Frodo, ular chindan ham darbadar – g'arbliklarning omon qolgan so'nggi vakillari. Ular menga ko'p yordam qilishgan, kelgusida ham yordamlari asqatadi, degan umiddaman. Chunki Rivendellga yetgan bo'lsak-da, Uzuk hali Taqdir tirqishiga eltib tashlangani yo'q.

– Men ham shunday fikrdaman. Shu kungacha fikr-xayolim bu yerga yetib kelish tashvishi bilan band bo'ldi. Umid qilamanki, yo'lni men davom etmayman. Bu yer dam olish uchun zo'r joy ekan. O'tgan oy davomida boshimdan ne-ne ishlar o'tmadi, bas, yetar.

Hobbit jim bo'lib, ko'zini yumdi. Biroz yotib yana davom etdi:

– Ichimda hisoblab, yigirma to'rtinchi oktyabrgacha hech yeta olmayapman. Yigirma birinchi oktabr bo'lishi kerakku, bugun. Chunki kechuvga biz kecha, yigirmanchi oktabr kuni yetib keldik.


– Keragidan ortiq gapirib, o'ylayapsan. Yelkang bilan biqining qalay?

– Bilmadim. Og'riq yo'q. Bu yaxshi, albatta, – dedi Frodo, qo'lini biroz zo'riqtirib. – Qo'limni biroz qimirlata olyapman. Ha, yana jon kiryapti, shekilli, qo'limga. Sovuq ham emas, – qo'shimcha qildi u, o'ng qo'li bilan chap qo'lini paypaslab.

– Juda soz! Demak, jarohating tez bityapti. Hademay, batamom sog'ayib ketasan. Seni bu yerga keltirishgandan buyon Elrond bir necha kun davomida oldingdan ketmay, muolaja qildi.

– Bir necha kun davomida deysanmi? – hayron bo'ldi Frodo.

Ha, to'rt kun-u, uch kecha, agar senga aniq raqam kerak bo'lsa. Elflar seni o'n to'qqizinchidan yigirmanchiga o'tar kechasi olib kelishdi bu yerga. Shuning uchun ham sen hisobdan adashib ketyapsan. Juda xavotir oldik, Sem yoningdan jilmay o'tirdi. Elrond juda zo'r tabib, lekin dushman quroli halokat keltiruvchi qurol edi. To'g'risini aysam, umidimni uzib qo'ygan edim. Pichoq tig'ining uchi jarohatingda qolib, vujudingga singib ketdi deb o'yladim. So'nggi kechagacha topa olishmadi uni.





Nihoyat kecha Elrond topib, sug'urib chiqardi. Tig' parchasi juda chuqur botib, ich-ichingdan ta'sir o'tkazgan senga.

Musofiring qo'lida pichoqning dag'al kertik tig'i bug'lanib, gum bo'lganini esga olgan Frodo yotgan o'rmda seskanib ketdi.

– Xotirjam bo'! Hammasi ortda qoldi, – tinchlantirdi Gendalf. – Tig' parchasi erib ketdi. – Hobbitlar, osonlikcha taslim bo'lmaydigan qaysar xalq bo'lib chiqdi. Novcha xalqning kuchli jangchilarini tanir edim, lekin ular senga sanchilgan pichoq ta'siriga dosh bera olmay, tig' izmiga tez o'tib ketgan bo'lar edi. Sen esa unga bir emas, naq o'n yetti kun dosh bera olding.

– Anavi Qora otlqlar nima qilgan bo'lishar edi menga? Nimaga erishishga urinishdi o'zi ular?

– Morgul pichog'ini yuragingga sanchishga urinishgan ular. Qo'llanilgan qurol tig'ining sinig'i jarohatda qoladi. Agar o'z maqsadiga erisha bilganida sen ham o'shalarning biriga, faqat ancha zaif, batamom ularning bo'ysunuviga o'tgan arvoqqa aylangan bo'lar eding. Boshqacha qilib aytganda, Zulmat Sohibining izmidagi ruhga aylanib, Uzukni olib ketishga uringaning uchun qiynoqqa solingan bo'lar eding, agar Uzukdan mahrum bo'lib, uni Sauronning qo'lida ko'rishdan ortiq qiynoq bo'lsa.

– Xayriyatki, bunday xavf kutayotganini bilmagan ekanman! – zaif ovozda ingrab yubordi Frodo. – O'larcha qo'rqib yurganman, albatta, lekin bunday narsalarni bilganimda joyimdan qo'zg'ala olmay qolgan bo'lar edim. Qutulganimning o'zi bir omad.

– Chindan omad yoki qismat yordam berdi senga, agar namoyon etgan jasoratingni hisobga olmasak. Zero, yuraging butun qolib, pichoq yelkanggagina jarohat yetkazdi va shu sabab sen dosh bera olding. Lekin holating xavfli edi. Uzukka egalik qila boshlaganingdan buyon sen katta xavf ostida bo'lding, chunki Uzukka sohiblik barobarida sen arvoqlar olamiga kirib, ularga ko'rinadigan, seziladigan bo'lib qolding. Sen ularni, ular seni ko'rishdi.

– Bilaman. Ko'rinishi juda mudhish ularning! Biroq ni-

ma uchun hammamizga ular mingan qora otlar ko'rindi?

– Chunki ularning otlari va egnidagi qaytarma qalpoqli qora plashlari haqiqiy edi. Tegishli qomatga ega bo'lish va tirik mavjudotga o'xshab olish uchun kerak bo'lgan ularga plash.

– Unda nega qora otlar ularga dosh bera olishdi? Boshqa otlar, hatto Glorfindelning oq oti ham ularni ko'rib dahshatga tushishadi. Itlar uvullab, g'ozlar vishillab qolishadi, agar o'sha arvohtar yaqin keladigan bo'lsa.

– Chunki o'sha qora otlar zoti Zulmat Hokimiga xizmat qilishi uchun Mordorda atayin yetishtiriladi. Xizmatkor-u, ma-laylarining hammasi ham arvoht emas uning. Orklar, goblinlar, trollar, varglar, maxluq tusiga kiradiganlar ham uning izmida. Sauronning qo'l ostida qadimdan ko'plab odamlar, qo'shinlar, qirollar bo'lib kelgan, hozir ham bor. Endi esa ularning soni kundan kunga oshib bormoqda.

– Rivendell bilan elflar borasida nima deysan? Rivendell xavfsiz joymi, ishqilib?

– Bugungi kunda dushman tomonidan zabt etilmagan hududlar ham bor hali. Elfhar Zulmat Hokimidan qo'rqishi, undan qochishi mumkin, lekin hech qachon uning xizmatiga o'tishmaydi yoki unga qaram bo'lishmaydi. Bu yerda, ya'ni Rivendell-da esa uning asosiy dushmanlari, elf oqillari – olis dengiz ortidan kelgan Eldor avlodlari yashaydi. Ular Uzuk ruhlaridan qo'rqishmaydi. Chunki baxtli qirollikda yashab, Tusi o'zgaradigan elflar deya ataladigan elflar bir vaqtning o'zida ikkita olamda yashab, bu yerlarda zohiran ko'rinadigan va ko'rinmaydiganlarni idora qilishadi.

– Yorqin tovlanib, dud singari to'lqinlangan anavi Qora otliqlardan farqli o'laroq haqiqiy qomatga ega oq sharpa ko'rgan-day bo'ldim. Glorfindel edimi u?

– O'sha. Sen uni narigi sohilda turganini ko'rding. Glorfindel chindan ham shahzodalar xonadoniga mansub Tusi o'zgaradigan elflardan. Rivendell-da Mordorning qudratiga bas keladigan kuchlar bor hali. Har qalay, hozircha bor. Boshqa joylarda ham topiladi bunday kuchlar. Bunday kuch Shirda ham

bor. Biroq hademay, unday joylar qamalga olingan hududlarga aylanib qoladi, agar hozirgi holat o'zgarmas qolsa. Zulmat Hoki-mi bor kuchini shu maqsadga safarbar etmoqda.

Gendalf iyagini mahkam siqib olganicha o'rnidan turdi. Uning soqoli simdan terilganday to'g'rilanib, qattiq bo'lib qoldi.

– Bunda endi mardlikni saqlab qolmoq darkor, – qo'shimcha qildi u. – Sen hademay sog'ayib ketasan, agar seni o'larcha charchatmagan bo'lsam. Dorilamonda ekansan, hech narsadan xavotir olma.

– Mardlik menda juda oz, lekin men hozir hech narsadan xavotir olayotganim yo'q. Do'stlarimga taalluqli yangilik bo'lsa, gapir. Kechuvda nima bo'lganini aytib bersang bo'ldi, menga bugunga yetadi, yana uxlab qoladiganga o'xshayman. Aytib bermasang uyqum kelmay yotaveraman.

Gendalf kursini karavotga yaqinroq surib o'tirdi-da, Frodoni diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi. Hobbitning rang-par yuziga qon yuguribdi, ko'zi tiniq, uyqusirayotgani yo'q. soppa-sog' hobbitday irjaymoqda... Biroq sehrgarning ko'zi Frodoning adyol ustida yotgan chap qo'ldagi shaffoflik alomatini ilg'amay qolmadi.

«Men kutganday bo'libdi, – pichirladi sehrgar o'ziga o'zi. – Sog'ayib ketishiga hali bor. Nima bilan yakun topishini hech kim, hatto Elrondning o'zi ham ayta olmaydi. O'ylashimcha, hammasi yaxshi bo'ladi».

– Ko'rinishing chakki emas, – dedi u Frodoga. – Elrond ijozat bermagan bo'lsa ham, qisqacha aytib beraman. So'ng uxlashing shart. Bilishimcha, ishlar quyidagicha kechgan. Qora otliqlar ortingdan yugurishgan. Endi ular otlari sen tomon eltishiga ehtiyoj sezmay qolishgan. Chunki sen ularga ko'rindigan bo'lib, ular yashaydigan dunyo ostonasiga borib qolgan-san. Boz ustiga, yoningdagi Uzuk ularni o'ziga jalb etadi. Do'stlaring esa so'qmoqdan chetga chiqishmaganida qora otlar ostida qolib ketgan bo'lishar edi. Tagingdagi oq otdan boshqa hech narsa seni qutqara olmasligini ular bilishadi. Qora otliqlar ko'pchilikni tashkil etib, harakatlari juda tez kechdi. Hatto Glorfindel

bilan Musofir ham otsiz biron nima qila olishmadi. Do'stlaring Qora otliqlarning ortidan quvib ketishdi. Kechuv yaqinidagi daraxtzor ichida xandaq bo'lgan. Ular shu xandaq ichiga gulxan yoqishdi. Qora otliqlar daryoni kechib o'tishga urinsa sel kelishini Glorfindel yaxshi bilgan va qirg'oqda qolganlariga qarshi jang qilishga hozirlik ko'rgan. Sel boshlanishi bilan Glorfindel qo'lga o't oldirilgan xodalarni olib kechuv tomon yugurgan. Aragorn bilan qolgan do'stlaring ham uning ketidan chopishgan. Suv bilan o't orasida qolgan Uzuk ruhlari g'azab otiga mingan elfni ko'rib sarosimaga tushib qolishgan. Dastlabki to'lqin birinchi uchtalikni, keyingi to'lqin esa qolgan Qora otliqlarni oqizib ketgan.

– Demak, Qora otliqlar g'arq bo'lib o'libdi-da? – so'radi Frodo.


– Ularning otlarigina g'arq bo'lgan. Uzuk ruhlarini o'ldirish oson ish emas, lekin otsiz ular hech narsaga yarashmaydi. Shunday ekan, ulardan qo'rqishga hojat yo'q. Daryo tinchlangach do'stlaring kechuvdan o'tib, seni topishgan. Sen baland qirg'oqda singan qiliching ustida yotgansan. Oq ot seni qo'riqlab, yoningda turgan. Elrond yuborgan elflar seni ko'tarib kelayotgan do'stlaringni topishgan.

– Selni kim qo'zg'adi?

– Elrond. Vodiyydan o'tadigan daryo uning izmida. Kechuvni to'sish kerak bo'lgan vaziyatda g'azablangancha tik turib oladi. To'g'ri, men biroq qo'shib, chatib yuborayotgan bo'lishim mumkin, lekin agar ko'rishga ulgurib qolgan bo'lsang, xarsang yumalatib ketgan ayrim to'lqinlar oppoq chavandozlar mingan oq otlar shaklini kasb etgan. Rostini aytсам, Elrondning g'azabi qattiq qaynab, hosil qilgan to'lqinlari Qora otliqlarga qo'shib sizlarni ham yuvib ketishidan qo'rqdim. Chunki G'uborli tog'lardan oqib tushgan suv tarkibida ulkan qudrat bekingan.

– Ha, elas-elas eslayman. Do'st-u, dushman aralashib oqib ketamiz, degan xayolga borgan edim. Mana endi biz xavfsiz joydamiz.

– Darhaqiqat, sen xavfsiz joydasan, – dedi Gendalf Fro-



doning uxlab qolayotganini ko'rib. - Bruinen kechuida qozonilgan g'alaba sharafiga ziyofat uyushtiriladi. Sen u yerda faxriy mehmon bo'lasan.

- Zo'r-u! Elrond, Glorfindel va shaxsan Musofirning o'zi menga bu qadar e'tibor qaratishayotganining o'zi hayratlanarli.

- Buning sababi ko'p, - kulib boqdi sehrGAR. - Ulardan biri - shaxsan o'zing. Boshqa biri - UZUK. Sen UZUK sohibi, boz ustiga, UZUKNI topgan Bilboning merosxo'ri bo'lasan.


- Bilbo! Qiziq, hozir qayerda ekan u? Yonimda bo'lishini, shu gaplarning bariga o'zi guvoh bo'lishini istar edim. Rosa kulgan bo'lar edi mushukning qilig'i haqidagi gapni eshitta. Sho'rlik qari troll-chi! - dedi Frodo va birozdan so'ng qattiq uyquga ketdi.

Frodo mutlaq xavfsizlikda, dengiz sbaRqidagi Elrondning So'nggi boshpanasida yotibdi. Bilbo uzoq yillar muqaddam aytgandek: «Bu yer yeb, ichib, uxlash, qo'shiq aytish, suhbat qurish yoki shunchaki o'tirib, o'y surish uchun qulay bo'lgan zo'r uy». Bu yer kishini charchoq, qo'rquv va g'am-g'ussadan davolaydi.

Oqshom mahalda uyg'ongan Frodo uyquga to'yganini his etdi. Asl holatiga qaytgan qo'li batamom sog'ayib ketganini sezib o'rnidan turdi. Hozir u ovqatlanishni, qorni to'ygach, qo'shiq aytib, gaplashib o'tirishni istamoqda. Karavot yonidagi javoncha ustida unga loyiq keladigan yashil kiyim yotibdi. Kiyinib, ko'zguga qaragan Frodo hayron bo'ldi: ko'zguda unga Bilboning Beg-Enddan chiqib ketgandan buyon ancha ozib, bir zamonlar Shir bo'ylab birga sayr qilishni yaxshi ko'rgan yosh jiyanining aksi qarab turibdi. Faqat nigoh o'zgarib, unda qandaydir o'ychanlik aksi shakllangan.

«Ko'zguga oxirgi marta qaraganingdan buyon o'tgan vaqt ichida ko'p narsalar ko'rding, - dedi Frodo o'z aksiga qarab. - Baxtli uchrashuv muborak!» - kerishib oldi u, hushtak chalar ekan.

Eshik taqillab ostonada Sem ko'rindi. Frodoning oldiga



yugurib kelgan Sem Frodoning chap qo'lini dag'al paypaslab, ko'zdan kechirib chiqqan bo'ldi-da, qizarib teskari qaradi.

– Salom, Sem! so'rashdi Frodo.

– Qo'lingiz ilib o'z holiga qaytibdi, janob Frodo, – dedi Sem. – So'nggi kunlarda juda sovib ketgan edi, xayriyat, hammasi ortda qoldi! – raqs tushish harakatini bajardi u, ko'zi yashnab. – Sog'ayib, oyoqqa turib ketganingizdan xursandman, ser! Gendalf yubordi meni, pastga tushishga tayyorligingizni bilish uchun. Hazilashdi, deb o'ylabman.

– Tayyorman. Qani, yo'l boshla, qolganlarni ko'rsat menga.

– Albatta, yuring, ser. Bu juda katta va qandaydir g'alati uy ekan. Kishi hamisha ajoyib bir yangilikka duch kelib, muylash ortida nima kutayotganini bilmaydi. Elflar, ser, har qadamda kam deganda bitta elf uchraydi! Ularning ba'zilar qirollar kabi viqor-la yurishsa, ayrimlari yosh boladek quvnoq. Unchalik ko'p eshita olmadim-u, lekin musiqa, qo'shiq bu yerda juda mo'l bo'lar ekan. Bu yerga taalluqli ayrim narsalarni ham fahmlagan-dayman.

– So'nggi kunlarda nimalar bilan band bo'lganingni bilaman, Sem, – dedi Frodo uning qo'lini ushlab. – Bugun sen vaqti-chog'lik qilib dam olishing, ko'ngling tusagancha musiqa eshitib, qo'shiq aytishing mumkin. Xo'sh, yo'l boshlaysanmi, yo'qmi?

Sem Frodoni bir nechta uzundan uzoq yo'laklar ko'p pog'onali zinalar, qirg'og'i tik ko'tarilgan daryo sohilidagi ko'rkam bog' orqali boshlab ketdi. Sharqiy yo'nalishga olib chiqadigan bog' eshigi ostonasida Frodoning do'stlari o'tiribdi. Pastda ko'ri-nayotgan soylikni ko'lanka qamragan, lekin mana bu bog'ni o'lis-dagi tog'lardan qaytgan nur yoritmoqda. Havo iliq, yuqoridan tushayotgan suv shovqin solib oqmoqda. Yoz Elfrond bog'ida ushlanib qolganday hamma yoqdan daraxt va gul hidi kelmoqda.

– Qaranglar! Hay-hay-hay! Shaxsan o'zlari-yu! – irg'ib turdi Pin. – Mardonavor qarindoshim bo'lmish Frodoga, Uzuk Hukmdoriga yo'l bering!

– Jim-e! eshitildi Gendalfning ovozi ostona ortidagi ko‘lankadan. Yovuz kuch yaqin kela olmaydi, albatta, lekin uni tilga olish ham shart emas bu yerda. Uzuk Hukmdori Frodo emas, Mordordagi hukmi dunyoga taralayotgan Zulmat minorasining hokimi bo‘ladi. Biz qal‘ada o‘tiribmiz. Tashqarida esa zulmat quyuqlashmoqda.

– Gendalf dalda beradigan bunday gaplarning ko‘pini aytdi, – piching qildi Pin, Frodoni boxabar qilgan bo‘lib. – Uning fikricha, meni tartibga chaqirish kerak ekan. Ammo bu yerda g‘am-g‘ussa haqida o‘ylashning iloji bo‘lmayapti. Baqirib qo‘shiq aytgim kelyapti. Qaniydi, bunday holatga mos keladigan qo‘shiq bilsam.

– Men ham qo‘shiq aytgim kelyapti, – dedi Frodo, – lekin oldin biron nima yeb, ichib olgan bo‘lar edim.

– Hademay hamma narsa muhayyo bo‘ladi, – ma‘lum qildi Pin. – Sen har doimgidek, ovqat ustiga kelding.

– Shunchaki ovqat emas, haqiqiy ziyofat! – dedi Merri. – Gendalf sog‘ayib ketganingni aytishi bilan elflar ziyofatga hozirlik ko‘rishni boshlashdi...

Merrining gapi oxiriga yetmay, hammani dasturxonga chorlagan qo‘ng‘iroqchalar jiringladi.

Elrond qasrining zali odamga to‘libdi. Boshqa irq vakillari ham bo‘lishiga qaramay, bu yerga yig‘ilganlarning aksariyatini elflar tashkil etgan. Elrond o‘z odatiga ko‘ra uzun stol boshidagi supa ustiga o‘rnatilgan katta kreslodada o‘tiribdi. Uning bir yonida Glorfindel, ikkinchi yonida Gendalf joylashgan.

Frodo taajjub-la atrofga alangladi. Ko‘plab qissalarda tilga olinadigan Elrondni u hech qachon ko‘rmagan. Glorfindel bilan Gendalf unga yaxshi tanishday ko‘ringan edi, hozir esa ikkalasi qudratli hukmdorlarday viqor-la o‘tirishibdi.

Gendalfning bo‘yi ikkala elfga nisbatan pastroq, ammo oppoq oqargan uzun sochi, yengil hilpirayotgan kumush tusli soqoli, keng yelkasi unga qadimiy afsonalarda kuylangan oqil qirol qiyofasini bermoqda. Oppoq qoshi ostidagi ajin qamragan yuzida bir juft ko‘tnir cho‘g‘idan ko‘rinayotgan ko‘zi yarqira-

moqda.

Novcha bo'yi, qomati kelishgan, sochi tilla tusda yariqirayotgan nigohi o'tkir, ovozi xushohang eshitilayotgan, peshanasi oqillikni, qo'li qudratni ifodalayotgan Glorfindelning yuzi esa o'ktam, qo'rqmas, quvonchga to'la ko'rinmoqda.

Elrondning yuzidan yoshini aniqlab bo'lmaydi, na yosh emas u, na keksa emas, garchi unda quvonch va g'am-g'ussaga to'la hodisalar xotirasi o'z aksini topgan bo'lsa-da. Sochiga oq oralagan, ko'zi oydin oqshomday kulrang bo'lib, unda yulduz shu'lasini eslatadigan nur bor. Nimasi bilandir ko'p qishlarga dosh bergan qirol-u, kuchga-qudratga to'lgan jangchiga qaragandek ehtirom-la qarashga turtki bermoqda.

Stol o'rtasida, jun gilam qarshisida guldor chodir ostida kreslo o'rnatilgan bo'lib, unda Elrondga juda o'xshab ketadigan go'zal ayol o'tiribdi. «Elrondning qarindoshi bo'lsa kerak», – xayoldan o'tkazdi Frodo. Yosh ham, yoshi katta ayol ham deb bo'lmaydi uni. Qora sochining gajagini qirov qoplaganday, bulutli tunday kulrang ko'zidan yulduz shu'lasini taralayotganday ko'rinadi, oq qo'li va ravshan yuzi benuqson, silliq, viqoridan qirolichaga o'xshaydi, yillar davomida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lgan kishining nigohiday ko'rinayotgan nigohida bilim va tafakkur aks etgan. Boshiga mayda marvaridlar qadalgan to'r ro'mol tashlab olgan, lekin uning mayin matodan tikilgan kulrang ko'ylagida kumush bilan berilgan barg kamaridan tashqari, hech qanday bezak yo'q.

Kamdan kam o'limi muqarrar odamlar ko'radigan, tug'ilganida yerga Lyutiycning jamoli qaytgani ta'kidlanib, Undomiyel yoki Odamlar Yulduzi nomini olgan, Elrondning qizi bo'lmish elf ayol Arvenni mana endi Frodo ham ko'rib turibdi. Arven uzoq vaqt tog'lar ortidagi Loriyenda, onasining qarindoshlariga mansub xonadonda yashab, otasining uyi Dorilamonga qaytgan. Akalari Elnadan bilan Elrogir bugun yo'q. Ikkalasi onasining orklar makonida chekkan azob-uqubatini hech unuta olmay, shimollik musofirlar bilan uzoq-uzoqlarga tez-tez ketib qolishadi.



Frodo bunday latofatni ilgari ko'rish nari tursin, tasavvur ham qila olmagan. Elrond dasturxonni atrofida bunday daroz va qudratli mavjudotlar bilan birga bo'lish sharafi nasib qilganidan ham hayratlanib, ham xijil bo'lib o'tiribdi. Atayin bir nechta yostiqcha tashlangan baland kursida o'tirgan bo'lsa ham o'zini bemavrid kelgan o'ta kichkina kishiday his etdi, ammo bu hissiyot tez o'tib ketdi. Ziyofat quvnoq boshlanib, dasturxon to'kinsochin bo'ldi. Ma'lum vaqt o'tgach, Frodo atrofiga qarab, yonidagi qo'shnilariga e'tibor qildi.

Dastavval u nigohi ila do'stlarini qidirdi. O'z sohibiga xizmat ko'rsatmoqchi bo'lgan Semni nari olib ketishib, u ham faxriy mehmon ekanligini ta'kidlashdi. Hozir Sem stolning supa yaqinidagi narigi boshida Merri bilan Pin davrasida o'tiribdi. Musofir ko'rinmaydi.


O'ng qo'l tomonida zo'r kiyinib olgan gnom savlat to'kib o'tiribdi. Uning oq soqoli egnidagi oppoq kiyimiday uzun bo'lib, o'rib tarmoqlangan. Beliga kumush kamar taqilgan gnomning bo'ynida olmoslar qadalgan kumush zanjir bo'lib, hang-mang bo'lib qolgan Frodo ovqatlanayotganini unutib qo'ydi.

Xush kelibsiz, -- dedi Frodoga yuzlangan gnom o'rni-dan turgancha, ta'zim bajo aylab. -- Ismim Gloin, xizmatigingizga muntazirman, - o'zini tanishtirdi u, yanada chuqurroq ta'zim qilib.

– Frodo Beggins, sizning va sulolangizning xizmatiga muntazirman, – odob-la javob qaytardi hayratlangan hobbit, o'rnidan turar ekan, yostiqchalarni tushirib yuborib. – Sizni Buyuk Emanqalqon Torinning o'n ikki nafar do'sti orasidagi o'sha Gloin sifatida e'tirof etib, yanglishmayapmanmi?

– Yo'q, yanglishmadingiz, men huddi o'sha Gloin bo'laman, – dedi gnom, Frodoning yostiqchalarini joyiga taxlab, o'tirishga yordamlashar ekan. – Kimligingizni so'rab o'tirmayman, chunki siz do'stimiz Bilboning qarindoshi va asrandi o'g'li ekanligingizni menga aytishdi. Sog'ayib ketganingiz bilan tabriklashga ijozat bergaysiz.

– Bag'oyat minnatdorman.



– Boshingizdan ko‘p noxushliklar o‘tdi, deb eshitdim, – dedi Gloin. – To‘rt nafar hobbitni bunday olis safarga chiqishga majbur qilgan sabab nima bo‘lishi mumkin, hayronman. Bilbo bizga qo‘shilib yo‘lga chiqqanidan buyon bunaqasi hali bo‘lmagan edi. Tagpurslik qilmaganim yaxshidir, ehtimol. Chunki Elrond bilan Gendalf bu mavzuda suhbat qurishga moyil emasligini ko‘rsatishdi.

– Fikrimcha, ushbu mavzuni hozircha tegmaganimiz ma‘qul, – odob-la taklif kiritdi Frodo.

Tilga olingan mavzu hatto Elrondning dargohida ham suhbat uchun oddiy mavzu emasligini Frodo tushundi. Nima bo‘lgan taqdirda ham hozir u o‘z tashvishlarini vaqtincha eslamaslikni istagan bo‘lar edi.

– Ammo sizday buyuk gnomni So‘qqa tog‘dan bunchalik olis masofaga qanday sabab olib kelgani menga ham qiziq tuyulyapti, – dedi u.

Modomiki, ushbu sababdan bexabar ekansiz, javob berdi Gloin, Frodoga diqqat-la razm solib, – bu haqda gapirmay qo‘ya turamiz. Hademay, janob Elrond hammamizni yig‘inga chorlaydi. Ana o‘sha yerda siz ko‘p gaplardan xabar topasiz. Hozircha esa suhbat qirish uchun boshqa mavzular bisyor.

Ziyofatning qolgan vaqtini ikkalasi boshqa mavzularga sarflashdi. Frodoning Uzuk mavzusidan tashqari Shir haqida aytgan gaplari arzimasi bo‘lib, yangilik aytishdan ko‘ra u ko‘proq eshitdi. Aniqlanishicha, Gloin Yovvoyi o‘lkaning shimoliy hududlarida ro‘y bergan hodisalar haqida ko‘pdan ko‘p narsalar aytib berishi mumkin ekan. Ma‘lum bo‘lishicha, Beorning o‘g‘li Yosh Grimbeorn ko‘plab kuchli odamlarga rahnamolik qilib, ularning tasarrufidagi G‘uborli tog‘lardan Yovuz o‘rmon-gacha cho‘zilgan hududiga, na ork, na vark burun suqa olar ekan.

– Agar Beorning odamlari bo‘lmaganda, Deyldan Dorilamonga yetib kelishning iloji bo‘lmas edi, – dedi Gloin. – Ular jasur kishilar bo‘lib, Baland So‘qmoq bilan Karrok daryosining kechuv joyini ochiq saqlashmoqda. Ammo boj to‘lovini osmonga chiqarib yuborishgan, boshini chayqadi gnom. – Qariya

Beornday ular ham gnomlarni yoqtirishmaydi. Shunday bo'lsa ham, ishonchli odamlar ular. Lekin hech qayerda odamlar bizga Deylda yashaydigan odamlarchalik samimiy munosabat ko'rsatmaydi. Ajoyib xalq-da Bardning odamlari. Hozir ularga Kamonchi Bardning nabirasi, Binning o'g'li qirol Brend rahnamolik qilyapti. U qudratli qirol. Uning tasarrufidagi qirollik Esgarotning janub va sharq tomonidagi olis hududlargacha cho'zilgan.

– O'z xalqingiz haqida nimalarni aytib bera olasiz?


– Aytishga arzigulik yaxshi yomon gaplar ko'p, lekin yomonidan yaxshisi ko'proq. O'tmish ko'lankalaridan qutulmagan bo'lsak-da, hozircha baxtiyor hayot kechirmoqdamiz. Agar siz chindan ham xalqim haqida eshitmoqchi bo'lsangiz, bo'lib o'tgan yangiliklarni bajonidil aytib berishim mumkin. Yangilik eshitmoqdan zerikib qolguday bo'lsangiz, aytarsiz. Aytishlaricha, o'z ishi haqida og'iz ochgan gnomning jag'ini yopish qiyin kechar ekan.

Odob saqlab diqqat bilan, eshitayotgan tinglovchi topilganidan sevinib ketgan Gloin gnomlar qirolligi haqidagi uzundan uzoq hikoyasini boshladi. Frodo uning gapini eshitib zerikmadi, garchi muqaddam eshitmagan notanish ism va nomlar miyasida chalkashib ketgan bo'lsa-da, mavzuni almashtirishga urinmadi, aksincha, yoshi ikki yuz ellikdan oshib ketganiga qaramay, keksa Deyn hamon hamma ehtirom ko'rsatadigan Tog' osti qirolli ekanligi, Beshta lashkar jangida omon qolgan o'n nafar qabildoshlari orasidan yetti nafari, xususan: Dvalin, Gloin, Dori, Nori, Bifur, Bofur va Bombur qirol bilan qolishgani, Bombur semirib ketganidan divandan turib olishi uchun unga yosh gnomlarning olti nafari yordam ko'rsatishini eshitish Frodoga qiziq tuyuldi.

– Balin, Ori va Oinga nima qildi? – so'radi Frodo.

– Bilmaymiz, – qoshini chimirdi Gloin. – Bu yerga kelishimning asosiy sabablaridan biri Balinning holidan xabar topish mavzusi bo'ladi. Bu borada Dorilamonda yashayotganlardan maslahat olgani keldim. Keling, bugun yaxshi mavzular haqida gaplashib o'tiraylik.

Gloin o'z xalqining faoliyati haqida, Deylda va Tog' osti



qirolligida bajarilgan buyuk bunyodkorlik ishlari haqida gapirib berdi.

– Anchagina ish qilindi, ammo metallardan buyum yasash masalasida ota-buvalarimizga yetisha olmayapmiz. Kasb-korimizning ko‘plab sir-asrorlari yo‘qotildi. Pishiq sovut, o‘tkir shamshir yasay olmayapmiz, yurtimizni ajdar bosguncha yasalgan zirhli kiyim yoki o‘tkir nayzaga bas kela oladigan buyum yasay olmayapmiz. Qurilish, kon qazish masalasida esa ilgari-gidan ancha o‘zib ketdik. Ko‘rganingizda edi, janob Frodo, biz qazigan Deyl kanallari-yu, tog‘-kon havzalarini! Rang-barang toshlar yotqizilgan yo‘llarni aytmaysizmi! Gumbazli zallar, daraxt shaklida yo‘nilgan ustunlarga ega yerosti ko‘chalari-chi! Bularning barini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rsangiz, bekor o‘tirmaganimizga ishonch hosil qilgan bo‘lar edingiz.

– Imkon topsam, albatta, borib ko‘raman, – va‘da qildi Frodo. – Agar Bilbo Qari Qurumning makonida ro‘y bergan o‘sha o‘zgarishlarni ko‘rsa, rosa hayratlansa kerak!

– Bilboni yaxshi ko‘rasizmi? – kulib boqdi Gloin.

– Albatta, – javob berdi Bilbo. – Jahonning har qanday shahri-yu, minorasidan ko‘ra Bilboni ko‘rgim kelyapti.

Ziyofat nihoyasiga yetdi. Elrond bilan Arven o‘rinlaridan turib, dasturxonni tark etishdi. Ikkalasi ortidan qolganlar ham qat‘iy belgilangan tartibda yo‘l olishdi. Chiqish eshigi lang ochilgach, hamma keng yo‘lak orqali boshqa zalga o‘tdi. Bu yerda kursilar bor-u, birorta stol yo‘q. Naqshindor ustunlar orasidagi katta o‘chog‘da o‘t lovullamoqda.

– Bu Olov zali, – tushuntirish berdi Gendalf. – Uxlab qolmasang, ko‘p qo‘shiq va hikoyalar eshitishing mumkin bu yerda. Bayram kunlaridan tashqari, ushbu zal hamisha bo‘sh bo‘lib, tanho o‘zi o‘y surmoqchi bo‘lganlarga juda qulay joy. Anavi o‘choq esa yil davomida o‘chmaydi.

Elrond kirib, o‘zi uchun tayyorlab qo‘yilgan kursi tomon odimlar ekan, musiqachi elflar cholg‘u asboblari chala boshlashdi. Zal asta odamga to‘la boshlab, Frodo olov shu‘lasi yuzlarini tilla tusda yaltiratib, sochlarida aks etayotgan go‘zal

chehralarga sevinch-la qaradi. Birdan Frodo o'choq yaqinidagi kursida zal ustuniga suyanib olgancha o'tirgan pakana odam qomatini ko'rib qoldi. Uning oldida kichkinagina suv idishi bilan bir bo'lak non turibdi. «Ziyofatga kira olmagan bemor bo'lsa kerak, – xayolga bordi Frodo. – Agar Dorilamonda birov kasal bo'lishi mumkin bo'lsa, albatta». Boshiga qaytarma qalpoq tashlab olgani bois yuzi ko'rinmayotgan notanish iyagini ko'kragiga tirab o'tiribdi. Elrond uning oldiga borib to'xtadi.

– Uyg'on, mitti janob! – kulib boqdi u, Frodoni imlab chaqirar ekan. – Marhamat, Frodo, sen ko'pdan buyon kutgan onlar, – dedi u.

Boshini ko'targan notanishning qaytarma qalpog'i orqaga tushib, yuzi ochildi.

– Bilbo! – baqirdi tanib qolgan Frodo, oldinga tashlanib.

– Salom, Frodo, o'g'lim! – ko'rishdi Bilbo. – Hayriyat, kelding! Bugun sening sharafigga ziyofat berilganini eshitdim. Vaqting chog' o'tdi degan umiddaman.


– Sen nega kirmading? Nima sababdan oldinroq ko'rishishga ruxsat berishmadi ikkalamizga?

– Chunki sen qattiq uyquda eding. Men esa Sem bilan birga erta-yu kech yoningda o'tirdim. Ziyofat masalasiga kelsak, unday tadbirlarni yoqirtmay qo'rganman. Men endi boshqa ish bilan shug'ullanyapman.

– Nima ish ekan u?

– Fikr yuritish. Ko'p o'ylanadigan bo'lib qolganman, Frodo. Mana bu zal esa aynan mana shu ish uchun mo'ljallangan. «Uyg'on» emish, – dedi u, oz bo'lsa ham uyqu alomati ko'rinmagan nigohi ila Elrondga qarab. – Uxlamayotgan bo'lsam, nega uyg'onishim kerak ekan, janob Elrond... Ziyofatingizni juda tez tugatib, meni bezovta qildingiz, fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz. Yozayotgan qo'shig'imning o'rtasiga kelib, bir-ikki satrida tutilib qoldim. Anavi musiqa ilhom baxsh etib, mana tugatdim. Dunadan do'stim qarashvorishini istar edim, qani o'zi u?

– Topilib qolar, – kulib yubordi Elrond, Gendalf ikkalasi nari ketar ekan. Kelsa, ikkalangiz bir burchakka o'tib, ijodingiz



mahsulini nihoyasiga yetkazib sayqallashtiring. Biz uni tadbir oxirigacha eshitib, baho beraylik.

Garchi qayerdaligini, ziyofatga nima sababdan kelmaganini birov bilmasa-da, Bilboning Dunadan do'stini topib kelishlari uchun har tomon chopar yuborildi.

Bilboning do'sti topilguncha ota-bola yonma-yon o'tirishdi. Sem ham ularning oldiga joylashdi. Uchovlon zalda kechayotgan xushchaqchaqlik, yangrayotgan musiqaga e'tibor qilmay, asta suhbat boshlashdi. Bilbo o'zi haqida ko'p yangilik aytmadi. Ma'lum bo'lishicha, bir zamonlar Hobbitonni tark etgan Bilbo ma'lum vaqt katta yo'l bo'yida maqsadsiz izg'ib yurgan, lekin, baribir, Dorilamonga yaqinlashib boravergan.

– Bu yerga men moncsiz yetib keldim, – dedi Bilbo. – Biroz hordiq chiqargach, hamroh gnomlarim bilan Deyl tomon yo'l oldim. Bu mening so'nggi safarim bo'ldi. Qariya Balin So'qqa tog'ni tark etgach, izimga qaytib, shu yerda qoldim. O'zimga ish topdim. Kitobim ustida ishlashni davom etdim va tabiiyki, bir nechta qo'shiq yozdim. Bu yerda ba'zan men yozgan she'rlarga kuy bastalanib, qo'shiq qilib kuylab ham turishadi. Menga xushomad qilish maqsadida bo'lsa kerak-da, bilmadi. Chunki u qo'shiqlar Dorilamondek nufuzli joyda aytilishiga munosib emas, deb o'ylayman. Qo'shiq eshitish barobarida chuqur o'y suraman. Vaqt o'tayotgani bilinmaydigan ajoyib joy.

Tog' tizmasidan janubgacha cho'zilgan barcha yangiliklardan xabar topib bordim, ammo Shirga doir gaplar kamdan kam yetib keladi. Uzuk to'g'risida eshitganman, albatta. Gendalf bu yerga tez-tez tashrif buyurib turadi. So'nggi vaqtda biz u bilan juda yaqin bo'lib qoldik, garchi u Shir haqida menga ko'p gapirma-  
sa-da. Gendalfga nisbatan Dunadan ko'proq gapiradi. Mening Uzugim bunchalik g'alva ko'tarishi g'aroyib bir holat. Gendalf Uzuk tarixini kech bilgani chatoq bo'ldi. Bilganimda Uzukni bu yerga o'zim olib kelgan bo'lar edim, hech bir qiyinchiliksiz. Hobbitonga qaytish masalasini ham ko'p o'yladim, ammo men qarib, uzoq yo'lga yaramaydigan bo'lib boryapman. Boz ustiga Gendalf bilan Elrond ham yo'lga o'tlanishga ruxsat berishmadi.

Nima emish, dushman meni qidirayotgan, agar Yovvoyi o'lkada tutib olguday bo'lsa, qattiq qiynoqqa solar emish.

Gendalf menga: «Uzuk seni tark etdi, Bilbo. Uni qaytarib olishga urinadigan bo'lsang, o'zingga ham, boshqalarga ham musibat yetadi», – deganicha turib oldi. Gendalfga xos bo'lmagan g'alati gap bo'ldi bu, lekin. Sendan ko'z-quloq bo'lib turganini aytgach, ko'nglim ancha tinchlandi. Seni sog'-salomat ko'rib turganimdan nihoyatda xursandman, Frodo.

Biroz sukut saqlagan Bilbo shubha ila Frodoga qaradi.

– Uzuk yoningdami? pichirladi u. – Shuncha eshitgan gaplarimdan so'ng qiziquvchanligimni tiya olmayapman. Uni yana bir bor ko'rgim kelyapti.

– Yonimda, – istar-istamas javob berdi Frodo. Hech qayeri o'zgarгани yo'q. Ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday.

– Bir daqiqaga ko'rsat, – iltimos qildi Bilbo.

Frodo uxlab yotganda uning Uzugidan yengilgina, pishiq zanjir o'tkazilib, bo'yniga osib qo'yilgan edi. Buni u boya kiyinayotganda ko'rdi. Frodo zanjirni bo'ynidan asta yechdi. Bilbo qo'lini uzatdi. Frodo esa shu zahoti Uzukni tortib oldi. Hayrat-u, dahshat-la fahmlashicha, hozir ko'ziga Bilbo ko'rinmay qoldi. Ikkalasining o'rtasiga ko'lanka tushib, qarshisida qandaydir yovuz, ochko'z, qo'li qoq suyak, pakanagina mavjud turganday bo'ldi.

Musiqa tinib, hamma jim bo'lganday, oraga og'ir sукunat cho'kkanday bo'ldi. Bilbo Frodoga qarab, qo'lini ko'zi oldida siltadi.

Tushundim, – dedi Bilbo. – Bekit uni! Bunday og'ir yuk bilan yurganingdan juda afsusdaman, juda. Nahotki buning oxiri bo'lmasa? Chindan ham, oxiri yo'q ko'rinadi. Uzuk tarixini kimdir davom etishi kerak. Buning davosi yo'q. Kitobimni oxiriga yetkaza olamanmikan? Qo'y, hozircha buning tashvishini qilmay turaylik. Shirdan gapir menga, Shirdan!

Frodo Uzukni bekitishi bilan ko'z oldida hosil bo'lgan ko'lanka izzsiz bartaraf bo'ldi. Dorilamonning chirog'i porlab, musiqasi yangradi. Baxtiyor Bilbo kulib boqdi. Shir haqidagi

yangiliklarning arzimasi, aytaylik, daraxtlar bargi to'kilishidan tortib, eng mitti Hobbiton hobbitchasining sakrashigacha bo'lgan mayda tafsiloti ham Bilboni quvontirdi. Frodo yangiliklarni gapirsa, Sem qo'shimcha qilib turdi. Uchovlon Shir ishlariga shu darajada berilib ketibdiki, egniga to'q yashil kiyim kiygan kishi kelib, jimgina kulib turganini sezishmadi.

– Ana, nihoyat Dunadan ham keldi! – xitob qildi boshini ko'tarib qaragan Bilbo.

– Musofir! – dedi Frodo. – Isming ko'p ekanmi, sening?

– Kim deding uni? – hayron bo'ldi Bilbo. – Uning Musofir degan ismini eshitmaganman, – e'tiroz bildirdi u.

– Tog'bag'ri qishlog'ida meni shunday deb chaqirishadi, – kulib yubordi Musofir. – Frodoga ham meni shunday deb tanishtirishgan.

– O'zing-chi, o'zing nega Dunadan deb chaqiryapsan uni? – qiziqdi Frodo.


– Dunadan deb? Chunki uni bu yerda shu ism bilan tez-tez chaqirib turishadi. Elf tilini sal-pal bilasan-u: dunadan, to'g'riroq talaffuz qilinadigan bo'lsa, duye-edayn – g'arblik odam degan ma'noni anglatadi. Lekin hozir elf tilidan dars o'tish mavridi emas! Qayerda yuribsang, do'stim? – so'radi u Musofirga yuzlanib. – Ziyofatda ko'rinmabsang? Arven xonim ham shu yerda-yu?

– Bilaman, lekin xushchaqchaqlikdan tez-tez voz kechib turishga to'g'ri keladi menga, – javob berdi Musofir. – Elnadan bilan Elrogir Yovvoyi o'lkadan qaytib kelishibdi. Ular men boxabar bo'lishim kerak bo'lgan yangiliklar keltirishgan.

– Ishlaringni bitirgan bo'lsang, biroz vaqt ajratib, menga sal qarashib yuborasanmi? – dedi Bilbo. – Yordam bermasang bo'lmaydi. Elrond mana bu qo'shig'imni ushbu oqshom oxirigacha yozib tugatishni buyurdi. Qo'limdan kelmayapti. Xo'v narigi burchakka o'tib, biroz shug'ullanaylik.

-- Qani, yur-chi, – kuldi Musofir. – Yozganingni o'qib ber-chi menga.

Sem o'tirgan joyida uxlab qolgani bois Frodo yolg'iz





qoldi. Atrofida Dorilamonning butun boshli aholisi yig'ilgan bo'lishiga qaramay hozir u o'zini yolg'iz qolganday his etdi. Qo'shni kursilarda hech narsaga e'tibor qilmay, jim o'tirganlar musiqani diqqat-la eshitishmoqda. Frodo ham musiqa e'tibor qildi.

Shu zahoti u musiqaning go'zalligiga, garchi yaxshi tushunmasa-da, elf tilining xushohangligiga maftun bo'ldi. So'zlar asta-sekin muayyan ma'noga ega bo'lib bordi, uning ko'z o'ngida hech qachon ko'rmagan olis yurtlar manzarasi, ajoyib buyumlar namoyon bo'ldi. O'choq olovi dunyoning bir chetidagi dengiz ko'pigi singari tevarak-atrofni tilla tusli dudi-la qamray boshladi. Hobbitning vujudini dahshat qamrab bormoqda. Mudroq bosgan Frodo o'zini erigan oltin va kumushning oxiri ko'rinmas daryosi sohilida o'tirganday his etdi. Daryoda aks etgan tasvir juda murakkab, ilg'ash qiyin kechib, Frodo chuqur uyquga ketdi.

Uyqu qirolligida uzoq kezgan pakananing qulog'iga tanish ovoz chalindi. Iye bu, she'r o'qiyotgan Bilboning dastlab past, so'ng bora-bora aniq-tiniq eshitalayotgan ovozi-yu.

Qo'shiq yakuniga yetib, ko'zini ochgan Frodo Bilboni kulib, qarsak urayotgan tinglovchilar davrasida o'tirganini ko'rdi.

– Juft bo'lsin, yana bir eshitaylik, – dedi elflardan biri.


Bilbo o'rmdan turib, chuqur ta'zim qildi.

– Ijodim mahsuli sizlarga yoqqanidan juda mamnunman, Lindir, – dedi u. – Lekin qo'shiqni boshidan oxirigacha takrorlash – menday qariyani charchatadi, sizlarni ham zeriktiradi.

– Yo'q, yo'q, zerikmaymiz, – tabassum-la e'tiroz bildirishdi elflar. – O'zing yozgan she'rlarni o'qishdan tolmasligingni bilamiz. Ammo biz she'ringni bir marta eshitiboq savolingga javob bera olmaymiz.

– Nima?! – xitob qildi Bilbo. – Nahotki men yozgan misralar bilan Dunadan yozgan misralarni bir-biridan farqlay olmasangiz?

– O'limi muqarrar ikki inson o'rtasidagi farqni ilg'ab olish biz elflarga oson kechmaydi.



– Qo'ysang-chi, Lindir, – pishqirib qo'ydi Bilbo. – Agar novcha inson bilan pakana hobbit o'rtasidagi farqni ko'rmas ekansizlar, demak, sizda mulohazalilik saviyasi yo umuman yo'q, yo men o'ylagandan ancha past darajada ekan. No'xat bilan olmaday farq qilamiz-u, axir, biz.

– Bo'lishi mumkin. Qo'ylar orasidagi farq qo'ying ko'ziga ko'rinadi, xolos, – kuldi Lindir. – Yoki cho'ponga... O'limi muqarrarlar bizni qiziqirtirmaydi. O'zimizning tashvishlarimiz yetarli.

– Bu borada bahslashmayman, – dedi Bilbo. – Shuncha musiqa va qo'shiqdan keyin biroz uxlashni istayman.

O'rnidan turgan Bilbo Frodo tomon odimladi.

– Xo'sh, bu yerda qiladigan ishim bitdi, – pichirladi u. – Kutganimdan a'lo bo'ldi. Yozganimni takror o'qib berishni har doim ham iltimos qilaverishmaydi. Nima deding?

– Bir nima deyishga til ojiz, – dedi Frodo kulib.


– Unday bo'lsa indamay qo'ya qol. Umuman aytganda, qo'shichni boshidan oxirigacha o'zim yozdim. Aragorn misralar orasida silmaril javohiriga ham joy topilishi kerakligini talab qilgancha turib oldi, xolos. Bilmadim nega, lekin uning fikricha, bu juda muhim narsa ekan. U she'rimni boshidan oxirigacha eshitib, Elrondning uyida Erendil haqida she'r o'qish – bu, mening ishim ekanligini aytdi. O'ylashimcha, u haq.

– Bilmadim nega, lekin she'ring nimasi bilandir menga yoqti. O'qishni boshlaganingda men mudrab o'tirgan edim, tushim davom etganday bo'ldi, garchi nimalar deyotganingni oxirigacha tushunmagan bo'lsam-da.

– Bu yerda ko'nikish hosil qilguningcha uxlab qolmaslikning iloji yo'q, – dedi Bilbo. – Hobbit hech qachon elfchalik qo'shiqsevar, musiqasevar, crtaksevar bo'la olmaydi. Elflar bularning barini biz ovqatni xush ko'rganday yaxshi ko'rishadi. Yur, biror yerda xotirjam gaplashib o'tiramiz.

– Chiqib ketsak bo'laverarmikan?

– Albatta, hozir majlis emas, shunchaki vaqtichog'lik bo'lyapti, xolos.



Ikkala hobbit o'rnidan turib, qorong'iroq joyga asta o'tishdi-da, chiqish eshigi tomon odimlashdi. Sem o'tirgan joyida jilmaygancha uxlayapti. Bilbo bilan birga bo'lganidan sevinganiga qaramay, Frodo Olov zalini tark etgani uchun kutilmaganda achindi. Ostonadan hatlab tashqariga chiqishar ekan, orqada kimningdir kuchli, tiniq ovozi qo'shiq cho'zib qoldi:

*Elberet Giltoniel,  
Siliven penna miriyel  
O menel aglar elepat!  
Na-chayered palan-diriyel  
O galadreimin epporat,  
Fanuilok, le linnaton  
Nef ayer, si nef aeron!*

Frodo o'girilib, ichkariga qaradi. O'choq olovi o'z kursisida o'tirgan Elrondning yuzini yoritmoqda. Uning yonida Arven xonim o'tiribdi. Musofirni shunday go'zal ayol oldida ko'rgan Frodo biroz hayratlandi. To'q yashil plashini yechgan Musofir hozir elflar kiyimida bo'lib, bo'yniga yulduz osgan. Musofir bilan pichirlashayotgan Arven Frodoga qaradi. Ayolning nigohidan taralgan nur hobbitning qalbini teshib o'tdi.

Frodo sehrlanganday tek qotdi, elf qo'shig'ining mayin ohangi esa javohirotday yog'ilmoqda.

– Elberet qo'shig'i bu, – dedi Bilbo. – Buni va baxtiyor qirollikning boshqa qo'shiqlarini tong otguncha aytishadi endi ular. Ketdik!

Bilbo jiyani o'zining mo'jazzgina xonasiga olib kirdi. Old tomoni Bruinen darasiga qaragan xona boqqa olib chiqdi. Ikkalasi muayyan vaqt baland o'sgan o'rmon ustidagi yorqin yulduzlarni tomosha qilgancha suhbat qurib o'tirishdi. Ular endi Shirga doir yangiliklar, atrofnı qurshab olgan ko'lanka va tahdidlar haqida emas, birga ko'rishgan chiroyli narsalar, elflar, yulduzlar, daraxtlar, o'rmondagi xazonrez haqida gaplashishmoqda.

Eshik taqilladi.

– Ma’zur tuting, – eshitildi Semning ovozi. – Biron nima kerak emasmikan sizlarga, deb kelgan edim.

– Uzi, Sem Skrombi, – javob berdi Bilbo. – Sohibing ko’rpasiga kirib yotishini istasang kerak.

– To’g’risini aytadigan bo’lsam, ser, ertaga ertalab Kengash o’tkazilar ekan, – ma’lum qildi Sem. – Janob Frodo esa bugun endigina oyoqqa turdi.

– Gaping to’g’ri, Sem, – kuldi Bilbo. – Borib Gendalfga sohibing uyquga yotganini aytishing mumkin. Xayrli tun, Frodo! Seni yana ko’rganimdan bag’oyat xursandman! Yaxshi suhbat nima ekanligini hobbitgina tushunadi, xolos. Qariyapman, ba’zan oilaviy tariximizning senga taalluqli boblarini ko’rish menga nasib qilish-qilmasligi haqida o’ylanib qolyapman. Xayrli tun! Men biroz sayr qilib, Elberet yulduzining bog’imizdan ko’rinishini tomosha qilmoqchiman. Xotirjam uxlayver!

## II BOB

### ELROND KENGASHI

Ertasiga ertalab Frodo o’zini tetik, sog’-salomat his etgancha uyg’ondi. Sershovqin Bruinen ustidagi ayvonga chiqqan hobbit olis tog’lar ortidan ko’rinish berayotgan xira quyoshning kumush tusli tuman ortidan nur taratishini tomosha qildi. Sarg’aygan barglar sirtidagi shabnam yaltirab, shoxlar orasidagi ingichka o’rgimchak ini titramoqda.

Havoni hidlab, sharqdagi qor qoplagan tog’ cho’qqilariga hayrat-la qarab-qarab borayotgan Sem Frodoning ortidan indamay kelmoqda. Muyulish oldida toshdan yo’nib tayyorlangan bog’ kursisi ko’rindi. Unda o’tirgan Gendalf bilan Bilbo berilib suhbat qurishmoqda.

– Xayrli tong! – ko’rishdi Bilbo. – Katta Kengash yig’ilishiga tayyormisan?



Men hamma narsaga tayyorman, – javob berdi Frodo.  
– Lekin hammasidan ham ko‘proq vodiyni kezib chiqib, ho‘v  
anavi qarag‘ayzorgacha yetib bormoqchiman, – dedi u Dorilo-  
monning shimolidagi olis nishablikka imo qilib.

– Bunday imkon bo‘ladi hali senda, faqat sal keyinroq, –  
dedi Gendalf. – Hozircha bugungi kuningni rejalashtirmay tur.  
Chunki bugun biz ko‘p gaplarni eshitib, muhokama qilishimiz  
kerak.

Shu paytda qo‘ng‘iroq zarbi eshitildi.

– Elrond kengashiga chorlash zarbi bu. Qani, yuringlar!  
– xitob qildi Gendalf. Unga ikkalangiz ham taklif qilingansiz.

Frodo bilan Bilbo schrgarning ketidan ilang-bilang cho‘-  
zilgan so‘qmoqdan Kengash yig‘ilishi o‘tkaziladigan bino tomon  
tez odimlashdi. Uchalasining ortidan esa Kengashga taklif qilin-  
may, ayni fursatda unutilgan Sem indamay odimladi.

Gendalf hobbitlarni kecha Frodo o‘z do‘stlarini ko‘rgan  
ostonaga olib keldi. Vodiya kuzning yorqin tongi hukm sur-  
moqda. Ko‘piklab oqayotgan daryo shovqin solmoqda. Sayroq  
qushlar xonish qilib, yerni keng qamrovli dunyo quchib olganday  
go‘yo. Shirdan xavfli holatda qochgani-yu, olam uzra quyuy-  
lashib borayotgan zulmat haqidagi gaplar endi Frodo uchun  
notinch kechgan uyquday ortda qoldi, ammo Katta Kengash  
yig‘ilishiga kelgan odamlarning yuzi jiddiy qiyofa kasb etgan.

Elrondning yaqinida yana bir necha kishi o‘tiribdi. Frodo  
Glorfindel bilan Gloinni tanidi. Egniga yana o‘sha eski kiyimini  
kiyib olgan Musofir bir burchakda yakka o‘zi o‘tiribdi. Elrond  
Frodoni yoniga o‘tqazib, hammaga tanishtirdi:

– Qadrli do‘stlar, bu kishi Drogoning o‘g‘li hobbit Frodo  
bo‘ladi. Bu yerga hayot uchun xavfli tahdidlarni Frodo singari  
yengib, o‘ta muhim ish bilan kelganlar kam bo‘lgan.

Shundan so‘ng Elrond Frodo ilgari ko‘rmagan kishilarni  
tanishtira ketdi. Gloinning yonida yosh gnom o‘tiribdi. Bu uning  
o‘g‘li Gimli ekan. Glorfindelning yonida Elrond xonadoniga  
mansub Kengash a‘zolari o‘tirishibdi. Ular orasida Elrondning  
bosh vaziri Erestor hamda Kumushrang bandargohdan Kemasoz

Kirdanning topshirig'ini olib kelgan Gildor ham bor. Kengashga, shuningdek, egniga yashil-qo'ng'ir kiyim kiygan notanish elf Legolas ham hozir bo'lgan. Ma'lum bo'lishicha u, Yovuz o'rmonning shimolidagi elflar qiroli Tranduilning o'g'li bo'lib, Rivendellga otasining xabarchisi sifatida kelgan.

Sal narida salobatli, nigohi qat'iy, qora sochli, kulrang ko'zli, bir qarashda dimog'i baland ko'rinayotgan novcha xalq vakili bo'lmish o'ktam yigit o'tiribdi. Oyog'iga etik, egniga plash kiyganiga qaraganda otda olis safarga hozirlanib olganday ko'rinmoqda, garchi plashiga astar sifatida mo'yna tikilgan boylarga xos kiyimida uzoq safar alomati ko'rinayotgan bo'lsa-da. Jingalak sochi yelkasiga tushgan, bo'yniga bittagina oq tosh o'tkazilgan zanjir osgan ushbu yigitning tizzasida kumush qisqich bilan mustahkamlangan bo'lib, qilichboqqa qadalgan kattagina burg'u yotibdi. Ushbu yigit Frodo bilan Bilboga bir nimani eslaganday hayrat-la baqrayib qoldi.

– Janubiy o'lkadan kelgan mana bu yigitning ismi esa Boromir bo'ladi, – tanishtirishni davom etdi Elrond Gendalfga murojaat qilib. – Maslahat olish niyatida bugun ertalab yetib kelibdi. Uni Kengash yig'ilishiga taklif qildim. Chunki bu yerda u o'zining barcha savollariga javob oladi.

Elrondning Kengashida tilga olinib, muhokama qilingan narsalarning barini batafsil bayon etish shart emas. Dunyoda, ayniqsa janubda, tog'larning sharqiy etagida yuz berayotgan hodisalar haqida ko'p gapirildi. Frodo bu haqda ko'p eshitgan, lekin Gloinning ma'lumotlari chindan ham yangilik bo'lib, Frodo gnomning gapini boshidan oxirigacha diqqat-la eshitdi. Aftidan, buyuk bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanishayotganiga qaramay, So'qqa tog' gnomlarini nimadir bezovta qilayotgan ko'rinadi.

– Xalqimiz ongiga ko'p yillardan buyon bir tashvish soya solib kelmoqda, – dedi Gloin. – Qayerdan keldi u tashvish, dastlab tushunmadik. Yurtimizga sirli ravishda turli mish-mish gaplar yetib keldi. Ularda aytilishicha, biz cheklangan makonga qamalib olib, tashqi olamda yanada ko'proq boylik va saltanat

topish mumkinligini bilmay yurgan emishmiz. Ba'zilar Moriya haqida, ota-bobolarimiz bunyod etgan yerosti shahri haqida gap ochishdi. U yer bizning tilimizda Kazad-Dum deya atalib, o'sha shaharga ko'chib o'tish uchun yetarlicha qudratga ega ekanligimiz haqida da'volar qilindi.

Gloin biroz sukut saqlab, chuqur xo'rsindi.


– Moriya! Bir zamonlar shimol o'lkasining mo'jizasi bo'lgan! Biroq biz gnomlar haddan ortiq chuqur qazib Olovli ofat – Balrogni uyg'otib yubordik. Gnomlar urug'ining asoschisi Dyurinning farzandlari qochib ketgach, ko'lamdor qasrlar uzoq vaqt xo'jasiz qoldi. Oradan ko'p yillar o'tib, yana Moriya haqida gap ochildi: tilaklar-u, istaklar bilan qo'rquv uyg'unlash. Ko'p qirollar o'tgan, ammo Trordan boshqa hech kim u yerga yaqin borishga jur'at eta olmadi. Tror ham o'sha yerda o'lim topdi. Afsuski, Balin mish-mishchilarning gapiga laqqa tushib, safarga hozirlik ko'rishga qaror qildi. Balin Deynning istar-istamas bergan ruxsati ila o'zi bilan Ori va Oindan tashqari ko'plab boshqa hobbitlarni ham ergashtirib, janub tomon yo'l oldi.

Balinning So'qqa tog'ni tark etganiga o'ttiz yildan oshdi. Ulardan ma'lum vaqt har xil xabarlar kelib turdi. U xabarlar mazmunan yomon bo'lmagan. So'nggi kelgan xabarda ular Moriyaga yetib, ish boshlashgani haqida gap borgan. O'shandan buyon balindan darak yo'q. Boshqa birorta xabar yetib kelmadi bizga.

Taxminan bir yilcha oldin Deynning huzuriga xabarchi keldi. Faqat u elchi Moriyadan emas Mordordan kelgan edi. Uning aytishicha, Buyuk Sauron biz bilan do'stona munosabat o'rnatish niyatida bo'lib, bizga qadimda berilgandek uzuklar hadya qilmoqchi emish. O'sha kuni otliq elchi hobbitlar haqida surishtirib, qayerda yashashlari bilan qiziqdi.

«Hobbitlardan birini sizlar o'z vaqtida yaxshi taniganlaringni Sauron biladi», -- dedi elchi.

Biz xavotirga tushib, o'sha kuni elchining ushbu gapiga tayinli javob qaytarmadik. Muloyim ohangda gapirishga uringan elchi ovozi pasaytirdi:



«Do'stligingiz isboti tariqasida Sauron o'g'ri hobbitni qidirib topishni sizlardan iltimos qilmoqda, – dedi u. – Topgach, o'sha hobbitdan bir vaqtlar o'g'irlab ketgan mayda Urukchani kuch-la tortib olishingizni yoki o'z ixtiyori bilan topshirishiga erishishingizni tayinladi. Sauronning ushbu arzimas xarxashasini ijro etishingiz samimiyligingiz isboti bo'ladi. Hobbitni toping va siz qadimda gnomlar qirollari ega bo'lgan uchta Urukni qo'lga kiriting. Bundan tashqari, Moriya qirolligi ham yana o'z tasarrufingizga o'tadi. Anavi o'g'ri qayerda yashashi haqida ma'lumot bersangiz bas, hukmdorning rag'batini va do'stligiga ega bo'lasiz. Bosh tortadiga bo'lsangiz, ko'p o'tmay pushaymon bo'lasiz. Xo'sh, bosh tortasizmi?»

Elchining so'nggi so'zlari ilonning vishillashiday eshitilib, hamma undan orqaga tisarildi.

«Hozir men bosh ham tortmayman, rozilik ham bermayman, – dedi Deyn. – Sen keltirgan taklifni o'ylab ko'rishim, bir qaraganda chiroyli eshitilgani bilan, zamirida nima borligini anglab yetishim kerak».

«O'ylab ko'r, lekin uzoq cho'zma», – tahdid ohangida ogohlantirdi elchi.

«Qancha vaqt o'ylash mening ishim», – o'shqirdi Deyn.

«Unday bo'lsa, ko'rishguncha», – dedi otliq, qorong'ilikka kirib ketib.

Xalqimiz dohiylarining yuragi o'sha kecha xo'p alag'da bo'ldi. Ohangidagi firib va tahdidni uqish uchun elchining gapini diqqat-la fikr tarozisidan o'tkazishga ehtiyoj bo'lmadi. Mordorning qudratini, Sauronning qabih tabiati o'zgarimas qolishini biz yaxshi bilamiz. Zero, o'tmishda u bizga ko'p xoinlik qilgan. Mordor xabarchisi ikki marta kelib, javobsiz qaytdi. Uchinchi va gapiga qaraganda, oxirgi marta yil oxirida kelishi haqida ogohlantirib ketdi.

Shunda qirol Deyn Bilboni dushman ta'qibi haqida ogohlantirish va o'sha Uruk yovga nimaga kerak bo'lishi mumkinligini bilib kelish uchun huzuringizga meni elchi qilib yo'lladi. Shuningdek, janob Elrondning maslahatiga ehtiyoj bor.




Ko'lanka tobora o'sib, yurtimiz hududiga yaqinlashmoqda. Bili-shimizcha, Sauronning elchisi, shuningdek, Deylga, qirol Brend-ning huzuriga ham kirib chiqqan va qirol bunday tashrifdan gattiq qo'rqqan. Qirol dushmanga yon berishi mumkinligidan xavfsiramoqdamiz. Boz ustiga, Deyl qirolligining sharqiy chega-rasida urush xavfi yuzaga kelgan. Agar biz tegishlicha javob bermaydigan bo'lsak, dushman o'z izmidagi odamlar qo'shinini qirollar Brend va Deynga qarshi chiqarishi mumkin.

- Bu yerga kelib yaxshi qilgansiz, - dedi Elrond. - Dushman ko'zlagan maqsadni fahmlashingiz uchun bugun ko'p narsalarni eshitib, bilib olasiz. Umid-la yoki umidsiz bo'lsa ham dushmanga qarshilik ko'rsatishingizga to'g'ri keladi. Biroq siz yolg'iz qolmaysiz. Sizning xavotiringiz - jamiki g'arbiy olamni xavotirga solgan muammoning faqat bir qismiligini anglab yeta-siz.

Bugun hal etishimiz kerak bo'lgan eng muhim masala Uzuk masalasidir! Sauronning xarxashasi sanalib, Uzuklar orasidagi eng buyuk Uzuk - Hukmdorlik Uzugini nima qilamiz? Sizlar aynan mana shu masala yuzasidan chaqirilgansiz. Cha-qirilgansiz dedim, garchi olis o'lkalardan kelgan siz musofirlarni hech kim tanimagan bo'lsa-da. Siz Rivendellga kelib, shu yerda, ayni vaqtda yuz ko'rishib turibsiz. Bu sizga tasodifday ko'rinishi mumkin, albatta. Ammo bugungi uchrashuv tasodif emas, qis-matga bitilgan ishdir. Dunyoda hukm surayotgan yovuzlikni yengish borasida boshqa birovlar emas, siz-u, biz kengashib olishimiz kerak.

E'tiboringizga faqat tor doiragagina ma'lum bo'lib, bu-gungi kunga qadar hammadan sir tutilgan ma'lumotlar ushbu Kengash yig'ilishida to'la-to'kis havola etiladi. Yuzaga kelgan xavf mazmunan nimadan iborat ekanligini idrok etishingiz uchun dastlab sizga Uzuk haqida qissa boshidan oxirigacha, ya'ni shu bugungi holatigacha batafsil aytib beriladi. Qissani men boshlab beraman, qolganlar naybat bilan davom etadi.

Elrond o'zining aniq va tiniq ovozi bilan Sauron haqida, shuningdek, olis o'tmishda, dunyoning ikkinchi davrida eritib



quyilgan Hukmdorlik Uzuklari haqida gapira boshladi. Hamma diqqat bilan quloq soldi. Kengashda o'tirganlarning ayrimlari ushbu qissaning ma'lum bir qismidan xabardor, ammo to'la-to'kis mazmunidan hech kim voqif bo'lmagan. Binobarin, Eregiondagi elf zargarlari va ularning Moriy bilan yo'lga qo'ygan do'stona munosabatlari, zargar elflarning bilimga chanqoqligi va bundan foydalangan Sauron ularni tuzoqqa ilintirgani haqida gapirayotgan Elrondga ko'pchilik dahshatla baqrayib qoldi. O'shanda Sauron o'zining yovuz tabiatini ochiqdan ochiq namoyon etmagan, elf zargarlari uning yordamini qabul qilib, kasbiy mahoratlari qudrat topgan, Sauron ham o'z navbatida elflarning kasbiga oid sir-asrorlardan voqif bo'lib olgan. Shundan so'ng Sauron elf ustalarga xiyonat qilgan va yakka hukmdor bo'lish maqsadida tog' olovida Uzuk yasagan. Biroq Sauronning niyatini fahmlagan Kelebrimbor ismli usta elf o'zi yasagan uzuklarning uchtasini Saurondan yashirgan. Shundan so'ng urush boshlanib, yer huvullab qolgan, Moriya darvozasi esa yopilgan.

Keyingi yillar davomida Sauron tinim bilmay uzuk qidirgan. Ammo mazkur asarda Uzuk haqidagi qissani jamiki tafsilotlari bilan to'la-to'kis bayon etishning iloji yo'q. Chunki bu buyuk va dahshatli hodisalarga boy uzoq tarixdir. Elrondning gapi tugagan fursatda tong o'tib, quyosh o'z cho'qqisiga yetdi.

Elrond Numenor qirolligi, uning shuhrati, ravnaqi-yu, qulashi, odam qirollarning dengiz ortidan O'rtayerga qaytishi haqida gapirdi. Novcha Elendil va uning qudratli o'g'illari Isildur bilan Anarion buyuk hukmdorlar bo'lib, Arnorda Shimoliy, Anduin daryosining etagidagi Gondorda esa Janubiy qirolliklarga asos solishdi. Biroq Mordordagi Sauron ushbu qirolliklarga hujum qildi. O'shanda ikkala qirollik odamlar bilan elflar o'rtasida tuzilgan so'nggi ittifoq bitimini imzolashdi va Gil-Gelad bilan Elendil qo'shinlari Arnorda hukm surishdi.

Elrond biroz sukut saqlab, chuqur xo'rsindi.

- Ko'rkam bayroqlarining hilpirashi hamon esimda. O'sha fursatda men buyuk shahzodalar-u, ulug' sarkardalar yig'ilgan Beleriand qo'shinlarining qadimiy kunlarini esladim, -

dedi Elrond. – Lekin u darajada ko‘p, Tangorodrim zabt etilgan-day ko‘rkam bo‘lishmagan, ellar yovuz kuch barham topdi degan xayolga borishgan. Aslida esa unday bo‘lmagan.


– Esimda deganday bo‘ldingizmi? – so‘radi Frodo o‘zi kutmagan baland ovozda. – Bilishimcha, – tutildi hobbit, Elrondning nigohiga to‘qnash kelib, – o‘ylashimcha, Gil-Geladning qilashi uzoq tarixda yuz bergan.

– Chindan ham shunday bo‘lgan, – jiddiy ohangda javob berdi Elrond. – Ammo mening xotiram yanada uzoq tarixga borib taqaladi. Otam Gondolinda tug‘ilgan Erendil, onam esa doriatlik Lyutiyenning o‘g‘li Diordan tug‘ilgan qiz Elving bo‘lgan. Men g‘arb dunyosining uchala davrini ko‘rganman, ko‘pdan ko‘p muvaffaqiyatsizlik va undan-da bisyor besamar g‘alabalar shohidi bo‘lganman. Gil-Geladning qurolbardori sifatida uning tasarrufidagi qo‘shin tarkibida ilgarilaganman. Mordorning qora darvozasi yaqinidagi Dogorlad bo‘zag‘asida kechgan jangda ishtirok etganman. Biz u yerda g‘alaba qozondik. Hech kim Gil-Geladning qalqoni Anglosga va Elendilning shamshiri Narsilga bas kela olmadi. Orodruin etagidagi so‘nggi jangni ham o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Gil-Gelat ham, Elendil ham o‘sha jangda halok bo‘lishgan. Narsil ham o‘z sohibining ostida singan. Sauron ham o‘sha kuni ag‘darilgan. Isildur o‘z otasining siniq qilichi vositasida Sauronning qo‘lini chopib tashlab, barmog‘idan tortib olgan Uzugini o‘ziniki qilib olgan.

Shu yerga kelganda Elrondning gapini chet ellik Boromir bo‘ldi.

– Shunaqa deng! – xitob qildi u. – Uzuk haqidagi ushbu qissani janubliklar, balkim, bir vaqtlar bilgandir, lekin unut bo‘lib ketganiga ko‘p bo‘lgan. Ismi biz tomonlarda tilga olinmaydigan dushmanning Buyuk Uzugi haqida eshitganman, albatta, lekin biz uni birinchi qirollik xarobalarida gum bo‘lgan, deb eshitgan edik. Uzukni Isildur o‘ziniki qilib olgan, deng. Ana xolos!

– Afsuski, shunday bo‘lgan, – dedi Elrond. – Isildur unday qilmasligi kerak edi. Uzukni u Sauronning o‘sha buyumni




bunyod etgan, jangda chopib uzilgan qo'li bilan birga Orodruin oloviga uloqtirishi kerak edi. Biroq Isildurning qilgan ishini ko'pchilik ko'rmagan. Uzul-kesil hal qiluvchi jangda otasining yonida u yolg'iz o'zi turgan, Gil-Geladning yonida esa Kirdan Kemasoz bilan men turganman. Afsuski, Isildur bizning maslahatimizga quloq tutmadi.

«Buni men otam bilan ukam uchun xun haqi sifatida olaman», – dedi u bizga. Biroq Uzuk ko'p o'tmay Isildurga xiyonat qildi. Shu bois shimol o'lkalarida Uzukka «Isildurning la'nati», deya nom berildi. To'g'risini aytish joizki, Isildurning Uzukka ega bo'lish qismatidan ko'ra o'lim topgani yaxshi bo'ldi.

Bu gap yuqorida aytganimdek, faqat shimolda, tor doiragagina ma'lum bo'lgan. Shunday ekan, Boromir, bexabar bo'lganingizning ajablanarli yeri yo'q. Isildur halok bo'lgan Quvonch dalasi janggohidan uch kishigina tog'larda uzoq kezib omon qaytgan. Ulardan biri Isildurning qurolbardori Otar bo'lib, o'zi bilan Elendilning qurolidan qolgan bo'laklarni ko'tarib kelgan. Qurol parchalarini u Isildurning merosxo'ri Valendilga topshirgan. Valendil u vaqtda hali bola bo'lib, shu yerda, Dorilomonda qolgan. Jilvasi xira tortgan Narsil bolg'alab ulanmay, siniq bo'lgan gancha qolgan.

Odamlar bilan elflarning so'nggi Ittifoqi erishgan g'alabasini yuqorida men besamar deb aytdim. Aslida bu gap adolatdan sal yiroq, albatta, garchi yakuniy natijaga erishmagan bo'lsa-da. Sauron zaiflashdi, lekin batamom yo'q qilinmadi. Dushmanning Uzugi yo'qoldi, lekin batamom daf qilinmadi. Zulmat minorasi vayron bo'ldi, lekin poydevori tag-tugi bilan barbod bo'lmadi. Chunki uning poydevori Uzuk hukmi bilan barpo etilgan bo'lib, Uzuk yo'q qilinmaguncha *minora* ham turaveradi. O'sha urushda ko'pdan ko'p elflar, oddiy odamlar toifasiga mansub kuchli jangchilar va ularning son-sanoqsiz do'stlari halok bo'lishdi. Aka-uka Isildur va Anarion o'ldirildi. Gil-Gelad bilan Elendilning ham kuni bitdi. Elflar bilan odamlarning unday ittifoqi boshqa tuzilmagan. Odamlarning avlodi ko'payib, ajdodi qisqarib bordi va oxir oqibatda ikkala irq har tomon tarqab ketdi.



O'sha zamondan buyon Numenor avlodi tanazzulga yuz tutib, hayotlarining davomiyligi qisqarib bordi.

Urushlar-u, xunrezliklardan so'ng, g'arbliklar Quvonch dalasida tushkunlikka yuz tutishdi, ularning Evendim ko'li bo'yida qad ko'targan Annuminas shahri xarobaga aylandi. Valendil avlodi u yerlarni tark etib, shimoliy tepaliklar etagiga ko'chib o'tdi. U yer ham hozirda huvullab qolgan. Odamlar o'sha joyni Murdalar to'g'oni deb atashadi. Dushman Arnor qirolligini yenggach, qirollik fuqarolari har tomon tarqab ketdi. Hukm surgan davri tarix sahifalarida unut bo'lgan o'sha qirollikdan endi maysa bosgan tepaliklardagi yashil qo'rg'onlargina qoldi.

Janubdagi Gondor qirolligi uzoq saqlandi, uning saltanati Numeron qirolligining qulashdan oldingi qudratini eslatgancha o'sib bordi. Aholi baland minoralar, qudratli qal'alar, ko'plab kemalar uchun mo'ljallangan bandargohlar qurdi. Qirollarining qanotli toji turli tillarda so'zlashadigan xalqlarni dahshatga soldi. Ularning asosiy shahri – o'rtasidan daryo o'tgan yulduzsimon qal'a Osgiliat bo'ldi. Sharqda, tog' etagida Ko'tari layotgan Oy minorasi Minas Itilni, g'arbda, Oq tog'lar etagida Botayotgan Quyosh minorasi Minas Anorni bunyod etishdi. O'sha yerdagi qirollar hovlisida oq daraxt o'sadi. Uning urug'i dunyo hali yosh bo'lganda Eressiyadan keltirilgan, Isildur esa daraxt ko'chatini o'z qirolligiga chuqur daryo orqali keltirgan.

Yillarning shiddatli oqimida Anarion avlodi tanazzulga yuz tutdi, numeronliklar nasl-nasabi u qadar ulug'sifat bo'lmaganmar bilan chatishib ketdi. Mordor devoridagi qorovullar uxlab qolib, yovuz maxluqotlar Gorgorotga singib kirishdi. Yovuz kuch ko'payib, Minas Itilni zabt etdi va o'sha yerga ko'chib o'tib dahshat makoniga aylantirdi. O'shandan buyon Minas Itilga Minas Morgul, ya'ni yovuz kuchlar minorasi nomi berildi. Shundan so'ng Minas Anorga Minas Tirit, ya'ni qo'riqchi minora nomi berildi. Ushbu shaharlar o'rtasida tinimsiz urush kechdi. O'rtada qolib, aholisi tashlab ketgan Osgiliat shahri xarobalarida yovuz ko'lankalar izg'iy boshladi.

Odamlarning ko'plab avlodi shu tariqa hayot kechirdi.

Minas Tirit hukmdorlari dushmanga qarshi jang qilgancha kurashni davom etib, Argonatdan dengizgacha ketgan daryo yo'lini muhofaza qilishmoqda. Uzuk qissasining men aytib berishim kerak bo'lgan qismi nihoyasiga yetmoqda. Isildurning davrida Hukmdorlik Uzugi yo'qolib, uchta uzuk uning hukmidan xalos bo'ldi. Bizning davrimizga kelib xavf yana oshib bormoqda, baxtga qarshi Uzuk ham topildi. Uning qanday topilganini, keyingi qismati haqida boshqalar so'zlab beradi. Bunda mening o'rnim ahamiyatsiz bo'lgan.

Elrond gapini tugatishi bilan novcha Boromir o'rnidan turib, viqor-la so'z boshladi.

- Ijzatingiz bilan, janob Elrond, dastlab men Gondor haqida so'zlab bersam, - dedi u. - Zero, men hozirgina Gondordan keldim va u yerda nimalar bo'layotganini hamma bilishi kerak deb topdim. Biz nima dushmanga qarshi murossasiz jang qilayotganimizni ko'pchilik bilmaydi. Binobarin, agar biz mag'lubiyatga uchragudek bo'lsak, sizlarni qanday xavf kutayotganini hech qaysi biringiz tasavvur ham qila olmaysiz.

Gondor zaminida Numeron qoni zaiflashgani, uning g'ururi-yu, faxri unut bo'layotgani haqidagi mish-mish gaplarga ishonmang. Biz namoyon etayotgan jasorat namunalari sharq yovvoyilarining shiddatini va Morgul solayotgan dahshatni qaytarib turibdi. Ortimizdagi o'lkalarning tinchi-yu, erki bizning, g'arb muhofazachilarining sa'y-harakatiga asoslanadi. Biroq, daryo himoyasidagi istehkomlar qo'ldan ketisa, nima bo'ladi?

Bunday holat esa har qanday fursatda yuzaga kelishi mumkin. Ismi tilga olinmaydigan dushman yana qo'zg'aldi. Xalqimiz Taqdir tog'i deb ataydigan Orodruin tog'idan tutun burqirab chiqmoqda. Yovuz zamin kuchi borgan sari oshib-toshib bormoqda. Biz qattiq tashvishdamiz. Dushman qaytgach, qo'shinimiz Iulion deya nomlangan viloyatimizdan daryoning sharqiy sohiliga uloqtirildi. Shunga qaramay, biz u yerda kichik bir jang maydonini qo'lda ushlab, qo'shin saqlab qoldik. Biroq bu yil Mordor kutilmaganda hujum qilib, bizni o'sha yerdan ham quvib solishga muvaffaq bo'ldi. Dushman son jihatdan bizdan

ustun kelmoqda. Chunki Mordor sharqiy o'lkalar aholisi va vahshiy xaradrimlar bilan bizga qarshi ittifoq tuzdi. Ammo biz ozechilik bo'lganimiz uchungina mag'lub bo'lmadik. Biz ilgari uchramagan qudratga duch keldik.

Ayrimlarning aytishicha, oy tusida ko'ziga bahaybat Qora otliqning qora sharpasi ko'ringan emish. U paydo bo'lgan joyda dushman qo'shinlari quturib ketar, bizning eng jasur jangchilarimizning vujudini esa dahshat qamrab olar, odamlar-u, otlar beixtiyor chekinib, qochishar edi. Sharqdagi qo'shinimizning omon qolgan parchasigina Osgiliat xarobalarida hanuzgacha butun turgan yagona ko'prikni vayron qilib ortga qaytdi.

O'zim ham, toki ko'prik ortimizda vayron bo'lib qulaguncha, o'sha inshootni qo'lda saqlash guruhi tarkibida bo'lganman. Daryoni suzib o'tganlar orasida to'rt kishi, xususan, men, ukam va yana ikki nafar jangchi omon qolgan, xolos. Jangni Anduinning g'arbiy sohilini qo'lda saqlagancha davom etdik. Himoyamiz ostidagi odamlar ismimizni eshitib, maqtagancha ko'klarga ko'tarishadi, ammo maqtov ko'p-u, madad kam. Yordam so'raydigan bo'lsak, endi faqat Rohan jangchilarigina kelishyapti.


Bunday yovuz zamonda ko'p lig xavfli yo'l bosib, safarda tanho o'zim bir yuz o'n kun o'tkazib Elrondning huzuriga bir iltimos bilan keldim. Urushda ittifoqchi qidirib kelganim yo'q. Aytishlaricha, Elrondning qudrati uning qurolida emas, oqilligida ekan. Maslahat so'rab, jumboqli so'zlar mag'zini topib berishni iltimos qilib keldim. Zero, dushmanning da'atan uyushtirgan hujumidan oldin ukam bir tush ko'rdi, sal o'tib ukam takror ko'rgan o'sha tushni men ham ko'rdim.

Tushimda sharq zulmati battar quyiqlashdi, momaqaldiroq gumburladi, g'arbda esa xira yorug'lik ko'rinib, u yerdan olis, lekin aniq eshutilgan quyidagi ovoz keldi:

*Singan qilichni qidir*

*Imladrisda yotar u.*

*Kengash o'tar u yerda*



*Morgul so'zidan o'tkir.  
Alomatlar ko'rinar,  
Hayoting ham o'zgarar,  
Isildurning la'nati  
Bunda uyg'onib turar.  
Pakana ham keladi,  
Kengashda o'tiradi.*

Ushbu misralar ma'nosini tushunmagach, ko'rgan tushimizni Gondor qissasini yaxshi biladigan, Minas Tirit hokimi bo'lmish otamiz Denetorga aytib berdik. Otamning aytishicha, Imladris – shimoliy vodiyning qadimiy elfcha nomi bo'lib, u yerda barcha qissalarni yaxshi biladigan yarim elf Elrond yashar ekan. Ahvolimizning nochorligini ko'rib turgan ukam tushga ishonib, Imladris tomon yo'l olishga hozirlik ko'ra boshladi. Biroq safar xatarli kechishini bilgan holda ukamni to'xtatib, yo'lga o'zim chiqishga ahd qildim. Otamning roziligini bir amallab olgach, Elrond xonadonini qidirgancha, unutilgan yo'llardan uzoq yurib keldim. Ushbu xonadon haqida eshitganlar ko'p, lekin qayerdaligini biladiganlar oz ekan.

– Va bu yerda, Elrond xonadonida siz ko'p narsalarni o'zingiz uchun oydinlashtirib olasiz, – dedi o'rnidan turgan Aragorn.


U Elrond qarshisida turgan stolga o'z qilichini qo'ydi. Qurol tig'i ikki bo'lakdan iboratligini hamma ko'rdi.

– Mana bu qurol yuqorida tilga olingan siniq qilichdir! – ma'lum qildi u.

– O'zingiz kim bo'lasiz-u, Minas Tirit qissasiga nima daxlingiz bor? – so'radi Boromir, jahongashta kishining yuzidagi qat'iy qiyofa-yu, egnidagi eskirgan kiyimiga razm solib.

– Bu kishi Araxornning o'g'li Aragorn bo'ladi, – tushuntirish berdi Elrond. – U Minas Itildan chiqqan Elendilning o'g'li Isildurning bevosita avlodidir. U shimollik dunadanlarning rahnamosi bo'lib, uning urug'iga mansub odamlar juda kam qolgan.

– Demak, mana bu Uzuk menga emas senga tegishli





ekan-da, Musofir! – hayrat-la xitob qildi Frodo, Uzuk hoziroq topshirilishini kutganday bo‘lib.

– Uzuk bu yerda o‘tirganlarning hech qaysi biriga tegishli emas, – dedi Aragorn. – Unga vaqtinchalik sohiblik qilish vazifasi esa sening qismatingga yozilgan.

– Uzukni chiqarib hammaga ko‘rsat, Frodo! – buyurdi Gendalf tantanali ohangda. – Mavridi keldi. Baland ko‘tar uni, toki Boromir o‘z topishmog‘ining javobini ko‘rsin.

Oraga sukunat cho‘kdi. Hammaning nigohi Frododa. Hobbitning vujudida xijolat bilan qo‘rquv uyg‘unlashdi, boz ustiga, Uzukni chiqarmoqchi ham emas. Qaniydi hozir u bu yerlardan uzoqda bo‘lib qolsa. Titrayotgan qo‘lini baland ko‘tarib ko‘rsatgan Uzuk quyoshda yaltiradi.

– Marhamat, ko‘ring, Isildurning la‘nati deb shunga aytishadi! – e‘lon qildi Elrond.

Tilla buyumni ko‘rgan Boromirning ko‘zi yarqiradi.

– Pakana! – g‘udulladi u. – Nahotki ayni damda Minas Tiritning taqdiri hal bo‘layotgan bo‘lsa? Siniq qilichni nega qidirdik, unday bo‘lsa?

– O‘sha tushingizda faqatgina Minas Tiritning emas, jamiki jahonning taqdiri, oldimizda turgan buyuk ishlar taqdiri haqida gap borgan, – dedi Aragorn. – Singan qilich – Elendilning qilichidir. Uning halokati bilan bir vaqtda qurol ham singan. Qirol Elendildan qolgan har qanday meros izsiz yo‘qolgan, ammo qilichining bo‘laklari avloddan avlodga o‘tib kelavergan. Xalqimiz orasida yana bir eski rivoyat ham qurol bo‘laklari bilan birga og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan: Isildurning la‘nati bo‘lmish Uzuk topilsa, qilich bo‘laklari ham bolg‘alanib, qayta bog‘lanadi. Mana o‘sha qilich, qarshingizda yotibdi. Endi nima istaysiz? Elendil xonadoni Gondor zaminiga qaytishini istaysizmi?

– Birovdan muruvvat so‘ragani emas, tush ta‘birini bilgani keldim men bu yerga, – viqor-la javob qaytardi Boromir. – Biroq hozir biz nihoyatda tang ahvoldamiz va Elendil qilichining yordami chindan ham bizga kerak, agar u, haqiqatan ham, o‘tmish ko‘lankasidan chiqa olsa...

Aragornni diqqat-la kuzatayotgan Boromirning nigohida shubha uchquni ko'rindi.

Frodo Bilboning o'tirgan joyida tipirchilab qo'rganini sezdi. Aftidan, u do'stining xulqidan achchiqlanayotgan ko'rindi. Kutilmaganda shartta o'rnidan turdi-da, baland ovozdagi misralarni o'qiy ketdi:

Qadimiy oltin ko'p porlamas,  
O'tmish qilichi yovni ayamas.  
Jangga chiqar izquvar qirol,  
Barkamollik – qarilik emas.

Musibatlar qolar uzoq o'tmishda,  
Yarqirar ul qilich shuhrat-la yana,  
Qirolni olqishlar jamiki bu yurt,  
Qadimda o'tgan qirol sharafiga.

Yaxshi ish qilmadim bilaman, -- dedi u Boromirga murojaat qilib. -- Lekin o'ylaymanki, zarur paytida aytdim, agar sizga Elrondning maslahatidan tashqari yana biron nima kerak bo'lsa, albatta. Modomiki, bir yuz o'n kunli yo'l bosib kelgan ekansiz, bu yerda aytilayotgan gaplarga diqqat-la quloq tuting.

Bilbo pishqirgancha joyiga o'tirdi va Frodo tomon engashib, qulog'iga pichirladi:

– Bu misralarni Dunadan uchun o'zim yozganman, o'zi haqida ilk bor gapirib berganida. Sarguzashtlarim tugamasligini, uning davri kelganida yonida turishni juda istar edim.

Bilboga kulib boqqan Aragorn yana Boromirga murojaat qildi.

– Menga ishonmay, shubha ila qarayotganingizni kechiraman, – dedi u. – Darhaqiqat, mening qomatim, ulkan haykallari Denetor hokimlik qilayotgan zaminda, u o'tirgan zallarda savlat to'kib turgan Elendil bilan Isildurning tosh qomatlariga o'xshamas, balkim. Chunki men Isildurning o'zi emas, uning avlodiman, xolos. Men uzoq va mashaqqatli hayot kechirdim va

bu yerdan Gondorgacha bo'lgan masofa jahongashtaligimning qisqa bir qismidir, xolos. Ko'p tog' oshganman, daryo kechganman, bepoyon tekisliklarni kezib chiqqanman, hatto notanish yulduzlar porlaydigan Ran va Xarad o'lkalarida ham daydiganman.

Lekin Vatanim, agar menda Vatan bo'lsa, shimolda ekanligini musofirlikda yurib teran anglaganman. Zero, bu yerda Valendil avlodlari asrlar osha yashab, otadan o'g'ilga o'tgan rishtasi uzilmagan. Kunimiz mashaqqat-la o'tdi, xalqimiz tanazzulga yuz tutdi, ammo mana bu qilich avlodning yangi davomchisiga o'tib boraverdi. So'zim nihoyasida yana bir narsani aytaman sizga, Boromir. Biz chindan ham darbadarmiz, yakka izg'ib yuradigan musofirmiz, ovchimiz. Biroq biz quyon emas, dushman malaylarini ovlaymiz. Zero ularni nafaqat Mordorda, balki, ko'plab boshqa joylarda ham uchratish mumkin.

Agar Gondor yengilmas qal'a bo'lganda edi, Boromir, biz sal boshqacharoq rol o'ynagan bo'lar edik. Sizing mustahkam devorlaringiz va yaltir-yultur shamshirlaringiz haqiqiy yovuzlikning asl namunalari bilan hali to'qnash kelmagan. Sarhadingizdan tashqaridagi yerlarni yaxshi bilmaysiz. Tinchlik va erkinlik deysizmi? Agar biz bo'lmaganimizda, shimoliy o'lkalar uchun bunday tushunchalar yot bo'lar edi. Qo'rquv hamma narsani yo'q qiladi. Uysiz tepaliklar, quyoshsiz o'rmonlardan o'rmlab chiqqan Zulmat dastlab bizga duch keladi. Agar dunadanlar beg'am yotishsa yoki qabrga kirib ketishsa, qaysi yo'l xavfsiz bo'lar, qaysi o'lkada tinchlik hukm surar, kim o'z uyida xotirjam uxlar edi, bilmayman.

Shunga qaramay, sizdan farqli o'laroq biz kamdan kam holatlarda minnatdorlik so'zlarini eshitamiz. Sayyohlar bizni ko'rib ustimizdan kulishadi, dehqonlar bizga jirkanch laqablar qo'yishadi. Agar muntazam muhofaza ostida bo'lmasa, yuragini muzlatib, qishlog'ini kunpayakun qilishga qodir dushmandan bir kunlik yo'l narida yashaydigan bir baqaloq uchun men atigi Musofirman, xolos. To'g'risini aytganda, biz boshqacha munosabatga intilmaymiz ham. Agar oddiy xalq xavf va qo'rquv

nimaligini bilmay, erkin yashaydigan bo'lsa, g'atlatda qolaver-  
sin, mayliga. Biz esa ilgarigiday shon-shuhratdan nari yurave-  
ramiz. Yillar o'tar, yerda maysa o'sar ekan, xalqinning burchi  
shunday bo'lgancha qolaverdi.

Afsuski, dunyo yana o'zgardi, yangi davr boshlandi.  
Isildurning la'nati topildi. Hademay urush boshlanadi. Qilich esa  
yangitdan bolg'alanib, bo'laklari bog'lanishi kerak. Men, albatta,  
Minas Tiritga boraman.

Isildurning la'nati topildi deyapsiz. Men pakananing  
qo'lidagi yaltiroq Uzukni ham ko'rdim, Isildur dunyomizning  
bugungi davri boshlanguncha halok bo'lgan. Oqillar qayerdan  
biladi, bu aynan o'sha Uzuk ekanligini? Shuncha yillar ichida  
unga nima qilgani-yu, ushbu g'ayrioddiy elchi tomonidan bu  
yerga qanday keltirilganini? – so'radi Boromir.


– Bu haqda ham batafsil aytib beriladi, – dedi Elrond.

– Faqat hozir emas, iltimos, janob Elrond! – xitob qildi  
Bilbo. – Kun yarmidan o'tib, ovqatlanib olishim kerakligini his  
etmoqdaman.

– Men sizni nazarda tutmagan edim, – kulib boqdi  
Elrond. – Biroq mana endi nazarda tutmoqdaman. Boshlang, o'z  
bilganingizni aytib bering. She'r qilib aytmasangiz, nasr-la ba-  
yon eting. Qancha qisqa qilsangiz, shuncha tez yo'l olasiz dam  
olgani.

– Yaxshi, iltimosingizni bajarganim bo'lsin, – rozi bo'ldi  
Bilbo. – Hozir men Uzukni topib, qo'lga kiritganim haqida bor  
gapni ro'y-rost aytib beraman. Oramizda ilgari ushbu hikoyam-  
ning boshqacha talqinini eshitganlar bo'lsa, uni unutsin va meni  
ma'zur ko'rsin, – dedi u Gloinga ko'z qiri ila qarab. – Niyatim  
menga bosilgan o'g'ri tamg'asidan xalos bo'lib, buyumni o'zim-  
niki qilib olish edi, xolos. Endi esa vaziyatni nisbatan aniqroq  
idrok etmoqdaman. Hodisa aslida quyidagicha bo'lgan.

Ayrimlar uchun Bilboning gaplari mutlaqo yangi ma'lu-  
mot bo'lib, keksa hobbitning Gollum bilan o'tgan uchrashuvi  
haqidagi hikoyasini zavq va hayrat-la eshitib o'tirishdi. Bilbo  
zimistondagi topishmoqlarning birortasini ham o'tkazib yubor-



may, hammasini aytib berdi. Shuningdek u, agar ijozat berilganida, o'zi uyushtirgan xayrlashuv ziyofati va Shirdan g'oyib bo'lganini aytib bergan bo'lar edi-yu, Elrond qo'lini ko'tarib to'xtatdi.

– Juda chiroyli bayon etilgan hikoya bo'ldi, do'stim, – dedi u. – Biroq bugunga yetar. Uzuk sizning merosxo'ringiz bo'lmish janob Frodoga o'tganini bilish bizga kifoya. Shunday ekan, endi so'z navbatini janob Frodo Begginsga beramiz.

Bilbodan farqli o'laroq Frodo Uzuk sohibiga aylangan kundan buyon bo'lib o'tgan hodisalarni istar-istamas aytib berdi. Uning Hobbitondan Bruinen kechuviga qadar bosgan har bir qadamiga oid hikoyasi ko'plab savollar-u, olingan javoblarning atroflicha muhokamasi ila kechdi. Qora otliqlar haqida eslay bilgan har bir gap so'rab olindi. Hikoyasini yakunlagan Frodo joyini egalladi.

– Yomon emas, – ta'kidlab qo'ydi Bilbo. – Bularning baridan, agar gapingni bo'lib borishmaganda, chiroyligina hikoya chiqqan bo'lar edi. Ba'zi narsalarni yozib borishga urindim. Bu masalaga keyin qaytamiz. Hozircha shu yerda ekansan, bir necha bobga tatigulik ma'lumotlarni qayd etib qo'yishimiz kerak!

– Darhaqiqat, ushbu ma'lumotlardan uzundan uzoq, lekin, nazarimda, oxiriga yetmagan hikoya chiqadi. Men qolgan gaplarni, ayniqsa, Gendalf aytib beradigan narsalarni ham eshitmoqchiman.

Hobbitlarning yonida o'tirgan Gildor Frodoning gapini eshitib qoldi.

– Ichimdagini topganday aytding, dedi u Frodoga va Elrondga murojaat qilganicha: – Pakananing buyumini, haqiqatan ham, Buyuk Uzuk deya hisoblash uchun oqillarning yetarlicha asosi bor, garchi bu gap voqif bo'lmaganlar uchun adolatdan yiroqday tuyulsa-da. Shunday ekan, isbot sifatida keltiriladigan ma'lumotlarni ham eshitsak degandim. Shuningdek, Sarumanga nima qilganini bilmoqchiman. Uzuk qissasiga doir ko'p narsalardan voqif bo'lgan Saruman, ko'rib turganingizday oramizda

yo'q. Bizga nimalar ma'lumligini bilganda qanday maslahat bergan bo'lar edi u?

- Savollaring o'zaro bog'liq, Gildor, – javob qildi Elrond. - O'xshash savollar berilishini kutgan edim. Ularga ham javob bor. Qissaning ushbu qismiga sehrgarimiz Gendalf oydinlik kiritadi. Marhamat, so'z senga Gendalf.

- Ayrimlar Gloin keltirgan yangiliklarni va Frodoning ta'qib etilganini yetarlicha dalil sifatida ko'rgan bo'lishar edi, Gildor, – gap boshladi Gendalf. Bularning bari pakana bu yerga dushman uchun jiddiy ahamiyatga ega buyum olib kelganidan dalolatdir. Bu buyum ko'rib turganingizdek, Uzuk shakliga ega. Lekin uzuklardan qaysi biri u? Uzuklarning to'qqiztasiga nazgul-lar egalik qilmoqda, yettita uzuk dushman qo'liga o'tib ketgan yoki yo'q qilingan, – buni eshitgan Gloin bir qo'zg'alib qo'ydi-yu, indamadi. – Oxirgi uchta uzukdan xabarimiz bor. Dushman payiga tushgan tilla buyum qanaqangi Uzuk bo'ldi?

Darhaqiqat, daryo bilan tog' orasida, yo'qolish-u, topilish o'rtasida ancha vaqt o'tdi. Oqillar bilimidagi raxnalar ham mana nihoyat tegishli ma'lumotlar ila to'ldi. Ammo kech bo'ldi. Zero, dushman men o'ylagandan ham yaqin kelib qoldi. Xayriyatki, u shu yilga, shu yozga qadar bor gapdan xabar topmadi.

Ko'p yillar muqaddam nekromantning Dol-Guldurdagi makoniga pinhona borib, uning niyatini shaxsan o'zim o'rganib chiqishga jur'at etganimni ayrimlar eslashi mumkin. O'shanda men xavotirimiz asosli ekanligini, nekromant -- yana o'z shakl-shamoyilu, hukmiga ega bo'lib olgan azaliy dushmanimiz Sauron ekanini aniqlab qaytishga muvaffaq bo'ldim. Saruman esa bizni Sauronga qarshi harakatlar bajarishdan qaytarganini, shu sababdan uzoq vaqt dushman harakatini kuzatib borish bilangina cheklanganimizni ham ayrimlar yaxshi eslaydi. Dushman ko'lankasi o'sib ketgach, Saruman unga taslim bo'ldi. Oqillar Kengashi esa mavjud kuchimizga zo'r berib, dushmani Yovuz o'rmondan quvib solishga ahd qildi. Bu ish Uzuk topilgan yili amalga oshirildi. G'alati tasodif, shunday emasmi? Agar tasodif bo'lsa, albatta.

Elrond bashorat qilganday, kech bo'lgan edi. Sauron ham bizni kuzatib borgan, Mordorni to'qqizta malayi makon qilib olgan Minas Morgul orqali olisdan boshqargancha, zarbamizga dosh berishga uzoq hozirlik ko'rib borgan. Tayyor bo'lgach, dastlab u o'zini bizdan qochayotgan ko'yga solib, biroz chekingan. Ko'p o'tmay Zulmat minorasida paydo bo'lib, niyatini ochiqdan ochiq bildirgan. O'shanda Kengashimiz so'nggi bor yig'ilib, dushman asosiy kuchini Uzukni qidirib topishga safarbar etganidan xabar topdik. Uzuk haqida biz bilmagan ma'lumotlarni qo'lga kiritib olganidan xavotirlandik. Biroq Saruman o'zinikini ma'qullagancha, azaldan ta'kidlab kelgan fikrini, ya'ni: «Uzuk hech qachon O'rtayerdan chiqmaydi. Dushman nari borsa, Uzuk bizda emasligi, buyum hali topilmaganidan voqif bo'ladi. Hanuzgacha topilmagan narsa keyin topilib qolar, degan xayolga boradi. Qo'rqmang! Bunday umid dushmani aldaydi. Bu ishni o'zim o'rganib chiqqanman. Katta Uzuk uzoq o'tmishda, Sauron uyquga ketganida Anduinga tushib, daryo uni dengizga oqizib ketgan. Uzuk endi dunyo turguncha o'sha yerda yotadi», – degan gapini yana takrorladi.

Gendalf sharq tomonga, g'orlarida dunyoga tahdid solgan xavf uzoq yillar saqlangan G'uborli tog'larning olis cho'qqilariga tikilgancha biroz jim turdi.

– O'shanda men qattiq yanglishdim, – xo'rsindi nihoyat u. – Oqil Sarumanning so'zlari ila qanoatlanib, taskin topdim. Agar bor gapdan ertaroq voqif bo'lganimda, bugungi xavf darajasi ancha past bo'lar edi.

– Hammamiz yanglishganmiz o'shanda, – dedi Elrond. – Agar zo'r jasorat ko'rsatmaganingda Zulmat allaqachon qamrab olgan bo'lar edi bizni. Davom et, Gendalf.

– Ko'nglim g'ash bo'ldi va nihoyat sog'lom aqlga xilof ravishda siz ko'rgan mana bu buyum qanday qilib Gollumning qo'lga tushib qolgani va Uzukka qancha vaqt sohiblik qilganini bilishga bel bog'ladim, – davom etdi Gendalf. – Binobarin, Gollum yo'qotgan xazinasini qidirib topish maqsadida ertami, kechmi zimistondan chiqishini bilib, ortidan kuzatib borishga

ahd qildim. U chindan ham chiqdi, chiqdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Afsuski, uni topa olmadim. Hodisalar o'z yo'lida kechishiga yo'l qo'yib, odatdagiday kuzatishga kirishdim.

Vaqt hayot tashvishlariga to'lgancha o'tib boraverdi. Shubhalarim yana uyg'onib, kutilmagan qo'rquvga aylandi. Hobbitning Uzugi qayerdan kelib qolgan o'zi? Qo'rquvim asosli bo'lib chiqadigan bo'lsa, nima qilish kerak Uzukni? Ushbu savollarga javob topishim kerak edi. Lekin men xavotirlarimni hech kimga aytmadim. Zero, yashirincha eshitilgan pichir hammaga ma'lum bo'lsa, qanchalik xavfli tus olishini bilaman. Chunki o'tmishda Zulmat minorasiga qarshi kechgan uzoq urushlarda asosiy dushmanimiz xoinlik bo'lgan.

O'n yetti yil muqaddam turli-tuman josuslar, shu jumladan, qushlar-u, hayvonlar Shir sarhadlarida yig'iladigan bo'lib qolgach, xavotirim yanada oshdi. Ushbu masalada men dunadanalarga murojaat qilib, ularning ogohlighi ikki chandon oshishiga erishdim. Boz ustiga, ichimdagi gapni Isildurning avlodi bo'lmish Aragornga to'kib sochdim.

– Men esa, o'z navbatida, hechdan ko'ra kech bo'lsa ham anavi Gollumni qidirib topishni maslahat berdim, – qo'shimcha qildi Aragorn. – Isildurning avlodi o'z ajdodining o'tmishdagi xatosini tuzatish masalasida yordam berish kerakligini idrok etgan holda Gendalf bilan birga uzoq cho'zilgan umidsiz qidiruvda ishtirok etdim.

Shundan so'ng Gendalf Yovvoyi o'lkani kezib chiqishgani, ikkalasi Ko'langa tog'lari-yu, Mordor chegarasigacha yetib borishganini aytib berdi.

– O'sha yerda biz Gollum bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ib, qorong'i tepaliklarda uzoq yashagan bo'lishi mumkinligini taxmin qildik. Maxluqni topa olmagach, umidsizlikka yuz tutdim. Shundan so'ng, Gollumni qidirib topish shart bo'lmay o'tkaziladigan tajriba haqida yana o'ylanib qoldim. Hukmdorlik Uzugi ekanligini bizga Uzukning o'zi aytilishi kerak, degan xulosaga borib, Sarumanning Kengashlarimizdan birida aytgan quyidagi gapini esladim:



«To‘qqiz, yetti va uchlik uzuklarining har biri qimmatbaho toshdan yasalgan ko‘zga ega, – degan edi o‘shanda u. – Bittasida esa hech qanday ko‘z yo‘q. Oddiy uzukdan farq qilmaydigan, hech qanday bezakka ega bo‘lmagan yumaloq Uzuk u. Biroq Uzukni tayyorlagan zargar buyum sirtiga o‘z belgilarini yuritgan bo‘lib, ularni faqat mohir oqillargina ko‘rib, o‘qiy oladi».

Qanaqangi belgilar yuritilganini Saruman, tabiiyki, aytmadi. Buni kim bilish mumkin? Zargarining o‘zi. Sarumanchi? Uzuk qissasini qanchalik yod olgan bo‘lmasin, bilimining manbaasi ham bo‘lishi kerak. G‘oyib bo‘lguncha Saurondan tashqari, yana kimda bo‘lgan o‘sha Uzuk? Faqat Isildurning qo‘lida.

Ushbu xayol-la Gollumni qidirish ishlarini qo‘yib, Gondor tomon yo‘l oldim. O‘tmishda mendek sehrgarlar Gondorga tez-tez tashrif buyurib borishgan, ular ichida eng serqatnovi Saruman bo‘lgan. Shahar hokimining tez-tez kelib, uzoq qoladigan mehmoniga aylangan. Hokim Denetor meni ilgarigiga nisbatan sovuqroq qabul qilib, kutubxonada ishlashimga istaristamas ijozat berdi.

«Agar chindan ham o‘tmishga va shaharga asos solingan kunlarga oid tarixiy qaydlarni qidirayotgan bo‘lsangiz, marhamat, o‘qing! – dedi u menga. – Zero, fikrimcha, bo‘lg‘usi hodisalarga nisbatan o‘tmishda qolgan hodisalar qorong‘iroqdir. Chunki men ko‘proq kelajak borasida qayg‘uraman. Agar siz kutubxonamni ipidan ignasigacha o‘rganib chiqqan Sarumandan mohirroq bo‘lsangiz ham, menga ma‘lum narsadan ortiq ma‘lumot topa olmaysiz. Zero, men, ushbu shaharga oid barcha rivoyatlardan boxabarman».

Denetorning menga aytgan gapi shu bo‘ldi. Biroq kutubxonasiidagi qog‘oz uyumlari orasida bugungi kunda kamdan kam odam o‘qiy biladigan ko‘pdan ko‘p qaydlar yotibdi. Chunki undagi imlo va yozuvlar bugungi avlodga qorong‘i bo‘lgancha qolmoqda. Ha, Boromir, Minas Tiriteda Isildur o‘z qo‘li bilan bitgan, Saruman bilan mendan o‘zga hech kim o‘qiy olmagan

pergament o‘ramlari bor. Zero, Isildur, ayrimlar ta’kidlagandek, Mordordan tikka shimoliy o‘lkalar tomon yo‘l olmagan.

– Shimolliklarning ayrimlari shunday da’vo qilgan bo‘lishi mumkin, – gapni bo‘ldi Boromir. – Gondorda esa hamma biladiki, Isildur dastlab Minas Anorga yo‘l olib, u yerda o‘z jiyani Meneldil bilan yashab, janubiy qirollikni idora qilishni topshirishdan avval unga ko‘p pand-nasihatlar bergan. Ayni vaqtda u qirollar hovlisida o‘z otasi va akasining xotirasiga oq daraxtning so‘nggi niholini ekib, parvarish qilgan.

– Va ayni vaqtda u, men tilga olgan tarixiy qaydnomani bitgan, – dedi Gendalf. – Aftidan, Gondorda buni hech kim eslay olmaydigan ko‘rinadi. O‘sha pergament o‘ramidagi qaydlar Uzukka bevosita daxldordir. Chunki unda quyidagi so‘zlar bitilgan:

«Buyuk Uzuk shimoliy qirollik merosi bo‘ladi, ammo bu haqdagi qaydlar vaqti kelib, ushbu hodisalar haqidagi xotira xiralashgunga qadar Gondorda qolishi lozim. Chunki bu yerda ham Elendilning avlodi yashaydi...»

Ushbu so‘zlardan so‘ng Isildur Uzukni qanday holatda topgan bo‘lsa, o‘shanday tavsiflab o‘tadi:

«Birinchi marta qo‘lga olganimda Uzuk ko‘mir cho‘g‘iday issiq bo‘lib, kaftim shunday kuydiki, qachondir bo‘lsa ham og‘rig‘i qolishiga shubha qildim. Asta-sekin sovigan Uzuk burishib qolganday ko‘rindi, garchi shakli-yu, chiroyi o‘zgarmas qolgan bo‘lsa-da. Sirtidagi alvon olovday aniq porlagan yozuv xiralashib, endi bazo‘r ko‘rinmoqda. Mordorda bunday nafis ishda foydalaniladigan harflarni birov bilmaydi, chunki Uzuk sirtidagi yozuv Eregionning eski imlosida bitilgan. Matnda qo‘llanilgan til esa menga noma‘lum. Bunda atayin yovuz zaminning dag‘al, jirkanch tili ishlatilganday go‘yo. Qanday yovuz niyat bitilganini bilmayman-u, yozuv xiralashib, batamom ko‘rinmas bo‘lib qolishidan oldin undan nusxa ko‘chirdim. Uzuk,

balkim, Sauronning qop-qora bo'lsa ham olovday yongan qo'lining haroratidan qizigan bo'lsa kerak. Aynan mana shu qo'l Gil-Geladni halok qildi. Agar Uzuk olovda qizdirilsa sirtidagi yozuv, balkim, yana ko'rinar. Lekin men tavakkal qilmoqchi emasman, chunki Sauronning buyumlari orasida bu eng chiroylisi. Endi u menga juda qadrlidir, garchi men uning uchun nihoyatda og'riqli haq to'lagan bo'lsam-da».

Isildurning ushbu xatini o'qigach, qidiruv ishlarim yakuniga yetdi. Zero, Isildur taxmin qilganday, Uzuk sirtidagi yozuv minora xizmatkorlari ishlatgan Mordor tilida bitilgan bo'lib, mazmuni menga ma'lum bo'ldi. Sauron Uzukni ilk bor barmog'iga taqqan kunlari uchta uzuk yasagan usta Kelebrimbor Sauronning Uzuk sirtidagi yozuvni o'qiyotganini eshitib, shubhaga borgan. Uning yovuz tabiati shu tariqa fosh bo'lgan.

Denetor bilan tez xayrlashdim. Shimol tomon yo'l olar ekanman, Loriyendan menga xabar keldi. Unda aytilishicha, katta yo'ldan o'tgan Aragorn Gollum ismli qandaydir jonzotni qo'lga olgan ekan. Shuning uchun uni o'z ko'zim bilan ko'rib, so'roq qilishga ahd qildim. Yolg'iz o'zi qanday xavf-xatarlarni boshdan kechirganini tasavvur qilishga jur'at ham etmadim.

– Bu haqda gapirishga hojat yo'q, – dedi Aragorn. – Modomiki, kishi Qora darvozaga borishni yoki Morgul vodiysida gul toptashni istagan ekan, yo'lga chiqishdan oldin har qanday xavf-xatarga shay bo'lishi kerak. Gollumni topa olmaganim uchun ruhan tushib, uyga qaytishga ahd qildim. Shu paytda, tasodifiy omadni qarangki, qidirib yurgan narsamni – hovuz bo'yidagi balchiqda yumshoq oyoq izini topdim. Iz yangi bo'lib, Mordordan nari ketgan. Jimjit botqoqlik chetida izina-iz borib, nihoyat topdim. Oqmas ko'llar orasida izg'ib, qarong'i tushguncha suvga termilib oxiri Gollumni tutib oldim. A'zoyi badani yashil shilimshiqqa belangan jonivor endi meni hech qachon hurmat qilmasa kerak: meni tishlab oldi, men ham uning jonini og'ritdim. Tishining izidan tashqari, og'zidan biron nima chiqishiga erisha olmadim. Uni erta-yu kech nazorat qilib ortga

qaytish – safarimning eng muhim qismi bo‘ldi. Uvvos solmay, ortimdan itoat-la ergashib kelishi uchun bo‘yniga arqon solib, yeb ichishdan mahrum qilishga to‘g‘ri keldi. Shu tariqa uni Yovuz o‘rmonga tortib kelib, oldindan kelishganimizdek mahalliy elflarga topshirdim. Undan qutulib sevinganimni ko‘rsangiz edi: nihoyatda sassi q u. Qayta ko‘rmaslikka umid qilib turgan edim, Gendalf kelib, ikkalasining uzundan uzoq cho‘zilgan suhbatini boshlandi.


– Darhaqiqat, uzoq suhbat asabni charchatdi, – dedi Gendalf. – Lekin besamar o‘tmadi. Ta‘kidlab o‘tmoq joizki, Gollumning Uzukni yo‘qotib qo‘ygani haqidagi gapini Bilboning ilk bor hozirgina ochiq-oydin aytgan gapini bilan mos keldi. Shuni ham aniqladimki, Gollum Uzukni Quvonch dalasi orqali o‘tgan buyuk daryodan topib chiqqan sherigidan kuch-la tortib olgan bo‘lib, unga uzoq egalik qilgan. Bu shuncha vaqtiki, pakana xalqining bir necha avlodi o‘tkazgan uzoq umriga teng bo‘lgan. Uzuk Gollumning umrini nihoyatda uzaytirib yuborgan. Bunday qudratga faqat Katta Uzukkina ega bo‘lishi mumkin.

Agar ushbu isbot ham yetarli bo‘lmasa, Gildor, yana bir dalilim bor. Bu, Uzuk ustidan o‘tkazgan tajribam natijasidir. Barchangizning ko‘zingizga silliq, yumaloq ko‘ringan mana bu Uzuk sirtida yozuv bor. Agar kimdir Uzukni olovga vaqtincha tashlashga jur‘at etsa, uning sirtidagi Isildur aytgan satrlarni hozir ham o‘qishi mumkin. Men bunga jur‘at etdim va quyidagi satrlarni o‘qidim:

*Ash naeg durbatuluk, ash naeg dimbatul  
Ash naeg trakatuluk agx burzum-ish krimpatul.*

Schergarning ovozi kutilmaganda juda g‘alati o‘zgarib ketdi. Ohangi tahdidli, qat‘iy, nihoyatda zarang eshitildi. Quyosh gardishini ko‘lanka to‘siq, zimiston quyushtashdi. O‘tirganlar seskanib, elflar qulog‘ini bekitib oldi.

– Shu bugungacha hech kim Imladrisda bu tilda gapirmagan, Kulrang Gendalf, – koyib berdi Elrond, ko‘lanka barham



topib, hamma erkin nafas olgach.

- Umid qilamizki, bu ish boshqa qaytarilmaydi, – javob berdi Gendalf. – Shunga qaramay, men sizdan ushbu qilmishim uchun uzr soʻramayman, janob Elrond. Modomiki, bu til gʻarb oʻlkalarining barcha burchaklarida qoʻllanilishini istamas ekanmiz, bir narsani idrok etishimiz shart: mana bu buyum chindan ham oqillar taʼkidlayotgandek, dushmanning yovuzlikka toʻlib-toshgan, zamirida gʻanim qudratining asosiy qismi bekingan xazinasi sanaladi. Yovuz yillar osha bizgacha quyidagi misra yetib keldiki, uni bir zamonlar eshitgan Eregion zargarlari xoinlikka duch kelishganini anglashdi:


Soʻnggisi va eng qudratlisi – Mordor Hukmdoriga,  
Elatlarning barini ayirib, erkidan mahrum qilish,  
Kurrai zamindagi oʻz baytulahzanlariga qamab,  
Qudratli Mordor Hukmdoriga qaram qilish uchun.

Shuni ham bilib qoʻyingki, doʻstlar, Gollumning gapidan men yana bir narsani anglab yetdim. Buni u istar-istamay aytib, nutqi noaniq chiqdi, lekin shunisi ayonki, u Mordorda boʻlib, qattiq qiynoqqa solingan va oʻzi bilgan narsalarni dushmanga aytgan. Shu tariqa dushman Uzukning topilganidan, koʻpdan buyon Shirda saqlanganidan, yuborgan malaylari Uzuk qidirib Shirdan Rivendell ostonasigacha yetib kelgan ekan, endi buyum shu yerdaligidan xabar topgan.

Oraga ogʻir jimjitlik choʻkdi.

– Pakana dedingizmi oʻsha Gollumni? – soʻradi nihoyat Boromir. – Oʻzi pakana, yolgʻoni katta, deng. Unga nima qildi? Qanday qismatga muhtalo qildingiz uni?

– Zindonda saqlanyapti, lekin bunday qismat oldingi hayotiga nisbatan ancha yaxshi boʻlib, unga hech qanday ziyon yetkazilmaydi, - javob berdi Aragorn. – U koʻp jafoga chekkan, dahshatli qiynoqqa solingan, Sauron oldidagi qoʻrquvi qalbida qora koʻlankaday joy olgan. Toʻgʻrisini aytsam, Gollum Yovuz oʻrmon elflari qoʻlida saqlanayotganidan mamnunman. Tinka-



madori qurigan, nimjon jonzotning vujudidagi g'azab olovi shu qadar qaynoqki, tanasiga bitmas-tuganmas kuch baxsh etmoqda. Ozodlikda qolgudek bo'lsa, katta zarar yetkazishi mumkin. Hech shubha yo'qki, u Mordordan shunchaki emas, zimmasiga ma'lum bir topshiriq yuklangan holda chiqarib yuborilgani.

– Menga topshiriq sifatida berilib, sizga yetkazishim kerak bo'lgan yangilikni mana endi ming afsus va nadomat-la so'z olib aytishga majburman, xitob qildi Legolas. – Aytishim kerak bo'lgan yangilik noxush bo'lib, vaziyatga qanchalik yomon ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hozirgina idrok etdim. Bugungi kunda Gollum deya ataladigan Smeagorl zindondan qochishga muvaffaq bo'ldi.

– Zindondan qochdi?! – ingrab yubordi Aragorn. – Ana xolos! Buning uchun hali hammamiz ko'p pushaymon bo'lamiz. Qanday qilib Tranduil odamlari bunday chtiyotsizlikka yo'l qo'ydi?

– Nima qilgan taqdirda ham, ushbu holat ogohsizlik natijasi bo'lmagan, – ta'kidlab o'tdi Legolas. – Haddan ortiq namoyon etilgan yaxshilik oqibati deyilsa, to'g'riroq bo'ladi. Ishlarimizning ayrim tafsilotlaridan biz istagandan ham ko'proq xabardor ekanligi ma'lum bo'lgan ushbu asir qochish masalasida tashqi kuchlardan yordam olgan degan fikrdamiz. O'sha jonzot Gendalf tayinlagandek, uzluksiz nazorat ostida bo'lgan. Ayni vaqtda Gendalf uni yaxshi parvarish qilishni ham iltimos qilgan. Shu bois biz uni aql-shuurini qora niyat egallashi mumkin bo'lgan zimistonda saqlashga jur'at etmadik.

– Menga esa o'sha maxluqqa ko'rsatilgan munosabatni ham ravo ko'rmagansiz, – gap qistirib o'tdi ko'zi yarqirab ketgan Gloin, elflar qirolligining zindonida o'tkazgan mash'um kunlarini alam-la eslab.

– Iltimos, gapni bo'lmay tur, qadrdonim Gloin, – dedi Gendalf. – Allaqachon o'z yechimini topgan ayanchli yanglish-movchilik bo'lgan o'shanda. Agar hozir elflar bilan gnomlar orasidagi xafagarchiliklarni eslashga kirishadigan bo'lsak, Kengash o'tkazishga hojat qolmaydi. Davom et, Legolas!

O'rtidan turgan Gloin uzr so'ragan bo'lib, ta'zim bajo ayladi. Legolas esa hikoyasini davom etdi.


Ob-havo rutubatsiz, ochiq kelgan kezlari Gollumni o'rtomga olib chiqar edik. U yerda qolgan daraxtlardan yakkalanib o'sgan yolg'iz daraxt bor. Biz Gollumga o'sha daraxtga chiqib, toza havodan nafas olishga ijozat berib, daraxt tagida soqchi qoldirar edik. Kunlardan bir kun Gollum pastga tushishdan bosh tortdi, soqchilar esa uning ortidan yuqoriga chiqishni xayoliga ham keltirmay, maxluqqa o'chakishib qosh qorayguncha o'tiraverishdi.

O'sha yulduzsiz, qop-qorong'i yoz tunida orklar mutlaqo kutilmagan tarzda bizga hujum qilib qolishdi. Ular ko'pchilik, tish-tirnog'igacha qurollangan, vajohatli bo'lishlariga qaramay, qisqa muddatli jangda ularni quvib soldik. Chunki tog'-u, toshlarda yashaydigan orklar o'rmonimiz sharoitida jang qilishga ko'ngillishmagan. Jang o'tgach, Gollum gum bo'lganini, uni qo'ldan olib qochqilar qirib yuborilganini ko'rdik. Shunisi ayonki, orklar hujumi Gollumni tutqinlikdan ozod qilish uchun atayin uyushtirilgan. Orklar bizga hujum qilishini Gollum oldindan bilgan. Bu ish qanday tashkillashtirilganini bilmaymiz-u, lekin shunisi ayonki, Gollum nihoyatda makkor jonzot, dushman ixtiyorida esa josus ko'p. Ajdar hamla qilgan yili quvib solingan qabohat Yovuz o'rtomga yana qaytib, soni ko'payib bormoqda. Qirolligimiz hududini hisobga olmaganda, endi o'rmon o'z nomiga monand bo'lib, yovuzlik makoniga aylanmoqda.

Gollumning izini orklarning son-sanoqsiz izlari orasida topdik. Yovuz o'rmon qa'riga kirib ketgan Gollum janub tomon yo'l olgan. Uning izidan dahshat makoni bo'lgancha qolayotgan Dol-Guldurgacha bordik. Biz u yo'llardan yurmaymiz.

– Iloj qancha, qochgan bo'lsa qochibdi-da. Uni yana qidirib yurgani vaqt yo'q, – xulosa qildi Gendalf. – Biroq u kelajakda hali shunday rol o'ynab qolishi mumkinki, buni na o'zi, na Sauron kutadi.

Endi men Gildorning boshqa savoliga, xususan, Sarumanga nima qilgani hamda Uzuk qissasiga doir ko'p narsalardan




voqif bo'lgan Saruman bizga nimalar ma'lumligini bilgan holda qanday maslahat bergan bo'lishi mumkinligi borasidagi savoliga javob bermoqchiman. Bo'lib o'tgan hodisalarni men to'liq bayon etishim kerak. Bundan hozircha faqat Elrond, u ham bo'lsa qisqa mazmunda boxabar edi, xolos. Hodisa esa ishimizga bevosita daxl qilgani bois, oqibati borasida umumiy qarorga kelishimiz kerak bo'ladi. Bu gap Uruk haqidagi qissaning hozircha oxirgi bobini hisoblanadi.

Joriy yilning iyun oyini Shirda o'tkazganman. Ko'nglim nimadandir g'ash bo'lib, o'sha o'lkaning janubiy sarhadlari tomon yo'l oldim. Ko'zga ko'rinmayotgan bo'lsa ham qandaydir xavf yuzaga kelganini sezdim. O'sha yerda men Gondor chegarasida urush boshlanib, qo'shinlar mag'lubiyatga uchrayotganidan xabar topdim. Hamma yoqni qora ko'lanka qamrayotganini eshitib, vujudimni sovuq qamradi. Biroq men janublik qochqinlardan boshqa hech kimni topa olmadim. Nazarimda, ular nimadandir qattiq qo'rqqan-u, qo'rquv sababi haqida gapirishni istashmayotganday ko'rindi. Shunda men shimoliy-sharq tomon burilib, Yashil yo'l bo'ylab ketdim. Tog'bag'ri qishlog'idan sal narida yo'l bo'yidagi tepalik ustida yakka o'zi o'tirgan, oti yonida turib o'tlayotgan kishini ko'rdim. U bir vaqtlar Yovuz o'rmon chetidagi Rosgobelda yashagan, mening urug'imga mansub, lekin menga ko'pdan buyon uchramagan Qo'ng'ir Radagast ekan.

«Gendalf! Seni qidirib yuribman, – xitob qildi u, meni ko'rib. – Bu yerlarda ajnabiy bo'lganim bois, so'rab-surishtirib bilib olgan narsam – Shir deya g'alati nom berilgan qandaydir yovvoyi hududda yashashing bo'ldi».

«To'g'ri aytishibdi, – dedim men. – Faqat mahalliy aholi vakillariga bunday dema. Chunki Shir chegarasiga yaqin kelib qolibsən. Xo'sh, nima sababdan qidirib yuribsən meni? Bunday uzoq safarga chiqadigan odating yo'q edi, o'ta muhim ishing bormi deyman?»

«Muhim topshiriq bilan keldim. Aytishim kerak bo'lgan noxush yangilik bor, – dedi u, birov eshitib qolmasligi uchun





atrofga alanglab. -- Nazgullar. To'qqizlik yana daydib yuribdi, – pichirladi u. – Daryoni birovga bildirmay kechib o'tgancha, Qora o'tliqlar tusiga kirib g'arb tomon yo'l olibdi».

Yuzaga kelgan xavfni bilmay turib nimadan xavfsiraganimni mana endi anglab yetdim.

«Aftidan, dushman nimanidir ko'zlagan ko'rinadi, – fikr bildirdi Radagast. – Lekin mana bu kimsasiz, olis o'lkada nima qidirishi mumkinligini xayolingga ham keltira olmayapman».

«Bu bilan nima demoqchisan?» – so'radim men.

«Eshitishimcha, Qora o'tliqlar hammadan Shir o'lkasi qayerdaligini so'rab kelishayotgan emish».

«Shirning qayerdaligini?» – hayron bo'ldim men, yuragim siqilib.

Hatto oqillar ham to'qqizlikka qarshi chiqishdan xavfsiraydi, agar u o'z rahnamosi boshchiligida bir yerga jamlansa. U rahnamo buyuk qirol, o'tmishdagi sehrigar bo'lgan. Hozir esa hammani o'larcha qo'rqitib yuribdi.

«Kim aytdi senga bu gaplarni? – so'radim men. – Kimning topshirig'i bilan kelding o'zi?»

«Oq Saruman yubordi meni, – javob berdi Radagast. – Menga tayinlashicha, agar sen yordamga ehtiyoj sezsang, yordam berar, lekin buning uchun sen zudlik bilan uning huzuriga yetib borishing kerak ekan, aks holda juda kech bo'lar ekan».

Ushbu yangilik menga umid baxsh etdi. Axir, Oq Saruman urug'imiz kattasi bo'ladi-yu. Radagast mohir sehrigar, rang va shaklni o'zgartirish ustasi bo'ladi, albatta. Lekin Saruman dushman san'atini ko'pdan buyon o'rganib kelgan va shu bois uning xatti-harakatini oldindan ko'ra biladi. Aynan Sarumanning topqirligi ila bir vaqtlar biz dushmanni Dol-Guldurdan quvib solishga erishgan edik. Bu safar u to'qqizlikni quvib solishga qodir qurol topa bilgandir, balkim?

«Ma'qul, boraman Saruman huzuriga», – javob berdim men.

«Unday bo'lsa, uzoq cho'zmay, hoziroq yo'lga chiq, – dedi Radagast. – Seni qidirib topishga ancha vaqt ketdi. Kunlar

esa yelday uchmoqda. Seni yoz o'rtasigacha topishim kerak edi. Bu kun yetib ham keldi. Hoziroq yo'lga chiqsang ham, Saruman huzuriga yetguningcha to'qqizlik Shirni topishga ulguradi. Men esa zudlik bilan izimga qaytaman».

So'zini aytib, otini yeldirishga tayyor choparni to'xtatdim.

«Shoshma! Bizga sening va izmingdagi mavjudotlarning yordami kerak bo'ladi, – dedim men. – Hayvonlar-u, qushlarga, barcha do'stlaringga xabar ber. Ushbu ishga taalluqli har qanday yangilikni Saruman bilan Gendalfga yetkazib borishsin. Xabarlarni Ortxanka minorasiga yo'llashsin».

«Ma'qul», – dedi Radagast va ortidan anavi to'qqizlik quvgandek otini yelday choptirib ketdi.

Kunni egarda o'tkazib charchaganim bois uning izidan bormadim. Otim ham charchagan. Boz ustiga, qaror topgan vaziyatni fikr tarozisidan o'tkazib olishim kerak edi. Shirga qaytishga vaqtim yo'qligi bois, tunni Tog'bag'ri qishlog'ida o'tkazishga qaror qildim. Hech qachon bunday xatoga yo'l qo'ymagan edim.

Frodoning nomiga bitgan xatimni mehmonxona sohibi bo'lmish do'stinga ishonib topshirib, Shirga jo'natishni tayinladim. Tong otar mahalda yo'lga chiqib, uzoq yo'l yurgach Sarumanning makoniga yetib bordim. Uning makoni olis janubda, G'uborli tog'lar oxirida, Rohanga o'tish joyidagi Izengard degan hududda joylashgan. Bu joy G'uborli tog'lar bilan Ered Nimras deb ataladigan Oq tog'lar etagida joylashgan keng ochiq soylik ekanligini Boromir aytib berish mumkin sizga. Chunki Izengard uning yurtiga yaqin. Izengard – keng soylikni devorday qurshab olgan tik qoyalar mintaqasi bo'lib, maydonning qoq o'rtasida Ortxank deya ataladigan tosh minora qad ko'targan. Ushbu minorani Saruman emas, uzoq o'tmishda Numenor aholisi qurgan bo'lib, o'ziga xos sirlarga ega juda baland inshootdir. Unga faqat Izengard halqasidan o'tibgina yetish mumkin. O'sha halqada bittagina darvoza bor.

Qosh qoraygan mahalda jiddiy muhofaza qilinadigan, ravoq shaklida qoya devorda o'yib ochilgan darvozaga yetib

bordim. Qo'riqlash xizmati darvozani lang ochganча meni kutayotgan ekan. Qorovullar Saruman meni ko'pdan buyon kutayotganini aytishdi. Ravoqdan o'tar ekanman, ortimda qolgan darvoza zudlik bilan yopildi. Sababini bilmadim-u, kutilmaganda vujudimni qo'rquv hissi qamradi.

Ortxank ostonasida meni Sarumanning shaxsan o'zi qarshi olib, o'z xonasiga yetakladi.

«Mana nihoyat yetib ham kelding, Gendalf», – dedi u jiddiy ohangda.

Uning nigohida ichki istehzo bekinganday ko'rindi.

«Ha, keldim, – javob berdim unga men. – Sendan yordam so'ramoqchiman, Oq Saruman».

Ushbu maqomi uni achchiqlantirdi.

«Yordam so'ramoqchisan? Nahotki, Kulrang Gendalf bo'la turib-a? – pishqirdi u. – Oqil-u, makkor, dunyo kezib, o'ziga taalluqli bo'lish bo'lmasligidan qat'i nazar, har xil ishlar-ga aralashib yuradigan Gendalf birovdan yordam so'raganini hali hech kim eshitmagan bo'lsa kerak».

Hayron bo'lgan-cha, unga qarab qoldim.

«Hozir esa, shunday bir vaziyat qaror topganki, davrning o'zi mavjud kuchlarning barini birlashtirishni taqozo etmoqda, agar yangilishmayotgan bo'lsam, albatta», – dedim men.

«Balkim, shundaydir, – javob berdi u. – Garchi bu fikr xayolingga ancha kech kelgan bo'lsa-da. O'ta jiddiy ishni ko'pdan buyon sir saqlab kelyapsanmi mendan? Buni men Kengash raisi sifatida bilmoqchiman. Shirdagi boshpanangdan bu yoqqa kelishingga nima sabab bo'ldi?»

«To'qqizlik yo'lga chiqibdi, – dedim men. – Daryoni kechib o'tgan emish. Radagast shunday dedi menga».

«Qo'ng'ir Radagastmi! – xandon otdi Saruman, jirkana-yotganini yashirishga ham urinmay. – Qushlar dohiysi Radagast! Ovsar Radagast! Ahmoq Radagast! Ammo shunga qaramay, o'z rolini to'g'ri o'ynay bilibdi. Chunki sen kelding huzurimga. Uni oldingga yo'llashdan maqsad shu edi. Mana nihoyat turibsan sen, mening qarshimda, sarguzashtlaridan dam olayotgan Kulrang

Gendalf! Mening, ya'ni Uruk bunyodchisi Oqil Sarumanning, Rangdor Sarumanning qarshisida!»

Unga razm solar ekanman, egnidagi bir qarashda oq ko'ringan kiyimi aslida oq emas, chindan ham rang-barang bo'lib, Saruman harakatlanayotganda har xil tusda yaltiramoqda.

«Oq rang ko'proq yoqadi menga », – ta'kidlab qo'ydim men.

«Oq rang! – pishqirdi Saruman. – Oq rang boshlang'ich rang sifatida xizmat qildi, xolos. Oq kiyimga boshqa rang berish, oq sahifani siyoh-la bulg'ash, oq fonusni o'chirish mumkin».

«Unday qilinsa, buyum o'zining oqligini yo'qotadi. Ni-ma bo'lishini bilmoq maqsadida butun buyumni buzgan kishi esa oqillik so'qmog'ini tark etgan bo'ladi», – javob berdim men.

«O'zingga do'st deb bilgan ahmoqlardan biriga gap uqtirayotganday gaplashma men bilan, – dedi Saruman. – Ko'rsatmalaringni eshitish uchun chaqirtirganim yo'q seni bu yerga. Senga to'g'ri yo'lni tanlash imkonini bermoqchiman».

O'rimdan turgan Saruman men uchun oldindan atayin tayyorlab qo'ygan nutqini ifodali ohangda o'qiy ketdi.

«Qadimgi zamon qadimda o'tdi, o'rta zamon yakuniga yetib, yangi zamon boshlanmoqda. Elflar davri o'tdi, endi bizning davrimiz, ya'ni biz idora qilishimiz kerak bo'lgan odamlar davri kelmoqda. Biroq buning uchun, ya'ni jamiyatda o'zimiz istagan tartibni joriy etish uchun hokimiyat va qudratni tasarruf etib olishimiz lozim. Zero, faqat oqillargina ezgulikni ko'ra bilishadi.

Quloq sol, qadrdon do'stim, yaqin yordamchim Gendalf! – davom etdi u, menga yaqinroq kelgancha, nisbatan muloyimroq ovozda gapirib. – E'tibor bergan bo'lsang, «biz» deb gapiryapman va agar sen men tomon o'tsang, chindan ham ikkalamiz biz bo'lamiz. Yangi hokimiyat oyoqqa turmoqda. Eski ittifoqlar-u, qadimiy siyosat endi biz uchun foydasiz. Elflarga va allaqachon o'lib ketgan Numenorga ishonch yo'q. Vaziyatdan chiqishning yagona yo'li qolmoqda. Biz yangi hokimiyatga qo'shilishimiz kerak. Bu chindan ham oqil ish bo'ladi, Gendalf! Umidimiz

yangi hokimiyatda. Uning g'alabasi yaqin. Yangi hokimiyatning oyoqqa turishiga yordam berganlar yaxshigina rag'batlantiriladi. Hokimiyat ko'lami kengayib borgan sari, sadoqatli do'stlarining soni ham ortib boraveradi. Sen bilan mendek oqillar esa sabr-toqatimizni namoyon etib shunday bir mavqega ega bo'lamizki, hokimiyatni nazorat qilish, idora qilish ishlari o'z qo'limizda bo'ladi. Hozircha biz qulay vaziyat yuzaga kelishini kutamiz, o'z fikr-mulohazalarimizni sir tutamiz, ehtimol, yuksak maqsad – bilim, huquq va tartibga erishish uchun yovuz ishlarga ham qo'l urarmiz. Shu kungacha muayyan maqsadga erishish yo'lidagi jamiki sa'y-harakatlarimiz behuda ketdi, zaif va dangasa do'stlarimiz esa bizga madad bo'lish o'rniga xalal berib kelishdi. Endi unday bo'lmasligi kerak, endi unday bo'lmaydi, ko'zlangan maqsadlarimizda emas, qo'llaydigan vositalarimizda tub o'zgarishlar ro'y beradi».

«Saruman, bunday nutqni ilgari ham eshitganman, – dedim men. – Faqat o'xshash gaplarni Mordordan kelgan elchilar aytishgan edi. Nahotki, shuncha yo'lni quloq charchatish uchungina bosib kelgan bo'lsam!»

Ko'z qiri ila qarab qo'ygan Saruman unini o'chirib, uzoq o'y surdi.

«Xo'sh, demak, men ko'rsatgan yo'l seni qanoatlantirmadi, – dedi u nihoyat. – Agar yanada yaxshiroq reja taklif qilsam-chi?»

Oldimga kelib to'xtagan Saruman qo'lini yelkamga qo'ydi.

«Nega endi yo'q ekan? – pichirladi u. – Nega endi yo'q, Gendalf? Hokimiyat Uzugi. Agar uni qo'lga kiritsak, hokimiyat bizniki bo'ladi. Aynan shuning uchun ham seni taklif qildim bu yerga. Ixtiyorimda kuzatuvchi ko'zlar ko'p. O'ylashimcha, anavi qimmatbaho buyum qayerdaligini yaxshi bilasan. Shunday emasmi? Aks holda to'qqizlik Shirni surishtirib nima qiladi? Qanday ishlaring bo'lishi mumkin u yerda?»

Saruman ko'zidagi yovuz uchqunni bekita olmadi.

«Quloq sol, Saruman, – dedim undan nari tislaniib. – Biz

deyishga ming chiranma, Uzuk faqat bitta qo‘lning bitta barmog‘igagina taqilishi mumkin, xolos, buni o‘zing ham yaxshi bilasan! Mana nihoyat, niyatingdan voqif bo‘ldim va endi Uzukni topsam ham senga bermayman, Uzuk haqida senga hech nima aytmayman. Kengash raisi eding, lekin yovuz tabiatiingni bekita olmading. Shunday qilib, agar to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, sen aytgan tanlov mazmunan yo senga, Sarumanga, yo Sauronga tobe bo‘lishni tanlashim kerak. Unisini ham, bunisini ham to‘g‘ri kelmaydi. Boshqa taklifing yo‘qmi?»

Saruman shashtidan tushib, ancha sovidi.

«Bor taklif, – dedi u. – Bu darajada oqillik namoyon etishingni to‘g‘risini aytganda, kutmagan edim. Men tomonga ixtiyoriy ravishda o‘tish va bu bilan o‘zingni ko‘plab xavotir va aziyatlardan xalos etish imkonini beraman. Uchinchi imkoniyat – bu yerda oxirigacha qolish imkoniyatidir».

«Nimaning oxirigacha qolaman, tushunmadim?»

«Uzukni qayerda, qanday qilib topishim mumkinligini aytguningcha, – dedi u. – Bu masalada seni ishortirish usullarim bor. Uzuk sening yordamingsiz ham topilguncha Hukmdor sen bilan shug‘ullanib, ya‘ni xalal berib, qo‘rslik qilgan Kulrang Gendalfni munosib taqdirlab turadi».

«Bu ish oson kechmaydi», – javob berdim men.

Ushbu holatimda gapim asossiz tahdid ekanligini yaxshi bilgan Saruman kulib qo‘ydi.

Saruman yolg‘iz o‘zimni Ortxank minorasiga, odatda, yulduzlarni tomosha qilib o‘tiradigan maydoniga qamab qo‘ydi. U yerdan minglab pog‘onali tor zina orqali tushish mumkin. Minoradan qaraganda soylik chuqur pastlikda ko‘rinadi. Razm solar ekanman, ilgari yam-yashil, go‘zal ko‘ringan soylik hududini endi xandaqlar-u, temirchilik ishxonalari bosib ketibdi. Atrofdan borki bo‘ri va ork galalari Izengardga ko‘chib o‘tibdi. Sauronga raqobat bo‘lish maqsadida Saruman Izengardga katta kuch yig‘ibdi. Tutun Ortxank minorasini o‘rab olgancha, soylik ustida muallaq osilgan. Qochish imkoni bo‘lmay, minora maydonida mashaqqat-la kechgan kun-u, tunlarimni achchiq tutin

hidlab o'tkazdim. Qattiq sovqotdim, shimolda daydib yurgan Qora otliqlar haqida o'ylagancha u yoq, bu yoqqa yurish imkonim ham juda cheklangan edi.

Sarumanning gapi yolg'on bo'lsa-da, Qora otliqlar yana paydo bo'lganiga ishonchim komil edi. Izengardga kelishdan ancha oldin mazmunini uqishda yanglishishning iloji bo'lmagan bir yangilik eshitgan edim. Yuragimni Shirda qolgan do'stlarim uchun qo'rquv hissi egallab oldi. Shunday bo'lsa-da, umidimni uzmadim. Xatimni olgan Frodo zudlik bilan yo'lga chiqishiga, halokatli ta'qib boshlanguncha Dorilomonga yetib borishiga umid qildim. Aniqlanishicha, qo'rquvim ham, umidim ham behuda bo'lgan ekan. Umidim tog'bag'rilik baqaloqning aql-farosatiga asoslangan bo'lsa, qo'rquvim Sauronning makkorligiyu, hiylasiga bog'liq edi. Ammo pivofurush baqaloqning tashvishi ko'p, Sauronning qudrati esa tasavvur qilingandan ko'ra oz edi. Biroq Izengard halqasida tuzoqqa tushib, yolg'iz o'tirar ekanman, har qanday mavjudotni taslim qiladigan Qora otliq ovchilarning Shirga kelganda ishi o'ngmasligini xayolimga ham keltira olmagan edim.

– Seni ko'rdim! – xitob qildi Frodo. – Oy sochingda aks etgancha, u yoq, bu yoq yurgan eding.

Gendalf jim bo'lib, hayrat-la hobbitga qaradi.

– Lekin tush edi, – ma'lum qildi Frodo. -- Anavi gapingni eshitib, esimga tushib qoldi. Shirni tark etganimdan keyin ko'rgan edim bu tushimni.

– Unday bo'lsa, tushingni kech ko'ribsan, -- dedi Gendalf. – Shunday qilib men juda mushkul ahvolda qoldim. Meni yaxshi taniydiganlar biladiki, bunday qiyin vaziyatga men kamdan kam holatlarda tushib, o'xshash muvaffaqiyatsizliklarni tan olishga odatlanmaganman. Nahotki Kulrang Gendalf notavon chivinday o'rgimchak to'riga tushib qolgan bo'lsa! Ammo eng ayyor o'rgimchak ham yetarlicha pishiq bo'lmagan to'r to'qishi mumkin.

Dastlab men Radagastning Saruman umid qilganidek halok bo'lishi mumkinligidan xavotirlandim. Biroq Radagast

bilan uchrashuvimiz chog'ida uning ovozida yoki fe'l-atvorida biror bir noxushlikni sezmadim. Agar zig'irday bo'lsin shubha tug'ilganida Izengardga bormas edim, yoki oldindan ehtiyot choralarini ko'rib qo'ygan bo'lar edim. Saruman ham shunday ish tutib, o'z elchisini aldagancha, asl niyatini bekitgan. Pok vijdonli Radagastni xoinlikka og'dirish – hech bir naf chiqmaydigan g'irt bema'ni ishdir. Biroq u o'z gapiga o'zi ishongani uchun meni ham ishontira bilgan.

Ammo Saruman o'ylab qo'ygan rejaning zaifligi ham aynan shundan iborat bo'lgan. Chunki Radagast boya aytgan iltimosimni bajarmaslik sababini ko'rmagan. U ko'plab qadrdon do'stlari yashaydigan Yovuz o'rmon tomon yo'l olgan. Radagastning iltimosiga ko'ra tog' burgutlari dunyoning to'rt tarafiga olis masofalarga uchib, bir yerga yig'ilayotgan bo'rilar-u, orklar-ni, u yoq, bu yoq izg'iyotgan to'qqizta Qora otliqni ko'rib, Gollumning tutqinlikdan qochib qutulganini eshitishgan va ush-bu yangiliklarni menga yetkazish uchun xabarchi yo'llashgan.

Binobarin, yoz xotimasidagi oydin kechalardan birida Ort-xank minorasiga buyuk burgutlar orasidagi eng tez uchar qush, qanotli sulton Gvayxir hech kimga sezdirmay qo'ndi. Bo'lgan hodisani eshitgach, Saruman bilib qolmasidan oldin meni beliga mindirib olib ketdi. Minorada yo'qligim aniqlanib, bo'rilar-u, orklar izimdan quvib yetishi uchun darvozadan chiqqanda Izengarddan ancha olisga uchib ketishga ulgurgan edim.


«Qayergacha elta olasan meni?» – so'radim men Gvayxirdan.

«Ancha lig uchishim mumkin-u, yerning oxirigacha elta olmayman, – javob berdi u menga. – Umuman aytganda esa, yuk emas, yangilik eltgani yuborilgan edim men».

«Unday bo'lsa, yerda ot kerak bo'ladi menga. Tez yuguradigan ot kerak. Men hech qachon bunchalik shoshilmagan edim».

«Demak, Edorasga eltishim kerak ekan seni. U yerda Rohan podshosi yashaydi. Uzoq emas, hozir yetamiz».

Suyunib ketdim. Chunki Rohanning Riddermarkida ot-





boqar rohirrimlar yashaydi. Ular yetishtirgan otlar G'uborli tog'lar bilan Oq tog'lar orasidagi jamiki o'lkalarda azaldan qadrlangan.

«Nima deb o'ylaysan, Rohan aholisiga ilgarigidek ishonch bildirsa bo'ladimi?» – so'radim Gvayxirdan men, Sarumanning xiyonatidan keyin odamlarga bo'lgan ishonchimni yo'qotib.

«Ular har yili Mordorga ot yuborib, shu tariqa tovon to'lashadi, -- javob berdi burgutlar sultoni. – Lekin rohanliklar qul emas. Biroq modomiki, Saruman yovuzlik yo'lini tanlagan ekan, ularning qismati hal bo'ldi deb hisoblayver».


Tong otishiga oz qolganda burgut meni Rohan qirolligida qoldirib ketdi. Hikoyam yakuniga yetmoqda. Aytadigan gapim oz qoldi. Rohanda Sarumanning yolg'oni ishga tushib bo'lgan ekan. Chunki ushbu zamin qirolining mening ogohlantirishimga bovar qilmadi. O'zimga kerakli otni olib, tezroq jo'nashimni iltimos qildi. O'zimga yoqqan otlardan birini tanlagan edim, xafa bo'lib qoldi. Qirollikning eng zo'r oti ekan, unaqasini ilgari hech minmagan edim.

– Ulug'sifat ot bo'lgan ekan-da, - dedi Aragorn. – Sauron ot bilan tovon olyapti, deysanmi? Juda noxush yangilik bo'ldi bu. Oxirgi marta u yerda bo'lganimda ahvol unaqa emas edi.

– Ont ichamanki, Rohandagi ahvol hozir ham unday emas, – fikr bildirdi Boromir. – Dushman tomonidan g'arazli maqsadlarda atayin tarqatgan yolg'on ma'lumotlardan o'zga narsa emas bu. Rohan aholisini men o'z ittifoqchilarimday, uzoq o'tmishda biz tortiq qilgan yerda yashaydigan mard va to'g'riso'z odamlarday bilaman.

– Mordor ko'lankasi uzoq-uzoq o'lkalargacha yetib borgan, – javob berdi Aragorn. – Saruman ana o'sha ko'lanka ta'sirida qolgan. Rohan qurshovda qolgan. Kim biladi u yerga qaytib, nimalarni ko'rishingizni?

– Nima qilgan taqdirda ham, ular o'z hayotlarini ot evaziga sotib oladiganlardan emas, – e'tiroz bildirdi Boromir. –



Ular o'z otlarini farzandday ko'rishadi. Bunga sabab bor. Zero, Riddemark otlari ko'lanka yetmagan shimol dalalaridan keltirilgan. Ushbu ot zotlari o'z sohiblarining irqi kabi o'tmishdagi hur kunlardan kelib chiqqan.

– Haq gap! – ma'qulladi Gendalf. – O'sha otlardan biri, aftidan, dunyo muqaddimasida tug'ilgan ko'rinadi. To'qqizlik otlari unga bas kela olishmadi. Otim charchoq bilmas, yelday uchqur chiqdi. Ko'langa O'zdir degan laqab qo'yishibdi unga. Kun yorug'ida ot terisi kumushday tovlanadi, tunda sharpaday ko'rinmas bo'lib, birovga sezdirmay yuradi. Tovoni shu'la taratadi. O'zi asov bo'lib, hali biror kishi uni egarlashga muvaffaq bo'lmagan ekan, men esa tez o'rgata oldim uni o'zimga. Shunday tez uchar ekanki, Frodo qo'rg'onda yotganda men Shirga yetib olgan edim, garchi men Rohandan Frodo Hobbitonni tark etgan kuni yo'lga chiqqan bo'lsam-da.

Shunga qaramay, ichimdagi qo'rquv hissi tobora oshib boraverdi. Shimoliy o'lkalarga yetib, Qora otliqlar haqidagi mish-mish gaplarni eshitdim, garchi vaqtdan kunlar hisobida yutayotgan bo'lsam-da, ular mendan oldinda borishmoqda. Bili-shimcha, Qora otliqlar mayda guruhlarga bo'lishib olishibdi: bir nechtasi Yashil yo'l yaqinida sharqiy chegarada qolibdi, qolganlari esa Shirga janub tomondan bostirib kiribdi. Hobbitonga yetganimda Frodo u yerdan chiqib ketgan ekan. Qariya Skrombining suhbatini oldim. Gapi ko'p-u, mazmuni kam. Qariya asosan Beg-Endga yangi sohiblar ko'chib o'tishi haqida gapirdi.

«Hamma narsa o'zgaryapti, – arz qildi u. – Va hamma narsa yomon tomonga o'zgaryapti».

«Umid qilamanki, bundan-da battarini ko'rmaysiz», – dedim men.

Qariyaning gapidan shuni tushundimki, Frodo Hobbitonni tark etganiga hali bir hafta bo'lgani yo'q. Tark etgan kuni esa kechki payt Frodoni so'rab Qora otliq kelgan. Yurak qo'rquvga to'lgancha Baklendga qarab uchdim. U yerda esa birov chumoli uyasiga tayoq tiqib olganday ola-g'ovur ko'tarilgan. Frodoning Krikselloudagi uyi bo'm-bo'sh, eshik lang ochiq.

ostonada Frodoning plashi yotibdi. Umidim uzildi. Yangiliklar bilan qiziqmay qo'ydim, qiziqqanimda bor gapdan xabar topib biroz tinchlangan bo'lar edim. Zudlik bilan Qora otiqlar izidan yo'l oldim. Yo'l og'ir, chunki ular har xil so'qmoqlardan yurishgan men esa yolg'iz o'zimman. Ulardan bir yoki ikkitasi Tog'bag'ri orqali o'tganday tuyuldi. Mehmonxona sohibi Narkissga aytadigan gapim borligi uchun men ham o'sha qishloqqa yo'l oldim.

Agar Frodoning yo'lga chiqishi o'sha baqaloqning aybi bilan kechga surilgan bo'lsa, ichidagi bor yog'ini eritib olishga ahd qildim. Buning uchun qari ahmoqni tafti unchalik baland bo'lmagan cho'g'da toblaydigan bo'ldim. Shunday qilishimni kutgan ko'rinadi, baqaloq meni ko'riboq eriy boshladi.

– Nima qilib qo'ying uni? – xavotir-la so'radi Frodo. – U biz bilan xushmuomala bo'lib, qo'ldan kelgancha yordam berdi.

-- Xavotir olma, kulib yubordi Gendalf. – Odam qopadigan odatim yo'q, vovullashim ham kamdan kam holatlarda kuzatiladi. Hiqillab bo'lgandan keyin aytgan yangiliklarini eshitib shunchalik sevinib ketdimki, qariyaning gunohidan o'tdim. Qanday sodir bo'lganini hech fahmlay olmadim-u, lekin uning gapidan sizlar bir kun oldin mehmonxonada tunab, ertasiga Musofir bilan yo'lga chiqqanlaringni anglab yetdim.

«Musofir bilan?!» – xitob qilib yubordim men.

«Ha, ser, o'sha shubhali darbadar bilan, – javob berdi Narkiss, sevinchim boisini tushunmay. Tegishli chora ko'rganimga qaramay, ularning xonasiga kirib olibdi. Oxir-oqibat hobbitlar uni o'ziga hamroh qilib olishdi. Hammasining xulqi qandaydir g'alati, ta'bir joiz bo'lsa, juda sarkash kechdi».

«Befahm eshak! Ahmoq to'nka! Ikki chandon qadrdo-nim Lavr! baqirib yubordim men. – Yoz o'rtasi kunidan buyon eshitgan eng yaxshi yangiligim-ku, bu! Bu juda zo'r xushxabar! Mehmonxonang pivosi yetti yil davomida eng zo'r pivo bo'lsin! Ana endi oyog'imni uzatib, biroz uxlab olsam bo'ladi. Oxirgi marta qachon xotirjam uxlaganimni hech eslay olmayapman».

Tunni o'sha yerda o'tkazib, Qora otliqlarga nima bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuritdim. Tushunishimcha, Tog'bag'ri qishlog'ida dastlab ularning ikkitasini ko'rishgan, xolos. Beshta Qora otliq g'arbdan paydo bo'lib, darvozadan yopirilib, uvullagan shamolday Tog'bag'ri orqali yelib ketishgan. Qishloq aholisi dunyo xotimasini kutgancha hamon qaltirashmoqda.

Tong otmay yo'lga chiqib, Qora otliqlar izidan quvib ketdim.

Aniq bilmayman-u, o'ylashimcha, ishlar quyidagicha kechgan. Qora otliqlar rahnamosi Tog'bag'ri qishlog'ining janubida bekingan. Ikki Qora otliq Tog'bag'riga bostirib kirgan. To'rtta otliq Shir chegarasini buzib o'tgan. Tog'bag'ri bilan Krikxelloudan bo'sh chiqib, bildiruv berish uchun rahnamosining huzuriga yo'l olishgan va bu bilan ular katta yo'lni josuslar kuzatuvida, muhofazasiz qoldirishgan. Qora otliqlar rahnamosi bir nechta otliqlarini yo'lsiz dala orqali yuborgan, o'zi esa g'azab ichra qolgan otliqlari bilan birga tikka Tog'bag'ri orqali ot choptirib o'tgan.

Zavert tepaligi tomon bo'ronday yeldim. Toshbag'ridan chiqqanimdan so'ng o'tgan ikkinchi kun oxirida yetib bordim. Qora otliqlar mendan oldinda bo'lib, g'azabimni his etib, kun yorug'ida yuzimga qarashga jur'at eta olishmay, mendan nari qochishdi. Tunda esa meni qurshab, Aman Sulning qadimiy halqasida, tepalik cho'qqisida qamal qilindim. Og'ir jang bo'ldi. O'ylashimcha, qadimdan buyon o'sha cho'qqida birov bunday olov ko'rmagan.

Tong otar mahalda ularning ta'qibidan qochib, shimol tomon yo'l oldim. Qo'limdan hech narsa kelmadi. Seni Yovvoyi o'lkada topishning iloji bo'lmadi. Boz ustiga, sizlarni qidirishni davom etish ahmoqlik bo'lar edi. Chunki to'qqizlik meni izmaiz ta'qib qilib kelayotgan edi. Sizlarning taqdiringizni Aragornga ishonib, Qora otliqlar e'tiborni chalg'itish, Dorilomonga yetgach, sizlarga yordam yo'llashga umid qildim. Qora otliqlarning to'rttasi chindan ham ortindan ergashdi. Ammo ma'lum vaqt o'tib otlarini boshqa tomon burishdi. Aftidan, kechuv tomon yo'l

olishdi. Bu sizlarga oz bo'lsa ham yordam berdi. Har qalay, qarorgohingizga hamla qilinadigan bo'lsa, ularning to'qqiztasi emas, beshtasi hamla qiladigan bo'ldi.

Xoarvell daryosi va Etten botqog'i orqali o'tgan uzoq va mashaqqatli yo'l nihoyasiga yetib, Rivendellga yetib keldim. Zavertdan keyin o'n to'rt kun yo'l yurdim. Qoyalar uyumi orqali ot minib o'tmadim. Ko'langa O'zdir ham o'larcha holdan toydi. Uni men ortga, o'z yurtiga jo'natib yubordim. Lekin o'rtamizda qalin do'stlik rishtasi hosil bo'lib, zarur bo'lganda chaqirishim bilan oldimga yelib keladigan bo'ldi. Dorilamonga Uzukdan atigi uch kun oldin yetib keldim.

Jahongashtaligim shunday kechdi, Frodo. Muhtaram Elrond va boshqa qadrdonlar hikoyam uzundan uzoq cho'zilib ketgani uchun meni ma'zur ko'ring. Biroq Gendalf o'z va'dasini buzib, oldindan kelishilgan uchrashuvga kelmay qo'ygan holat hech qachon bo'lmagan. O'ylashimcha, bunday holat Katta Uzuk bilan bog'liq g'alati hodisalar bilangina oqlanishi mumkin.

Shunday qilib, aytilgan gaplarni boshidan oxirigacha eshitdik. Hammamiz shu yerga yig'ildik. Uzuk ham shu yerda. Biroq Kengash hal qilishi kerak bo'lgan asosiy masalaga mana endi yetdik: Uzukni nima qilamiz?

Oraga sukunat cho'kib, nihoyat yana Elrond so'z oldi.

– Darhaqiqat, Saruman bilan bog'liq yangilik juda noxush bo'ldi, – dedi u. – Biz unga ishonar edik. Barcha ishlari-mizdan xabardor bo'lib yurar edi. Ezgu yoki yovuz maqsadda bo'lmasin, dushman san'atini o'rganish borasida haddan ortiq chuqurlashish xavfli ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Ming afsuski, bunday tubanlik va xoinlik holatlari o'tmishda ham kuzatilgan. Eshitgan ma'lumotlarimizdan eng hayratlanarlisi Frodoning hikoyasi bo'ldi. Hobbitlardan men Bilboni bilar edim, xolos. Uni men yagona istisno tariqasida ko'rganman. Biroq g'arb yo'lida so'nggi bor o'tib kelganimdan buyon dunyo kuchli o'zgargan ko'rinadi.

Katta qo'rg'on arvohlari yoki murdalarini har xil nomlar bilan atashgan, Qadimiy o'rmon haqida ham ko'p hikoya

qilishgan. O'sha o'rmondan omon qolgan narsa uning qoldiqlaridir. Shunday bir zamonlar bo'lganki, olmaxon hozir Shir deya nom olgan joydan Izengardning g'arbidagi Dunlandgacha shoxma-shox sakrab yetib bora olgan. Qadimda men o'sha joylardan o'tib ko'pdan ko'p yovvoyi va o'ta xavfli mavjudotlarni ko'rganman. Bombadilni esa batamom esimdan chiqarib yuboribman. Tepaliklar orasida izg'ib yurgan o'sha davridayoq uning yoshi hammadan katta edi. Qadimda uning ismi boshqacha bo'lgan. Biz uni Yarveyn Ven-Adar – otasini tanimaydigan, hammadan katta deb atar edik. O'sha zamonlardan buyon ko'plab boshqa xalqlar unga boshqacha nom berishgan. Masalan, gnomlar uni Forn, shimollik odamlar - Orald, deya chaqirishgan. Uning ko'plab boshqa ismlari ham bor. Juda g'alati jonzot u. Balkim, uni ham Kengashga taklif qilishim kerakmidi?

– Kelmas edi, – javob berdi Gendalf.

– Chopar yo'llab, yordam so'rasak bo'lmaydimi? – so'radi Erester. – Aftidan, u, Uzukka o'z hukmini o'tkaza biladigan ko'rinadi.

– Yo'q, unchalik emas, – dedi Gendalf. – Aniqroq aytiladigan bo'lsa, Uzuk unga hukm o'tkaza olmaydi. U o'ziga xon, o'ziga bek. Biroq u Uzukni o'zgartira olmaydi, boshqalar ustidan hukm o'tkazishiga to'sqinlik qila olmaydi. U o'zining cheklangan hududi bilan band bo'lib, o'z sarhadlaridan, garchi ko'zga ko'rinmas bo'lsa-da chiqa olmaydi.

– Ammo o'sha sarhadlar ichida uni hech narsa qo'rqita olmaydigan ko'rinadi, – dedi Erester. – Uzukni unga topshirsakchi? Ishonchi saqlaydi. Buyum ham hech kimga ziyon yetkazmaydi.

– Yo'q, unday qilib bo'lmaydi, – e'tiroz bildirdi Gendalf. – Yer yuzidagi erkin xalqlar undan iltimos qilsa, balkim, qabul qilib olishi mumkindir, Uzukni. Biroq u bunday ishning zarurati, mazmun-mohiyatini anglab yetmasligi mumkin. Uzukni olgan taqdirda ham hech qancha vaqt o'tmay uni biror yerda unutib qoldiradi yoki uloqtirib yuboradi. Uzuk va u bilan bog'liq mas'uliyat uning xotirasida uzoq saqlanmaydi. Qisqasi, undan

juda ehtiyotsiz qo'riqchi chiqqan bo'lar edi. Bu esa qo'yilgan savolga berilgan yetarlicha javobdir.

– Bundan chiqdi, Uzukni unga topshirish – yovuz kunni kechga cho'zish demak ekan, – ta'kidlab o'tdi Glorfindel. – Boz ustiga, Tom Bombadil uzoqda yashaydi. Uzukni uning o'rmonga dushman josuslariga bildirmay yetkaza olmaymiz. Jo'natgan taqdirimizda ham, Uzuklar hukmdori ertami, kechmi Katta Uzuk qayerga bekitilganini bilib oladi va jamiki kuch-qudratini Qadimiy o'rmonga jalb qiladi. Bombadilning yakka o'zi qarshilik ko'rsata oladimi? Fikrimcha, yo'q. O'ylashimcha, dushman hammani yengib bo'lgach, kun o'tib bir kun Bombadil ham yengiladi. Birinchi bo'lib paydo bo'lgan, oxirgi bo'lib o'ladi. Ana o'shanda dunyoni zimiston qamraydi.

– Shaxsan men Yarveyanni ismidan boshqa narsasini bilmayman, – dedi Gildor. – Biroq Glorfindelning gapini to'g'ri deb topaman. Qadimiy o'rmon qo'riqchisi dushmanga qarshilik ko'rsata olmaydi. Sauronni bilamiz, butun boshli tepaliklarni yer yuzidan supurib tashlashga qodirligidan xabarimiz bor. Unga qarshilik ko'rsatishga qodir kuchlar shu yerda, Imladrisda o'tirishibdi, Bandargohda Kirdan bor, Loriyenda ham bor unday kuchlar. Ammo dunyo Sauronga taslim bo'lgan bir vaqtda biz yenga olamizmi uni?

– Menda unday qudrat yo'q, – dedi Elrond. – Hech kimda yo'q, – qo'shib qo'ydi u.

– Modomiki, Uzukni kuch-la saqlab qola olmas ekanmiz, ikkita yo'l qolyapti, – xulosa qildi Glorfindel. – Uzukni dengiz ortiga yo'llash yoki shu yerda yo'q qilish.

– Biroq Gendalf hozirgina aytgandek, Uzukni o'zimizga ma'lum usullar bilan yo'q qila olmaymiz, – e'tiroz bildirdi Elrond. – Dengiz ortida yashaydiganlar esa uni qabul qilishmadi. Yovuzlik yo'lida xizmat qiladimi u yoki ezgulik yo'lida, buyum O'rtayerga tegishli. Bu muammoni shu zaminda yashaydiganlar hal qilishi lozim.

– Unday bo'lsa, Uzukni dengiz tubiga tashlab Sarumaning yolg'onini chinga aylantiraylik, – taklif kiritdi Glorfindel. –

Zero, mana bugun aniqlanishicha, boshi ila Kengashga raislik qilgan Saruman, oyogʻi ila egri yoʻldan borgan. Uzuk chindan ham yoʻqolganini, lekin kun oʻtib bir kun topilishini Saruman yaxshi bilgan. Buyumni shaxsan oʻzi qoʻlga kiritishni xohlab, endi hech qachon topilmasligiga bizni ishontirib kelgan. Biroq yolgʻon zamirida haqiqat yashiringan holatlar ham tez-tez uchrab turadi. Shunday ekan, Uzuk dengizda xavfsiz yotadi.

– U qadar xavfsiz boʻladi deb boʻlmaydi, – yana eʼtiroz bildirdi Gendalf qatʼiy ohangda. – Dengiz qaʼrida ham har xil jonivorlar yashaydi. Boz ustiga, dengiz bilan quruqlik baʼzan oʻzaro joy almashtirib turadigan holatlar ham uchrab turadi. Biz esa odamlarning bir necha avlodi yoki bir necha asr tushunchalari asosida mulohaza yuritmasligimiz kerak. Tahdidga batamom barham berishga intilishimiz darkor, garchi bunga umid qila olmasak-da.

– Modomiki, Uzukni Yarveynga eltish yoʻli xavfli kechar ekan, dengiz tomon olingan yoʻl undan-da uzoq, xavf-xatarga toʻlib kechadi, – dedi Gildor. – Shunday ekan, qaror topgan tahdidga dengiz safari bilan ham batamom barham berib boʻlmaydi. Koʻnglim sezib turibdi, bor gapdan xabar topadigan Sauron bizni gʻarbiy yoʻnalishda kutadi. Xabar topishi esa uzoqqa choʻzilmaydi. Toʻqqizlik otlardan mahrum boʻldi. Biroq bu vaqtinchalik holat. Koʻp oʻtmay ular boshqa, yanada uchqur otlarni topib egarlashadi. Dushman bilan bizning oramizda faqat Gondorning barham topib borayotgan qudratigina turibdi, xolos. Gondorni yenggach, sohil boʻylab harakat boshlaydi. Agar u oq minoralar-u, bandargohni zabt etsa, elflar Oʻrtayerda tobora uzunlashib borayotgan koʻlankadan qochib qutulish yoʻli qolmaydi.

– Biroq dushmanning siz bashorat qilayotgan safari biroz uzoqqa choʻzilishi mumkin, – kesatdi Boromir. – Gondorning qudrati barham topyapti dedingiz. Ammo Gondorga hech nima qilgani yoʻq, vaziyat murakkab boʻlganiga qaramay, hozir ham kuch-qudratga toʻlib turibdi u.

– Toʻgʻri, lekin uning oʻsha qudrati toʻqqizlikni yana oʻz





qabrlariga qamashga yetmaydi, -- ta'kidlab o'tdi Gildor. -- Boz ustiga, dushman Gondor muhofazasida bo'lmagan boshqa yo'l-larni ham topa olishi mumkin.

– Shunday qilib, – dedi Erester, – oldimizda ikkita yo'l bor: Uzukni yashirish yoki yo'q qilish. Ikkala ish ham qo'limizdan kelmaydi. Xo'sh, kim hal etib beradi ushbu muammoni?

– Bu ish hech kimning qo'lidan kelmaydi, – jiddiy ohangda bayonot qildi Elrond. – U yoki bu yo'lni tanlasak nima bo'lishini hech kim oldindan ayta olmaydi. Biroq menga qaysi yo'lni tanlashimiz ayon bo'ldi. G'arbiy yo'nalish oson yo'lday ko'rinadi. Shuning uchun undan voz kechmoq lozim. U yo'nalish uzluksiz dushman nazoratida bo'ladi. Chunki elflar qochib qolish maqsadida qadimdan buyon o'sha yo'nalishdan tez-tez foydalanib borishgan. Biz o'zimiz uchun murakkab, dushman uchun kutilmagan yo'ldan borishimiz darkor. Umidimiz ana o'sha yo'lda bo'ladi, agar umid tushunchasi zig'irday bo'lsin, qolgan bo'lsa, albatta. Xavf tomon – Mordor tomon yo'l olishimiz, Uzukni olovga tashlashimiz lozim.

Oraga yana jimjitlik cho'kdi. Quyosh to'liq yoritgan, suvning yoqimli shildirashi taralayotgan vodiya qarab o'tirgan Frodo ushbu shinam uyda ham halokatli ko'langa solayotgan tahdidni ich-ichidan his etmoqda. Frodo biroz tipirchilab qo'ygan Boromirga razm soldi. Qoshini chimirib olgan Boromir iyagini silab o'tiribdi.

-- Men bir narsani hech tushunmayapman, – dedi u nihoyat. -- Xo'p, Saruman xoinlik qilibdi, lekin u o'z oqilligini namoyon etib ketmadimi? Nima uchun sizlar faqat Uzukni yashirish yoki yo'qotish haqida mulohaza yurityapsiz? Nima uchun biz Uzuk qo'limizga tekkani, endi u bizning manfaatlarimizga xizmat qilishi mumkinligi haqida fikr yuritmayapmiz? Erkin xalq hukmdorlari unga sohiblik qilib, dushmanga qarata halokatli zarba berishi mumkin-u?! Fikrimcha, dushman, aynan shundan qo'rqadi.

Gondor aholisi nihoyatda mard xalq. U hech qachon dushmanga bo'yin egmaydi. Lekin uni bitta qo'ymay qirib tash-



lash mumkin. Mardlik dastlab kuchga, shundan so'nggina qurolga ehtiyoj sezadi. Uzukni o'z qurolimizga aylantiraylik, agar u chindan ham siz aytayotgan qudratga ega bo'lsa. Uni olaylik-da, g'alaba sari olg'a bosaylik!

- Ming afsuski, hech qaysi birimiz Hukmdorlik Uzugidan foydalana olmaymiz, - dedi Elrond. - Uzuk Sauronga tegishli, uni o'zi o'z qo'li bilan yovuzlik timsoli sifatida yasagan. Uzukning kuchi, Boromir, biz idora qila olmaydigan darajada qudratlidir. Buyuk kuchga ega bo'lganlargina Uzukka hukmronlik qilishi mumkin. Lekin o'shalarga ham Uzuk yanada kuchli halokatli ta'sir o'tkazadi. Uzukka hukmronlik qilish istagining o'zi kishi qalbini parokanda qiladi. Mana, masalan, Sarumanni olaylik. Agar oqillardan biror-biri Uzuk yordamida Mordor hokimini o'z quroli vositasida yengadigan bo'lsa, Sauronning taxtiga o'zi o'tirib oladi va dunyoda Zulmatning yangi hukmdori paydo bo'ladi. Uzuk nima uchun yo'q qilinishi kerakligining yana bir sababi aynan shundan iborat. Uzuk mavjud ekan, oqillarga nisbatan ham tahdid mavjud. Zero, hech kim onasining qornidan yovuz bo'lib tushmaydi. Sauron ham dastlab yovuz bo'lmagan. Yashirib qo'yish maqsadida bo'lsa ham Uzukni qo'lga olishdan qo'rqaman. Shunday ekan, Uzukni, unga hukmronlik qilish uchun olmagan bo'lar edim.


Men ham, - ma'qullab o'tdi Gendalf.

Boromir ikkilangancha ikkalasiga qarab, boshini xam qildi.

- Mayli, siz aytgancha bo'la qolsin, - dedi u. - Demak, biz Gondorda mavjud qurolgagina tayanishimiz kerak, shundaymi? Oqillar Uzukni muhofaza qilishar ekan, biz u yoqda jang qilaveramiz. Balkim, anavi siniq qilich yordam berar dushman tazyiqini to'xtatgani? Agar uni ko'tarib yurgan qo'l nataqat siniq bo'laklarni, balki o'tmishdagi qirollar qudratini ham meros olgan bo'lsa, albatta.

- Kim biladi deysiz? Biror kun kelib buni tekshirib ko'ramiz, - javob qildi Aragorn.

-- O'sha kunning kelishi uzoq cho'zilmasin-da, ishqilib,



-- dedi Boromir. -- Garchi yordam so'ramayotgan bo'lsam-da, biz yordamga muhtojmiz. Agar boshqalar ham dushmanga qarshi bor kuchi bilan kurashayotganini bilsak, ancha taskin topgan bo'lar edik.

– Unday bo'lsa tinchlanishingiz mumkin, -- dedi Elrond. – Dunyoda siz bilmaydigan boshqa yurt va qirolliklar ham mavjud. Ular sizning ko'zingizga zohiran ko'rinmaydi. – Argonath va Gondor darvozasiga yetishdan oldin buyuk Anduin ko'p-lab sohillarni yuvib o'tadi.


– Agar o'sha kuchlarning bari birlashib, ulardan birgalikda foydalanish imkoni bo'lsa, hammamiz uchun maqbul bo'lar edi, -- dedi Gloin. Nisbatan xavfsiz boshqa uzuklar ham bo'lishi, ularni o'z manfaatimizda qo'llashimiz mumkin. Biz gnomlar yettita uzugimizni yo'qotganmiz, agar Balin Moriyada so'nggi uzuk sanalgan Troming Uzugini qo'lga kiritmagan bo'lsa, albatta. Troning o'limidan so'ng, uning uzugi haqida hech qanday gap chiqmadi. Bekitmayman, o'sha uzukni topish Balinni safarga chiqishga jazm qilgan sabablardan biri bo'lgan.

– Balin Moriyada hech qanday uzuk topmaydi, -- dedi Gendalf. – Tror uzukni o'z o'g'li Traynga bergan, Trayn esa uni Toringa topshirmagan. Uzuk Dol-Guldur zindonida qiynoqqa solingan Trayndan tortib olingan. Men u yerga juda kech kirib borganman.

– Ming afsus! Qasos oladigan kun qachon kelar ekan, a? -- xitob qildi Gloin. -- Xo'p, yana uchta uzuk qolyapti. Elflarning uchta uzugiga nima qilgan? Aytishlariga qaraganda, juda qudratli buyum emish ular. Elf hukmdorlari saqlab qolishmadimi o'z uzuklarini? O'sha buyumlar ham bir zamonlar Zulmat hukmdori tomonida yasalgan-u. Ulardan foydalanish mumkinmi? Men bu yerda elf podsholarini ko'ryapman. Bu savolga javob bera olishadimi ular?

Elflar indashmadi.

– Gapimni yaxshi uqmadingizmi, Gloin? -- so'radi Elrond. -- Siz aytgan o'sha uchta uzukni Sauron yasamagan, ularni hatto qo'liga ham olmagan u. Biroq ular haqida gapirish ham



mumkin emas. Uchala uzukning har biri chindan ham katta qudratga ega, lekin ular urush quroli yoki bosqinchilik quroli emas, ularning kuchi umuman boshqa narsaga yo'nalgan. Siz tilga olgan buyumlarni yasagan ustalar hukmdorlik yoki boylikka ega bo'lishga intilishmagan, u ustalarga anglab yetish, bunyod etish va davolash usullari kerak bo'lgan. Elflar bularning bariga erisha bilishdi, lekin bu narsalar ularga ancha qimmatga tushdi. Agar Sauron Hokimiyat Uzugini qo'lga kiritadigan bo'lsa, elflarning qalbi-yu, fikr-mulohazalari unga ayon bo'ladi. O'sha uzuklar hech qachon yasalmaganda ancha yaxshi bo'lar edi.

– Hokimiyat Uzugi yo'q qilinsa, elf uzuklarining holi ne kechadi? – so'radi Gloin.

– Nima bo'lishini aniq bilmaymiz, – ma'yus ohangda javob berdi Elrond. – Ayrimlar, modomiki Sauron qo'l tekkizmagan ekan, uchala uzuk xalos bo'lishiga, uzuk sohiblari dunyo jarohatlarini davolay bilishiga umid qilishmoqda. Ammo yagona Uzuk barbod bo'lsa, uchala uzuk ham o'z kuchini yo'qotib, gum bo'lishi, oqibatda ko'plab ajoyibotlar unut bo'lishi mumkin. Men shunday deb hisoblayman.

– Elflarning bari bunga tayyor, – ta'kidlab o'tdi Glorfindel. – Bunda, agar Sauronning qudrati yo'q bo'lib, hokimiyatining tahdidi batamom barham topsa.

– Shunday qilib biz yana Uzukni yo'q qilish masalasiga qaytdik, ammo uning aniq yechimini topmadik – eslatdi Erestor. – O'sha olovni qanday topamiz, agar bor bo'lsa? Bu umidsizlik yo'li... Yoki aqldan ozish yo'li, degan bo'lar edim men, agar Elrondning oqilligi aralashmaganida.

– Umidsizlik yoki aqldan ozish yo'li? – hayron bo'ldi Gendalf. – Umidsizlik emas bu. O'zining muqarrar halokatini ko'rayotganlarga umidsizlikka yuz tutishadi. Biz umidsizlikka yuz tutmaymiz.

Oqillik – qolgan barcha yo'llar fikr tarozisidan o'tkazilgan bo'lib, tanlangan yo'lning, haqiqatan ham, zarur yo'l ekanligini e'tirof etishdan iboratdir, garchi soxta umidni pax-paxlatayotganlarga ushbu oqillik aqldan ozishday ko'rinsa-da. Aqldan



ozish egnimizga kiyilgan himoya plashi, dushman ko'zi oldida tortilgan parda bo'lsin, mayliga. Zero, yov ham oqil bo'lib, o'z yovuzligi ila mavjud yo'llarni fikr tarozisidan o'tkazadi. Biroq u biladigan yagona o'lchov mutlaq hokimiyatga intilish bo'lib, boshqalarni ham o'z qarichi bilan o'lchaydi. Uzukka ega bo'la turib, uni yo'q qilishni istashimizni dushman xayoliga ham keltira olmaydi. Uzukni yo'q qilar ekanmiz, biz uning taxminini puchga chiqaramiz.

– Vaqtincha, – ma'qul topdi Elrond. – Xo'sh, yo'lni tanladik, lekin u juda mushkul yo'l. Kuch ham, oqillik ham bizni bu yo'ldan uzoqqa olib ketmaydi. Bu yo'lni bir xil umid-la kuchli ham, kuchsiz ham bosib o'tishi mumkin. Dunyo tuzilishini o'zgartirayotganlarning harakat yo'li ko'p hollarda aynan mana shunday kechadi: buyuklar nigohi mutlaqo boshqa tomon qaratilgan bir vaqtda, jajji qo'l o'zi uddalay biladigan ishlarni amalda bajaradi.

– Juda yaxshi, juda chiroyli gap bo'ldi, janob Elrond! – xitob qildi kutilmaganda Bilbo. – Ortiqcha gap ortiqcha! Shundoq ham tushunarli. kimga shama qilayotganingiz. Bilbo, ahmoq hobbit boshladimi bu ishni, Bilboning o'zi oxiriga yetkazadi. Menga bu yer juda qulay edi, kitobim ustida yaxshigina ishlayotgan edim. Oxiriga yetib ham qoldim, agar bilmoqchi bo'lsangiz. Uni qanday jumla bilan yakunlashni ham allaqachon o'ylab qo'yganman: «Sarguzashti nihoyasiga yetib, uning oxirigacha baxtiyor yashab o'tdi». Yaxshi xotima bo'lar edi bu. Ammo endi men uni o'zgartiraman. Chunki bunday xotima adolatdan ancha yiroqqa o'xshaydi. Boz ustiga, kitobimga yana bir necha bob qo'shiladigan ko'rinadi, agar o'sha boblarni yozish nasib qilsa. Dahshatli xalaqit. Xo'sh, qachon yo'lga chiqishim kerak?

Bilboga hayrat-la baqrayib qolgan Boromir Kengash a'zolarining keksa hobbitga chuqur ehtirom-la qarab turishganini ko'rib, kulmoqchi bo'lgan yuzi burishgan holatda qotib qoldi. Faqat Gloingina hobbitga kulib boqmoqda, chunki uning tabassumini uzoq o'tmishda qolgan xotiralar qo'zg'agan.

– O‘zing boshlagan bu ishni o‘zing oxiriga yetkazsan nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi, albatta, qadrdonim Bilbo, – gap boshladi Gendalf. – Lekin endi sen o‘sha ish nima bilan boshlanganini yaxshi anglab olding. Hatto buyuk qahramonlar ham bu ishda ahamiyatsiz rol o‘ynashgan. Sen biz bilan xayrlashma! Hazil-mutoyiba bilan bo‘lsa-da, mardonavor taklif kiritayotganingga zarracha bo‘lsin, shubha qilmaymiz. Afsuski, bu ish yuklamasi sening kuch-quvvatingdan biroz ustunlik qiladi, Bilbo. Vaqtni ortga qaytara olmaysan. Vaqt o‘tdi. Agar maslahatinga quloq tutsang, sening davring o‘tdi, demoqchiman. Endi sen solnomachisan, xolos. Kitobingni oxiriga yetkazgin-u, xotimasiga tegma! Aynan o‘sha xotinaga umid bog‘laymiz. Lekin ular qaytgach, davomini yozishga tayyor tur.

– Sen hech qachon menga xush yoqadigan maslahat bermagansan, – kulib boqdi Bilbo. – Noxush maslahatlarningning bari yaxshilikka olib kelgan. Shunday ekan, ushbu maslahating ham yomonlikka olib kelmaydi. Uzuk bilan bog‘liq ishga kuchim yetishiga ishonmaganman. Bu ish katta bo‘lib ketdi, men esa – yo‘q. Qani, ayt-chi menga. «ular» deganda sen kimni nazarda tutding?

– Biz Uzukni kimning qo‘liga berib, safarga jo‘natsak, o‘shalarni-da, albatta. – javob berdi Gendalf.

– Juda to‘g‘ri! Xo‘sh, kim ekan ular? Nazarimda, bugungi Kengash aynan mana shu masalani hal qilishi kerak. Elflar uzundan uzoq nutq o‘qib zavq olishadi, gnomlar og‘ir yuklamalarga dosh bera olishadi, men esa atigi kekxa hobbitman, boz ustiga tushlik vaqtini o‘tkazib yubordim. Ismlarni hozir sanab o‘tasizlarni yoki bu ishni kechga surib, tushlik qilib olamizmi?

Birov indamadi. Kun yarmiga yetganini anglatgan kichik qo‘ng‘iroq zarbi yangradi. Frodo hammaga razm solib chiqdi, lekin birov unga qiyo ham boqmad. Kengash a‘zolarining bari boshini xam qilganча o‘yga tolgan. Frodoning vujudini qismati e‘lon qilinishini kutayotganday dahshat qamradi. Shu kungacha u o‘zi o‘z taqdirini oldindan ko‘rib yurgan, ammo o‘sha tasavvuri ro‘yobga chiqmasligiga umid qilgan edi. Qalbi, fikr-xayoli

tinchlik hukm surayotgan mana bu kichik dunyoda, Dorilomonda. Bilboning yonida qolish istagiga to'lgan edi...

Nihoyat u bir amallab og'iz juftlab, o'zi aytgan gapidan o'zi hayratlangancha, past ovozda e'lon qildi:

- Men ko'tarib boraman Urukni, ammo manzilga eltadigan yo'lni bilmayman.

Elrond boshini ko'tarib hobbitga qaradi. Frodo elfning nigohi yuragini teshib o'tayotganini his etdi.

- Agar bugun eshitganlarimni to'g'ri tushungan bo'lsam, o'ylashimcha, ushbu rol siz uchun mo'ljallangan, janob Frodo. Agar yo'lni o'zingiz topa olmasangiz, sizning o'rningizda boshqa birov qila olmaydi buni. Shir xalqining o'zini namoyon etadigan vaqti, ya'ni hobbitlar sokin daladan chiqib, dunyo minoralarini-yu, Buyuklarning Kengashlarini titratadigan vaqt yetdi. Oqillar orasida kim ko'ra bilgan edi bunday bo'lishini?

Ammo bu o'ta mashaqqatli qismatdir. Uni boshqa birovning zimmasiga yuklab bo'lmaydi. Modimiki, siz, janob Frodo, ushbu qismatni o'z ixtiyoringiz ila qabul qilar ekansiz, men sizga to'g'ri yo'lni tanlagansiz deyman. Agar bu yerda elflarning qadimdan qudratli do'stlari sanalmish Xador, Xurin, Turin va Beren hozir shu yerga yig'ilishganda, sizning o'rningiz o'sha qahramonlar orasida bo'lar edi.

- Shoshmang, uni yolg'iz o'zini yubormassiz, axir? - xitob qildi Sem, Kengash yig'ilishini muyulish ortida, yerda o'tirgancha eshitgan joyidan irg'ib chiqib.

- Yo'q, albatta! - kulib boqdi Elrond, Senga yuzlanar ekan. - Siz ham janob Frodo bilan birga jo'naysiz. Ikkalangizni ayri holda tasavvur qilish qiyin, garchi Kengashning maxfiy yig'ilishiga u taklif qilingan-u, siz chetda qolgan bo'lsangiz-da.

Sem qizarib ketdi.

- Durustgina balo ortirib oldik-ku boshimizga, janob Frodo, - dedi u, boshini sarak-sarak qilib.

## UZUK JANUBGA YO'L OLADI

Birozdan so'ng hobbitlar Bilboning xonasida o'z kengashlarini o'tkazishdi. Kengash yig'ilishi o'tkazilgan joyga o'ta bilgan Sem Frodoning safar birodari sifatida tayinlanganini eshitgan Merri bilan Pin achchiqlanishdi.

– Elrond Semni yig'ilish o'tkazilayotgan joydan quvib chiqarib, oyoq-qo'lga kishan solgancha zindonga tashlash o'rni-ga, nojo'ya qilmishi uchun rag'batlantiribdi-ya, yaxshi emas! – e'tiroz bildirdi Pin.

– Rag'batlantiribdi?! – hayron bo'ldi Frodo. – Bundan-da yomon jazo berilishi mumkinligini tasavvur qila olmayman. Nima deytganingni o'zing tushunmayotgan bo'lsang kerak: oqibati mudhish yakun topishi mumkin bo'lgan safarda ishtirok etishga hukm qilinganini rag'bat deyapsanmi? Kecha zimmam-dagi ish oxiriga yetib, shu yerda dam olgani qolganimni tushimda ko'rgan edim-a!

– Men ham dam olishingni istayman, – dedi Merri. – Ammo biz senga emas Semga hasad qilyapmiz. Ketib qolsang, Dorilomonda qolishning o'zi biz uchun jazo bo'ladi. Sen bilan chakana yo'l yurdikmi? Boshdan o'tgan ishlar-chi?! Bundan bu yog'iga ham birga ketishni xohlaymiz.

– Men ham aynan shu gapni aytmoqchi edim, – dedi Pin. – Biz hobbitlar hamisha birga bo'lishimiz kerak. Oyoq-qo'limga kishan solishmasa bas, sen bilan birga ketaman. Guruhda bir nafar bo'lsa ham, mulohazaliroq hamroh bo'lishi kerak-ku, axir.

– U holda seni guruh tarkibiga umuman qo'shmaslik kerak, Peregrin Tuk, – dedi deyarli yer sathidagi derazadan ich-kariga qaragan Gendalf. – Ammo xavotiringiz behuda. Hali hech narsa hal bo'lgani yo'q.

– Hal bo'lgani yo'q?! – xitob qildi Pin. – Ichkariga soatlab bekinib olib nimalar bilan shug'ullanyapsizlar o'zi?

– U yoq, bu yoqdan gaplashib o'tiramiz, – javob berdi



Bilbo. – Yangiliklarni eshitib hammaning, shu jumladan, Gendalfning ko‘zi katta ochilib ketadi. O‘ylashimcha, Gollumning tutqinlikdan qochgani haqidagi xabar hatto Gendalfni ham chuqur o‘ylantirib qo‘ydi.

– Yanglishyapsan, – dedi sehrgar. – Yaxshi eshitmabsan. Gollumning tutqinlikdan qochganini men ancha oldin Gvayxirning o‘zidan eshitgan edim. Hammaning ko‘zi katta ochilib ketishiga sababchi bo‘lgan yagona yangilik Frodoning o‘zi bo‘ldi. Hayratlanmagan yolg‘iz men bo‘ldim.

– Xo‘p, yaxshi, – dedi Bilbo. – Sho‘rlik Frodo bilan Semning tayinlanishidan boshqa hech narsa hal bo‘lmadi. Men hamisha ish shu bilan yakun topishidan xavfsirab yurgan edim. Lekin shuni bilamanki, josuslik ishlarini tashkillashtirayotgan Elrond anchagina ayg‘oqchi tayinlagan. Yo‘lga chiqishdimi ular, Gendalf?

– Ayrimlari allaqachon yo‘lda, qolganlari ertaga chiqishadi, – javob berdi sehrgar. – Elrond yuborayotgan elflar dasht kezib yurgan darbadarlar va, balkim, Yovuz o‘rmondagi Tranduil xalqi bilan aloqa o‘rnatishadi. Aragorn Elrondning o‘g‘illari bilan safarga chiqib ketdi. Bir qadam bo‘lsa ham harakat boshlashdan oldin ko‘plab lig naridagi tevarak-atrofni o‘rganib chiqamiz. Damingni qattiq tut, Frodo! Hali ancha o‘tiradigan ko‘rinasan bu yerda.

– Obbo, qishga qolib ketamizmi, nima balo, – po‘ng‘illadi Sem.

– Bir tomondan bunda sening ham aybing bor, Frodo, – dedi Bilbo. – Qaysarlik qilib, tug‘ilgan kunimni nishonlab ketmoqchi bo‘lgansan. Lekin nishonlashni ham boplagansan! Boshqa kun qurib ketganday, Beg-Endni anavi Sakvil-Begginslarga aynan shu kuni topshirgansan. Iloj qancha, endi qishga qolib ketibmiz deya bahor kelishini kutmaysan-u. Ayg‘oqchilari-mizning tegishli ma‘lumotlarini olmay turib ham yo‘lga chiqa olmaysan. Endi sizlarni darbadarlikning quyidagi misrada aytilgan qismati kutadi:

Qish tishini ko'rsatar sovuq,  
Rutubatli kuz yelib uchar tez.  
Olamni zimiston to'ldiradi liq,  
Daraxtlar yechinar o'tib xazonrez.  
Yot yurtida yurak aslo tinchlanmas  
Orom neligin darbadar bilmas

– Bilbo haq, – dedi Gendalf. – Qora otliqlarga nima bo'lganini aniqlab olmaganimizcha yo'lga chiqa olmaymiz.

– Ular sel suvida g'arq bo'lib o'ldi, deb yurgan edim, – hayron bo'ldi Merri.

– Uzuk ruhlarini o'ldirib bo'lmaydi, – javob berdi Gendalf. – Ularda xo'jayinlarining, ya'ni Uzuklar hukmdorining kuchi bor. Sohib o'lmaguncha ular ham o'lmaydi. Hozircha ular otlari va shakl-shamoyillaridan mahrum bo'lishgan, xolos, va shu bois nisbatan xavfsiz bo'lib qolishgan degan umiddamiz, lekin bunga aniq ishonch hosil qilib olishimiz kerak. Bu vaqt davomida sen, Frodo, har qanday ko'ngilsizlikni unutilish shart. Senga nima bilan yordam bera olishimni bilmadim-u, qulog'ingga bir gap aytib qo'yishim mumkin. Bu yerda o'tirganlarning qaysidir biri guruhda bir nafar bo'lsa ham, mulohazaliroq inson bo'lishi kerak, deganday bo'ldi. Umuman aytganda, u haq. Binobarin, o'ylashimcha, men ham sizlarga qo'shilib ketadigan bo'ldim.

Bu gapdan Frodo shu qadar sevinib ketdiki, Gendalf o'tirgan tokhasidan tushib, shlyapasini yechganicha, bosh irg'ib ta'zim qildi.

– Men «o'ylashimcha» dedim, xolos. Hozircha umidvor bo'lma. Bu ishda uzil-kesil qaror Elrond bilan do'sting Musofir tomonidan qabul qilinadi. Aytganicha, Elrondga aytar gapim bor edi, esimga tushdi. Xo'p, mayli, boray endi.

– Nima deb o'ylaysan, uzoq o'tiramanmi bu yerda hali? – Bilbodan so'radi Frodo Gendalf ketgach.

– Bilmadim, o'g'lim. Dorilomonda o'tadigan kunlarni sanay olmayman, – javob berdi Bilbo. – O'ylashimcha, uzoq

kutsang kerak. Hali ancha gaplashib o'tirishimiz mumkin. Bir kitobimni yakunlab, keyingisini boshlashga yordamlashib yuborasanmi? Uning xotimasi haqida hech o'ylab ko'rgansanmi?

– Xotimaning mazmunan bir emas, bir nechta shakli kelgan xayolimga, lekin bari juda qorong'i, noxush bo'lib chiqmoqda, – javob berdi Frodo.

– Hay-hay-hay! Unday xayollarga berilma aslo! – xitob qildi Bilbo. – Biz yozadigan kitoblarning xotimasi chiroyli bo'lishi kerak. Agar o'sha kitobni: «Ikkovlon bir uyga ko'chib o'tib, uzoq va baxtli hayot kechirdi», deb tugatsak-chi, yoqadimi senga?

– Qaniydi, zo'r bo'lar edi-yu! – javob berdi Frodo.

– Darhaqiqat, zo'r xotima! – baho berdi Sem. – Faqat men bir narsani bilishni istar edim: qayerdagi uyga ko'chib o'tishdi ikkovlon?

Hobbitlar ma'lum vaqt yaqinda o'tgan sarguzashtlari, oldinda yana qanday xavf va tahdidlar kutishini muhokama qilib, o'ylab tolishdi. Ammo Dorilomonning xususiyati shundan iboratki, ko'p o'tmay har qanday tashvish va qo'rquv hissi pakalarning vujudi-yu, fikr-xayollarini tark etdi. Kelgusi hodisalar haqidagi o'ylovlar, yomonmi ular, yaxshimi, unutilmadi, lekin bugungi kun ustidan hukmronlik ham qila olmadi. Hobbitlarning umidlari-yu, kuch-quvvati kundan kunga mustahkamlanib bordi, o'tayotgan har bir kundan mamnun bo'lib, har bir tushlik, har bir suhbat, har bir qo'shiqdan zavq olishdi.

Oradan kunlar o'tdi, har bir tong yorqin, chiroyli, har bir oqshom salqin va ravshan kechdi. Kuz tez o'tib, tabiatning tilla tusa asta-sekin xira kumush tusini kasb eta boshladi. Yalang'och shoxlarning oxirgi barglari to'kilib tushdi. G'uborli tog'lardan sovuq shamol yetib keldi. Oy kundan kunga to'lishib, tungi osmondagi yulduzlarni xiralashtirdi. Ammo janub ufqida yolg'iz yulduz qizarib, tunlar o'tgan, oy yana kichraya borgan sari yanada yorqin porlab ko'rindi. Frodo o'sha yulduzni derazadan tomosha qilmoqda. Yulduz daraxtlar orasidan o'rmonli tekislikni diqqat-la kuzatayotgan ko'zday porlamoqda.

Hobbitlar Elrondning xonadoniga yetib kelgan kundan buyon mana ikki oydan o'tdi. Kuzning so'nggi kunlarini olib ketgan noyabr nihoyasiga yetib, Elrondning ayg'oqchilari Dorilomonga qaytayotgan dekabr boshlandi. Ularning ayrimlari Xoarvell daryosi oqib chiqadigan Etten botqog'igacha borib yetishdi, ba'zilari esa g'arbga yo'l olib, Aragorn va uning boshqa darbadar qarindoshlari yordamida Tarbad tog'i ortini, xususan qadimgi shimoliy yo'l Greyflud daryosini eski shahar vayronasi yaqinida kesib o'tadigan hududni izg'ib chiqishdi. Ayg'oqchilarning ko'pchiligi sharqiy o'lkalar tomon yo'l olishgan. Ularning ayrimlari tog' oshib, Yovuz o'rmonga yetishdi. Boshqa bir guruhi esa so'qmoqlardan borib Quvonch daryosining sarchashmasiga, u yerdan Quvonch dalasi orqali o'tib, Yovvoyi o'lkaga, Radagastning Rosgobeldagi uyigacha yetdi. U yerda Radagast topilmadi. Shundan so'ng, guruh, Dimrill zinasi deb ataladigan baland tog' so'qmog'i orqali o'tib, ortga qaytdi. Dorilomonga oxirgi bo'lib Elrondning o'g'illari Elnadan bilan Elrogir qaytishdi. Ular nihoyatda olis safarga chiqib, Silverlud daryosining etagidagi g'alati joyga borib qaytishdi. Otasidan olgan topshiriq mazmunini aka-ukalar hech kimga aytishmadi.

Ayg'oqchilarning birortasi na Qora otliqlarni, na Sauronning boshqa turdagi malaylarini uchratishdi. Hatto G'uborli tog'larning bahaybat burgutlari ham yangi xabar keltirishmadi. Gollum haqida hech qayerda hech gap yo'q, lekin yirtqich bo'rilar hanuzgacha gala bo'lib yig'ilib, buyuk daryo sohillarida ov qilishmoqda. Bruinen kechuvi yaqinida g'arq bo'lgan uchta ot o'ligi topildi. Sal narida, daryo tagida ko'ndalang ko'tarilgan qoyali tepaliklar orasida esa yana beshta ot jasad va yirtilib titilgan qora plash topildi. Qora otliqlarning na izi ko'rindi, na biror yerda bo'lgan alomati. Bir so'z bilan aytganda, shimoliy o'lkalardan gum bo'lgan ko'rinadi ular.

– Nima qilgan taqdirda ham, to'qqiztadan sakkiztasini yo'q deb hisoblash mumkin, – dedi Gendalf. – Bemulohazalik-lahaddan ortiq tinchlanib ham bo'lmaydi, albatta, lekin o'ylaymanki, nochor ahvolga tushib qolgan Uzuk ruhlari Mordorga, o'z

xo'jayinlarining huzuriga quruq qo'l bilan, o'z shakl-shamoyillarini yo'qotgan holatda qaytishga majbur bo'lishadi.

Agar ushbu taxmin haqiqatga yaqin bo'lsa, ular yana shikorga chiqishguncha muayyan vaqt o'tadi. Dushmannning boshqa turdagi malaylari ham bor, albatta, lekin ular bizning izimizga tushishlari uchun dastlab Dorilomongacha yetib kelishlari lozim. Agar biz ehtiyotkorona ish tutadigan bo'lsak, ularning izquvarligi oson kechmaydi. Ammo safarimizni ham endi kechga surib bo'lmaydi.

Elrond hobbitlarni o'z huzuriga taklif qilib, Frodoga jiddiy qaradi.

– Vaqt bo'ldi, – dedi u. – Uzuk olib ketiladigan bo'lsa, ayni mavridi yetdi. Ammo Uzuk bilan ketadiganlar urush va qurolli kuch yordamiga umid qilmasliklari kerak. Dushman hududiga tashqi yordamsiz chuqur singib kirishga to'g'ri keladi. Uzuk qo'riqchisi xizmatini davom etish fikridan qaytganing yo'qmi hali, Frodo?

– Yo'q, unday fikrimdan qaytganim yo'q. Sem bilan yo'lga chiqishga tayyorman, – javob berdi Frodo.

– Unda senga hatto maslahatim-la ortiq yordam bera olmayman. Bosib o'tadigan yo'lingning qisqa qisminigina oldindan ko'ra olishim mumkin, lekin zimmangga yuklangan topshiriqni qanday bajarasan, bilmayman, – dedi Elrond. – Ko'langa tog' etagigacha yetib, Greyflud sohilida kengaymoqda. Ko'lan-kada bosgan hudud esa nigohim uchun yopiq. Yo'lingda ba'zan ochiqdan ochiq, ba'zan yashirin dushmanlik qiladigan yov uchraydi, lekin do'stlar ham, ayniqsa, mutlaqo kutilmagan joyda duch kelib boradi. Katta dunyoning men taniydigan doiraloriga xabarchilar yuboraman. Ammo yo'l bugungi kunda shu qadar xavfli bo'lib qolganki, yuborilgan xabarlarning ayrimlari manzilga umuman yetmasligi yoki juda kech yetishi mumkin. Senga hamroh bo'ladigan birodarlarni o'zim tanlab tayinlayman, agar ular istak bildirib, taqdir imkon bersa, albatta. Safaring davomida asosan tezlik va pinhoniylikka tayanish kerak ekan, hamroh birodarlaring soni ko'p bo'lishi shart emas. Tasarrufimda qadi-

miy elf qo'shini bo'lgan taqdirda ham, uning hech qanday nafi tegmay, aksincha, Mordorning jamiki qudratini senga qarshi qo'zg'atib yuborgan bo'lar edi.

Uzuk birodarligi to'qqiz nafar yo'lovchidan tashkil topadi, ya'ni to'qqiz nafar yo'lovchi yovuzlik ifodasi bo'lmish to'qqizta otliqqa qarshi boradi. Sen va sening sadoqatli xizmatkoring bilan Gendalf boradi. Bu uning eng yuksak vazifasi, balkim, so'nggi ishi bo'ladi.

Qolgan hamrohlaringga kelsak, ular dunyodagi erkin xalqlar vakillari, ya'ni elflar, gnomlar va oddiy odamlar orasidan tayinlanadi. Legolas elflar vakili, Gloinning o'g'li Gimli – gnomlar vakili sifatida borishadi. Ular senga tog' so'gmoqlarigacha, balkim, undan keyin ham hamroh bo'lib borishga rozilik bildirishdi. Oddiy odamlar vakili sifatida senga Araxorning o'g'li Aragorn hamrohlik qiladi. Zero Isildur uzugi uning qismati bilan chambarchas bog'liqdir.

– Musofir ham men bilan boradimi?! – sevinib ketdi Frodo.

– Boraman, – kulib boqdi Aragorn. – Sening birodaring sifatida yo'l olishga ijozat so'radim, Frodo.


– Buni o'zim ham sendan iltimos qilish niyatida edim, – dedi Frodo. – Lekin sen, agar to'g'ri tushungan bo'lsam, Boromir bilan birga Minas Tiritga bormoqchi eding, shekilli.

– Boraman ham, – dedi Aragorn. – Urush boshlashimdan oldin singan qilich qaytadan bolg'alanib, butun qilinadi. Ikkalamizning yo'limiz bir, Frodo. Ko'pdan ko'p milya birga yuramiz. Binobarin, Boromir ham Uzuk birodarligiga kiradi... U juda mard inson.

– Demak, yana ikki kishini topishimiz kerak, – dedi Elrond. – O'ylab ko'raman. Xonadonimda yashaydiganlar orasidan senga hamroh topaman.

– U holda birodarlik tarkibida bizga joy qolmaydi-yu! – ingrab yubordi Pin. – Biz bu yerda qolishni istamaymiz, Frodo bilan birga ketishni xohlaymiz.

– Yo'lda nimalar kutishini tushunmasligingiz, hatto ta-



savvur ham qilmasligingiz sababli qolyapsizlar bu yerda, – e'tiroz bildirdi Elrond.

– Frodo ham tasavvur qila olmaydi bularni, – ta'kidlab qo'ydi Gendalf, kutilmaganda Pin tomon o'tib. – Qolgan birodarlar ham bilmaydi bizni oldinda nimalar kutayotganini. To'g'ri, mavjud xavf ko'lamini to'la-to'kis idrok etishganda, anavi hobbitlar safarga chiqishni xayoliga ham keltirmagan bo'lar edi. Ammo ular Frodo bilan birga ketishni juda istashyapti, agar ijozat bermasak o'zlarini bu dunyodagi eng baxtsiz hobbit deya his etishadi. O'ylashimcha, Elrond, yuzaga kelgan ushbu holatda ularning aqliga emas, do'stligiga tayanishimiz kerak. Birodarlik tarkibiga deylik, Glorfindel singari qudratli elflar sultonini tayinlagan taqdiringizda ham hujum-la na Zulmat Mitorasini zabt eta oladi u, na olovga yeta oladi.

– Fikring adolatdan yiroq emas, – sehgarning gapini na'qal topdi Elrond. – Lekin men ikkilanib qoldim. Ko'nglim to'la to'libdi, Shir xavf ostida. Bu ikkalasini esa o'lka aholisini o'zida qabul qilingan udumlarga muvofiq ogohlantirishlari uchun o'z yurtiga xabarchi sifatida qaytarishni niyat qilgan edim. Nima qilgan taqdirda ham, ikkalasining orasida Peregrin Tuk juda yosh. Yuragim qarshi chiqyapti uning Uzuk birodarligi tarkibiga kirishiga. U qolishi kerak.

– U holda, janob Elrond, siz meni yo zindonband qilishingiz, yo yurtimga kishanband qilib yuborishingiz kerak bo'ladi, – dedi Pin. – Aks holda men, baribir, birodarlik izidan ergashib boraveraman.

– Ma'qul. Unday bo'lsa sen ham birodarlik tarkibiga kirganing bo'lsin, – rozilik berdi Elrond chuqur uf tortib. – Mana nihoyat to'qqiz kishi bo'ldi. Uzuk birodarligi yetti kundan keyin yo'lga chiqishi kerak.

Elendil qilichi elf temirchilari tomonidan qayta toblanib, bir butun qilindi. Uning tig'iga hilol bilan quyosh tasviri o'rtasida yettita yulduz tasvirlanib, quyidagi so'zlar bitildi: «Araxornning o'g'li Aragorn Mordorga urush e'lon qiladi». Tayyor bo'lgan qilich yaltirab, sirtida tasvirlangan quyosh qizil shu'la taratdi, oy

tasviri esa sovuq porladi. Qurol tig'i mustahkam va nihoyatda o'tkir bo'lib, Aragorn unga G'arb olovi ma'nosini anglatadigan yangi – Andril nomini berdi.

Aragorn bilan Gandalf birga sayr qilib yoki biror yerda o'tirib bo'lg'usi safar, yo'lda duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar haqida suhbat qurishmoqda. Ikkalasi Elrond xonadonida mavjud xaritalar va safar mavzusiga taalluqli ma'lumotnomalarni o'rganib chiqishdi. Ikkalasiga ba'zan Frodo ham qo'shilib oladi, lekin Gandalf bilan Aragornning rahbarlik qobiliyatidan qanoatlangan hobbit o'z vaqtini ko'proq Bilbo bilan o'tkazmoqda.

Rivendellda kechayotgan so'nggi oqshomlarni hobbitlar asosan Olov zalida o'tkazib, bu yerda ular Beren bilan Lyutiye hamda katta javohirning qo'lga kiritilishi haqidagi qissani to'liq eshitishdi. Merri bilan Pin davraga qo'shilmagan kunlari esa Bilbo, Frodo va Sem qariyaning mo'jazzgina xonasiga bekinib olib Bilbo yozgan kitob boblari yoki o'zlari bitgan she'r namunalarini o'qishdi yoxud Frodoning sarguzashtlarini qog'ozga qayd qilishdi.

Oxirgi kuni Frodo Bilbo bilan yolg'iz qolgan so'nggi tongda keksa hobbit karavoti ostidagi yog'och qutini tortib chiqardi-da, qopqog'ini ochib, ichiga qaradi.

– O'zing bilan olib kelgan qiliching shu yerda, – ma'lum qildi Bilbo. – Faqat u singan. Yo'qolib qolmasligi uchun bo'laklarini terib kelgan edim, lekin bir butun qilib bolg'alab berishlari uchun elf temirchilariga eltishni unutib qo'yibman. Endi ulgurmaymiz. Senga boshqa qilich kerak deb o'ylayman.

Bilbo quti ichidan eskirib ketgan charm qinga solingan mo'jazzgina qilichchani chiqardi. Yalang'ochlangan ushbu qurolning yaxshilab artib, sayqal berilgan tig'i sovuq yarqiradi.

– Bu qurolning nomi Nish, – dedi u, qilichni yog'och to'singa osonlikcha sanchib. – Shuni olishing mumkin, agar istasang, albatta. O'ylaymanki, endi u menga kerak bo'lmaydi.

Frodo qilichni minnatdorlik-la qabul qildi.

– Bu yerda yana bir narsa bor, – dedi Bilbo, ko'rinishidan





kichik bo'lsa-da, aftidan, eski kiyimdan hosil qilingan og'irgina tuguncha chiqarib.

Keksa hobbitning qo'lida nimadir yaltiradi. Ko'pdan ko'p mayda halqachalardan to'qilgan, muzdek sovuq, po'latday pishiq, matoday bukiluvchan, mayda javohirlar qadalib bezatilgan sovut oy nurida yaltirayotgan kumushday porlamoqda. Ushbu sovutning inju va tog' billuri bilan bezatilgan kamari ham bor.

– Juda chiroyli narsa, a? – dedi sovutni yoruqqa tutgan Bilbo. – Foydasi ham bor. Buni menga Torin hadya qilgan. Shirni tark etishdan oldin men uni Yerqazir qishlog'idagi Musomlar Uyi muzeyidan olib chiqib, yuk xaltamga joylab oldim. Uzukdan tashqari, yoshlikdagi sarguzashtimni eslatadigan barcha narsalarimni ham o'zim bilan olib keldim. Sovutdan foydalanish niyatim bo'lmagan. Goh-gohida chiqarib tomosha qilaman, xolos. Kiyib ol uni, og'irligini sezmayсан ham.

– Juda beo'xshov, beso'naqay ko'rinib qolsam keragov... – ikkilandi Frodo.

– Men ham dastlab xuddi shunday fikrga borgan edim, – kulib boqdi Bilbo. – Tashqi ko'rinishing borasida bosh qotirmasang ham bo'laveradi. Kiyiming ostida kiyib yurasan uni. Qani, bo'l, kiy! Uni sir saqla, bunday sovuting borligini birovga ayta ko'rma! Uni kiyib yurganingni bilsam, xotirjam yuraman. Ishonchim komilki, anavi Qora otliqlarning tig'i ham o'tmaydi undan, – ovozini pasaytirdi u.

– Mayli, kiyganim bo'lsin, – rozi bo'ldi Frodo.

Frodoga kiydirilgan sovut kamariga yaltiroq Nish taqildi. Ushbu aslaha ustidan ko'ylak bilan nimcha kiyildi.

– Ana endi ajoyib hobbitga aylanding-qolding! – maqtab qo'ydi Bilbo. – Tashqi qiyofang shama qilayotgandan-da ko'ra katta narsa bor senda. Omad yor bo'lsin senga!

Deraza tomon teskari o'girilib olgan Bilbo allaqanday qo'shiqni hirgoyi qilishga urindi.

– Ushbu yaxshiliging, umuman aytganda, menga bir umr ko'rsatib kelgan mehribonliging uchun o'z minnatdorligimni qanday izhor etishni bilmayman senga.



– Qo‘y, unday dema! – dedi yaqin kelgan keksa hobbit Frodoning yelkasiga urib qo‘yib. – Voy qo‘lim! Sovuting qattiq ekan! – xitob qildi u. – Yodingda bo‘lsin o‘g‘lim: hobbitlar, ayniqsa, Begginslar hamisha birga bo‘lishlari kerak. O‘sha mehribonligim evaziga so‘raydigan yagona iltimosim shuki, o‘zingni ehtiyot qil, bu yerga sog‘-salomat, yo‘lda ko‘rgan-bilganlaringni, eshitgan yangilik, qo‘shiq va rivoyatlarini unutmay qaytib kel. Men esa sen qaytguningcha o‘z kitobimni oxiriga yetkazishga harakat qilaman. Chunki keyingi asarni ham boshlab, oxiriga yetkazmoqchiman...

Jim bo‘lib qolgan Bilbo yana deraza tomon o‘girilib, past ovozda kuylay ketdi:


*Tomosha qildim qizil gulxan cho‘g‘ini,  
O‘ynoqlab titragan olov tilini.  
Yoz ham o‘tdi-ketdi ko‘z yumib ochguncha  
Tog‘ toshlari ko‘rinar, maysa so‘lguncha.*

*Badjahl kuzni kuzatarman men,  
Shox-shabba ochilar, bo‘lib xazonrez  
Rutubat boshlandi, yonimdasan sen  
Bulutlar oshiqar, o‘tar kunlar tez.*

*Qish boshlanar hademay mana,  
Sen ketarsan olis safarga.  
Ishqilib, ko‘ray seni men yana,  
Charchadim juda, bilmadim nega.*

*Tomosha qildim gulxan cho‘g‘ini  
O‘ynoqlab titragan olov tilini  
Do‘stlarni esladim, uzoq-yaqinni  
Bosgan yo‘llarim, olis manzilni.*

Dekabr oyining xira yorishgan so‘nggi kunlaridan biri. Sharqdan esgan shamol daraxtlarning yalang‘och shox-shabba-



lari orasidan hushtak chalgancha o'tib, qarag'ay o'sgan tepaliklarga borib urilmoqda. Pastlab suzayotgan qoramtir bulut uzulib-yirtilib bosh uzra uchib o'tmoqda.

Safarga shay bo'lgan Uzuk birodarligi qosh qoraygan mahalda yo'lga chiqishi kerak. Elrondning maslahatiga ko'ra, birodarlik Dorilomondan uzoqlashguncha asosan tun qorong'isida yurishi lozim.

– Sauron malaylarining ko'plab kuzatuvchi ko'zlaridan panada bo'lganingiz ma'qul, – dedi Elrond. – Qora otliqlarning mag'lubiyati haqidagi xabar Sauronga yetib borganiga, bundan u g'azab otiga minganiga shubha qilmayman. Hademay uning yerda yuradigan, osmonda uchadigan josuslari shimol o'lkalarida to'lib-toshadi. Yurgan yo'lingizda yon-atrofingizga, hatto osmonga ham xavfsirab qarashingiz kerak.

Uzuk birodarligi deyarli qurollanmagan. U jangga emas, birovga sezdirmay pinhon yurishga umid bog'lamoqda. Aragorn faqat Andril bilan qurollangan bo'lib, boshqa qurol olmadi. U yana o'sha eski qo'ng'ir-yashil, Yovvoyi o'lkadagi darbadarlik kiyimini kiygan. Boromirning qilichi ham Andrilga o'xshash uzun-u, shajarasi Andrilning tarixi kabi shonli emas. Bundan tashqari, Boromirning qalqoni va jangovar burg'usi bor.

– Ushbu burg'u tepaliklar orasidagi soyliklarda baland va aniq yangraydi, – tushuntirish berdi Boromir. – Kimki Gondorga dushman bo'lsa, yaxshisi burg'umning tovushini eshiti-boq, tumtaraqay qochaversin!

Burg'usini og'ziga keltirgan Boromir yaxshilab pufladi. Burg'u tovushi qoyalardan aks-sado bo'lib har tomon tarqadi. Dorilomonda borki odam burg'u tovushini eshitib oyoqqa qalqdi.

– Yurtingiz chegarasiga yetgunizcha uni chalishga oshiqmang, Boromir, – maslahat berdi Elrond. – Aks holda dushman e'tiborini o'zingizga jalb etib qo'yasiz.

– Balkim, shundaydir, – dedi Boromir. – Yo'lga chiqishdan oldin men hamisha burg'u chalib kelganman. Garchi endi tunda yo'l bosishga to'g'ri kelsa-da, qorong'ida pisib borayotgan o'g'riday yurish niyatida emasman.

Po'lat halqalardan yasalgan sovutni ochiq-oydin kiyib, beliga tig'i keng bolta osgan yagona kishi gnom Gimli bo'ldi. Gnomlar og'ir yuklamaga oson dosh berishadi. Legolas kamon, o'q to'la sadoq va biqiniga osilgan uzun oq pichoq bilan qurollangan. Yosh hobbitlar katta qo'rg'ondagi sag'anadan olib chiqilgan qilichlar, Frodo esa Bilboning Nishi bilan qurollangan. Uning sovuti Bilbo maslahat berganday, hammaning ko'zidan bekitilgan. Bir qo'liga aso ushlagan Gendalf esa biqiniga «Dushman yanchish bosqoni»ni, ya'ni So'qqa tog' ostida yotgan Torinning ko'krigidagi Orkristning akasi – Glamdringni osib olgan.

Elrond hamroh birodarlarni issiq kiyim bilan yetarlicha ta'minladi, hammasining nimchasi va plashiga mo'ynali astar tiktirib berdi. Yegulik, kiyim, adyol zaxirasi va yo'lda kerak bo'ladigan boshqa narsalar Tog'bag'ri qishlog'ida xarid qilingan sho'rlik poniga ortildi. Sem ushbu hayvonga Bill degan laqab berdi. Dorilomonda boqilgan vaqt ichida Bill nihoyatda o'zgarib ketdi, yungi jilolanib, yoshlik quvvati tiklandi. Sem yuk hayvoni sifatida aynan mana shu jonivor tanlanishi kerakligini, aks holda u ichikib o'lishi mumkinligini ta'kidlagancha turib oldi.

– Odam tilida gapirib yuborishiga sal qoldi bu Billning, – dedi Sem. – Nigohidan shuni aniq tushundimki, agar uni o'zimiz bilan olib ketmasak, janob Peregrinning: «Aks holda men, baribir, birodarlik izidan ergashib boraveraman», – degan gapini takrorlamoqchi.

Shunday qilib, birodarlik bilan ketadigan yagona yuk hayvoni boshqalardan farqli o'laroq ruhan ancha tetik ko'rinar yotgan Bill bo'ldi.

Xayrlashuv taomili katta zaldagi olov oldida o'tib, endi hamina haligacha uydan chiqmayotgan Gendalfni kutyapti. Ochiq eshikdan ko'plab derazalarda yonayotgan fonuslar shu'lasi ko'rinyapti. Bukchaygan egniga plash kiygan Bilbo ostonada Frodo bilan birga turibdi. Aragorn iyagini tizzasiga suyab o'tiribdi. Mazkur fursat qanchalik muhim, nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini faqat Elrondgina to'la-to'kis idrok etmoqda. Qolgan narsalar zimistonda juda xira ko'rinmoqda.

Otining qulog'ini qashlayotgan Sem pastga qarab, daryoning toshdan toshga urilgancha shovqin solib oqishini tomosha qilyapti. Uning bo'lg'usi sarguzashtlarga bo'lgan ishtiyoqi juda past.

– Bizga ergashib bekor qilding-da, Bill, – dedi u poniga.  
– Shu yerda qolsang, bahorgi maysa yetulguncha oliy navli pichan yer eding.

Bill indamay, dumini siltab qo'ydi.

Yelkasiga osilgan yuk xaltasini to'g'rilab olar ekan, Sem xayolan ushbu xaltaga joylangan mayda-chuyda narsalarni ko'z oldidan o'tkazdi, biron nimani olishni unutmaganini eslashga urindi. Uning asosiy xazinasini – oshxona anjomlari, hamisha yonida olib yuradigan, imkon bo'lishi bilan to'ldirib oladigan mo'jazzgina tuz qutisi, trubka tamakisining kattagina zaxirasi, chaqmoq tosh, pilik, jundan to'qilgan bo'yinbog', mato zaxirasi, Frodo unutgan, Sem esa kerak bo'lgan fursatda sohibiga tantana ila ko'rsatish uchun xaltasiga solib olgan mayda anjomlaridan iborat. Bularning barini hozir u turgan joyida xayolan sanab o'tdi.

– Arqon! – g'udulladi u. – Arqon olmabman-u! Kechagina aytgan edim-a, o'zimga o'zim: «Sem, arqon tayyorlab qo'y. Olmasang, yo'lda pushaymon qilasan», – deb. Olmabman, endi kech bo'ldi.

Shu paytda Gendalf bilan birga chiqqan Elrond hammani yoniga chaqirdi.

– So'nggi so'zimni tinglang, dedi u past ovozda. – Uzuk qo'riqchisi olovli Orodruin tog'i markazidagi Taqdir tirqishini qidirib ketmoqda. Faqat uning zimmasigagina Uzukdan voz kechgancha tashlab yubormaslik, uni Uzuk birodarligi va Kengash a'zolaridan biriga favqulodda holatdagina topshirib, boshqa hech kimga, ayniqsa, dushman malaylarining hech qaysi biriga bermaslik majburiyati yuklangan... Qolganlar unga zarur bo'lganda yordam berish uchun erkin birodar sifatida hamroh bo'lib boradi. Vaziyatga qarab u bilan birga yo'lni davom ettishingiz, izingizga qaytishingiz yoki yo'ldan og'ishingiz mun-

kin. Qanchalik olis yo‘l bosar ekansiz, izingizga qaytishingiz shunchalik qiyin kechadi. Hech qaysi biringiz biron bir qasam-yod bilan bog‘lanmagansiz, zimmangizga Uzuk qo‘riqchisi bilan oxirigacha borish majburiyati yuklanmagan. Zero, qalbingiz qudratidan, bardoshingiz qanchaga yetishi mumkinligidan bexabarsiz, har biringiz yo‘lda nimaga yo‘liqishingiz mumkinligini oldindan ko‘ra bilmaysiz.

– Yo‘lda, ayniqsa, zulmat qalinlashganda xayrlashib ketvorgan kishi nohaqdir, – dedi Gimli.

– Balkim, shundaydir, biroq o‘sha zulmatda to‘g‘ri yo‘lni ko‘ra olmayotgan kishini qasamga tirab bo‘lmaydi, – javob berdi Elrond.

– Ammo qasam ikkilangan qalbni mustahkamlaydi, – dedi Gimli.

– Yoki parchalab tashlaydi, – ta‘kidlab qo‘ydi Elrond. – Istiqbolga u darajada uzoq qaramang! Toza yurak, pok niyat-la yo‘lga chiqing! Oq yo‘l sizga! Elflar, odamlar, jamiki erkin xalqlar va elatlarning marhamati, ezgu tilaklari sizga hamroh bo‘lsin! Yo‘lingizdan yulduzlar shu‘lasi arimasin!

– Oq yo‘l sizga... Xayr! – xitob qildi biroz sovqotib qaltirayotgan Bilbo. – Frodo, yo‘lda kundalik tutib borishingga ko‘zim yetmaydi-yu, qaytganingdan keyin hammasini batafsil eslab aytib berishingni talab qilaman, yodingdan chiqmasin. Ko‘p uzoq qolib ketma, tezroq qayt! Hammangizga xayr!

Elrond xonadonida yashaydigan ko‘plab elflar birodarlikning safarga chiqib ketayotganini qorong‘ilikdan kuzatib, chiroyli ovozlari ila oq yo‘l tilab qolishdi. Nihoyat, hamroh birodarlar muyulish ortiga o‘tib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Ular ko‘prikdan o‘tib, Dorilonondan olib chiqadigan qiyalama so‘qmoqdan ko‘tarilishdi va shamol chakalakzorida hushtak chalayotgan, hamma yog‘ini supurgigul bosgan baland maydonga yetishdi. Bu yerda ular pastda milt-milt qilayotgan so‘nggi boshpana bilan nigoh-la xayrlashib, qorong‘ilik qa‘riga kirib ketishdi.

Bruinen kechuvi yaqinida katta yo‘lni tark etgan yo‘lov-



chilar yalanglik orqali o'tib, janubga burilgan so'qmoqqa kirishdi. Ko'zlangan maqsad – ko'p kunlar davomida tog' tizmasining g'arb tomonida ko'plab milya yo'l bosishdan iborat. Tanlangan hudud tog' tizmasining narigi tomonidagi buyuk daryo o'tgan yashil vodiyya nisbatan ancha notekis, o'nqir-cho'nqir bo'lib, yo'lovchilar ushbu yovvoyi o'lkada asta ko'tarilib borishmoqda. Tog'ning bu tomonida ular dushman josuslarining ko'ziga ko'rinmay borishga umid qilishgan. Sauron josuslari ushbu dashtlikda kamdan kam uchrab, bu tomondagi so'qmoqlar faqat Dorilomon aholisigagina ma'lum.

Gendalf bilan Aragorn ikkalasi oldinda, qorong'i bo'lishiga qaramay adashmay borishmoqda. Qolganlar ularning ortidan bir chiziqda ketma-ket tizilib kelishmoqda. Ko'zi hammadan o'tkir Legolas saf oxirida joy olgan.

Safarning birinchi yarmi og'ir va kishini zeriktirib yuboradigan darajada o'tdi. Frodo shamoldan boshqa hech narsani eslab qolmadi. Quyoshsiz ko'p kunlar o'tib, hech qanday issiq kiyim tog'ning muzday shamolidan asray olmadi. Yo'lovchilar issiq kiyinib olishgan bo'lmasin, na harakat davomida, na to'xtab dam olishganda isina olishmadi. Odatda, biror bir chuqurlik yoki hududni qamragan tikanli butalar orasida kun yarmigacha notinch uxlaydigan hamrohlarni navbatchi uyg'otadi. Kamdan kam hollarda olov yoqishgani bois sovuq ovqat yeb olishadi. Qosh qoraya boshlagach yo'lni imkon qadar janubiy yo'nalishda davom etishadi.

Dastlab hobbitlarga, garchi holi-joni qolmay charchab yurishayotgan bo'lishsa-da, jonga tekkan har kungi bir xil manzarada shilliqqurtday sekin harakatlanib, anavi tog' tizmasiga hech qachon yeta olishmaydiganday tuyuldi. Kunlar o'tib Dorilomonning janubida baland ko'tarilgancha g'arbgga burilgan tog' tizmasi asta yaqinlashdi. Asosiy tog' etagida ayqash-uyqash yoyilgan noxush tepaliklar, tubida suv qaynayotgan jarliklar bor bo'yicha ko'rinib turibdi. Yakkam-dukkam uchrayotgan so'qmoqlar yo'lovchilarni tikka pastga tushish yoki ko'tarilish kerak bo'lgan joyga eltmoqda.

Ob-havo o'zgara boshlagan vaqtga kelib sayyohlarning safarga chiqqaniga ikki hafta bo'ldi. Keskin to'xtagan shamol endi janub yo'nalishida esmoqda. Bulut tarqalib, xira quyosh ko'rindi. Uzoq cho'zilib zeriktirgan tundan keyin sovuq kun yorishdi. Hamrohlar tanasi yon-atrofdagi qoyalardan yo'nilganday ko'rinayotgan nayzabargli daraxtlar o'sgan past tepalikka yetishdi. Bargi barq urgan ushbu daraxtlarning qizg'ish mevasi tong quyoshida yaltiramoqda.

Olis janubdagi tog' Uzuk birodarligi tanlagan harakat yo'nalishida to'g'anoqday ko'tarilib, xira ko'rinmoqda. Uning chap tomonida uchta cho'qqi mavjud. Ularning nisbatan yaqinroq turgani, aftidan, ancha baland, qor qoplagan dandon shakliga ega bo'lib, qizg'ish tusli etagini quyosh yoritgan bo'lsa-da, yalang'och shimol tarafi hozircha soyada qolgan.

– Yomon emas, – dedi Frodoning yonida turgan Gendalf kaftini qoshiga tiragancha uzoq-uzoqlarga qarab. – Odamlar Xollin deb ataydigan o'lka chegarasiga yetibmiz. Baxtiyor zamonlarda Eregion deb atalgan ushbu yurtda bir vaqtlar ko'p elflar yashagan. Oyoqlarimiz uzoq yo'l bosgan bo'lishiga qaramay, tikkasiga olib qaraganda qirq besh lig masofa o'tildi. Tog'li hudud bilan ob-havo endi nisbatan mo'tadil bo'ladi-yu, ammo biroz xavfli kechadi.

– Xavfli, xavfsizmi, lekin men quyoshni qutlayman, – dedi qaytarma qalpog'ini yechgan Frodo yuzini tong yorug'ligiga tutib.

– Tog' ro'paramizda. Aftidan, tunda sharq tomon burib yuboribmiz, shekilli, – taxmin qildi Pin.

– Yo'q, unday emas, – e'tiroz bildirdi Gendalf. – Tong ravshan otganda olis-olisdagi narsalar ham aniq ko'rinadi. Anavi tepaliklar ortidagi tog' tizmasi janubiy-g'arb tomon buriladi. Elrondning uyida bir olam xarita bor edi. Nazarimda, ularning birortasini bo'lsa ham qo'lga olib, ko'z yugurtirib chiqishga farosatlaring yetmagan ko'rinadi.

– Bittasiga bir qarab qo'ydim-u, eslab qolmadim, – iqror bo'ldi Pin. – Bunday narsalarga Frodoning kallasi yaxshi ishlay-



di.

– Menga esa hech qanday xarita kerak emas, -- dedi Legolas bilan birga yaqinlashib, botiq ko'zida g'alati uchqun ko'rinayotgan Gimli. – U tomon ota-buvalarimiz o'tmishda ishlagan hudud bo'lib, ushbu tog'lar tasvirini tosh va metallardan yasalgan ko'pdan ko'p buyumlar sirtiga tushirganmiz, o'tmishimiz haqidagi qissalar-u, qo'shiqlarimizda kuylaganmiz. Baraz, Zirak va Shatur tog'lari hanuzgacha tushlarimizda eng yuksak tog'larday ko'rinadi. Atigi bir marta, o'shanda ham uzoqdan ko'rgan bo'lsam-da, ularni yaxshi bilaman. Chunki o'sha tog'lar ostida gnomlar makoni bo'lmish Kazad-Dum bor. U yer hozir Qora xandaq, elflar tilida esa Moriya deb ataladi. Anavi Baraz tog'i, uni Qizil burg'u yoki qahri qattiq Karadras ham deyishadi. Undan keyingilari Kumush tish va Bulut kalla. Elflar ularni Oq Kelebdil va Kulrang Fanuidol deyishadi. Biz esa tegishlicha, Zirakzigil va Vundasnatur deb ataymiz. Shu yerga kelganda G'uborli tog'lar tizmasi bo'linib ketib, tarmoqlar orasida biz gnomlarning yodidan chiqmaydigan xira vodiy Azanulbizar, ya'ni Dimrill vodiysi bor. Elflar tilida u yer Nandugirion deb ataladi.

– Ana o'sha Dimrill vodiysi tomon yo'l olamiz biz, – ma'lum qildi Gendalf. – Agar biz Karadrasning narigi etagidagi Qizil burg'u darvozasi deb ataladigan yo'lni bosib o'tsak, Dimrill zinasidan gnomlarning Chuqur vodiysiga tushamiz. U yerda Ko'zgu ko'li bo'lib, muzday buloq suvlaridan Silverloud daryosi boshlanadi.

– Keled-Zaramning qora suvi va Kibal-Nalening muzday oqimi, – ta'kidlab qo'ydi Gimli. – O'sha manzarani yana ko'rishim mumkinligini o'ylasam, yuragim dukillab ketyapti.

– Orzuing ro'yobga chiqsin, qadrdonim gnom! – tilak bildirdi Gendalf. – U yerga yetsak, nigohing zavq olib, qalbing quvonchga to'ladi! Ammo biz u vodiya uzoq qola olmaymiz. Silverloud oqimi bo'yicha sirli o'rmonga yetib, u yerdan buyuk daryo tomon yo'l olamiz, shundan so'ng esa...

– Xo'sh? – so'radi Merri, Gendalfning jim bo'lib qolgani ko'rib.

– Nima xo'sh? Safarimiz maqsadiga erishishga harakat qilamiz, – dedi Gendalf. – Biz kelajakka u qadar uzoq qaray olmaymiz. Yo'lning yarmi muvaffaqiyatli o'tganiga shukur qilaylik. Fikrimcha, bugun biz bu yerda nafaqat kunduz kuni, balki, tunda ham dam olamiz. Xollinning havosi o'zgacha. Ushbu o'lka boshiga ne yovuzliklar tushishi kerak ediki, bir zamonlar bu yerda yashagan elflarni unutib yuborsa.

– To'g'ri aytasan, – dedi Legolas. – Ammo bu yerlarda yashagan elflar bizga, o'rmon elflariga yot bo'lishgan, daraxtlar-u maysalar ularni eslay olishmaydi. Toshlarining ular uchun tutgan azasini: «Bizni yer qa'ridan qazib chiqarib, chiroyli ishlov berishdi, bizdan baland minoralar qurishdi, lek o'zlari gum bo'lishdi. Yo'qolishdi. Kumushrang bandargohlarga yetishganiga ko'p bo'ldi», – deya yig'layotganini eshityapman, xolos.

Bu tongda sayyohlar nayzabargli daraxtlar orasidagi xandaq ichiga gulxan yoqishdi. Kechki ovqat ham, nonushta ham safarga chiqishgandan buyon ilk bor quvnoq o'tdi. Bugun tunda yo'l yurmay, uxlash imkonlari borligi bois, ovqatlanib bo'lgach, uyquga yotishmadi. Ertangi oqshomgacha ular yo'lga chiqishni niyat qilishmagan. Faqat Aragorningina jim yurib, tinim bilmadi. Birozdan so'ng u birodarlarini qoldirib tepalik cho'qqisiga chiqdi va daraxt soyasida turgancha, janub va g'arb yo'nalishlarini kuzatib atrofga quloq tutdi. Anchadan keyin xandaq yoqasiga kelib, xushchaqchaq suhbat qurib o'tirgan birodarlariga qaradi.

– Tinchlikmi, Musofir? – qiziqdi Merri. – Nima qidir-yapsan? Sharqdan esgan shamolni yo'qotib qo'ydingmi?

– Shamolni emas, boshqa narsamni, – javob berdi Aragorn. – Ko'p yillarimni Xollin o'lkasida o'tkazganman. Bu yerda mahalliy aholi yo'g'-u, boshqa maxluqotlar, ayniqsa, qushlar ko'p edi. Endi esa atrof jimjit. Buni men bor vujudim-la his etyapman. Bir milya narida tiq etgan tovush eshitilmaydi. Faqat sizlarning shovqiningizgina aks-sado bo'lib qaytmoqda. Hech narsani tushunmay qoldim.

– Sababi nimada deb o'ylaysan? – kutilmaganda qiziqib qoldi Gendalf. – Hayotda uchramagan to'rt nafar hobbitni ko'rib

hayratdan qotib qolishgandir, balkim? Qolganlar haqida-yu gapirmasa ham bo'laveradi. Odam oyog'i yetmaydigan hudud-ku, bu yer, axir.

– Shunday bo'lsa kerak, degan umiddaman, – javob berdi Aragorn. – Lekin ko'nglim g'ash. Bu yerlarda muqaddam bo'lmagan narsalarga duch kelishdan xavfsiramoqdaman.

– Demak, yanada ehtiyotkorona ish tutishimiz kerak, – xulosa qildi Gendalf. – Modomiki, musofirlardan birortasini, ayniqsa, Aragornni o'zimizga hamroh qilib olgan ekanmiz, uning gap-so'ziga e'tiborli bo'lishimiz, ortiqcha shovqin solmay, jim bo'lib, navbatchilik xizmatini joriy etishimiz kerak.

Birinchi bo'lib Sem navbatchilik qiladigan bo'ldi. Aragorn unga qo'shib o'tirdi. Qolganlar uyquga ketishdi. G'aroyib jimjitlik qaror topib, buni hatto Sem ham his etdi. Uxlayotgan sheriklarning nafas olis jarayoni, poni dumini shalshulp urayotgani, tuyog'ining goh-gohida dukullatib qo'yayotgani aniq eshitilmoqda. Sal qimirlab qo'ygan Sem bo'g'inlarining g'archillaganini eshitdi. Atrofda o'lik jimjitlik, tiniq mo'viy osmon sharqida quyosh ko'tarilmoqda. Olis janubda paydo bo'lgan qora nuqta shamolda suzayotgan tutun bulutiday shimol tomon harakatlanib, asta-sekin yiriklashib bormoqda.

Anavi nima, Musofir? Bulutga o'xshamaydi, – pichirladi Sem.

Aragorn javob bermay diqqat-la o'sha tomon qarab turibdi. Birozdan so'ng Semning nima yaqinlashib kelayotganini o'zi fahmladi. Katta tezlikda uchayotgan qush galasi havoda giringir aylanib, nimadir qidirayotgandek hududni sinchkovlik-la ko'zdan kechirmoqda.

Semni nayzabargli daraxt soyasiga tortgan Aragorn pichirlab tayinladi:

– Shu yerda qilt etmay yot!

Kutilmaganda asosiy galadan ajrab chiqqan qushlar guruhi keskin pastlab sayyohlar bekingan tepaliklar tizmasi tomon uchdi. «Yirik qarg'alarga o'xshar ekan», – xayoldan o'tkazdi Sem. Xirildoq qag'-qag'i quloqni batang qilgan qushlar

shu qadar zich uchmoqdaki, yerda yaxlit soya hosil qilishgan.

Gala shimoliy va g'arbiy yo'nalishlarda har tomon tarqab, osmon yana tozalangachgina Aragorn asta turib Gendalfni uyg'otdi.

– Qora quzg'unlar qo'shini tog' bilan Greyflud daryosi oralig'ini ko'zdan kechirib chiqyapti, – ma'lum qildi u. – Bir guruhi hozirgina Xollin ustidan uchib o'tdi. Mahalliy qush emas ular, Fengorn bilan Dandonda yashaydigan krebaynlar. Nima kerak bu yerda ularga, bilmayman. Janubda nimadir ro'y bergan bo'lib, josuslik qilishayotgan ko'rinadi. Boz ustiga, baland osmonda ko'plab qarchig'aylar uchib yurganini ham ko'rdim. Shu bugun oqshomdayoq yo'lga chiqishimiz kerak deb o'ylayman. Dushman muhofazasi ostidagi Xollin biz uchun endi xavfli.

– Bundan chiqdi Qizil burg'u darvozasi ham dushman nazorati ostida bo'lib, sezdirmay o'tishning iloji yo'q, – xulosa qildi Gendalf. – Vaqti kelib bu haqda o'ylab ko'ramiz. Tezroq yo'lga chiqish masalasiga kelsak, gaping to'g'ri, bu yerda qolib bo'lmaydi.

– Baxtimizga gulxan tutamay, krebaynlar paydo bo'lgan fursatda deyarli o'chgan edi, – dedi Aragorn. – Cho'g'ini ko'mib, endi o't yoqmasligimiz kerak.

– Arzimagan narsa-yu, shunga shunchami! – e'tiroz bildirdi uyqudan turgan Pin, olov yoqmay, tezroq yo'lga otlanish kerakligini eshitib. – Qarg'a galasining dastidan-a?! Men esa kechqurun issiq ovqat yeyishga umid qilgan edim.

– Ulgurasan hali issiq ovqat yegani. Oldinda katta ziyofatlar kutadi seni, – tinchlantirdi Gendalf. – Shaxsan menga kelsak, yoqim issiqda bo'lib, trubkamning tamakisi tugamasa bo'ldi. Biroq har yomonning bir yaxshiligi bo'ladi deganlaridek, janub tomon yurar ekanmiz, havo ham isib boraveradi.

– O'sha issiqdan kuyib o'lmasak go'rga edi, – g'udulladi Sem. – Anavi sehrli toqqa tezroq yetadigan, yo'l oxirini ko'radigan vaqt yetdi deb o'ylayman, – dedi u Frodoga murojaat qilib. – Gimli aytgan anavi... nima edi nomi, Qizil burg'umidi, xullas, o'sha joyni ko'riboq, shu xayolga kelgan edim. Joyga nom

berishniyam eshib yuborishadi-da, shu gnomlar! Odanga o'xshab durustroq nom bersa bo'lmasmikan?!

Xarita Sem uchun biron-bir ahamiyatga ega narsa emas. Yot yurtlardagi har qanday masofa unga haddan ortiq uzoq tuyulib, hisobdan adashib ham ketdi.

Sayyohlar kunni panada o'tkazishdi. Bir necha bor josuslik qilgan qora qushlar galasi quyosh botishi bilan janub tomon uchib ketdi. Qosh qoraygach, Uzuk birodarligi ham yo'lga chiqdi. Sharq tomon biroz burilgan sayyohlar botayotgan quyoshning so'nggi nurlari ostida hamon qizarib ko'rinayotgan Karadrasga qarab yo'l olishdi. Osmon qorayib, bir-ikkita yulduz ko'rindi.

Aragornning ortidan borayotgan hamrohlar yurishga qulay so'qmoqqa chiqib olishdi. Frodoning ko'ziga ushbu so'qmoq puxta yotqizilgan, keng, Xollindan tog' so'qmog'iga olib boradigan qadimgi yo'l qoldig'iday ko'rindi. Tog'lar ustiga chiqqan to'lin oy atrofni xira yoritib, xarsang toshlar soyasi battar qoraydi. Aksariyatiga inson qo'li ishlov bergan ushbu toshlar dashtga aylangan noxush hudud xarobasida sochilib yotibdi.

Havosi sovuq tongotar mahalida oy ancha pastladi. Boshini ko'tarib, osmonga qaragan Frodo allaqanday ko'lanka yulduz to'sganini ko'rganday, aniqroq aytganda his etganday bo'ldi. Bir muddat xira bo'lib qolgan yulduzlar yana porladi.

– Ko'rdingmi? – seskanib so'radi u, oldinda borayotgan Gendalfdan. – Ustimizdan nimadir uchib o'tganday bo'ldi.

Ko'rmadim-u, lekin sezdim, – javob berdi sehrGAR. -- Past uchgan bulutdir?

– Shamol yo'q, lekin juda tez uchdi, – g'udulladi Aragorn.

Bu tunda boshqa hech nima ro'y bermadi... Tong kechagidan charog'on otdi. Lekin havo hamon sovuq – shamol sharqqa qarab esa boshladi. Yuqoriga ko'tarilayotgan sayyohlar yana ikki kecha yo'l bosishdi. So'qmoq tepaliklar orasida ilang-bilang ketgani, tog'li hudud tobora yaqinlashayotgani bois, ularning ilgirilashi sust kechmoqda. Uchinchilongda hamrohlar oldida

Karadras manzarasi: kumush tusli qor qoplagan qudratli cho‘qqi va uning qonga belanganday ko‘rinayotgan xira qizg‘ish nishabligi ochildi.

Osmon bulutli, quyosh bekinib olgan. Shamol shimoliy-sharq yo‘nalishida esmoqda. Gendalf og‘ir xo‘rsinib, qoshini chimirdi.

- Qish quvib yetyapti bizni, – dedi u yonida turgan Aragornga murojaat qilib. - Shimoliy cho‘qqilar ilgarigidan ancha oqaribdi. Qizil burg‘u yo‘lini qor bosgan. Bizni tor so‘qmoqda topish oson kechadi. Yo‘lningda pistirma uyush-tirilgan bo‘lishi ham mumkin, lekin iqlim havosi hozir asosiy dushmanimiz bo‘lib turibdi. Harakatimiz yo‘nalishi borasida qanday fikrdasan, Aragorn?

Buni eshitgan Frodo Gendalf bilan Aragorn o‘rtasida ancha oldin boshlangan bahs davom etayotganini fahmlab, xavotir-la quloq tutdi.

- Esingda bo‘lsa, bu yo‘l yaxshi yo‘l emasligini ilgari ham aytganman, Gendalf, - javob berdi Aragorn. - Ma‘lum va noma‘lum xavf darajasi oshib bormoqda. Biroq iloj qancha, yo‘lni davom etishimiz kerak. Tog‘ oshishni kechga qoldirib bo‘lmaydi. Harakatimizning janubiy yo‘nalishida Rohanga o‘tish yo‘ligacha tog‘ orqali o‘tgan boshqa birorta ham so‘qmoq yo‘q. Ammo Saruman haqidagi gapingdan keyin o‘sha Rohan yo‘liga ham ishonmay qo‘ydim. Kim biladi deysan otboqar xalq qaysi tomonni tanlaganini?


- Darhaqiqat, buni hech kim bilmaydi, ma‘qulladi Gendalf. - Lekin Karadrasni chetlab o‘tadigan boshqa yashirin, qorong‘i yo‘l ham bor. Uni ham muhokama qilgan edik.

- Kel, yaxshisi o‘sha yo‘l haqida gapirmaylik! Hozircha gapirmay turaylik. Qolganlarga ham indamay qo‘ya qol.

- Biroq yo‘lga chiqishdan oldin vaziyatni tushuntirib, bir qarorga kelib olishimiz kerak, -- javob berdi Gendalf.

- Unday bo‘lsa, ular uxlar ekan, kel, yana bir bor o‘ylashib ko‘raylik, – taklif kiritdi Aragorn.

Kunning ikkinchi yarmida hamma ovqatlanayotgan



vaqtda Gendalf bilan Aragorn bir chetga chiqib Karadrasga qarab qolishdi. Tog' cho'qqisi bulutlar orasiga kirib ketgan bo'lib, etagi endi noxush qorayib ko'rinmoqda. «Ikkalasi ikkita yo'ldan qaysi birini tanlar ekan?» — xayoldan o'tkazdi Frodo. Davraga qaytgan Gendalf gap boshladi. Shunda Frodo ob-havoning noqulay sharoiti-yu, tog'dan oshish mashaqqatini yengib o'tish kerakligini bilib, o'zini yengil tortdi. Qanaqangi yashirin, qorong'i yo'l haqida gap borganini bilmaydi-yu, lekin u haqda gap ochilganda Aragornning vujudida nafrat qaynagani sezildi. Shuning uchun Frodo o'sha yo'l chetlab o'tilishidan xursand bo'ldi.

– Mavjud alomatlariga qaraganda, Qizil burg'u darvozasi kuzatuv ostida, — ma'lum qildi Gendalf. — Shuningdek, ob-havoning xavfli sharoitlaridan tashvishdaman, qor yog'ishi mumkin. Binobarin, biz imkon qadar tez yurishimiz kerak. Shunday qilsak, yo'limizning eng yuqori nuqtasiga ikki kunda yetamiz. Bu yerlarda kun qisqa. Tezroq hozirlik ko'rib, yo'lga chiqishimiz kerak.

– Mumkin bo'lsa, ikki og'iz gap aytsam, — dedi Boromir. — Men oq tog'lar ko'lankasida tug'ilganman, tog' oshish nimeligini yaxshi bilaman. Narigi tomonga o'tgunimizcha achchiq sovuqqa duch kelishimiz muqarrar. Muzlab halok bo'lish xavfi bor ekan, yashirincha yurishdan naf bo'lmaydi. Mana bu yerda bir nechta daraxt va butalar bor. Yo'lga chiqishdan oldin har birimiz ko'targanimizcha quruq shox-shabba olishimiz kerak.

– Bill esa o'tindan ko'proq ko'tarishi mumkin, to'g'rimi, Bill? — dedi Sem, poniga ma'yus qarab.

– Ma'qul, — dedi Gendalf. — Lekin gulxan yoki o'limdan birini tanlashga to'g'ri kelguncha o'tindan imkon qadar foydalanmaslikka harakat qilishimiz kerak.

Yana yo'lga chiqqan sayyohlar dastlab tez ilgarilab borishdi. Biroq ko'p o'tmay tikka ko'tarilgan yo'l qiyinlashdi. Ko'p joylarda so'qmoq ko'zdan g'oyib bo'lar yoki yuqoridan qulagan toshlar bilan to'silgan edi. Qalin bulut tun qorong'iligini battar quyuqlashtirdi. Qattiq esayotgan shamol qoyalar orasida hushtak chalmoqda. Tun yarmiga yetganda yo'lovchilar ulkan

tog' etagiga yetib kelishdi. Tor so'qmoq tik ko'tarilgan qoya devordan chapga burildi. Hamrohlarning boshi ustida Karadrasning qorong'ilikda ko'rinmayotgan noxush qiyaligi solinib qoldi. O'ng qo'lda esa qop-qorong'i tubsizlik.

Navbatdagi tik tepalikka mashaqqat-la chiqib olgan sayyohlar biroz to'xtashdi. Yuziga nimadir tekkanini sezgan Frodo qo'lini ko'tarib, yengiga qor uchqunlari tushganini ko'rdi.

Uzuk birodarligi harakatni davom etdi. Ko'p o'tmay kuchaygan qor havoni to'ldirib yog'ib, tevarak-atrofning ko'rinishi cheklandi. Ikki-uch qadam oldinda ikki bukilib borayotgan Gendalf bilan Aragorni ko'z bazo'r ilg'ayapti.

– Bunaqangi yurish menga umuman yoqmayapti, – pishilladi orqada kelayotgan Sem. – Qor yaxshi narsa, albatta, lekin men qor yog'ishini uyamda, issiqqina ko'rpada yotib tomosha qilishni yaxshi ko'raman. Agar u Hobbitonda mana shunday qalin yog'sa bormi, xaloyiq quvonchdan sakraydi-yu.

Shimoliy Shirning torfli botqoqligini hisobga olmaganda Shirda qor bunaqangi qalin yog'maydi. Qorning o'zi u yerda tasodif bo'lib, xushchaqchaqlik uchun sabab bo'ladi. Bilbodan tashqari, bugungi kunda hayot bo'lmish birorta ham hobbit 1311-yili uzoq cho'zilgan qishni eslay olmaydi. O'sha yili oq bo'rilar galasi suvi muzlagan Brendivayn orqali o'tib Shirga bostirib kirgan edi.

Yelkasi va qaytarma qalpog'idagi qor qalinlashib, oyog'i ostidagi qor boldirigacha ko'tarilgan Gendalf yurishdan to'xtadi.

– Mana shu holatdan xavotirda edim, – dedi u. – Endi nima deysan, Aragorn?

– Men ham mana shu ahvolga tushib qolishimizdan cho'chigan edim, – javob berdi Aragorn. – Lekin boshqa xavflardan kamroq cho'chiganman bu ahvoldan. Qor bunchalik olis janubda kamdan kam holatlarda, shunda ham faqat baland cho'qqilardagina yog'sa-da, uning qanchalik xavfli ekanligini yaxshi bilaman. Ammo biz hali u qadar yuqori ko'tarilmadik. Hozir biz, odatda, qish bo'yi qorsiz, ochiq bo'ladigan joyda turibmiz.

– Dushmanning yovuz niyatli qilmishi emasmikan bu, –



gapga aralashdi Boromir. – U Mordor chegarasidagi ko‘lankali tog‘da ko‘tarilgan qor bo‘ronini idora qila oladi, degan gap yuradi mening yurtimda. Bu dushman juda qudratli, ittifoqchilari ham ko‘p.

– Modomiki, dushman shimol qorini uch yuz lig janubga yo‘llay olar ekan, darhaqiqat, uning qo‘li uzoqqa yetadigan ko‘rinadi, – ma‘qulladi Gimli.


– To‘g‘ri, qo‘li uzun uning, rozi bo‘ldi Gandalf.

Yo‘lovchilar bir yerda turishar ekan, shamol shashti sustlashib, qor siyraklashdi. Hamrohlar harakatni davom etishdi. Biroq chorak milya yurishga ulgurmay dovul yanada battar kuch oldi. Shamol hushtak chalib, qor ko‘zni chirt yumishga majbur qilayotgan bo‘ronga aylandi. Hatto Boromirning ham yurishi qiyinlashdi. Ikki bukilib olgan hobbitlar o‘zlarining novcha birodarlari ortidan arang katovlanib borishmoqda. Shunisi aniqki, qor yog‘ishi shu zaylda davom etadigan bo‘lsa, yo‘lovchilar uzoq borishmaydi. Frodoning oyog‘i toliqib, qo‘rg‘oshinday og‘irlashdi. Ortida kelayotgan Pin bazo‘r qadam bosmoqda. Hatto oddiy gnomday baquvvat Gimli ham zo‘riqib odimlamoqda.

Sayyohlarning bari kutilmaganda xuddi bir og‘iz so‘z aytmay kelishib olganday taqqa to‘xtashdi. Qorong‘ilik qa‘ridan chiqayotgan qandaydir g‘alati, g‘ayritabiyy tovush hammaga eshitildi. Bu shunchaki qoyaga urilayotgan, yirik toshning darz ketgan joyidan o‘tayotgan shamol shovqini bo‘lishi mumkin, ammo tovush nimasi bilandir qichqiriq va qahqahaga o‘xshab yangramoqda. Tog‘ bag‘ridan shovqin solgancha tosh to‘kila boshlab, ba‘zilari oyoq ostidagi so‘qmoqqa urilgancha chilparchin bo‘lmoqda. Qayerdadir ulkan harsang dumalayotgandek, olisdan yetib kelayotgan gumbur-gumbur takror va takror yangramoqda.

– Bugun yo‘limizni davom eta olmaymiz, – ta‘kidlab qo‘ydi Boromir. – Buni shunchaki shamol dersiz balki, lekin bu biz tomon qasddan uloqtirilayotgan toshdan o‘zga narsa emas.

– Bu shunchaki shamol, lekin to‘g‘ri fikr bildirding, –



dedi Aragorn. – Dunyoda ikki oyoqlab yuradigan, lekin hanuzgacha Sauron bilan ittifoq tuzmay, o‘z maqsadiga intiladiganlarga qarshi yo‘naltirilgan yovuz kuchlar ko‘p. Ayrimlar esa Saurondan ancha oldin dunyoga kelib, uzoq yashab kelmoqda.

– *Karadrasni qahri qattiq deb bejiz aytishmaydi, – ta’kidlab o‘tdi Gimli. – Bu nom unga hali Sauron paydo bo‘lmay turib berilgan.*

– Raqibimiz kim bo‘lishidan qat’i nazar, uning hamlasini qaytara olmaymiz, – dedi Gendalf.

– Endi nima qilamiz? – mungli ovozda so‘radi Merri bilan Frodoga suyanib olganча dag‘-dag‘ titrayotgan Pin.

– Yo to‘xtaymiz, yo izimizga qaytamiz, – javob berdi Gendalf. – Yo‘lni davom eta olmaymiz. *Xotiram pand bermayotgan bo‘lsa, sal yuqoriroqda, mana bu so‘qmoq ustida osilib turgan qoyatoshdan burilsak, ko‘tarilish qiyin va uzoq kechadigan keng yo‘l ochiladi.*

– Himoya, – pichirladi Sem. – Agar u himoya bo‘lsa, tomsiz bitta devor uy bo‘lib xizmat qiladi.

Yo‘lovchilar imkon qadar qoya devorga qapishib yurishdi. Qiyalik janub tomon qaragan bo‘lib, solinib qolgan qismi hamrohlarni shimoliy shamol sovug‘idan va yuqoridan to‘kila-yotgan toshlardan himoya qilganча biroz bekitmoqda. Shunga qaramay, havoning uyurma oqimi har tomondan savalab, qor yanada qalinlashdi.

Hamma beli bilan qoyaga suyangancha bir yerga g‘uj to‘planib oldi. Chidam bilan, lekin g‘amgin turgan poni hobbitlarni shamoldan to‘sdı. Jonivorning tizzasiga yetgan qor qalinlashishni davom etmoqda. Agar novча birodarlari bo‘lmaganda hobbitlar qor ostida qolib ketishi turgan gap edi.

Frodoning vujudini og‘ir uyqu, tumanli ilıq mudroq bosmoqda. Nazarida, oyog‘ini gulxan isitib, uzoqdan Bilboning ovozi ni eshitganday bo‘ldi:

«Kundaliging menga yoqmadi. Yanvarning o‘n ikkinchi sanasi, qorbo‘ron. Shugina ma‘lumotni yetkazish uchun ortga qaytish shart emas edi».

«Uyqum kelib, biroz dam olishni istadim, axir, Bilbo», – zo‘riqib javob berdi Frodo, kimdir siltayotganini his etib.

Vogelikka qaytish biroz og‘riqli kechdi. Boromir Frodoni qor inidan sug‘urib chiqarib, oyoqqa turg‘izdi

– Mana bu pakanalar nobud bo‘lishadigan ko‘rinadi, Gendalf, – dedi Boromir. – Qor bizni ko‘mib yuborguncha kurtishdan naf yo‘q. Omon qolish uchun biron chora ko‘rishimiz kerak.

– Mana bundan ichir ularga, – javob berdi Gendalf, yuk xaltasidan meshqob chiqarib. – Hamma bir ho‘plamdan ichib olsin. Bu Imladrisning miruver ichimligi. Buni menga Elrond xayrlashishdan oldin bergan edi.

Ichiga kirgan xushbo‘y suyuqlik Frodoga kuch bag‘ishlab, tanasini qiynayotgan og‘ir yuklama barham topdi. Qolganlar ham jonlanib, yangi umid va kuch-g‘ayrat his etishdi.

Tobora qalinlashib yog‘ayotgan qorning tinishidan darak yo‘q. Shamol ham baland uvvos solmoqda.

– Gulxan yoqish masalasiga qanday qaraysan, Gendalf? – so‘rab qoldi Boromir. – Nazarimda, yo o‘lim, yo gulxanni tanlash fursati yetgan ko‘rinadi. Hech shubha yo‘qki, agar bizni qor ko‘mib qo‘ysa noxayrixoh ko‘zlarga ko‘rinmay qolamiz, ammo bundan bizga naf bo‘lmaydi.

– Uddalay olsang, yoq gulxanni, – ijizat berdi Gendalf. – Modomiki, dushman josuslari ushbu dovulga dosh bera olishar ckan, demak, bizni kuzatib borishmoqda.

Boromirning taklifiga ko‘ra quruq o‘tin bilan tutantiriq ko‘tarib kelishganiga qaramay, qorning uyurmali oqimida o‘t yoqish hatto bu borada mahoratli sanaladigan elf bilan gnomning ham qo‘lidan kelmadi. Nihoyat, bu ishni Gendalfning o‘zi istaristamas o‘z zimmasiga oldi. «Nauran edra i tammen!», – amr tarzida dedi u, asosining uchini o‘tin orasiga suqib. Yashil va ko‘k rangli olov tili ko‘rinib, yog‘och o‘t oldi.

– Birov buni ko‘rib turgan bo‘lsa, mening shu yerdaligim endi fosh bo‘ldi, – ma‘lum qildi u. – Chunki ushbu ishim Dorilomondan Anduinning etagigacha cho‘zilgan hududda

o'qiladigan imlo ila «Gendalf shu yerda», deya yozilgan bilan brobardir.

Ammo hozir Uzuk birodarligini noxayrixoh ko'zli kuzatuvchilar o'yantirmayapti. Gulxan tafti yo'lovchilarni jonlantirdi. Qor yog'ib, shamol shovqin solayotganiga qaramay, ular chars-churs yonayotgan o'tinga yaqinroq kelib qo'l isitishdi. Tili o'ynoqlayotgan olovni qurshab olgan hamrohlarning toliqqan yuzlarini qizil shu'la yoritdi. Ularning ortida esa qop-qora zulmat quyuqlashdi.

Quruq o'tin tez yonib bitmoqda. So'nggi o'tin bog'lalarning so'nggi shohi cho'qqa tashlandi. Qor tingani yo'q.

– Tun oxirlayapti, hademay tong otadi, – dedi Aragorn.

– Agar o'sha tong anavi bulutlarni yorib o'ta olsa, – ta'kidlab qo'ydi Gimli.


– Qor siyraklashib, shamolning shashti qaytyapti, – ma'lum qildi davradan chiqib, qorong'ilikka tikilgan Boromir.

Frodo ilgari gidek zimistondan mana bu davraga uchib kirib, o'chayotgan gulxan yorug'ida oqarib ko'rinayotgan qor pag'alariga toliqib qarar ekan, siyraklashganini hech sezmedi. Yana mudroq bosar ekan, shamol chindan ham sustlashib, o'lchami yiriklashgan qor pag'alarining siyraklaganini fahmladi. Osmon juda sekin yorishmoqda. Qor nihoyat tindi.

Kun yorishgach sayyohlar tevarak-atrofnings go'yo kafanga o'ranib olganday tog'li manzarasini ko'rishdi. Yo'lovchilar panoh topgan joy pastida oq o'rkachli, shaklsiz qiyofa kasb etgan tog'li hudud, yuqoridagi tepaliklar ustida esa navbatdagi qor bo'ron dan dalolat berayotgan bulut ko'rindi.

– Karadras bizni o'tkazmaydi, – boshini sarak-sarak qildi yuqoriga qaragan Gimli. – Yo'lni davom etadigan bo'lsak, boshimizga yanada qalin balo yog'diradi. Ortga qancha tez qaytsak, shuncha yaxshi.

Uning fikrini hamma ma'qul topdi, ammo ma'lum bo'lishicha, ortga qaytish oson emas ekan. Gulxan kulidan atigi bir necha qadam narida yig'ilgan qor qalinligi bir necha futga yetgan bo'lib, hobbitlarning bo'yidan ancha baland keladi. Ba'zi



joylarda esa shamol qortepa hosil qilgan.

– Agar Gendalf mash’alasini yoqib, oldinda borsa qor eritib yo’l ochishi mumkin, – taklif kiritdi Legolas.

Dovuldan tashvish tortmagan Legolas sayyohlar orasida yaxshi kayfiyatini saqlab qolgan yagona kishi bo’lib qolmoqda.

– Agar elf tog’ ustidan uchib o’tishga qodir bo’lsa, quyoshni ham shu yerga tortib kela olgan bo’lar edi, javob qildi Gendalf. – Qor yoqish qo’limdan kelmaydi.

– Xo’sh, unday bo’lsa, xalqimiz amal qiladigan «Bosh ishlamagan joyda tana ishlashi kerak» tamoyilini esga olamiz, dedi Boromir. – Eng baquvvat birodarlarimiz oldinga o’tib, yo’l ochib borishi lozim. Mana qarang! Tevarak-atrofimiz qorga burkangan bo’lsa-da, biz kelgan so’qmoqning ko’tarilishi ho’v anavi tarmoqlangan joy ortidan boshlangan. Qor bo’roni aynan o’sha yerda ko’tarildi. Agar bir amallab o’sha yerga yetib olsak, o’ylaymanki, u yog’i oson bo’ladi. Masofa chiqsa, chorak milya chiqadi, xolos.

– Unday bo’lsa, ikkalamiz boshlab beramiz, – dedi Aragorn.

Birodarlik orasida eng novchasi Aragorn bo’lsa, bo’yi deyarli Aragornning bo’yidek keladigan Boromirning yelkasi keng, tanasi ancha baquvvat. Boromir oldinda, Aragorn uning ortidan yurib, yo’l ochib bordi. Ikkalasi mashaqqat-la, sekin odimlashmoqda. Qor qalinligi ba’zi joylarda ko’kragigacha yetgani bois Boromir baquvvat qo’li bilan qorda suzib ketayotganday ko’rinmoqda.

Ma’lum vaqt tabassum-la kuzatib turgan Legolas qolganlarga yuzlandi.

– Eng kuchlilar topadi yo’lni, dedingizmi? – dedi u. – Men esa: qo’shechi yerini haydasin, qunduz suvda suzsizin, elf esa maysa, xazon va qor ustida yugurib yursin, deyman.

Fikrini tugatgan Legolas chaqqonlik-la oldinga o’tib, qor ustiga sakrab chiqdi. Qorda deyarli iz qoldirmay ketayotgan Legolas oyog’iga etik emas, yengil tulli kiyganini Frodo endi ko’rdi.

– Xayr Gendalf, – dedi Legolas, sehgarga kulib boqib.  
– Sen aytgan quyoshni topib kelay-da men,a?!

Qattiq yerda yugurayotgan chopuvchi kabi yelday uchgan elf zo‘r berib yo‘l ochib borayotganlarga qo‘l siltagancha, anavi muyulish ortiga o‘tib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.


Bir-birining pinjiga kirib olgan hobbitlarga kutishdan ortiq chora qolmadi. Nari ketgan Boromir bilan Aragorn oppoq qorga tekkan qora dog‘ga o‘xshab qolishdi. Birozdan so‘ng ikkalasi ham ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi. Vaqt juda sekin o‘tmoqda. Bulut yanada pastroq tushib, vaqti-vaqti bilan qor uchqunlari ko‘rinib bordi.

Oradan bir soatcha o‘tib, Legolas qaytib keldi. Boromir bilan Aragorn ham iziga qaytib, tepalikka bazo‘r ko‘tarilib kelishdi.

– Quyoshni olib kelmadim, chunki u janubning moviy dalasida izg‘ib yuribdi, – xitob qildi yugurib kelgan Legolas. – Qizil burg‘u tepaligidagi bir siqim qor pag‘asi uni tashvishga solmaydigan ko‘rinadi. Lekin men dunyoga kelib, piyoda yurishga majbur bo‘lganlarga umid keltirdim. Eng katta qor uyumi xo‘v o‘sha muyulishdan bu yoqqa cho‘zilib kelgan bo‘lib, baquvvat odamlar uning o‘rtasidan yo‘l ochib bo‘lishdi. Ularning oldiga qaytib, uyum oz qolganini aytganimda ikkalasi umidsizlikka yuz tutib bo‘lgan ekan. Chunki muyulish ortida qor deyarli yo‘q bo‘lib, mavjud miqdori hobbitlarning qizigan oyog‘ini sovitib olishga ham yetmaydi.

– Men o‘ylagancha bo‘libdi, – po‘ng‘illadi Gimli. – Chindan ham juda g‘ayrioddiy bo‘ron ko‘tarilgan edi. Karadrasning yovuz niyatidan o‘zga narsa bo‘lmagan u. Chunki Karadras elflar bilan gnomlarni yoqtirmaydi. Xalos bo‘lishimizga u yo‘llagan qor to‘sqinlik qilishi kerak bo‘lgan.

– Baxtingizga o‘sha Karadras sizlarga kuchli odamlar hamroh bo‘lganini unutib qo‘ygan, – dedi shu paytda davranga yetib kelgan Boromir. – Uyum orasidan yo‘l ochib keldik. Qorda elfdek yengil yugura olmaydiganlar bizdan minnatdor bo‘lishlari lozim.



-- Lekin sizlar ochgan yo'ldan yura olmaymiz biz, -- dedi Pin, hobbitlarning umumiy fikrini bayon etib.

-- Noumid bo'lmang! -- dedi Boromir. -- Aragorn ikkalamiz charchadik, albatta, lekin pakanalarni ko'tarib ketishga kuchimiz yetadi. Qolganlar esa, shubha yo'qki, izimizdan osonlikcha yura olishadi. Yuring, janob Peregrin, sizdan boshlaganim bo'lsin. Belimga joylashib, yelkamni mahkam tutib oling, -- dedi u, hobbitni ko'tarib, -- chunki qo'lim yo'lda kerak bo'ladi.

Merrini ko'targan Aragorn ikkalasining ortidan odimladi. Pin qo'li bilan qor surib borayotgan Boromirning kuchidan hayratda. Yuk bilan ketayotganiga qaramay orqada kelayotganlar uchun qulay yo'l ochib bormoqda.

Nihoyat ular cho'qqisi tig'day o'tkir, bo'yi Boromirning bo'yiga ikki barobar keladigan katta qor uyumini yorib chiqishdi. Uyumning oxiri devordek tik kesilib tushgan. Merri bilan Pin Legolasning yonida qolganlar ham yetib kelishini kutishdi.

Muayyan vaqt o'tib Boromir Semni ko'tarib keldi. Yaxshigina toptalgan qordan Billni yetaklagan Gendalf ham chiqib keldi. Gimli ponini minib olibdi. Oxirgi bo'lib Aragornning yelkasida o'tirgan Frodo ko'rindi. Frodo oyog'ini yerga qo'ygan ediki, tog' titrab so'qmoqqa kuchli shovqin-la tosh aralash qor ko'chkisi o'pirilib tushdi. Qor changday ko'tarilib, atrofda hech nima ko'rinmay qoldi. Sayyohlar katta xarsang toshga qapishib olishdi. Shovqin tinib, havo tozalangach hozirgina yurib o'tilgan so'qmoq to'silganini ko'rishdi.

-- Bo'ldi bas! -- xitob qildi Gimli. -- Imkon qadar tezroq ketishimiz kerak bu yerdan!

Darhaqiqat, so'nggi zarba tingach tog' tinchlandi. Chiqirilmagan mehmonlar olg'a yurishga jur'at etmay, iziga qaytarilganidan Karadras mamnun bo'lganday go'yo. Bulut ham tarqab, kun yorisha boshladi.

Chindan ham, Legolas aytganday qor qatlami ingichkaylashib, endi hobbitlar bemaol yura olishadigan bo'ldi. Ko'p o'tmay hamrohlar yana tik ko'tarilgan yo'l boshiga, kecha tunda qor uchqunlari ilk bor ko'ringan joyga qaytishdi.

Tong otganiga ancha bo'ldi. Sayyohlar yuqorida turgan-cha oyoq ostidagi keng tekislikni ko'zdan kechirishdi. Xo'v anavi yerda toqqa ko'tarilishdan oldin so'nggi bor gulxan yoqilgan xandaq ko'rindi.

Frodoning oyog'i og'riyapti. Boz ustiga, sovuq suya-gigacha singib o'tgan hobbitning qorni ochdi. Pastga tushish haqidagi fikrning o'zi Frodoning boshini aylantirmoqda. Uning ko'z oldida qandaydir qora dog' suzmoqda. Frodo ko'zini ish-qaladi, ammo qora dog' yo'qolmadi, chunki dog' pastda gir aylanmoqda.

– Yana o'sha qushlar! – dedi Aragorn, pastga imo qilib.

– Iloj qancha, yovuz qushmi ular, beozormi, baribir, pastga tushishga to'g'ri keladi, – dedi Gendalf. – Karadras tepa-liklari orasida qorong'i tushishini kuta olmaymiz.

Qizil burg'u darvozasiga orqa o'girib, qiyalamadan past-ga yo'l olgan sayyohlarning beliga sovuq shamol urdi. Karadras Uzuk birodarligi ustidan zafar qozondi.

#### IV BOB


### ZULMATDAN O'TGAN YO'L

Kech kirib, kunning xira yorug'ligi tez so'nib boryapti. Tunash joyiga yetgan sayyohlar juda charchashdi. Tobora qu-yuqlashayotgan, sovuq shamol esayotgan qorong'ilikda tog' ko'-rinmay qolmoqda. Gendalf hammaga yana bir ho'plamdan miru-ver quyib berdi. Hamrohlar yengilgina ovqatlanib olishgach, sehrgar majlis boshladi.

– Qizil burg'u darvozasidan o'tish yo'li hammamizni holdan toydirdi va shu bois bugun tunda shu yerda qolib, biroz dam olamiz, – dedi u.

– Keyinchi, keyin nima qilamiz? – so'radi Frodo.

– Oldimizda turgan vazifani bajaramiz, – javob berdi Gendalf. – Biz yo'limizni davom etishimiz, yo Dorilomonga qaytishimiz mumkin.





Dorilomonga qaytishni eshitgan Pinning yuzi darhol yorishdi. Merri bilan Sem boshini ko'tarib, umid-la qarashdi. Ammo Aragorn bilan Boromir qilt etishmadi. Frodo xavotirga tushdi.

– Qaytishni xohlardim-u, lekin chindan ham olg'a yuradigan yo'l qolmaganiga ishonch hosil qilmay turib qaytadigan bo'lsam, uyat bo'ladi deb o'ylayman. Qolaversa, ortga qaytish – taslim bo'lish degani-yu, to'g'rimi?

– To'g'ri Frodo. Ortga qaytish – taslim bo'lishni demakdir, – ma'qulladi Gendalf. – Qaytgach esa batamom mag'lub bo'lish kunini kutib o'tirishga to'g'ri keladi. Qaytsak Uzuk Dorilomonda qolib, uni hech kim hech qayerga olib keta olmaydi. Dorilomon qamal qilinadi va kun o'tib bir kun, qisqa muddat o'tadigan tengsiz jangdan so'ng yer yuzidan yo'q qilinadi. Uzuk ruhlari – shafqatsiz dushman sanaladi, lekin ular, agar Uzuk o'z sohibining qo'liga qaytsa, haqiqiy dahshatning ko'lankasi bo'lib ko'rinadi, xolea.

– Binobarin, zig'irday bo'lsin imkon bor ekan, yo'limizni davom etishimiz kerak, – xulosa qildi Frodo og'ir xo'rsinib.


Buni eshitgan Sem boshini yana xam qildi.

– Yo'limizni davom etish imkoni hali bor, – ma'lum qildi Gendalf. – Safar boshidan buyon o'sha imkon haqida o'ylab kelyapman. Ixtiyorimizda yana bir yo'l bor. U yo'l haqida sizlarga hali gap ochmaganman. Aragorn bunga qarshi edi. Oldin tog' oshib o'tishga urinib ko'rish kerak deb hisobladi.

– Modomiki, sen aytgan yo'l Qizil burg'u darvozasidan o'tadigan yo'ldan ham battar ekan, demak, chindan ham dahshatli yo'l haqida gap boradi, – fahmladi Merri. – O'sha yo'l haqida aytib ber, bizni nima kutishini oldindan bilaylik.

– Men nazarda tutayotgan yo'l Moriya konidan o'tadi, – ma'lum qildi Gendalf.

Faqat ko'zida uchqun yarqiragan Gimligina boshini ko'tarib qaradi. Qolganlarning vujudini dahshat qamradi. Hobbitlar uchun ham Moriya konlari qo'rquv tug'diradigan afsona sanalib kelgan.




– Moriya konlariga eltadigan yo‘l bizni u yerdan olib chiqishi mumkinligiga umid qilsa bo‘ladimi? – g‘amgin ohangda so‘radi Aragorn.

– Nomining o‘zi xunuk u yerning, – dedi Boromir. – Moriyaga borish zaruratini shaxsan men ko‘rmayapman. Modomiki, tog‘ oshib o‘ta olmas ekanmiz, janubga burib, Rohan yo‘lidan boraylik. U yerning aholisi bilan mening xalqim o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatilgan. Dorilomonga men Rohan yo‘lidan keldim. Istanangiz, tog‘ oshib, Izen daryosini Lengortrend bilan Lebenninda kechib o‘tishimiz va dengizga yaqin hududlar orqali Gondorga kirib borishimiz mumkin.

– Sen shimol tomon yo‘l yurib kelganing sari ortingda qolgan vaziyat keskin o‘zgarib borgan, Boromir, -- dedi Gandalf. – Elrond kengashida Saruman haqida aytganlarimni eshitdingmi? Hamma yoq tinchlangandan so‘ng men u bilan o‘zim shug‘ullanaman. Biroq nima qilgan taqdirda ham Uzuk Izengardga yaqin bormasligi kerak, agar biz buning oldini ola bilsak. Uzuk qo‘riqchisi biz bilan ekan, Rohan yo‘li biz uchun yopiq.

Dengiz tomon eltadigan uzoq yo‘l masalasiga kelsak: vaqtdan yutqazishimiz mumkin emas. Aks holda safarimiz kam deganda yana bir yilga cho‘zilib, biz uchun xavfli kechadigan yo‘limiz birorta boshpana topilmaydigan dashtlikdan o‘tadi. U dashtlikni Saruman ham, Sauron ham diqqat-la kuzatib bormoqda. Shimol tomon yo‘l olganingda Boromir, dushman uchun sen yakka o‘zi izg‘ib yurgan, uyi, joyi yo‘q yo‘lovchiday ko‘rinib, qiziqish uyg‘otmagansan, – tushuntirdi u. – Chunki dushman o‘sha paytda Uzuk qidirish bilan band bo‘lgan. Endi esa sen Uzuk birodarligining a‘zosi sifatida qaytmoqdasan va toki biz bilan ekansan, xavf ostida qolasan. Janub tomon bosilgan har bir lig masofa ushbu xavf darajasini oshirib boraveradi.

Tog‘ni ochiqdan ochiq oshib o‘tishga urinishimizdan so‘ng ahvolimiz battar murakkablashdi, degan fikrdaman. Ma‘lum vaqtga ko‘zdan g‘oyib bo‘lib, izimizni chigallashtirib yubor-mas ekanmiz, ahvolimiz yaxshilanishiga ko‘zim yetmaydi. Bino-barin, fikrimcha, biz tog‘ni ustidan oshmay yoki aylanib o‘tmay.




ostidan o'tishimiz kerak. Har qalay, ishonchim komilki, biz aynan tog'osti yo'lini tanlashimizni dushman kutmaydi.

– Dushman nimani kutayotganini biz bilmaymiz. – dedi Boromir. – Chunki u biz yurishimiz mumkin va mumkin bo'lmagan yo'llarning barini nazorat ostiga olgan. Bundan kelib chiqadiki, Moriya biz uchun tuzoqqa aylanadi. Zulmat minorasining eshigini taqillatishdan o'zga narsa emas bu. Moriya – yovuz joy.

– Moriyani Sauronning qal'asi bilan qiyoslab, o'zingiz bilmaydigan narsani muhokama qilyapsiz, – javob berdi Gendalf. – Oramizda Zulmat Hokimining yerosti makonida, o'shanda ham faqat Dol-Guldurdagi eskirib ketgan kichkina maskanida bo'lgan yagona kishi o'zim bo'laman. Barad-Dur darvozasidan kirganlar qaytib chiqishmaydi. Chiqish yo'li bo'lmaganda men sizlarni Moriyaga yetaklamas edim. To'g'ri, orklarga duch kelib qolgunday bo'lsak sho'rimizga sho'rva to'kiladi, albatta. Ammo G'uborli tog'larning aksariyat orklari Beshta lashkar jangida qirib tashlangan yoki har tomon quvib yuborilgan. Burgutlardan olingan xabarlarga qaraganda uzoq-uzoqlarda yashaydigan orklar yana yig'ilishmoqda, lekin Moriyani egallashga hali ulgurmagan bo'lishi mumkin ular. Moriyada gnomlar yashashiga, ularning ajdodlari uchun mo'ljallangan chuqur zallardan birida esa Fandinning o'g'li Balinni uchratish mumkinligiga umid ham yo'q emas. Buni bilish uchun esa Moriyaga borish kerak.

– Sen bilan boraman men, Gendalf, – dedi Gimli. – Yo'lda bizni nimalar kutishidan qat'i nazar, Dyurinning zallarini o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman, agar sen yashirin eshikni topa olsang, albatta.

– Juda soz, Gimli! Menga ancha dalda berding! – javob berdi sehrgar. – Yashirin eshikni birga qidirib topamiz. Gnomlarning yer osti makonida elf yoki oddiy odam va hatto hobbitdan ko'ra gnomni boshi berk joyga quvib tutish qiyin kechadi. Moriyaga birinchi marta kirishim emas. U yerda men Treyning nabirasi, Trorning o'g'li, Traynni bedarak ketganidan so'ng uzoq qidirganman. Moriyaga kirib, u yerdan ko'rib turganingizdek sog'-salomat chiqqanman!



– Bir zamonlar men ham Dimrill darvozasidan o'tganman, – vazmin ohangda ma'lum qildi Aragorn. – Garchi men ham u yerdan omon chiqqan bo'lsam-da, juda xunuk xotira qolgan. Moriyaga kelganim shu bo'lsin deb chiqqan edim.

– Men esa birinchi marta bo'lsa ham kirishni istamayman u yerga, – dedi Pin.

– Men ham, – po'ng'illadi Sem.

– Albatta, kim ham istar edi u yoqqa kirishga, – dedi Gendalf. – Endi savolni sal boshqacha qo'yaman: o'zim yo'l ko'rsatib boradigan bo'lsam, kim boradi men bilan?

– Men boraman, – jonlanib ketdi Gimli.

– Men ham, – og'ir xo'rsingancha rozilik berdi Aragorn. – Men boshlagan yo'ldan borib qor ostida halok bo'lishlaringga sal qoldi, lekin hech kim aybga buyurmayapti meni. Endi sen boshlaydigan yo'ldan boraman, Gendalf, agar oxirgi ogohlantirishim seni cho'chitib yubormasa. Chunki endi men Uzukning, Uzuk birodarligiga kirgan qolgan a'zolarining emas, sening tashvishingni qilyapman. Ogohlantirishim shundan iboratki, Moriya ostonasini hatlab o'tiboq ehtiyot bo'lib yur!


– Men esa bormayman, – dedi Boromir. – Uzuk birodarligining qolgan barcha a'zolari o'z fikrini bildirib, Moriyaga borishga rozilik bermaguncha bormayman. Legolas bilan pakana xalq vakillari nima deydi? Uzuk qo'riqchisining fikri qanday?

– Moriyadan o'tishni istamayman men, – qisqa qildi Legolas.

Hobbitlar indashmadi. Sem Frodoga qarab qo'ydi.

– Men ham Moriyaga borishni istamayman, – fikr bildirdi Frodo nihoyat. – Ammo Gendalfning nasihatidan ham yuz o'girish niyatim yo'q. Oldimizda tanlov bo'lishini xohlamas edim. Gendalfning taklifi tunning zulmatida emas, tong yorug'ida ma'qullagani yaxshi. Muncha uvullamasa, a, anavi shamo'!

Frodoning so'zlari hammani unsiz o'ylantirib qo'ydi. Shamol chindan ham daraxtlar orasidan shiddat-la o'tib uvullamoqda.



Kutilmaganda Aragorn oyoqqa qalqib turdi.

– Uvullayotgan shamol emas! – xitob qildi u. – Shamol bo‘riga taqlid qilmaydi. Uvlayotgan varglar! Ular tog‘ tizmasining g‘arbiga o‘tib olishgan ko‘rinadi!

– Ertalabgacha kutishga hojat bormikan? – dedi Gandalf.  
– Hodisalar aynan men aytganday kechmoqda. Bo‘rilar ov boshladi. Ertalabgacha omon qolgan taqdirda ham, kim janub tomon yo‘l olishni istaydi, agar uning iziga yirtqich bo‘rilar tushadigan bo‘lsa?

– Moriyagacha uzoq yuriladimi? – so‘radi Boromir.

– O‘n besh milya, agar Karadrasning janubiy-g‘arbiga qush parvozi yo‘nalishida tik qaraladigan bo‘lsa, – javob berdi Gandalf.

– Unday bo‘lsa osmon sal yorishishi bilanoq yo‘lga chiqaylik, – taklif kiritdi Boromir.

– Uvullayotgan anavi bo‘rilar hozircha yetib kelmagan orklardan ham batar, – ta‘kidlab qo‘ydi Gandalf.

– To‘g‘ri, lekin varg bor joyda ork ham bo‘ladi, – dedi qilichini yalang‘ochlagan Aragorn.

– Elrondning gapiga quloq tutmay bekor qilibman, – po‘ng‘illadi Pin. – Buqana‘ra Bandobras Tukning tabiatida bo‘lgan jihatlar menda juda kam: anavi maxluqlarning uvlashi ich-ichimni muzlatib yuboryapti. Hech qachon bunchalik qo‘rqmagan edim.

– Mening ham yuragim tavonimga tushib bo‘ldi, janob Pin, lekin biz hali yem bo‘lmadik. Boz ustiga, bizning kuchli birodarlarimiz bor, – tinchlantirgan bo‘ldi Sem. – Gandalfning qismatiga nimalar bitilganidan xabarim yo‘g‘-u, lekin vargning qornida hazm bo‘lish yozilmaganiga negadir ishonchim komil.

Sayyohlar tungi mudofaa marrasini hozirlash uchun kichik tepalik cho‘qqisiga chiqib olishdi. Bu yerda egilgan, eshilgan daraxtlardan iborat qadimiy daraxtzor bo‘lib, o‘rtada vayron bo‘lgan tosh to‘garak bilan hoshiyalangan maydon topildi. Qorong‘ilik bilan jimjitlik ovga chiqqan bo‘ri galasini izdan chalg‘itishiga umid yo‘q ekan, tosh to‘garak o‘rtasida gulxan yoqildi.

Hamma gulxan atrofiga joylashdi, qo'riqchilikda turganlar notinch mudrashmoqda. Sho'rlik Bill qo'rquvdan terga botib, dag'-dag' titramoqda. Bo'rilarning uvlashi dam olisda, dam yaqindan eshitilmoqda. Tosh to'garak atrofidagi zimistonda ko'z juftliklarining bir galasi chaqnamoqda. Ba'zi bo'rilar tosh halqagacha yaqin kelishga jur'at etishmoqda. Aftidan, to'daboshi bo'lsa kerak, toshlar orasidagi raxnada o'z galasini yaqinroq kelishga da'vat etgancha vaqti-vaqti bilan na'ra tortayotgan bahaybat bo'ri baqrayib turibdi.

Qo'lidagi asoni baland ko'targan Gendalf varg tomon odimladi.

– Gapimni eshit, hoy Sauronning ko'ppagi! – xitob qildi u. – Men Gendalf bo'laman. Qabih po'staging aziz bo'lsa, yaxshilikcha ket bu yerdan. Aks holda dumingdan tumshug'inggacha baravar yonadi hozir.

Tishini yalang'ochlagan hayvon hamla qilib oldinga tashlandi-yu, shu fursatda g'alati tovush eshitildi. Legolas qo'lidagi kamorning tarang tortilgan ipini qo'yib yubordi. Bahaybat bo'ri jirkanch uvlab, gumburlagancha Gendalfning oyog'i ostiga jonsiz yiqildi. Elf otgan kamon o'qi hayvonning bo'g'zini teshib o'tibdi. Tevarak-atrofdagi chaqnoq ko'zlar shu zahoti daf bo'ldi. Gendalf bilan Aragorn oldinga odimlashdi. Chiqish yo'li bo'sh, bo'ri galasi tumtaraqay bo'lgan. Tevarak-atrofdagi zulmatda shamol shovqinidan tashqari birorta tovush eshitilmadi.

Tun oxirlab qoldi. G'arbga o'tgan oy titilib ketgan bulut orasida xira ko'ringancha asta botmoqda. Frodo kutilmaganda uyg'onib ketdi. Qorong'ida shovqin solmay sayyohlarning qarorgohini qurshab olgan bo'rilar kutilmaganda qattiq uvlagancha, Uzuk birodarligiga har tomondan hujum qildi.

– Gulxan cho'g'iga o'tin tashlang! baqirdi Gendalf hobbitlarga. – Qilichlarni yalang'ochlang! Juftliklarga bo'lining, belni belga tirab turing.

O'tin tashlangan gulxan tili o'ynoqladi. Olov yorug'ligida to'garak chegarasidan o'tib, tosh halqa ichiga sakrayotgan bo'rilar ko'rinmoqda. Ularning soni tobora ko'payib bormoqda.

Oldinga sakrab o'tgan bahaybat bo'ring bo'g'zini Aragorning qilichi yorib tashladi. Qurolini siltagan Boromir navbatdagi bo'ring boshini tanasidan judo etdi. Uning yonida esa oyog'ini keng ochib olgan Gimli boltasini astoydil ishlatmoqda. Legolasning kamoni ham tinmay o'q uzmoqda.

Gendalfning bo'yi miltillayotgan gulxan yorug'ida baland o'sganday ko'rindi. Hozir uning qomati tepalikka o'rnatilgan qadimiy qirol haykaliga o'xshab qolibdi. Qo'lga yonayotgan xoda ushlagan Gendalf bo'rilarga peshvoz chiqdi. Hayvonlar galasi orqaga tisarildi. Yonayotgan xoda osmonga uchib chaqmoqday oq tus olgancha portladi va ayni fursatda sehrgarning ovozi momaqaldiraqday baland yangradi:

– Nauran edra i tammen! Naur dan i igaurxot!


Nimadir tarsilladi, nimadir qattiq na'ra tortdi. Gendalfning yonidagi daraxt ildizidan uchigacha baravar o't oldi. Daraxtda olov bir daraxtdan boshqasiga o'tdi. Tepalikni olov qamabdi. Qilich va pichoqlar tinmay ishladi. Legolasning havoda o't olgan so'nggi o'qi yana bir to'daboshi bo'ring yuragiga sanchildi. Omon qolgan bo'rilar har tomon qochib qolishdi.

Olov o'chib, ko'p o'tmay atrofda qizil cho'g' bilan kul qoldi, xolos. Havoni daraxt tanalaridan chiqayotgan achchiq tutun bulg'agan. Osmon ancha yorishdi. Mag'lub bo'lgan varglar qaytib kelishmadi.

– Nima degan edim sizga, janob Pin? – dedi qilichini qiniga solayotgan Sem. – Bo'rilarning tishi o'tmaydi unga deganmidim?! Zo'r bo'ldi, lekin! Sochim kuyib ketishidan qo'rqdim.

Kun yorishib, atrofda birorta bo'ri ko'rinmadi. Yonib bitgan daraxtlar bilan Legolas kamoning tepalik chetida yotgan o'qlari hisobga olinmasa, na jang alomati, na birorta bo'lsin hayvon jasadi qolibdi. Kamon o'qlarining hammasi butun bo'lib, faqat bittasining uchligi yo'q, xolos.

– Aynan mana shundan xavfsiragan edim, – dedi Gendalf. – Qorin to'ydirish uchun o'lja ovlaydigan oddiy bo'ri emas edi ular, – tushuntirgan bo'ldi u fikrini. – Qani, ovqatlanib



olaylik-da, tez ketaylik bu yerdan.

Bugungi havo yana o'zgardi. Ob-havoni boshqarayotgan allaqanday kuch endi qor hech qanday naf bermasligiga ishonch hosil qilib, Yovvoyi o'lkada yuz berayotgan hodisalar, shu jumladan, tog' oshib o'tishdan voz kechgan yo'lovchilar aniq ko'rishini xohlaganday go'yo. Tunda shimol tomondan esgan sovuq shamol o'z yo'nalishini shimoliy-g'arb yo'nalishiga o'zgartirib, kunduz kuni to'xtadi. Bulut janubga suzib ketdi, osmon nisbatan tiniq tus olib, quyosh qor cho'qqilarini xira yoritdi.

– Quyosh botguncha yashirin eshikka yetishimiz kerak, -- shoshiltirdi Gendalf, -- aks holda uni ko'rish nasib qilmasligi mumkin. Manzil o'zi uzoq emas, lekin yo'l ilang-bilang ketgan. Aragorn bu yerlarda kamdan kam bo'lgani bois, endi u bizga yo'l ko'rsatib bora olmaydi. Men esa Moriyaning g'arbiy devorida bir marta bo'lganman, xolos, bunga ham ancha bo'ldi. Yashirin eshik ho'v anavi tomonda, -- dedi u janubiy-sharq tomon imo qilib.

Sehrgar ko'rsatgan tog' etagi o'z ko'lankasi tushgan tomon tik kesilib tushgan. Ko'z osilib turgan ochiq qoyatoshlar chizig'ini bazo'r ilg'amoqda. Ushbu chiziq o'rtasidagi tik qoya balandroq bo'lib, kulrang tusli katta devorga o'xshaydi.

– Tog'dan tushayotganimizda men sizlarni, agar e'tibor qilgan bo'lsangiz, yuqoriga chiqilgan so'qmoqdan emas, janubiy yo'nalishga yetakladim. To'g'ri qilganman, chunki bu bilan men yo'lni bir necha milyaga qisqartirdim. Endi imkon qadar tezroq odimlash kerak. Yuringlar!

– Nimaga umid qilishni ham bilmay qoldim, -- dedi Boromir g'amgin ohangda. – Topa oladimi Gendalf o'sha eshikni, topsa ochib, ichkariga kira olamizmi. Vaziyatdan chiqishning boshqa yo'li yo'qligini ko'rib turibman, lekin yaxlit qoya devor bilan bo'rilar galasi orasida qolish istiqboli ham qiziq ko'rinmayapti-da. Iloj qancha, olg'a!

Endi Gimli oldinga chiqib, Moriyani tezroq ko'rish ilinjida Gendalfning yonida bordi. Ikkalasi sayyohlar guruhini ortga, tog' tomon yetakladi. Qadimda Moriyaga eltadigan yago-



na yo'l tog'dan, yashirin eshik yaqinidan oqib chiqqan Sirannon daryosini kesib o'tgan. Biroq yo sehrar yo'ldan adashdi, yo hudud o'zgarib ketgan ko'rinadi, tunash joyidan bir necha milya yurgan Gendalf qadimiy daryo o'zanini ko'zlangan joydan topa olmadi.

Tong kunduzga ulandi, Uzuk birodarligi esa qizil toshli yovvoyi o'lka orqali yurishini davom etmoqda. Suv shovqini yoki sokin mavjlanishidan darak yo'q. Atrof quruq, manzara qandaydir noxush. Yo'lovchilarning ruhi tushgan. Na yerda, na osmonda biror zog' ko'rinadi. Dashtda o'tishi kutilayotgan tun ularning boshiga nimalar keltirishi mumkinligi borasida biron nima deyish qiyin.

Oldinda borayotgan Gimli kutilmaganda orqaga o'girilib, hammani yoniga chaqirdi. Tepalikka chiqib olgan gnom o'ng tomonga imo qildi. Gimlining oldiga chiqqan hamrohlar tor, chuqur suv o'zanini ko'rishdi. Daryoning oqimining silliqланib ketgan qo'ng'ir-qizg'ish toshloq yo'li quriganiga, aftidan, ancha bo'lgan ko'rinadi. O'zanning bu tomonidagi qarovsiz qolib, xarobaga aylangan qadimiy tosh yo'ldan tor so'qmoqina qolgan.

– Va nihoyat! – xitob qildi Gendalf. – Sirannon daryosining qurigan o'zani bo'ladi bu. Darvoza yonidan o'tgan katta ariq deyishar edi uni. Shovqin solib, shiddat-la oqqan daryo suviga nima qilgan bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qila olmayapman. Xo'p, mayli. Qani, yuringlar, tezlashaylik. Kech bo'lyapti!

Oyog'i toliqib, holdan toygan sayyohlar ilang-bilang ketgan ushbu dag'al so'qmoqdan sabot-la yo'l olishdi. Quyosh g'arbga og'a boshladi. Qisqa vaqtga to'xtab tez tamaddi qilib olgan hamrohlar yo'lni davom etishdi. Oldinda tog' tizmasi tiri-shib turibdi, ammo yo'lovchilar chuqur soylikka tushib ketishayotgani bois, ularga olis sharqdagi eng baland cho'qqilarigina ko'rinmoqda, xolos.

Nihoyat hamrohlar yo'l keskin burilgan joyga yetib kelishdi. So'qmoqning yo'nalishi o'zgarib, chap tomondagi tik

qiyalik bilan daryo oʻzani oʻrtasidan ketgancha yana sharqqa burildi. Burchakni aylanib oʻtgan yoʻlovchilar boʻyi taxminan besh sarjin<sup>1</sup> keladigan, ustki qismi majaqlanib darz ketgan kichik qoyaga duch kelishdi...

Qoyadagi qandaydir ogʻir, kuchli narsa bilan urib ochilgan raxnadan jilgʻa oqib chiqyapti.

– Darhaqiqat, hamma narsa oʻzgarib ketibdi! – fikr bildirdi Gendalf. – Lekin hudud masalasida adashganim yoʻq. Zinali tushish joyidan shu narsa qolibdi. Xotiram pand bermayotgan boʻlsa, anavi yerdagi tik koʻtarilgan devorda zina bor, asosiy yoʻl esa chapga burilib, aylanasiga yuqoriga chiqadi. Oʻsha zina bilan Moriya devori oʻrtasida Sirannon daryosi oqib oʻtgan soylik boʻlishi kerak. Qani, borib koʻraylik-chi, koʻrinishi qanday ekan hozir u yerning.

Tosh zina oson topildi. Dastlab Gimli, uning ortidan Gendalf bilan Frodo zina pogʻonalariga oyoq qoʻyishdi. Yuqoriga chiqqach ular yoʻl shu yerga kelganda tugaganini fahmlashdi. Darvoza yonidan oʻtgan katta ariq nima uchun qurib qolgan mana endi tushunarli. Orqada qolgan quyosh ufq ortiga botar ekan, osmonning sovuq gʻarbiy qismini tilla tusda yoritmoqda. Oldinda esa harakatsiz qora koʻl manzarasi ochildi. Koʻl suvining xira yuzasida na osmon, na quyosh aksi koʻrindi. Yoʻli toʻsilgan Sirannon keng soylikni gʻarq qilibdi. Mudhish havza ortida tik koʻtarilgan qoyalar sirti soʻnayotgan quyosh nurida murdaning yuziday boʻzarib koʻrinmoqda. Na darvoza yoki oʻtish yoʻli alomati, na darz ketgan joy yoxud tirqish koʻrinadi u qoyalarda.

Moriya devori, – dedi Gendalf koʻlning narigi qirgʻogʻini koʻrsatib. – Bir zamonlar unda eshik boʻlgan, ellarning biz kelgan Xollin yoʻli oxiridagi eshigi. Lekin yoʻl yopiq. Qosh qoraygan mahalda birortamiz ushbu mudhish koʻlning narigi qirgʻogʻiga suzib oʻtishni istamasa kerak deb oʻylayman. Qandaydir jirkanch koʻrinmoqda suv.

---

<sup>1</sup> Sarjin 2,13 metrga teng uzunlik oʻlchovi.

– Ko‘l ni shimol tomondan aylanib o‘tadigan yo‘l topishimiz kerak, – taklif kiritdi Gimli. – Birinchi navbatda qiladigan ish asosiy yo‘ldan oxirigacha borib, bizni qayerga eltishini aniqlashimiz lozim. Mana bu ko‘l bo‘lmagan taqdirda ham yukimiz va ponimizni zinadan ko‘tarib chiqa olmas edik.

– Har qanday holatda ham sho‘rlik jonivorni yerostiga yetaklab kira olmaymiz, – dedi Gendalf. – Tog‘ qa‘ridagi yo‘llar qorong‘i bo‘lib, u yerda shifti juda past va poni o‘ta olmaydigan nihoyatda tor yo‘laklar bor. Biz unday joylardan emaklab bo‘lsa ham bir amallab o‘ta olamiz, poni esa – yo‘q.

– Sho‘rlik qariya Bill! Masalaning bu tomonini o‘ylamabmiz-u! – achindi Frodo. – Bechora Sem, u nima deydi endi?

– Iloj qancha, – dedi Gendalf. – Juda foydali jonivor edi. Uni qarovsiz tashlab ketishga yurak achishadi, albatta. Agar bu yo‘ldan yurishimizni bilganimda safarga ponisiz chiqqan bo‘lar edik.

Kun oxirlab, osmonda sovuq yulduzlar ko‘rinish berdi. Sayyohlar qiyama so‘qmoqdan imkon qadar tez yurib, ko‘l sohiligacha ko‘tarilishdi. Ko‘l enining eng keng joyi to‘rt dan bir milyadan oshmaydi. Janub tomon qayergacha cho‘zilganini esa oqshom mahalida ko‘z ilg‘amadi. Sayyohlar turgan joydan ko‘lning shimoliy chegarasigacha mavjud masofa bir milyadan uzoq bo‘lmay, jarlikning toshli chegarasi bilan suv orasida tekis yo‘lak ko‘rinyapti. Yo‘lovchilar o‘sha yo‘lak tomon odimlashdi. Gendalf ko‘rsatgan joyga yetish uchun ko‘lning narigi qirg‘og‘ida ham yana bir-ikki milya yo‘l yurishga to‘g‘ri keladi. Boz ustiga, eshik qidirib topish kerak hali.

Ko‘lning so‘nggi shimoliy nuqtasiga yetgan hamrohlarining yo‘lini ensiz ariq to‘sdi. Uning oqmas yelimshak suvi yashil tusli shilliq chiziq ko‘rinishida tepaliklar orasiga kirib ketgan. Gimli ikkilangancha olg‘a odimladi. Ariq sayoz bo‘lib, suv sathi to‘piqdan ko‘tarilmadi. Tubidagi toshlar sirpanchiq, har qadamda xavf tug‘ilishi bois hamrohlar ariqdan zanjirsimon saf tortgancha, yo‘l tanlab ehtiyotkorona o‘tishdi. Oyog‘i to‘q yashil loyqa suvga tekkan Frodo jirkanib, seskandi.




Billni tortib kelayotgan Sem qarama qarshi qirg'oqqa oxirgi bo'lib oyoq qo'yishi bilan ko'l shapillab, baliq suvning tinch sathini bezovta qilganday qulqullagan tovush eshitildi. Tez burilib qaragan sayyohlar suv ustida qandaydir ko'lanka paydo bo'lganini, undan ko'l qirg'oqlariga qarab yirik doiralar tarqalayotganini ko'rishdi. Qulqullagan tovush yana bir marta eshilib, jimjitlik qaror topdi. Kun qorayib, quyoshning so'nggi nurlari osmon g'arbidagi bulutga tilla tus bermoqda.

Gendalf katta-katta qadam tashlagancha tez odimlay ketdi, qolganlar esa qo'ldan kelgancha unga yetishib yurishga urinishmoqda. Ular qoya devor bilan suv havzasi oralig'idagi tor so'qmoqqa yetishdi. So'qmoq o'n ikki yarddan keng bo'lmay, ko'p joylarini yuqoridan sinib tushgan qoya bo'laklari to'sib qo'ygan. Hamrohlar qoya devorga suyanib, imkon qadar suvdan nari yurgancha yo'l tanlab borishdi. Janub yo'nalishida bir milyacha yo'l yurishgach, bir nechta egilib, bukilib ketgan eski daraxtlarga borib yetishdi. Bu, aftidan, suv ostida qolib ketgan soylikdagi yo'l bo'yida o'sgan daraxtzor qoldig'iga o'xshaydi. Qoya yaqinida bir juft hali ancha navqiron, nayzabargli baland daraxt ko'rindi. Bunchalik baland daraxtni Frodo hayotda ko'rmagan. Ularning ildizlari qoya devordan suvgacha cho'zilgan. Olisda qolgan zina tepasidan qaraganda ular butaday ko'ringan edi. Hozir esa har biri mustahkam, o'z ostiga uzundan uzun soya tashlagan minoraday ko'rinib, nimasi bilandir yo'l oxirida turgan soqchilarni eslatmoqda.

- Nihoyat ko'zlangan manzilga yetib keldik! – ma'lum qildi Gendalf yengil tortib. – Xollinlik elflarning yo'li shu yerga kelganda to'xtagan. Nayzabargli daraxt ushbu zaminda muqaddas sanalib, yurt sarhadlarida chegara belgisi sifatida yetishtirilgan edi. Eshik esa Xollin aholisi bilan Moriya hukmdorlari orasidagi munosabatlar manfaatida, turli irqlar, hatto elflar bilan gnomlar orasida ham do'stona aloqalar yo'lga qo'yilgan baxtli zamonlarda ochilgan.

- Do'stona munosabatlarning barham topishida gnomlarning aybi bo'lmagan, - kutilmaganda bayonot qilib qoldi



Gimli.

– Ayb elflar gardaniga yuklanganini eshitmagan ekanman, – e'tiroz bildirdi I egolas.

– Men esa unisini ham, bunisini ham eshitganman va ushbu mavzu borasida hozir bahslashib, muhokama qilmoqchi emasman, – achchiqlandi Gendalf. – Lekin sendan Legolas va sendan Gimli do'stlashishni va menga qo'ldan kelgancha yordam berishlaringni iltimos qilmoqchiman. Ikkalangiz ham keraksiz menga. Moriya eshigi ko'zdan bekitilib, qulflangan. Uni qancha tez topsak, shuncha yaxshi. Tun yaqin. Men eshik qidirish bilan ovora bo'lar ekanman, – dedi u. qolganlarga murojaat qilib, – sizlar tog' ichiga kirishga hozirlik ko'ring. Afsuski, shu yerga yetganda poni bilan xayrlashishga to'g'ri keladi. Ob-havo sovuq kelgan sharoitda foydalanish uchun mo'ljalangan narsalaringizni shu yerda qoldiring, ular sizga Moriyada ham, tog' tizmasining janubiy tomonidan chiqqanimizda ham asqatmaydi. Poni ko'tarib kelgan yukni, ayniqsa, yegulik zaxirasi va suv meshlarini o'zaro taqsimlab oling.

– Sho'rlik Billni mana bu la'nati yerda yolg'iz o'zini qoldirib keta olmaymiz, janob Gendalf! – baqirib yubordi Sem. – Men bunga yo'q qo'ymayman! Yo'l azobi-yu, shuncha qiyinchilik va mashaqqatlarni biz bilan teng baham ko'rib kelgan keksa jonivorni shu yerga yetganda tashlab ketish – ablahlikdan o'zga narsa emas!

– Afsusdaman Sem, lekin eshik ochilsa o'zing ko'rasan Billni Moriyaning oxiri ko'rinmas uzun yo'laklariga kirita olmasligingni, – dedi sehrgar. – Yo Billni, yo sohibingni tanlashing kerak bo'ladi.

– Bill janob Frodoning orqasidan kerak bo'lsa ajdar ma-konigacha boradi, agar uni o'zim yetaklab borsam, – e'tiroz bildirdi Sem. – Uni bu yerda anavi bo'rilar o'lkasida yolg'iz o'zini qoldirish qotillikka qo'l urish bilan barobardir.

– Unday bo'lmaydi, degan umiddaman, -- dedi Gendalf, kaftini ponining peshanasiga bosib. – Sen aqlli jonivorsan, Dori-lomonda ko'p narsalarni o'rganding, -- pichirladi u ponining

qulog'iga. – O't-o'lan o'sgan hududlar orqali Elrond xonadoniga yoki o'zing istagan boshqa joyga sog'-salomat yetib ol. Ana bo'ldi, Sem! – xitob qildi sehrgar. – Endi uning bo'rilardan qutulish imkoni bizning omon qolish imkonimiz bilan teng bo'ladi.

Jonivorning yonida ma'yus turgan Sem jim bo'ldi. Bill huddi gap nima haqda borayotganini tushunganday boshini ko'tarib, tumshug'ini Semning qulog'iga tiradi. Ko'zidan duv-duv yosh oqqan Sem arqon tugunlarini yechib, jonivorning beliga ortilgan yukni yerga tushirishga kirishdi. Qolganlar ushbu buyumlarni saralab, bu yerda qoldiriladigan narsalarni bir joyga yig'ishdi, olib ketiladigan narsalarni esa o'zaro taqsimlashdi.

Tayinlangan ish bajarilgach, hamma Gendalfning harakatini kuzatishga kirishdi. Bir juft ignabargli daraxt o'rtasida turgan sehrgar hech narsa qilmay, ko'zi bilan teshib yuborguday qoramtir qoya devorga tikilmoqda. Gimli qo'lidagi boltani vaqti-vaqti bilan devorga urib-urib qo'yganicha u yoq, bu yoqqa borib kelmoqda. Legolas esa ichkariga quloq solayotganday devorga qapishib olgan.

– Xo'sh, biz tayyormiz ichkariga kirgani, – ma'lum qildi Merri. – Eshik qani, ko'rmayapman.


– Gnomlar yasagan eshik shunday xususiyatga egaki, yopiqligida ko'z ilg'amaydi. – javob berdi Gimli. – Shu darajada ko'rinmas bo'ladi, sirini unutib qo'ygan bo'lsa, eshik yasagan ustalarning o'zlari ham uni topa olishmaydi.

– Ammo bu eshik faqat gnomlarga ma'lum bo'lishi uchun yasalmagan, agar hamma narsa batamom o'zgarib ketmagan bo'lsa, albatta, – kutilmaganda jonlanib ketdi Gendalf. – Niman qidirayotganini bilgan ko'z tegishli alomatni ko'ra bilishi kerak.


Sehrgar devorga yaqinroq bordi. Qoyaning bir juft daraxt soyasi orasidagi o'rni tekis. Qo'lini devorga qo'yib u yoq, bu yoq yuritgan Gendalf allanima pichirlab, orqaga tislandi.

– Qarang! – dedi u. – Biron nima ko'ryapsizmi?

Oy nuri qoya tosh sirtini yoritmoqda. Dastlab hech narsa ko'rinmadi. Birozdan so'ng sehrgarning qo'li yuritilgan joylarda



ingichka kumush tusli chiziqlar paydo bo'lib oy shu'lasida mihtil-  
layotgan o'rgimchak to'riga o'xshab ko'rindi, so'ng tobora  
kengayib, hosil bo'lgan rasm hammaga yaqqol ko'ringancha  
ravshanlashdi.



Rasmning yuqori qismida, Gendalfning qo‘li yetadigan joyda elf imlosiga mansub, o‘zaro chirmashib ketgan harflar bitilgan ravoq tasviri paydo bo‘ldi. Ravoq ostida yettita yulduzdan hosil qilingan to‘garak, ushbu to‘garak o‘rtasida qirol toji, yulduzlar to‘plami tagida sandon bilan temirchining bolg‘asi tasvirlangan. Sandondan sal pastroqda esa shoxlariga ko‘pdan ko‘p oy hilollari osilgan bir juft daraxt rasmi solingan. Eshik o‘rtasida har tomon nur taratayotgan yulduz chizilgan.

– Dyurinning ramzi-yu bu! – xitob qilib yubordi Gimli.

– Mana bu daraxtlar esa Oliy tabaqali g‘arb elflarining ramzi, – dedi Legolas.

– Va Feanor xonadonining yulduzi, – qo‘shimcha qildi Gendalf. – Ushbu rasmlar itildin vositasida solingan. Itildin faqat oy va yulduz shu‘lasida ko‘rinib, O‘rtayerda allaqachon unut bo‘lgan so‘zlarni bilgan kishi qo‘l tekkizguncha uxlayveradi. Ko‘pdan buyon eshitmaganim bois, esga olish uchun xotiramni ancha titkilashga to‘g‘ri keldi.


– Nima yozilgan o‘zi bu yerga? – so‘radi Frodo, ravoqqa bitilgan so‘zlarni o‘qishga urinib. – Elflar imlosini bilaman deb yurgan edim, lekin mana bu yozuvni o‘qiy olmadim.

– O‘rtayer g‘arbida qadimda qo‘llanilgan elf tiliga mansub so‘zlar bu, – tushuntirish berdi Gendalf. – Biroq bu so‘zlar biz uchun muhim ma‘no berayotgani yo‘q. Tarjima qilib beradigan bo‘lsam, bu yerda: «Moriya hukmdori Dyurinning eshigi... Degin, do‘st va ichkariga marhabo», deyilgan. Pastroqda esa, nisbatan mayda yozuvda: «Mazkur so‘zlarni bitgan men, Narvi bo‘laman. Xollinlik Kelebrimbor esa ushbu ramzlar tasvirini tushirgan», deya ma‘lumot berilgan.

– «Degin, do‘st va ichkariga marhabo»? Buni qanday tushunish kerak, – so‘radi Merri.

– Shundoq ham tushunarli-yu, bu, – javob berdi Gimli. – Modomiki do‘st ekansan, tegishli so‘zni talaffuz et. Eshik o‘sha so‘z vositasida ochilgach, ostona hatlab ichkariga kirishing mumkin, degani.

– Darhaqiqat, bu eshik, aftidan, tegishli so‘z vositasida





boshqariladigan ko'rinadi, – ma'qulladi Gendalf. – Gnomlar yasagan ayrim eshiklar faqat muayyan vaqtda yoki faqat mumtoz shaxslarga ochiladi. Ayrim eshiklarning qulfi bo'lib, tegishli vaqt va so'z ma'lum bo'lganda kalit solish talab qilinadi. Mana bu eshikni esa kalit yordamida ochish ko'zda tutilmagan. Dyurin zamonida bu eshik, odatda, hamisha ochiq bo'lib, oldida soqchi turgan va uning mavjudligiga hech qachon sir tutilmagan. Yopilgan taqdirda ham bilgan kishi tegishli so'zni talaffuz etib, ichkariga kiravergan. Har qalay, tarixiy qaydlarda shunday deyilgan. To'g'rimi, Gimli?

– Shunday, – javob berdi Gimli. – Ammo o'sha qadimiy so'z endilikda unut bo'lib ketgan. Narvi va uning avlodi allaqachon qirilib ketgan.


– Lekin sen bilasan-u, o'sha so'zni, to'g'rimi, Gendalf?  
– hayrat-la so'radi Boromir.

– Yo'q, bilmayman! – javob berdi sehrgar.

Hafsalasi pir bo'lgan hamrohlar bir-biriga qarab qo'ydi, Gendalfni yaxshi biladigan Aragorningina qilt etmay, jim o'tirdi.

– Unday bo'lsa, bizni mana bu la'nati yerga boshlab kelish nega kerak bo'ldi? – xitob qildi Boromir, yelkasi orqali qop-qora suvga qarab. – Bir zamonlar Moriya orqali o'tganingni o'zing aytding-ku. Qanday qilib kiringansan, axir, u yerga kirish so'zini bilmay turib?

– Dastlab birinchi savolingga javob beray, Boromir, – dedi Gendalf. – To'g'ri, kirish so'zini bilmayman, har qalay, hozircha bilmayman. Lekin uni hozir topishga urinib ko'ramiz, qo'shimcha qildi u, ko'zida uchqun ko'rinib. – Bir qarashda maqsadsiz kechayotgan xatti-harakatimdan ko'zlangan niyatni bilishga haqlisan, albatta. Ikkinchi savolingga kelsak – rost gapirganimga shubha qilayotgan ko'rinasan, lekin gapimni e'tiborsiz eshitibsan. Men Moriyaga ushbu eshikdan kirganman demadim. U yerga men sharq tomondan kirganimni aytdim. Bilmoqchi bo'lsang, agar, bu eshik tashqariga ochiladi. Ichkaridan turtib ochish mumkin, tashqaridan esa iltim yoki amrsiz ochishning iloji yo'q. Kuch qo'llashdan ham naf chiqmaydi.



– Xo'sh, endi qanday chora ko'rmoqchisan? – so'radi Pin, sehgarning qoshi chimirilgan qiyofasidan cho'chimay.

– Boshingni qoyaga urib eshik taqillatmoqchiman, Peregrin Tuk, biroq bundan ham naf chiqishiga shubha qilyapman, – achchiqlandi Gendalf. – Shu bois ahmoqona savollardan biroz xoli qolib, eshik ochish so'zini eslab ko'rmoqchiman. Bir zamonlar men elflar, oddiy odamlar va orklar tilida qo'llanilgan barcha tilismlarni yoddan bilar edim. Hozir ham ularning kam deganda ikki yuztachasi esimda. O'ylashimcha, ularning hammasini talaffuz etish shart bo'lmaydi. Shuningdek, Gimli dan ham gnomlarning hech kimga aytilmaydigan sirli so'zlarini so'ramayman. Eshik ochish so'zi hech shubha yo'qki, ravoqqa bitilgan elf tiliga mansub bo'lishi kerak.

Gendalf qoyaga yaqin borib, qo'lidagi aso uchini sandon belgisi ostidagi kumush yulduz tasviriga tekkizib, amr ohangida quyidagi so'zlarni talaffuz etdi:

*Annon edxolen, edre xi ammen!*

*Fennas megotrim, lasto bet lammen!*


Kumush tusli chiziqlar xiralashdi-yu, hech narsa yuz bermadi. Kulrang tosh qilt etmadi.

Gendalf yuqorida keltirilgan so'zlarni ko'p marta, o'rni ni turlicha almashtirib takrorladi, kor bermadi. Keyin boshqa tilismlarni ba'zan baland ovozda, ba'zan past ovozda dona-dona talaffuz etganicha qo'llab ko'rdi, kor bermadi. So'ng elf tilidan olingan alohida so'zlarni ko'p ishlatdi, kor bermadi. Qoya qorong'ilikda qilt etmay turaverdi. Osmonda son-sanoqsiz yulduzlar miltillamoqda, sovuq shamol ko'tarildi.

Yana devorga yaqin borgan Gendalf hassasini qoyaga urib, darg'azab ohangda ovoz ko'tardi:

– Edro! Edro! Ochil! Ochil dedim senga!

Ushbu buyruqni u O'rtayerda ma'lum barcha tillarda takrorladi, kor bermadi. Asoni g'azab-la nari uloqtirgan Gendalf toshga o'tirib oldi.



Shamol shovqini orasida olisdagi bo'rilarning uvlashi eshitildi. Bill dahshatdan titray boshladi. Sem jonivorning qulog'iga allanima pichirladi.

– Qochib ketishiga yo'l qo'yma! – dedi Boromir. – Aftidan, hali asqatib qoladigan ko'rinadi, agar bo'rilar bizni ertaroq topib olishmasa. Juna yomon ko'rib ketyapman men mana bu ko'lmakni!

Boromir engashib, yerdan olgan kattagina toshni kuchi boricha siltab ko'lga uloqtirdi. Tosh uzoq uchib suvga shalop etib tushishi bilan hushtak tovushi-yu, qulqullash eshitildi. Suv yuzasida hosil bo'lgan doiralar har tomon tarqalib, qirg'oqdagi qoya bo'laklariga borib urildi.

– Nega unday qilding, Boromir? – so'radi Frodo. – Menga ham yoqmayapti bu yer. Men ham nimadandir qo'rqyapman, ammo bo'ridan emas, qorong'ilikdan emas, aynan mana shu ko'lning vahimasidan qo'rqyapman. Tegma unga!

– Bu yerdan tezroq ketmoqchiman, – dedi Merri.

– Nega Gendalf cho'zyapti, ochmaydimi eshikni tezroq? – betoqat bo'ldi Pin.

Boshini xam qilib umidsizlikka, yo chuqur xotiralarga berilib o'tirgan Gendalf ularga e'tibor bermadi. Olisdagi bo'ri-ning uvlashi yana eshitildi. Suvning mavj urishi tezlashib, qirg'oqqa to'lqin ketidan to'lqin urildi.


Kutilmaganda irg'ib turib, kulib yuborgan sehrgar hammani cho'chitib yubordi.

– Tushundim! – xitob qildi u. – Albatta-da! Albatta! Javobi ma'lum topishmoqdan ahmoqona narsa bo'lmasa kerak!

Hassasini yerdan ko'targan Gendalf baland ovoz-la aniq talaffuz etdi:

– Mellon!

Devorga tasvirlangan yulduz yarq etib porlab, o'chdi. Shundan so'ng na darz ketgan joyi, na tirqishi bo'lgan devorda eshik rasmi paydo bo'la boshladi. Ikki bo'lingan eshik tavaqalari qoya ichiga kirib ketguncha asta-sekin ikki tomon surilib ochildi. Ichkarida yuqoriga tik ko'tarilgan zina ko'rindi. Zimiston shu



qadar quyuqki, ko'z zinaning quyi pog'onalarini bazo'r ilg'amoqda. Uzuk birodarligi hayrat-la ichkariga qaradi.

– Xatoga yo'l qo'yibman, – iqrar bo'ldi Gendalf. – Gimli ham yanglishdi. Faqat Merrigina haq bo'lib chiqdi. Eshik ochish so'zi ravoqning o'ziga bitilgan ekan. Undagi jumla tarjimasida: degin, «do'st» va ichkariga marhabo bo'lishi kerak edi. «Do'st» so'zini elf tilida aytishim bilan mana marhamat, eshik ochildi. Hammasi juda sodda. Xavotirli kunlarimiz uchun haddan ortiq jo'n topishmoq. Baxtli onlar edi u. Xo'sh, endi ichkariga kiramiz!

Hamrohlar olg'a odimlab, oyoqni zinaning birinchi pog'onasiga qo'yishdi. Shu fursatda birdaniga bir nechta hodisa ro'y berdi. To'pig'idan nimadir changallagan Frodo baqirgancha yerga yiqildi. O'larcha hurkib ketgan poni dumini tik ko'tarib qirg'oq bo'ylab yelgancha zimistonga kirib ketdi. Jonivorning ortidan yugurgan Sem Frodoning baqirganini eshitib ho'ngrab yig'lab so'kingancha ortga qaytdi. Qolganlar atrofga alanglab, ko'lining janub tomonidan ilonlarning butun boshli qo'shini suzib kelayotganini ko'rishdi. Suvdan bilanglayotgan och yashil uzun paypaslagich yorishib chiqdi. Bir uchi Frodoni changallab olgan paypaslagich hobbitni suvga tortmoqda. Cho'kkalab olgan Sem qilichi bilan paypaslagich chopishga kirishdi.

Paypaslagich Frodoni qo'yib yuborgach, Sem sheriklarini yordamga chaqirib sohibini suvdan nari tortdi. Ko'ldan yana yigirmatacha paypaslagich chiqdi. Qop-qora suv badbo'y hid chiqarib qaynadi.

– Ichkariga o'ting! – baqirdi orqaga qaytgan Gendalf. – Zinadan yuqoriga yuguring! Tez bo'ling! Tez!

Semdan tashqari hamma yerga qoqilgan qoziqday dahshatdan dong qotgan. Sehrgar ularni turtib ichkariga kiritdi.

Ular vaqtida ulgurib qolishdi. Sem bilan Frodo zinaning bir necha pog'onasiga ko'tarilishgan, oxirida kelayotgan Gendalf esa zinaga endi oyoq qo'ygan fursatda paypaslagichlar tipirchilgancha tor qirg'oqqa chiqib, devor va eshikka yopishib olishdi. Yulduz shu'lasida yorishayotgan paypaslagichlardan biri eshik ostonasidan o'tib, ichkariga cho'zildi. Gendalf o'girilib, eshikni

yopish tilsimini eslashga urinib koʻrdi-yu, bunga ehtiyoj qolmadi. Tavaqalarga yopishgan bir olam paypaslagich eshikni qattiq gursillatgancha tashqaridan yopib qoʻydi. Tevarak-atrof qop-qorongʻi zulmat ichida qoldi. Tashqarida tosh koʻchib, qarsillab sinayotgani eshitildi.

Frodoning qoʻlidan mahkam ushlab olgan Sem zina pogʻonasiga oʻtirib oldi.

– Bechora Bill! – pichirladi u titroq ovozda. – Shoʻrlik Bill! Boʻrilar-u, ilonlar! Men sizni tanladim, janob Frodo. Men siz bilan boradigan boʻldim.

Gendalf zinadan pastga tushib hassasini eshikka urdi. Tosh bilan zina pogʻonalari bir titradi-yu, eshik ochilmadi.

– Ana xolos! – dedi sehrgar. – Orqaga yoʻl yoʻq, endi faqat oldinga yurib, togʻning narigi tomonidan chiqamiz. Tashqaridagi shovqinga qaraganda eshik ortiga qoya boʻlaklari va ildizi bilan qoʻporib chiqarilgan daraxtlar qalashtirib tashlandi. Esiz, uzoq yashagan daraxtlar juda koʻrkam edi.

– Oyogʻim suvga tegishi bilan qandaydir dahshat oldiga kelib qolganimizni boshidan his etgan edim-a! – dedi Frodo. – Qanaqangi qabohat edi oʻzi u? Yo koʻpmidi ular?


– Bilmadim, – javob berdi Gendalf. – Lekin shunisi ayon koʻrindiki, paypaslagichlarning bari faqat bir kishi tomon choʻzildi. Togʻ ostidagi qora suvdan nimadir suzib chiqdi yoki majbur qilindi... Dunyo tubida juda qadimiy, orklardan-da yovuz maxluqotlar bor.

Gendalf oʻz fikrini oxirigacha yetkazmadi, koʻl tubidan chiqqan qabohat aynan Frodoni tutib olganining sababi haqida indamadi.

Boromirning past ovozda gʻashlanib poʻngʻillagani aks-sado boʻlib qaytib, hammaga eshitildi:

– Dunyo tubida emish! Ixtiyorimga qarshi oʻz oyogʻim bilan kirib ketyapman oʻsha dunyo tubiga. Xoʻsh, kim yoʻl boshlaydi bu zulmatda?

– Men, – javob berdi Gendalf. – Gimli esa yonimda boradi. Qoʻlimdagi asoga ergashib yuravering.



Zinaning bir nechta pogʻonasiga koʻtarilgan sehrgar uchidan xira nur taralayotgan asoni baland koʻtardi. Zinaning yoʻlovchilar qariyb ikkiyuztacha sanagan keng pogʻonalari butun. Yuqorida tekis poli zimistonga kirib ketgan ravoqli yoʻlak koʻrindi.

– Shu yerda biroz dam olib, tamaddi qilib olaylik, – taklifi kiritdi hozirgina boshdan kechirilgan dahshatdan hamon titrab, qorni oʻlarcha ochganini his etgan Frodo. – Yoʻlda oshxonabop joy topilishi dargumon boʻlsa kerak.

Uning taklifi maʼqul topilib, yarim qorongʻilikdagi qora qomatlar zinaning yuqori pogʻonalariga joylashib oʻtirishdi. Gendalf ovqatlanib boʻlgan hamrohlarga uchinchi bor bir hoʻplamdan miruver tarqatdi.

– Ichimlik oz qoldi, lekin ostonada boshdan oʻtgan dahshatdan soʻng bir hoʻplamdan ichmasak boʻlmaydi, – dedi u. – Omad chopmasa, suyuqlikning qolgan qismi togʻning narigi tomonidan chiqish uchun kerak boʻladi. Meshlardagi suvni tejang! Togʻ qaʼrida buloq va jilgʻalar koʻp-u, ularga tegmagan maʼqul. Dimrill vodiysiga yetguncha suv zaxirasini toʻlatib olish imkoni boʻlmasligi mumkin.

– Uzoq yuramizmi oʻsha vodiygacha? – soʻradi Frodo.

– Aniq bir nima deyishim qiyin. Bu koʻpdan koʻp tasodiflarga bogʻliq, – javob berdi Gendalf. – Agar yoʻldan adashmay, har xil toʻsiqlarga duch kelmay toʻgʻri yursak, oʻylashimcha, uch-toʻrt kun yurishimiz kerak boʻladi. Gʻarbiy eshikdan sharqiy eshikkacha tikkasiga yurilsa qirq milyacha yoʻl bosish kerak boʻlar edi. Unday yoʻl esa bu yerda yoʻq.

Qisqa muddat dam olishgach hamrohlar yana yoʻlga tushishdi. Ular togʻosti yoʻlini imkon qadar tezroq bosib oʻtishni xohlashayotgani bois charchashganiga qaramay bir necha soat tinmay yurishga tayyor. Gendalf ilgariqiday oldinda bormoqda. Chap qoʻliga u xira nur taratib, shuʼlasi oyoq ostiga arang yetayotgan aso, oʻng qoʻliga esa Glamdringni ushlab olgan. Uning ortidan Gimli bormoqda. Atrofga alanglayotgan gnomning koʻzi yarqirayotgani koʻrinib turibdi. Uchinchi boʻlib


o'zining qisqagina qilichi – Nishni yalang'ochlatib olgan Frodo ketyapti. Nish bilan Glamdringning tig'i qorayib ko'rinar ekan, hozircha xavotirga o'rin yo'q. Yaqin o'rtada orklar bo'lsa, qadimiy elf qurolsozlari yasagan ushbu qurollar sovuq tusda yorishish xususiyatiga ega. Frodoning izidan Sem, uning ortidan esa Legolas, yosh hobbitlar va Boromir odimlamoqda. Saf oxirida qoshini chimirib olgan Aragorn kelmoqda.

Yo'lak bir necha marta burilib, pastlay boshladi. Birmuncha vaqt chuqurlikka tushgan yo'lovchilar yana poli bir tekis yotqizilgan joyga chiqishdi. Havo og'irlashib, tobora qizib bormoqda-yu, lekin dim emas. Yo'lovchilarning yuziga vaqti-vaqti bilan ko'plab devor tirqishlaridan singib kirayotgan shabada urilmoqda. Sehgarning hassasi taratayotgan nur yuqoriga ko'tarilayotgan yoki keskin pastlab ketgan boshqa yo'laklar, zinalar-u, ravoqlarni xira yoritmoqda. Bunday joylar shunchalik ko'pki, hammasini eslab qolishning iloji yo'q.

Dovyurakligini hisobga olmagan Gimplining Gendalfga yordami tegmadi. Ammo boshqalardan farqli o'laroq, qorong'ilik uni tashvishga solmadi. Qaysi yo'ldan borish masalasida Gimplidan maslahat so'rayotgan Gendalf yakuniy qarorni o'zi qabul qilib bordi. Moriyaning tog' osti qismi Gloinning o'g'li, gnomlarning tog' irqiga mansub vakili bo'lmish Gimplining tasavvuridagi makonga nisbatan ancha keng, tuzilishi jihatidan nihoyatda murakkab ekan. Uzoq o'tmishda Moriyada o'tgan sarguzashti haqidagi xotira ham Gendalfga unchalik kor bermayapti, shunga qaramay u o'zaro chatishib ketgan yo'laklarda manzilga olib boradigan yo'lni to'g'ri topib ketyapti.

Jimjitlik odatdagidan uzoq cho'zildi, to'xtab qolgan Gendalf bilan Gimli o'zaro pichirlashmoqda. Qolganlar esa orqada bir yerga g'uch to'planib xavotir-la kutishmoqda.

- Tashvish tortmang! – tinchlantirdi Aragorn o'z birodarlarini. -- Men u bilan ko'p safarlarda bo'lganman, garchi bunday zimistonda uzoq yurishga to'g'ri kelmagan bo'lsa-da. Dorilomonda esa uning men ko'rmagan yanada katta, o'ziga xos qahramonliklari haqida gap yuradi. Gendalf hech qachon adashib



qolmaydi. Yo‘l bo‘lsa bas, albatta, topadi. Qo‘rqvimizga qaramay u bizni shu yergacha olib keldi, qanday bo‘lmasin, bu yerdan olib chiqadi. Uyga yo‘l topib borish borasida qirolicha Berutnelning mushuklari Gendalfning oldida ip esha olishmaydi.

Uzuk birodarligining yo‘lboshchi masalasida chindan ham omadi chopdi. Mash‘ala tayyorlab yoqqani hech narsa yo‘q. Jon ko‘zga shirin ko‘rinib qochishar ekan zaruriy narsalarni eshik ortida tashlab kelishdi. Yorug‘lik bo‘lmaganda adashib qolishlari muqarrar edi. Chunki bu yerda turli tuman yo‘lak va zinalardan tashqari, katta-kichik xandaqlar, tirqishlar, ichidan har bir bosilgan qadam aks-sado bo‘lib qaytayotgan o‘pirilgan joylar, pol va devorlarda kovaklar, keng yorilgan joylar ko‘p ekan. Ba‘zan oyoq ostidan eni yetti futdan kam bo‘lmagan tubsiz jarlik chiqib qoladi. Bunday joylardan sakrab o‘tish uchun Pinga har gal bor irodasini ishga solishga to‘g‘ri kelmoqda. Pastdan, juda chuqurdan tegirmon chig‘iri aylanib chiqarayotganday suvning shalpilayotgan shovqini eshitiyapti.

– Arqon kerak bo‘lib qolishi mumkinligini bilar edim, – po‘ng‘illadi Sem. – Olmabman.

O‘tish qiyin kechayotgan joylar tez-tez uchrab, hamrohlarning olg‘a ilgarilashi sustlashdi. Ba‘zan ular o‘zini tog‘ qa‘ridagi tuzoqqa tushib qolishganday his etishmoqda. Qattiq toliqqan sayyohlarga biroz dam olish xayoli taskin bermayapti. Suv maxluqining paypaslagichidan xalos bo‘lgan, biroz tamaddi qilib, dalda beruvchi ichimlikni ichgan Frodoning kayfiyati ancha ko‘tarilgan edi, hozir esa uning vujudini yana ishonchsizlik va qo‘rquv hissi qamrab bormoqda. Zaverti tepaligida Uzuk ruhi yetkazgan jarohatdan Dorilomonda batamom shifo topgan bo‘lishiga qaramay, yara asoratsiz qolmagan. Hissiyoti kuchayib, zohiran ko‘rinmas jismlarning mavjudligini his etmoqda. Frodo tabiatida yana bir o‘zgarish ro‘y berganiga e‘tibor qildi: balkim, Gendalf istisnodir-u, lekin uning qorong‘ilikda ko‘rish qobiliyati qolgan hamrohlarining bunday qobiliyatidan keskin o‘tkirlashdi. Uzuk qo‘riqchisi ekan bo‘yniga osilgan ushbu buyum tobora og‘irlashib borayotganday go‘yo. Oldinda



kutayotgan, ortda qolgan yovuz kuchni his etmoqda-yu, buni birovga aytmayapti. Qilichining sopini mahkam tutgan Frodo qoqilib-turtinib olib odimlamoqda.

Yo'lovchilar indamay ketishyapti, so'zlashganda ham pichirlab gapni qisqa qilishyapti. Ularning shovqinidan, xususan gnom Gimlining bashmog'i chiqarayotgan bo'g'iq tovush, Boromirning og'ir qadami, Legolasning yengil odimlashi, hobbitlarning yumshoq bosishi va uzun qadam tashlayotgan Aragornning qat'iy bosayotgan qadamidan tashqari boshqa birorta tovush eshitilmaydi. Bir fursat to'xtab atrofga quloq solishar ekan, nimanidir tirsillaganidan yoki qayerdadir suv tomishidan tashqari boshqa tovush eshitishmayapti. Ammo Frodo boshqa bir tovushni – kimningdir yalang oyog'i bosayotgan qadamni eshityapti yoki unga shunday tuyulyapti. Oxirigacha ishonch hosil qilish maqsadida tekshirish uchun ushbu tovush na balandlashadi na yaqinroq eshitiladi. Ammo sayyohlar o'z harakatini davom etar ekan, tinmaydi. Biroq bu sayyohlar qadamining aks-sadosi ham emas.

Ular tog' qa'riga tun qorong'isida kirishgan. Orada qisqa muddat dam olingan holatni hisobga olmaganda bir necha soat tinmay yurishdi. Mana endi Gendalf ilk bor jiddiy qiyinchilikka to'qnash keldi. Hamrohlarning yo'lidan chiqqan keng ravoqda uchta tunnel ochilgan. Uchala tunnel bitta umumiy yo'nalishda – sharq yo'nalishida ketgan. Biroq chap qo'ldagi tunnel pastga, chuqurga, o'ng qo'ldagi tunnel yuqoriga, tog' cho'qqisiga, o'rtadagi tor tunnel esa to'g'riga ketgan.

– Bunday joy bo'lganini hech eslay olmayapman, – dedi ravoq ro'parasida ikkilangancha to'xtagan Gendalf.

Biror bir belgi, ishora yoki ko'rsatma topish ilinjida hassasini baland ko'targan sehrgarning ko'zi hech nima ilg'amadi.

– Charchadim, biron-bir qarorga kelishim qiyin hozir, – iqror bo'ldi Gendalf boshini siltab. – Sizlar esa mendan battar charchagan bo'lsangiz kerak. Tunning qolgan qismini shu yerda o'tkazaylik. Tashqarida eski oy g'arb tomon og'di, bilasiz. Tun-

ning yarmidan ko'prog'i o'tib bo'ldi.

– Sho'rlik Bill! – yana esga oldi Sem. – Qayerda yuribdi ekan hozir? Bo'rilarга yem bo'lmagan, degan umiddaman.

Katta ravoqdan chap tomonda tosh eshik bor ekan. Qiya yopiq bo'lsa ham, salga ochilib, qoya o'yilib hosil qilingan kattagina xona ko'rindi.

– Shoshmang, hobbitlar! To'xtang! – baqirdi Gendalf, kengroq joyda bemaol oyoq uzatib dam olish ilinjida ichkariga kirayotgan Merri bilan Pinga. – Shoshmang! Ichkarida nima borligini bilmay kirmang. Dastlab meni o'tkazib yuboring.

Qolganlar ham Gendalfning ortidan ehtiyotlik-la ichkariga kirishdi.


– Mana! – dedi Gendalf, hassasi bilan pol o'rtasini ko'rsatib.

Oyoq ostida quduq og'zi ko'rindi. Uning atrofida tosh parchalari, majaqlanib zang bosgan, bir uchi quduq ichiga kirib ketgan zanjir bo'laklari sochilib yotibdi.

– Ikkalangizdan bittangiz mana bu quduqqa qulab, tubiga qachon yetib tushishingizni birov bilmas edi, – koyib berdi Aragorn. – Shuning uchun hamisha yo'l boshchining oldiga chiqmay, ortidan izma-iz yuring.

– Aftidan, bu yer anavi uchta yo'lni qo'riqlaganlar uchun qorovulxona vazifasini o'tagan ko'rinadi, – taxmin qildi Gimli. – Mana bu quduq esa suv manbai bo'lib, tosh qopqoq bilan yopilgan. Qopqoq esa, ko'rib turganingizday, urib sindirilgan. Bu esa ushbu zulmatda ehtiyot bo'lib yurishimiz kerakligini anglatadi.

Quduq Pinning qiziqtirib qo'ydi. Qolganlar yotib dam olish uchun ko'rpa-to'shagini quduq og'zidan imkon qadar narida, xona devori yaqiniga to'shash bilan ovora bo'lgan bir vaqtda, Pin emaklagancha quduq oldiga kelib, ichiga qaradi. Hobbitning yuziga tubsiz chuqurlikdan chiqqan sovuq havo kelib urildi. Qiziquvchanligi battar oshgan Pin qo'lga kirgan toshni olib, quduqqa tashladi. Quduqdan tovush chiqquncha hobbitning yuragi ancha urishga ulgurdi. Tosh keng g'orga tushganday bo'g'iq



tovush eshitildi.

– Nima edi u? – baqirib so‘radi Gendalf.

Pinning tushuntirishini eshitib yengil tortgan sehrgar-ning ko‘zi g‘azabdan chaqnadi.

– Ahmoq Tuk! – po‘ng‘illadi u. – Hobbitlarning Shirdagi ko‘ngil ochar sayrida emas, jiddiy safarda yuribsan. Kelasi safar toshni emas, o‘zingni tashlab yubor, xalal bermaysan. Endi jim bo‘linglar!

Keyingi bir necha daqiqa ichida boshqa hech qanday tovush chiqmadi. Ammo sal o‘tib quduq qa‘ridan taqillagan tovush eshitildi. Birozdan so‘ng taqillash to‘xtab, sal keyinroq aks-sado ham tindi. Ushbu taqillash allaqanday signalga o‘xshadi-yu, boshqa takrorlanmadi.

– Temirchining bolg‘asi edi u, – ma‘lum qildi Gimli. – Adashgan bo‘lsam, o‘lay agar, gnom emasman.

– To‘g‘ri, temirchining bolg‘asi, – ma‘qulladi Gendalf. – Va bu tovush menga yoqmadi. Chunki Peregrinning ahmoqona qilmishi o‘z xoliga qo‘yilishi kerak bo‘lgan narsani bezovta qilganining oqibati bo‘lishi ham, yoki bu tovushga daxli bo‘lmasligi ham mumkin. O‘tinaman, oyoq-qo‘lingizni tiyib o‘tiringlar, oz bo‘lsa ham betashvish uxlab olay. Pinni esa qilmi-shiga mukofot tariqasida hordig‘imizni muxofaza qiladigan navbatchi etib tayinlayman, – dedi u, adyolga o‘rangancha teskari o‘girilib.

Eshik oldida g‘amgin o‘tirgan Pin quduq tomon tinmay o‘girilib, nazarida, u yerdan hozir nimadir chiqib keladiganday qarab bordi. Quduq og‘ziga adyol tashlab qo‘ymoqchi bo‘ldi-yu, garchi Gendalf uxlayotgan bo‘lsa ham, qilt etishga jur‘at etmadi.

Aslida esa Gendalf qimirlamay yotgan bo‘lsa-da, mijja qoqqani yo‘q. Moriyada muqaddam o‘tkazgan kunlarining jami-ki tafsilotlarini eslashga urinib, harakatning keyingi yo‘nalishlari haqida o‘ylanib yotdi: noto‘g‘ri tanlangan yo‘l halokat-la yakun topishi muqarrar. Shu holatda bir soatcha yotgan sehrgar shartta o‘rmidan turdi-da Pining oldiga keldi.

– Bor bolam, anavi devor oldiga borib yot, – dedi u mu-



loyim ohangda. – Uyqung kelganini ko‘rib turibman, bora qol. Men esa uyqumni topa olmayapman. Shu bois, o‘zim qorovullik qilaman. Biroz chekib olishim kerak. Ertalab qor bo‘ronidan oldin chekkanim bo‘yicha tutanganim yo‘q.

Uyquga ketar ekan, kekxa sehrgarning qorong‘ilikda bukchaygan qomati, trubkasining sarxonasidagi kafti bilan to‘sgan cho‘g‘i va cho‘g‘ shu‘lasi yoritgan burnining uchi-yu, tutun pag‘asi Pining ko‘rgan oxirgi narsasi bo‘ldi.

Hammaga to‘yib uxlash imkonini bergan Gendalf olti soat o‘tib hamrohlarini uyg‘otdi.

– Kelgusi harakat yo‘nalishi borasida bir qarorga keldim, – ma‘lum qildi u. – O‘rta yo‘l menga yoqmayapti. Chap yo‘l ham yoqmadi, chunki u bizni pastga olib tushadi. Men o‘ng qo‘ldagi yo‘lakni tanladim. Biz yana yuqoriga ko‘tarilamiz.

Ikki marta qisqa muddatli to‘xtalishni hisobga olmagan-da sayyohlar zimistonda yana sakkiz soat tinmay yurishdi. Bunda, ularga birorta xatar yo‘liqmadi, hech qanday tovush eshitilmadi, ko‘zlari sehrgarning oldinda suzib ketayotgan o‘ynoqi chiroqcha kabi xira yorishayotgan hassasidan tashqari, hech narsa ilg‘amadi. Tanlangan yo‘l faqat yuqoriga ko‘tarilyapti. Fahmlashlaricha, ushbu yo‘l yirik tog‘ g‘orlari orqali o‘tmoqda. Ikki tomonga ochilgan yo‘lak ravoqlari yo‘q, tekis pol yaxshilab silliqlangan bo‘lib, o‘ydin-chuqur joylar uchramayapti. Aftidan, bu bir zamonlar muhim yo‘llardan biri bo‘lgan, ko‘rinadi. Sayyohlarning yurishi oldingiga nisbatan ancha ilgari-  
riladi.

Uzuk birodarligi sharq tomon to‘g‘ri yo‘nalishda taxminan yigirma milyacha yurdi. Yo‘l yuqoriga ko‘tarilgan sari Frodoning kayfiyati ham ko‘tarilib bordi, ammo ruhan ezilayotganini his etish barobarida anavi yumshoq oyoqning orqada odimlab, yetishib yurayotganini eshitib kelyapti. Hech qanday aks-sado emas, haqiqiy qadam tovushi u.

Hobbittlar qancha vaqt dam olmay yurishga qodir bo‘lsa, qolganlar ham shuncha vaqt yurishdi. Yotib, biroz mizg‘ib olish haqida gap ochilgan ediki, tog‘ osti yo‘lagining o‘ng va chap

tomonidagi devorlari kutilmaganda yo'qoldi. Allaqanday ravoqdan o'tishlari bilan zimiston hukm surgan bo'm-bo'sh xonaga kirib qolishdi. O'rtda qolgan yo'lak havosi iliq, mana bu xona havosi esa sovuq.

Hamma bir yerga g'uch to'plandi. Gendalf nimadandir mamnun.

-- Yo'lni to'g'ri tanlagan ekanman, -- dedi u. -- Nihoyat biz tog' osti makonining istiqomat qismiga, tog' tizmasining sharq tomoniga yaqin joyga yetib keldik. Lekin biz, adashmasam, juda tepadamiz, Dimrill darvozasidan ancha yuqoridamiz. Xona havosidan bilinib turibdi katta zalga kirib qolganimiz. Endi tavakkal qilib, uni biroz ko'proq yoritishim mumkin.

Gendalfning baland ko'tarilgan hassasidan yashinga o'xshash yorqin shu'la taraldi. Yirik ko'lankalar har tomon chekinib, sayyohlar bosh ustida toshdan yo'nilgan ko'p ustunlar tutib turgan keng shiftni ko'rishdi. Ular chindan ham ikki tomonga keng cho'zilgan, sayqal berilgan qora devori oynaday yarqirayotgan ulkan zalga kirib qolishgan. Bu yerda sayyohlar kirib kelgan ravoqdan tashqari yana uchta ravoq bo'lib, ulardan biri sharq tomon olib chiqar ekan. Shu'la o'chib, atrof yana qorong'ilashdi.

-- Qo'limdan kelgani hozircha shu, -- dedi Gendalf. -- Yuqori qavatlarda tog' bag'riga, ya'ni yorug'likka olib chiqadigan katta eshik va derazalar bor. O'ylashimcha, o'sha qavatlarga yetib keldik. Biroq tashqarida hozir tun bo'lib, ertalabgacha aniq bir nima deyish qiyin. Agar men haq bo'lib chiqsam, ertalab tong yorug'ini ko'ramiz. Hozir esa harakatimizni to'xtatib, imkon boricha dam olamiz. Shu vaqtgacha safarimiz yomon kechmadi, qorong'i yo'lning asosiy qismi ortda qoldi. Lekin biz tashqariga hali chiqqanimiz yo'q, tashqi dunyoga olib chiqadigan darvozaga hali ancha bor.

Uzuk birodarligi yelvizak yo'lida qolmaslik uchun katta zal burchaklaridan biriga joylashdi. Yer ostida hukm surgan cheksiz, kimsasiz zimiston bilan yolg'izlik sayyohlarga zulm qilayotganday go'yo. Hobbitlarning yurtiga yetib borgan eng

qoʻrqinchli mish-mish gaplar ham haqiqiy Moriyaning dahshati-yu, moʻjizasi oldida ertakday tuyular ekan.

– Aftidan, bu yerda bir zamonlar koʻpdan koʻp gnom yashagan koʻrinadi. Qattiq qoyada mana bularning barini oʻyib yasash uchun ularning har biri boʻrsiqdan koʻp mehnat qilgani aniq, – fikr bildirdi Sem. – Maqsad nima boʻlgan oʻzi? Nahotki ular ushbu zulmat-u, zimistonda, anavi oʻydim-chuqurlikda yashashni orzu qilishgan boʻlsa?!

Bu yer shunchaki oʻydim-chuqurlik emas, Buyuk gnomlar qirolligi-yu, azim shahri sanaladi, – eʼtiroz bildirdi Gimli. – Qadimda bu yerda zulmat emas, ajdodlar qoʻshiqclarida aytilgandek, roʻshnoluk hukm surib, hashamat savlat toʻkkan.

Kutilmaganda oʻrnidan turib qoʻshiq boshlab qolgan gnomning ovozi katta zal shiftidan aks-sado ila qaytdi.

Gimlining qoʻshigʻi gnomlar qiroli Dyuringa bagʻishlangan boʻlib, bir zamonlar oʻsha podsho birov nom bermagan yerlarga oʻzi nom berib chiqqani, unsiz baland togʻlarning buloq suvini birinchi boʻlib oʻzi ichgani, oʻsha kun gnomlar tarixida Dyurin kuni deb atalishi haqida boʻldi. Qoʻshiqda aytilishicha, Dyurinning saroyi billur bilan bezatilgan, toshdan yoʻnib yasalgan taxti esa saroy ustunlari orasida jimjimaday koʻrk toʻkkan. Zalga kirish eshikclariga qadimgi runa yozuvida saltanat tamoyillari bitilgan. Ushbu qoʻshiqda, shuningdek, Dyurin zamonida hayot quvnoq kechgani, oʻymakor naqqoshlar sanʼat moʻjizasini koʻrsata bilishgani, temirchilarning oʻchogʻi biror kun boʻlsin oʻchmay, bolgʻalari tinmay sandon taqillatgani, rizq barakali boʻlgani, xazina kundan kunga oltin, kumush, javohirotlar uyumiga toʻlib borgani, sergʻayrat gnom xalqi tinim bilmay mehnat qilgani, togʻ ostida arfa<sup>1</sup> chalib, quvnoq qoʻshiq kuylagani tarannum etilgan. Kutilmaganda yer ostidagi olovli ofat – Balrog uygʻonib hamma yoqni yakson qilib, yondirgan. Kunpayakun boʻlgan saltanat oʻrnida jimjitlik hukm surib, togʻ chuqur uyquga ketgan. Dyurinning shavkatli xonadoniga putur

---

<sup>1</sup> Arfa (*nemischa*) – uchburchak shaklidagi qadimiy koʻp torli tirnama musiqa asbobi.

yetgan, asr ketidan asr o'tib dunyo eskirgan, tog' qa'ridagi ko'lda endi hilol aksigina qolgan. Biroq rivoyatlarga ko'ra, Moriyada, Kazad-Dumdagi birov bilmas tosh ostida Dyurinning qirollik toji hamon o'z sohibiga sadoqatini saqlagancha yotibdi. Kun o'tib bir kun o'sha toj sohibi topilib keladi. Uyquga ketgan tog' osti dunyosi uyg'onib yana quvnoq hayot boshlanadi, daryo o'zani suvga to'ladi, lira<sup>1</sup> tovushi yangrab, davrani skripkachilar qizdiradi.

– Qo'shig'ing yoqdi menga, yodlab olishim kerak ekan. Moriyada, Kazad-Dumdagi birov bilmas tosh ostida degin? – so'radi Sem. – Bu yerni yoritish uchun kerak bo'ladigan fonuslar soni haqida o'ylasang, zimiston yanada og'irlashib ketganday tuyuladi. Qo'shiqda aytilgan oltin, kumush, javohirotlar hozir ham yotibdimikan, bu yerda?

Qo'shig'ini tugallagan Gimli ortiq so'z aytmadi.

– Javohirotlar uyumini so'rayapsanmi? Yo'q, orklar Moriyani tez-tez talon-toroj qilib borishgan, – ma'lum qildi Gendalf. – Bu yerda, yuqori qavatlardagi zallarda hech narsa qolmagan. Gnomlar Moriyani tark etgan zamonlardan buyon tog' tagida xazina qidirishga hech kim jur'at etmagan. Bu yerda borki boylik suvga yoki qo'rquv ko'lankasiga g'arq bo'lgan.

– Gnomlar nima maqsadda qaytishmoqchi bu yerga? – so'radi Sem.

– Mitril tufayli, – javob berdi Gendalf. – Gnomlarning boyligi aslida oltin, kumush yoki javohirotidan, o'yinchoqsoz gnomlar mehnatining mahsulidan, usta-temirchilari yasagan har xil buyumlar yoki ular ko'rsatadigan xizmatlardan iborat emas. To'g'ri, bularning barini, ayniqsa, temir rudasini ular shu yerda topishgan, shu yerda yasashgan, ammo buning uchun ularga bunday chuqur kon qazish shart bo'lmay, kerakli xomashyoni savdo-sotiq vositasida qo'lga kiritishlari mumkin edi. Gap shundaki, Moriya kumushi yoki ba'zilarning ta'biri ila aytganda sof kumush faqat va faqat shu yerdan chiqadi, xolos. O'sha kumush

---

<sup>1</sup> Lira -- Yunonlarning chertib chalinadigan torli musiqa asbobi.


elf tilida mitril deb ataladi. Unga gnomlar tomonidan berilgan nom hech kimga ma'lum emas. Bir zamonlar mitril oltindan o'n chandon qimmat bo'lib, bugungi kunda uning bahosi yo'q. Bunday kumush yer yuzida deyarli qolmagan. Uni bu yerda qazib chiqarishga hatto orklar ham jur'at eta olmaydi. Tog' jinsining bunday tomirsimon yorig'i shimolga, Karadras tomonga cho'zilgan bo'lib, tog'ning chuqur qa'riga tushib ketgan. Gnomlar bu haqda gapirishmaydi, zero mitril gnomlar boyligining asosini tashkil etish bilan bir vaqtda ularning halokatiga ham sabab bo'lgan. Chunki gnomlar tog' ostiga haddan ortiq chuqur kirib, ularni barini yurtdan quvib solgan dushman – Dyurinning boshiga tushgan olovli balo sanalgan mudhish maxluqni uyg'otib yuborishgan. Gnomlar qazib chiqargan mitrilning deyarli hammasi orklarga nasib qildi. Orklar esa uni, o'z navbatida, mitrilga tashna bo'lgan Sauronga o'lpon tariqasida topshirishdi.

Faqat Saurongina mitrilga katta qiziqish bildirmagan! Mitrilni kumush sifatida bolg'alash ham, oynaga sayqal berilgandek jilolash ham mumkin. Usta gnomning qo'lida u toblangan po'latdan ham pishiq, nihoyatda yengil metallga aylanadi. Mitril kumushday chiroyli bo'lib, oddiy kumushdan farqli o'laroq, hech qachon zanglamaydi, ko'rki hech qachon xira tortmaydi. Elflar mitrilni juda yoqtirib, undan Oy-yulduzli Itildin tayyorlashda foydalanishgan. Uni toqqa kirish eshigida ko'rdingiz. Torin Bilboga mitril halqalaridan terilgan sovut hadya etgan edi. Qiziq, o'sha sovut qayerda ekan hozir? Mikel-Delvinning Yerqazir qishlog'idagi Musomlar Uyida hamon chang bosib yotgan bo'lsa kerak.

– Nima? – tilga kirdi Gimli. – Moriya kumushidan yasalgan sovut-a?! Shohona tuhfa bo'lgan ekan!

– Darhaqiqat, – ma'qulladi Gendalf. – Bilboning o'ziga hech aytmagan edim-u, lekin chindan ham uning sovuti butun boshli Shir o'lkasi-yu, unda mavjud boylıklardan ham ancha qimmat turadi.

Frodo indamay qo'lini nimcha ostiga suqib, sovutini paypaslab qo'ydi. Egnida Shirning narxidan qimmat narsa kiyib





yurganidan hayratlandi. Bilbo bilarmidi buni? Bu borada u zig'irday bo'lsin, ikkilanmagan. Chunki o'shanda u chindan ham shohona sovg'a olganini bilgan. Frodoning fikr-xayoli mana bu tog' osti zulmatini tark etib, Dorilomonda o'tirgan Bilboning hujrasiga, u yerdan esa Bilbo bilan birga yashagan davrdagi Beg-Endga ketdi. Qaniydi hozir Frodo o'sha kunlarga, mana bu Moriya, egnidagi mitril, yonidagi Uzuk haqida hech narsa eshitmay, bilmay, yaylovda maza qilib sayr qilib yurgan davrga tushib qolsa.


Oraga jimjitlik cho'kdi. Sayyohlar birin-ketin uyquga ketishdi. Navbatchilik qilayotgan Frodoning yuziga noma'lum chuqurlikdan chiqib, ko'rinmas eshik orqali o'tgan qo'rquv shabada'si esganday bo'ldi. Hobbitning qo'li muzday sovib, peshanasi jiqqa ho'l bo'ldi. Atrofga diqqat-la quloq tutgan Frodo shu ahvolda ikki soatcha o'tirdi. Biroq hech qanday tovush chiqmadi, hatto tasavvuridagi poyabzalsiz oyoqning yumshoq bosgan qadami ham eshitilmadi.

Navbatchilik vaqti nihoyasiga yetar ekan, ko'zi g'arb tomondagi ravoq yaqinida yorug'likning xira shu'lasini ilg'adi. Boshini xam qilib o'tirgan Frodo seskanib ketdi. «Navbatchiligimda uxlab qolishimga sal qolibdi», xayoldan o'tkazdi u. Ko'zini yaxshilab uqalab olgan Frodo, to Legolas kelib almash-tirmaguncha, qorong'ilikka tikilib turdi.

Frodo tez uxlab qoldi-yu, nazarida, tushi davom etib, birovning pichir-pichirini eshitayotganday, anavi ikkita yorug'dog' tobora yaqinlashayotganday bo'ldi. Uyg'ongan Frodo she-riklarining pichirlashayotganini, ikkita xira shu'la yuziga tushganini ko'rdi. Sharq tomondagi ravoq yaqinida tom tirqishi bo'lib, undan xira yorug'lik nuri tushmoqda.

Frodo yotgan o'rniga o'tirib oldi.

– Xayrli tong! – ko'rishdi Gendalf. – Chunki, haqiqatan ham, tong otdi. Ko'rib turganingizday, men yana haq bo'lib chiqdim. Biz juda balandda, Moriyaning sharqidamiz. Kun oxirigacha chiqish yo'lini topib, Dimrill vodiysidagi Ko'zgu ko'lini ko'ramiz.



– Yaxshi bo‘lar edi, – dedi Gimli. – Moriyani ko‘rdim. Chindan ham u bir zamonlar juda serhasham bo‘lgan ekan, lekin, afsuski, endi unda dahshat va zulmat qaror topgan. Qarindoshlarimning izi ham ko‘rinmaydi. Balin bu yerga yetib kelganiga shubha qilib qoldim.

Nonushtadan so‘ng Gendalf zudlik bilan yo‘lga chiqishga ahd qildi.

– Biz juda toliqqanmiz, bilaman, lekin tashqariga chiqib dam olishga nima yetsin, – dedi u. – Ishonchim komilki, biror-tangiz yana bir kecha Moriyada tunashni istamaysiz.

– Yo‘q, albatta, – dedi o‘rmidan turgan Boromir. – Qaysi yo‘ldan boramiz? Sharqiy ravoq orqali chiqamizmi?

– Ehtimol, – javob berdi Gendalf. – Ammo hozir qayerda turganimizni aniq bilmayman. O‘ylashimcha, darvoza ustida, biroz shimol tomondamiz. Chiqish yo‘liga eltadigan to‘g‘ri yo‘lni topish biroz qiyin kechishi mumkin. Balkim, sharqiy ravoq chindan ham to‘g‘ri yo‘lga eltar, lekin oldin tevarak-atrofnii ko‘zdan kechirib chiqamiz. Shimol tomondagi anavi yorug‘lik tomon yuraylik-chi. Deraza topsak, ishimiz yengillashadi, ammo yorug‘lik shu‘lasi deraza emas, chuqur darz ketgan joylar orqali singib kirayotgan bo‘lsa kerak.


Hamma Gendalfning ortidan ergashib, shimoliy ravoq tomon odimladi. Bu yerda keng yo‘lak bor ekan. Yo‘lak oxirida yorug‘lik kuchayib, o‘ng qo‘ldagi eshikdan chiqayotgani ko‘rindi. Qiya ochiq eshik baland bo‘lib, oshiq-moshig‘i hali butun ekan. Eshik orqali kvadrat shaklidagi xira yoritilgan katta xona ko‘rindi. Xira bo‘lsa ham, ushbu yorug‘lik ko‘pdan buyon qorong‘ida yurgan yo‘lovchilarning ko‘zini qamashtirib, ostonada to‘xtashga majbur qildi.

Xonaga birin-ketin kirayotgan hamrohlar ostonaga yaqinidagi qalin chang ostida yotgan buyumlarga qoqinishdi. Qanaqangi buyum ekanini ular dastlab fahmlashmadi. Xona sharqiy devordagi tirqish orqali singib kirayotgan shu‘ladan hamda shiftdagi moviy osmon ko‘rinayotgan kvadrat shaklidagi kichkinagina tuynukdan tushayotgan nurdan yorishgan. Ushbu tuynuk-

dan tushayotgan nur xona o'rtasidagi bo'yi ikki futcha keladigan biroz cho'zinchoq tosh stol ustiga tushmoqda. Stol ustida oq rangli kattagina tosh taxta yotibdi.

– Qabrga o'xshaydi, – taxmin qildi Frodo, qiziquvchanlik-la engashib.

Frodoning yoniga kelgan Gendalf tosh taxtaga yo'nib bitilgan yozuvni ko'rdi.



– Moriyada qadimdan qo'llanilgan daeron runasi bu, – ma'lum qildi sehrgar. – Oddiy odamlar bilan gnomlar tilida yozilibdi.

*«Fandinning o'g'li Balin, Moriya hukmdori»*

– O'lgan ekan-da, – xulosa qildi Frodo. – Men shundan qo'rqan edim.

Qaytarma qalpog'ini boshiga tashlagan Gimli yuzini yashirdi.

## KAZAD-DUM KO'PRIGI

Hamma Balinning qabri oldida tek qotdi. Frodo hozir Bilbo haqida o'ylab, amakisining gnomlar bilan ko'pdan buyon do'st tutinganini, Balinning ko'p yillar muqaddam Shirga, Beg-Endga tashrif buyurganini esladi. Biroq unga tog' qa'ridagi qalin chang bosgan mana bu xonada esga olingan o'sha kunlar minglab yillar muqaddam va mutlaqo boshqa dunyoda o'tganday tuyuldi.

Nihoyat hamrohlar xayolni yig'ib, Balin va uning odamlariga nima qilganiga shama qiladigan dalillarni o'rganishga kirishdi. Xonaning narigi tomonida kichkina eshik bor. Ikkala eshik orasida singan qilichlar, darz ketgan qalqonlar, dubulg'alar va jangovar tig'-u tabarlarga<sup>1</sup> aralashib ketgan suyak uyumlari yotibdi. Ayrim qilichlar egilgan bo'lib, ma'lum bo'lishicha ular orklarning tig'i qoraygan egri qilichlari ekan.

Devorda o'yilgan mehrob va tokchalar ko'p, ularda sirtiga temir qoplangan katta-kichik yog'och sandiqlar turibdi. Ushbu sandiqlarning bari urib sindirilgan bo'lib, bittasining yonidan titib tashlangan kitobning nisbatan butun qismi topildi. Qilich bilan zarba berilib, nayza teshgan ushbu kitob qisman yongan, sahifalariga to'kilgan qon dog'i qalin bo'lib, ularga bitilgan jummalarni o'qish oson kechmasligi aniq. Gendalf ehtiyot-la qo'lga olgan kitob varaqlari qarsillab, darz keta boshladi. Sehrgar kitobni darhol yoruqqa, qabr ustidagi tosh taxtaga qo'yib, asta varaqlagancha, ovoz chiqarmay mutolaa qilishga kirishdi. Uning yonidagi Gimli bilan Frodo esa runalari har xil dastxatlar-la bitilgan kitob sahifalari ehtiyot-la varaqlanishini tomosha qilib turishdi. Kitob matnini bitishda Moriya va Deyl runalari qo'llanilgan bo'lib, ba'zan elf belgilari ham uchramoqda.

– Balinga ergashib kelgan xalq qismatiga doir qayd-

<sup>1</sup> Tabar – yarim doira shaklidagi boltasimon qurol.

noma-larga o'xshaydi bu, – kitobdan boshini ko'tardi nihoyat Gendalf. – Kitobdagi yozuvlar taxminan o'ttiz yil muqaddam, Dimrill vodiysiga yetib kelingan vaqtdan buyon yuritila boshlangan. Ushbu kitob sahifalarining asosiy qismi Moriyaga yetib kelgandan keyin o'tgan dastlabki yillarga bag'ishlangan. Yuqoridagi sahifa «1.3» raqami bilan belgilangan. Demak, boshidagi kam deganda ikki sahifa yo'qolgan. Mana, quloq soling:


«Orklarni katta darvoza va qorovulxonadan quvib...». Keyingi so'z kuygan, aftidan, «soldik» so'zi bitilgan bo'lishi kerak. «Ularning aksariyatini kunning yorug'ida, vodiy hududida...». Bu yerda «qirdik» so'zi bo'lgan, shekilli. «Floyzni kamon o'qi halok qildi, biroq oldin u o'ta yirik...». Keyingi satr dog' ostida, o'qib bo'lmaydi. Sal pastroqdagi satrni o'qishim mumkin. Unda: «Shimol tomondagi yigirma birinchi zalni dushmanidan batamom tozalab, shu yerga ko'chib o'tdik. Bu yerda...» degan so'zlar bitilgan. Keyingi so'zlarni o'qib bo'lmaydi. Navbatdagi jumla: «... Balin o'z taxtini Mazarbul zaliga o'rnatdi...»

– Solnoma yozish uchun ajratilgan qo'shiq, – ma'lum qildi Gimli. – O'ylashimcha, hozir biz aynan o'sha xonada turibmiz.

– Bu yog'ini o'qish qiyin, – dedi Gendalf. – Mana bu «tilla», «Dyurin boltasi» va «dubulg'a» so'zlaridan tashqari. Mana bu yerda esa: «Balin qidirgan narsasini topib, Moriya hukmdoriga aylandi...», deb yozilibdi. Bu solnoma bobining yakuniga o'xshaydi. Ancha joy o'tkazilib boshqa dastxat bilan «Biz sof kumush tomirini topishga muvaffaq bo'ldik...». Keyingi jumlaning «oson eriydigan» so'zi butun qolibdi, xolos. Yana nimadir... Ha, tushundim! «Mitril» deb yozilgan. Oxirgi ikki satrda: «Chuqurlikning uchinchi sathida bekitilgan qurol-aslaha qidiruviga...». Keyingi so'z «... sharq tomon yo'l oldi». Katta dog' «Xollin darvozasi yaqinida».

Jim bo'lib qolgan Gendalf solnomaning yana bir necha sahifasini indamay mutolaa qilib chiqdi.

– Ushbu sahifalardagi ma'lumotlar ham apil-tapil yozilgan, ularga ancha ziyon yetgan, – ma'lum qildi sehrgar. – Xira



yoritilgan joyda o'qish qiyin kechyapti. Kitobning yana bir nechta varag'i yo'q, chunki keyingi sahifa «besh» raqami bilan boshlanyapti. Menimcha, bu Moriyada boshlangan hayotning beshinchi yilini anglatadi. Ko'ramiz! Yo'q, haddan ortiq ziyon yetgan bu kitobga. Yaxshisi, quyoshga chiqib o'qiymiz. Shosh-mang! Ha, elf imlosi bilan aniq yozilgan qayd bor ekan mana bu yerda.

– Orining dastxatiga o'xshaydi, – dedi sahifaga diqqat-la qaragan Gimli. – Elf runasi bilan ishonchli va tez yozar edi u.

– Afsuski, yaxshi xabar qoldirmabdi Ori. Yozgan jumlasining birinchi so'zi «Musibat»dan boshlanibdi. «...echa», ha, tushunarli «kecha». Davomi quyidagicha ketgan: «... o'ninchi noyabr kuni Moriya hukmdori Balin Dimrill vodiysida halok bo'ldi. Tosh ortiga bekinib olgan ork Ko'zgu ko'lini ko'zdan kechirishga yolg'iz o'zi chiqqan hukmdorga zarba beribdi. Biz u orkni topib o'ldirdik, albatta, lekin ularning aksariyati... Sharqdan, Silverlound daryosidan...» Sahifaning qolgan qismiga qalin dog' tekkan. Faqat mana bu so'zlarni o'qish mumkin: «Eshikni yopib qo'ydik». Keyingi so'zlar: «Qo'lda saqlab qolamiz, agar». Undan keyin «dahshatli» va «azob-uqubat». Sho'rlik Balin! O'z maqomini besh yildan ortiq saqlay olmagan ko'rinadi u. Keyin nima bo'ldi ekan? Ammo qolgan sahifalarni varaqlab, o'qib o'tirishga vaqtimiz yo'q. Shuning uchun kitobning eng oxirini o'qiymiz.

Biroz jim bo'lib qolgan Gendalf og'ir xo'rsindi.

– Oson emas bunday narsalarni o'qish, – dedi u nihoyat. – O'limi dahshatli kechgan ko'rinadi ularning. Eshiting! «... tashqariga chiqa olmayapmiz. Ular ko'prik bilan ikkinchi zalni egallab olishgan. Bu yerda Frar, Loin va Nali halok bo'lishdi». Keyingi to'rtta satrni o'qib bo'lmaydi, faqat mana bu «Besh kun muqaddam chiqib ketishgan edi» so'zlarini o'qish mumkin. Va so'nggi satrlar: «G'arbiy darvoza oldidagi ko'l. Suvda kutayotgan maxluq Oinni tutib oldi. Endi chiqa olmaymiz. Kunimiz bitganiga shubha yo'q». Shundan so'ng «Chuquqlikda yangrayotgan do'mbira». Buni qanday tushunish kerak ekan? O'qisa

bo'ladigan so'nggi so'zlar «Ular kelishyapti...». Bo'ldi, boshqa hech nima yozilmagan.

Jim bo'lib qolgan Gendalf o'yg'a toldi. Xonada hukm surgan o'lik dahshat Uzuk birodarligining ham vujudini qamrab oldi.

– Endi chiqa olmaymiz... – po'ng'illagancha takrorladi Gimli. – Xayriyatki, bizning kelishimizga ko'l suvi biroz chekinib, unda kutayotgan maxluq suv havzasining janubida uxlayotgan ekan.

Gendalf boshini ko'tarib, atrofga alangladi.

– Aftidan, so'nggi jang aynan shu yerda, ikkala eshik o'rtasida bo'lib o'tgan ko'rinadi, – xulosa qildi u. – Lekin bizning tashrifimizgacha deyarli hech narsa qolmagan. Moriyani qaytarib olishga urinish mana shunday fojiali yakun topgan! Mardlarga xona ammo bemulohaza urinish, bemavrid qilingan ish bo'lgan. Endi esa Fandinning o'g'li Balin bilan vidolashish vaqti yetdi. U o'z yotdolarining zalida joy topibdi. Biz mana bu Mazarbul kitobini o'zimiz bilan olib ketib, qo'l bo'shaganda diqqat bilan o'rganib chiqamiz. Ushla, Gimli, uni ehtiyot qilib, imkon boricha Deynga eltib ber. Dilini shikasta qilsa ham, tog' osti qiroliga qiziq bo'ladi ushbu kitob. Qani, yuringlar! Tong o'tyapti.

– Qay tomon yuramiz endi? – so'radi Boromir.

– Katta zalga qaytamiz, – javob berdi Gendalf. – Lekin, ko'rib turganingday, bu yerga kelganimiz foydasiz bo'lmadi. Qayerda yurganimizni endi men aniq bilaman. Gimli eslatib o'tgandek, bu yer Mazarbul xonasi, biz yotgan katta zal esa shimol tomondan sanaganda yigirma birinchi xona sanaladi. Demak, biz uning sharqiy ravog'idan chiqib, o'ngga, janub tomon burishimiz va pastga tushishimiz kerak. Chunki yigirma birinchi xona yettinchi qavatda, darvozaxonadan boshlab sanalganda oltinchi qavatda joylashgan. Ketdik, ortga, katta zalga qaytamiz!

Gendalfning gapi tugamay nimadir momaqaldiroqday qattiq gumburladi – GUM. Tovush qayerdandir pastdan, ancha chuqur joydan chiqdi. Oyoq ostidagi toshlar titradi. Yo'lovchilar eshik tomon intildi. GUM, GUM yana yangradi tovush. Kim-

ningdir bahaybat qo'li Moriya g'orlarini ulkan do'mbiraga aylantirib olganday go'yo. Shundan so'ng boshqa tovush eshitildi – katta zalda burg'u yangradi. Unga javoban olis-olislardan boshqa burg'ular va bo'g'i qiy-chuvlar yangradi. Ko'plab oyoqlarning dupur-dupuri eshitildi.

– Ular kelishyapti! – xitob qildi Legolas.

– Endi chiqa olmaymiz, – kitobdan iqtibos keltirdi Gimli.

– Tuzoqqa tushibmiz! – ovoz ko'tardi Gendalf. – Nega ushalib qoldim o'zi men bu yerda? Anavi murdalar singari biz ham qo'lga tushdik. Xo'p, mayli, ular qo'lga tushganda men yo'q edim. Qani, endi ko'ramiz...

GUM, GUM yangradi do'mbira tovushi. Xona devori zir titradi.

– Eshikni yoping, tosh tiraymiz! – baqirdi Aragorn.

– Yo'q! – e'tiroz bildirdi Gendalf. – Sharqiy eshik ochiq qolishi kerak. Biz chekinadigan yagona yo'l – o'sha eshik.

Burg'u tovushi-yu, baqir-chaqir yanada baland yangradi. Yo'lakda yugur-yugur bo'lyapti. Uzuk birodarligi bir vaqtda qilich yalang'ochladi. Glamdring xira yorishdi, Nish esa cho'g'da qizdirilganday yaltiradi. Boromir yelkasi bilan g'arbiy eshikni itarib yopishga kirishdi.

– Shoshma, yopmay tur, bir daqiqa! – dedi Boromirning yoniga yugurib kelib, qaddini rost tutib olgan Gendalf. – Moriyaning hukmdori Balinning tinchini kim buzyapti? – o'shqirdi u.

Unga javoban xirildoq ovozda xandon yangradi. Chuqur xandaqqa tosh to'kilganday bo'ldi. Kimdir chiyildoq ovozda qo'shin boshqarmoqda. GUM-GUM yangradi do'mbira tovushi.

Eshik yopilib, hosil bo'lgan tor tirqish oldida turib olgan Gendalf qo'lidagi aso uchini tashqariga chiqardi. Yorug'lik chaqmog'i xona bilan yo'lakni yoritdi. Sehrgar boshini tashqariga chiqarib qaradi. Kamon o'qlari chiyillagach, orqaga tislandi.

– Orklar, juda ko'pchilik, – ma'lum qildi Gendalf. – Ular bilan Mordorning yirik, juda badjahl qora trollari ham bor. Yorug'lik shu'lasidan chekinishdi, lekin u yerda yana nimadir bor. Bahaybat g'or trolliga o'xshatdim. U ham yolg'iz emas. Bu



yoʻldan qocha olmaymiz.

– Narigi eshik tomondan ham kelishadigan boʻlishsa, bu yerdan umuman chiqa olmaymiz, – fikr bildirdi Boromir.

– Yoʻq, bu tomon hozircha jim, – maʼlum qildi sharqiy eshik oldida turib, tashqariga quloq tutayotgan Aragorn. – Bu tomondagi yoʻlak pastga, zina tomon tushgan. Aftidan, ortga, katta zalga eltmaydigan koʻrinadi. Qay tomon ketayotganingni bilmay qochish ham gʻalati kechadi, boz ustiga ortingdan birov taʼqib qilib borsa. Eshikni yopib qoʻya olmaymiz. Kalit yoʻq, qulf buzuq, eshik tavaqalari esa ichkariga ochiladi. Dastlab dushmani toʻxtatish kerak. Biz ularga Mazarbul xonasidan hayiqish kerakligini oʻrgatib qoʻyishimiz lozim, – dedi u, qoshini chimirib olganicha Andril qilichining tigʻini koʻzdan kechirib.

Yoʻlakda ogʻir bosilayotgan qadam tovushi eshitildi. Boromir eshikni kuchi boricha turtib yopti-da, murdalarning singan qilichlari-yu, qoʻliga kirgan yogʻoch boʻlaklari bilan ponalab tambaladi. Uzuk birodarligi narigi devor tomon chekindi. Qattiq zarbadan eshik zir titradi. Ponalar asta ochila boshlagan eshikdan har tomon sochilib uchdi. Tobora kengayib borayotgan tirqishdan katta, teri qoplamasi qop-qora, toʻq yashil tangachalar qoplangan qoʻl kirib keldi. Pastda esa barmoqsiz ulkan oyoq koʻrindi. Tashqarida oʻlik jimjitlik qaror topgan.

Oldinga sakragan Boromir katta qoʻlga qilich bilan qattiq zarba berdi. Jaranglagan qilich Boromirning titrab ketgan qoʻlidan uchib chiqdi. Qurol tigʻida kertik paydo boʻldi.

Frodo vujudini qoʻrquv emas, gʻazab qamrayotganidan oʻzi hayratlandi.

– Shir uchun! – kutilmaganda baqirdi u va Boromirning yoniga yugurib kelib engashganicha, qoʻlidagi Nishni anavi jirkanch oyoqqa sanchib yubordi.

Tashqaridagi maxluq ogʻriqdan naʼra tortib, oyogʻini nari tortdi. Frodo sugʻurib olishga bazoʻr ulgurgan Nish uchidan yerga tomgan qora qon tutab ketdi. Boromir eshikka tashlanib, yana yopib qoʻydi.

– Shir foydasiga bir-u, nol! – xitob qildi Aragorn. – Hob-




bitning tishi chuqurgina kirdi-yov! Yaxshi qiliching bor ekan, Drogoning o'g'li Frodo!

Eshikka tashqaridan yana zarba berildi. Aftidan, boltalar-u, bolg'alar ishga tushgan ko'rinadi. Qarsillagan eshik tavaqalari kutilmaganda lang ochilib ketdi. Xonaga kamon o'qlari chiyillab kirib, shimoliy devorga behuda urilgancha to'kildi. Yana burg'u va oyoqlarning dupur-dupuri eshitildi. Xonaga orklar birin-ketin yugurib kirishdi.

Nechta ork kirib kelganini birov sanamadi. Murosasiz jang kechib, dushman chekinishga majbur bo'ldi. Legolas kamoni bilan ikkita orkni yer tishlatdi, Gimli qo'lidagi jangovar tabari bilan Balinning qabriga sakrab chiqqan orkning oyog'ini chopib tashladi, Boromir bilan Aragorn orklarning bir qanchasini qirib yuborishdi. O'n oltita jasadini tashlab ketgan orklar Semning boshi biroz tiralganini hisobga olmaganda, Uzuk birodarligiga hech qanday ziyon yetkaza olishmadi. Epchillik-la chap berishga ulgurgan Sem qo'rg'ondan olingan qilichi bilan orklardan birining jonini sug'urib oldi. Semning ko'zidagi bunday g'azab uchqunini anavi Ted Sendimen ko'rganda bormi, so'z aytmay qochib qolishi turgan gap edi.

– Vaqt bo'ldi! – baqirdi Gendalf. – Troll qaytmasidan oldin qochdik bu yerdan.

Ammo hamma chiqib ketishidan, Pin bilan Merri zinaga yugurib yetishidan oldin xonaga orklarning boshidan oyog'igacha qora sovut kiygan, bo'yi oddiy inson bo'yiday keladigan bahaybat to'daboshisi va uning ortidan bir gala goblinlar bostirib kirdi. To'daboshining keng, yassi yuzi qoramtir bo'lib, tili qip-qizil, ko'zi esa ko'mirday qora ekan. Uzun nayzasini o'ynatib kelayotgan ushbu ork qo'lidagi qalqonning yengil harakati bilan Boromirning zarbasini qaytarib, tislantishga majbur qildi. Aragornning zarbasiga chap bergan to'daboshi Uzuk birodarligining orasiga kirib olib, nayzasining uchi bilan Frodoning o'ng biqiniga kuchi boricha zarba berdi. Zarbaning zo'ridan nari uchgan hobbit devorga qapishib qoldi. O'kirib yuborgan Sem qilichi bilan nayzaning o'rtasiga urib, ikki bo'lib tashladi. Nayza



bo'lagini nari uloqtirib, qilichiga qo'l uzatgan orkning dubulg'asiga yashinday yalt etgan Andrilning zarbasi yetdi. Boshi dubulg'asi bilan ikki bo'lingan ork qop-qora qon sachratgancha jonsiz yiqildi. Buni ko'rgan anavi orklar uvvos solib qochishdi. Boromir bilan Aragorn ularni ta'qib qilib, quvib yetganini yer tishlatishdi.

GUM-GUM yangradi yana do'mbira tovushi. Xona devori zir titradi.

– Tezlashing! – baqirdi Gendalf. – Omon qolishning so'nggi imkoni bu, yuguring!

Aragorn devor tagida yotgan Frodoni dast ko'tarib, Merri bilan Pinni oldida turtib borgancha zina tomon yugurdi. Qolganlar uning ortidan yurishdi. Legolas xavfli vaziyat yuzaga kelganiga qaramay, boshini xam qilgancha Balinning qabri oldida tek qotgan Gimlini sudrab tortishga majbur bo'ldi. Boromir sharqiy eshikning oshiq-moshig'ini g'ichirlatgancha tashqaridan yopib qo'yishga urinmoqda. Ikkala tavaqaning katta halqalari saqlanib qolgan-u, ularni o'zaro bog'lab qo'yishga narsa topilmayapti.

– Yerga tushir, o'zim yuraman! – xirilladi Frodo.

Aragorn hayratdan hobbitni qo'ldan chiqarib yuborishiga sal qoldi.

– Seni o'ldiga chiqaribman! – xitob qildi u.


– Osonlikcha o'ladigan hobbit emas bu! – dedi Gendalf.

– Hayratlanib o'tirishning mavridi emas hozir. Hamma zinadan pastga tushsin! Pastga yetib meni bir necha daqiqa kuting, kelmasam ketavering! Anqaymang, tez bo'ling! Dastlab o'ngga, so'ng pastga eltadigan yo'ldan boring!

– Seni yolg'iz tashlab keta olmaymiz! – e'tiroz bildirdi Aragorn.

– Aytganimni qil! Qilichbozlik naf bermaydi bu yerda! – darg'azab o'kirdi Gendalf.

Yoritilmagan qorong'i yo'lakda yurish endi juda qiyin kechib, zinadan tushayotgan sayyohlar ortda qolgan sehrgarning xira yarqirayotgan hassassiga qarab-qarab ketishmoqda. Gendalf



hanuzgacha yopiq eshik oldida turibdi. Og'riqdan og'ir nafas olayotgan Frodo uni mahkam quchib olgan Semga suyanib bormoqda. Ular zimistonga tikilgancha zinada tek qotishdi. Frodo Gendalfning nafas olayotganini eshitayotganday go'yo. Sehrgarning so'zlari zina pog'onalaridan sirpanib tushayotganday eshitalmoqda, lekin u nimalar deyotganini hech kim anglamayapti. Devor zir titramoqda. GUM-GUM tinmay yangramoqda do'mbira tovushi.

Daf'atan zina tepasida yorqin shu'la chaqnadi. Nimadir portladi. Do'mbira zarbasining shiddati yanada oshdi: GUM-GUM, GUM, GUM va birdan tindi. Gendalf zinadan sirpanib tushib, hamrohlar orasiga yiqildi.

– Xo'sh, qilish kerak bo'lgan ishni qildim! – dedi o'rni-dan turayotgan sehrgar. – Qo'ldan kelgancha urindim. Aftidan, o'zimga munosib raqibni uchratgan ko'rinaman, halok bo'lishimga oz qoldi. Bu yerda turmaylik! Ketdik! Holdan toyganim bois ma'lum vaqt zimistonda yurishga to'g'ri keladi. Ketdik! Ketdik! Yuringlar! Qanisan, Gimli? Oldimga tush, ikkalamiz yo'l boshlab boramiz. Bir-biringizga yaqinroq yuring.

Gendalfning yuqorida nima karomat ko'rsatib tushganini tushunmagan hamrohlar itoat-la indamay ergashishdi. Do'mbiraning GUM-GUM tovushi endi uzoqda yangramoqda. Birov ta'qib qilayotganidan dalolat beruvchi boshqa tovushlar, deylik orklarning baqir-chaqiri yoki dupur-dupur yugurishi eshitalmayapti. Yo'lak kerakli yo'nalishda ketgan ko'rinadi, Gendalf hech qayerga burilmay tikkasiga odimlab bormoqda. Zinalarning pog'onalari kam deganda elliktadan va undan ortiq bo'lib, bari birday pastga tushgan. Hozir aynan mana shu zinalar hayotga xavf tug'dirmoqda. Chunki ular zimistonda ko'rinmay, oxiriga yetganini oyoq ostida bo'shliqni his etibgina fahmlash mumkin bo'lmoqda. Gendalf o'z hassasini so'qirning hassasiday yer paypaslab ishlatmoqda.

Bir soatcha tinmay yurgan yo'lovchilar bir milya yoki undan uzoqroq masofani bosib o'tishdi. Dushman ta'qib qilayotgan alomatlar hamon yo'q. Hamrohlarda yovdan xalos bo'lish-

ganiga umid paydo bo'ldi. Yettinchi qavatning oxiriga yetganda Gendalf taqqa to'xtadi.

Havo qiziyapti! – chuqur nafas chiqardi u. – Darvozaxona qavatiga yetdik hisob. O'ylashimcha, hozir biz chap qo'l tomon burilib, sharq yo'nalishida harakatlanishimiz kerak. Juda charchadim, oz qoldi degan umiddaman. Orklarning bari bir bo'lib quvib kelishayotgan bo'lsa ham, biroz dam olmasam bo'lmaydi.

Gimli qariyaning qo'ltig'idan tutib zina pog'onasiga o'tirib olishga yordamlashdi.

Yuqorida, eshik oldida nima bo'ldi? qiziqdi gnom. – Do'mbira urib kelayotgan maxluqni uchratingmi?

– Nimani uchratganimni bilmadim-u, menga ilgari duch kelmagan dushman ekanligini fahmladim. Xayolimga eshik yopadigan birorta qisqaroq tilsim kelmadi. Tilsimlarning ko'pini bilaman-u, ijrosiga ancha vaqt ketadi. Eshik yopilgan taqdirda ham, uni kuch qo'llab ochish mumkin bo'ladi.

Eshik ortida turib orklarning gap-so'ziga quloq tutdim. Tavaqalar har qanday fursatda ochilishini kutdim. Jirkanch tillarida nimalar haqida gapirishganini anglay olmadim-u, tushunganim, bizning tilimizda «olov»ni anglatadi bitta so'z – gloi bo'ldi. Shundan so'ng ichkariga nimadir kirib keldi. Buni men ham, eshik ortida turib his etdim. Orklar dahshatga tushib, jim bo'lishgani sezildi. Xonaga kirgan maxluq men qo'llayotgan tilsimni barbod qilishga kirishdi.

Uning nimaligini bilmadim-u, menga bas keladigan bunday raqibga duch kelmagan edim hali. Joduga qarshi qo'llagan jodusi meni halok qilishiga bir baxya qoldi. Eshik itoatimdan chiqib, tavaqasi ochila boshladi! Unga yopiq holatda qolishga amr etdim. Ikkita sehr kuchi bir-biriga qarshi chiqib, oqibati dahshat-la yakun topdi. Eshik tavaqalari portlab chilparchin bo'ldi. Allaqanday qop-qora narsa tashqaridagi yorug'likni bulutday qamrab yutib, meni zinaga uloqtirdi. Nazarimda, xona devori-yu, shifti vayron bo'lib qulaganday bo'ldi. Balinning qabri ham, o'ylashimcha, chuqurga o'pirlilib tushdi. Qabr bilan birga anavi

maxluq ham tog' qa'riga tushib ketdi, shekilli. Aniq ayta olmayman. Nima qilganda ham, ortimizda qolgan yo'lak dushman uchun batamom yopildi. Bunday tushkunlikka hali hech qachon yuz tutmagan edim. Mayli, bo'lgan ish bo'lib o'tdi. Sen qalaysan, Frodo? Xursandligimni izhor etishga vaqtim bo'lmadi-yu, zarbadan keyin ovozingni eshitib, juda sevindim. Aragorn jasur va, afsuski, mardlarcha halok bo'lgan hobbitni ko'tarib ketayotganiga ishonchim komil edi.

Menmi? -- talmovsiradi Frodo. Ko'rib turganingday tirikman. Meni ayamay urishdi, jonim og'riyapti-yu, lekin chidasa bo'ladi.

– Shuni aytishim mumkinki, hobbitlarning loyi ancha pishiq bo'lar ekan, – gapga aralashdi Aragorn. – Bunaqasini hali ko'rmaganman. Bilganimda, Tog'bag'ri qishlog'idagi mehmonxonada uchratgan kunimdan boshlab izzat-ikromga to'la ohangda murojaat qilib kelgan bo'lar edim. Anavi nayza bilan berilgan zarba shunday kuchli ediki, uning uchi har qanday yirik to'ng'izning tanasini narigi biqinidan teshib chiqishi muqarrar edi.

– Tanam teshilmay, butun qolganidan xafa emasman, dedi Frodo. – Lekin sandon<sup>1</sup> bilan bolg'a orasida qolib kaltaklanganday his etdim o'zimni.

Nafas olishi og'riq-la kechayotgan hobbit boshqa hech nima demadi.

– Sen Bilboning munosib merosxo'risan, Frodo, – maqtadi Gendalf. Ikkalangizda zohiran ko'rinmaydigan nimadir bor. Buni bir vaqtlar uning o'ziga ham aytgan edim.

Frodo ushbu gap zamirida yashirin ma'no borligiga shubha qilmadi.

Hamrohlar yana yo'lga chiqishdi.

– Nazarimda, oldinda yorug'lik ko'rinyapti, ma'lum qildi birozdan so'ng qorong'ida yaxshi ko'ra biladigan Gimli. Tusi qizil. Nima bo'lishi mumkin u?

---

<sup>1</sup> Sandon (*forscha*; temir kunda) -- temirchi, miskar va zargarlarning qizdirilgan metallga ishlov berish (bolg'alash) da uning ostiga qo'yadigan asbobi.

– Obbo! – g‘ashlangan ohangda po‘ng‘illadi Gendalf. – Pastki qavat yonayotgan bo‘lishi mumkin. Iloj qancha, biz o‘sha tomon yurishimiz kerak.

Ko‘p o‘tmay qolganlar ham Gimli ko‘rgan yorug‘lik dog‘ini ko‘rishdi. Yorug‘lik pastga olib tushayotgan yo‘lak devorida milt-milt titramoqda. Hamrohlar endi tikka pastga tushib, yorug‘lik shu‘lasi chiqayotgan quyi ravoqqacha yetgan yo‘lni ko‘rishmoqda. Havo juda qizib ketdi.

Gendalf ravoqqa birinchi bo‘lib yaqin borar ekan, qolganlarga imo ila kutib turishni buyurdi. Hamrohlar ravoq qarshisiga kelgan schrgarning qizil shu‘la yoritgan yuzini qarab qolishdi. Gendalf tez orqaga tislandi.

– Yana o‘sha yovuz jodu qo‘llanilgan bu yerda, – tushuntirdi u hamrohlariga. – Hech shubha yo‘qki, jodu bizning kelishimiz «sharafiga» qo‘llanilgan. Qayerga yetganimizni aniq bilaman: darvozaxona ostidagi birinchi qavatda, qadimiy Morianing ikkinchi zalidamiz. Darvozaxonaga oz qoldi. Hozir chap qo‘lga burilib, chorak milyacha yurishimiz kerak. Tosh ko‘prikdan o‘tgach, enli zinadan yuqoriga ko‘tarilib, keng yo‘lakdan o‘tgancha birinchi zalga kiriladi. U yerdan esa darvozaxonaga o‘tilib, tashqariga chiqiladi! Qani, yuringlar, ko‘raylik!

Yo‘lovchilar ravoqdan mo‘ralab qarashdi. Yana bir g‘or zali ko‘rindi. Bu zal kechagi tun o‘tgan zalga nisbatan ancha uzun, shifti pastroq ekan. Hozir yo‘lovchilar zalning sharqiy boshida turishibdi. G‘arbga, zimistonga qarab cho‘zilgan zal o‘rtasidagi baland, tarvaqaylab ketgan shox-shabbasi ila zal shiftini ko‘tarib turgan qudratli daraxtlar shaklida o‘yib yasalgan ustunlar qo‘sh chiziqqa tizilgan. Sayqal berilgan ushbu qora ustunlar sirtida qizil olov aks etmoqda. Ikkita bahaybat ustun ostida zalni ko‘ndalangiga ikki bo‘lib yuborgan keng jarlik bo‘lib, ichidan yorqin yonayotgan olov shu‘lasi taralmoqda. Vaqti-vaqti bilan otilib chiqayotgan olov tili jarlik qirg‘og‘i va ustunlar asosini yalab qaytmoqda. Havoga qora tutunning siyrak pag‘alari ko‘tarilmoqda.

– Agar biz bu yerga yuqoridagi zallardan asosiy yo‘l or-

qali tushganimizda tuzoqqa ilinishimiz muqarrar edi, – xulosa qildi Gendalf. – Umid qilamizki, anavi olov endi biz bilan ta'qibchilarimiz o'rtasida qoladi. Yuringlar, biror daqiqa yutqazish mumkin emas hozir bizga!

Shu fursatda do'mbira tovushi yana yangradi: GUM, GUM. Zalning g'arbiy boshida baqir-chaqir, burg'u tovushi eshitildi. GUM, GUM. Ustunlar zir titrab, olov tebrandi.

– Xo'sh, so'nggi urinish! – dedi Gendalf. – Tashqarida quyosh charaqlayotgan bo'lsa marra bizniki! Omon qolamiz. Qani, olg'a!

O'ngga burilgan sehrigar zalning tekis polidan yugurib ketdi. Masofa tasavvur qilingandan ko'ra uzoq ekan. Orqada ko'pdan ko'p oyoqlarning dupur-dupuri eshitildi. Dushman qo'shini yo'lovchilarni ko'rdi, shekilli, keskin baqir-chaqir ko'tarildi. Qurol-yarog'ning jarang-jurungi yangradi. Frodoning boshi uzra kamon o'qi uchib o'tdi.


– Bunday bo'lishini ular kutishmagan ko'rinadi, – kulib yubordi Boromir. – Ular olovning narigi tomonida qolib ketishdi. Biz esa jarlikning bu tomonida!

– Oldinga diqqat bilan qarab boring! – baqirgancha ko'rsatma berdi Gendalf. – Ko'prik yaqin, lekin u juda ensiz va nihoyatda xavfli.

Oldinda, zal oxirida chindan ham yer ko'rinmay qolib, yana qop-qora jarlik paydo bo'ldi. Zalning chiqish eshigiga faqat ushbu tubsiz jar ustidan o'tgan, uzunligi ellik futcha keladigan, panjarasiz, nihoyatda tor mo'rt tosh ko'prik orqali o'tgachgina yetish mumkin. Bu gnomlar qurgan qadimiy inshoot bo'lib, birinchi zal va tashqi yo'laklarni zabt etishi mumkin bo'lgan dushmandan himoya qilish uchun qurilgan. Ko'prikdan faqat turnaqator bo'lib o'tish mumkin, xolos. Jar yoqasiga yetgan Gendalf to'xtab, hammani oldinga o'tkazib yubordi.

– Birinchi bo'lib Gimli, undan keyin Merri bilan Pin o'tadi, – dedi u. – Narigi tomonga o'tgach, eshik ortidagi zinadan yuqoriga ko'tarilasiz.

Dushman otgan kamon o'qlari hamrohlar orasiga yog'il-





moqda. Ulardan biri Frodoning tanasiga urilib, nari sapchidi. Boshqa bir o'q esa Gendalfning shlyapasiga sanchilib, qora patday dikkayib qoldi. O'girilib qaragan Frodo olov ortida son-sanoqsiz yig'ilgan goblinlarni, olovning qizil rangi aks etayotgan nayzalari-yu, egri qilichlarini ko'rdi. Yanada yaqin kelgan do'm-bira tovushi tinmaydi: GUM, GUM.

Dushman tomon o'girilgan Legolas kamonini o'qladi. Mavjud masofa uning kichkina kamoniga uzoqlik qiladi. Kamon ipini tortgan elfning qo'li kutilmaganda qaltirab, chiqib ketgan o'qi yerga tushdi. Qo'rqib ketgan elf umidsiz ohangda ingrab yubordi. Ikkita bahaybat troll paydo bo'lib, qo'lida ko'tarib kelgan katta tosh taxtalarni olov lovullayotgan jarlik ustiga ko'prik sifatida yotqiza boshlashdi. Ammo elfni qo'rqitgan trollar emas. Goblinlar ham dahshatdan ikki tomon tislani o'rtadan yo'l ochishdi. Dushman ortida nimadir paydo bo'ldi. Nimaligini hozircha ko'z ilg'amayapti. O'rtasida nimasi bilandir inson qiyofasiga o'xshash, lekin ancha katta qomatga ega ulkan ko'lanka ko'rindi. Undan dahshat to'lqinlari barq urmoqda go'yo.


Jar yoqasiga yetgan ko'lanka olovning pastdan chiqayotgan qizil tilini xiralashtirib yubordi. Bir sakrab jarning bu tomoniga o'tgan qomatning oldida alanga na'ra tortgancha baland ko'tarilib, hamma yoqni qora tutun bosdi. Olov qomat ortida ot yoliday xilpirapoqda. Maxluqning o'ng qo'lida olov tilini eslatadigan qilich, chap qo'lida esa ko'p gavronli yonar qamchi yaltiradi.

– Balrog! – ingrab yubordi Legolas. – Balrog! Balrog kelyapti!

– Dyurinning boshiga tushgan Olovli ofat! – o'kirdi boltasini tashlab, yuzini kafti bilan to'sgan Gimli.

– Balrog, – po'ng'illadi Gendalf qo'lidagi asoga og'ir suyanib. – Endi tushundim qanday balo kelayotganini! Oh, qanchalik qattiq charchaganimni bilsangiz edi.

Olov ichra odimlayotgan qora maxluq Uzuk birodarligi tomon oshiqdi. Baqir-chaqir qilayotgan goblinlar ham jar uzra tashlangan tosh taxta orqali o'tib, baravar harakat boshlashdi.



Shunda Boromir burg'usini qo'liga olib qattiq chaldi. Tahdid solayotgan na'raday yangragan burg'u tovushidan goblinlar dag'-dag' qaltiray ketishdi, hatto olovli ko'lanka ham bir muddat to'xtab qoldi. Burg'u tovushi shamol o'chirgan gulxanday ting-gach, dushman yana harakat boshladi.

– Narigi tomonga o'ting! – baqirdi Gendalf. – Yuguring dedim sizlarga! Qo'lingizdan hech nima kelmaydi! Sizlar bu dushmanni uddalay olmaysizlar. Unga faqat men bas kela olaman! Yuguring! Yo'lingizni o'zim himoya qilaman, tez bo'ling!

Hamrohlar ko'prikdan yugurib o'tib, zalning chiqish eshigiga yetib to'xtashdi. Dushman bilan yolg'iz o'zi yuzma-yuz qolgan rahnamolariga yordam bera olmay, nochor qarab qolishdi. Aragorn bilan Boromir esa itoat qilmay, ko'prikning narigi boshi yaqinida qolishdi.

Vazmin qadam bosib kelgan Balrog ko'prikka yetdi. Gendalf ko'prik o'rtasida, bir qo'li bilan asoga suyanib, ikkinchi qo'lida Glamdringni baland tutib turdi. Dushman yana to'xtadi, atrofidagi ko'lanka bir juft qanot singari ikki tomon keng yoyildi. Burun kataklaridan olov otilib chiqayotgan maxluqning qo'lidagi qamchi gavronlari qarsillab to'lg'andi. Gendalf qaddini rost tutganча xotirjam turibdi.


– O'tkazmayman seni! – dedi schrgar.

Orklar qo'shini to'xtadi. Zalda o'lik jimjitlik qaror topdi.

– Men Anor alangasini idora qiladigan yashirin olovning sodiq xizmatkoriman. O'tkazmayman seni bu ko'prikdan. Senga yovuz olov ham yordam bera olmaydi. Eshityapsanmi meni, Udun alangasi, makoningga qayt! Ovora bo'lma, shu yerdan nari o'tmaysan!

Balrog javob bermadi, tanasidagi olov so'nganday bo'ldi-yu, ko'lankasi yiriklashdi. Ko'prikka asta qadam bosgan Balrogning bo'yi kutilmaganda keskin o'sib, shiftga yetdi. Bir qarashda mittigina ko'rinib, yaqinlashayotgan dovul oldida qurib bukchaygan yolg'iz daraxtni eslatgan Gendalf ilgarigiday o'z joyidan qo'zg'almay, hassasi nim qorong'idagi yaltirab turibdi.

Qora maxluqning qo'lida qizil qilich yaltiradi. Bunga



javoban Glamdring oppoq olovday yarqiradi. Qilichlarning jarangi eshitilib, atrofga uchqun sachradi. Quroli chilparchin bo'lgan Balrog orqaga tislandi. Gandiraklab ketgan sehrgar esa bir qadam orqaga tashlab, muvozanatini tiklab oldi.

– O'tkazmayman seni! – takrorladi u.

Balrog ko'prikka yana sakradi. Qo'lidagi olov gavronlarni qarsillatganicha havo qamchiladi.

– Uni yolg'iz qoldirib bo'lmaydi! – kutilmaganda baqirdi Aragorn, ko'prik tomon yugurib. – Elendil uchun! – xitob qildi u. – Men sen bilan, Gendalf!

– Gondor uchun! – baqirdi Boromir Aragornning ortidan ergashib.

Shu paytda Gendalf hassasini baland ko'tarib oldinga, ko'prikka uloqtirdi. Aso ikkiga bo'linib, ko'zni qamashtiradigan oppoq olov chaqnadi. Kazad-Dum ko'prigining toshi qarsillab, naq Balrogning ostida sinib parchalandi. Oyog'i turgan yirik tosh chilparchin bo'lgan maxluq tubsiz jarlikka quladi. Ko'prikning qolgan qismi bo'shliq ustida titraganicha butun qoldi.


Dahshat-la na'ra tortayotgan Balrog jarlik tubiga qular ekan, qamchisini so'nggi bor siltadi. Olov gavronlar schrgarning oyog'iga ilashib, uni ham pastga tortdi. Gandiraklagan Gendalf yiqilib, toshni ushlab qoldi-yu, qo'li sirpanib ketdi.

– Qochinglar, tentaklar! – baqirdi u, qop-qora bo'shliqqa qular ekan.

Olov o'chib, hamma yoqni zimiston qopladi. Dahshatdan dong qotgan Uzuk birodarligi tubsiz jarlikka baqrayib qoldi. Aragorn bilan Boromir ortga chekinib ko'prikni tark etgan fursatda inshootning qolgan qismi ham qarsillab sinib, jarga to'kildi.

– Yuringlar, birodarlarim! – dedi Aragorn. – Endi men boshlab boraman sizlarni! Biz Gendalfning so'nggi buyrug'ini bajarishimiz kerak. Ortimdan yuring!

Qoqilib-turtilib yurgan hamrohlar eshik ortidagi zinadan yuqoriga ko'tarilishdi. Aragorn oldinda, Boromir oxirida yurdi. Zinadan ko'tarilib chiqqan yo'lovchilar keng yangroq yo'lakdan olg'a yugurishdi. Frodo Semning ovoz chiqarmay yig'layot-



ganini ko‘rib, o‘zining ham ko‘zidan duv-duv yosh to‘kila-  
yotganini fahmladi. GUM, GUM yangraydi ortda qolgan do‘m-  
bira tovushi. Endi do‘mbira asta-sekin, motam ohangida gumbur-  
laganCHA uzoqlashmoqda.


Ko‘p o‘tmay atrof yorisha boshlab, yo‘lak shiftida darz  
ketgan joylar ko‘rindi. Hamrohlar harakatni tezlashtirishdi. Ana,  
sharq tomondagi baland derazalar orqali singib kirgan tabiiy  
yorug‘likdan yorishgan zal. Hamrohlar ushbu zaldan ham yu-  
gurib o‘tib, buzilgan eshikdan darvozaxonaga kirib borishdi. Ana  
u, ulkan darvozaning katta ravoqi! Undan keyin esa – yorug‘  
ko‘cha.

Darvoza sindirilib, nari uloqtirilgan. Qo‘riqchi orklar  
darvozaxona ustunlarining soyasida jon saqlashmoqda. Aragorn  
yo‘lini to‘sgan qorovul xizmati boshlig‘ini bir urib yer tishlatdi.  
Qolgan orklar esa uning vajohatini ko‘rib dahshatdan har tomon  
tumtaraqay bo‘lishdi. Uzuk birodarligi qochayotgan maxluqlarga  
e‘tibor qilmadi, darvozadan tashqariga chiqib, Moriya ostona-  
sining vaqt yemirgan pog‘onalariga qadam bosdi.

Yo‘lovchilar nihoyat osmonni ko‘rishdi, yuzlariga salqin  
shabada tegdi. Kamondan otilgan o‘q yetmaydigan masofaga  
uzoqlashgan hamrohlar to‘xtashdi. Ularning ko‘z oldida Dimrill  
vodiysining keng manzarasi ochildi. Vodiyni G‘uborli tog‘lar  
soyasi qamragan bo‘lsa-da, sharqiy hududni tilla tusli shafaq  
yoritgan. Kunduzgi soat bir. Quyosh charaqlab, baland osmonda  
oppoq bulut suzmoqda.

Hamrohlar ortga o‘girilib qarashdi. Qora ko‘lankada  
darvoza ravoqi ko‘rinmoqda. Yer ostidan do‘mbiraning bo‘sh  
urilayotgan tovushi eshitilmoqda: gum, gum, gum... Darvozadan  
tutun pag‘asining ingichka oqimi chiqdi. Boshqa hech nima  
ko‘rinmaydi, vodiy bo‘m-bo‘shga o‘xshaydi. Musibat birodar-  
larning barini mahv etib, hammasi baravar yig‘ladi. Kimdir tik  
turgan holatda unsiz yig‘layotgan bo‘lsa, kimdir yerga yumalab  
dod soldi.

Do‘mbira tovushi nihoyat tindi: gum, gum, gum...



LOTLORIYEN

– Birodarlarim, biz bu yerda uzoq qola olmaymiz, – dedi Aragorn.

U tog‘ tomon yuzlanib, qilichini ko‘tardi.

– Alvido, Gendalf! – xitob qildi u. – «Moriya ostonasini hatlab o‘tiboq chiyot bo‘l!» deya ogohlantirgan edim seni. Afsuski, o‘shanda to‘g‘risini aytgan edim! Sensiz endi nimaga umid qilishga ham hayronman?!

So‘ng u yana hamrohlari tomon yuzlandi.

– Endi harakatimiz ishonchsizroq kechadi, – ma‘lum qildi u. – Lekin hech shubha yo‘qki, kun o‘tib bir kun dushman-dan Gendalfning xununi olamiz. Hozir esa yig‘ini bas qilaylik. Yuringlar! Bizni oldinda uzundan uzoq safar, ko‘pdan ko‘p ishlar kutmoqda.


Hamrohlar oyoqqa turib, tevarak-atrofni ko‘zdan kechirib chiqishdi. Shimol tomondagi ikkita tog‘ o‘rtasida ensiz jarlik ko‘rinishiga ega uzun soylik ketgan. Ikkala tog‘ ustida Moriya tog‘ tizmasining Kelebdil, Fanuidol, Karadras nomli cho‘qqilari savlat to‘kib turibdi. Soylik oxirida sharsharalar zinasi ko‘rinishiga ega, oq kamarga o‘xshash shiddatli oqim uzoq cho‘zilgan bo‘lib, tog‘ etagining o‘sha bo‘shlig‘i suv ko‘pigining havoda muallaq osilgan qatralariga to‘lganday go‘yo.

– Dimrill zinasi deb shunga aytishadi, – dedi Aragorn sharshara pog‘onalariga imo qilib. – Biz o‘sha oqim bo‘yidagi qoyalar orasiga kirgan yo‘ldan chiqishimiz kerak edi, agar taqdir bizga oz bo‘lsa ham mehribonlik qilganda.

– Yoki Karadrasning qahri bunchalik qattiq bo‘lmaganda, – qo‘shimcha qildi Gimli. – Quyoshda yarqirab irjayishini ko‘rmaysizmi uning!

Gnom olisdagi qor qoplagan cho‘qqilardan biriga musht ko‘tarib tahdid qildi-da, teskari o‘girildi.

Sharq tomonda tog‘ tizmasi keskin uzilib, narigi tarafida




bepoyon dashtlik boshlangan. Janubda uzoq cho'zilgan G'uborli tog'larning oxiri ko'rinmaydi. Sayyohlar tog'li hududning baland nuqtalaridan birida turishgani bois ulardan taxminan bir milyacha narida katta ko'l ko'rinmoqda. Cho'zinchoq oval shakliga ega ushbu ko'l nimasi bilandir shimol tomondagi ensiz jarlikka sanchilgan nayza uchiga o'xshaydi. Ko'lning janub tomoni ko'lankadan tashqariga chiqib qolgan bo'lib, quyosh uni yarqirاتب yoritmoqda. Ko'l suvi sonus yoritgan xona derazasidan ko'rinadigan kechki osmonning to'q ko'k tusiga kirgan. Havza sirti oynaday harakatsiz. Ko'l atrofini qirg'og'idan qiya-lab ko'tarilib bir tekis o'sgan nari cho'zilgan maysazor hoshiyalagan.

– Ko'zgu ko'li yoki chuqur Keled-Zaram! – ma'yus ohangda eslatdi Gimli. – Esimda: «U yerga yetsak, nigohing zavq olib, qalbing quvonchga to'ladi! Ammo biz u vodiya uzoq qola olmaymiz», degan edi menga marhum Gendalf. Quvonch nimaligini bilmay uzoq izg'ishga to'g'ri keladi endi. Men shoshyap-man, u esa shu yerda mangu qoldi.

Uzuk birodarligi darvozadan nari olib ketadigan yo'ldan pastga tushdi. Notekis, ko'p joylari buzilgan ushbu yo'l darz ketgan xarsanglar orasida o'sgan supurgigullar va dukkakli cho'l o'simliklari orasida ilang-bilang ketgan so'qmoqqa aylanib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, bu yerda bir zamonlar gnomlar qirolligiga eltgan keng yo'l bo'lganining alomatlari saqlanib qolgan. Yo'lning ikki tomonida ora-sira toshdan ko'tarilgan imorat xarobalari yoki cho'qqisida alifdek tik qayinlar yoxud shabadada xiyol egilgan tilog'ochlar o'sib, hududini o't bosgan qo'rg'onlar duch kelib bormoqda. Sharqqa burilgan yo'lovchilar Ko'zgu ko'li sohilidagi maysazorning ro'parasidan chiqib qolishdi. Ko'lning tik ko'tarilgan qirg'og'ida uchi singan yakka ustun qad ko'targan.

– Dyurin toshi-yu! – xitob qildi ustunga baqraygan Gimli. – Vodiy mo'jizasini tomosha qilmay ketsam, yaxshi bo'lmaydi!

– Unda tezlash! – dedi darvoza tomon qarab qo'ygan



Aragorn. – Quyosh bu yerlarda erta botadi. Orklar, aftidan, qosh qorayguncha tashqariga chiqmaydigan ko‘rinadi, ammo qorong‘i tushmay turib darvozadan nari ketishga ulgurishimiz kerak. Oy yo‘q, tun qorong‘i bo‘ladi.

– Yur men bilan, Frodo! Keled-Zaramni tomosha qilamiz! – hayqirdi yo‘ldan chiqqan gnom. – Uni ko‘rib ketmasang bo‘lmaydi.

Gimli uzoq cho‘zilgan yashil qiyalamadan yugurib ketdi. Qalbini musibat ezib, jismonan juda toliqqaniga qaramay, ko‘m-ko‘k suv jalb etgan Frodo gnomning izidan asta odimladi. Sem ham unga hamroh bo‘ldi.

Tosh ustun oldida to‘xtagan Gimli yuqoriga qaradi. Hamma joyi teshilib kovak bo‘lgan toshni iqlim havosi yemirib ado qilgani bois ustun chetiga bitilgan runani o‘qib bo‘lmadi.

– Bu yer Dyurin ilk bor Ko‘zgu ko‘lining suvini tomosha qilish uchun to‘xtagan joy. Ushbu ustun o‘sha kun sharafiga o‘rnatilgan, – ma‘lum qildi gnom. – Biz ham ko‘lni shu yerda turib biroz tomosha qilaylik ketishdan oldin.

Uchovlon qoramtir havza ustiga engashdi. Dastlab hech nima ko‘rinmadi. Birozdan so‘ng suv yuzasida tevarak-atrofdagi tog‘lar, oq alanganing chaqnashini eslatadigan cho‘qqilar va tog‘tizmasi ustidagi osmon aksi ko‘zguda ko‘ringandek aniq ko‘rindi. Xiyol botgan quyosh uchalasining ustida charaqlab turganiga qaramay, ko‘l tubida yulduzlar aksi har biri yirik javohirday yaltiramoqda. Lekin Frodo negadir o‘z aksini ko‘rmadi.


– Bu yerda o‘z sohibini kutayotgan Dyurin toji bekingan. Ko‘rishguncha, go‘zal va ajib Keled-Zaram! – dedi Gimli.

Ko‘lga ikki bukilib ta‘zim qilgan gnom burilib, yashil qiyalamadan hamrohlar kutib turgan katta yo‘l tomon yugurdi.

- Nima bor ekan u yerda o‘zi? – so‘radi Pin yoniga qaytgan Semdan.

Uzoq o‘yga tolgan Sem javob qaytarmadi.

Yo‘l endi janubga burilib, jarlik devorlaridan uzoqlashgancha tik pastga tusha ketdi. Ko‘ldan muayyan masofa nariga uzoqlashgan yo‘lovchilarga toza suvli buloq uchradi. Yer qa‘ri-



dan otilib chiqib, tosh bo'rtiqqa urilayotgan buloq suvining baland ko'tarilgan qatralari chuqur tosh tarnovga to'kulgach, ko'piklanib shildiragancha yugurib oqmoqda.

– Silverlound daryosini boshlab beradigan sarchashma mana shu bo'ladi, – ma'lum qildi Gimli. – Ichmang, suvi nihoyatda sovuq uning.

– Tog' buloqlarining suvini o'z o'zaniga yig'ib boradigan ushbu jilg'a, oxiri tezoqar daryoga aylanadi, – qo'shimcha qildi Aragorn. – O'sha daryo bo'ylab ko'p milya yo'l yurishimiz kerak bo'ladi. Men sizlarni Gendalf tanlagan yo'ldan boshlab boraman va o'rmonni kesib o'tib, Silverlound daryosi ho'v anavi yerda boshqa bir azim daryoga quyiladigan joygacha yetishga umid qilaman.

Hamma Aragorn ko'rsatgan tomonga qarab, vodiyan oqib o'tib uvaga tushgach, tilla tusli siyrak tumanda g'oyib bo'layotgan ariqni ko'rdi.

– Lotloriyen o'rmoni! – xitob qildi Legolas. – Elf xalqi yashaydigan hududlar orasidagi eng go'zal hudud. Ushbu o'rmon daraxtlariday daraxt boshqa hech qayerda uchramaydi. Bu zaminda kuzgi xazonrez bo'lmay, tilla tus olgan barglar shox-shabbalarda qolaveradi. Bahor kurtaklari ochilguncha, eski barglar to'kilmaydi. Yangi barglar paydo bo'lgach, shox-shabbalar sariq tus oladi. O'rmon tuprog'i tilla to'kilganday ko'rinadi. O'rmon tomi tilladan, ustunlari kumushdan yasalganday tuyuladi, chunki daraxtlar tanasi to'g'ri, rangi kulrang bo'ladi. Bu o'rmon haqida bizning Yovuz o'rmonimizda shunday kuylanadi. Bahor faslida Lotloriyen o'rmonining chetidan bo'lsa ham o'tish nasib qilsa, qalbim quvonchga to'lgan bo'lar edi.

– Mening qalbim esa qish faslida ham quvnayveradi, biroq o'rmongacha hali ko'p milya yo'l yurishimiz kerak, – dedi Aragorn. – Tezlashaylik, birodarlar!

Ma'lum vaqt Frodo bilan Sem qolganlarga yetishib yurishdi. Ammo Aragorn to'xtamay, qadamini uzun tashlab ketar ekan, ikkalasi ortda qoldi. Tong otgandan buyon tuz totmagan-u, ular, axir. Boshi aylanayotgan Semning jarohati cho'g' bosgan-



day achishib og'riyapti. Quyosh charaqlayotganiga qaramay, Moriyaning iliq zimistonidan keyin mana bu shamol sovuqlik qilyapti. Sovqotgan Semni titroq tutdi. Og'ir nafas olayotgan Frodoga odimlab borish nihoyatda mashaqqatli kechyapti.


O'girilib qaragan Legolas uzoqda qolib ketgan ikkala hobbitning ahvolini ko'rib Aragornga nimadir dedi. Hamma bir vaqtda harakatdan to'xtadi. Aragorn esa o'zi bilan Boromirni ham ergashtirib ortga, ikkala hobbit tomonga yugurdi.

– Kechir, Frodo! – afsus ohangida uzr so'radi Aragorn.  
– Bugun shuncha ish bo'lib o'tgani, shoshishimiz kerakligi xayolimni band qilib, ikkalangiz yaralanganingizni umuman unutib qo'yibman. Eslatib qo'ymaysanmi, Moriyaning jamiki orklari ortimizdan quvib kelayotgan taqdirda ham sizlarga yordam berar edik, biz esa hech nima qilmadik. Yuringlar, ho'v anavi yerda biroz dam olsa, bo'ladigan joy bor. O'sha yerda qo'ldan kelgancha yordam ko'rsataman... Qani, kel, Boromir, ikkalasini ko'tarib olaylik.

Biroz yurgan yo'lovchilar g'arb tomondan shaldirab kelib, shoshqaloq Silverloud suviga quyilayotgan va ikkala o'zan birlashib to'q yashil tosh ustidan sharshara bo'lib tushgancha pastga, soylikka ko'piklashib tushib ketayotgan yana bir ariq oldidan chiqishdi. Sharshara yaqinida egilib o'sgan pakana tilog'ochzor bo'lib, uning yonidagi kichik tepalik bag'rini reza meva bilan bug'u yo'sini qoplagan. Sayyohlar ushbu tepalik etagida shovqin solgancha yaltiroq toshlar ustidan oqayotgan jilg'a bo'yida unchalik katta bo'lmagan tekis maydon topib, shu yerda dam olishga qaror qilishdi. Soat kunduzgi uch, ular esa darvozadan chiqib endigina bir necha milya yurishga ulgurishdi, xolos. Quyosh g'arb tomon ancha og'ib qoldi.

Gimli va ikkala yosh hobbit suv tashib, gulxan yoqishar ekan, Aragorn Sem bilan Frodoni davolashga kirishdi. Semning jarohati chuqur bo'lmasa ham, ko'zdan kechirayotgan Aragornning yuzi jiddiy qiyofa kasb etganiga qaraganda, ko'rinishi yaxshi emas, shekilli.

– Omadi chopgan yigit ekansan, Sem, – dedi yengil tort-



gan Aragorn birozdan so'ng. – Orklar qilichining tig'i, odatda, kuchli zaharlangan bo'ladi. Binobarin, birinchi o'ldiril-gan ork ko'pchilikka ancha qimmatga tushadi. Muolaja qilsak tez bitib ketadi. Gimlining suvi isigach, boshingni yaxshilab yuv.

Yoniga osib olgan yuk xaltasini ochgan Aragorn bir nechta qurigan barg chiqardi.

– Mana bu atelas o'simligini esingda bo'lsa Zaverti tepaligi yaqinida topib tergan edim, – dedi Aragorn. – Qurib, ta'siri biroz zaiflashgan, albatta, lekin shifobaxsh xususiyatini saqlab qolgan. Bittasini suvda ivitib, boshingni yuvganingdan so'ng jarohatingga bosib bog'laymiz. Endi sening navbating, Frodo.

– Men otday sog'man, – dedi kiyimini birov tegishini istamagan Frodo. – Ovqatlanib, biroz dam olsam bas.

– Yo'q! – e'tiroz bildirdi Aragorn. – Sandon bilan bolg'a orasida qolib kaltaklanganday bo'lganini kim aytgan edi bizga? Qanday omon qolganingga to'g'risini aytsam, hanuzgacha tushunmay hayronman.

Frodooning eskirgan nimchasi bilan ko'ylagini avaylab yechgan Aragorn hayratdan oh urib, xandon otdi. Hobbitning kumush sovuti notinch dengiz yuzasidagi quyosh aksiday o'ynoqi yarqiramoqda. Undagi javohirlar tungi yulduzlarday yaltirab, bir-biriga ishqalanayotgan halqalar hovuz suviga tomib ohista sharillagan yomg'ir qatralarining tovushini eslatadi.

– Mana buni qarang, do'stlarim! – hammaning e'tiborini jalb etdi Aragorn. – Hobbitning kiyimi har qanday elf qiroliga munosib ekan! Agar hobbitlar bunday xazina sohibi ekanligi ma'lum bo'lib qolsa bormi, O'rtayerda borki ovchi Shir tomon yuguradi.

– Mitril ko'ylak-ku, bu! Butun dunyo ovchilari o'q otgan taqdirda ham kor qilmas edi unga, -- qo'shimcha qildi Gimli sovutga hayrat-la baqrayib. – Mitril! Bunday ajib narsani hayotda ko'rmagan edim. Gendalf mana shu sovut haqida gapirgan edimi? Buyumga baho berishni bilmay o'tibdi u.

– Bilbo ikkalangiz hujraga bekinib olib nima ish qilish-

laring haqida xo'p o'ylanib yurar edim, – dedi Merri. – Gap bu yoqda degin! Voy qari hobbit-ey! Unga bo'lgan ehtiromim yanada oshib ketdi. Umid qilamanki, buni unga izhor qilish imkoni bo'ladi hali menda.

Frodoning o'ng biqini bilan ko'kragida qontalash jarohat ko'rindi. Sovut ostida yengil ko'ylak bo'lib, halqalarning bir nechtasi Frodoning tanasiga qattiq botgan. Frodoning zarbadan devorga qapishgan chap biqini ham momataloq bo'lib ko'kargan. Qolgan hamrohlar taom tayyorlash bilan mashg'ul ekan, Aragorn yaradorlarning jarohatini atelas damlamasi bilan yuvib tozaladi. Damlamaning xushbo'y hidi hammani o'ziga jalb qildi. Uning idishi ustiga shunchaki engashib hidlaganlar ham o'zini bardam, tetik his etishdi. Ko'p o'tmay Frodo yarasining og'rig'i yengillashayotganini his etdi. Shunga qaramay uning biqini anchagacha bezovta qilib, qo'l tegsa, og'riq his etib yurdi. Aragorn jarohatni yumshoq mato bilan bog'lab qo'ydi.

– Sovuting yengil, uni hamisha kiyib yur, – tavsiya qildi Aragorn. – Senda bunday himoya vositasi borligidan xursandman. Taqdir bizni xavfsiz joyga eltib qo'yguncha, uyquga yotayotganda ham yechma uni, garchi bizning zamonamizda unday joyning topilishi amri mahol bo'lsa-da.

Ovqatlanib bo'lgan sayyohlar yo'lni davom etishga hozirlik ko'rishdi. Gulxan o'chirilib, izi bartaraf etildi. Shundan so'ng pastqamlikdan chiqib, yana yo'lga o'tib olishdi. Hech qancha o'tmay quyosh g'arb tomondagi tog'lar ortiga og'di. Endi tog' bag'rida cho'zila boshlagan uzun-uzun soyalar ko'rindi. Tog' tizmasida qosh qorayib, jarliklardan tuman pag'alari ko'tarila boshladi. Olis sharqda oqshomning xiralashib borayotgan osmoni dashtlik va o'rmonlarni hamon yoritmoqda. O'zini ancha yengil his etayotgan Sem bilan Frodo ham el qatori tez odimlashmoqda. Aragorn esa mana uch soatdirki, oradagi qisqa to'xtalishni hisobga olmaganda, Uzuk birodarligini tinimsiz yetaklab ketmoqda.

Qosh qoraydi. Tun yaqin. Osmonda xira yulduzlar birma-bir paydo bo'lmoqda, oying alomati ham yo'q. Gimli bilan

Frodo saf oxirida, asta odimlab, yo‘l atrofidagi tovushlarga diqqat-la quloq tutib, indamay kelishmoqda.

– Shamoldan boshqa hech qanday tovush eshitilmaydi, – jimlikni buzdi nihoyat Gimli. – Yo yaqin o‘rtada birorta ork yo‘q, yo qulog‘im quloq emas daraxt butog‘iga aylanib qolgan. Orklar bizni Moriyadan quvib solish bilan qanoatlanishdi, degan xayoldaman. Ularning asl maqsadi shu bo‘lib, Uzuk haqida hech narsa bilishmasa ham kerak. Garchi orklar tekislikda o‘z dushmanini, odatda, ko‘p lig masofagacha ta‘qib qila olsa-da, ayniqsa, ularning birorta rahnamosi yer tishlagan bo‘lsa.

Frodo indamadi. Yoniga osib olgan Nishga qarab, qurolining tig‘i yorishmaganiga ishonch hosil qildi. Lekin qulog‘i qandaydir tovushni ilg‘ayapti yoki unga shunday tuyulyapti. Gimli ikkalasi ko‘lankaga kirib, ortda qolgan yo‘lni nimqorong‘ilik qamrashi bilan Frodo orqada kimdir tez yurib kelayotganini eshitdi. Mana hozir ham eshityapti birovning qadamini. Hobbit orqaga keskin qaradi. Ko‘zi qorong‘ilikda yorishib, tez g‘oyib bo‘lgan bir juft dog‘ni ilg‘aganday ham bo‘ldi.

– Biror nima ko‘rib qoldingmi? – so‘radi gnom.

– Bilmadim, birovning qadamini eshitib, qorong‘ida yaltiragan ko‘zini ko‘rganday bo‘ldim, – javob berdi Frodo. – Moriya ostonasini hatlab o‘tganimizdan buyon payqab kelyapman buni.

Gimli shu zahoti yonboshlab, qulog‘ini yerga bosdi.

– O‘simliklar bilan toshlarning tungi suhbatidan boshqa hech narsa eshitilmaydi, – ma‘lum qildi u birozdan so‘ng. – Yur Frodo, tezlashaylik, hamrohlarimiz ko‘rinmay qolibdi.

Tunning sovuq shamoli sayyohlarning yuzini silab o‘tmoqda. Daraxt barglarining tinimsiz shovqini eshitgan Uzuk birodarligining oldida keng ko‘lanka paydo bo‘ldi.

– Lotloriyen! – xitob qildi Legolas. – Oltin Lotloriyen o‘rmoniga yetib keldik!

Qorong‘ilikda shox-shabbasi yo‘l ustida chirmashib ravoq hosil qilgan daraxtlar ko‘rindi. Yulduzli osmonning xira shu‘lasida daraxtlar tanasi kulrang tusda, shitirloyotgan barglari

esa sarg'ish-tilla rangda namoyon bo'ldi.

- Lotloriyen! Barglarining shitirlashi-yu, shamolining shovqinini eshitishdan xursandman! – dedi Aragorn. – Moriya darvozasidan uzoqlashgan bo'lsak besh milyaga uzoqlashdik, lekin yo'lni davom eta olmaymiz endi. Umid qilamanki, elflarning bu yerda qilgan ezgu ishlari bizni ta'qib qilayotgan yovuzlikdan himoya qiladi.

– Agar ular yashayotgan bo'lishsa, albatta, mana bu nim qorong'i o'rmonda, – gap qistirib o'tdi Gimli.

– Bir zamonlar biz ham yashagan ushbu zaminga xalqimiz vakillari qaytmay qo'yishganiga ko'p bo'ldi. – dedi Legolas. – Ammo eshitishimizcha, Loriyen kimsasiz emas. To'g'ri, uning aholisini bu yerda kamdan kam uchraydi, lekin qandaydir sirli kuch yovuzlikni ushbu zamin chegarasidan nari o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Elflar endi o'rmon qa'rida, shimol tarafda yashashmoqda.

– Haqiqatan ham, ular ancha ichkarida yashashadi, – dedi bir narsani eslaganday chuqur xo'rsingan Aragorn. – Bugun tunda o'z g'amimizni o'zimiz yeymiz. Daraxtlar panasida bo'lishimiz uchun biroz ichkariga kiraylik, so'ng mana bu yo'lni tark etib, tunash uchun qulay joy qidiramiz.

Boromir olg'a odimlagan Aragornning izidan bormay, ikkilangancha to'xtab qoldi.

-- Boshqa yo'l yo'g'mikan? – so'radi u.

-- Yana qanaqa boshqa yo'l haqida so'rayapsan? -- hayron bo'ldi Aragorn.

– Dushman qilichlaridan ko'tarilgan qoziqdevor orqali o'tsa ham ochiq, tekis, to'g'ri yo'lni so'rayapman, – javob berdi Boromir. – Hamisha baxtsizlik hamroh bo'lgan juda g'alati yo'llardan boshlashdi bizni. Moriya zulmatiga ixtiyorimga qarshi kirib, oqibati ayriliq-la yakun topdi. Endi oltin o'rmonga kirishimiz kerak deyapsan. Biroq biz Gondorda turib eshitganmiz ushbu xavfli zaminning ta'rifini. Bu yerga kirganlar sog' chiqmaydi.

– «Sog' chiqmaydi» emas, «o'zgarmay chiqmaydi» de-

sang, aniqroq tavsiflagan bo'lar eding, – e'tiroz bildirdi Aragorn. -- Modomiki, Gondorda Lotloriyen haqida shunday fikr yuritilar ekan, demak, chindan ham oqillik shahringni asta-sekin tark etmoqda, Boromir. Xoh ishon, xoh ishonma, Lotloriyenga kirishdan o'zga yo'l yo'q. Istasang, Moriyaga kirib, yoki birov bilmas so'qmoqlar orqali tog' oshib ortga qaytishing mumkin.

– Unday bo'lsa yo'l boshla! – dedi Boromir. -- Lekin bilingki, bizni yana xavf kutmoqda.

– Ezigulik xavfi kutadi bizni. Bunday xavfdan faqat yovuzlikkina yoki yovuzlikni niyat qilganlargina qo'rqishi mumkin, – javob qaytardi Aragorn. – Ortimdan yuring, birodarlar!

Hamrohlar o'rmon ichida bir milyacha yo'l yurgach, tepalikdan shaldirab tushib g'arbga, tog'li hududga oqayotgan soyga duch kelishdi. O'ng tomonda sharshara shovqini eshitildi. Sayyohlarning yo'lini kesib o'tayotgan o'rmon soyi Silverloud daryosiga daraxtlar ildizi orasidan o'tib chuqur girdoblarda qo'shiladi.

– Nimrodel soyi, – ma'lum qildi Legolas. – Ushbu soy va mana shu zamin haqida elflar o'z vaqtida juda ko'p qo'shiqlar bitishgan. Biz, shimollik elflar Nimrodelga bag'ishlangan qo'shiqlarni, uning sharsharalari hosil qilgan kamalaklari-yu, suv ko'pigi ustida suzadigan tilla tusli chiroyli gullarini esga olib, hamon kuylab kelamiz. Endilikda hamma narsa katta ko'lanka ostida qolgan, Nimrodel soyi uzra yotqizilgan ko'prik buzilgan, – biroz o'yg'a toldi u. – Oyog'imni yuvib olaman. Aytishlaricha, Nimrodel suvi charchoqni olar emish, – dedi u nihoyat. – Hoy, birodarlar, bu yoqqa kelinglar! – baqirdi tik qirg'oqdan suvga tushgan elf. – Chuqur emas, kechib o'tsa bo'ladi! Narigi sohilda hordiq chiqaramiz. Sharshara shovqini ona allasiday eshitilib, uxlatib qo'ygancha dardimizni yengillatadi.

Qirg'oqda turgan sayyohlar birin-ketin shaffof suvga tushib, Legolasning ortidan soy kechishdi. Frodo biroz to'xtab, charchagan oyog'ini muzday suvda yaxshilab yuvdi, narigi sohilga yetganda charchog'i barham topganini his etdi.

Yo'lovchilar bir yerga o'tirib dam olishdi, biroz tamaddi



qilib, Lotloriyen haqida Legolas hikoya qilgan rivoyatlarni eshitishdi. Ma'lum bo'lishicha, dunyoni ko'lanka qamrab olmasidan oldin buyuk daryo bo'yidagi kun yorug'ining ta'rifini, yulduzlarning yorqin shu'lalari haqidagi qissalarni Yovuz o'rmon elflari qalb to'rida saqlab kelishar ekan.

Nihoyat jimjitlik qaror topib, sayyohlar qorong'ilikda tez oqayotgan sharshara suvining ajib musiqasini eshitishdi. Frodoning nazarida, kimdir suv shovqiniga jo'r bo'lgan cha qo'shiq aytib, kulmoqda.

– Nimrodelning ovozi eshityapsizmi? – so'radi Legolas. – Men sizga qadimda yashab o'tgan shu yerlik qiz haqida qo'shiq aytib beraman. Qizning ismi Nimrodel bo'lib, ushbu ajoyib qo'shiq biz qo'llaydigan o'rmon tilida bitilgan. Dorilomonda qo'llaniladigan vestron tilida qanday kuylanishini bilmayman-u, qo'shiq ma'nosini kuylab bo'lgach aytib beraman.

Legolas barglar shovqinida arang eshitilgan ovozda kuylay boshladi.

Qo'shiqda aytilishicha, qadim-qadim zamonda go'zallikda tengi yo'q, uzun sochining kumush tusi yulduz shu'lasiday yarqiragan, boshiga yulduzlardan tuzilgan bargak<sup>1</sup> taqishni odat qilgan, tabiatan quvnoq, yurishi qanot qoqayotgan qushni eslatadigan elf qiz yashagan. Hozir o'sha qiz qayerdaligini, kun yorug'idami, yo ko'lanka ostida qolib ketganmi, birov bilmaydi. Qizning yurti sharsharalar shovqin soladigan olis tog'lar orasida qolib, baxtiyor kunlar o'tmishda qolgan. Qadimiy runalarda bitilgan qaydnomalarda ham bu haqda hech nima deyilmagan. Kumush bandargohda, qoya ostidagi qirg'oqda Nimrodel ismli o'sha qizni kema kutgan. Tunda, jamiki jahon xotirjam uxlayotgan bir paytda kutilmaganda yovuz shamol ko'tarilib kemani g'arbga, ochiq dengizga haydab ketgan. O'sha kemada Loriyen hukmdori, butalar, gulzorlar va o't-o'lanlarni idora qilgan, xalqining hurmati-yu, e'tiborini qozongan elflar qiroli Amrot

---

<sup>1</sup> **Bargak** (*forscha*) – ayollar peshonasiga, ko'ksiga taqadigan oltin yoki kumush tangalardan tuzilgan barg nusxa ziynat buyumi taqinchoq.

ham bo'lgan. Ertalab bevafo kemasi qirg'oqdan uzoqlashib ketganini ko'rgan qirol kemani la'natlagan cha baliqchi qushday suvga sakrab, dengiz ko'pigida oqqushday suzgancha qirg'oq tomon yo'l olgan. Kemadagi elflar sochini shamol xilpiratayotgan qirol ortidan qarab qolishgan. Sohilda qolgan elflar esa uni uchratishmagan. Tog'lar orasidagi vodiya ro'shnoli uyi bo'lgan ushbu qirol Vatani unut bo'lganday, o'zi ham shu tariqa unut bo'lgan.

– Bo'ldi, qolganini kuylay olmayman, – dedi biroz jim qolgan Legolas. – Bu qissaning bir qismi edi, xolos, qolgan qismi yodimdan ko'tarilgan. Qo'shiq uzoq, mazmunan ma'yus bo'lib, unda gnomlar tog' qariidagi yovuz kuchni uyg'otib yuborgach, Lotloriyenning boshiga tushgan musibat haqida kuylanadi.

– Ammo gnomlar yovuz niyatda bo'lishmagan, – eslatib o'tdi Gimli.

– Men unday demadim, lekin shunga qaramay, ming afsuski, yovuzlik tantana qildi, – ma'yus ohangda javob berdi Legolas. – O'shanda yurt aholisini tashkil etgan aksariyat elflar o'z makonini tashlab ketishga majbur bo'lishdi. O'lkaning o'zi esa olis janubda, Oq tog'lar orsida bedarak ketdi. Mahbubi Amrot kutgan kemaga Nimrodel yetib bormadi. Ammo qizning ismi berilgan mana bu soy oqimi va sharsharasida Nimrodelning ovozi ilg'ab olish mumkin. Agar shamol janubdan, ya'ni dengizdan esadigan bo'lsa, qirol Amrotning qo'shig'i quloqqa chalinib qolishi mumkin. Chunki Nimrodel soyi elflar Kelebrant deb ataydigan Silverlound daryosiga, Kelebrant o'z navbatida Anduin daryosiga, Anduin daryosi esa olis dengizning Belfalas ko'rfaziga<sup>1</sup> quyiladi. Loriyen elflari o'sha ko'rfazdan ochiq dengizga chiqib ketishgan. Biroq na Nimrodel, na Amrot ortga qaytgan.

Aytishlaricha, Nimrodelning uyi sharshara yaqinidagi daraxt shoxlari orasida qad ko'targan. Chunki Loriyen elflari o'rmon daraxtlarining baland shoxlarida yashashgan, balkim,

---

<sup>1</sup> Ko'rfaz – okean, dengiz yoki ko'lning quruqlik ichkarisiga kirgan qismi; qo'ltiq.



hozir ham shunday yashashar. Binobarin, ularni galadrim elflari, ya'ni o'rmon qa'rida, uning bahaybat daraxtlar o'sadigan qismida yashaydigan o'rmon xalqi deb atashgan. O'rmon xalqi gnomlardan farqli o'laroq yer qazimaydi, toshdan qasr qurmaydi.

– Darhaqiqat, bugungi davrimizda yerda o'tirgandan ko'ra daraxtda yashagan xavfsizroq, – ta'kidlab qo'ydi Gimli, dastlab Dimrill vodiysiga eltadigan yo'lga, so'ng bosh ustidagi qoramtir shox-shabballardan hosil bo'lgan shiftga qarab qo'yib.

– Ushbu fikringni durustgina maslahat sifatida ko'rish mumkin, qadrdomim Gimli, – ma'qul topdi Aragorn. – Garchi uy yasashga ulgurmasak-da, bugun tunda galadrim elflari kabi ish tutib, uddalay olsak, daraxt uchida tunaydigan joy qidirib topamiz. Chunki biz shundoq ham ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib, yo'l yaqinida haddan ortiq uzoq o'tirib qoldik.

Sayyohlar o'rmonning ichkarirog'iga yo'l olib, tog' soyi oqimi bo'ylab yurgan cha Silverloudning g'arbiga, katta yo'ldan nariga uzoqlashishdi. Nimrodel sharsharasi yaqinida shox-shabbasi soy ustiga osilib tushgan daraxtlar guruhi topildi. Tanasi nihoyatda yo'g'on ushbu daraxtlarning bo'yini yerda turgan cha aniqlab bo'lmaydi.

– Hozir men yuqoriga chiqaman, – dedi Legolas. – Daraxtlar, ildiz-u, shoxlar orasida o'zimni o'z uyimda yurganday his etaman, garchi mana bu daraxtlar menga notanish bo'lib, nomlarini faqat qo'shiqlarda eshitgan bo'lsam-da. Masalan, men chiqmoqchi bo'lgan ushbu daraxt nomi mellorn bo'lib, tilla tusli barglarga ega bo'ladi. Uni muqaddam ko'rmaganman. Qani, bargining shakli va o'lchami qanaqa bo'lishini bilaylik-chi.

– Nomi nima bo'lishidan qat'i nazar, qushdan tashqari boshqa maxluqotlarga ham tunash imkonini beradimi, demak, ajoyib daraxt ekan bu, – dedi Pin. – Lekin men tovuq singari qo'noqda o'tirib uxlay olmayman!

– Unday bo'lsa anavi tepalikda ko'nglingga yoqqanday uya qazishga kirish, – javob berdi Legolas. – Lekin uyangni tez va juda chuqur qazishing kerak bo'ladi, agar orklardan bekinib olishni istasang.

Yuqoriga chiqishga taraddudlangan elf bir sakrab daraxtning ancha balanddagi shoxiga osonlikcha ilashib oldi. Shu fursatda yo'lovchilarning boshi ustidagi shox-shabba orasidan kimdir buyruq ohangida baland baqirdi:

– Daro!

Qo'rquv va hayrat tuyg'ulari uyg'unlashib ketgan Legolas shu zahoti yerga sakrab tushdi.

– Qimirlamay, turgan joyingizda tek qoting! – pichirladi u hamrohlariga. – Bir og'iz so'z aytmang.

Sayyohlarning boshi ustida kulgi eshitilib, kimdir elf tilida so'zlay ketdi. G'uborli tog'larning sharqidagi elflar shevasi g'arbiy elflar shevasidan kuchli farq qilgani bois, qulog'iga chalingan gaplarning hammasini ham Frodo tushuna olmadi. Boshini ko'targan Legolas sharqiy shevada javob qaytardi.

– Kim ekan, nima kerak ekan ularga? – so'radi Merri.

– Ovozidan tanimadingmi, elflar-u? – tushuntirgan bo'ldi Sem.

– To'g'ri, elflar, – dedi Legolas. – Aytishlaricha, nafas olishlaring chunonam baland eshitilar ekanki, qorong'ida bexato otib yiqitish mumkin ekan sizlarni.

Buni eshitgan Sem shu zahoti kaftini og'ziga bosdi.

– Lekin ulardan qo'rqishga hojat yo'q, – tinchlantirdi Legolas. – Elflar kelishimizni bilib, ko'pdan buyon kutishayotgan ekan bizni. Ovozimni Nimrodel sharsharasi ortidan eshitib, shimoldan kelgan qarindoshlari ekanimni darhol fahmlashibdi. Binobarin, soy kechib o'tishimizga monelik qilishmabdi. Shundan so'ng, men aytgan qo'shiqni eshitishibdi. Aftidan, ular biz haqimizda eshitishgan, safarimiz bilan bog'liq ba'zi narsalarni bilishadigan ko'rinadi, Frodo ikkalamiz yuqoriga ko'tarilishimizni so'rashyapti. Qolganlardan esa, toki ular bir qarorga kelishguncha, shu yerda kutib turishni iltimos qilishyapti.

Yuqoridan bir qarashda nozik ko'rinayotgan, lekin bir nechta odamni birdaniga ko'taradigan pishiq arqondan to'qilgan, qorong'ilikda kumush-kulrang tusda yaltirayotgan zina tushdi. Legolas arqon zinaga tarmashib osonlikcha ko'tarildi. Frodo

uning ortidan shoshilmay chiqdi, ovoz chiqarmay nafas olishga uringan Sem ham Frododan qolishmadi.

Mellorn shoxlari daraxtning tik tanasiga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilganicha har tomon tarvaqaylab ketgan. Daraxt tanasining uchi esa ko'p shoxlarga bo'linib, o'rtada yog'och so'ri yasalgan. Ushbu so'ri flet, elf tilida esa talan deb ataladi. So'ri-ning o'rtasida yumaloq tuynuk ochilgan bo'lib, arqon zina o'sha tuynukdan tushiriladi.

Fletga chiqqan Frodo Legolasni uch nafar boshqa elf davrasida o'tirganini ko'rdi. Ularning egnidagi kiyim to'q kulrang bo'lib, agar daraxt shoxlari orasida harakatsiz turishsa ko'z ilg'ashi qiyin kechadi. Frodoni ko'rgan elflar o'rinlaridan turishdi. Ulardan biri kumush tusda shu'la taratadigan mo'jazzgina fonus tutdi. Frodo bilan Semning yuzini yoritib qaragach, fonusni chetga olib, elf tilida salomlashdi. Frodo ham, tutilib bo'lsa-da, alik qaytardi.

– Xush kelibsizlar! – gap boshladi elf umumiy tilda. – Ko'pdan buyon o'rmonning naq o'rtasida yashayotganimiz bois, boshqa xalqlar bilan deyarli muloqot qilmay qo'yganmiz va binobarin, o'z tilimizdan tashqari, o'zga tilda kamdan kam holatlarda gaplashamiz. Biroq ayrim elflar tashqi dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lib, dushman harakatlarini kuzatib borish maqsadida o'rmondan tashqariga chiqib turishlari kerak bo'ladi. Ana o'sha elflar chet tillarini bilishadi. Unday elflardan biri o'zim bo'laman. Ismim Xaldir. Bular mening ukalarim Rumil va Orofin bo'lib, sizning tilingizda yaxshi gapira olishmaydi.

O'rmonimizga kirib o'tishingizdan xabarimiz bor edi. Elrond xabarchilari Dimrill zinasidan uyga qaytishayotganda Loriyen orqali o'tishgan. To'g'risini aytganda, ko'pdan buyon pakana xalq... ya'ni hobbitlar haqida eshitmagan edik. Shu bois ular hanuzgacha O'rtayerda yashashayotganidan bexabar qolibmiz. Zobiran baho beriladigan bo'lsa, yovuz toifa vakillariga o'xshamaysiz. Modomiki, elf qarindoshimiz bilan birga tashrif burgan ekansiz, Elrond tayinlaganidek, sizlarni do'stona ruhda qabul qilamiz, garchi ajnabiylarni hududimiz orqali o'tkazadigan

odatimiz bo'lmasa-da. Bugun shu yerda tunab qolishingiz mumkin. Jami necha kishisizlar?

– Sakkiz kishimiz, – javob berdi Legolas. – Men, to'rt nafar hobbit, ikki nafar oddiy inson. Ulardan biri Aragorn – g'arbiy elf xalqining do'sti.

– Araxornning o'g'ii Aragorn Loriyenda begona emas, – dedi Xaldir. – Sohibamizning hurmatini qozongan kishi bo'ladi u. Ma'qul, lekin sen yetti kishini sanab o'tding, xolos.

– Sakkizinchi hamrohimiz gnom, – dedi Legolas.

– Gnom! – xitob qilib yubordi Xaldir. – Ular bilan o'tmishdagi qora kunlardan buyon muloqot qilmay qo'rganmiz. Yurtimiz sarhadlariga gnomlarning kirishi man etilgan. Ichkariga kirishga ijozat bera olmayman unga.

– Lekin u So'qqa tog' gnomi, qirol Deynga yaqin kishilardan biri, Elrondning do'sti sanaladi, – dedi Frodo. – Elrondning o'zi uni Uzuk birodarligi tarkibiga kiritdi. Gimli ishonch qozongan, mard va jasur kishilardan biri.

Shundan so'ng elflar o'z tilida pichirlashib suhbatlashgancha, aftidan, Legolasni so'roqqa tutishdi.

– Juda soz, – dedi nihoyat Xaldir. – Fikringizni istar istamas inobatga olamiz. Modomiki, Aragorn bilan Legolas kafillik berar ekan, mayli o'tkazganimiz bo'lsin uni. Biroq Loriyenda bo'lgan vaqt davomida uning ko'zi boylangan bo'ladi. Ushbu masalani ortiq muhokama qilmaymiz. Hamrohlaringiz yerda qolmasin. Bundan ancha kun oldin Moriya tomon yo'l olgan orklarning yirik qo'shini tog' tizmasi bo'ylab o'rmonimiz yonidan o'tgandan buyon Nimrodel soyi bo'yida qo'riqlash xizmatini tashkillashtirganmiz. Lotloriyen sarhadlari yaqinida har kuni yirik bo'rilar uvlamoqda. Agar chindan ham Moriyadan kelayotgan bo'lsangiz, ta'qib qilib kelayotganlar uzoq emas. Ertaga ertalab bu yerlarni tark etishingiz lozim.

To'rala hobbit shu yerga chiqsin. Biz ulardan qo'rqmaymiz. Ho'v anavi daraxtda esa shunga o'xshash yana bir talan bor. Qolganlar o'sha yerga chiqib tunashsin. Sen, Legolas, o'sha talandagi hamrohlar uchun javob berasan. Biror gap bo'lsa,

darhol bizni chaqirasan. Ha, aytganday, gnomdan ko‘z uzma!

Legolas hamrohlariga Xaldirning ko‘rsatmasini yetkazish uchun zudlik bilan narvondan pastga tushib ketdi. Ko‘p o‘tmay, baland fletga Merri bilan Pin chiqib kelishdi.

– Ushla! – dedi hansiragan Merri. – Adyollaringizni ko‘tarib chiqdik. Qolgan narsalarimizni esa Musofir xazon ostiga yashirib qo‘ydi.

Shart emas edi adyol ko‘tarib chiqish, -- e‘tiroz bildirdi Xaldir. Qishda daraxt uchi balandligida sovuq bo‘ladi, ammo bugun janubdan iliq shamol esmoqda. Boz ustiga, siz uchun yegulik, ichimlik, mo‘ynali po‘stin va plash zaxiralari topiladi.

Hobbitlar ikkinchi, ancha mazali kechki ovqatni bajonidil qabul qilishdi. Ovqatlanib olgach, elflarning mo‘ynali po‘stini-yu, o‘z adyollariga o‘ranib, uyquga yotishdi. Qattiq charchagan Sem shu zahoti uxlandi.

Pakana xalq balandlikni yoqtirmaydi, yuqori qavatda uxlamaydi. Mana bu flet esa xallarning xobxona haqidagi tasavvuriga sig‘maydi. Na panjarasi bor bu so‘rining, na devori. Shamol yo‘nalishiga olib o‘tiladigan bitta ko‘chma qalqoni bor, xolos.

– Mabodo ushbu boloxonada uxlab qolsam, umid qilamanki, yerga qulab tushmayman, – dedi anchagacha vaysab yotgan Pin.

-- Men esa, uyqum kelib qolguday bo‘lsa, har qanday joyda tarashaday qotib uxlayman, -- uyqusiragancha javob berdi Sem.

Frodo uyqusi kelmay, asta titrayotgan barglarning ingichka pardasi orqali yaltirab ko‘rinayotgan yulduzlarni tomosha qilib yotdi. Yonidagi Sem esa anchadan buyon pishillamoqda. Elflarning qo‘lini tizzasiga qo‘yib olgan ikki nafari asta pichirlab o‘tiribdi. Uchinchi elf navbatchilik qilgani so‘ridan pastga tushib, shoxlardan biriga joylashib olgan. Nihoyat Frodo tepadagi shox-shabbaning tebranishi, boya Legolas aytganday, Nimrodel soyi sharsharasining alladay eshitilgan shovqini ta‘sirida uxlab qoldi. Oxirgi eshitgan narsasi narigi daraxtdagi

Legolasning qo'shig'i bo'ldi.

Tun yarmida uyg'ongan Frodo uxlab yotgan hamrohlarini ko'rdi-yu, elflarni ko'rmadi. Oy hiloli barglar orasida xira yorishmoqda. Shamol tingan, pastda xirildoq kulgi va ko'pdan ko'p oyoqlarning dupur-dupuri, metall jarangi eshitildi. Shovqin janub tomon uzoqlashib, o'rmon qa'riga kirib ketganday bo'ldi.

Daf'atan flet tuynugida bosh paydo bo'ldi. Cho'chib ketgan Frodo yotgan o'rniga o'tirib, boshiga kulrang qaytarma qalpoq tashlab olgan elfni ko'rdi. Elf hobbitlarni ko'zdan kechirib chiqdi.


– Tinchlikmi, nima edi u? – so'radi Frodo.

– Irx! – javob berdi arqon zinani so'riga tashlagan elf hushtakday eshitilgan past ovozda.

– Orklar! – xitob qildi Frodo. – Qani ular, nima qilish-yapti?

Savolga javob berishni lozim topmagan elf ko'zdan g'oyib bo'ldi. Anavi tovushlar, hatto barglarning shitir-shitiri bilan sharsharaning shovqini ham tinganday go'yo. Adyolga o'ranib o'tirgan Frodo dag'-dag' qaltiramoqda. Xayriyatki, tunagani bugun pastda qolishmabdi, ammo bekinib olish uchun qulay boshpana bo'lmish mana bu daraxt dushmandan ishonchli himoya qila oladigan vosita sifatida xizmat qilishiga Frodo shubha qildi. Ma'lumki, hid bilish qobiliyati itning bunday qobiliyatidan qolishmaydigan ork daraxtga ham tarmasha oladi. Frodo yalang'ochlab olgan Nish moviy rangda yaraqlab, birozdan so'ng tusi xiralashib, shu'lasini o'chdi. Shunga qaramay, Frodoning hadik-sirashi bosilmay, aksincha, kuchaydi. O'rnidan qo'zg'algan hobbit emaklab borib, so'ri markazidagi tuynukdan pastga qaradi. Pastda, daraxt tagida nimadir o'g'rincha ivirsib yuribdi. Bunga zig'irday bo'lsin, shubha yo'q. Elf emasligi ham aniq. Zero, o'rmon xalqining harakati tovushsin kechadi. O'sha nimadir pishqirgan tovush chiqarib, daraxt po'slog'ini tirnadi. Frodo nafas chiqarmay pastga, zimistonga tikildi.

Endi noma'lum maxluq daraxtga tarmashib, mahkam siqilgan tish orasidan chiqadigan hushtakday nafas olayotgani



eshitildi. Daraxt tanasi bo'ylab ko'tarilayotgan bir juft xira ko'z kutilmaganda to'xtab, yuqoriga baqraygancha tek qotdi, so'ng da'atan g'oyib bo'ldi. Uning sharpasi pastga sirpanib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Daraxtga nimadir tarmashib chiqdi, – dedi shoxlar orasida shovqinsiz paydo bo'lgan Xaldir. – Ork emas edi u. Daraxtga qo'l tekkizganimni his etdi-yu, qochib qoldi. Juda ehtiyotkor ko'rinadi. Daraxtga yaxshi tirmashar ekan, aks holda uni navbatdagi hobbit sifatida e'tirof etgan bo'lar edim. Ortiqcha shovqin ko'tarmaslik uchun otib yiqitmadim. Chunki hozir tavakkal qila olmaymiz. Yonimizdan orklarning qudratli bo'linmasi o'tib, Nimrodel soyini kechib ketdi, pok suvni harom qilgan iflos oyoqlariga la'natlar bo'lsin ularning! Ular izingizdan yurib, to'xtagan joyingizni ko'zdan kechirib chiqishdi. Biz atigi uch kishi bo'lib, yuzdan ortiq orklar bo'linmasiga qarshilik ko'rsata olmaymiz. Shu bois oldinga chiqib, ovozlaringga taqlid qilgan-cha elflarni o'rmon qa'riga boshlab ketdik. Ukam Orfin elflar maskani tomon yugurdi. Loriyenga kirgan birorta ork tirik chiqmaydi bugun. Ko'plab elflar o'rmonning shimoliy sarhadlarida pistirma uyushtirib, kelasi tunga qadar bekinib o'tirishadi. Sizlar esa tong otishi bilan janub tomon yo'l olishingiz kerak.

Sharq osmoni asta yorisha boshladi. Sarg'aygan barglar orasidan yorug'likning xira nuri singib kirib, bugungi tong hobbitlarga yoz kunining salqin tongiday tuyuldi. Asta yorishayotgan moviy osmon tebranayotgan shox-shabba orasidan ko'rinish bermoqda. Fletning janubiy tomonidagi tirqish orqali tashqariga qaragan Frodo Silverloud vodiysini yengil shabadadan asta to'liqlanayotgan och tilla tusli dengizga o'xshatdi.

Sayyohlar Xalrir bilan Rumil boshchiligida yo'lga chiqishgan paytda tong hali salqin edi.

– Xayr go'zal Nimrodel! – xitob qildi Legolas.

Frodo o'girilib, daraxt tanalari orasida sharsharaning oppoq ko'pigini ko'rdi.

– Alvido! – pichirlab xayrlashdi u, nazarida, shaldira-yotgan suvning bunday nafis musiqasini qayta eshitmaydiganday



bo'lib.

Hamrohlar katta yo'lga chiqib, Silverloudning g'arbiy qirg'og'i bo'ylab muayyan vaqt yurishdi. Hamma joyda ork izi. Ko'p o'tmay Xaldir yo'ldan chetga chiqib, daryoning tik pastlagan qirg'og'ida, daraxt ostida to'xtadi.

– Qabiladoshlarimdan biri sizlarni narigi sohilda kut-yapti, garchi siz uni ko'rmayotgan bo'lsangiz-da, – ma'lum qildi u.

Xaldirning qushga taqlid qilib chalgan hushtagiga javo-ban qalin o'sgan yosh daraxtlar orasidan egniga kulrang kiyim kiygan, qaytarma qalpog'ini orqaga tashlab olgani bois sochi quyoshda tilla rangida yaraqlayotgan elf chiqib keldi. Xaldir qo'lidagi arqon kalavasini narigi sohilga mohirona uloqtirdi. Narigi elf kalavani tutib olib, bir uchini baquvvat daraxt tanasiga bog'ladi.

– Ko'rib turganingizdek, Kelebrantning oqimi bu yerda nisbatan shiddatli kechadi. Boz ustiga, suvi juda sovuq bo'lib, daryoning ushbu qismi ancha chuqur, – ma'lum qildi Xaldir. – Daryoning shimolida biz imkon qadar suvga tegmaslikka harakat qilamiz. Bugungi taxlikali zamonda ko'prik ham solmaymiz. Zarur bo'lgan vaziyatda uni quyidagicha oshib o'tamiz. Ortim-dan yuring!

U arqonning ikkinchi uchini daraxtga tarang tortgancha bog'lab, hosil bo'lgan dorda katta yo'lda yurganday daryoning narigi sohiliga bermalol borib qaytdi.

– Men-u o'ta olaman, lekin hamrohlarim bunday mahora-tga ega emas, – dedi Legolas. – Suzib o'tishsa bo'ladimi, ular?

– Yo'q, – ko'nmadi Xaldir. – Bizda yana ikki kalava arqon bor. Ularni ustma-ust, xususan, birini bel, ikkinchisini yelka barobarida tortib bog'laymiz. Shunda ajnabiylar ikkita ar-qonni ushlab, oyoq ostidagi uchinchi arqonda yurib o'tib olisha-di.

Sayyohlar nozik ko'prikdan kimdir asta-sekin, kimdir tez yurib, narigi sohilga o'tib olishdi. Hobbittlar orasida Pin bu masalada ancha chapdast bo'lib chiqdi. Chunki u pastga emas





to'g'riga, narigi sohilga qarab, arqonni bir qo'lda ushlab yurdi. Arqonni ikki qo'li bilan ushlab, tog'ning tubsiz jarligiga qaraganday suv girdobiga baqrayib qolgan Semning tabiiy to'siqni yengib o'tishi ancha qiyin kechdi.

– Beshikdan qabrgacha saboq ol! – dedi u, sohilga yetgach. – Buni menga otam aytgan. To'g'ri, u tovuqqa o'xshab qo'noqda yurish yoki o'rgimchakday tarmashish mahoratini emas, bog'dorchilikka doir saboqlarni nazarda tutgan edi, albatta. Hatto bebosh amakim Endi ham bunday xavfli qiliq qilmagan.


Silverloudning sharqiy sohiliga o'tilgach, Uzuk birodarligi bilan qolgan elflar arqonning ikki kalavasini yechib, o'rab olishdi. G'arbiy sohilda qolgan Rumil esa uchinchi kalavani o'rab yelkasiga tashladi-da, qo'l siltab xayrlashgancha, chegara xizmatini davom etgani Nimrodelga qaytib ketdi.

– Ana endi, do'stlarim, sizlar go'zal Loriyen hududiga qadam bosdingiz, – ma'lum qildi Xaldir. – Uni Pona ham deyishadi, chunki ushbu hudud Silverloud bilan Buyuk Anduin orasiga sanchilgan nayza uchiga o'xshaydi. Josuslarga o'rmonimizning sir-asrori bilan tanishib chiqishga imkon bermaymiz. Bu zaminga kamdan kam kishi oyoq bosadi. Muqaddam kelishib olganimizdek, gnomning ko'zini bog'lab qo'yaman. Qolganlar esa daryolar burchak hosil qilgan joy – Engladildagi maskanimizgacha erkin borishlari mumkin.

Bu gap Gimliga yoqmadi.

– Kelishuv mening ishtirokimsiz, xohishimsiz bo'lgan. Allaqanday iltimoschi yoki asir olingan josus singani ko'zim bog'langan holda yurish niyatim yo'q, – bayonot qildi gnom. – Men ayg'oqchi emasman. Mening xalqim dushman malaylari bilan hech qachon aloqa o'rnatmagan. Elf xalqiga ham ziyon yetkazmagan. Men ham xuddi Legolas va boshqalar kabi sizlarga sodiqman, xiyonat qilmayman.

– Bu masalada zig'irday bo'lsin shubha qilmayman, biroq qabul qilingan qonun-qoidamiz shuni taqozo etadi, – javob berdi Xaldir. – Men joriy etmaganman ularni, demakki, ijrosini



ham bepisand qoldira olmayman. Men shundoq ham senga Kelebrantni oshib o'tishga ijozat berib, o'z zimmamga haddan ortiq mas'uliyatni yuklab oldim.

– Men yo qolganlar kabi erkin holatda olg'a ilgarilayman, yo ortga qaytib, Yovvoyi o'lkada yolg'iz o'zim o'lib ketsam ham, chin so'zimga ishonadigan boshqa yo'l qidiraman, – dedi qaysarligini qo'ymagan Gimli ikki tomon tashlagan oyog'iga tiralib olgancha, qo'lini jangovar tabarining sopiga qo'yib.

– Ortga qayta olmaysan, – rad etdi Xaldir qat'iy ohangda. – Modomiki, hududimizning ancha ichkarisiga kirib kelgan ekansan, sohibim va sohibamga uchrashing shart. Ular hal qilishadi seni ushlab qolish yoki ortga qaytib ketishingga ijozat berishni. Daryoni ham oshib o'ta olmaysan. Boz ustiga, seni kuzatib turgan qo'riqchilar ko'p. Ularni ko'rishga ulgurmay halok bo'lasan.

Gimli jangovar tabarini qo'liga oldi. Xaldir bilan uning qabiladoshi kamonni o'qlab ipini tortishdi.

– Gnomlarga, ularning o'jar miyalariga o'lat teksin! – xitob qildi Legolas.


– Shoshmanglar! – to'xtatdi Aragorn. – Uzuk birodarligiga hozircha men rahbarlik qilyapman. Binobarin, iltimosim inobatga olinishi kerak. Nafsoniyatning bunday kamsitishga do'stimiz gnomning yolg'iz o'zi dosh berishi qiyin, albatta. Shunday ekan, yaxshisi hammamizning, biz qatori Legolasning ham ko'zini bog'lang. Shunday qilsak to'g'ri bo'ladi, garchi safar cho'zilib, zerikarli o'tsa-da.

Gimli kutilmaganda kulib yubordi.

– Unda biz tentaklarning quvnoq guruhiga aylanib qolamiz, – dedi u. – Sizlarni emas, faqat Legolasning ko'zi bog'lansa, mayli roziman.

– Men elfman, joylik elflarning uzoqda yashaydigan yaqin qarindoshi bo'laman, – o'shqirdi Legolas, achchiqlanib.

– Xo'sh, endi: «elflarga, ularning o'jar miyalariga o'lat teksin!», deya o'kirishga to'g'ri keladimi? – istehzo qildi



Aragorn. – Shuning uchun birodarligimizning jamiki tarkibi umumiy qismatni teng baham ko‘rishi kerak. Ko‘zimizni bog‘lang, Xaldir.

– Har bir yiqilgan holatim, jarohatlangan har bir barmog‘im uchun to‘liq badal to‘lanishini talab qilgancha turib olaman, agar bizga yo‘l ko‘rsatib borishni yaxshi uddalay olmasang, – dedi ko‘zi bog‘lanayotgan Gimli.

– Unday da‘voga o‘rin bo‘lmaydi, – javob berdi Xaldir. – Sizlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib boraman. Biz yuradigan yo‘l ravon va tekisdir.

– Qandaydir bema‘ni kun, bema‘ni ish bo‘lyapti bugun! – e‘tiroz bildirdi Legolas. – Hammamiz umumiy dushmanga qarshi birlashgan ittifoqchilarmiz, shunga qaramay ko‘zim bog‘langan holatda yurishimga to‘g‘ri kelyapti, quyosh oltin barglarini chiroyli yoritgan shunday bir kunda-ya!

– Darhaqiqat, bema‘nilik, – ma‘qulladi Xaldir. – Zulmat hukmdoriga qarshi kurashayotganlar bir-birini mana shu tarzda o‘zaro bo‘lib, ayirishi – umumiy dushman ta‘siri-yu, qudrati amalda namoyon bo‘layotganidan yaqqol dalildir. Biroq, afsuski, agar Dorilomonni istisno qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda Lotloriyenning tashqarisida sadoqat bilan haqiqat kamdan kam uchraydigan shunday bir vaziyat qaror topdiki, ona zaminimizni biron bir baloga duchor qilmaslik uchun birovga ishonmay qo‘ydik. Ayni damda biz son-sanoqsiz xavf-xatar o‘rtasida qolgan orolda kun kechirib, ming afsuski, qo‘limiz arfa torini emas, kamon ipini ko‘proq tortmoqda. Daryolar ko‘pdan buyon himoya qilib kelgan edi bizni, endi esa – yo‘q. Yurtimizning shimol tomonidagi hududlarni ko‘lanka qopladi. Ayrim elflar ko‘chib ketish masalasini ko‘tarishmoqda, ammo, aftidan, bu masalada ham kech qolgan ko‘rinamiz. G‘arb tog‘larini yovuzlik egallagan, sharq tomonda mavjud yerlarda birov yashamay, Sauron malaylari izg‘ib yurishadi. Bizgacha yetib kelgan mish-mish gaplarga qaraganda Rohan yo‘li endi xavfsiz emas, buyuk daryo etagini esa dushman batamom nazorat ostiga olgan. Dengiz sohiliga bir amallab yetib olganimizda ham boshpana topa

olmaymiz. Aytishlaricha, Belfalas ko'rfazidagi bandargohdan tashqari, qayerdadir oliy elflarning ham bandargohi bor emish, ammo u yer olis shimol va g'arb tomonda, pakanalar yurti ortida joylashgan ekan. Sohib bilan sohiba bilar, ehtimol, u yerlarni, lekin men bilmayman.

– Bizga qarab fahmlashing mumkin, – dedi Merri. – Darhaqiqat, hobbitlar yashaydigan yurt ortida elflarga qarashli bandargohlar bor.

– Hobbitlar baxtli xalq ekan-da, demak, dengiz bo'yida yashaydigan bo'lsa! – xavas qildi Xaldir. – Xalqimiz vakillari dengiz ko'rmaganiga ko'p bo'ldi, lekin to'liqlarining qo'shig'ini hali hamon eslaymiz. O'sha bandargoh haqida gapirib bering, manzilga yetgunimizcha.

– Bir nima deyishim qiyin, chunki ularni hech qachon ko'rmaganman, – javob berdi Merri. – Ilgari ona yurtim sarhadidan tashqariga chiqmaganman. Agar dunyoning men ko'rgan qiyofaga egaligini oldindan bilganimda Shir chegarasini hatlab o'tishga hech qachon jur'at etmagan bo'lar edim.

– Go'zal Lotloriyenni ko'rib ketish uchun ham-a? – so'radi Xaldir. – Dunyoning chindan ham xavf-xatarga to'lib-toshgan, yovuzlik makon topgan joylari ko'p, ammo unda go'zal joylar ham bor. Garchi endi muhabbat ko'p joylarda musibat-la uyg'unlashib ketgan bo'lsa-da, dunyo batamom yovuzlashib ketmagan. Oramizda ko'lanka barham topib, yana tinchlik qaror topishi haqida kuylaydiganlar ham ko'p. Lekin men dunyoning qadimgi holati tiklanishiga, quyosh olamni ilgorigiday yoritib isitishiga ishonmayman. Dengizga yetib olib, O'rtayer mangu tark etiladigan kungacha dushman bilan vaqtinchalik sulh tuzishni – elflar uchun eng maqbul yo'l, deb bilaman. Lotloriyenni juda yaxshi ko'raman, mellorn o'smaydigan joydagi hayot qanchalik zerikarli kechishini tasavvur qilib ko'ryapman, biroq iloj qancha!


Hamrohlar shu tarzda suhbat qurib ketishdi, Xaldir oldinda, uning sherigi orqada bordi. Yo'l tekis va yumshoqligiga ishonch hosil qilgan ko'zi yopiq yo'lovchilar muayyan vaqt o'tgach, yiqilib jarohatlanishdan hadiksirashayotganiga qara-

may, nisbatan erkinroq yura boshlashdi. Ko'rish huquqidan mahrum bo'lgan Frodo eshitish qobiliyati va boshqa sezgi organlarining ishi faollashganini his etdi. Xususan u, daraxtlar-u, o't-o'lanlar hidini farqlab bordi, boshi ustidagi daraxt barglarining shitirlashida ko'plab notalar turlicha o'zgarib borayotganini, o'ng qo'l tomondagi daryo shovqinini, qushlarning nafis sayrab uchayotganini eshitdi. O'rmon yalangligidan o'tayotganini esa qo'li va yuziga tushgan quyosh taftidan fahmlab bordi.

Silverlouddan oshib o'tib, o'rmon qa'riga kirib borayotgan Frodoning vujudini qo'rqinchli bir tuyg'u qamray boshladi: nazarida, u hozirgina vaqt ko'prigidan qadimiy davrning bir burchagiga o'tib, allaqachon yo'q bo'lib ketgan dunyo o'rmonida yurayotganday bo'lyapti. Dorilomonda qadimiy davrni xotirlash kundalik odat bo'lgan, Loriyen dunyosida esa hayot hamon qadimiy davrda kechayotganday go'yo. Bu yerda yovuzlikni ko'rishgan, yovuzlik haqida ko'p eshitishgan, musibat nimaligini esa uni boshdan o'tkazib bilishgan. Mahalliy elflar tashqi dunyoga ishonmay, undan hadiksirashadi, o'rmon chegarasi yaqinida bo'rilar uvlashadi, Loriyen zaminida esa yovuzlikning dunyoni qamrab olgan katta ko'lankasidan asar ham yo'q.

Oqshom salqini his etilib, tungi shamolning shoxshabbalar orasidagi shitir-shitiri eshitilguncha Uzuk birodarligi kun bo'yi faqat olg'a yurdi. Yo'lovchilar hech nimadan hadiksiramay yerga joy solib yotishdi, ko'z bog'lamini yechish, daraxtga chiqib olishga ijizat berilmadi. Ertalab yana yo'lga chiqib, shoshilmay odimlashdi. Kun yarmida to'xtashdi. Frodo quyosh taftini his etib, kutilmaganda atrofida ko'pchilik gaplashayotganini eshitdi.

Aniqlanishicha, ovoz sohiblari elflar bo'linmasi bo'lib, Moriya hamlasidan himoya qilish maqsadida zudlik bilan shimoliy chegaraga yetib borishga oshiqayotgan ekan. Ushbu bo'linma keltirgan yangiliklarning ayrimlarini Xaldir Uzuk birodarligiga tarjima qilib berdi. Lotloriye o'rmoniga bostirib kirgan kechagi orklar bo'linmasi, ma'lum bo'lishicha, tuzoqqa jalb etilib, deyarli batamom qirib tashlangan. Omon qolgan orklar




g'arb tomon, toqqa qarab qochgan bo'lib, ayni damda bari ta'qib qilinmoqda. Bundan tashqari, belini bukib yuguradigan, qo'li hayvonning qo'liday yergacha cho'zilib o'sgan, lekin hayvon bo'lmagan yana bir g'alati maxluqni ko'rishgan. Hozir u Silverloud daryosida suzmoqda. Yaxshi yoki yomon niyatli ekanligini aniqlay olmagan elflar uni otib o'ldirishga jur'at etishmagan.

Shuningdek, ular menga Galadrim hukmdori bilan Lotloriyen sohibasining farmoyishini yetkazishdi, – ma'lum qildi Xaldir. – Dorilomondan tegishli xabar kelgan, shekilli, ham-mangiz, shu jumladan, gnom Gimli ham erkin yurish huquqiga ega bo'ldi. Sohibam Uzuk birodarligining har bir a'zosini yaxshi bilar ekan.

Elf birinchi bo'lib Gimlining ko'z bog'lamasini yechdi.

– Uzrimni qabul etasan! – dedi elf gnom qarshisida chuqur ta'zim aylab. – Xalqimga do'stona nigoh-la qarashingni iltimos qilaman. Atrofni tomosha qilib, go'zallikdan zavqlanishing mumkin. Zero sen, Dyurin zamonidan buyon Loriyen o'rmonining daraxtlarini o'z ko'zi bilan ko'rayotgan birinchi gnom bo'lding.

Ko'z bog'lamasi yechilib, manzarani ko'rgan Frodoning nafasi ichiga tushub ketdi. Uzuk birodarligi ochiq maydonda turibdi. Chap qo'l tomonda erta bahorda sabza bo'ladigan yam-yashil maysa qamragan ulkan qo'rg'on qad ko'targan. Qo'rg'on tepasida qo'sh halqa shaklida tizilgan daraxt qatori o'sgan. Tashqi halqa daraxtlarining po'stlog'i qorday oppoq. Bargi to'kilib, yalang'ochlangan bo'lsa-da, juda chiroyli ko'rinmoqda. Daraxtlarning ichki halqasi och tilla tusda yaltirayotgan osmono'par mellornlardan tashkil topgan. Halqa o'rtasida esa yolg'iz o'sgan nihoyatda ulkan daraxt mavjud. Uning baland shoxlari orasida yasalgan oq flet ko'zga tashlandi. Daraxt qatorlari ostida, umuman, qo'rg'onning yashil bag'rida shakli tilla tusli yulduzni eslatadigan mayda gullar o'sgan. Ushbu gullar orasida xushbichim poyasida ohista tebramayotgan, umumiy sabza tusda tumanday milt-milt yonayotgan oq va och yashil



rangli boshqa gullar ham bor. Baland osmon moviy bo'lib, o'rmon ustida yarqirayotgan quyosh daraxtlar qatorining uzundan uzun soyasini hosil qilgan.


– Qarang va zavqlaning! Qarshingizda qadimiy qirollik yuragi bo'lmish – Kerin Amrot tepaligi! – e'lon qildi Xaldir. – Bu yerda, ya'ni Amrot qo'rg'onida qadimgi saodatli davrda qirollikning baland uyi qurilgan. Qo'rg'onida, ko'rib turganingizday, hatto qishda ham so'limas maysada turli-tuman gullar chiroyli bo'lib gullaydi. Qarang, anavi sariq gulning nomi elanora, och rangli gul esa – nifredil. Hozir shu yerda qolib, kechqurun Galadrim shahriga tashrif buyuramiz.

Uzuk birodarligi xushbo'y maysaga cho'zildi. Ammo o'zini bir zamonlar g'oyib bo'lgan dunyoni baland derazadan tomosha qilayotganday his etayotgan Frodo hayratlanib, oyoqda turgancha qoldi. Ushbu olam taratayotgan yorug'lik rangiga nom berishga so'z topa olmadi. Uning ko'ziga hamma narsa bir vaqtning o'zida ham xira, ham yorqin rang berilganday ko'rinmoqda. Ranglarning aksariyati noyob, yangi yuritilganday bo'lib, Frodo ularni ilk bor ko'rib turibdi. Frodo mahalliy aholidan biror kishi qish o'rtasida bahor yoki yoz faslini sog'inib zorlanishiga shubha qildi. Bu yerda o'sayotgan o'simlik dunyosida zig'irday bo'lsin, so'lish alomati yo'q. Loriyen zaminini parvarish qilish masalasida ham birorta nuqson ko'rinmaydi.

Orqaga o'girilgan Frodo Beg-End bog'boni Sem ham uning ortida turib, manzarani hayrat to'la qiyofa ila tomosha qilayotganini ko'rdi.

– Serquyosh, yorqin kun bo'ldi bugun, – dedi Sem, tush ko'rmayotganiga ishonch hosil qilish uchun ko'zini ishqalab. – Elflar – oy va yulduz shaydosi bo'ladi, deb o'ylar edim. Ammo bu yerda hamma narsa men eshitgandan ko'ra ming chandon elfcha bo'lib, o'zimni allaqanday qo'shiq ichiga tushib qolganday his etyapman, agar nima demoqchi bo'lganimni tushungan bo'lsangiz, albatta.

Ikkala hobbit tomon yuzlangan Xaldir pakana Semning bildirgan mulohazasi-yu, ifoda eta olmagan fikridan nima de-



moqchi bo'lganini tushunib yetdi.

– Sizlar Galadrim sohibasi tasarruf etadigan hokimiyat ta'sirini his etyapsiz, – g'alati tushuntirish berdi u, kulib boqib. – Men bilan birga Kerin Amrotga chiqishni istamaysizmi?

Maysa qoplagan tik qiyalamaga osonlikcha chiqib ketgan elfning ortidan ikkala hobbit ham ergashdi. Harsillab harakatlangan Frodoning yuzini yelpib o'tayotgan shamol daraxt barglari va gullarni tebratmoqda. Hobbitni vaqt tushunchasi bo'lmagan, hech narsa o'zgar olmaydigan va unutilmaydigan dunyoda yurayotganlik hissi tark etmadi. Birozdan so'ng bunday tuyg'usi barham topib, go'zallikda tengi yo'q Lotloriyenda o'sgan elanora va nifredillar orasida turgan Frodo o'zini yana Shirdan chiqqan sayyoh hobbitday his etdi.


Uchovlon oq daraxtlardan hosil bo'lgan halqaga kirdi. Kerin Amrot cho'qqisida esayotgan janubiy shamol shox-shabba orasida oh urmoqda. Diqqat bilan quloq solayotgan Frodoning nazarida, qadim zamonlardayoq suv ostida qolgan sohilda yangragan dengiz shovqini va zoti yer yuzidan allaqachon yo'q bo'lib ketgan mayda qushlarning qiy-chuvini eshitganday bo'ldi.

Xaldir daraxtga tarmashib, baland fletga deyarli yetib bordi. Uning ortidan arqon zina vositasida chiqishga hozirlangan Frodoning qo'li daraxt tanasiga tegib ketdi. Shu zahoti uning vujudini ajoyib bir tuyg'u qamrab oldi. Daraxt po'stlog'ini, tanasidagi shira oqimini Frodo hali hech qachon bunday his etmagan. Daraxtga tekkan hobbit qandaydir zavq hissini sezdi. Bu zavq o'rmonchi yoki zo'r yog'ochni qo'lga kiritgan usta duradgor his etadigan zavq emas, hayot zavqi edi.

Daraxt uchidagi oq so'ri ostiga yetgan hobbitlarni qo'ldan tortib chiqargan Xaldir ikkalasini janub tomon yuzlantirdi.

– Dastlab bu tomonni tomosha qiling, – dedi elf.

Muayyan bir masofa narida ko'plab baquvvat daraxtlar yoki yashil minoralar qad ko'targan tepalik bo'lib, undan, Frodoning nazarida, mazkur zaminni idora qilayotgan hukumat va ro'shnolik tafti taralayotganday bo'lmoqda. Frodo kutilmagan o'sha yashil shahar tomon qush singari uchishni istadi.





Shundan so'ng pakanalar sharq tomon yuzlanib, jamiki Loriyen zamini har yoqdan kelib buyuk daryo Anduinda qo'shilishini fahmlashdi. Nigohini daryo ortiga olib o'tgan Frodo o'zi bilgan haqiqiy dunyo manzarasini ko'rdi. O'sha hudud yassi, bo'm-bo'sh, shaklsiz va qandaydir notinch bo'lib, olis sarhadidagi qoramtir devor tahdid solayotganday qad ko'tarib turibdi. Loriyenni yoritayotgan quyosh qo'shni hudud ustida muallaq osilgan ko'lankani tarqatib yuborishga qodir emasday go'yo.


– Janubiy yovuz o'rmonning tayanchi o'sha devor ortida, – ma'lum qildi Xaldir. – U yerda qora tilog'och o'rmoni bo'lib, shox-shabbalari o'zaro chirmashib ketgan daraxtlar yaxlit devorday turadi. O'rmon o'rtasida, tosh tepalikda dushman uzoq vaqt jon saqlagan Dol-Guldur bor. Fikrimizcha, u yer endi kimsasiz bo'lmay, dushman hokimiyati yetti chandon kuchaygan. Qora ko'lanka u yerdan deyarli qo'zg'almaydi. Mana bu so'ri balandligidan qaraganda bir-biriga qarshi turgan ikkita kuch yaqqol ko'rinadi. Garchi nur zulmatning qoq yuragiga singib kirganiga ishonchimiz komil bo'lsa-da, Dol-Guldur siri fosh bo'lmadi. Hozircha fosh bo'lmadi...

Dol-Guldurga teskari o'girilgan elf arqon zinadan pastga tez tushib ketdi. Hobbitlar ham uning ortidan ergashishdi.

Tepalik etagida Frodo unsiz, daraxtday harakatsiz turgan Aragorni uchratdi. Ko'zida uchqun ko'ringan Aragorn tillarangi elanora gulini ushlab olgan. Aftidan, u, qandaydir yoqimli xotiraga berilgan ko'rinadi. Frodoning fahmlashicha, Aragorn bu yerlar ilgari qanday ko'rinishga ega bo'lganini o'z tasavvurida ko'rib turibdi. Uzoq umrining og'ir alomatlarini yuzidan barham topgan Aragorn Frodoning ko'ziga nihoyatda o'ktam, egniga oq kiygan, qomati raso yosh sultonday ko'rindi. Aragorn elf tilida Frodo ilgari uchratmagan boshqa kishi bilan xayolan gaplashyapti.

– Arven vani melda amaris! – dedi u, chuqur xo'rsinib. Xayolini yig'ib olgan Aragorn Frodoni ko'rib, kulib boqdi.

– Yerda yashaydigan elf xalqining yuragi saqlanadigan



joy mana shu yer bo'ladi, – ma'lum qildi u. – Senga hamroh bo'lib zimiston yo'llarda izg'ir ekanman, mening qalbim ham shu yerda qoladi. Ketdik, Frodo!

Hobbitning qo'lidan tutgan Aragorn Kerin Amrot tepaligini tark etib, tirik inson sifatida bu yerda qayta hech qachon ko'rinmadi.

## VII BOB

### GALADRIEL KO'ZGUSI

Biroz dam olgan Uzuk birodarligi yana yo'lga chiqdi. Bu paytda quyosh tog' ortiga o'tib, daraxtlar orasiga tushgan soya ancha quyuqlashdi. Hamrohlar qosh qoraygan chakalakzor oralab odimlashar ekan, elflarning kumush fonuslari qorong'i tushgan sari birma-bir yoqilib bordi.

Yana bir o'rmon yalangligiga chiqqan sayyohlar shomning xira osmonida paydo bo'lgan dastlabki yulduzlar yiltiray boshlaganini ko'rishdi. Katta aylana shaklidagi ushbu keng sayhonlikda chuqur xandaq bo'lib, uning chetini qoplagan maysa quyosh yoritganday yaltiramoqda. Halqani eslatadigan xandaqning narigi tomonida yam-yashil devor qad ko'targan. Ushbu baland devor katta tepalik atrofini aylanasiga qurshab olgan. Tepalikda esa shom qorong'isida jonli minoraday ko'rinib, bo'yini taxminan bo'lsa ham chamalash qiyin kechadigan osmono'par mellorn daraxtlari savlat to'kib turibdi. Barglari xilpirayotgan hashamatli daraxtlarning qavatma-qavat ko'tarilgan shoxlarida yashil, tilla va kumush tusli son-sanoqsiz fonuslar milt-milt yonmoqda.


– Karas Galadon tepaligiga xush kelibsiz! Uzuk birodarligi tomon yuzlanib qutladi Xaldir. – Qarshingizdagi elflar maskani Galadrim shahri bo'lib, unda janob Keleborn bilan Loriyen sohibasi Galadriel xonim yashaydi. Biroq shaharga bu yerdan kirib bo'lmaydi. Tepalik shimolidan darvoza ochilmagan.

Yashil devorni aylanib o'tib janub tomondan kiramiz. Buning uchun yana ancha yo'l yurish kerak bo'ladi: shahar katta.

Sayyohlar xandaqning tashqi cheti bo'ylab oq tosh terib yotqizilgan aylanma yo'ldan g'arb tomon odimlashdi. Chap qo'lda, yam-yashil Karas Galadon tepaligida elflarning ulkan shahri qad ko'targan. Qorong'ilik quyuqlashgan sari qo'shimcha fonuslar yoqilar ekan, tepalik son-sanoqsiz yulduz qo'ngan ulkan daraxtga o'xshab qoldi. Nihoyat yo'lovchilar xandaq ustiga yotqizilgan oq ko'priikka yetishdi. Xandaqning narigi qirg'og'ida shahar hududiga janubiy-g'arbdan olib kiradigan, ko'pdan ko'p fonuslar vositasida yoritilgan, yashil devorning ikki boshi tutashmasida qurilgan ulkan darvoza ko'rindi.

Xaldir darvozani taqillatib, allanima degan ediki, tavaqalar o'zidan o'zi bug'lanib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Darvozaxonada qorovullik xizmatini o'tayotgan birorta soqchi ko'rinmadi. Yo'lovchilar ostona hatlab o'tgach, orqada qolgan darvoza yana paydo bo'lib, tavaqalari zich yopildi. Ulkan tepalikni aylanasiga qurshagan qalin devorning ikki boshi tutashgan darvozaxonadan o'tgan Uzuk birodarligi bahaybat daraxtlar shahriga qadam bosdi. Shaharliklar ko'rinmaydi, ammo havoda ko'pdan ko'p ovozlar eshitilmoqda. Tepalikning baland cho'qqisida yangrayotgan qo'shiq maysaga yog'ayotgan mayin yomg'irday yoqimli eshitilmoqda.

Hamrohlar ko'pdan ko'p so'qmoqlardan yurib, zinalaridan ko'tarilib nihoyat tepalik cho'qqisiga, daraxt shoxlaridan osilib tushgan kumush fonuslar yoritgan keng gulzor o'rtasidagi favvoraga yetishdi. Favvoraning baland ko'tarilgan qatralari kumush rangli suv havzasiga to'kilib tushgach, oppoq jilg'aga aylanib, shildiragancha pastga oqmoqda. Gulzor janubida Lotloriyenning eng baland daraxti falakka ko'tarilgan. Bahaybat daraxtning tekis tanasi kulrang shoyiday jilolanmoqda. Uning oldiga o'matilgan oppoq zinani egniga kumush sovut kiygan, yelkalaridan oq splash osilib tushgan uch nafar novcha bo'yli elf qo'riqlamoqda. Mehmonlarni ko'rgan qo'riqchilar o'midan turishdi.



– Qirol Keleborn bilan qirolicha Galadriel xonim shu daraxtda yashashadi, – ma’lum qildi Xaldir. – Ularning amriga ko’ra yuqoriga chiqib, suhbatini olishimiz kerak.

Qo’riqchi elflardan biri chaigan kichkina burg’u mayin tovush chiqardi. Unga javoban yuqoridan ham shunday tovush uch marta yangradi.

– Men yo’l boshlayman, ortimdan Frodo, undan keyin Legolas ko’tariladi. Qolganlar esa o’zlari istagan tartibda chiqishlari mumkin, – tushuntirdi Xaldir. – Bunday zinadan chiqishga ko’nikmagan kishi, odatda, uzoq ko’tariladi, binobarin, yo’lda nafas rostlab borishlaring mumkin.

Shoshmasdan chiqayotgan Frodo ikki tomonga o’rnatilgan ko’pdan ko’p fletlar yonidan o’tmoqda. Ularning ayrimlari daraxtning o’ta yirik tanasiga aylanasiga qurilgani bois mana bu zina unday so’rilarning o’rtasida ochilgan tuynuk orqali o’tgan. Yerdan ancha yuqori ko’tarilgan hobbit kema palubasini<sup>1</sup> eslatadigan keng talanga chiqdi. Uning bir chetida oddiy odamlarning ko’ziga katta zalday ko’rinadigan bino qurilgan. Bahaybat mellorning deyarli uchki qismi bo’lsa ham, yerda yashashga odatlangan oddiy insonning quchog’i yetmaydigan enli tanasi oval shaklidagi zal polidan kirib, shiftidan teshib o’tgan. Frodo Xaldirning ortidan odimlaganacha zal ostonasini hatlab o’tdi.

Devori yashil va kumushrangli, shifti tilla tusli katta zal mo’tadil yoritilgan bo’lib, unda anchagina elflar o’tirishibdi. Daraxt tanasining yo’g’on shoxi ostiga bir juft chiroyli taxt o’rnatilgan bo’lib, ularda egniga oppoq kiyim kiygan Keleborn bilan Galadriel xonim o’tiribdi. Ikkalasi ham mehmonlarni qutlash uchun o’rnidan turdi. Qudratli qirol bo’lsa-da, mehmonni shu tarzda qarshi olish elf xalqining azaliy udumi hisoblanadi. Novcha bo’yli qirol bilan qirolicha uzukka ko’z qo’yganday juda chiroyli ko’rinishmoqda. Loriyen sohibasining sochi to’q tilla tusli bo’lsa, erining uzun sochi sof kumush rangida yarqiramoqda. Ularning yuzidan yoshi nechaga yetganini taxmin ham

---

<sup>1</sup> *Paluba (ruscha)* – kemalarning gorizontol holda taxta qoplangan yuzasi, sahni.

qilib bo'lmaydi, garchi yulduz shu'lasi yoritgan nayza uchiday o'tkir nigohlari o'ta boy hayotiy tajribadan dalolat berayotgan bo'lsa-da.

Elflar qirolı Keleborn Xaldirning yaqinroq borish imosiga qarab qo'yan Frodoga o'z tilida salom berdi. Bir og'iz so'z aytmagan Galadriel xonim esa pakananing yuziga uzoq termildi.

– Yonimga o'tir, Shirdan kelgan Frodo! – dedi bo'sh kursini ko'rsatgan qirol. Hamma yig'ilgach, suhbat boshlaymiz.

Uzuk birodarligining birin-ketin kirib kelayotgan har bir a'zosi ismi talaffuz etilib, ehtirom-la qarshi olindi.

– Xush kelibsan, Araxorning o'g'li Aragorn! – qutladi qirol Keleborn. – O'lkamizga tashrif buyurib ketgan kuningdan buyon o'ttiz sakkiz yil o'tibdi. Aftidan, og'ir kechgan o'sha yillar aksi yuzing va nigohingda o'z ifodasini topibdi. Biroq oqibati achchiq yakun topadimi yo chuchuk, xotima yaqin. Vujudingni qiynayotgan og'ir yuklamani bir chetga surib, vaqtincha unutib!


– Xush kelibsan Tranduilning o'g'li Legolas! – qutladi qirol. – Shimollik qarindoshimni ko'rganimdan bag'oyat xursandman. Yurtimiz zaminiga kamdan kam tashrif buyuradigan bo'lib qolgansiz.

– Xush kelibsan Gloinning o'g'li Gimli! – qutladi qirol. – Dyurin xalqining vakillari Karas Galadon tepaligiga chiqqanini ko'pdan buyon ko'rmagan edik. Bugun azaliy qonunimiz buzilsin mayli. Zero, buni dunyoni yovuz ko'lanka qamrab olgan bo'lsa-da, ikki xalq o'rtasidagi do'stona munosabatlarni tiklash yo'lidagi urinishday ko'ramiz.

Gimli qirolga javoban chuqur ta'zim bajo ayladi.

Mehmonlarning bari o'z joyini egallagach, qirol yana so'z oldi.

– Biz sakkiz kishini ko'ryapmiz. Chopar keltirgan xabarga ko'ra safarga to'qqiz kishi chiqishi rejalashtirilgan edi. Kengash o'z qarorini o'zgartirgan bo'lib, biz bexabar qolgan ko'rinamiz. Elrond olisda, o'rtamizda zimiston, yovuz ko'lanka uzunligi yil o'tgan sari cho'zilib bormoqda.



- Yo'q, Kengash o'z qarorini o'zgartirmagan, - so'z oldi ovozi tiniq, musiqiy, lekin oddiy ayolning ovozidan farqli o'laroq ohangi chuqur eshutilgan Galadriel xonim. - Kulrang Gendalf ham Uzuk birodarligi tarkibida safarga chiqqan, lekin u yurtimiz chegarasiga yetib kelmadi. Ayting, qani u? Men Gendalf bilan yana suhbat qurmoqchiman. Lotloriyen hududiga kirmasa, uni olisdan ko'ra olmayman. Gendalfning atrofidagi kulrang tuman quyuqlashgan, yo'li ham, fikri ham nigohimdan yopiq.

Afsuslar bo'lsinkin, Kulrang Gendalf tubsiz zulmat qa'riga quladi, - ma'lum qildi Aragorn. - U Moriyada qolib, dushman changalidan xalos bo'la olmadi.

Xonada o'tirgan elflarning bari Aragornning xabarini eshitib hayrat va qayg'udan oh urishdi.

- Dunyoga ko'lanka tushib, quyuqlasha boshlagandan buyon eng xunuk shunxabar bo'ldi bu, - dedi Keleborn va Xaldirga yuzlanib elf tilida so'radi: - Nima uchun bu haqda menga xabar berilmadi?

- Xaldir bilan o'tgan suhbatlarda ishimiz va safarimizdan ko'zlangan murod haqida gap ochmadik, - tushuntirish berdi Legolas. - U bilan uchrashganimizda biz nihoyatda toliqqan ahvolda edik. Boz ustiga, xavf izimizdan ta'qib qilib kelayotgan edi. Dushman ta'qibidan qutilib, hordiq chiqargach, go'zallikda tengi yo'q Loriyenning tekis yo'lida yurar ekanmiz, boshimizga tushgan musibatni vaqtincha unutib qo'ydik.

- Biroq musibatimiz og'ir, ayrilig'imiz o'rnini to'ldirib bo'lmas, - gapga qo'shildi g'amgin ohangda Frodo. - Gendalf bizning rahnamomiz edi, u bizni Moriya orqali boshladi va omon qolish umidi batamom uzilgan bir paytda o'zini qurbon qilib, hayotimizni saqlab qoldi.

- Bo'lib o'tgan hodisalar tafsilotini bayon eting, iltimos! - dedi Keleborn.

Shunda Aragorn so'z olib, Karadras orqali tog' oshib o'tishga urinish muvaffaqiyatsiz kechganidan boshlab, bugungi kungacha bo'lib o'tgan hodisalarni batafsil so'zlab berdi. Xusu-

san u, Balinning qabri bilan uning hukmdorlik davrida yuritilgan solnoma topilgani, Mazarbul xonasida kechgan jang, olov balo-sining hamlasi-yu, ensiz tosh ko'prikdan o'tish hodisasini, unda Kulrang Gendalf vafot topganini birma-bir bayon etdi.

– Bir vaqtning o'zida ham olov, ham ko'lanka, qudratli va qo'rqinchli bo'lib gavdalangan qadimiy dunyoning bunday yovuz kuchini hali uchratmagan edim, – fikr bildirdi Aragorn.

– Morguldan chiqqan Balrog edi u. Zulmat minorasidagi dushmani hisobga olmaganda, mavjud qabohatlar orasida eng dahshatlisi, – aniqlik kiritdi Legolas.

– O'sha ko'prikda Gendalfni Dyurinning boshiga tushgan Olovli ofat halok qildi. Uni men ham o'z ko'zim bilan ko'r-dim, – past ovozda ma'qulladi Gimli nigohida dahshat uchquni yiltillab.

– Ming afsus! – dedi Keleborn. – Karadras ostida dahshat uxlab yotgani borasida ko'pdan buyon shubha qilar edik. Agar gnomlar Moriyadagi o'sha yovuz qabohatni uyg'otib yuborish-ganini bilganimda senga va sen bilan kelayotganlarga shimoliy chegaramizni kesib o'tishni man etgan bo'lar edim. Ta'bir joiz bo'lsa, Kulrang Gendalf ham, agar u Moriya zimistoniga zarurat-siz kirgan bo'lsa, oqillik cho'qqisidan oqilsizlik tubiga tushib ketibdi degan bo'lar edim.

– Bunday xulosa chiqarganlarning o'zlarini oqilsizlikka yuz tutgan kishilarday ko'rish kerak, – jiddiy ohangda e'tiroz bildirdi Galadriel. – Kulrang Gendalfning hayotlik davrida qil-gan biror-bir ishi maqsadsiz kechmagan. Unga ergashib kel-ganlar Gendalfning niyatlaridan to'la-to'kis voqif bo'lmagan. Yo'l boshlab borgan rahnamosiga nima qilgan bo'lishidan qat'i nazar, uning izidan kelganlarda hech qanday ayb yo'q. Gnomni o'z dargohingda qutlaganingdan afsus qilma. Faraz qiling, xalqimiz Lotloriyendan quvib solindi. Galadrimdan chiqqan har qanday elf, hatto oqil Kelebornning o'zi ham vaqti kelib qadimiy yurtiga bosh suqib ketmaydi, deb kim kafolat bera oladi, garchi yurti ajdarlar makoniga aylanib ketgan bo'lsa-da? Buyuk qirollar qulashidan oldin Keled-Zaramning suvi tiniq, Kibal-Nale bulog'i

muzday, ko'p ustunli Kazad-Dum zallari shinam edi, – dedi qirolicha g'amgin holda xomush o'tirgan Gimliga kulib boqib.

O'zining qadimiy tilida talaffuz etilayotgan joy nomlarini eshitgan gnom boshini ko'tarib, nigohi Galadriel xonimning nigohi ila to'qnash keldi va raqibning ich-ichiga qarab, qalbida iliq muhabbat va hamdardlik alomatini ko'rganday bo'ldi. Yuzi hayrat qiyofasini kasb etgan Gimli beixtiyor tabassum-la javob qaytardi va o'rnidan beso'naqay ayiqday turib, gnomlarga xos tarzda ta'zim bajo ayladi.


– Ammo Loriyen zaminining go'zalligi betakror bo'lib, Galadriel xonim uning eng bebaho javohiridir, – dedi u xushmuomala ohangda.

Oraga noqulay sukunat cho'kdi.

– Safaringiz bu qadar og'ir va mashaqqatli kechganini bilmagan ekanman, – dedi nihoyat Keleborn. – Gimlidan dag'al so'zimni unutishni iltimos qilaman: yuragim xavotirga to'lib gapirib yuborgandirman. Sizlarga, har biringizning xohishingiz va ehtiyojingga ko'ra, ayniqsa, o'z zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklab olgan pakana xalq vakiliga qo'ldan kelgancha yordam beraman.

– Ko'zlagan maqsadingiz bizga ma'lum, – dedi Galadriel Frodoga qarab. – Lekin bu haqda ochiq-oydin gapirmaymiz. Fikrimcha, Kulrang Gendalf taxmin qilganday, ushbu zaminga tashrifingiz bejiz emas. Zero, Galadrim sohibi bo'lmish qirol Keleborn O'rtayer elflari orasida eng oqil elf sanalib, uning tuhfalari har qanday qudratli qirol hadyasidan ancha boydir. Dunyo tongida u g'arbda yashagan, men ham u bilan son-sanoqsiz yillardan buyon yashab kelmoqdaman. Hali Nargotrond bilan Gondolin qulamasidan oldin tog' tizmasini oshib o'tganman. Ikkalamiz asta-asta chekingancha kurashib kelmoqdamiz.

Oqillarning Oq Kengashini birinchi bo'lib o'zim tashkil-lashtirib o'tkazganman. Mening o'sha davrdagi xohish-istaklarim Kulrang Gendalfning sharofati ila ro'yobga chiqmadi. Gendalf bo'lmaganda, ishlar mutlaqo boshqacha kechgan bo'lar edi. Hatto hozir ham, nazarimda, umid borday ko'rinmoqda. Men





sizlarga unday ish ko‘ring, yo bunday ish tuting deya maslahat bera olmayman. Na harakat, na qarshilik, na muayyan yo‘l tanlash masalasida sizga nafim tegadi, lekin nima bo‘lishi mumkinligini oldindan ko‘rsata bilaman. Sizlarga shuni aytishim mumkinki, izlanishingiz qil ustida kechmoqda – yo‘ldan sal og‘sangiz bas, halok bo‘lasiz, siz bilan birga jamiki jahon ham halok bo‘ladi. Uzuk birodarligi birga ekan, umid saqlanib boradi.

Qirolicha o‘tkir nigohi ila Uzuk birodarligining har bir a‘zosiga sinchiklab qarab chiqdi. Legolas bilan Aragorndan tashqari hech kim uning nigohiga uzoq dosh bera olmadi. Ikki lunji tez qizarib ketgan Sem ko‘zini yashirib, boshini xam qilib oldi.


Nihoyat Galadriel xonim ularni o‘z holiga qo‘yib, kulib boqdi.

– Yuragingiz tinchlansin, bugun tunda xotirjam uxlaysiz, – va‘da qildi u.

Sayyohlar uf tortib, kutilmaganda, garchi biror og‘iz so‘z ochiq aytilmagan bo‘lsa-da, zo‘r berib uzoq vaqt so‘roq qilingan kishilarday charchashganini his etishdi.

– Endi boring! – ijizat berdi Keleborn. – Sizlar yo‘ldan, yo‘l davomida boshdan o‘tkazgan musibat ta‘siridan qattiq toliq-qansiz. Izlanishlaringiz bizning yurtimizga bevosita daxl qilmagan taqdirda ham kuchingizni tiklab, dardingizga davo top-guningizgacha shahrimiz mehmonlari sifatida hordiq chiqargan bo‘lar edingiz. Dam olar ekansiz, bo‘lg‘usi yo‘lingiz haqida gap ochmay turamiz.

Bu kecha Uzuk birodarligi daraxtda emas, yerda tayyorlangan maxsus joyda yotdi. Bundan, ayniqsa, hobbitlar ko‘p zavq olishdi. Elflar favvora yaqinidagi daraxtlar orasida sayyohlar uchun atayin ayvon tiklab, uni yumshoq divanlar bilan jihozlashdi va o‘zlarining yoqimli eshitiladigan tillarida tinchlik tilab, yo‘lovchilarni o‘z holiga qo‘yishdi. Sayyohlar bundan oldin o‘tgan kechalar, kunduz kuni bosib o‘tilgan yo‘l, ushbu o‘lka sohibi bilan sohibasiga doir taassurotlari bilan ma‘lum vaqt o‘rtoqlashib o‘tirishdi-yu, keyingi ishlar borasida gap ochishga jur‘atlari yetmadi.



– Galadriel xonim senga e'tibor qilgan paytda yuzing nega qizarib ketdi, Sem? – so'rab qoldi Pin. – Niyating buzuq ekani fosh bo'lib qoldi-yov, o'sha fursatda, shundaymi? Tunda ustimdagi adyolni o'z ustingga tortib olishdan-da yomon niyat qilmaganmisan, ishqilib?

– Unday narsalar xayolingga ham kelmaydi, – javob berdi Sem hozir yuragiga hazil sig'masligini anglatadigan ohangda. – O'sha paytda o'zimni batamom ochib tashlanganday his etdim. Bu esa, tabiiyki, menga yoqmasdi. Qirolicha ich-ichimga qarab, agar hozir Shirga durustgina bog'i bor shinamgina uya sohibi sifatida qaytish imkoni tug'ilsa, qanday yo'l tutishimni so'raganday bo'ldi.

– Qiziq, – dedi Merri. – Menda ham deyarli shunday bo'ldi. Faqat... faqat menga... Yo'q, boshqa hech narsa demayman, – qo'shimcha qildi u qiynalib.


Suhbat davomida aniqlanishicha, o'xshash imtihondan hamma o'tibdi, ya'ni hamrohlarning har biri yo oldida turgan xavf-xatarga to'la zulmatni, yo zo'r ixlos-la orzu qilayotgan narsasini tanlash taklifini his etibdi. Bunda, o'sha orzuga erishish qiyin kechmasligiga ishontirilib, biroq buning uchun tanlangan yo'ldan chiqish, Uzuk birodarligini tark etish, izlanish-u, Sauronga qarshi kurashni boshqalarga qo'yib berishni talab etishgan.

– Mening tanlovim fikrimcha, sir bo'lganicha qolib, birov undan voqif bo'la olmaydi, – ma'lum qildi Gimli.

– Nazarimda, bularning bari juda g'alati kechdi, – fikr bildirdi Boromir. – Balkim, bu shunchaki sinov bo'lib, Galadriel xonim bizning fikrimizni yaxshi niyatda o'qib ko'rmoqchi bo'lgandir, ammo shuni ham aytib o'tishim kerakki, u bizni yo'ldan urib, o'zi havola etishga kuchi yetadigan narsalarni taklif qildi. Uning taklifini eshitishni ham istamaganimni sizlarga aytish shart bo'lmasa kerak. Zero, Minas Tirit erkaklarining lafzi halol-dir...

Qirolicha nima taklif qilganini Boromir chindan ham aytmadi.

Frodo esa Boromir tomonidan bir olam savol yog'diril-



ganiga qaramay, bu masalada hech narsa demadi.

– Uzuk qo‘riqchisi bo‘lganing uchun Galadriel xonim senga uzoq qaradi, – eslatib o‘tdi Boromir.

– Ha, shunday bo‘ldi, – javob berdi Frodo. – Ammo xayolimga nimalar kelgan bo‘lmasin, tantagan yo‘lim o‘zgarmas qoldi.

– Ehtiyot bo‘lgin-da! – maslahat berdi Boromir. – Shaxsan men o‘sha elf qirolichasi-yu, uning hazillariga unchalik ishonavermayman.

– Galadriel xonim haqida yomon gumonga borma, Boromir, – dedi Aragorn qat‘iy ohangda. – Nima deytoganingni o‘zing bilmaydigan ko‘rinasan. Qirolichaning fikr-xayolida, umuman, ushbu zaminda yovuzlikdan asar yo‘q, agar uning saltanatiga qadam bosgan kishi o‘z qalbida yovuzlikni ko‘tarib kelmagan bo‘lsa, albatta. Unday kishiga esa nihoyatda ehtiyot bo‘lishni maslahat beraman! Dorilomondan chiqqandan buyon bugun ilk bor chindan ham bexavotir uxlay olaman. Shunday ekan, ijozatingiz bilan uyquga yotib, o‘z g‘am-g‘ussalarimni qirol tayinlagandek, vaqtincha bo‘lsa ham unutmogchiman. Zero, qalhim ham, qo‘lim ham nihoyatda charchagan.

Divanga yonboshlagan Aragorn shu zahoti uxlab qoldi. Qolganlar ham undan ibrat olib, birma-bir uyquga ketishdi. Hech narsa ularning uyqusini bezovta qilmadi. Uyg‘ongach, quyosh shiypon oldidagi gulzorni yorqin yoritganini, favvora yaltirayotganini ko‘rishdi.

Keyingi bir necha kunni Uzuk birodarligi Lotloriyenda o‘tkazdi. Bu vaqt davomida kun ochiq bo‘ldi, ahyon-ahyonda mayin yomg‘ir yog‘ib, iliq havoni tozalagancha yangilab bordi. Havо certa bahor havosiday salqin bo‘lsa-da, yo‘lovchilar o‘rmon atrofida qish kuchayib borayotganini his etishdi. Ovqatlanish, uxlash, daraxtlar orasida sayr qilishdan o‘zga narsa bilan shug‘ullanishmadi.


Qirol va qirolicha qayta ko‘rinmadi, elflar bilan muloqot deyarli bo‘lmadi: vestron tilini biladiganlar mahalliy aholi orasida ko‘p emas ekan. Til biladigan Xaldir esa birinchi kuniyoq

sayyohlar bilan xayrlashib, shimoliy chegaraga qaytib ketgan. Yo'lovchilarning Moriyadan olib kelgan yangiliklaridan so'ng shimol tndagi chegara xizmati kuchaytirildi. Legolas o'z vaqtini galadrim elflari bilan o'tkazib, birinchi tundan keyin joyida yotmadi. Birodarlari bilan ovqatlanib, biroz gaplashib o'tirish uchungina topilib keladigan bo'lib qoldi. O'zi bilan Gimlini ham tez-tez ergashtirib ketayotganidan hamrohlar biroz hayratlanishdi.

Uzuk birodarligi Gendalfni tez-tez eslab, tilga olingan ish va hodisalarni ko'z oldiga keltirib bordi. Charchoq va og'riq o'tgach, yo'lovchilar ayriliq azobini kuchliroq his etishdi. Yaqin o'rtadagi elflarning ovozlari tez-tez eshitilib, ular Gendalfning vafot topishi munosabati bilan yig'i ashulasini to'qishayotgani ma'lum bo'ldi. Chunki mayin ovozda talaffuz etilgan tushunarsiz so'zlar orasida Gendalfning mahalliy elflar tomonidan berilgan Mitrandir ismi tez-tez eshitilib bordi. «Mitrandir, Mitrandir, kulrang tus olgan sayyoh ziyoratchi!» – kuylashdi elflar. Kulrang Gendalfni Mitrandir deb chaqirish ularga xush yoqar ekan. Birodarlari bilan o'tirgan Legolas elflarning qo'shig'ini tarjima qilishdan bosh tortib, buning uchun unda tarjimonlik mahorati yetishmasligini tushuntirdi. Chunki g'amgin mazmun, zamiridagi ulkan musibat yig'i ashulasini eshitgan kishining ko'z yoshi duv-duv to'kilishiga sabab bo'lar ekan.

O'z dardini yod olinadigan so'zlar vositasida to'kib sochishga uringanlar orasida Frodo birinchilardan bo'ldi. Aslida u kamdan kam hollarda she'r yozadi. Dorilomon qo'shiqlarini ham u eshitish bilangina cheklanib, o'zi aytmadi, garchi she'riy misralarning anchasi xotirasida saqlanib qolgan bo'lsa-da. Ammo hozir, Loriyen favvorasi oldida o'tirgan joyida elflar ovozini eshitar ekan, miyasiga kelgan fikr-mulohazalar she'riy shakl ola boshlab, nazarida, chiroyli chiqqanday ko'rindi. Ammo ularni Senga aytib berishga uringanda chala-chulpa eslay bildi.

*Shirda oqshom quyuqlashar  
Gendalf yana yo'lga chiqar,*



*Hamroh bo'lar unga shamol  
Qo'shiq mungli mazmun olar.*

*Uzoq yurdi Gendalf mudom  
Iz qoldirib hamma joyda:*

*Daryo, botqoq, tog'-u, o'rmon  
Hatto ajdar makonida.*

*Yo'qdir to'siq Gendalf uchun  
Yo'l azobi cho't emas*

*Jar bo'lsin, yo dasht bo'lsin  
«Qiyналdim» deb hech aytmas.*

*Gendalfdan yetmas ziyon  
Do'stlik hissi urar tug'yon*

*Ezgulikdir uning yo'li  
Ko'rinsa-da o'zi ahyon*


*Olovga qarshi chiqdi  
«Ko'prikdan o'tmaysan!» - deb,*

*Zulmat qa'riga singdi  
Hassa ila tosh sindirib.*

- She'r yozishni shu tarzda mashq qilib borsangiz, ko'p o'tmay bu masalada janob Bilbodan o'zib ketasiz, -- baho berdi Sem, Frodoning o'qib bergan misralarini eshitib.

- Sal oshirvordingov, -- e'tiroz bildirdi Frodo. -- Qo'limdan kelgani shu bo'ldi, bundan ortig'i ortiq.

- Mabodo misra bitishni davom etishga ahd qilib qolsangiz, janob Frodo, iltimos, Gendalfning mushakbozligini ham tilga olib o'ting, dedi Sem. - Deylik, mana bunday:



*Qiy-chuv solar bolalar  
Keldi Gendalf sehrigar!*

*Sho'xdir cholning hunari –  
Mushakbozlik qiladi.*

– Yo'q, bu ishni mendan ko'ra o'zing durustroq uddalay-san, Sem. Yoki Bilboning qo'yib berish kerak buni, dedi Frodo. – Qo'y shu mavzuni. Gendalfning halok bo'lganini unga qanday aytishni tasavvur ham qila olmayman.


Oqshomlardan birida Sem bilan sayr qilib yurgan Frodo kutilmaganda xavotirga tushib qoldi. Daf'atan u xayrlashish kuni muqarrar ekanligi, kun o'tib bir kun Lotloriyenni tark etish kerakligi haqida o'ylanib qoldi.

– Elflar haqida qanday fikrdasan endi, Sem? – so'radi u hamrohidan. – Ilgari bergan savolni qaytaryapman, garchi, nazarimda, o'sha kundan buyon bir necha asr o'tganday bo'lib, bu vaqt ichida sen ko'p narsalarni ko'rishga ulurgan bo'lsang-da.

– Ha, nimasini aytasiz, ser, – ma'qul topdi Sem. – Fikrimcha, elf bilan elfning orasida ham farq bor ekan. Ularning bari elf, albatta, lekin... Loriyenning aholisini olaylik. Bu yerlik elflar uyidan ilon chiqqan darbadarlarday izg'imag qo'yishgan. Demak, ular bizdan ko'p farq qilishmaydi. Hobbitlarning Shirga bog'lanib qolishganidan ko'ra, mahalliy elflarning Loriyenga bog'lanib qolgani kuchliroqdir. Ular o'z dunyosini shunday yasab olganmi, yo dunyo bu elflarni shunday qilib qo'yganmi, bir nima deyish qiyin, nimani nazarda tutayotganimni tushunayotgan bo'lsangiz, albatta. Ajib xotirjamlik hukm suradi bu yerda. Hech narsa ro'y bermayotganday yoki ro'y berishini birov istamayotganday go'yo. Agar buning zamirida sehr-jodu bo'lgan taqdirda ham, u shunchalik chuqurki, men uni ko'rmayapman.

– Bu yerda nimani istasang, shuni ko'rishing mumkin, – dedi Frodo.

– Aytmoqchimanki, bu yerda hech kim sehr-jodu bilan



shug'ullanmas ekan, – fikriga aniqlik kiritdi Sem. – Masalan, sho'rlik qariya ko'rsatib yurgan mushakbozlik yo'q. Qirol bilan qirolichani ko'rmayotganimiz ham menga qiziq tuyuladi. Nazarimda, Galadriel xonim ajib hunar ko'rsatishi mumkin, agar o'zi istasa, albatta. Gendalfning sehridan tashqari, elflar ijrosidagi sehr-joduni ham ko'rishni juda istayman, janob Frodo.

– Men esa istamayman, sehr-jodudan to'yganman, bas, – e'tiroz bildirdi Frodo. – Menga Gendalfning mushakbozligi emas, uning o'zi, qalin o'sgan qoshi, qiziqqon fe'l-atvori, eshitgani ovozi yetishmayapti.

– Siz haqsiz, ser, – ma'qul topdi Sem. – Uni sog'inmayapti, degan xayolga bormang. Men shunchaki, eski ertaklarda aytilgan sehr-joduni ko'rib ketmoqchi edim, xolos. Bundan-da go'zal zaminni ko'rmaganman. Uyda, bayram uyushirilgan kunda yurganday bo'lyapman, nima demoqchi bo'lganimni tushunayotgan bo'lsangiz, albatta. Bu yerdan ketishni istamayman, lekin ketish zarurligini sezyapman va imkon qadar tezroq ketish kerak deb o'ylayman. «Qolgan ishga qor yog'ar», der edi menga otam. Mana bu o'rmon xalqi bizga yana biror nima, deylik, sehr-jodu bilan ham yordam bera olishiga shubha qilaman. Shunday ekan, tezroq yo'lga chiqqan ma'qul.

– To'g'ri aytasan, Sem, – dedi Frodo. – Lekin safar oldidan Galadriel xonimni yana bir bor ko'rib ketish ilinjidaman.

Xuddi shu paytda, go'yo bir chetda pinxona eshitib turganday ikkala hobbitning yo'lidan novcha bo'yli, egniga oppoq kiyim kiygan, sohibjamol Galadriel xonim daraxtlar orasidan chiqib qoldi. Bir og'iz so'z aytmagan qirolicha ikkala hobbitga imo qilib, ortidan yurishni taklif qildi.

Elflar qirolichasi pakanalarni Garas Galadon tepaligi tomon boshlab bordi. Baland o'sgan buta devor darvozasidan o'tgach, uchalasi yopiq makonga kirib qolishdi. Bu yerda birorta bo'lsin daraxt yo'q, o'rmon g'arbidagi ochiq osmonda oqshom yulduzlari miltillamoqda. Qirolicha uzun zinadan pastga, tepalikdagi favvoradan boshlangan jilg'a shildirayotgan yam-yashil daraga tushib ketdi. Dara tubida, sershox daraxt shaklida o'yib

yasalgan pastakkina supada yumaloq tog'orani eslatadigan keng suv idishi, idish yonida esa kumush ko'za turibdi.

Ko'zani qo'lga olgan Galadriel jilg'adan suv olib tosh idishni limmo-lim to'ldirdi. Suv to'la idishga yengil puflab, suv yuzasini tinchlantirgach, gap boshladi.

– Elflar orasida bu Galadriel ko'zgusi, deb ataladi, – qisqacha tushuntirish berdi u. – Ikkalangizni bu yerga ushbu ko'zguni ko'rsatish uchun boshlab keldim, agar ko'zguga qarashni istasangiz, albatta.

Havo toza, dara chuqur va qorong'i. Novcha bo'yli qirolicha xira ko'rinmoqda.

– Nima sababdan qarashimiz kerak? – so'radi Frodo izzat-ikromga te'lgan qo'rquv ohangida. – Qarasak, nimani ko'ramiz?

– Men ko'zguga ko'p narsalarni ochib ko'rsatishni, kim nimani istasa, o'sha narsani namoyon etishni buyurishim mumkin, – javob berdi Galadriel. – Lekin ba'zan ko'zgu kishi so'ramagan, ko'rishni istamagan narsalarni ham ko'rsatadi va o'sha manzaralar aksariyat hollarda mutlaqo kutilmagan va o'zi istagan manzaralarga nisbatan qimmatliroq mazmunga ega bo'ladi. Ko'zgu erkin ko'rsatayotganda nimalarni ko'rsatishi mumkinligini men bilmayman. U o'tmishda bo'lib o'tgan, ayni vaqtda kechayotgan va kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni ko'rsatadi. Bunday holda kim nimani ko'rishini eng oqil kishilar ham aniq ayta olmaydi. Xo'sh, qaraysizmi ko'zguga?

Frodo indamadi.

– Sen-chi? – so'radi qirolicha, Sem tomon yuzlanib. – Fikrimcha, sening xalqing aynan mana shu narsani sehr-jodu deb ataydi, garchi o'sha so'z zamirida nimani nazarda tutishlaringni aniq tushunmasam-da. Ba'zan dushman makrini ifodalash uchun ham sizlar o'sha so'zni qo'llaysizlar. Biroq bu dushman makri emas, Galadrielning sehri hisoblanadi. Elflar jodusini ko'rish istagida yurgan eding, shekilli?

– To'g'ri, bor mening shunday istagim, – javob berdi Sem, qo'rquv va qiziquvchanlikdan biroz titrab. – Siz istar ekan-



siz, qarayman, albatta, sohibam. Uyimizdagi hol-ahvoldan xabar olishni istar edim, – dedi u Frodo tomon qarab qo'yib. – Yurtdan chiqib ketgan kunimizdan buyon bir olam vaqt o'tganday go'yo. Uyimning tomi ustida miltillayotgan tungi yulduzlarni ko'ramanmi, xolos, yo nima ro'y berishiga aqlim yetmayaptimi?

– Suvga diqqat bilan, yuzasiga qo'l tekkizmay qara, dedi qirolicha muloyimgina kulib boqib.

Supa ustiga chiqqan Sem engashib, Galadriel ko'zgasiga baqraydi. Qop-qora sovuq suv yuzasida tungi yulduzlarning aksi ko'rindi.

– Aytdim-u, yulduz ko'raman deb, – istehzo qildi Sem.

Birozdan so'ng yulduz aksi yo'qolib, Sem hayratdan oh urib yubordi. Suv yuzasidan harir parda tortilganday bo'lib, ko'zgu dastlab kulrang tus oldi, so'ng birdan yorishib ketdi. Ko'ringan manzarada quyosh charaqlab daraxt shoxlari shamolda tebranyapti. Sem nimani ko'rayotganini idrok etishga ulgurmay, ko'zgu'dagi yorug'lik o'chdi. Manzara o'zgarib, endi Sem osilib turgan qora qoyatosh ostida yuzidan rang qochganча uxlab yotgan Frodoni ko'ryapti. Manzara o'zgardi. Sem o'zini oxiri ko'rinmay, ilang-bilang ko'tarilgan zinadan yakka o'zi chiqayotgan holatda ko'rdi. Hozir u juda kerakli narsani qidirayotganini idrok etdi, lekin o'sha narsa nimaligini o'zi bilmaydi. Tush ko'rayotganday manzara yana o'zgardi. Uzoqdagi daraxt shoxi titrayapti. Faqat bu gal daraxt shoxi shamolsiz titrab, yerga sinib tushyapti.

– Iye, bu nimasi?! – darg'azab ohangda xitob qildi Sem.

– Anavi Teddi Sendimen deganlari daraxt kesyapti. Unday qilish mumkin emas! Tegirmon ortidagi yo'l bo'yiga soya tashlab turishi uchun atayin ekanmiz. Qaniydi, o'sha Teddiga yetsam hozir!

E'tibor-la qaragan Sem eski tegirmon buzilib, o'rniga qizil g'ishtdan katta imorat ko'tarilganini ko'rdi. O'sha imoratda va uning atrofida ko'pdan ko'p odamlar ishlashyapti. Baland quvurdan tinmay chiqayotgan qora tutun pag'alari ko'zgu sirtini qoraytirib yubordi.

– Qandaydir iblisona ish bo‘lyapti Shirda, – xulosa qildi Sem. – Janob Merrini yurtga qaytarib yubormoqchi bo‘lgan Elrond nima qilish kerakligini yaxshi bilgan. Men bu yerda qola olmayman, – kutilmaganda ko‘zgudan nari sakradi u. – Uyga qaytishim kerak, – es-hushini yo‘qotganday baqirdi Sem. – Hovlimiz, bog‘imizning sog‘ joyi qolmabdi, hamma joyi payxon qilinibdi. Sho‘rlik otam lash-lushini ot aravaga ortib, tepalikdan pastga qarab ketyapti. Uyga qaytishim kerak!

– Yakka o‘zing qayta olmaysan uyga, – dedi Galadriel. – Ko‘zguga qaramasingdan oldin sohibingsiz uyga qaytish niyating yo‘q edi-yu, shundaymi? Yodingda bo‘lsin, ushbu ko‘zgu ko‘rsatadigan manzara ko‘p, lekin ularning hammasi ham ro‘yobga chiqavermaydi. Agar ko‘zga ko‘ringan manzaraning oldini olish maqsadida ketayotgan yo‘lingdan og‘masang, ba‘zilari umuman yuz bermaydi. Ushbu ko‘zgudan yaxshi maslahatchi chiqmaydi.

– Bu yerga kelishni istamagan bo‘lar edim, dedi yerga o‘tirib, ikki kafti bilan boshini changallagan Sem. – Endi istamayman sehr-jodu ko‘rishni.


Sem jim bo‘lib, birozdan so‘ng yig‘lamsiragan ovozda yana gapirdi:

– Uyga men uzoq safarimizni oxiriga yetkazib, janob Frodo bilan birga qaytaman yoki qaytmayman, nasib qilmagan bo‘lsa. Agar hozir ko‘rganim rost bo‘lib chiqsa, kun o‘tib bir kun kimningdir sho‘riga sho‘rva to‘kiladi!

– Xo‘sh, Frodo, qaydigan bo‘ldingmi, mening ko‘zgungaga? – so‘radi Galadriel xonim. – Elf jodusidan to‘ydim deganday bo‘lding, shekilli?

– O‘zingiz nima maslahat berasiz, qaraymi? – so‘radi Frodo.

– Yo‘q, – javob berdi qirolicha. – Men umuman hech qanday maslahat bermayman senga. Senga har xil manzaralar, ya‘ni yaxshi-yomon hodisalar ko‘rinishi mumkin. Ko‘rganing senga foyda keltirishi ham, ziyon yetkazishi ham mumkin. Ko‘zguga qarash bir vaqtning o‘zida ham yaxshi, ham yomon.



O'ylaymanki, Frodo, ko'zguga qarashga jur'ating yetadi. Aks holda seni bu yerga boshlab kelmas edim. Qanday lozim topsang, shunday ish tut.

– Qarayman, – ahd qildi Frodo.

Hobbit supaga chiqib, qora suv ustiga engashdi. Suv shu zahoti shaffoflashib, g'ira-shira yoritilgan yerni ko'rsatdi. Olisda tog' tizmasining cho'qqilari ko'rindi. Uzundan uzoq kulrang yo'l ko'rish maydonidan chetga chiqmoqda. Unda bazo'r ko'rinaryotgan, mitti qomat asta odimlab, yaqinlashgan sari kattalashib, aniq shaklga ega bo'lib bordi. Daf'atan Frodo, ushbu qomat nimasi bilandir Gendalfni eslatayotganini fahmladi. Ovoz chiqarib, sehrgarni chaqirishiga sal qoldi. E'tibor-la qaragan Frodo yo'lda kelayotgan kishining egnidagi kiyim Gendalfning kiyimiday kulrang emas, oqligini, qo'lidagi aso ham oq daraxt shoxi ekanligini ko'rdi. Boshini xam qilib kelayotgani bois Frodoga yo'lni yuzi ko'rinmadi. Muyulish ortiga o'tib ketgan qomat ko'zdan g'oyib bo'ldi. Gendalfni o'tmishdagi safarlaridan birida yurganini ko'rdimi, yo o'sha yo'lovchi Saruman edimi, Frodo anglay olmay ikkilandi.

Manzara o'zgardi. Qisqa muddat bo'lsa ham Frodo Bilboni aniq ko'rdi. Qariya o'z hujrasida tinim bilmay u burchakdan bu burchakka borib qaytyapti. Stol usti odatdagiday qog'oz uyumlariga to'la, tashqarida yomg'ir quyayapti.

Biroz cho'zilgan tanaffusdan keyin manzara ketidan manzara ko'rindi. Katta hodisalarning bir qismi ekanligini, ularda o'zi ham ishtirok etayotganini Frodo qandaydir yo'l bilan idrok etmoqda... Tuman tarqab, Frodo hayotda ko'rmagan dengizni ko'rdi. Hamma yoqni zimiston qamragan. Dengizda kuchli po'rtana ko'tarilgan. Shundan so'ng to'zib, titilgan qora bulut orasida quyoshning qonday alvon gardishi, yelkani yirtilgan ulkan kema dengizda g'arb tomon suzib ketayotgani ko'rindi. Manzara o'zgardi. Aholisi ko'p shahar o'rtasidan keng daryo oqib o'tmoqda. Yana qora yelkanli kema, bu gal tong mahalda suzmoqda. Suvda quyosh aksi, kema bayrog'ida esa oq daraxt tasvirlangan. Yirik jangning tutuni-yu, chang-to'zoni ko'taril-

gan, quyosh yana qonday qizil zimistonga g'arq bo'lmoqda. Chiroqlari milt-milt qilayotgan kichkina kema olis-olislariga suzib ketmoqda. Hamma narsa ko'zdan g'oyib bo'ldi. Chuqur uf tortgan Frodo Galadriel ko'zgidan nari ketmoqchi bo'ldi.

Kutilmaganda ko'zgu yana qorayib, chuqur teshikka aylanib qolganday bo'ldi. Qop-qora tubsizlikda bitta ko'z aksi paydo bo'lib, ko'zguni batamom egallaguncha asta-sekin kattalashib bordi. Ko'z shunchalik qo'rqinchli ediki, nafasi ichiga tushib ketgan Frodo turgan joyida yerga qoqilgan qoziqday qotib qoldi. O'tkir nigohi ila diqqat-la qarayotgan, qora qorachig'i tubsizlikka eltadigan, mushukning ko'ziday sap-sariq ko'z hoshiyasida olov yonmoqda.


Birdan o'ynay ketgan ko'z nimanidir qidirdi. Ko'z aynan Frodoni qidirayotganini hobbit ich-ichdan sezib turibdi. Biroq ko'z hozir uni ko'ra olmasligini ham yaxshi biladi. Frodoning bo'ynidagi zanjirga qadalgan Uzuk katta toshday og'irlashib, hobbitning boshini pastga tortdi. Ko'zgu qizib ketgan ko'rinadi, tosh idishdagi suv sirtidan bug' pag'asi ko'tarildi. Frodo tebranib ketdi.

– Suvga tegma! – eslatdi Galadriel baland ovozd.

Manzara g'oyib bo'ldi. Suv qorayib, osmondagi yulduzlar aksi ko'rindi. Es-hushini yig'ib olgan Frodo tebrangancha supadan tushib, qirolichaga qaradi.

-- Senga ko'ringan so'nggi narsa nimaligini bilaman, -- dedi Galadriel. – Men ham ko'rganman uni. Xavotir olma. Lotloriyen dushmandan faqat daraxtlar orasida eshitiladigan qo'shiqlar-u, elf kamonlarining kuchsiz o'qlari bilangina himoya qilinadi degan xayolga borma. To'g'risini aytaman, Frodo, sen bilan gaplashar ekanman, dushmanni, Zulmat hukmdorini hozir ham his etmoqdaman, uning elflarga doir barcha o'ylari-yu, niyatlarini yaxshi bilaman. U ham, o'z navbatida, meni ko'rishni, fikr-u, g'oyalarimdan boxabar bo'lib borishni istaydi. Ammo bunday eshik shu kungacha yopiq bo'lgan!

Qirolicha o'zining oq qo'lini yuqoriga ko'tarib sharq tomon uzatdi-da, rad etish imosini bajardi. Elflar xush ko'radigan




Erendil yulduzi tungi osmonda yorqin shu'la sochmoqda. Qirolichaning yerda cho'zilgan uzun soyasini hosil qilgan ushbu yulduz nuri ayolning barmog'idagi uzugida aks etib yanada kuchli yarqiradi. Sof kumush - mitril bilan oppoq olmos tosh qadalgancha jilo berib sayqallangan chiroyli tilla halqa ko'rinishidagi uzuk biroz dam olish uchun qo'ngan oqshom yulduziday Galadriel xoninning kaftida milt-milt qilgancha porladi. Uzukka izzat-ikromla qaragan Frodo birdaniga hamma narsani teran anglab yetdi.

– Ha, shunday, – dedi Galadriel xonim Frodoning talaffuz etilmagan fikriga javob tariqasida. Bu haqda gapirishga ijozat yo'q. Hatto Elfrond ham tilga olmaydi. Ammo uni Uzuk qo'riqchisi va hamma narsani ko'ruvchi ko'zlardan bekitib bo'lmaydi. Loriyenning qudrati uzukda, uchta uzukdan birida. Uni hamisha elflar qirolichasi Galadriel xonim, ya'ni men taqib yuraman. Ushbu olmosli uzuk Nein deb atalib, men uning qo'riqchisi bo'laman. Uzuk shu yerdaligini dushman gumon qiladi-yu, aniq bilmaydi, hozircha bilmaydi. Ko'rib turibsanki, sen bizning zaminimizga taqdir darakechisi bo'lib kelding. Agar sen safar davomida muvaffaqiyatsizlikka uchrasang, dushman bizni asir oladi, agar g'olib chiqib, Uzukni yo'q qilsang, elflar hokimiyati barham topadi, Lotloriye bo'shab, kimsasiz bo'lib qoladi, vaqt zanjiri ustimizda qulflanadi. Biz elflarga g'arbga suzib ketishga to'g'ri keladi, yo jarlik va g'orlarda yashaydigan hurkak xalqqa aylanib, hamma narsani unutimiz.

– Voqealar qanday yakun topishini istagan bo'lar edingiz? – boshini xam qilgancha so'radi Frodo.

– Bo'ladigan ishning bo'lgani ma'qul, – javob berdi Galadriel xonim. – Elflarning o'z ona zaminiga bo'lgan muhabbati dengiz chuqurligidan ham chuqur, qayg'usi esa barhayot bo'lib, taskin berib bo'lmaydi ularga. Lekin elflar Sauronni yaxshi tanib olib, uning oldida bosh egib yashagandan ko'ra hamma narsadan voz kechishni afzal ko'rishadi. Sen Lotloriye taqdiri uchun mas'ul emassan, sen o'z oldingda turgan vazifani ado etishing kerak. Ammo men istardimki, garchi buning iloji



bo'lmasa-da, Uzuk yasalmasin yoki yo'qotilgan Uzuk hech qachon topilmasin.

– Siz nihoyatda oqil, qo'rqmas va tengi yo'q go'zalsiz, – dedi Frodo. – So'rasangiz, mas'uliyatni o'z zimmangizga olishni istasangiz, Uzukni sizga topshirgan bo'lar edim. Menga bu yuk juda og'irlik qilyapti.


Elflar qirolichasi kutilmaganda tiniq ovozda xandon otib yubordi.

– Galadriel xonim, ehtimol, chindan ham oqil ayoldir, ammo boadablik bobida munosib sherikka duch keldi, – dedi u kulib boqib. – Ilk bor uchrashganimizdayoq seni sinovdan o'tkazishga jur'at etganim uchun xushmuomalalik-la qasd olding. Sen taklif qilgan narsaga qalbim nihoyatda tashna ekanligini inkor etmayman. Agar qo'lim Buyuk Uzukka yetsa, nima qilgan bo'lishim mumkinligi haqida ko'p o'ylaganman. Mana, marhamat, Uzuk shu yerda! Yovuzlik azaldan mavjud. O'likmi Sauron, tirikmi, farqi nima, agar men Uzukni yurtimga kelgan mehmondan qo'sh qo'llab yoki uni dahshatga solib tortib olsam, yovuzlikka o'zim qo'l urgan bo'lmaymanmi?

Mana o'sha Uzuk va sen uni o'z ixtiyoring-la topshirishga tayyorsan! Bu bilan sen Zulmat hukmdorining taxtiga Zulmat qirolichasini o'tqizgan bo'lasan. Yovuzlik qilmasam-da, tun bilan tong kabi bir vaqtning o'zida ham go'zal, ham dahshatli bo'laman! Tog'ni qamragan qor, dengiz, quyosh, kabi go'zal, to'fon-u, chaqmoqday qo'rqinchli bo'laman! Dunyo asosidan-da mustahkam bo'laman! Meni hamma bir vaqtning o'zida ham yaxshi ko'radi, ham nafratlanib, umidsizlikka yuz tutadi!

Qirolichaning baland ko'tarilgan qo'lidagi uzuk yorqin charaqlab faqat o'zini yoritdi, atrofidagi zimiston esa quyug'lashdi. Frodoning oldida u juda novcha, go'zal, qo'rqinchli va ayni damda o'ziga izzat-ikrom tug'diradigan holatda turdi. Qo'lini tushirgach yorug'lik so'ndi va Galadrielning bo'yi o'z holiga qaytib, oppoq kiyingan, muloyim ovozi g'amgin eshitilayotgan oddiy elf ayolga aylandi.

– Sinovdan o'tdim, dedi u. – G'arbga yo'l olib,



Galadriel bo'lgan qolaman.


Oraga cho'kkan sukut uzoq cho'zildi. Nihoyat, Lotloriyen sohibasi yana gap boshladi.

– Qaytaylik, – dedi u. – Ertalab yo'lga chiqasiz: biz o'z yo'limizni tanladik, taqdir rishtalari esa buzilmasdir.

– Ketishdan oldin sizdan bir narsani so'rab bilmogchiman, – dedi Frodo. – Bu savolni Dorilomonda Gendalfdan so'ramoqchi edim... Modomiki, menga uzuklardan biriga qo'riqchilik qilishga ijozat berilgan ekan, nima uchun boshqa uzuklarni ko'ra olmayman, uzuk qo'riqchilarining fikrlaridan bexabar qolmoqdaman?

– Chunki sen bunga urinib ko'rmagansan, – javob berdi qirolicha. – Uzukni esa, uning qudratidan xabar topgach atigi uch marta taqqansan, xolos. Shu kungacha urinmading, bundan keyin hali urinma, Frodo! Unday urinish seni halok qiladi. Gendalf aytganmi senga, Uzuk o'z qo'riqchisiga uning imkoniyatiga mo'ljallan hokimiyat berishini. O'sha hokimiyatdan foydalanishdan oldin sen nisbatan qudratli bo'lib olishing, irodangni mustahkamlashing, boshqalarni o'z izmingga bo'ysundirib olgan bo'lishing shart. Lekin Uzukning oddiy qo'riqchisi, uni barmog'iga shunchaki taqib yurgan kishi sifatida ham nigohing ancha o'tkir bo'lib qoladi. Mening fikr-mulohazalarimga o'zini oqil deb bilgan ko'plab boshqa kishilarga nisbatan osonlikcha singib kira olding. Sen hozirgina Galadriel ko'z gusida yettilik va to'qqizlikni qo'lga kiritgan kasning ko'zini ko'ra bilding. Nahotki barmog'indagi Uzukni ko'rib, tanimagan bo'lsang? Sen-chi, ko'ryapsanmi qo'limdagi uzukni, – so'radi u Semga murojaat qilib.

– Yo'q, xonim, ko'rmayapman, – javob berdi Sem. – To'g'risini aytganda, nimalar haqida gapirayotganingizni tushunmay, hayron bo'lib o'tiribman. Nazarimda, qo'lingizda yulduz ko'rganday bo'ldim. Agar mening fikrim qiziq bo'lsa, sohibim haq ekanligini aytmoqchiman. Uning uzugini qabul qilib olishingizni istar edim. Uni siz to'g'ri qo'llay bilasiz. Shirdagi hovlimni ag'dar-to'ntar qilib, otamni o'z uyidan quvib solgan-



larni to'xtatgan, bunday ablahlikka qo'l urganlarni javobgarlikka tortgan bo'lar edingiz.

– Darhaqiqat, men shunday qilgan bo'lar edim, – dedi qirolicha. – Men ishni shundan boshlagan bo'lar edim. Lekin, Afsuski, o'sha ish bilan cheklanib qolmas edim. Bo'ldi, bu haqda ortiq gaplashmaymiz.

### VIII BOB

#### LORIYEN BILAN XAYRLASHUV

Kechqurun Uzuk birodarligi Keleborn zaliga taklif qilindi. Qirol bilan qirolicha sayyohlarga ko'pdan ko'p yaxshi so'zlar aytgach, Keleborn safar haqida gap boshladi.

– Izlanishni davom etishga ahd qilgan mehmonlar jur'atini mustahkamlab, ushbu zaminni tark etadigan vaqt yetdi, – dedi qirol. – Safarni davom etishni istamaganlar esa ma'lum vaqt shu yerda qolishi mumkin. Biroq ular qolishi yoki ketishidan qat'i nazar dunyo barqaror qolishiga hech kim kafolat bera olmaydi. Qismatimiz uzil-kesil hal bo'ladigan kun yaqin. Bu yerda qolish istagini bildirgan mehmonlar o'z qismatini xohlasa biz bilan birga qarshi oladi, xohlasa ona yurtiga qaytib ketadi.


Oraga sukunat cho'kdi. Bu vaqt ichida Galadriel har bir sayyohning ko'ziga birma-bir qarab chiqdi.

– Ularning hammasi yo'lni davom etishga ahd qilishgan, – ma'lum qildi qirolicha.

– Fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz, yurtim ortda emas oldinda, – dedi Boromir. – Shunday ekan, bu yerda qolishdan ma'ni, ortga qaytishdan maqsad yo'q.

– To'g'ri, – ma'qul topdi qirol Keleborn. – Ammo siz bilan birga Uzuk birodarligi ham Minas Tiritga yo'l olishidan bexabar ekanman!

– Birodarlikning kelgusi harakat yo'nalishi muhokama qilinmagan, bu borada aniq bir qaror qabul qilinmagan hali, –





ma'lum qildi Aragorn. – Gendalf Lotloriyendan chiqqach qaysi yo'ldan ketishni niyat qilganidan bexabarman. O'ylashimcha, bu masalada Mitrandirning o'zi ham bir to'xtamga kelmagan.

– Balkim, unday emasdir, – e'tiroz bildirdi Keleborn. – Bu yurtni tark etar ekansiz, buyuk daryoni chetlab o'ta olmaysiz. Orangizdan ayrimlarga yaxshi ma'lumki, yuqingiz bor-yo'qligidan qat'i nazar Loriyen bilan Gondorning o'rtasidan o'tadigan ushbu daryodan qayiqsiz o'tib bo'lmaydi. Yo Osgiliatning hali vayron qilinmagan ko'priklari yoxud dushman qo'liga o'tmagan bandargohlari bormi? Daryoning qaysi sohilidan borasiz? Minas Tiritga eltadigan yo'l daryoning bu tomonida, ya'ni g'arbiy sohilida yotadi. Siz izlayotgan manzilga eltadigan yo'l esa narigi sohilda. Xo'sh, qaysi sohilni tanlaysiz?


– Maslahatimga quloq tutilsa g'arbiy sohilni, Minas Tiritga eltadigan yo'lni tanlash kerak, – javob berdi Boromir. – Ammo birodarlik rahnamosi men emasman...

Uzuk birodarligining boshqa a'zolari indashmadi, Aragorn esa ikkilanib, nimadandir xavfsirayotganday ko'rinmoqda.

– Bir to'xtamga kela olmay, boshing qotganini ko'rib turibman, – dedi Keleborn Aragornga murojaat qilib. – Sening o'rningga qaror qabul qilmoqchi emasman-u, lekin orangizda qayiq boshqarishni biladiganlar borligini eslatib o'tmoqchiman: Legolas So'qqa tog' tomon oqadigan Tez oqar daryo bo'yida o'sgan, Gondordan kelgan mehmon Boromir bilan Musofir Aragorn...

– Va pakanalardan biri! – xitob qildi Merri gapga aralashib. – Hobbitlarning hammasi ham asov otdan qo'rqqanday qaramaydi daryoga. Sulolamiz Brendivayn sohilida yashaydi. Shunday ekan, qayiq men uchun notanish vosita emas.

– Juda soz! – maqtadi Keleborn. – Birodarligingiz yengil, ixcham qayiqlar bilan ta'minlanadi. Chunki olis masofaga suzish niyatida bo'lsangiz, ayrim joylarda qayiqni ko'tarib olishga to'g'ri keladi. Buyuk daryoning Sarn Gebir ostonasidan o'tib, balkim, Nen Nitoyel ko'lidan gumburlagancha tushadigan



buyuk Rauros sharsharasigacha yetarsiz. Bundan tashqari, yo'lingizda boshqa turdagi xavfli joylar ham uchraydi. Qayiq yo'l mashaqqatini sal bo'lsa ham yengillashtiradi, lekin u sizning maslahatgo'yingiz bo'la olmaydi. Kun o'tib bir kun daryo bilan qayiqni qo'yib, harakat yo'nalishini g'arb yoki sharq tomon burishingizga to'g'ri keladi.

Aragorn qirol Kelebornga ko'p minnatdorlik izhor etdi. Tuhfa qilinadigan qayiqlar nafaqat yo'l azobini yengillatish, balki harakat yo'nalishini tanlash borasida qaror qabul qilishni yana bir necha kunga kechiktirish imkonini berdi. Qolganlarning ham ruhi tetiklashdi. Oldinda ularni qanday xavf-xatar kutayotgan bo'lmasin, Anduin oqimiga qarshi yo'nalishda ikki bukilgancha piyoda yurgandan ko'ra, qayiqda o'tirib daryo oqimida suzgan yaxshi, albatta. Faqat Sengina ikkilanmoqda, uning fikricha, qayiq asov otdan xavfli bo'lsa bordirki, aslo yuvosh emas.

– Safaringiz anjomlari hozirlanib, ertaga kun yarmigacha Loriyen bandargohiga yetkaziladi, – va'da qildi Keleborn. – Ertalab esa safarga hozirlik ko'rishga ko'maklashib yuboradigan yordamchilar kelishadi. Endi barchangizga xayrli tun va tinch uyqu tilab qolamiz.

– Xayrli tun, do'stlarim! – xayrlashdi Galadriel. – Xotirjam uxlang! Ertangi yo'l haqida o'ylab qalbni xavotirga qo'y-mang. Bosib o'tilishi kerak bo'lgan so'qmoq ko'zingizga ko'rinmayotgan bo'lsa-da, balkim, allaqachon topilib, oyog'ingiz ostida yotgandir. Xayrli tun!

Yo'lovchilar, shu jumladan, Legolas ham shiyponga qaytishdi. Bugun Lotloriyenda o'tadigan so'nggi kecha bo'lib, birodarlik Galadriel xonimning nasihatiga qaramay, kengash o'tkazib olishga qaror qildi.

Bundan buyon qanday ish tutish masalasi, Uzuk bilan bog'liq vazifani sifatli bajarish uchun nima qilish kerakligi uzoq muhokama qilindi-yu, bir maxrajga kelishga erishilmadi. Shunisi aniqki, ko'pchilik dastlab Minas Tiritga borishni, vaqtincha bo'lsa ham, dushman solayotgan dahshatdan xalos bo'lishni istamoqda. Ular birodarlik rahnamosining ortidan daryo kechib,



Mordor ko'lankasiga kirishga ham tayyor, lekin Frodo hozircha biror og'iz so'z aytmadi, Aragorn esa uning fikrini bilmay bir qarorga kela olmayapti.

Aragorn Boromir bilan birga borib, Gondorni dushman-dan tozalash masalasida o'z qilichi ila yordam berishni niyat qilgan. Zero, u, Boromirning tushida kelgan darakni da'vat sifa-tida ko'rgan va mana nihoyat Elendilning merosxo'ri Sauronga qarshi chiqib, hukumat uchun jang qila olishiga ishongan. Biroq bunday niyat tug'ilgan vaqtda Gendalf hayot edi.

Moriya fojiasidan keyin Gendalfning zimmasidagi mas'uliyat Aragornga o'tdi. Agar hozir Frodo Boromirning yurtiga borishdan voz kechadigan bo'lsa, Uzukni tark eta olmas-ligini Aragorn yaxshi biladi. Ammo u yoki Uzuk birodarligining har qanday boshqa a'zosi Frodoga qanday yordam ko'rsata oladi o'zi? Zulmat ichra yonida borish bilanni?

– Minas Tiritga kerak bo'lsa yolg'iz o'zim ketaman, chunki bu mening burchim, – ma'lum qildi Boromir.

Shundan so'ng gondorlik ushbu hamroh pakananing niyatini uqib olish ilinjida bo'lsa kerak, Frododan ko'zini uzmay uzoq vaqt jim o'tirdi. Nihoyat u ovoz chiqarib, o'zi bilan o'zi fikr almashayotganday yana gap boshladi:

– Agar sen Uzukni shunchaki yo'q qilishni niyat qilgan bo'lsang, urushda g'alaba qozonish yoki puxta qurollanish masalasida hech qanday naf bo'lmaydi, demakki, Minas Tirit odamlari ham hech qanday yordam ko'rsata olmaydi. Agar sen Zulmat hukmdorining kuchiga putur yetkazish niyatida bo'lsang, tentaklarcha ish tutgan bo'lasan qo'lingdagi qudratli qurolni dushman hududiga olib kirib, uni...

O'z fikr-mulohazasini ovoz chiqarib bayon etayotganini kutilmaganda idrok etib qolgan Boromir shu zahoti unini o'chirdi.

– Hayotni xavf ostiga qo'yish - bemulohaza qilingan ish bo'ladi, demoqchiman, – fikrini tugatgan bo'ldi u, Frodoga baqrayib. – Mustahkamlangan istehkomda mudofaaga o'tish

bilan ajal qo'yniga tikka borish o'rtasidagi tanlovdan o'zga narsa emas bu. Har qalay, menga shunday tuyuladi.

Frodo Boromirning nigohida yangi va qandaydir dahshatli ma'no borligini fahmlab, hamrohiga diqqat-la tikildi. Aftidan, Boromirning niyati hozirgina bayon etgan fikridan mazmunan farq qiladigan ko'rinadi. «Qudratli qurolni dushman hududiga olib kirib, uni...» Xo'sh, uni nima? Hukmdorlik Uzugini olovli Orodruin tog'ining markazi bo'lmish Taqdir tirqishiga tashlash tentaklarcha tutilgan ish bo'ladi demoqchimi? Dorilomonda o'tgan kengashda ham dastlab shunga o'xshash fikr bildirib, keyin Elrondning fikrini ma'qul topgan cdi. Frodo Aragornga qarab qo'ydi. Chuqur o'yga tolgan Aragorn Boromirning gapiga e'tibor qilmadi. Bahs tugagan. Merri bilan Pin allaqachon uyquga ketishgan, Sem ham mudrab o'tiribdi. Kech bo'ldi.

Ertalab sayyohlar ko'ch-ko'ronini yig'ishtirar ekan, ularning tilida so'zlasha oladigan elflar kelib anchagina yegulik va kiyim-kechak zaxirasini sovg'a qilishdi. Yegulik orasida tagi qo'ng'ir, usti ochroq obinon ko'p ekan. Ushbu kulchalardan birini qo'liga olgan Gimli ikkilangancha aylantirib, ko'zdan kechirdi.


– Non ekan-da bu, – xulosa qildi gnom bir tishlam sindirgancha og'ziga solib.

Yuz qiyofasi keskin o'zgarib ketgan Gimli kulchani butunicha og'ziga solib, chaynay ketdi.

– Butunicha yema! Hoy, gnom, birdaniga yeb qo'yma! – xandon otdi elflardan biri. – Kun davomida oz-ozdan yeb boriladigan kulchani bir chaynashda yeb qo'ydi-yu!

– Deyl novvoylari yopadigan oddiy non deb o'ylabmangga. Ular ham yovvoyi o'lka orqali olis yo'l yuradigan odamlarga shunga o'xshash kulcha zaxirasini yopib berishadi, – tushuntirish berdi Gimli.

– To'g'ri, bir qaraganda o'sha nonga o'xshash non, faqat farqi katta, – dedi elf. Bu kulchani biz lembas yoki yo'l noni deb ataymiz. Oddiy odamlar tayyorlaydigan har qanday taomdan



farqli o'laroq, bitta lembasning quvvati uni yegan kishiga bir kunlik kuch bag'ishlaydi, ta'mi ham ancha mazali.

– Gaping to'g'riga o'xshaydi, – iqror bo'ldi Gimli. – Beorning avlodi pishiradigan asal tortdan ham mazaliroq ekan. Bu juda yuksak maqto'v, ishonaver, chunki tort pishirish bobida beornvachchalardan o'tadigani yo'q. Lekin ular o'z tortini har qanday sayyohga ham beraverishmaydi ta'tib ko'rishi uchun. Siz elflar ancha mehmondo'st xalq ekansiz!

– Samimiy so'zlaring uchun rahmat, lekin, baribir, lembasni tejab iste'mol qilinglar, – dedi boshqa elf. – Yegulikning har qanday boshqa turi tugaganda ushbu non kuningizga asqatadi. Lembas oz-ozdan, qorin ochganda yeyiladigan non bo'lib, uni behuda titkilamay, mana bu barglarga biz o'rab qo'y-ganday olib yursangiz, o'z xususiyatini tandirdan yangi uzilgan nonday saqlab boradi. Takror aytaman, bitta lembas Minas Tiritdan kelgan mehmonday baquvvat kishiga bir kunga yetadigan kuch baxsh etadi.

Shundan so'ng yordamchi elflar o'zlari bilan olib kelgan kiyimlarni tarqatishdi. Har bir yo'lovchiga issiq tutadigan yengil matodan bo'y-bastiga to'g'ri keladigan qaytarma qalmoqli plash tikilibdi. Kiyim matosining rangi borasida aniq bir nima deyish qiyin: daraxt ostida shom tusiday kulrang, harakat davomida yoki quyoshda turganda soyada qolgan daraxt bargiday yashil, tunda bug'doy maydoniday somonrang, suv yaqinida to'q kumushrang bo'lib ko'rinadi. Har bir plashning bo'yin qismi kumush bilan hoshiyalangan yashil barg shaklidagi to'g'nag'ich vositasida qadaladi.

– Sehrlimi deyman bu plash, nima balo? – so'radi Pin, yangi kiyimini hayrat-la ko'zdan kechirib.

– Nima demoqchi bo'lganingni bilmadim-u, lekin matosining ipi oliy navli jundan yigirilgan bu plash eng sifatli kiyimlardan biridir, – javob berdi yordamchi elflar boshlig'i. – Barg, shox-shabba, suv va tosh rangi berilgan unga. Bularning bari Loriyenda elflar yaxshi ko'radigan eng chiroyli narsalar bo'lib, o'z qo'limiz bilan yasaydigan buyumlarga ushbu muhabbatdan

ham qo'shamiz. Elflar kiyib yuradigan kundalik kiyim bu, agar shuni nazarda tutayotgan bo'lsang. Bu sovut emas oddiy plash, kamon o'qi yoki qilich zarbidan asramaydi. Lekin buyum sifatida yaxshi xizmat qiladi: yengil, kishini sovuq havoda issiq, issiq havoda salqin tutadi, tog'-u toshlar, daraxtlar orasida yurganda dushman ko'ziga ko'rinmaydi. Sohibam sizlarni chindan ham juda yaxshi ko'radi, shekilli, plash matosining ipini yigirgan qizlar bilan teng ishladi. Qandaydir g'ayrioddiy ish bo'lyapti o'zi... Chunki biz elflar hali hech qachon xorijlikka kiyim bermagan edik...

Nonushtadan so'ng Uruk birodarligi favvora oldidagi gulzor bilan xayrlashdi. Ushbu ajib maskan ularga qadrdon uyday bo'lib qolgani bois bu ish oson kechmadi, garchi bu yerda necha kun yashaganini birortasi aniq ayta olmasa-da. Oq suvning quyoshda mavjlanishini tomosha qilayotgan birodarlik oldiga Xaldir keldi. Frodo uni ko'rganidan xursand bo'lib do'stona ko'rishdi.

... Shimoliy chegaradan qaytib kelishim bilan yana sizga yo'l boshchi etib tayinlandim, tushuntirish berdi elf. – Dimrill vodiysini tutun pag'alari qamragan, tog' tizmasi notinch, yer qa'ridan gumbur-gumbur tovush chiqyapti. Agar birortangiz shimolga, uyga qaytishga ahd qilgan bo'lsangiz, Loriyenga kelgan yo'lingizdan keta olmaysiz. Yuringlar, endi yo'l sizlarni janubga eltadi.

Karas Galadon ko'chalarida indamay yurishar ekan, yashil so'qmoqlar kimsasiz bo'lsa ham, daraxt shoxlaridan ovozlari eshitildi. Nihoyat sayyohlar Xaldir boshchiligida tepalikning janubiy etagiga, oq ko'prikka yetib, xandaqning narigi tomoniga o'tganicha elflar shahrini tark etishdi. Birozdan so'ng tosh to'shalgan yo'lni tark etib, mellorn daraxtlari orasiga, janubiy-sharqqa, daryo sohiliga eltadigan so'qmoqqa o'tib olishdi.

Kun yarmigacha sayyohlar taxminan o'n milyacha yo'l bosib, yam-yashil tepalikka yetishdi, yalanglikka chiqib, o'rmon chetiga yetishganini fahmlashdi. Maysazor uzunchoq shaklda bo'lib, unda tillarangli elanora guli qiyg'os ochilgan. Uning tor

qismi suv havzasini ikkiga bo'lib yuborganday uzoq cho'zilgan. O'ng tomonda, g'arbda Silverloud mavjlanayotgan bo'lsa, chap qo'lda, sharqda chuqur, suvi qoramtir daryo sokin oqmoqda. Buyuk daryoning narigi sohilidagi o'rmon inson ko'zi yetadigan ufqqacha janub tomon cho'zilgan, lekin qirg'oq yalang'och bo'lib, qandaydir xunuk ko'rinmoqda. Loriyen chegarasidan tashqarisida birorta ham mellorn ko'rinmaydi.

Silverloud sohilida, ikki daryo tutashgan joyga biroz yetmagan maydonda oq toshdan kema bog'lash joyi qurilgan bo'lib, unda ko'pdan ko'p qayiq va tubi yassi yuk kemalari bog'langan. Qayiq va kemalarning ayrimlari tilla va kumush rangda yaltirayotgan bo'lsa, aksariyat qismi kulrang va oq bu yoqqa bo'yalgan. Sayyohlar uchun uchta ixchamgina kulrang qayiq hozirlanib, safar anjomlari joylanibdi. Har bir qayiqqa uch kalavadan ingichga, ipakday mayin lekin juda pishiq, elf plashiday kulrang arqon tashlab qo'yilibdi.

– Nima bu? – so'radi Sem, yerda yotgan kalavalardan birini olib.


– Arqon-u, ko'rmayapsanmi?! – dedi qayiqqa chiqqan elf. – Hech qachon yo'lga arqonsiz chiqma! Qo'lingdagi kalava juda uzun, yengil va nihoyatda pishiq arqon turlariga kiradi. Ko'p hollarda asqatib qolishi mumkin.

– Bu masalada aql o'rgatmasang ham bo'laveradi! – dedi Sem. – Arqonim yo'qligidan tashvishda edim. Arqon tayyorlash masalasida biroz uquvim bor, mana bu kalava ipi nimadan yigirilganini tushunmayapman.

– Xitleyndan, – ma'lum qildi elf. – Xitleynning nimaligini tushuntirib o'tirishga esa vaqt yo'q hozir. Bu ishga qiziqshingni ertaroq aytganingda o'rgatib qo'ygan bo'lar edik. Tayyor buyumdan foydalanishdan o'zga chorang qolmadi endi. Qaytib kelsang, balkim, o'rgatib qo'yarmiz. Yaxshi kunlaringga xizmat qilsin!

– Xo'sh, hammasi tayyor! – dedi Xaldir. – Vaqt bo'ldi. Qayiq'larga taqsimlanib o'tiring! Faqat ehtiyot bo'ling.

– O'zing ehtiyot bo'l, Xaldir, – e'tiroz bildirdi qayiq'larni



safarga hozirlagan elflardan biri. – Boshqa xalqlar yasaydigan suzish vositalaridan farqli o'laroq bu qayiqlar yengil, pishiq va muvozanati turg'un qayiqlar turkumiga kiradi. Ichiga suv to'lib qolsa ham cho'kmaydi. Muhimi uni boshqara bilishdir. Daryo oqimiga o'tmasdan oldin uni shu yerda, bandargoh havzasida boshqarishni mashq qilib ko'rsangiz, foydadan holi bo'lmaydi.

Sayyohlar qayiqlarga quyidagicha taqsimlanishdi: Aragorn, Frodo va Sem birinchi qayiqqa, Boromir, Merri va Pin ikkinchi qayiqqa, so'nggi vaqtda inoqlashib qolgan Legolas bilan Gimli esa uchinchi qayiqqa joylashishdi. Yukning asosiy qismi ham uchinchi qayiqqa ortilgan. Qayiq barg shaklidagi kuragi keng eshkak vositasida boshqariladi. Hamma narsa tayyor bo'lgach, eshkak eshgan Aragorn Uzuk birodarligini Silverlound oqimi bo'ylab yuqoriga boshladi. Oqim tez bo'lib, sayyohlar shoshmasdan harakatlanishdi. Qo'lini ikki tomon uzatib, qayiq devorini mahkam ushlab olgan Sem ma'yus nogoh-la qirg'oqqa qarab ketmoqda. Quyosh gardishining suvda o'ynayotgan aksi Semning ko'zini qamashtirmoqda. Qayiqlar qumloq til yonidan suzib o'tar ekan, daraxtlar suvgacha tushgani, u yer, bu yerga tilla tusli barglar to'kilib, ko'pikli suvda oqayotgani ko'rindi. Havo toza, daryo sokin, atrof jimjit, faqat shoxlar orasida bir juft so'fitor'g'ay sayramoqda.

Daryo burilgach, oldinda ko'kragini mag'rur kerib oqimga qarshi suzib kelayotgan oqqush ko'rindi. Egik bo'yniga urilayotgan suv ko'piklashayotgan oqqushning tumshug'i hozirgina eritilgan oltinday, ko'zi esa bir juft yirik javohirday yaltiramoqda, ulkan qanoti biroz yuqoriga ko'tarilgan. Biroz yaqin kelgan ediki, qayerdandir musiqa yangradi. Sayyohlar ushbu yirik oqqush aslida qush emas, kemasoz elflar tomonidan oqqush shaklida mahorat-la o'xshatib yasalgan kema ekanligini endi fahmlashdi. Egniga oq kiygan ikki nafar baquvvat elf qora eshkak tortib kelishmoqda. Kemaning asosiy kursisida qirol Kelborn o'tiribdi, yonida esa novcha bo'yli, egniga oq kiygan, oltinday porlayotgan sochiga tilla tusli gullardan tuzilgan bargak kiygan, arfa chalgancha qo'shiq aytayotgan Galadriel xonim



turibdi. Salqin havoda qirolichaning ovozi mayin, quyidagi mazmunga ega qo'shig'i esa ma'yus ohangda eshitildi:


«Oltin barglar haqida qo'shiq kuyladim, tilla bargli daraxtlar o'sdi u yerda. Shamolni eslab kuyladim, shamol esdi o'sgan daraxt shoxlarida. Dengiz tinmay to'lqinlandi, suvi ko'piklanib rosa qaynadi. Ilmaril yaqinida o'sdi daraxt, shoxi tilla rangli bargga burkanib. Oy yerga shu'la sochganda Eldamar-da yarqiradi uning barglari. Tirion barham topdi, ul barglar ham yo'qoldi, oy shu'lasida endi faqat ko'z yoshlari yiltiraydi. Oh, Loriyen! Qish kelishiga oz qoldi, daraxtlar bargini to'kib yubordi. Moviy oqim so'nggi bargni oqizib ketdi. Oh, Loriyen! Vaqt sening izmingda emas, lekin men bag'ringda uzoq yashadim. Elanora so'ldi so'lim bog'ingda, garchi qo'shig'imda bahorni chorlagan bo'lsam-da. Endi qo'shig'im kema chorlaydi, dengiz osha ketmoqchiman suzib, ammo dovulli dengiz meni qo'yib yuborishni istamayapti, umid halokat yoqasida, baxtdan darak yo'q».

Oqqush-kema yaqin kelganda Aragorn qayiqni to'xtatdi. Qo'shig'ini tugatgan qirolicha yo'lovchilarga salom berdi.

– Sizlar bilan xayrlashib, yurt xalqi nomidan oq yo'l tilagani keldik, – dedi u.

– Aziz mehmonimiz bo'la turib, biz bilan bir dasturxonda tanavvul qilmadingiz hali, -- dedi Kelebron. – Biz sizlarni shu yerda, Loriyendan olis-olislarga olib ketadigan oqar suv qirg'og'ida uyushtiriladigan kichik ziyofatga taklif qilmoqchimiz.

Oqqush-kema qirg'oq tomon asta burildi. Sayyohlar ham qayiqlarini kema ortidan boshqarishdi. Egladil chegarasining oxirida, yashil maysazorda xayrlashish ziyofati uyushtirildi. Lotloriyen sohibasining latofati-yu, ovoziga mahliyo bo'lib o'tirgan Frodo ko'p yemadi. Hozir qirolicha dahshat solmayotgan bo'lsada, yashirin kuchga to'lib-toshgani ko'rinib turibdi. Keyinchalik elflar odamlarga kamdan kam duch kelib, ko'ziga qanday ko'rin-



gan bo'lsa, hozir qirolicha shunday ko'rinmoqda: o'zi shu yerda bo'lsa ham, vujudi vaqt allaqachon olib ketgan jonli hissiyot shaklida, olisda.

Ziyofat nihoyasiga yetgach, maysada o'tirgan Keleborn Uzuk birodarligining safari haqida gap ochdi. Qirol qo'lini ko'tarib janub tomonni, qumloq til ortidagi o'rmon orqasini ko'rsatgancha uzatdi.

– Oqim bo'ylab pastlab borgan sari o'rmon ham siyraklashishini kuzatasiz, – ma'lum qildi u. – Ko'p o'tmay o'rmon chegarasiga yetasiz. U yerda daryo o'zlashtirilmagan yerlarning supirgigul o'sgan toshloq qirg'oqlarini yuvib o'tadi. O'sha manzarada uzoq lig suzgach, baland Tindrok oroliga yetasiz. Biz uni Tol Brandir deb ataymiz. Daryo tarmoqlanib ushbu orolning toshloq qirg'oqlarini yuvib o'tgancha, Rauros nomini olgan sharshara ko'rinishini kasb etadi. Undan oldin esa daryo suvi har xil tillarda Nen Nitoyel, Nindalf yoki Vetvang deb nomlanadigan ko'lga quyiladi. U yer sekin oqadigan irmoqlar hududi sanalib, daryo ilang-bilang oqqancha, ko'p tarmoqlarga taqsimlanib ketadi. Fengorn o'rmonida tarmoqlanib ketgan Sofo'rmon daryosi ham Anduinga shu yerda, g'arbdan kelib quyiladi. Daryoning mana shu qismidagi o'ng qo'l tomonida Rohan o'lkasi boshlanadi. Chap qo'l tomonida esa Emin Nuil tog' tizmasining xunuk tepaliklari ko'rinadi. Shamol sharqdan o'lik botqoqlik, Noman o'lkasi va Kirit Gorgor tog'i uzra Mordor darvozasi tomon esadi.

Boromir va unga qo'shilib Minas Tirit tomon yo'l olishga ahd qilganlar buyuk daryoni Rauros sharsharasi yaqinida tark etib, Sofo'rmon daryosini botqoqqa yetib bormagan qismida kechib o'tishi lozim. Biroq ular daryo oqimi bo'ylab piyoda uzoq yurishmasin. Aks holda Fengorn o'rmoniga kirib qolishadi. U yer juda g'alati joy bo'lib, yetarlicha ma'lumot yo'q. O'ylaymanki, Boromir bilan Aragorni bu masalada ogohlantirishga ehtiyoj yo'q.

Darhaqiqat, biz, Minas Tiritda yashaydigan odamlar Fengorn o'rmoni haqida ba'zi narsalarni eshitganmiz, – so'z oldi Boromir. – Biroq men eshitgan cho'pchaklar yosh bolaga uyqu-

dan oldin enasi aytib beradigan ertaklardan o'zga narsa emas. Rohanning shimolida borki narsa endi bizdan shu qadar uzoqlashib ketganki, u yerlarda kurakda turmas har xil xayoliy gaplar erkin tentirab yurgan bo'lishi mumkin, albatta. Qadimda Fengorn o'rmoni qirolligimiz chegarasi yaqinida bo'lgan ekan. O'shandan buyon ko'p asrlar o'tib, bizgacha yetib kelgan gaplar qanchalik asosli ekanini tekshirib qaytish maqsadida avlodimiz vakillari o'sha o'rmonga qo'ziqorin terimiga kelmagan.

Shaxsan o'zim Rohanda bir necha bor bo'lganman, lekin o'lkaning shimol tomoniga o'tmaganman. U yerga darakchi sifatida yo'llanganimda Oq tog'lar tizmasidagi so'qmoqdan yurib, Izen daryosini, shuningdek, Greyflud daryosining shimoliy etagini kechib o'tganman. Uzoq cho'zilgan zerikarli safar bo'lgan. Taxminan to'rt yuz lig bosib o'tib, unrimning bir necha oyini yo'l yurishga sarflaganman. Greyflud daryosini Tarbad tog'i bag'rida kechib o'tish jarayonida otimdan ayrilganman. O'sha sarguzashtdan so'ng va mana endi birodarlik tarkibida bosib o'tilgan yo'ldan keyin ona yurtimga Rohan orqali, vaziyat taqozo etsa Fengorn o'rmoni orqali yo'l topib borishimga shubha qilmayman.

– Unday bo'lsa, ko'p gapirmay qo'ya qolay, – dedi Keleborn. – Lekin maslahatim shuki, qadimdan bizgacha yetib kelgan gaplarga bepisand qarashni odat qilmang. Ba'zan shunday bir holatlar yuz beradiki, bolalarga uyqudan oldin enalarimiz aytib beradigan ertaklarda oqillar bilishi kerak bo'lgan haqiqat ham topilib qoladi.

O'rnidan turgan Galadriel qizlardan biri uzatgan qadahni olib oq asal quydi-da, Kelebornga uzatdi.

– Xayrlashish qadahini ko'tarish vaqti yetdi, – dedi u. – Ich, Galadrim sohibi! Sizlar esa qayg'urmang, garchi kundan keyin tun kelib, oqshom yakuniga yetayotgan bo'lsa-da.

Har bir mehmonga shaxsan o'zi qadah uzatgan qirolicha, ular bilan alohida-alohida xayrlashib chiqdi. Qadahlar bo'shagach, hammadan maysaga, o'z joyiga o'tirishni iltimos qildi. Qirol bilan qirolichaga kursi keltirishdi. Xizmat ko'rsatayotgan

elf qizlar mehmonlarga yuzlanib o'tirgan qirolicha ortiga o'tishdi.

– Biz xayrlashish qadahini ko'tardik va oramizga vidolashish ko'lankasi tushdi, – yana gap boshladi Galadriel. – Biroq yo'lga chiqishlaringdan oldin Galadrim sohiblari sizlarga Lotloriyendan xotira sifatida tuhfa etayotgan esdalik sovg'alarini navbat bilan topshirmoqchiman.

– Mana bu tuhfa Keleborn bilan Galadriel tomonidan Uzuk birodarligi rahnamosi uchun oldindan tayyorlab qo'ygan sovg'a, – dedi u.

Qirolicha Aragornning qilichi uchun yasalgan qinni uzatdi. Qin sirtiga kumush va oltin vositasida gul va barglar tasvirlangan bo'lib, o'rtasida qurolning Andril nomi bilan qilich shajarasi mayda inju qadalib bitilgan.

– Mazkur qinda saqlangan tig' jang muvaffaqiyatsiz yakun topgan taqdirda ham hech qachon sinmaydi, – dedi Galadriel. – Balkim, mendan senga yana biron nima kerakdir? – so'radi u Aragorn dan. – Oramizga ko'lanka tushyapti. Endi hech qachon ko'rishmaymiz, agar qaytish yo'li bo'lmaydigan safarni hisobga olmasak, albatta.

– Orzu-istaklarimni yaxshi bilasiz, sohibam. Bir umr qidirib yurgan xazinamni ham bilasiz, – javob berdi Aragorn. – Ammo hadya etishni istasangiz ham, uni menga bera olmaydiz. Zulmatni yengibgina yetisha olaman unga.

– Balkim, ruhingni sal bo'lsa ham mana bu narsa yengillatar, – dedi Galadriel. – Yurtimizdan o'tar ekansan, uni senga hadya etishim kerak.

Qanot yozgan burgut shaklida o'yilib, kumush to'g'no'g'ichga ko'z sifatida solingan yirikkina yashil tosh qirolichaning qo'lida daraxt bargida aks etgan quyosh shu'lasiday yalt etdi.

– Buni Kelebrian o'z qiziga bergan, qizi ham o'z qiziga hadya etgan. Endi u umid ramzi sifatida senga o'tadi. Mazkur tosh senga «Elendil xonadoniga mansub Elf toshi» mazmunini anglatadigan Elessar ismini beradi. Ushbu ism sen uchun bashorat qilingan, uni qabul qil.

Aragorn toshli to'g'nog'ichni qirolichaning qo'lidan qabul qilib o'z ko'kragiga taqib oldi. Uni shu kungacha ko'rib kelganlar hayratlanishdi. Chunki ular Aragornning bo'yi ancha novchaligiga, qirollarga xos qomatiga e'tibor qilmay kelishgan ekan. Aragornning qiyofasidan uzoq yillar davomida kechgan mashaqqatli mehnatidan toliqish alomati barham topdi.

– Ey, Loriyen sohibasi, qizi Kelebrian va uning qizi – shom yulduzi Arvenning dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan qirolicham! Menga berilgan bebaho tuhfalardan bag'oyat xursandman. Sizga bo'lgan hurmat-u, ehtiromimni, cheksiz minnatdorligimni izhor etishga tilim o'qizlik qilmoqda.

Bosh irg'ib qo'ygan qirolicha Boromir tomon yuzlandi. Galadriel xonim Boromirga oltin, Merri bilan Pinga kumush kamarlar hadya etdi. Har bir kamar gul shaklidagi tilla to'qaga ega. Legolasga Galadrimda qo'llaniladigan kamon bilan o'q to'la sadoq<sup>1</sup> topshirildi. Yovuz o'rmon elflari qo'llaydigan kamonlardan farqli o'laroq ushbu kamon uzun, baquvvat bo'lib, elf sochidan tortilgan ipi juda pishiqdir.

– Senga esa, ey, daraxtlarni yaxshi ko'radigan pakana bog'bon, kamtarin bo'lsa ham, o'ziga xos alohida sovg'a bor, dedi qirolicha Sema murojaat qilib.

Lotloriyen o'rmonining sohibasi bog'bon hobbitga kulrang yog'ochdan yasalgan silliq quticha uzatdi. Bezak berilmagan ushbu quti qopqog'iga qadimiy runaning kumushdan yasalgan bitta harfi qadalgan.

– Mana bu runa «G» harfi bo'lib, bizning tilimizda Galadriel ismining; sizning tilingizda esa «gulzor» so'zining birinchi harfini anglatadi, tushuntirish berdi qirolicha. Quti ichida mening gulzorimdan olingan unumdor tuproq va Lotloriyen zaminining Galadriel in'om etgan barakasi bor. Ushbu sovg'a mashaqqatli safar davomida madad bermaydi, xavf-xatardan saqlamaydi, lekin uni saqlab qolib, yurtingga eltishga erisha bilsang, seni yaxshilab taqdirlaydi. Dushman O'rtayer zaminida o'sgan

---

<sup>1</sup> Sadoq – yoy o'qlari solinadigan asbob, o'qdon.

o'simlik olamini yo'q qilib, hamma yoqni cho'lga aylantirib yuborgan taqdirda ham, ishlov berilgan yeringga mana bu tuproqni sepsang sening bog'ingga yetadigan go'zal gulshan topilmaydi. O'shanda Galadriel bilan Loriyening qishini eslab qo'yarsan. Zero, bizning bahor va yozimiz o'tib, unday go'zal o'lka xotiradan o'zga joyda topilmas endi.

Qulog'igacha qizarib ketgan Sem ikki bukilib ta'zim qilar ekan, minnatdorlik izhor etdi, shekilli, allanima deb po'ng'illadi.

– Gnom-chi, elflardan qanday sovg'a olishni istagan bo'lar edi? so'radi Galadriel xonim Gimliga yuzlanib.

– Xijolatga qo'ymang, sohibam, – javob berdi Gimli. Men uchun go'zallikdan tengi yo'q Galadriel xonimni ko'rish, uning benazir ovozi eshitishning o'zi cheksiz baxtdir.

Eshitdingizmi, elflar! xitob qildi qirolicha. – Bundan buyon hech kim gnomlarni beadab manfaatparast demasin! Tila tilagingni Gloinning o'g'li Gimli! Ayt, nima beray senga? Ushbu o'lka mehmoni sovg'asiz, quruq qo'l bilan ketishi mumkin emas.

– Minnatdorman, sohibam, menga hech narsa kerak emas, biroz tutilib gapirdi Gimli ikki bukilib ta'zim qilar ekan. – Agar... so'rash joiz bo'lsa... Osmondagi yulduzlar yer ostidagi xazinalardan a'lo deya e'tirof etilgan singari, kurrai zaminning jamiki oltin zaxirasidan a'lo ko'rilishi lozim bo'lgan sochingizdan bir tutam so'rasam. Jur'atim yetmas edi-yu, tila tilagingni deganingiz uchungina qaror qildim.

Davrada o'tirgan elflar o'zaro pichirlasha boshlashdi. Qirol Keleborn ham gnomga hayrat-la baqraydi.

– Gnomlarning qo'li gul bo'ladi-yu, nutqi dag'al chiqadi deganlar bekor aytibdi! dedi Galadriel xonim kulib boqib. – Har qalay, bu gap do'stimiz Gimliga taalluqli emas ekan. Hali hech kim menga bunday dadil va ayni vaqtda xushmuomala ohangda bayon etilgan iltimos-la murojaat qilmagan. Tila tilagingni degan ekanman, qanday qilib rad etishim mumkin. Biroq ayt-chi menga gnom, hadya etilgan sochim tutamini nima qilmoqchisan?

– Ilk bor uchrashganimizda aytgan so‘zlaringiz haqi-hurmati uni eng qadrli xazinaday saqlayman, – javob berdi Gimli. – Kun o‘tib bir kun o‘z xalqim ustalari bilan yurtga qaytish nasib etsa, aziz boshingizdan qiyib bergan sochingiz tutamini tog‘ billuri ichiga joylab, sulolamning avloddan avlodga o‘tib boradigan ma‘naviy merosi, dunyo turguncha tog‘ bilan o‘rmon o‘rtasidagi ezgu niyatlar garovi deya e‘lon qilaman.

Qirolicha uzun sochidan bir tutam qiyib Gimlining kaftiga qo‘ydi.

– Sochinga qo‘shib yana bir tilak bildirmoqchiman, – dedi Galadriel. – Bashorat qilmayman. Zero, har qanday bashorat bugun behudadir: bir qo‘lda zulmat, ikkinchisida umid qolgan. Agar umid pand bermasa, men senga, Gloinning o‘g‘li Gimli, qo‘ling oltin bo‘lishini, lekin oltin sening qalbingga hokim bo‘lib, so‘z o‘tkaza olmasligini tilab qolaman.

Gnom bilan qirolicha bir-biriga ta‘zim aylagancha xayrlashishdi.

– Seni esa, Uzuk qo‘riqchisi, eng oxirida qoldirdim, garchi fikr-u xayolimda birinchi bo‘lsang-da, – dedi qirolicha Frodoga yuzlanib. – Sen uchun men mana buni tayyorlab qo‘ydim.

Galadriel uzatgan mittigina billur idishdan oppoq shu‘la taraldi.

– Bu idishga Frendil yulduzining favvoram suvida aks etgan shu‘lasi joylangan. Qorong‘i tunda qolsang, ilgarigiday yo‘l yoritib boradi. Zulmat ichra nursiz qolsang, senga juda asqatadi. Galadriel bilan uning ko‘zqusini unutmay, tez-tez eslab bor.

Hozir Frodo qo‘lidagi billurdan taralayotgan shu‘la yorug‘ida Galadrielni go‘zallikda tengi yo‘q ayol, buyuk qirolicha sifatida ko‘rib, dahshat soladigan alomatini topmadi. Ta‘zim bajo aylagan hobbit minnatdorligini durustroq izhor eta olmay, po‘ng‘illagancha nari ketdi.

Qirolicha o‘rnidan turgach, Kelebron hammani kema tomon boshladi. Kun yarmiga yetib, daryo suvi kumush tusda yaltiramoqda. Safarni davom etishga hamma narsa tayyor. Yo‘-

lovchilar o'z qayiqlariga joylashishdi. Baqirgancha xayrlashayotgan elflar uzun xodalari vositasida qayiqlarni daryoning o'rtarog'iga turtishdi. Tezoqar suv qayiqlarni ilashtirib ziyofat o'tgan joydan nari olib ketdi. Qumloq til boshiga kelib to'xtagan Galadriel xonim yolg'iz o'zi uzoq turib qoldi. Orqaga o'girilib qaragan yo'lovchilar tobora uzoqlashib borayotgan qirolichani ko'rishdi. Suzayotgan ularning qayiqlari emas, tilla tusda yarqirayotgan Loriyen deb atalmish daraxt-machtali ulkan kema unutilgan olis sohil tomon suzib ketayotganday, sayyohlar esa mana bu o'rmoni siyrak kulrang joyda o'tirgancha Loriyen kemasiga oq yo'l tilab qolishganday go'yo.


Ortda qolayotgan Lotloriyenga qarashar ekan, Silverlound daryosi Anduin daryosiga quyilib sayyohlarning qayiqlari janub tomon burilgancha suza ketdi. Ko'p o'tmay Lotloriyen sohibasining oq qomati uzoqlashib, kichraydi. Hozir qirolicha tong otar mahaldagi deraza oynasi yoki tog' ustidan ko'rinarayotgan olisdagi ko'l yoxud yerga samodan tushgan billur singari yaraqlab ko'rinmoqda. Birozdan so'ng Galadriel xonim xayrlashayotganday qo'lini ko'tarib, qo'shiq boshladi. Endi u dengiz ortida qo'llanilgan qadimiy elf tilida kuylamoqda. So'zlari tushunarsiz-u, musiqasi juda chiroyli... Biroq ushbu musiqa Frodogaga taskin bermadi.

Tushunarsiz bo'lsa-da, hobbit qo'shiq so'zlarini eslab qolib, keyinchalik ma'nosini uqishga urinib yurdi. Aniqlanishicha, qo'shiqda kuylangan narsalar O'rtayerda ma'lum emas ekan:

*Ai! Lauriye lantar lassi surinen,  
Ioni umotniye ve ramar oldarok!*

*Ioni vo lmite eladr avaniyer  
Mi oromardi lisse-miruvoreva*

*Apdune poliye, bardo tellumar  
Nu luini iassen tintiler i yelini*





*Omare verantari-lirinen.  
Si man i elma min oknvanutve?*

*An si ti talle Varda oyleosseo  
Na fanyyar maryat elentari ortano*

*Ar iliyetnor undulave lumbule  
Ar sindenoriyello kayte korniye*


*I falmalinnar imbe met, ardxisiye  
Untuna Kalakirno miri oyale.  
Si vaneva pa, ramello vanva, Valimar!*

*Namariye! Nay xruvale Valimar.  
Nay ele xiruva. Namariye!*

«Evoh! Kuzgi shamolda xazonrez kuchayib, umr yillari daraxt shoxiday sinib tushar. G'arb chekkasidagi Sehrli saltanatning moviy gumbazli zallarida, qirollarga xos viqorli ovoizidan yulduzlar yig'lagan Vardaning qo'shig'i ostida kechgan uzoq yillar tomoqdan o'tayotgan shirin asal yutumiday tez o'tadi. Qadahimni kim to'ldirar endi? Varda, yulduzlar qirolichasi Kvervayt tog'ida qo'lini ko'tardi. Shu zahoti bulutlar va barcha so'qmoqlarni quyuq ko'lanka qamradi, o'rtamizda, qosh qoraygan kulrang o'lkada ko'pikli to'lqinlar hosil bo'ldi, tuman Kalakiriya javohirotni mangu qamradi. Endi sharqdan, Valimardan kelganlar uchun hamma narsa yo'qotildi. Alvido! Balkim, Valimarni qidirib toparsan? Chindan ham, balkim, aynan sen toparsan uni. Alvido!»

Elflar Elberetni Varda deb atashadi.

Daryo kutilmaganda keskin burildi, ikkala qirg'oq baland ko'tarilib Loriyenning nuri o'chdi. Frodo ushbu go'zal yurtga keyingi hayoti davomida qaytib kelmadi.




Sayyohlar daryo oqimi tomon yuzlanishdi. Ro'parada charaqlayotgan quyosh ko'zni qamashtirmoqda. Hammaning ko'zi nam. Gimli yig'layotganini yashirmadi.

– Bunday go'zallikni hayotimda so'nggi bor ko'rgan bo'lsa kerak, – dedi u hamrohi Legolasga. – Bundan buyon Galadriel xonimning bergan tuhfasidan boshqa narsani go'zal deyishga tilim aylanmaydi. Qani, ayt-chi menga Legolas, nima maqsadda ishtirok etyapman men ushbu safarda? – so'radi u, qo'lini ko'ksiga qo'yib. – Asosiy xavfdan men deyarli voqif bo'lmaganman. Yo'lda nimalarga duch kelishimizni oldindan bilmasligimiz borasida Elrond haq bo'lib chiqdi. Moriya zulmatida azob chekishim mumkinligini taxmin qilgan edim, lekin o'sha taxmin meni to'xtatib qolmadi. Agar Lotloriyendagi ro'shnolik va quvonch xavfiga duch kelishim mumkinligini bilganimda olg'a odimlashga jur'at eta olmagan bo'lar edim. Qirolicha bilan vidolashish Zulmat hukmdorining makoniga borishdan-da og'irroq jarohat yetkazdi menga. Ming afsus, Gloinning o'g'li Gimli!

– Yolg'iz senga emas, afsuski, bizga ham jarohat yetdi! Umuman, bunday vidolashish bu dunyoda bugungi davrda yashayotganlarning bariga jarohat yetkazadi, – javob berdi Legolas. – Iloj qancha, topish va yo'qotish – peshanaga bitilgan qismat ekan. Lekin men har yomonning bir yaxshiligi bo'ladi deganlariday har narsada baxt ko'raman, Gloinning o'g'li Gimli: sen o'z ixtiyoring bilan yo'qotganing uchun aziyat chekyapsan. Demak, Lotloriyen haqidagi xotira qalbingda umrbod saqlanib qoladi. U hech qachon so'nmaydi.

– Balkim, shundaydir, – ma'qul topdi Gimli. – Iliq so'zlaring uchun minnatdorman. Taskini sovuq bo'lsa-da, gaping to'g'ri. Qalb istaydigan narsa xotira emas. Xotira sovuq ko'zguday bir gap, garchi Keled-Zaramday sof bo'lsa-da. Har qalay, gnom Gimlining yuragi shunday his etadi. Elflar dunyoga boshqacha ko'z bilan qarashadi. Eshitishimcha, xotira ular uchun dunyo voqeligidan muhimroq ekan. Ammo gnomlar unday emas. Qo'y shu gaplarni, Legolas, qayiqning harakatini idora qil



yaxshisi. Yuk bilan suvga ancha botganmiz, buyuk daryo esa juda tezoqar ekan. Bazo'r erishgan xazinamni sovuq suvga oqizib yuborishni sira istamayman.

Gimli qo'liga eshkak olib oldinda suzayotgan Aragornning qayig'i ortidan g'arbiy qirg'oq tomon suzdi.

Yana olis safarga chiqqan Uzuk birodarligi janub tomon oqayotgan keng daryoda suzib ketmoqda. Ikkala sohil o'rmonli bo'lib, tabiiyki, daraxtlar ortidagi manzara ko'rinmaydi. Shamol tinib, sokin daryo shovqin solmay oqmoqda. Birorta bo'lsin qush sasi eshitilmaydi. Quyosh tumanga g'arq bo'lib, oqshom yaqinlashdi. Ko'p o'tmay osmondagi quyosh dastlab xira durday yaltirab, so'ng g'arbda so'nib, qorong'i tushdi. Tungi osmonda yulduz ko'rinmaydi. Yo'lovchilar qayiqlarini g'arbiy qirg'oqqa yaqinroq tutgancha suzishni davom etishmoqda. Yerdan bo'rtib chiqib, ochilib qolgan egri-bugri ildizlarini suvga uzatgan bahaybat daraxtlar tunda izg'ib yurgan arvohlarga o'xshaydi. Havo sovidi. Ildizlar orasidan nimadir suvga shaloplab tushganini eshitgan Frodo iyagini ko'kragiga tiragancha notinch uyquga ketdi.

## *IX BOB*

### **BUYUK DARYO**

Quyosh taftidan uyg'ongan Frodo qarasa, buyuk daryoning g'arbiy sohilidagi daraxtzorda, kulrang po'stloqli baland daraxt tagida adyoliga o'ralgan holatda yotibdi. Tun bo'yi uxlagan ko'rinadi, yalang'och shoxlar orasida tong osmonini ko'rdi. Sal narida Gimli gulxan bilan ovora.

Sayyohlar kun yorishmay yana yo'lga chiqishdi. Ularning hammasi ham janubga oshiqayotgani yo'q: kelgusi harakat yo'nalishi borasida Tindrok oroli bilan Rauros sharsharasiga yetgachgina qabul qilinadigan qarorga yana bir necha kun bor. Ushbu holat hozircha hammani qanoatlantirmoqda. Qanday



yo'nalish tanlanishidan qat'i nazar, hech kim oldinda kutayotgan xavf-xatarga tezroq yetish istagi bilan yonayotgani yo'q. Shu bois, hamrohlar uzoq yo'l bosish ishini hozircha daryo zimmasiga yuklab qo'yishgan. Kuch-quvvatini tejayotgan yo'lovchilar daryo oqimida shoshmay suzishmoqda. Biroq Aragorn o'z hamrohlaridan ko'p ivirsimay tong sahardan qayiqqa o'tirishni, qosh qoraygandan so'ng ham qirg'oqqa oshiqmay, suzishni davom etishni talab qilmoqda. Vaqt tig'iz ekanligini, Uzuk birodarligi Loriyenda to'xtab, hordiq chiqarganda Zulmat hukmdori ham mudramaganini Aragorn ich-ichdan his etmoqda.

Shunga qaramay, Lotloriyen tark etilgan kundan buyon dushman ta'qibining alomatlari na qirg'oqqa chiqib dam olayotgan paytda, na suzish davomida kuzatildi. Soatlab suzishar ekan, aytarli biror-bir hodisa ro'y bermadi. Uchinchi kunga kelib, tevarak-atrof manzarasida o'zgarishlar kuzatila boshladi: daraxtlarining tanasi ingichkalashib, orasi siyraklashib borgan o'rmondan ko'p o'tmay asar qolmadi. Chap qo'lda, sharqiy sohilda suv sathidan keskin ko'tarilib, biron bir shaklga ega bo'lmagan uzun qiyamaliklar paydo bo'ldi. Xuddi kuchli yong'in o'tganday tepaliklarning birortasida oz bo'lsa ham ko'kat ko'rinmaydi: ko'rinishi badxoh dashtlikka sal bo'lsa ham jon bag'ishlaydigan singan daraxt yoki bo'rtib chiqqan tosh bo'lsin – yo'q. Janubiy Yovuz o'rmon bilan Emin Muil orasida cho'zilgan, o'lik-tiriklikdan nishona ko'rinmaydigan bo'm-bo'sh qo'ng'ir tekislik. Bu zaminni nima xarob qilgani, xususan, epidemiya<sup>1</sup> asorati, urush oqibati yoki dushman qilmishimi – hatto Aragorn ham tasavvur qila olmadi.

O'ng qo'lda cho'zilgan g'arbiy sohil hududi ham o'rmonsiz, lekin ushbu yassi zaminda, har qalay, hayot nishonasi, xususan: kichik-kichik yaylovlar, qamishzorlar bor. Qirg'oq yaqinidagi qamishlar shunchalik balandki, qayiqda o'tirgan yo'lovchilarga g'arbiy hudud ba'zan ko'rinmay qolmoqda.

---

<sup>1</sup> **Epidemiya** (*yunoncha*: epidemia – yalpi, keng tarqalgan (kasallik)) – yuqumli kasalliklarning muayyan hudud uchun g'ayriodatiy tarzda yalpi, keng tarqalishi.

Qamishzorning qoramtir jig'asi<sup>1</sup> sovuq havoda egilib, ichidan ma'yus eshitilayotgan hushtak ovozi chiqyapti. Ahyon-ayonda qamish orasidan o'tloq yer, sal narida ufq shafaqi yoritgan tepaliklar, yanada olis masofada esa G'uborli tog'larning janubiy tizmasi ko'rinib qoladi.

Qushdan boshqa birorta jonivorning harakati kuzatilmaydi. Ko'zga kamdan kam ilinsa-da, mayda qush zoti qamish orasida qiy-chuv ko'targan. Bir-ikki marta oqqushning qanot qoqqani ham eshitildi. Yuqoriga qaragan yo'lovchilar qush qatorlarini ko'rishdi.

- Qora oqqushlar! - xitob qildi Sem. - Kattaligini qarang!

- Ha, faqat oqqush emas, qora quv deb ataladi ular, -- ma'qulladi Aragorn.

- Muncha mudhish, huvullagan bo'lmasa bu yer! - fikr bildirdi Frodo. - Qishni ortda qoldirib, janub o'lkalariga uyushtirilgan sayohat hamisha iliq havoda, quvnoq kechadi deb yurgan ekanman.

- Jo'yali mulohaza yuritiladigan bo'lsa, janub tomon unchalik uzoqlashib ketganimiz ham yo'q, aslida. Bu yerlar bahor kelguncha qish hukm suradigan o'lka hisoblanib, yo'lda qorga ham duch kelib qolishimiz mumkin. Anduin daryosi quyiladigan olis Belfalas ko'rfazida havo iliq, sayr quvnoq bo'ladi. Biroq biz uchun emas, o'sha mintaqa o'lkalarini bosib olgan dushman uchun. Fikrimcha, hozir biz qush parvozida tikka qaraydigan bo'lsak, Janubiy Shirdan yuz milyacha narida yuribmiz. Endi sizlar yurtigingizning janubiy-g'arbiga Rohanning otboqarlar yurti bo'lmish shimoliy Riddermark tekisligi orqali yuzlanmoqdasiz. Fengorn o'rmonidan chiqib buyuk daryoga quyiladigan Limlayt daryosining etagiga yetguncha uzoq suzalmiz hali. U yer Rohanning shimoliy chegarasi hisoblanadi. Limlayt bilan Oq tog'lar orasidagi hudud azaldan rohirrimlarga

---

<sup>1</sup> Jig'a -- qimmatbaho toshlar va ukpar bilan bezatilgan, bosh kiyimga taqiladigan qimmatbaho taqinchoq, buyum.


tegishli bo'lgan. U yerning tuprog'i juda boy, xushbo'y bo'lib, shiradorlik bobida o't-o'lanining tengi bo'lmagan. Ammo biz yashayotgan mash'um davrga kelib Limlayt daryosi sohilida ham, qirg'og'ida ham birov yashamaydi. Anduin daryosi keng, lekin orklar otgan o'qlar uning narigi sohiliga yetadi, aytishlaricha, ular ba'zan daryo kechib, Rohan podalariga tajovuz qilishga jur'at etishar ekan.

Sem qayiqda o'tirgan joyida nigohini u qirg'oqdan, bu qirg'oqqa olib o'tmoqda. O'rtida qolgan daraxtlar uning ko'ziga qandaydir qo'rqinchli, adovat ruhidagi nigoh-la qarashayotganday, noma'lum xavf-xatarni bekitganday ko'ringan edi, endi esa bu yerlarda daraxt bo'lishini xohlayapti. Uning nazarida, pana joy topilmaydigan ochiq hududda, qizg'in jang marrasi sifatida xizmat o'taydigan daryoda suzayotgan Uzuk birodarligi himoyasiz qolgan.

Bunday fikr keyingi bir-ikki kun ichida hammaning xayoliga o'rnanib qoldi. Sayyohlar kun buyi eshkak eshsa ham qirg'oq manzarasida o'zgarish kuzatilmadi. Ko'p o'tmay buyuk daryo kengayib sayozlashdi, uzun toshloq sayozlik sharq tomondan daryo o'zanining ichkarisiga kirib bordi. Giyoh o'smas qo'ng'ir tekislikdan iborat sohil endi xunuk qir va adirlar manzarasiga almashib, ustidan sovuq sharq shamoli esdi. Narigi qirg'oqdagi yaylovlar o'rmini esa o't-alafi so'ligan tepaliklarga ega botqoqlik egalladi. Lotloriyenning gulzori, favvoralari, iliq quyoshi, musaffo osmonini eslab yotgan Frodo sovuqdan qaltiradi. Qayiqlarda hamrohlarning kulgisi, quvnoq suhbatlari eshitilmaydi. Hamma o'z fikr-xayoli bilan band.

Legolasning qalbi shimoldagi qora qayin o'rmoni yalangligiga, yozning yulduzli tuniga oshiqsa, Gimli Lotloriyen sohibasi bergan sovg'ani saqlash uchun qaysi qimmatbaho toshlarni munosib topish mumkinligi haqida mulohaza yuritib ket-yapti.

O'rtadagi qayiqda o'tirgan Merri bilan Pining tinchi buzilgan. Gap shundaki, Boromir g'o'ng'ir-g'o'ng'ir qiladigan, qandaydir dudmollik ich-ichini qiynayotgan ko'rinadi tirnoq



g'ajib qoladigan, ba'zan esa shiddat-la eshkak eshib Aragorn boshqarayotgan qayiqqa yaqin borib oladigan bo'lib qoldi. Qayiq tumshug'ida harakat yo'nalishiga teskari qarab o'tirgan Pin Boromirning Frodoga g'alati o'qrayib borayotganini, yuzi qandaydir boshqacha qiyofa kasb etayotganini sezib qoldi.

Taqdirga tan bergan Sem qayiqda bukchayib o'tirgancha tevarak-atrofdagi hukm surgan qish manzarasini, qayiqning ikki tomonidagi suv oqimini tomesha qilib bordi. Eshkak eshish talab etilgan vaziyatda ham unga ish tegmadi.

Bugun daryo safarining to'rtinchi kuni o'tib, qosh qoraydi. Orqada kelayotgan qayiq'larga Aragorn bilan Frodo ustidan qarab borayotgan Sem charchaganini his etdi, tezroq qirg'oqda to'xtab, yerga joy solib yotishni orzu qildi. Daf'atan u nimanidir payqab, diqqat bilan qarash uchun ko'z ishqaladi, uyqusini qochirdi, hushini yig'ib olganda esa ko'ziga ko'ringan narsa g'oyib bo'ldi.

Sayyohlar g'arbiy qirg'oq yaqinidagi orolchada to'xtab, tunni o'sha yerda o'tkazadigan bo'lishdi. Sem Frodoning yoniga joylashib, adyolga o'rindi.

– Bu yerda to'xtashimizdan ikki soatcha oldin tushimda qiziq bir narsa ko'rdim, janob Frodo, – gap boshladi Sem. – Balki, tushimda emas o'ngimda ko'rgandirman, tag'in bilmadim.

Sem ko'rganini aytib bermaguncha tinch qo'ymasligini yaxshi bilgan Frodo so'rashga majbur bo'ldi:

– Xo'sh, nima ekan u? Lotloriyendan chiqqanimizdan buyon yuzimga tabassum yugurtiradigan biron bir qiziq narsa ko'rmadim.

– U ma'noda qiziq emas, lekin juda g'alati, agar o'ngimda ko'rgan bo'lsam, juda yomon men ko'rgan o'sha narsa, – dedi Sem. – Qisqasi, daryoda ko'zi bor xoda ko'rindi menga!

– Xoda ko'rgan bo'lishing mumkin, lekin ko'zli masalasiga kelsak, iltimos, o'zingni bos, tinchlan.

– Hamma gap shunda, tinchlana olmayapman. Uni ko'rib, qo'rqqanimdan ishtonimga siyib qo'yishimga sal qoldi, – dedi Sem. – Xoda Gimlining qayig'i ortidan oqib kelayotganini


g'ira-shirada ko'rdim-u, parvo qilmadim. Mundoq qarasam, xoda Gimlining qayig'ini ortda qoldirib bizni quvib yetyapti. G'alati ko'rindi: hammamiz eshkak eshmay oqim tezligida suzib ketayotgan bo'lsak, nega xodaning oqish tezligi oshdi? Ana o'sha paytda xodaga e'tibor qilib, uchida bir juft ko'z ko'rdim. Tuzukroq qarasam, ko'zdan tashqari oqqushning oyog'iga o'xshab ketadigan, lekin ancha yirik, vaqti-vaqti bilan suv yuzasida ko'rinib borayotgan eshkaki ham bor. Ko'z ishqalab endi baqir-moqchi edim, qarasam... yo men uyg'onib ketdim, yo anavi maxluq g'oyib bo'libdi. Ammo o'sha fursatda ko'z qiri bilan qirg'oq ko'lankasiga nimadir kirib ketganini ko'rganday ham bo'ldim. O'zimni tinchlantirishga urindim: «Yotib uxla, Sem Skrombi», deb ham ko'rdim o'zimga o'zim – bo'lmayapti. Siz nima deysiz, janob Frodo?

– Xoda, shom qorong'isi va ko'zing to'la uyqudan o'zga hech narsa bo'lmagan, degan bo'lar edim, agar o'sha bir juft ko'zni sendan ilgariroq ko'rmaganimda, – javob berdi Frodo. – Uni men shimolda, Loriyenga yetmasdan oldin payqaganman. Ko'zi bor g'alati maxluq daraxt uchidagi biz yotgan fletga tarmashib chiqayotganini ko'rganman. Xaldir ham ko'rgan uni. Orklar bo'linmasini quvib yetgan elflar aytgan gap esingdami?

– Esimda, albatta, – dedi Sem. – Undan ham ko'proq narsalar esimda, aslida, lekin men o'z xotiramdan o'zim cho'chiyapman... Janob Bilboning hikoyalarini esga oldim... Nazarimda, o'sha maxluqning ismini fahmlayotganday ko'rinaman. Jirkanch ism. Gollum emasmi u, nima deysiz?

– Ha, men ham daraxtdagi fletda o'tgan tundan buyon aynan mana shu narsadan hadiksirab kelayotgan edim, – dedi Frodo. – O'ylashimcha, Moriyada tentirab yurib, bizni uchratib qolgan-da, izimizga tushib kelavergan. Loriyenga kirib kelganimizdan so'ng izimizni topa olmay, bizni yo'qotib qo'yishiga umid qilgan edim. Sho'rlik maxluq iz qidirib Silverloud bo'yi-dagi o'rmonda rosa izg'igan bo'lsa kerak.

– O'sha «sho'rlik»dan ehtiyot bo'lgan ma'qul, janob Frodo, aks holda uxlab yotgan yerimizda jirkanch panjasini





bo'g'zimizda ko'rib uyg'onamiz, agar uyg'onishga ulgursak, albatta, – dedi Sem. – Keling mundoq qilamiz, ser: Musofirni, unga qo'shib boshqa hamrohlarimizni buguncha bezovta qilmay o'zim qo'riqchilik qilay. Ertaga qayiqda uxlab, uyquga to'yib olaman, chunki men daryo safarida yukdan ortiq narsa bo'lmayman.

– «Ko'zli yuksan», desak to'g'riroq bo'ladi, – dedi Frodo. – Mayli qo'riqla, lekin bir sharti bilan: hech narsa yuz bermagan taqdirda ham tun o'rtasida uyg'otasan meni.

Darhaqiqat, Sem, tun o'rtasida tarashaday qotib uxlayotgan Frodoni turtib-surtib arang uyg'ota oldi.


– O'zimni juda noqulay his etyapman-u, lekin uyg'otishni o'zingiz tayinlagan edingiz, – pichirladi Sem. -- Aytarli gap yo'q. Nimadir shalpillab, pishqirganini eshitdim-u, lekin bunday ulkan daryo bo'yida qanday g'alati tovushlar chiqmaydi deysiz.

Sem o'rniga kirib yotdi. Frodo esa adyolga o'ranib o'tirganча uyqu bilan kurashdi. Soat-u daqiqalar sekin o'tib, hech narsa ro'y bermadi. Yotib uxlashga ahd qilgan ediki, qirg'oqqa bog'langan qayiqlardan biriga qorong'ida arang ko'rinayotgan sharpa yaqinlashdi. Suvdan chiqqan uzun qo'l qayiq devorini ushladi, so'ng bir juft ko'z qayiq ichidagi narsalarni fonus yoqqanday o'rganib chiqqach, sal narida o'tirgan Frodoga baqrayib qoldi. Ikkalasining orasidagi masofa chiqsa bir-ikki yard chiqadi, xolos. Frodo sharpaning hushtakday chiqayotgan nafasini eshitdi. Yoniga taqilgan Nishni qindan chiqargan hobbit asta o'rmidan turdi. Fonusga o'xshash ko'z shu zahoti o'chdi. Suvning shapillagani eshutilib, uzun sharpa zimistonda suzib ketdi. Uyg'onib ketgan Aragorn yotgan joyiga o'tirib oldi. So'ng irg'ib turib Frodoning yoniga asta keldi-da pichirladi so'radi:

– Nima edi u? Uyqumda nimanidir sezganday bo'ldim. Iye, qilichingni nega chiqarib olding?

– Gollum edi u, – javob berdi Frodo. – Men shunday deb o'ylayman.

– E, shunaqa degin! Bundan chiqdi, orqamizdan asta shipillab kelayotgan maxluqning kimligini bilar ekansan-da? –




hayratlandi Aragorn. – Moriyada ergashib, ortimizdan Nimrodelgacha keldi. Qayiqqa o'tirganimizda esa xodaga yotib olib, oyoq-qo'lini ishga solgancha ortimizdan suza ketdi. Tunda ikki-uch marta tutib olishga urindim-u, tulkiday ayyor, baliqday silliq-da u. Daryo uni izimizdan chalg'itib yuborishiga umid qilgan edim, suvda mo'ljal olib yurishni yaxshi bilar ekan. Ertaga harakatimizni jadallashtirmasak bo'lmaydigan ko'rinadi. Endi yotib dam ol, tunning qolgan qismida o'zim qo'riqchilik qilaman. Tutib olsam, yaxshi bo'lar edi, nafi tegib qoladi. Mumkin emas-da, xavfli. Tungi qotillik haqida-yu, gapirmasa ham bo'laveradi. Izimizdan kelayotgani haqida dushmanga xabar yo'llashi mumkin.

Tun davomida Gollum qayta ko'rinmadi. Shundan so'ng, navbatchilik xizmati joriy etildi, lekin yo'lovchilarning birortasi Gollumni ko'rmadi. Ergashib kelayotgan bo'lsa ham endi u ehtiyotlik-la ish tutmoqda. Aragorning iltimosiga ko'ra endi yo'lovchilar yanada uzoq eshkak esha boshlashdi. Endi asosan qosh qaraygan mahalda, tungi vaqtda suzishayotgani, kunduz kuni boshpana topib, dam olishayotgani bois yo'lovchilar tevarak-atrof manzarasini deyarli ko'rmay ketishyapti. Daryo safarining yettinchi kunigacha biror-bir jiddiy hodisa ro'y bermadi.

Havo ilgariqiday yomon, osmonni bulut qoplagan, sharqdan tinmay sovuq shamol esmoqda. Oqshom mahaldagina g'arb osmoni biroz yorishib, kulrang bulut ummonida sarg'ish va xira yashil oraliq ko'rindi. Aksi tunda, uzoqdagi ko'lda mavjlanayotgan hilolni ko'rgan Sem qoshini chimirdi.

Ertasi kuni ikkala sohil xususiyati tez o'zgara boshladi. Qirg'oqlar baland ko'tarilib, sertosh bo'lib bordi. Ko'p o'tmay sayyohlar qoyali hududga yetishdi, atrofda parmachak butasi-yu, yer bag'irlab o'sadigan o'simliklar o'zaro chirmashib ketgan qiyalamalar, ularning ortida chuqur daralarini pechak bosgan tik tepaliklar paydo bo'ldi. Ulardan narida esa etagida shamol egib yuborgan tilog'och va oqqarag'ay o'sgan tog' tizmasi qad ko'targan. Yo'lovchilar Yovvoyi o'lkaning janubiy chega-



rasidagi tepaliklarga boy Emin Muil tizmasiga yaqin kelishdi.

Qoya va jarliklar qush makoni bo'lib, xira osmon tusida qushlar galasi kun bo'yi qora nuqtalarday gir aylandi. Kunduzgi dam olish qarorgohida osmonga qarab yotgan Aragorn Gollum haqida, xususan, o'sha maxluq o'zining yovuz vazifasini bajarishga ulgurani, sayyohlarning Yovvoyi o'lkadagi harakat yo'nalishini dushmanga yetkazgani haqida o'ylamoqda. Quyosh botib, hamrohlar yana yo'lga tushishga hozirlik ko'rar ekan yuqoriga qaragan Aragorn baland osmonda yirik qush dam pastlayotgani, dam janub tomon burilib, yana ko'tarilayotganini ko'rdi.

– Qanaqangi qush bo'ldi anavi, Legolas? – so'radi u, elfga osmonni ko'rsatib. – Burgutmi deyman.

– Ha, ovga chiqqan yirik burgut, – javob berdi Legolas. – Tog'dan ancha uzoqlashib ketibdi. Nimadan darak ekan bu?

– Atrof qorong'ilashguncha joyimizdan qo'zg'almaymiz, – qaror qildi Aragorn.

Daryo safarining sakkizinchi tuni. Sharqiy shamol tinib jimjitlik qaror topdi. Hilol xira ko'rinayotganiga qaramay osmon toza. Olis janubdagina yirik bulutlar yorishib ko'rinmoqda. Dastlabki yulduzlar ham charaqlab qoldi.

– Olg'a, birodarlar! – dedi Aragorn. – Yana bir kecha suzishimiz kerak. Biz daryoning menga notanish qismiga yetdik, chunki suv yo'lida bunchalik uzoq kelmaganman, lekin bu yerlardan ancha olisda daryoning Sarn Gebir ostonasida bo'lganman. U yergacha hali ancha milya bor. Muhimi, Sarn Gebirgacha bizni katta-kichik xavf-xatarlar, masalan, suvdan bo'rtib chiqqan qoyalar, mayda orollar kutadi. Diqqat-e'tiborli bo'lib, qayiq tezligini idora qilib borishimiz darkor.

Yo'l boshlab boradigan qayiqda o'tirgan Sem tevarakatrof kuzatuvchisi etib tayinlandi. Astoydil yotib joylashgan hobbit harakat yo'nalishidagi g'ira-shira qorong'ilikka tikilgan-cha qarab bordi. Tun qorong'i bo'lsa-da, bosh ustida parpirayotgan yulduzlar suvda ham aks etib, shu'la taratmoqda. Sem kutilmaganda baqirib yuborgan fursatda kamdan kam hollarda



eshkak eshayotgan sayyohlar anchagina yo'l bosib qo'yishgan edi. Bir necha yard oldinda suvdan bo'rtib chiqqan qora dog'larni ko'rgan Sem suv shovqinini eshitdi. Tezoqar daryo sharqiy qirg'oq tomon chapga, o'zani toza joyga burilmoqda. Burilish joyida oqim yirik dandonlarday bo'rtib chiqqan qora qoyalarga urilib, ko'piklashyapti. Qayiqalar bir-biriga yaqinlashdi.

– Hoy, Aragorn! – baqirdi qayig'i yo'l boshlovchi qayiqqa urilib ketgan Boromir. – Jinnilikdan o'zga narsa emas bu. Daryo ostonasidan tun qorong'isida o'tib bo'lmaydi. Mana bu Sarn Gebirni kunduz kuni ham uddalay olmaysan.

– Ortga! Ortga! – qichqirdi Aragorn. – Uddalashga ko'z yetmas ekan, ortga qaytinglar!

Aragorn eshkakni suvga botirib, qayiqni tutib qolish, toshdan xoli joyga burishga urindi.

– Biroz adashibman, bunchalik olis ketib qolganimizni bilmabman. Anduin men o'ylagandan ham tez oqar ekan, – dedi u Frodoga. – Sarn Gebir ostonasiga bunchalik tez yetib kelish mumkinligi xayolingga ham kelmabdi.

Sayyohlar qayiqlarini bir amallab idora qilib olishgach, oqim tomon yo'naltirishdi. Bu vaqtda ular qorong'ilikda nihoyatda mudhish ko'rinayotgan sharqiy qirg'oq tomon beixtiyor yaqin borib qolishdi.

– Hamma baravar eshkak eshsin! – baqirdi Boromir. -- Eshkak eshing, aks holda qoyaga qapishib qolamiz hozir.

Shu paytda Frodo qayiq tagi toshga ishqalanganini his etdi.

Qaycrdandir kamon ipining tovushi eshutilib, bosh uzra bir nechta o'q uchib o'tdi. Beliga o'q tekkan Frodo zarba kuchidan oldinga yiqilib, eshkakni qo'ldan chiqarib yubordi. Tabiiyki, sovutni tesha olmagan o'q Frododan sapchib suvga tushdi. Navbatdagi o'q Aragornning qaytarma qalpog'ini teshdi, uchinchi o'q esa ikkinchi qayiq devoriga, Merrining qo'li yoniga kelib sanchildi. Sem sharqiy qirg'oqda yugurib yurgan qora sharpalarni ko'rdi.

– Irx! – baqirdi Legolas ona tilida.



- Orklar! – ovoz ko'tardi Gimli.

- Ishonchim komilki, «sho'rlik» Gollumning qilgan ishi bu, - istehzo qildi Sem Frodoga murojaat qilib. – Tanlangan joy ham yomon emas. Daryoning o'zi to'g'ri ularning qo'liga eltib topshiradi hozir bizni.


Hamma, hatto Sem ham astoydil eshkak eshishga kirishdi. Hamrohlarning har biri har qanday fursatda tanasiga qora patli o'q kelib sanchilishini kutdi. Dushman tinmay o'q uzmoqda, lekin kamon o'qlari bosh ustidan uchib o'tmoqda yoki sayyohlarga yetmay suvga tushmoqda. Atrof qorong'i, biroq bu holat zimmistonda yashaydigan, nishonni qorong'ida aniq uradigan orklar uchun to'siq emas. Yulduz shu'lasida ostida suzayotgan sayyohlar juda qulay nishonga aylangan bo'lar edi, agar ular Lotloriyen o'rmonida o'sadigan kulrang daraxt yog'ochidan yasalgan qayiqda o'tirmagan va har birining egnida Loriyen elflarining plashi bo'lmaganda. Mana shu holatgina Mordorning yovuz merganlariga to'siq bo'ldi.

Zo'r berib harakat qilgan yo'lovchilar qirg'oqdan uzoqlashishdi. Qorong'ida olg'a ilgarilashayotganiga ishonch hosil qilish qiyin, lekin suv shovqini pasayib, sharqiy qirg'oq uzoqlashmoqda. Nihoyat ular daryo oqimining o'rtasiga chiqib, xavfli qoyalardan uzoqlashishgan ko'rinadi. Hozir sayyohlar bor kuchini g'arbiy qirg'oqqa o'tib olishga sarflashmoqda. Qirg'oqdagi buta shoxlariga suv ustiga egilgan joyga yetgachgina to'xtab, nafas rostdashdi.

Legolas eshkakni qo'yib, Loriyenda in'om etilgan kamonni qo'liga oldi. Qirg'oqqa sakrab o'tib, biroz yuqoriga ko'tarildi. Kamonni o'qlab, ipini tortdi-da, daryo tomon yuzlanib qorong'ilikka tikildi. Suv uzra baqir-chaqir eshityapti-yu, hech narsa ko'rinmayapti.

Frodo qorong'ilikda nishon qidirayotgan elfdan ko'zini uzmay o'tirdi. Kutilmaganda janub tomondan yirik bulut suzib kelib, charaqlayotgan yulduzlarni to'sdi. Shu fursatda sayyohlarning vujudini kutilmagan qo'rquv qamradi.

- Elberet giltoniel! – dedi Legolas, osmonga qaragancha



uf tortib.

Bulutni eslatadigan, lekin bulutdan tez suzayotgan allaqanday qora ko'lanka janub zulmatidan tikka Uruk birodarligi ustiga uchib, yulduzlar shu'lasini batamom to'sdi. Ko'p o'tmay havodagi ulkan sharpa tungi osmondan ham qora qanotli maxluq tusini kasb etdi. Narigi qirg'oqdagi orklar uchar maxluqni qutlab ayyuhannos solmoqda. Frodo qandaydir muzday narsa tanasidan yugurib o'tib, yuragiga yetganini his etdi... Yelkasidagi eski jarohat sovug'iday halokatli sovuq. Hobbit tirishib, birovdan bekinayotganday bukchayib oldi.

Loriyenning katta kamoni ip jaranglatgancha o'q uzdi. Hushtak tovushini chiqargan o'q katta kuch-la qorong'ilikka kirib ketdi. Frodo tepaga qaradi. Naq ustiga yetgan qanotli maxluq chetga keskin burildi. Xirildoq baqiriq yangrab, keskin pastlagan yirik sharpa sharqiy qirg'oq zimistonida g'oyib bo'ldi. Qorong'ida og'riqdan o'kirayotgan, so'kinayotgan ovozlar eshitilib, birozdan so'ng hamma yoq suv sepganday jimjit bo'lib qoldi. Sharqiy qirg'oqdan miq etgan tovush chiqmadi.


Aragorn zudlik bilan qayiq-larni yana oqimga chiqarib, qirg'oq bo'ylab olg'a boshladi. Sayyohlar mayda ko'rfazga yetguncha suzishdi. Bu yerning qoyali qirg'og'i tik ko'tarilgan bo'lib, bir nechta daraxt suv bo'yida o'sar ekan. Yo'lovchilar to'xtashdi, gulxan yoqmay, yonma-yon terilgan qayiq-larga joy solib, tong otguncha shu yerda dam olishga qaror qilishdi.

- Galadriel tuhfa qilgan kamonga, Legolasning qo'li-yu ko'ziga sharaflar bo'lsin! - dedi lembas chaynayotgan Gimli. - Qorong'ilikda merganlik-la yo'llangan zo'r o'q bo'ldi!

- Kim biladi deysan o'qim nishonga tekkan, tegmanini? - kuldi Legolas.

- Bu masalada bir nima deyishim qiyin-u, lekin ko'lanka yaqin kela olmay gum bo'lganidan xursandman, - javob berdi Gimli. - Moriya ko'lankasiga, Balrogga o'xshatdim uni, - pichirlab tugatdi fikrini u.

- Balrog emas, boshqa narsa edi u, - dedi sovuq hissiyotdan titrog'i to'xtamagan Frodo. - O'ylashimcha, u... menim-



cha...

Hobbit fikrini oxiriga yetkazmay jim bo'ldi.

– Xo'sh, fikringcha, nima edi u? – engashib so'radi Boromir, Frodoning ko'ziga qarashga urinib.

– Menimcha, u... Yo'q, aytmayman, – javob berdi Frodo.

– Lekin shunisi aniqki, uning qilashi dushman bo'linmasining xafsalasini pir qildi.

– Nazarimda, chindan ham shunday bo'ldi, – dedi Aragorn. – Biroq uning nimaligi, dushman soni, niyati bizga noma'lum. Bu kechani uyqusiz o'tkazamiz. Qorong'ilik bizni dushmandan bekitgani aniq. Ammo tong otganda nima bo'lishini birov bilmaydi. Shunday ekan, qurolni qo'ldan qo'ymang.

Sem barmog'i bilan qilich sopini chertib, osmonga qarab o'tirdi.

– Qiziq, oy Shirda ham, Yovvoyi o'lkada ham bir xil ketishishi kerak, to'g'rimi? – g'udulladi u. – Yo men hisob-kitobda adashib ketdimmikan? Esingizdami, janob Frodo, daraxtdagi fletda yotgan kunimiz oy to'lishiga bir haftacha qolgan edi. Mana bir haftadirki, yana yo'ldamiz. Oy esa negadir yangi chiqib turibdi. Lotloriyenda yotgan bo'lsak uch kecha yotgandirmiz, xo'p, oling ana bir necha kun o'tkazgandirmiz, lekin ont ichamanki, biz u yerda bir oy yotmadik. Aftidan, Loriyenda vaqt o'zgaraydigan ko'rinadi.

– Balkim, shundaydir, – dedi Frodo. – U yerda, nazarimda, allaqachon o'tib ketgan zamonda yashadik. Silverlound daryosi bizni Anduinga chiqarib yuborgandagina, biz yana o'z zamonamizga, o'limi muqarrar maxluqotlar vaqtiga o'tib oldik. Karas Galadonda tunda yulduz, kunduz kuni quyosh ko'rdim-u, hilol bo'lsin, to'la bo'lsin – oy ko'rmadim.

– Yo'q, u yerda vaqt cho'zilmaydi, lekin o'zgarishlar hamma joyda bir xilda ro'y bermaydi, – tushuntirish berdi Legolas. – Elflar uchun ham dunyo harakatlanadi, faqat ushbu harakat bir vaqtning o'zida ham tez, ham sekin kechadi. Tez kechishi elflarning o'zi kam o'zgarishi, qolgan narsalar shiddat-la o'zgarishi tufayli, sekin kechishi esa – suvday oqayotgan yillar hisobi

yuritilmasligi sababli bo'ladi. O'tayotgan yil mavsumlari elflar uchun tezoqar jilg aning mavjidan o'zga narsa emas. Lekin falak ostidagi jismlarning bari o'zgarib borishi shart.

– Ana o'sha o'zgarishlar Lotloriyenda juda sekin kechadi, – dedi Frodo. – U yerda hamma narsani Loriyen sohibasi o'z uzugi vositasida idora qiladi.

– Bu haqda Loriyen hududidan tashqarida gapirish mumkin emas, hatto menga ham, – dedi Aragorn. – Bu mavzuni hech qachon, hech qayerda ochma. To'g'ri aytding sen, Sem: ushbu o'lkada biz vaqt hisobini yo'qotib qo'ydik. Loriyenda biz uchun ham, elflar uchun ham vaqt tez o'tadi. U yerda dam olganimizda eski oy o'tib, kecha yangi oy boshlandi. Qish fasli tez orada yakuniga yetadi.


Tun sekin o'tmoqda. Narigi qirg'oqdan hech qanday ovoz yoki shovqin eshitilmayapti. Qayiqda bukchayib yotgan sayyohlar ob-havo o'zgarayotganini his etishdi. Janubdagi olis dengizdan suzib kelayotgan qalin bulut ostida havo ilib bormoqda. Qoyalar orasidan oqib o'tayotgan daryo shovqini ko'tarilib, yaqinlashganday bo'ldi. Daraxt shoxlaridan qatralar tomdi.

Tong otgan sari tevarak-atrof dilni xira qiladigan tus oldi. Osmon yorug'i qandaydir tarqoq bo'lib, jismlar soya tashlamayapti. Daryodan ko'tarilayotgan tuman qirg'oq ustida tebranmoqda, narigi qirg'oq tuman orasidan ko'rinmaydi.

– Tumanni yoqtirmayman, – dedi Sem. – Lekin bugungi tuman omad keltiradigan ko'rinadi. Anavi la'nati orklarga sezdirmay juftakni rostlab qolishimiz mumkin.

– Ehtimol, lekin o'zimiz ham yo'l topib yurishga qiynalamiz, agar tuman ko'tarilib ketishini kutmasak, – dedi Aragorn. – Sarn Gebirdan o'tib, Emin Muilga yetishni istar ekanmiz, o'tish yo'lini topishimiz kerak.

– Nima uchun daryo ostonasidan o'tishimiz yoki daryoda suzishni davom etishimiz kerak? – dedi Boromir. – Modomiki, Emin Muil qarshimizda ekan, mana bu nozik qayiq'larni qo'yaylik, Eitveshga yetib, yurtimga kirib borgunimizcha janubiy-g'arb tomon yuraylik.





– To‘g‘ri, shunday qilsak ham bo‘ladi, agar biz Minas Tiritga borishga ahd qilgan bo‘lsak, – dedi Aragorn. – Biroq biz bu masalada bir to‘xtamga kelganimiz yo‘q hali. Sen aytgan yo‘l ancha xavfli bo‘lishi ham mumkin. Chunki Eitvesh vodiysi botqoqlikdan iborat yassi hudud, u yerning tumani piyodalar uchun xavf tug‘diradi, ayniqsa ularning yuki ham bo‘lsa. Qayiq-larni tashlab ketishga shoshmagan bo‘lar edim. Nima qilgan taqdirda ham daryo – adashib, yo‘qotib qo‘yish xavfi bo‘lmagan yagona yo‘ldir.

– Sharqiy sohilda dushman bor-u, – e‘tiroz bildirdi Boromir. – Xo‘p, deylik, Argonat qopqasidan bir amallab o‘tib, Tindrok oroliga yetdik, keyinchi? Sharsharadan sakrab, botqoqqa botamizmi?

– Yo‘q, unday qilmaymiz! – javob berdi Aragorn. – Yaxshisi qayiq-larni Raurosga eltadigan qadimiy suv yo‘liga ko‘tarib o‘tishimiz, u yerda daryo safarini yana davom etishimiz mumkinligidan gapir, Boromir. Yo Amon Xenda buyuk qirollar davrida tosh o‘yib yasalgan shimoliy zina borligini unutdingmi? Harakatimizning keyingi yo‘nalishi yuzasidan qaror qabul qilishdan oldin o‘sha joyga yetishni istar edim. Balkim, tegishli qarorga kelishga turtki beradigan alomatlar ko‘rinar o‘sha yerda.

Uzoq e‘tiroz bildirgan Boromir Frodoning faqat Aragorn boshlagan yo‘ldan borishiga ishonch hosil qilgach, oxiri taslim bo‘ldi.

– Do‘stni og‘ir ahvolda tashlab ketish Minas Tirit odamlarining odatiga kirmaydi, – dedi nihoyat u. – Modomiki, Tindrokkacha yetish zarur ekan, sizlarga mening kuchim kerak bo‘ladi. O‘sha baland orolgacha hamroh bo‘lib boraman-u, u yerdan yurtim tomon burilaman. Yolg‘iz o‘zim ketaveraman, agar bergan yordamim uchun taqdirlanmay, hamrohsiz qoladigan bo‘lsam.

Kun isib, tuman biroz ko‘tarildi. Aragorn bilan Legolas hududni ko‘zdan kechirib chiqish maqsadida tosh oralab nari ketadigan bo‘lishdi. Qolganlar esa qayiq qo‘riqlab o‘tiradi.

Aragorn yuk va qayiq'larni qo'lda ko'targancha daryo ostonasini piyoda chetlab o'tadigan yo'l topishga umid qilyapti.

Elflarning kemasoz ustalari yasagan qayiq'lar, balkim, chindan ham suvda cho'kmas bo'lar, lekin bu Sarn Gebir ostonasidan sog'-salomat suzib o'tish kafolati ta'minlanganini anglatmaydi, – ta'kidlab o'tdi Aragorn. – Gondor odamlari bu yerlarda yo'l yotqizishmagan. Ularning qirolliklari ravnaq cho'qqisiga yetgan davrda ham qudrati Emin Muil ortidagi Anduinga yetmagan. Lekin g'arbiy qirg'oqning qayeridadir daryo ostonasigacha va ostonasidan keyingi o'zanlari bir-biriga yaqin kelgan bo'lib, kema sudrab o'tiladigan ensiz joy bo'lishi kerak. O'sha ensiz joy shu yaqin o'rtada, chunki yengil qayiq'lar Yovvoyi o'lkada eskitdan Osgiliatgacha yetishgan, uni topishga harakat qilaman. Mordor orklari ko'payib ketishgach, qayiq qatnovi to'xtagan.

– Shimol o'lkalaridan Gondorgacha yetib kelgan qayiq'larni hayotim davomida kamdan kam ko'rganman, sharqiy qirg'oqda esa orklar azaldan izg'ib kelishgan, – dedi Boromir. – Oldinda, o'sha o'tish joyi topilgan taqdirda ham har milya o'tgan sari xavf darajasi ortib boraveradi.

– Xavf janub o'lkalarining har qanday yo'lida kutadi, – javob berdi Aragorn. – Bizni shu yerda bir kun kuting, agar tayinlangan vaqt ichida qaytib kelmasak, bilingki, yovuz kuch bizni yenga bilgan. U holda o'zingizga yangi rahnamo tanlab, uning ortidan boring.

Aragorn bilan Legolas tik qirg'oqqa chiqib, tumanda g'oyib bo'lishini Frodo ma'yus kuzatib o'tirdi. Ammo qo'rquvning tagi puch bo'lib chiqdi. Ikki-uch soat o'tmay ikkala ayg'oqchi qaytib keldi.

– Ishlar joyida, – ma'lum qildi yuqoridan tushgan Aragorn. – Bandargoh sifatida xizmat qiladigan durustgina joy, u yerga eltadigan so'qmoq ham bor. Masofa ham unchalik uzoq emas. Daryo ostonasi yarim milyacha narida boshlanadi, ostona uzunligi chiqsa bir miyacha chiqadi. Daryoning ostonadan keyingi o'zani tezoqar bo'lsa-da, suv bir tekis, sokin ekan.

Oldimizda turgan eng murakkab vazifa – yuk va qayiqlarni ko‘tarib, ikki o‘zan orasidagi ensiz joyga eltishdan iborat, xolos. Ensiz joy ham topildi, lekin u qirg‘oqdan biroz uzoq, suvdan sakkizdan bir milya narida, qoya devor ostida ekan. Uning shimoliy boshi topilmadi, aftidan, tunda o‘tkazib yuborgan ko‘rinamiz. Bu yerni hoziroq tark etib, ish boshlash kerak.


– Bu ish hobbitlar nari tursin, oddiy odamlar uchun ham oson kechmaydi, – dedi Boromir.

– Shunga qaramay, harakat qilish kerak. Qimirlagan qir oshar deydilar, – javob berdi Aragorn.

– Urinib ko‘ramiz, albatta, – dedi Gimli. – Oddiy odam murakkab yo‘lda qoqilib yuradi, gnom esa tekis yo‘lda yurgan-day ketaveradi, boz ustiga u, o‘z vaznidan ikki chandon og‘ir yukni ko‘tarib yurishi ham mumkin, janob Boromir.

Ish ijrosi chindan ham oson kechmadi, lekin bajarildi. Dastlab qayiqlardagi yuk yelkaga ortilib tik ko‘tarilgan qirg‘oq orqali yuqoridagi tekis maydonga olib chiqildi. Shundan so‘ng qayiqlar suvdan chiqarildi. Ular kutilgandan ham yengil ekan, Merri bilan Pin hech qiynalmay yuqoriga ko‘tarib chiqishdi. Bunday qayiqlar elflar yurtida o‘sadigan qaysi daraxtdan yasalgan bo‘lishi mumkinligini hatto Legolas ham ayta olmadi. Shundan so‘ng ular qiyalamadan ko‘tarilib, yuqoridagi yo‘lga chiqishdi. Ohaktosh qoplagan, butalar-u, o‘t-o‘lan bekitgan ko‘p-dan ko‘p xandaqlarga ega, reza meva va tik kesilib tushgan daralarga boy, u yoq, bu yoqda oqib tushayotgan suvga to‘lgan botqoq ko‘llar ko‘rinib qoladigan hududdan o‘tgan ushbu yo‘l sayyohlarni daryodan nariga olib ketdi.

Boromir bilan Aragorn bitta-bitalab qayiq tashishdi, qolganlar yuk ko‘tarishdi. Nihoyat hamma narsa ikki o‘zan orasidagi ensiz joyga tashib o‘tildi. Shundan so‘ng yo‘lda yotgan toshlarni terib tashlab, na‘matak oralab hamma baravar harakat boshladi. Tuman chap qo‘ldagi daryoda quyoqlashgancha qoyali hudud ustida muallaq osilib turibdi. Yo‘lovchilar daryoning Sarn Gebir ostonasini hosil qilgan qoyalar orasidan sizib chiqayotganini ko‘rishmasa-da, shovqinini eshitishmoqda. Janubiy ban-



dargohga yetguncha ushbu yo'l ikki marta bosib o'tildi.

Shu yerga yetganda ikki o'zan orasidagi ensiz joy yana daryo tomon burilib, mayda ko'rfaz tomon qiyalama pastladi. Ushbu ko'rfaz Sarn Gebir ostonasidan otilib chiqqan suv qirg'oqni o'yib yuborishi natijasida hosil bo'lgan. Ko'rfaz ortidagi qirg'oq tik ko'tarilgan kulrang qoyaga aylangani bois piyoda o'tib bo'lmaydi.

Bu vaqtga kelib qosh qoraydi. Yo'lovchilar suv bo'yida, daryoning ostonada na'ra tortayotganini eshitib o'tirishdi. Hamma charchagan.

– Xo'sh, mana yetib ham keldik, tunni ham shu yerda o'tkazishga to'g'ri keladi, – dedi Boromir. – Aragorn Argonat qopqasini tunda o'taman deb turib olgan taqdirda ham uxlab olmasak bo'lmaydi, juda charchaganmiz, polvon gnomimizni hisobga olmaganda, albatta.

Gimli Boromirning istehzosiga javob bermay, yerga o'tirishi bilan mudray boshladi.

– Imkon boricha dam olamiz, – ma'qul topdi Aragorn. – Ertaga kun yorug'ida suzishga to'g'ri keladi. Agar tuman tarqab, havo ochilib ketmasa, sharqiy qirg'oqda yo'limizni poylab o'tirganlarga sezdirmay o'tib ketish imkoni bo'ladi. Biroq bugun tunda juft-juft bo'lib uch soatdan navbatchilik qilishimiz kerak bo'ladi.

Tong otishidan bir soat oldin yog'ib o'tgan qisqa yomg'ir hisobga olinmasa, tunda hech qanday noxush hodisa ro'y bermadi. Tong otishi bilan sayyohlar yana daryo safariga chiqishdi. Tuman siyraklashgan, hamrohlar imkon qadar g'arbiy qirg'oq yaqinida suzib ketishmoqda. Tezoqar daryoga botgan qirg'oq qoyalarning baland bo'yi siyrak tumanda xira ko'rinmoqda. Tong o'rtasida bulut pastlab kuchli yomg'ir quydi. Suvga to'lmasligi uchun qayiqning maxsus charm yopqichlari tortib qo'yildi. Kulrang yomg'ir pardasi orqali biron nima ko'rishning iloji bo'lmadi.

Ko'p o'tmay yomg'ir tindi. Osmon asta-sekin yorishdi. Bulut pag'alari to'zib asosiy qismi daryo uzra shimol tomon

choʻzildi. Tuman tarqab, endi daryo qoyali devorida yakkam-  
dukkam daraxt oʻsayotgan keng jarlikda oqayotgan manzara  
ochildi. Jarlik tobora torayib, oqim tezlashib bormoqda. Oqim  
tezligi chunonam jadallashyaptiki, oldinda nima kutayotgan  
boʻlishidan qatʻi nazar, endi sayyohlar oʻz qayiqlarini na toʻxtata  
olishadi, na ortga bura bilishadi. Osmon xira moviy tus olgan,  
qayiq ostida shiddat-la oqayotgan qoramtir suv, orqada quyoshni  
toʻsib qoʻygan qop-qora Emin Muil tepaliklari.

Oldinga qarab ketayotgan Frodo uzoqda bir juft minora  
yoki ustunga oʻxshash ikkita baland qoya koʻrdi. Tik koʻtarilgan  
baland qoyalar oqimning ikkala tomonida vahima manzara hosil  
qilib turibdi. Qayiqlar oʻsha ustunlar orasiga yelday uchmoqda.

– Qarshingizda Argonat qopqasi, Qirol Ustunlar! – xitob  
qildi Aragorn. – Hademay ikkalasining oʻrtasidan oʻtamiz.  
Qayiqlarni bir chiziqda, oqim oʻrtasida, oraliq masofani imkon  
qadar uzoq saqlab boring!

Minoraga oʻxshash baland ustunlar qarama-qarshi yoʻ-  
nalishda katta tezlikda uchib kelayotganday goʻyo. Frodoning  
koʻziga ular indamas, lekin tahdid solayotgan bir juft bahaybat  
odam qomatiga oʻxshab koʻrindi. Darhaqiqat, shunday, razm  
solib qaragan hobbit ikkala qoyaga inson shakli berilgani, ular  
oʻzida qadimiy kuch va mahoratni aks etayotgani, toshda ifoda  
etilgan ushbu qudratli siymolarga oʻtgan yillarning son-sanoqsiz  
rutubati-yu, quyoshi deyarli taʻsir oʻtkazmaganini koʻrdi. Suvga  
botgan katta supalarda qoyadan oʻyib yasalgan buyuk qirollar  
ulugʻvor savlat toʻkmoqda. Boshiga darz ketgan dubulgʻa bilan  
toj kiygan, chap qoʻlini ogohlantirayotganday oldinga uzatib,  
oʻng qoʻliga jangovar tabar ushlagan ikkala qirol chatnab ketgan  
qovogʻi ostidagi xiralashgan nigohi ila shimolga yuzlanib turib-  
di. Allaqachon yoʻq boʻlib ketgan buyuk qirollikning ushbu  
indamas posbonlari oʻz kuch va qudratini ilgarigidek namoyon  
etmoqda. Qirollarga qarab oʻtirgan Frodoning vujudida qoʻrquv  
bilan izzat-ikrom uygʻunlashdi. Hatto Boromir ham Numenor  
soqchilariga yaqinlashar ekan bosh egib, taʻzim qilib oʻtdi. Shun-  
day qilib, qayiqlar Argonat qopqasining zimistoniga kirib ketish-

di.

Bir-biriga yaqin kelgan ikkala qirg'och qoyalari yaxlit devor singari noma'lum balandlikda tik ko'tarilgan. Osmon juda balandda xira ko'rinmoqda. Qop-qora suv na'rasi qoyalardan aks etib qaytyapti. Boz ustiga shamol ham uvvos solmoqda. Qayiq tubida bukchayib yotgan Frodoning qulog'iga tirishib olgan Semning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gapi chalindi:

- Qanaqangi joy o'zi bu! Qanaqangi dahshatli joy!... Eson-omon chiqib olay, eshkak ushlaganim shu bo'lsin!

- Qo'rqma, birodari aziz! - eshitildi orqada qandaydir boshqacha ovoz.

Frodo o'girilib Musofirga qaradi. Biroq hozir hobbitlar tanigan Musofirda jahongashta darbadarlik qiyofasidan asar qolmagan. Qayiq quyrug'ida endi ishonch-la eshkak eshayotgan, qaytarma qalpog'i orqaga tushib, sochi shamolda xilpirayotgan, nigohida uchqun chaqnayotgan qaddi raso, mag'rur Aragorn o'tiribdi. Quvg'inda, musofirlikda yurgan qirol o'z saltanatiga qaytmoqda!


- Qo'rqmanglar! - takror tinchlantirdi u. ... Qadimiy ajdodlarim Isildur bilan Anarionning haykallarini ko'rishni ko'p-dan orzu qilgan edim. Ularning soyasida Isildurning o'g'li bo'l-mish Valendil sulolasiga mansub Araxorning o'g'li Elessar hech narsadan qo'rqmaydi.

Birdan uning ko'zidagi uchqun so'ndi.

Qaniydi yonimda Gendalf bo'lsa! Yurak Minas Anorga, qadrdon shahrimga talpinmoqda! Qay tomon yo'l olsam ekan endi men?

Shamol bilan shiddat-la oqayotgan daryo shovqini hukm surayotgan qorong'i jarlik uzoq cho'zildi. Jarlikning burilgan joylari bir nechta bo'lib, shu bois ham dastlab juda qorong'i bo'ldi. Ko'p o'tmay Frodo oldinda yorug'lik singib kirayotgan «tirqish»ni ko'rdi. Shamol tezligida suzayotgan qayiq tez yaqinlashib kelayotgan «tirqish»dan o'qday uchib o'tib, kutilmaganda keng suv havzasiga otilib chiqdi.

Kun yarmidan o'tgan bo'lib, quyosh yorqin charaq-



lamoqda. Jarlikdan otilib chiqayotgan suv tik ko'tarilgan kulrang tepaliklar qurshovidagi cho'ziq Nen Nitoyel ko'liga quyilmoqda. Ochiq cho'qqisi quyoshda yaltirayotgan tepaliklar bag'rida daraxt ko'p. Ko'lining narigi boshida uchta tog' cho'qqisi qad ko'tarib turibdi. O'rtadagi cho'qqi qolganlardan ajralib oldinga chiqqancha suvga botgan. Unga urilayotgan buyuk daryo tarmoqlangancha cho'qqi qirg'oqlarini yuvib o'tmoqda. Cho'qqi hosil qilgan ushbu orol ortidan esa momaqaldiroq gumburiday kuchli shovqin eshitilmoqda.

– Siz Tindrok oroli, ya'ni Tol Brandir cho'qqisini ko'rish sharafiga muyassar bo'lib turibsiz, – tushuntirish berdi Aragorn. – Chap tomonda Amon Lxav, o'ng tomonda – Amon Xen cho'qqilari. Ularni shuningdek, Eshitish va Ko'rish tepaliklari deb ham atashadi. Chunki Buyuk Qirollar davrida ushbu tepaliklar cho'qqisida baland kursilar bo'lib, u yerda chegara xizmati navbatchilik o'tagan. Aytishlaricha, mana bu Tol Brandir cho'qqisiga na inson va na hayvon oyog'i yetgan ekan. Tunda o'sha cho'qqilarga borib yetamiz. Quloq soling, Raurosning tinimsiz guldurosi eshitilyapti.

Sayyohlar ko'l o'rtasida kechayotgan oqimda erkin suzar ekan, biroz dam olib, tamaddi qilishdi. So'ng harakatni tezlatish uchun eshkaklarni ishga solishdi. G'arbiy tepaliklarni ko'lanka qamrab, quyosh alvon tus oldi. U yoq, bu yoqda tuman pag'alari ko'tarilmoqda. Uchala cho'qqi oqshom mahalida qorayib ko'rinmoqda. Raurosning shovqini tobora balandlashib bormoqda. Sayyohlar tepalikka yetib, etagiga qayiq bog'lagan vaqtda qorong'i tushgan edi.

Daryo safarining o'ninchi kuni yakuniga yetdi. Yovvoyi o'lka ortda qoldi. Harakatning keyingi yo'nalishini tanlash vaqti yetdi. Izlanishning so'ngi bosqichi boshlandi.

## BIRODARLIKNING PARCHALANISHI

Aragorn o'z hamrohlarini daryoning o'ng tarmog'iga boshladi. Bu yerda, Tol Brandir tepaligi soyasida, Amon Xen etagining suvgacha bo'lgan qismida maysazor bo'lib, undan keyin dastlabki daraxtlar o'sgan yassi qiyama boshlangan. Ushbu daraxtzor ko'lning egri-bugri qirg'og'i bo'ylab g'arb tomon cho'zilgan, maysazorning bir chetida esa jilg'a oqib tushmoqda.

– Tunni shu yerda o'tkazamiz, – qaror qildi Aragorn. – Bu yer Part Gelen maysazori, eskitdan chiroyli joylardan biri hisoblanadi. Yovuz kuchning qadami bu yerga hali yetmagan, deb umid qilamiz.

Yo'lovchilar qayiq'larni suvdan chiqarib, shu yerning o'ziga qarorgoh barpo qilishdi. Joriy etilgan qo'riqlash xizmati dushman alomatini ko'rmadi, eshitmadi. Gollum sayyohlar ortidan ergashib kelgan taqdirda ham qayerdadir ko'rinmas, eshitilmas bo'lgancha pisib o'tiribdi. Shunga qaramay uyquasi tinch kechmagan Aragorn tez-tez uyg'onib, atrofni ko'zdan kechirib bordi. Tong sahar yana uyg'onib, navbatchilikdagi Frodoning yoniga borib o'tirdi.

– Nega kelding, sening navbating emas-u hozir? – so'radi Frodo.

– Qandaydir ko'lanka, tushunib bo'lmas tahdid buzyapti uyqumni, – javob berdi Aragorn. – Qani, qilichingni chiqarib ko'rsat-chi.

– Nega? – hayron bo'ldi Frodo. – Dushman yaqin deb o'ylaysanmi?

– Nishingga qarab bilamiz-da buni, – dedi Aragorn.

Frodo qilichini yalang'ochladi. Darhaqiqat, qurol tig'i qorong'ilikda xira yorishmoqda.

– Orklar! – dedi hobbit. – Bevosita yaqin atrofda bo'lmasa-da, unchalik uzoqda ham emas.

– Mana shundan hadiksirab yurgandim, – dedi Aragorn.





– Daryoning bu sohilida emas, shekilli, Nish xira ko‘rsatyapti. Amon Lxav bag‘rida Mordor josuslarigina qolgan bo‘lishi mumkin, lekin Amon Xenga ork chiqqanini hali eshitmaganman. Modomiki, Minas Tirit Anduin daryosida kechgan kema qatnovining xavfsizligini ta‘minlamay qo‘ygan ekan, kim biladi deysan, bizning davrimizga kelib bu yerlarda nimalar o‘zgarib ketganini?! Ertaga juda ehtiyot bo‘lishimiz kerak.


Tong olov bilan tutun aralashmasiday otyapti. Sharqdagi qora bulut olisdagi kuchli yong‘indan buruqsib chiqayotgan tutun singari past suzib kelyapti. Ertalabki quyosh esa uni pastdan xira qizg‘ish gulxanday yorityapti. Ko‘p o‘tmay quyosh bulutni pastda qoldirib yuqoriga, toza osmonga ko‘tarildi. Shundan so‘ng Tol Brandir cho‘qqisi to‘liq yorishdi. Sharq tomon qaragan Frodo qirg‘og‘i tezoqar suv sathidan tik ko‘tarilgan baland orolni ko‘rdi. Orol bag‘ridagi daraxtlar bir qiyalamalikni boshqasining ustidan baland ko‘targanday ko‘rinmoqda. Ularning ustida esa orol cho‘qqisi bo‘lmish nayzasimon yakka qoya qad ko‘targan. Son-sanoqsiz qushlar orol atrofida gir aylanmoqda-yu, boshqa turdagi maxluqotdan asar ko‘rinmaydi.

Ovqatlanib olishgach, Aragorn hammani yoniga chaqirdi.

– Kechga surib kelingan kun – keyingi harakat yo‘nalishini tanlash kuni mana nihoyat yetdi, gap boshladi u. Do‘stlik tufayli shuncha joyga yeta bilgan birodarligimiz endi nima bo‘ladi? Boromirga qo‘shilib g‘arbga burilishimiz, Gondor urushlarida ishtirok etishimiz kerakmi yoki dahshat va ko‘lanka tomon burilamizmi yoxud hammamiz har tomon tarqalib birodarlik parchalanadimi? Qaysi yo‘lni bo‘lmasin, tezroq tanlash kerak, chunki endi bu masalani uzoq cho‘zib bo‘lmaydi. Bu yerda uzoq qolib bo‘lmaydi. Dushman sharqiy qirg‘oqdaligini bilamiz, biroq orklar biz o‘tirgan qirg‘oqdan ham chiqib qolishi mumkin.

Oraga uzoq sukunat cho‘kdi, churq etgan ovoz chiqmadi, hech kim o‘tirgan o‘rmdan qo‘zg‘almadi.

– Xo‘sh, Frodo, sen Kengash tomonidan saylangan Uzuk



qo'riqchisidan va o'ylashimcha, masalani uzil-kesil hal etadigan gap sendan chiqishi kerak, – dedi nihoyat Aragorn. – Bundan buyon yuradigan yo'lingni o'zing tanlaysan. Bu borada biror-bir maslahat bera olmayman. Chunki men Gendalf emasman, garchi uning vazifasini bajarishdan charchagan bo'lsam-da. Agar Gendalf hozir oramizda bo'lganda qanday ish tutgan bo'lishi mumkinligini, umuman bu masalada uning biror-bir rejasi bo'lgan bo'lmaganini shaxsan men bilmayman. Lekin ishonchim komilki, Gendalf o'lmay, oramizda bo'lgan taqdirda ham keyingi harakat yo'nalishini tanlash hozir sening mas'uliyatingga yuklangan bo'lar edi. Chunki qismating shunday sening.

– Shoshish kerakligini bilaman, – nihoyat gap boshladi boyadan buyon indamay o'tirgan Frodo. – Ammo kerakli yo'nalishni tanlay olmayapman. Mas'uliyat chindan ham og'ir. Menga yana bir soat berib, o'zimni xoli qoldirsangiz, yakuniy qarorimni aytaman.

– Ma'qul, Drogoning o'g'li Frodo, – dedi Aragorn hobbitga achinib qarab. – Nari borib, yolg'iz o'zing biror soatcha o'ylab ko'r. Biz shu yerda qolamiz. Faqat iltimos, chaqirsa eshitaladigan masofadan uzoq ketma.

Frodo boshini xam qilgancha biroz o'tirdi. Sohibiga diqqat-la qarab o'tirgan Sem boshini sarak-sarak qilgancha, po'ng'illadi.

– Hammasi kunday ravshan, lekin Sem Skrombi hozir indamay o'tirgani ma'qul.

Frodo o'rnidan turib nari ketdi. Qolganlar o'zi bilan o'zi ovora bo'lgan bir paytda ko'zi o'ynayotgan Boromir Frodoning ortidan Amon Xen etagida g'oyib bo'lguncha qarab o'tirgani Semning e'tiboridan chetda qolmadi.

O'rmon oralab maqsadsiz yurar ekan, Frodo tepalik qi-yalamasi tomon ketayotganini fahmladi. Hobbit qadimiy yo'ldan qolgan so'qmoqqa chiqdi. Tik ko'tarilgan joylarda zina pog'onalari o'yilgan. Biroq ular yemirilib, qisman o'pirilib to'kilgan, ayrimlarini daraxt ildizi yorib yuborgan. Nima qilayotganini idrok etmayotgan Frodo ushbu pog'onalardan yuqoriga ko'ta-

rilib, o't bosgan maydonchaga chiqib qoldi. Atrofida chetan o'sgan maydon o'rtasida kattagina yassi tosh yotibdi. Maydonning sharq tomoni ochiq bo'lib, quyosh yaxshi yoritgan. Frodo shu yerda to'xtab, pastda qolib ketgan buyuk daryoga, Tol Brandir bilan orol atrofida gir aylanayotgan qushlarga razm soldi. Qayerdandir Raurosning kuchli na'rasi ham eshitilmoqda.

Yassi toshga iyagini kaftiga tirab o'tirgan Frodo nigohsiz ko'zini sharq tomon qaratdi. Katta ziyofat uyushtirgan Bilbo Shirni tashlab ketgan kundan buyon kechgan barcha hodisalar hobbitning ko'zi oldidan birma-bir o'ta boshladi. Gendalfning aytgan gaplarini eslab, fikr tarozisidan o'tkazdi. Vaqt o'tyapti, lekin u hamon bir qarorga kelgani yo'q.

Fikr-mulohazalaridan kutilmaganda chalg'ib ketgan Frodo o'zini qandaydir g'alati his etdi. Nazarida, kimningdir noxayrixoh nigohi unga qadalib turganday tuyuldi. Oyoqqa qalqib turgan hobbit atrofga alanglab, daraxtlar orasidan kulib qarayotgan Boromirni ko'rdi.

– Sendan xavotir olib keldim, – tushuntirish bergan bo'ldi yaqinroq kelayotgan Boromir. – Agar Aragorn haq bo'lib, orklar shu atrofda izg'ib yurgan bo'lsa, hech qaysi birimiz yolg'iz qolmasligimiz kerak, ayniqsa, sen. Chunki senga ko'p narsa bog'liq. Mening qalbiga esa bir narsa qattiq azob beryapti. Modomiki, seni topgan ekanman, shu yerda biroz ushlanib qolib, suhbatlashsak degandim. Qarshi emasmisan? Bu menga sal bo'lsa ham taskin bergan bo'lar edi. Ko'pchilik yig'ilgan joyda oddiy mavzu ham keti ko'rinmas bahsga aylanib ketadi. Ikki kishining suhbatida esa oqil fikr tug'ilishi mumkin.

– Xavotir olganingdan minnatdorman Boromir, lekin birovning fikri hozir menga yordam bermaydi, – javob berdi Frodo. – Nima qilishim kerakligini yaxshi bilaman, lekin o'sha ishdan qo'rqib turibman.

Raurosning na'rasi tinmaydi. Shamol daraxt shoxlari orasida shovqin solmoqda. Indamay turgan Boromir shartta kelib Frodoning yoniga o'tirib oldi. Kutilmagan bunday harakatdan Frodo cho'chib tushdi.

– Yolgʻiz oʻzing qolib, bir qarorga kela olmay azob chekmayotganingga ishonching komilmi? – soʻradi Boromir. – Oʻzim yordam bermoqchiman senga. Oʻta murakkab qaror qabul qilar ekansan, senga maslahat kerak boʻladi... Balkim, mening maslahatimni eshitib koʻrarsan?

– Qanday maslahat berishingni fahmlagandayman, Boromir, – dedi Frodo. – Maslahating bir qarashda oqil koʻringani bilan, yuragim gʻash, undan ogoh boʻlishga daʼvat etadi.

– Ogoh boʻlishga? Nimadan ogoh boʻlishga? – keskin ohangda soʻradi Boromir.

– Bajarilishi kerak boʻlgan ishni kechga qoldirishdan. Bir qarashda oson koʻrinayotganday yoʻldan. Zimmamga yuklangan masʼuliyatdan voz kechish fikridan. Odamlarning kuchga boʻlgan qatʼiy ishonchi-yu, qalbi chindan ham samimiy boʻlishidan ogoh boʻlishga daʼvat qiladi.

– Biroq oʻsha kuch sizlarni uzoq vaqt himoya qilib keldi mitti oʻlkangizda, – eʼtiroz bildirdi Boromir.

– Xalqing qahramon xalq ekanligiga zigʻirday boʻlsin shubha yoʻq, biroq dunyo oʻzgaryapti. Minas Tirit devori chindan ham mustahkamdir, lekin dushman qudrati oldida emas. Minas Tirit qulasa nima boʻladi?

– Biz hammamiz urushda halok boʻlamiz, ammo Minas Tirit qulamasligiga umid bor hali.

– Uzuk bor ekan, umid boʻlmaydi.

– Ha-ya! Uzuk! – dedi Boromir koʻzi chaqnab. – Qandaydir kichik bir buyumni deb qoʻrquv va shubhaga berilishimiz gʻalati emasmi? Mayda bir buyumning dastidan-a?! Uni men Elrond xonadonida uzoqdan koʻrgan edim. Yana bir koʻrsam boʻladimi?

Boromirga razm solgan Frodoning yuragiga allaqanday sovuq singib kirdi. Boromirning yuzi doʻstona qiyofa kasb etgan boʻlsa-da, koʻzida qandaydir gʻalati uchqun koʻrindi.

– Bekitilgan joyidan chiqarmagan maʼqul, – rad etdi Frodo.

– Nima desang shu, – dedi Boromir. – Uzuk haqida ga-




pirsa bo'lar? Sen uning dushman qo'lidagi qudrati, yovuz niyatda qo'llanilishi haqida o'ylayapsan, xolos, ezgulik yo'lida qo'llash mumkinligini xayolingga ham keltirmayapsan. Dunyo o'z-garganini ta'kidlab, Uzuk bor ekan, Minas Tiritning qulashi muqarrar deyapsan. To'g'ri, shunday bo'lishi mumkin, agar Uzuk dushman qo'lga o'tsa. Bizning qo'limizda bo'lsa-chi?

– Kengashda ishtirok etmaganmiding? Uzukdan foydalanishimiz mumkin emas: Uzuk vositasida qilingan har qanday ish faqat yovuzlikka aylanadi, – eslatib o'tdi Frodo.

O'rnidan turgan Boromir u yoq, bu yoq yura boshladi.

– Baringiz bir go'rsiz, – dedi nihoyat u. – Elrond bilan Gendalfga o'xshaganlar o'rgatdi senga bu gapni. Hammasi o'zicha haq. Aslida esa o'sha elflar, chala elflar, folbinlar-u, sehrgarlar boshlagan yo'l falokat-la yakun topadi. Ko'p o'ylanamam men ular haqda: chindan ham oqilmikan ular, yo oddiy qo'rqoq. Odamlarning qalbi samimiy, bu masalada shubha qilmasang ham bo'laveradi, Frodo. Minas Tirit aholisi yillar sinovidan munosib o'tdi. Yurtimizda sehrgar-hukmdorlar hukumati o'rnatilishini istamaymiz, o'zimizni himoya qiladigan kuch-qudrat kerak, xolos, bizga. Qarang! Tasodifning o'zi ularning qo'lga Hukmdorlik Uzugini tutqazib qo'yibdi. Bu naq ofatning o'zginasi, Mordor dushmanlarining boshiga tushgan ofat! Dushmanning qudratini dushmanning o'ziga qarshi qo'llamaslik – ahmoqlikdir! Faqat dovyuraklar-u, shafqatsizlargina muzaffariyatga erisha bilishadi. Fursati yetganda bir nafar jangchi, buyuk dohiy nimalarga qodir bo'lmaydi deysan? Aragonning ham qo'lidan ko'p narsa keladi. Agar u bosh tortadigan bo'lsa, Boromir bor. Uzuk menga hukumat beradi. Dushmanni Mordordan quvib solsam bormi, odamlar mening bayroqlarim ostida jiplashadi.

Boromir gapirgan sari ovozi ko'tarilib bordi. Qal'aning mustahkam devori-yu, qudratli qurol haqida, odamlar ustidan yuritadigan hukmi haqida gapirar ekan, Frodoni unutib, buyuk ittifoqlar-u, shonli g'alabalarga doir rejalar tuzdi, Mordorni xayolan qulatib, dunyodagi eng qudratli, xayrixoh va oqil qiroлга



aylandi. So'ng, kutilmaganda to'xtab, qo'l siltadi.

– Bularning barini ular nari uloqtirishmoqchi! – xitob qildi Boromir. – Uzukni yo'q qilish kerak demadim. Yo'q qilinsa, balkim, yaxshi bo'lar, agar buning bama'ni sababi bo'lsa. Biroq unday sabab yo'q. Allaqanday bir pakana Uzukni Mordorning naq kindigiga olib borib dushmanga ikki qo'llab topshirishi va bu bilan yanada kuclayib olishiga imkon berishi - o'sha «oqillar»ning bizga taklif qilgan yagona rejasi bo'ldi. G'irt ahmoqlikning o'zginasi-yu, bu! O'zing anglab yetmayapsanmi bu qanchalik bema'ni taklif ekanligini? – kutilmaganda ovoz ko'tardi u Frodo tomon yuzlanib. – Qo'rqayotganingni aytding. Qo'rqayotgan bo'lsang, qo'rqmas odam seni kechiradi. Sog'lom aql yuritishga turtki bermaydimi bu senga?

– Yo'q, hadiksirashga turtki beradi, – dedi Frodo. – Shunchaki, hadiksirashga. Fikringni eshitdim, rahmat. Ko'p narsalarni endi aniq tushundim.

– Demak, men bilan Minas Tiritga borasan, shundaymi? – xitob qildi ko'zi yarqirab, yuzi yashnab ketgan Boromir.

– Nima deyotganimni tushunmagan ko'rinasan, – dedi Frodo.

– Qisqa vaqtga bo'lsa ham kirib o'tasan-u Minas Tiritga, to'g'rimi? – talab ohangida so'radi Boromir. – Shahrim uzoq emas. U yerdan Mordorga bu yerga nisbatan sal uzoqroq. Yovvoyi o'lkada uzoq kezdik. Shahringa borsang, dushman niyatidan voqif bo'lib olasan. Safaringni davom etishdan oldin biroz dam olishing kerak. Yur men bilan, Frodo.

Boromir qo'lini do'stona harakat-la hobbitning yelkasi-ga qo'ydi. Ammo Frodo yelkasidagi qo'l bazo'r idora qilina-yotgan g'azabdan titrayotganini his etdi. Shu zahoti orqaga tislangan hobbit o'zidan ikki chandon baland, qiyoslab bo'lmas darajada baquvvat novcha bo'yli odamga hadiksiragancha ko'z yugurtirdi.

– Nega dushmanlarcha qarayapsan? – so'radi Boromir. – Men haqgo'y insonman, o'g'ri ham, josus ham emasman. To'g'ri, menga sening Uzuging kerak, lekin chin so'zim, unga

egalik qilish niyatim yo'q. Niyatimni eshit, Uzukni vaqtincha berib tur!

– Yo'q! – rad etdi Frodo. – Kengash bu buyumni menga topshirgan.

– Dushman bizni ahmoqligimiz tufayligina yengadi! – o'shqirib yubordi Boromir. – Qonimni qaynatadi bunday ahmoqlik! Jirkanch ahmoqlik! Ajal qo'yniga yugurgancha, undan xalos bo'lish umidini o'zimiz o'z qo'limiz-la barbod qilamiz. O'limi muqarrar maxluqot orasida Uzuk sohibligiga allaqanday birov bilmas pakanalar emas, Numenor odamlarigina da'vo qilishlari mumkin. Uzuk seniki emas, u shunchaki bir tasodif-la qo'lingga tushib qolgan. Uzuk meniki. Ber bu yoqqa uni!

Frodo katta yassi toshning narigi tomoniga o'tib olguncha orqaga indamay tislandi.

– Quloq sol, do'stim, – dedi Boromir nisbatan muloyim ohangda. – Xalos bo'lsang-chi o'shandan, qo'rquv va shubhadan! Istasang, aybni menga yukla, Uzukni kuch-la tortib oldi deb ayt hammaga. Chunki men chindan ham sendan kuchliman, hoy pakana! – o'shqirdi u va kutilmaganda yassi tosh ustiga sakrab, Frodogo tashlandi.

Boromirning ko'rkam yuzidagi dilkashlik qiyofasi juda xunuk darajada o'zgarib, nigohida g'azab va nafrat uchquni chaqnadi.

Hamlaga chap bergan Frodo tosh ortiga bekindi. Hozir u faqat bir ish qila oladi. Dag'-dag' titragancha Uzukni zanjirdan chiqarib, Boromir yana bir sakraganda barmog'iga taqdi. Novcha bo'yli xalq vakili hayratdan bir zum qotib, atrofga alangladi, goya va daraxtlar orasiga ko'z yugurtirdi.

– Ojiz qallob! – na'ra tortdi Boromir. – Qo'limga tushkin, nima qilar ekanman seni! Niyatingni tushundim! Uzukni Sauronga topshirib, hammamizni sotmoqchisan! Bizni tuzoqqa ilintirib berish uchun payt poylab kelgansan. O'zing ham, jamiki pakana xalqing ham balo-yu, qazoga giriftor bo'!

Qoqilib ketgan Boromir o'z qarg'ishi o'ziga urganday yerga yiqilib, yuzini o'tga bosgancha ma'lum vaqt qilt etmay

yotdi, o'pkasi to'lib ho'ngrab yig'ladi. So'ng o'rnidan turib, yuzini artidi.

– Nima qilib qo'ydim? – baqirib yubordi u. – Frodo! Frodo! Iltimos, qayt! Esimni yeb qo'yibman, Frodo! Bo'ldi, o'tib ketdi, es-hushimni yig'ib oldim, qayt!

Jimjitlik. Frodo Boromirning ayyuhannosini eshitayotgani ham yo'q. Hozir hobbit undan uzoqda, tepalik cho'qqisi tomon yugurmoqda. Vujudini dahshat va musibat qamragan Frodoning ko'z oldidan Boromirning jahldor yuzi va g'azabdan yonayotgan nigohi nari ketmayapti.

Ko'p o'tmay Amon Xen cho'qqisiga yetgan Frodo xarsillagancha nafas rostladi. Uzuk barmog'iga taqilgan ekan, hozir Frodo tevarak-atrofni ko'zi oldida hosil bo'lgan tuman orqali ko'rmoqda. Tepalik cho'qqisida aylanasiga ko'tarilgan tosh devori o'pirilib tushib atrofida uyum hosil qilgan, sirtiga katta toshtaxtalar yotqizilgan keng yassi to'garak maydon bo'lib, uning o'rtasida to'rtta o'yma naqshli ustunga o'rnatilgan baland kursi va ushbu kursiga olib chiqadigan ko'p pog'onali zina bor ekan. Yuqoriga ko'tarilib, kursiga o'tirgan Frodo o'zini adashib qolib, yovuz qirol taxtiga chiqib olgan boladay his etdi.

Dastlab uning ko'ziga juda kam narsa ko'rindi. Nazari-da, dunyoga faqat ko'lanka ko'rinadigan tuman tushganday go'yo: Uzuk hanuzgacha uning barmog'ida. Birozdan so'ng u yoq, bu yoqda tuman tarqalib, Frodoga juda ko'p mayda va aniq holatlar xuddi o'z oldida va ayni vaqtda ancha olisda ro'y bera-yotgan holatlar ko'rina boshladi. Tovush eshitilmay, faqat jonli manzaralar aniq ko'rinyapti. Atrof ravshanlashib, jim bo'lib qoldi. Frodo hozir Ko'rish tepaligi deb ham ataladigan Amon Xen cho'qqisida, Numeron odamlarining Ko'z tepaligida o'tiribdi.

Sharqqa qaragan Frodo notanish yer, nomsiz tekislik va begona o'rmonni ko'rdi. Shimol tomonda buyuk daryo uzun kamardek ilang-bilang cho'zilgan, G'uborli tog'lar esa singan, lekin mustahkam mayda tish qatoridek namoyon bo'lmoqda. G'arbda Rohan bilan Ortxang yaylovlari keng cho'zilgan bo'lib, Izengard minorasi qora nuqtaday ko'rinmoqda. Janubda buyuk



daryo endi sirtmoq shaklida buralib, Rouresning ko'pikli tubsizligiga oqib tushmoqda. U yerda buyuk daryoning qudratli Etir Anduin tarmog'i hamda quyoshga ko'tarilayotgan chang zarralarini eslatayotgan behisob dengiz qushlari, qushlar galasi ostida esa oxiri ko'rinmas chiziqlar bilan ifodalanib, yashil va kumush tusda yarqirayotgan dengiz ko'rindi.

Qayerga qaramasin hamma joyda urush alomatlari. G'uborli tog'lar chumoli uyasidek g'ij-g'ij qaynamoqda: tog'ning minglab g'orlaridan orklar chiqishmoqda. Zimziyo o'rmon daraxtlari orasida odamlar, elflar va yirtqich hayvonlar o'zaro jang qilishmoqda. Bicorn avlodi hukm surgan hududni olov qamragan. Moriya ustida bulut ko'tarilmoqda, Loriyen chegarasida tutun pag'alari burqiramoqda. Chavandozlar Rohan o'tloqlarida ot choptirishyapti, Izengarddan bo'rilar otilib chiqishyapti. Xarad bandargohidan ochiq dengizga kemalar chiqyapti. Sharqda odamlarning harakati. xususan: qilich bilan qurollangan jangchilar, nayzabardorlar, ot mingan kamonchilar, sarkardalarning ikki g'ildirakli jang aravalari tinmaydi, yuk ortilgan ot aravalarining oxiri ko'rinmaydi. Bir so'z bilan aytganda, Zulmat hukmdorining jamiki kuch-qudrati harakatga tushgan.

Yana janubga o'girilgan Frodo Minas Tiritni ko'rdi. Olis va ko'rkam shahar: devori oq, minoralari ko'p, tog' bag'rida savlat to'kib turgan istehkomlari po'latday yarqiramoqda, barcha minoralarda bayroq xilpiraydi. Bularning bari Frodoning yuragiga umid bag'ishlaganday bo'ldi, ammo sal narida Minas Tiritga qarshi jang qilayotgan boshqa, nisbatan yirik, qudratli qal'ani ko'rdi. Uning nigohi beixtiyor sharqqa, Osgiliatning buzilgan ko'priklari, Minas Morgulning xunuk darvozasidan o'tib, Mor-dor zaminidagi Dahshat vodiysi bo'lmish Gorgorotga borib to'xtadi. Osmonda quyosh charaqlayotganiga qaramay, u yerda zimiston qaror topgan. Tutun orasida olov milt-milt etmoqda. Bug' va tutun pag'alari ostida qolgan Taqdir tog'i ham o'sha yerda. Shu yerga yetganda hobbitning nigohi to'xtadi: devor ortida baland devor, istehkom ortida yanada mustahkam istehkom, qop-qora, qudrati beqiyos temir tog'i, po'lat darvozasi, ol-

mos minorasi. Frodo nihoyat ko'rdi uni: Sauroning qal'asi sanalmish – Barad-Dur. Hobbitning har qanday umidi puchga chiqdi.

Daf'atan Frodo o'sha yerda allaqanday ko'z borligini fahmladi. Zulmat minorasida uyqu bilmas ko'z bo'lib, uning nigohida olovli g'azab mangu qotgan. Nigoh Frodo tomon yo'nalib, hobbitni qidira boshladi. Hozir uni ko'radi, qayerdaligini bilib oladi. Nigoh Amon Lxavni ko'zdan kechirib chiqdi, Tol Brandirni ham siypab o'tdi. Frodo kursidan sirpanib tushib, boshiga kulrang qaytarma qalpoqni tashlab olganча yerga bukchayib yotdi.

U o'zining qichqirig'ini eshitdi:

«Hech qachon, hech qachon, hech qachon!»

«Boryapman! Huzuringga boryapman!»

Frodo o'zini o'zi idora qila olmayapti. Shu paytda qandaydir boshqa kuch uning miyasini egalladi:

«Yech uni! Yech! Uzukni yech, ahmoq!»

Hobbitning vujudida ikkita kuch to'qnash keldi. Bir fursat ikkala kuch orasida qolgan hobbit qiynoqdan ingrab yubordi. Daf'atan u yana o'zini idora qila boshladi. Ovoz ham emas, ko'z ham emas, yana Frodoga aylanib qoldi.

Uzukni yechgach o'zini kursi oldida, charaqlayotgan quyosh ostida tiz cho'kib turgan holatda ko'rdi. Ulkan panja singari naq ustiga yetgan qora ko'lanka Amon Xenni tark etib, g'arbga o'tganча g'oyib bo'ldi. Osmon yana ochilib, har bir daraxtda qush sayradi.

Frodo o'rnidan turdi. Tanasi bo'shashib qolgan bo'lsada, o'zini ancha yengil, irodasi mustahkam qolganini his etdi.

– Nima qilish kerakligini ana endi tushundim, – bir qarorga keldi hobbit. – Shu narsa ham ayonki, Uzukning yovuzligi birodarlikka ham ta'sir o'tkaza boshladi. Binobarin, birodarlikka yanada ko'p ziyon yetmay turib hamrohlarimni zudlik bilan tark etishim lozim. Yolg'iz o'zim ketaman. Uzuk birodarligining ayrim a'zolariga ishonch bildira olmayman, o'zim ishonadiganlarni esa olib keta olmayman. Ular menga juda qadr-

li: sho'rlik Sem, Merri, Pin. Musofir ham qadrli, lekin uning oyog'i o'z yurtiga tortyapti. U chindan ham Minas Tiritga borishi kerak, ayniqsa, Boromir yovuz kuch ta'siriga berilib qolgan bir paytda. Men yolg'iz o'zim ketaman. Zudlik bilan yo'lga tushaman.


Hobbit so'qmoqdan tez yurib pastga, Boromir bilan suhbatlashgan maysazorga tushdi. Shu yerda to'xtab, tevarakat-rofuga quloq tutdi. Kimdir o'rmonda, daryo bo'yida baqirayotgani eshitildi.

– Qidirishyapti, – xulosa qildi Frodo. – Qiziq, uzoq vaqt yo'q bo'ldimmikan? Bir soat emas, ancha o'tdi-yov. Nima qil-sam ekan? – ikkilanib po'ng'illadi u. – Hozir ketmasam, bunday imkon boshqa bo'lmaydi. Ularni tashlab ketgim yo'q, ayniqsa, mana bunday holatda, biron-bir tushuntirish bermagan tarzda. Iloj qancha, boshqa yo'li yo'q. Do'stlarim meni tushunushadi. Sem tushunishi kerak.

Hobbit Uzukni kissadan asta chiqarib yana barmog'iga taqdi. Ko'zga ko'rinmay qolgach, ortiqcha shovqin solmay, shabadaning shitirlashiday tepalik qiyalamasidan pastga tushdi.

Frodo bir soat xoli qolib, o'ylab olish uchun nari ket-gach, Uzuk birodarligining qolgan a'zolari qirg'oqda uzoq qolib, ba'zan bezovta qo'zg'alib qo'ygancha ma'lum vaqt jim o'tirish-di, so'ng davra qurib suhbat boshlashdi. Boshqa mavzuga atayin chalg'ish uchun har xil narsalar haqida gap ochishdi, uzoq kech-gan safar, sarguzashtlar borasida o'z taassurotlari bilan o'rtoq-lashishdi, Aragorndan Gondor qirolligi va uning qadimiy tarixi haqida, Emin Muilning chegara hududida hanuzgacha ko'zga tashlanayotgan yirik inshootlardan qolgan qoldiqlar, xususan: toshdan yasalgan bahaybat qirollar, Lxav va Xcn kursilari, Rauros sharsharasi yaqinidagi zina haqida gapirib berishni ilti-mos qilishdi. Shunga qaramay, fikr-xayollari yana Frodo bilan Uzukka, xususan, u qaysi yo'ldan borishiga va nima sababdan ikkilanayotganiga qaytaverdi.

– Nazarimda u, qaysi yo'l xavfliroq bo'lishi mumkinligi haqida o'ylanib qolgan. Umuman aytganda, to'g'ri qiladi, – fikr



bildirdi Aragorn. – Sharqiy yoʻnalishda harakatlanish Uzuk birodarligi uchun endi yanada xavfli boʻlib qoldi, chunki Gollum bizning izimizga tusha boʻlib, safarimiz siri dushmanga oshkor boʻldi. Biroq Minas Tirit xavfli buyumni yoʻq qiladigan olovga yaqin emas. Biz u yerda ushlanib qolib, oʻzimizni himoya qilishimiz mumkin, albatta. Biroq Denetor qoʻl ostida mavjud qoʻshini bilan Elrondning qoʻlidan kelmaydigan narsaga erishishga, yaʼni xavfli buyumning sirini saqlab qolishga ham, uni olib ketgani kelgan dushman qudratiga qarshilik koʻrsatishga ham umid qila olmaydi. Frodoning oʻrnida boʻlsak, har birimiz qaysi yoʻlni tanlagan boʻlar edik? Mana shu yerda Gendalfning oʻrni bilinyapti.

– Darhaqiqat, ogʻir yoʻqotish boʻldi biz uchun, – dedi Legolas. – Iloj qancha, Gendalfning ishtirokisiz qaror qabul qilishimiz kerak. Oʻzimiz hal qilib, Frodoga yordamlashib yuborsak-chi? Keling, uni davraga chaqirib gaplashib koʻraylik. Shaxsan men uni Minas Tirit tomon yoʻl olishga koʻndirib koʻraman.

– Men ham, – dedi Gimli. – Biz Uzuk qoʻriqchisiga safar davomida yordam berish uchun yuborilganmiz. Agar u xohlamasa hamrohlikni bas qilishimiz kerak. Boz ustiga, unga taqdir togʻini topib berish borasida ont ichmaganmiz. Lotloriyen bilan xayrlashish menga qiyin kechdi. Biroq ancha yoʻl yurib shu yergacha yetdim. Oxirgi yoʻlni tanlash fursati yetgan ekan, shaxsan menga shu narsa ayonki, Frodoni yolgʻiz tashlab qoʻymayman. Men Minas Tirit yoʻlini tanlayman, lekin Frodo u yerga borishdan bosh tortib, boshqa yoʻlni tanlasa, hech ikkilanmay unga hamroh boʻlaman.

– Men ham Frodoga hamroh boʻlaman. – dedi Legolas. – Bunday murakkab vaziyatda uni tashlab ketish vijdondan emas.

– Toʻgʻri aytasan, xoinlikdan oʻzga narsa boʻlmaydi bu, agar uni yolgʻiz qoʻysak, – maʼqul topdi Aragorn. – Lekin Frodo sharqiy yoʻnalishni tanlaydigan boʻlsa, unga hammamiz hamroh boʻlishimiz shart emas. Sakkiz kishi boramizmi, uch yoki bir kishi – bu, juda mashaqqatli, noumid safar boʻladi. Agar menga hamroh tanlashga ijozat berilsa, boshqa mazmundagi qarorga

dosh bera olmaydigan Semni, Gimlini va o'zinni tanlagan bo'lar edim. Boromir o'z shahriga qaytishi kerak. Otasi va xalqi uni kutishyapti. Qolganlar esa unga hamroh bo'lib ketishadi. Har qalay, Meriadok bilan Peregrin ikkalasi Boromir bilan birga ketishadi, agar Legolas bizdan ajrash istagini bildirmasa.

– Biz ham sizlardan ajrashni istamaymiz! – xitob qildi Merri. – Biz Frodoni tashlab keta olmaymiz! Pin ikkalamiz hamisha Frodo bilan birga bo'lganmiz, bunday keyin ham yonida boramiz. Lekin bu nima bilan yakun topishini hech qachon idrok etmaganmiz. Shirda ham, Dorilomonda ham tushunmaganmiz. Frodoni Mordorga borishga tentaklik va shafqatsizlik majbur qilishi mumkin, xolos. Nega uni bu yo'ldan to'xtatmayapmiz?

– Biz uni to'xtatishimiz kerak, – dedi Pin. – Ishonchim komilki, aynan mana shu narsa Frodoni bezovta qilyapti. Sharqqa yo'l olishiga rozi emasligimizni biladi. Sho'rlik Frodo unga hamroh bo'lishimizni iltimos qilishni istamayapti! Kishining Mordorga yolg'iz o'zi ketishini tasavvur qilyapsizmi?! – seskanib ketdi u. – Tentak hobbit iltimos qilishga hojat yo'qligini bilmaydi. Uni bu yo'ldan to'xtata olmasligimizni u bilishi kerak edi.

– Meni kechirasiz-u, o'ylashimcha, sohibimni to'g'ri tushunmayapsizlar, – dedi Sem. – Sohibim qaysi yo'lni tanlash borasida o'ylanayotgani yo'q. Minas Tiritda nimasini yo'qotib qo'yibdi u? Nega endi sohibim, meni kechirasiz-u, janob Boromir, – qo'shimcha qilmoqchi bo'ldi Sem o'girilib.

Ana shundagina hamma bir chetda jimgina o'tirgan Boromir g'oyib bo'lib qolganiga e'tibor qildi.

– Qani o'zi u? – xavitir-la so'radi Sem. – So'nggi vaqtda ko'zimga qandaydir g'alati ko'rinib qolgan edi-ya. Nima qilgan taqdirda ham. Muhokama qilinayotgan masala janob Boromirga daxl qilmaydi. U hamisha ta'kidlab kelganday uyiga yo'l oladi va hech kim uning bu ishini qoralamaydi. Janob Frodo esa taqdir tirqishini topishi kerakligini yaxshi biladi. Lekin u qo'rquyapti. Uzil-kesil hal qilish kerak bo'lgan fursatda vujudini dahshat qamragan. Uni tashvishga solayotgan narsa shu, xolos. Yurtimizni tark etganimizdan buyon janob Frodo va u bilan birga biz



ham ko'p narsalarni o'zlashtirib oldik, albatta. Aks holda sohibim Uzukni qo'rqqanidan daryoga uloqtirib, qochib qolgan bo'lar edi. U bizdan xavotirda, bizni nimalar kutayotgan bo'lishi mumkinligini o'ylab qo'rquyapti. Unga ergashib borishimizni biladi. Uni tashvishga solayotgan narsa shu. Agar biz unga ergashmasligimizni bilsa, komil ishonch-la yo'lga chiqadi. Mana shu gapimni eslab qoling! Qaytib kelsa, mushkul ahvolga tushib qolamiz. Chunki yolg'iz ketsa, to'g'ri bo'ladi degan fikr ila maslagini mustahkamlab keladi hozir u. Sohibimning familiyasi Beggins ekanligi qanchalik rost bo'lsa, ushbu fikrim ham haqiqatga shunchalik yaqindir!

– Sening fikring hammamizning gapimizdan oqil chiqdi, nazarimda, Sem, – dedi Aragorn. – Xo'sh, haq bo'lib chiqadigan bo'lsang, biz qanday ish tutishimiz kerak, fikringcha?

– To'xtatishimiz kerak uni! Mordorga borishga yo'l qo'ymasligimiz kerak! – xitob qildi Pin.

– U Uzuk qo'riqchisi, mas'uliyat ham faqat uning zimmasida, – eslatib o'tdi Aragorn. – Frodoni muayyan bir yo'ldan borishga majbur qila olmaymiz. Bunday qilishga urinib ko'rsak ham, ishonchim komilki, harakatimiz zoye ketadi... Bu masalada qandaydir boshqa, nisbatan qudratli kuch ta'sir o'tkazadi.

– Nima qilganda ham, ishqilib, Frodo o'sha maslagini «to'g'ri mustahkamlab» qaytsin, masala to'g'ri hal bo'lsin, – istak bildirdi Pin. – Eng yomon narsa kutish va quvishdir! Bir soat o'tganiga ancha bo'ldi, shekilli.

– To'g'ri, bir soat o'tganiga ancha bo'ldi, – dedi Aragorn. – Tong oxirlayapti, uni chaqirish kerak.

Shu paytda daraxtlar orasidan qovog'i soliq, ma'yus ahvolda chiqib kelgan Boromir paydo bo'ldi. Davrada o'tirganlarni nigohi ila sanab chiqqach, yerga tikilganча qoldi.

– Qayerda eding? – so'radi Aragorn hamrohlarining oldiga indamay kelgan Boromirdan. – Frodoni ko'rmadingmi?

– Ko'rdim ham, ko'rmadim ham, – sekinlik bilan javob berdi Boromir. – Uni tepalikda topib, biroz suhbatini oldim. Sharqqa yo'l olmay, Minas Tiritga borishni maslahat berdim.

Ko'nmadi. Men biroz achchiqlandim. U mendan qochib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Unaqasini hech ko'rmagan edim, ertaklarda eshitgan bo'lsam-da. Uzukni taqib olgan ko'rinadi, qidirib topa olmadim. Davrangizga qaytgan bo'lsa kerak degan xayolgan bordim.

– Bor gapni aytdingmi, ishqilib, Boromir? – so'radi Aragorn yomon ko'z ila og'ir qarab.

– Ha, – javob berdi Boromir. – Bundan ortiq aytadigan gapim yo'q.

– Juda yomon! – xitob qildi o'rimdan irg'ib turgan Sem. – Modomiki, janob Frodo anavi narsani taqib olgan ekan, bu kishi biror-bir hunar ko'rsatgan ko'rinadi. Taqmasligi kerak edi uni. Endi nima bo'ladi?

– Uzukni doim taqib yurmaydi-yu! – dedi Merri. – Yoqimsiz suhbatdoshdan qutulgach, yechadi. Bilbo ham shunday qilar edi.

– Qayoqqa ketib qoldi ekan endi u? Qani Frodo? – xitob qildi Pin. – Ketganiga yuz bo'lganday go'yo!

– So'nggi bor ko'rganingdan buyon oradan qancha vaqt o'tdi, Boromir? – so'radi Aragorn.

– Yarim soatcha bo'ldi, – javob berdi Boromir. – Balkim, bir soat o'tgandir, aniq bilmayman. Shu atrofda daydib yurdim. Oradan qancha vaqt o'tganini bilmayman! Bilmayman!

Boshini ikkala qo'li bilan changallab olgan Boromir chuqur engashib o'tirdi.

– Yo'qolganiga bir soat bo'libdi! – vahima ko'tardi Sem. – Qidirib topishimiz kerak uni! Yuringlar!

– Shoshmanglar! – baqirdi Aragorn. – Qidiruvni juftlar-ga bo'linib, har tomon tarqalib tashkillashtirishimiz kerak.

Sem hech kimga quloq solmay, birinchi bo'lib yugurib ketdi. Merri bilan Pin ham «Frodo! Frodo!» deya baqirgancha daraxtlar orasiga kirib ketishdi. Legolas bilan Gimli ham hobbit qidirib ketishdi. Hammaning vujudini kutilmagan vahima qamrab olganday bo'ldi.

– Hamma har tomon tarqab ketdi, – umidsizlik-la ingrab yubordi Aragorn. – Menga qara, Boromir! Bizsiz nima ish qilib

qo'yganingni bilmadim-u, endi menga yordam ber. Modomiki, Frodoni topa olmagan ekansan, hech bo'lmasa, anavi hobbitlarning ortidan yugurib, ikkalasini qo'riqlab bor. Topsang, topmasang, ikkalasini shu yerga qaytarib kel. Men ham Sem bilan shu yerga qaytaman.

Aragorn «Frodo! Frodo!» deya qichqirayotgan Semning ortidan yugurib, toshlar orasidagi kichik o'tzorda quvib yetdi.

– Ortimdan yur, Sem, – dedi u. – Hech qaysi birimiz yolg'iz qolmasligi kerak. Bu yerda qandaydir yomon ish bo'lyapti. Buni men ich-ichimdan his etyapman. Men cho'qqiga, Amon Xen kursisiga chiqaman, ko'zga ko'rinadigan narsalarni ko'rib tushaman. Ko'nglim sezyapti, Frodo shu yo'ldan yurgan. Ortimdan bor, ko'zingga qarab yur.

Ikkalasi so'qmoqdan yuqoriga yo'l oldi. Yetishib yurishga harakat qilgan Sem Musofirdan ancha orqada qolib ketdi. Aragorn ko'rinmay qolgach, hansirab qolgan hobbit to'xtab, nafas rostladi.

– Hoy, Sem Skrombi! – kutilmaganda o'z peshanasiga o'zi tarsaki urdi Sem. – Kalta oyog'ingni novcha bo'yli inson kabi ishlata olmaysan. Shunday ekan, miyangni ishlat. Xo'sh, qara! Boromir aldamadi, uning aldaydigan odati yo'q, lekin u bor gapning barini aytmadi. Janob Frodoni nimadir qattiq cho'chitgan. U o'zi uchun kutilmagan qaror qabul qilishga majbur bo'lgan, ya'ni ketishga ahd qilgan. Qayoqqa? Sharqqa. Semsiza? Ha, Semsiz bo'lsa ham ketishga qaror qilgan. Bu yomon, juda yomon! O'zingni qo'lga ol, Skrombi! – dedi Sem ko'z yoshini artib. – O'yla, o'ylay bilsang! Xo'sh, Frodo daryo ustidan uchib yoki sharsharadan hatlab o'ta olmaydi, albatta. O'ylagan ketganda o'zi bilan lash-lushini olmagan. Demak, u ortga, qayiqalar oldiga qaytishi kerak! Qayiq oldiga yugur, Sem! Uch tezroq!

Sem ortga burilib, so'qmoqdan yelday uchdi. Yo'lda yiqilib, biroz lat yedi. O'midan turib jon holatda yana yugurdi. U qirg'oqdagi Port Galen maysazoriga, qayiqalar suvdan chiqarilgan joyga yugurib keldi. Hech kim yo'q. O'rmondan chiqayotgan baqir-chaqirga e'tibor qilmadi. Nafas rostlab, biroz turib qoldi.



Mundoq qarasa, qayiqlardan biri o'zidan o'zi suv tomon sirpanib ketyapti. Sem o'kirgancha yugurdi. Qayiq suvga tushib bo'ldi.

– To'xtang, janob Frodo! Shoshmang! – o'zini suvga tashladi Sem, qayiq devorini tutib olishga harakat qilib.

Harakati bekor ketgan Sem o'kirgancha suvga, tezoqar chuqur daryoga shaloplab tushdi. Qulqullagan Semning jingalak sochi suv ostida ko'rinmay qoldi.

Bo'm-bo'sh qayiqdan ingrash tovushi eshitilib, harakatga kelgan eshkak qayiqni to'xtatdi. Frodo Semning sochini vaqtida ushlab qoldi. Suvdan chiqqan Sem pitirlab, to'lib qolgan bo'g'zidan suv chiqardi. Jigarrang yumaloq ko'zi qo'rquvga to'ldi.

– Topib kelibsan-da, meni qarddonim Sem! – dedi Frodo. – Qo'limni ushla.

– Qutqaring meni, janob Frodo! – tilga kirdi suv tupurgan Sem. – Cho'kyapman! Qo'lingizni ko'rmayapman!

– Mana qo'lim, timalama! Sabr qil, hozir chiqarib olaman seni. Pitirlama, qayiqni ontarib yuborasan hozir! Bu yoqqa, mana, qayiq devorini ushlab ol. Qirg'oq tomon suzimiz hozir.

Bir necha bor eshkak eshgan Frodo qayiqni qirg'oqqa qaytardi. Suv kalamushiday shalabbo bo'lgan Sem qirg'oqqa sudralib chiqdi. Uzukni yechgan Frodo ham qayiqdan sakrab tushdi.


– Kishini ranjitadigan xalaqitlarning eng yomoni sensan, Sem! – koyib berdi u.

– Shafqatsizlik bu, janob Frodo! – dedi qaltirayotgan Sem. – Mensiz ketishingiz, menga nisbatan misli ko'rilmagan shafqatsizlik! Fahmlab qolmaganimda nima bo'lar edi?

– Ancha yo'l bosib qo'ygan bo'lar edim, – xotirjam javob berdi Frodo.

– Yo'l bosib qo'ygan bo'lar edingiz! Yolg'iz o'zingiz, mening yordamimsiz-a? – taajjublandi Sem. – Dosh bera olmas edim men bunga. Pichoqsiz so'yib ketgan bo'lar edingiz meni!

– Men bilan boradigan bo'lsang, pichoq ushlagan ajal



kutadi seni, dedi Frodo. -- Unda men dosh bera olmay qolaman ayriliqqa.

-- Mening azobim qiyin kechadi.

-- Hoy inson, tushunsang-chi, shunchaki tog' sayliga emas, Mordorga ketyapman, axir, men.

-- Buni yaxshi tushunib turibman, janob Frodo. Mordorga borishingiz kerak siz, albatta. Men esa yoningizda boraman.

-- Bo'ldi Sem, yo'limni to'sma! -- buyurdi Frodo. -- Qolganlar ham har qanday fursatda kelib qolishlari mumkin. Meni bu yerda ko'rishsa, ular bilan bahslashish, nimalarnidir tushuntirish kerak bo'ladi. Bunday imkon bo'lmaydi menda keyin. Zudlik bilan ketishim kerak. Mushkul vaziyatdan chiqishning yagona yo'li shu, men uchun.

-- To'ppa-to'g'ri. Faqat yolg'iz siz uchun emas, ikkalamiz uchun. Yo meni ham o'zingiz bilan olib ketasiz, yo hech qaysi birimiz ketmaymiz bu yerdan, -- shart qo'ydi Sem. -- Qayiq'larni bitta qo'ymay teshib chiqaman hozir.

Vujudida iliqlik bilan quvonch uyg'unlashgan Frodo kulib yubordi.

-- Bittasini butun qoldir, asqatib qoladi! -- dedi Frodo. -- Lekin narsalaring-u, yeguliksiz keta olmaysan.

-- Bir daqiqa kutib turing, hozir hammasini ko'tarib kelaman, -- yashnab ketdi Sem. -- Hammasi tayyor. Bugun yo'lga chiqishimizni bilar edim.

Qarorgohga yugurgan Sem qayiqdan tushirilgan narsalar orasidan o'zining yuk xaltasini, yegulik saqlangan bir nechta tugunni va qo'shimcha adyolni tortib chiqarib, darhol ortga qaytdi.

-- Shunday qilib, Sem, sendan qochib qutilish rejasi barbod bo'ldi! -- xulosa qildi Frodo. -- Lekin men bundan xursandman! Qanchalik xursand ekanligimni ifoda eta olmayman. Qani, ketdik! Ikkalamiz birga bo'lishimiz qismatga yozilgan ko'rinadi. Ketdik, qolganlarning ham yo'li oson bo'lsin. Musofir ularning g'amini yeydi. Do'stlarimiz bilan yana sog'salomat ko'rishishimizga ko'zim yetmaydi.

– Har narsa bo‘lishi mumkin, janob Frodo, har narsa.

Shunday qilib, Frodo bilan Sem qidiruvning so‘nggi bosqichini boshlashdi. Frodo qayiqni qirg‘oqdan turtgach, daryo ikkalasini Tol Brandirning xunuk qoyalari yonidan olib o‘tib, daryoning g‘arbiy tarmog‘iga tortib ketdi. Katta sharshara na‘rasi yaqinlashmoqda. Hatto Semning yordami bilan ham oqim orqali orolning janubiy qismiga o‘tib olib, qayiqni sharqqa, olis qirg‘oqqa yo‘naltirish qiyin kechdi.

Ikkalasi nihoyat Amon Lxavning janubiy etagidagi qirg‘oqqa yetishdi. Suvdan chiqarilgan qayiqni daryodan nariga tortib, katta toshlar orasiga yashirishdi. Shundan so‘ng, yukni yelkaga tashlab, Emin Muilning kulrang tepaliklari orqali Qora ko‘lanka hududiga eltadigan so‘qmoq qidirib ketishdi.

## MUNDARIJA

<i>SO'ZBOSHI</i> .....	3
<i>Muallif muqaddimasi</i> .....	7

### *BIRINCHI SOLNOMA: UZUKLAR BIRODARLIGI*

#### *MUQADDIMA*

Hobbitlar haqida .....	13
Trubka tamakisi haqida .....	25
Shir o'lkasi haqida .....	27
Uzukning topilishi haqida .....	31
Shirdagi tarixiy qaydlarga doir sharhlar .....	36

#### **BIRINCHI KITOB**

<b>I bob.</b> Uzoq kutilgan katta ziyofat .....	41
<b>II bob.</b> O'tmish ko'lankasi .....	75
<b>III bob.</b> Uch nafar hamroh .....	10
<b>IV bob.</b> Qo'ziqoringa borish yo'li .....	139
<b>V bob.</b> Fosh bo'lgan fitna .....	157
<b>VI bob.</b> Qadimiy o'rmon .....	173
<b>VII bob.</b> Tom Bombadilning uyida .....	191
<b>VIII bob.</b> Qo'rg'onlarga tushgan tuman .....	208
<b>IX bob.</b> «Javlon urar poni» .....	226
<b>X bob.</b> Musofir .....	244
<b>XI bob.</b> Zulmatda sanchilgan pichoq .....	263
<b>XII bob.</b> Kechuv tomon qochish .....	290

#### **IKKINCHI KITOB**

<b>I bob.</b> Talaygina uchrashuv .....	315
<b>II bob.</b> Elrond kengashi .....	339
<b>III bob.</b> Uzuk janubga yo'l oladi .....	391
<b>IV bob.</b> Zulmatdan o'tgan yo'l .....	423
<b>V bob.</b> Kazad-dum ko'prigi .....	459
<b>VI bob.</b> Lotloriyen .....	476
<b>VII bob.</b> Galadriel ko'zgusi .....	505
<b>VIII bob.</b> Loriyen bilan xayrlashuv .....	527
<b>IX bob.</b> Buyuk daryo .....	546
<b>X bob.</b> Birodarlikning parchalanishi .....	567

UZBEK ADABIYOTINING JAVOHLARI

Jon Ronald Ruel **TOLKIN**

## **UZUKLAR HUKMDORI**

*(sarguzish fantastik roman-epopeyi)*

*Birinchi sohaqma*

### **UZUKLAR BIRODARLIGI**

*(tushulgan Shekiz Dolaray tarjimasida)*

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Bosh muharrir:

Alisher **RAVSHANOV**

Badiiy muharrir:

Asaloy **ESHONQULOVA**

Musahhih:

Lolaxon **QO'ZIBOYEVA**

Kompyuterda sahifalovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

**DIQQAT!!!** «Uzuklar hukmdori» roman-epopeyasining o'zbek tilidagi ushbu tarjimasini yoki uning bir qismini nashrga tayyorlovchining maxsus (yozma) ruxsatisiz kitob holida yoki gazeta va jurnallarda chop etish, elektron ko'rinishida tarqatish, internetga joylashtirish, shuningdek, asarda keltilgan izoh va iqtiboslardan ijodiy foydalanish qat'iyan ta'qiqlanadi.

**Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 yilda berilgan.**

Bosishga 2019 yil 14.11 da ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog'i 37 Shartli bosma tobog'i 40

Garnitura "Times New Roman" offset qog'oz.


Adadi 2 000 nusxa. Buyurtma № 56

Bahosi kelishilgan narxda.

**"ADAD-PLYUS"** MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, "Bunyodkor" shoh ko'chasi 28-uy. 100097

20000



Araman

Halls of Manbos

Two Trees

Formenos

Alqualonbe

Cirion

Col Eressen

Lorien

Tanquetil


north



ISBN 978-9943-6033-0-1



9 789943 603301



Avachan